3. Мошково В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX начало XX.
4. Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов Узбекистана. Конец XIX и начало XXI (по коллекциям МАЭ и РЭМ)// Образы и знаки в традициях Южной и Юго-западной Азии. СПб.: МАЭ РАН 2015.
5. Этнография каракалпаков XIX начало XX века. Т.1980 г.
6. Наурызбаева.Н. Полевые записи. 2024. №1.Информатор; Алтынай Наубетова. Шуманайский район .
7. Есбергенов.Х, Хошниязов.Ж. Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре.Т.1988
8. Наурызбаева.Н. Полевые записи. 2023. №2.Информатор; Ганиева.У. Чимбайский район. Род; Биксийк.
9. Демидов.С. О пережитках верований связанных с водной стихией и рыболовством у туркмен. Трудф Институт а истории, археологии и этнографии. Т ВИИ. Ашхабад 1963
10. Уразимова.Т.В, Курбанова.З, Уразбаева.С.К. Қарақалпақ нағыслаў өнери. Н.2019
11. Жданко.Т.А «Очерки исторический этнографии каракалпаков».М.1958
12. Алламуратов.А. Каракалпакская народная вышивка.Н.1977
13. К.Э.Босворт. Мусульманские династии. М.1971
14. Камалов.С. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм оның мәмлекетлигиниң тарийхынан.Н.2001
15. Наурызбаева.Н. Полевые записи. 2024. №3.Информатор; Әбдимуратова.З. Нукус. Род; Қолдаўлы
16. Мелетинский.Е. Мифы нардов мира. М.1980
17. Клод Леви Стросс.Структурная антропология.М.1983
18. Узбекистон гиламдузлиги: асрларга тенгдош анъана.ХIV. Т.2020
19. Гюль.Э. Ковры Узбекистана история, эстетика, семантика.Т.2019

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

HISTORIOGRAPHY OF DUNGAN STUDIES (1990-2023)

Ortikov Yosin Abdulbokievich

Namangan State University, PhD, acting Associate Professor of the Department of Archeology.
E-mail: yosin-89@yandex.ru

Abstract. This article analyzes the historiography of Dungan studies, mainly history and partly Dungan linguistics, after the collapse of the Soviet Union. During this period, the countries where the Dungans live in Central Asia gained independence. China's intensification to strengthen its influence in the Central Asian region was noted. This led to increased interest among Chinese researchers in the Dungans (Hui) of the region as representatives of Chinese culture. In this regard, the analysis of Dungan studies of this period acquires special significance.

Key words: Dungan, huihui, hui, Dungan studies, Dungans of Central Asia, Dungans of Uzbekistan.

DUNGANSHUNOSLIK TADQIQOTLARI TARIXSHUNOSLIGI (1990-2023)

Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich

Namangan davlat universitet "Arxeologiya" kafedrasida dotsenti v.b., PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunganshunoshlik borasidagi asosan tarix va qisman dungan tilshunosligi bo'yicha Sovet Ittifoqining parchalanishidan keyingi tadqiqotlar tarixshunosligi tahlil qilindi. Mazkur davrda Markaziy Osiyodagi dunganlar istiqomat qilayotgan davlatlar mustaqillikka erishdi. Markaziy Osiyo mintaqasida o'z ta'sirini oshirish uchun Xitoyning faollashuvi sezildi. Bu esa xitoy madaniyati vakili sifatida mintaqada Dungan (hui)larga xitoylik tadqiqotchilar tomonidan qiziqishning ortishiga olib keldi. Shu jihatdan mazkur davr dunganshunoshlik tadqiqotlari tahlili alohida ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Dungan, huihui, hui, dunganshunoshlik, Markaziy Osiyo dunganlari, O'zbekiston dunganlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N02>

Kirish. Ko'pmillatli jamiyatlarda milliy tarkibni tashkil etuvchi turli diasporalarni tadqiq etish, ularning milliy va madaniy o'zligini saqlab qolishi hamda rivojlantirishi uchun munosib sharoitlarning yaratilishini hukumat miqyosida ta'minlanishi davlatning yuritayotgan milliy siyosatining samarali va natijador bo'lishini ta'minlaydigan eng asosiy omillardan biridir. Shu jihatdan olib qaraganda, Markaziy Osiyo mintaqasida XX asrning so'nggi o'n yilligida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar va yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi birmuncha murakkab jarayonlarning yuzaga kelishiga ham olib keldi.

"Sovet Ittifoqi"ning parchalanishi natijasida yangi yuzaga kelgan mustaqil davlatlarda mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida turli milliy va etnik nizolar ro'y berdi. Yuzaga kelgan mazkur jarayonlar ushbu yangi suveren davlatlarning kelajakdagi siyosatida milliy siyosatga alohida e'tibor qaratish lozimligini anglatib turardi. Shundan so'ng barcha respublikalarda turli milliy madaniy markazlar tashkil etilib, har bir millat vakillari tarixi va

madaniyati borasidagi tadqiqotlarga keng imkoniyatlar yaratildi. Shuning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasida ham bu borada jiddiy qadamlar tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning ham markazida joylashgan, milliy va etnik manzarasi juda rang-barang bo'lgan davlat sifatida o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslikka sababchi bo'lgan xalqlardan biri mintaqa aholisidan madaniyati, tili va antropologik qiyofasi jihatidan keskin farqlanuvchi Dungan millati vakillaridir. Ushbu millat vakillari Markaziy Osiyoning asosan uchta: Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston davlatida istiqomat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Markaziy Osiyo dunganlarini turli jihatdan tadqiq etish, o'rganish Rossiya imperiyasi davrida boshlangan bo'lsa, keyingi davrlarda ham izchil davom etib keldi. XX asrning oxiriga kelib esa bu boradagi izlanishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Boisi bir jihatdan "Sovet Ittifoqi"ning parchalanishi, ikkinchi tomondan esa Xitoyning global miqyosda siyosat doirasiga kirishi sababidan mintaqada o'zi uchun "qardosh" bo'lgan xalqni o'rganish va ulardan mazkur hududda ikki davlat o'rtasida "ko'prik" vazifasini o'taydigan vosita sifatida foydalanishga intilish omili bo'ldi. Shu jihatdan mazkur davrga oid bo'lgan dunganshunolik tadqiqotlarini o'rganish va ularni tahlil qilish bu borada asoslangan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Sobiq "Ittifoq" parchalangach, uning o'rnida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlar o'z ichki siyosatida milliy munosabatlarga juda ehtiyotkor munosabatni qaror toptirishga intildi. Chunki, sovetlarning ko'chirish va surgun kabi siyosati SSRI (Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi) tarkibidagi deyarli barcha respublikalarni ko'p millatli jamiyatlarga aylantirgan edi.

Milliy respublikalar tarkibidagi diasporalarga teng imkoniyat yaratish, ularning o'zligini saqlash va madaniyatini rivojlantirish bo'yicha davlat miqyosida chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ayni maqsaddagi milliy-madaniy markazlar qaror topdi. Shuning uchun, ularni turli jihatlardan o'rganish bo'yicha bir qator ijtimoiy soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu esa mazkur izlanishlar doirasida ham salmoqli tadqiqotlarning yuzaga kelishida asosiy omil vazifasini o'tadi.

Bundan tashqari, mintaqada Xitoy manfaatlarining ortib borishi ular uchun qardosh bo'lgan dungan millatini tadqiq etish va ular vositachiligida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga intilishi ham Xitoy olimlari tomonidan ushbu yo'nalishni kengaytirilishiga olib keldi.

Muhokama. O'zbek olimlaridan M. D. Savurov va M. M. Savurov [21], A. Xo'jayev [24], T. Xolmurodov [22] hamda Sh. G'afforovlarning tadqiqotlari [9] esa bevosita O'zbekiston dunganlari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analari bo'yicha olib borildi. Biroq, asosiy izlanishlarda mahalliy dunganlarning etnomadaniy o'zligini anglash masalalari tadqiqot maqsadi qilib olinmagan va bu borada ilmiy ishlar bajarilmagan. Hozirgi kunda dunganlarning madaniy hayoti, etnomadaniy identikligi va undagi o'zgarishlarni tadqiq etish orqali jamiyatning muvozanatini saqlash, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash hamda xalqlar do'stligini ta'minlash mumkin.

Bundan tashqari, qirg'izistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham dunganshunolik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytdi. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyoning yosh respublikalari ijtimoiy hayotida millatlararo tinchlik va totuvlikni ta'minlash, ularning o'z madaniyati, tili va urf-odat, an'analarni saqlashi va rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi bunga turtki bo'ldi. Natijada, dungan tili va tilshunosligi bo'yicha tadqiqotlar yana qaytadan jonlandi. Bu kabi tadqiqotlarga M. Imazovning dungan tili grammatikasi va

adabiyoti haqidagi maqolalari [12], X. Bugazov hamda R. Do‘vazilar hammuallifligida yozilgan boshlang‘ich sinflar alifbe kitobi [8] dungan yoshlarini o‘z ona tilida o‘qishi va ta‘lim olishida muhim omil bo‘ldi.

Dungan tilshunos olimi sifatida tanilgan M. Jumaze [11] o‘zining dungan orfografiyasining nazariy asoslariga bag‘ishlangan tadqiqoti bilan dungan tili va uning rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Ushbu tadqiqotda dungan orfografiyasi rus tili orfografiyasi bilan qiyosiy tarzda o‘rganilgan. Dungan tili qoidalarini ishlab chiqilishi va shakllanishida rus olimlarining o‘rnini e‘tirof etgan holda, uni ikki til o‘rtasidagi orfografik o‘xshashliklarning asosiy sabablaridan biri sifatida baholash mumkin [11:6].

Dunganlar tarixi va etnografiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan D. Madjun o‘z tadqiqotlarida [15] 1916 yilda Yettisuvda bo‘lgan qo‘zg‘olonlar hamda unda dunganlarning ishtiroki, dungan tili va madaniyati, shuningdek, ta‘limi masalalariga o‘z e‘tiborini qaratadi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganidan keyingi vaqtdagi dunganlarning diniy bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan harakatini “katta uyg‘onish”, deb ataydi [16].

Qirg‘izistonlik taniqli dunganshunos A. Djon esa zamonaviy dungan tarixi va madaniyati, dungan oilasi, urf-odat va an‘analari, dungan identikligi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot natijalarini e‘lon qilgan [10].

Dungan olimlaridan M. Mashanlo [17], R. Yusupov [27], A. Kadirbayev [13], A. Alimova [6] va A. Ormonovalarning tadqiqotlari [19] ham zamonaviy dunganshunoslik ilmining rivojlanishi va kengayishiga zamin yaratib bermoqda.

Shu o‘rinda qayd etish o‘rinliki, so‘nggi 20 yillikda asosan, dungan olimlari tomonidan nashr etilayotgan ayrim ilmiy adabiyotlarda [26] “diaspora” atamasini “dungan” nomi bilan bir qatorda “xueytszu” deb atash holati ko‘zga tashlanmoqda.

Qozog‘istonlik olimlar A. K. Kamalov va Z. S. Imyarova [14], Sovet Itifoqidan keyingi dungan diasporasining o‘zgarishi, A. Muqanova [18] esa Q. Xalidning “Sharqning besh eli tarixi” asari tahlili asosida dunganlar tarixi hamda etnografiyasini yoritishga harakat qilgan.

2001 yilda Qozog‘iston mustaqilligining 10 yilligi munosabati bilan Olma-Otada dungan tili va adabiyoti rivojlanishining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi hamda unga doir anjuman materiallari chop etildi [5]. Mazkur to‘plam va unda chop etilgan tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo respublikalari mustaqilligidan keyingi keng ko‘lamli dunganshunoslik ishlarining natijasi bo‘ldi. Unda Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Xitoy va Rossiyaning bir qator dunganshunos olimlari ishtirok etdi.

Rus olimlaridan A. Xoxlov [23], G. Sheyshekeyeva [25], V. Barmin [7] va Di Ouleylarning tadqiqotlari [20] ham dunganlar tarixi hamda madaniyatini o‘rganishga qo‘shgan hissasini alohida ta‘kidlash kerak. G. Sheyshekeyevaning 1931–1935 yillardagi Sharqiy Turkistonda Xitoy hukumatiga qarshi bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon va unda sovetlarning o‘rni masalalariga bag‘ishlangan maqolasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Chunki, O‘zbekistonga dunganlarning ko‘chib o‘tishida eng asosiy bosqich bo‘lgan 1935–1936 yillardagi voqealarning sabablari aynan ushbu maqolada aks etgan.

Dunganshunoslik bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda xitoylik olimlarning ishlarini alohida ta‘kidlash kerak bo‘ladi. Chunki, Xitoyda dunganshunoslik ishlari nisbatan kech boshlangan bo‘lsa-da, uning bugungi kundagi rivoji ancha tez kechmoqda. Xitoy dunganshunoslari tadqiqotlarini tahlil qilib, ularni asosan to‘rtta guruhga bo‘lish mumkin:

1) *dungan millati tarixiga oid tadqiqotlar;*

2) *dungan madaniyatini o'rganish;*

3) *dungan tilini o'rganish;*

4) *dungan adabiyotini o'rganish.*

Jumladan, xitoylik olim Liu Chjenning tadqiqotlari dungan tilini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u o'z tadqiqotida xitoy tilida iste'moldan chiqib ketgan so'zlarni o'rganish mumkinligi haqidagi xulosalarini bergan edi [30].

Markaziy Osiyo dunganlari tarixini o'rganish bo'yicha xitoylik olim Ding Xong o'zining xulosasiga ko'ra, ushbu etnoslar mahalliy turkiy aholi bilan uzoq yillik birgalikdagi hayot natijasida yangicha madaniy qiyofa kasb etgan [28]. Shu bilan birga, ushbu olim XX asrning 50–60 yillarida Qozog'iston va Qirg'izistonda dungan tadqiqotlari markazlarining tashkil etilganligini Markaziy Osiyo dunganlari hayotida tub burilish bo'lganligini qayd etdi. Shuningdek, mazkur markazlarda olib borilgan dunganlar tarixi va madaniyati bo'yicha erishilgan yutuqlar ushbu etnoslarning o'zligini saqlash hamda davom ettirishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi. Biroq, uning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo dunganlari haqida umumiy ma'lumot va xulosalar berilgan bo'lib, O'zbekiston dunganlari masalasiga alohida to'xtalib o'tilmagan.

Xitoylik tadqiqotchilardan yana biri Xayfen dungan tilidagi o'zlashma so'zlarni tadqiq etib, ularning ro'yxatini va o'zlashish sabablari haqida o'zining fikrlarini bildiradi [41]. O'rta Osiyo dunganlari tili, uning o'ziga xos xususiyatlari, shakllanish bosqichlari va kelajagi borasida o'zining keng tadqiqotlarini olib borgan. Uning xulosasiga ko'ra, dungan tili XX asr oxiri – XXI asr boshlari va so'nggi yillarda dungan xalqi hamda Xitoy o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy almashinuvlarning tobora ko'payib borishi natijasida asl xitoy tiliga yaqinlashdi. Demak, ushbu yaqinlashuv jarayoni mazkur tilning o'zlashma so'zlardan xalos bo'lishiga ko'mak bo'lishi mumkin.

Xayfenning izlanishlari dungan tili borasida tilshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiqotlar olib borgan bo'lib, identiklik va etnomadaniy o'ziga xoslikni saqlashda tilning o'rni masalalari, shuningdek, Markaziy Osiyo dunganlari tilining hududiy xususiyatlariga to'xtalinmagan. Shunday bo'lsa-da, Xayfenning O'rta Osiyodagi dunganlar tilini o'rganishga bag'ishlangan monografiyasi dungan tilshunosligi bo'yicha Xitoyda nashr etilgan birinchi nashrdir [42].

Xitoylik tilshunoslar Lin Dao dungan tili, uning o'zgarishlari, tarkibiy tuzilishi, grammatikasi va dunganlar tarixi [39], Xu Chjenxua dungan tilini o'qitish, Markaziy Osiyo dunganshunosligi [42], Liyu Li Li dungan tilining qiyosiy tahlili, dungan tilining hududiy xususiyatlari [29], Chang Venchan dungan tilidagi kitoblar tarjimasini, folklori, dungan alifbosining yutuq va kamchiliklari, adabiy tanqid [32], musiqashunos Chjao Tarim [46], tarixchilar Ding Yuan [38], Xe Kan [31], Di Yondjun [47] Markaziy Osiyo dungan madaniyati Xitoyda unutilgan ko'plab madaniy ko'rinishlarini saqlab qolganligi va uning sabablari, Gao Mey [49] identiklikda tilning o'rni haqidagi ma'lumotlari hamda o'zining fikrlarini bayon etadi. Mazkur tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari keng ko'lamdaligi va turfa mavzularni qamrab olgan bo'lsa-da, O'zbekiston dunganlari biror-bir tadqiqotchi tomonidan tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Ularning asosiy e'tibori dunganlar nisbatan ko'p yashaydigan Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalariga qaratiladi.


Xitoylik tarixchi olimlardan Li Chjenfenning "Ijtimoiy muhitning milliy xususiyatlarga ta'siri (Markaziy Osiyo dunganlari misolida)" [34] nomli maqolasi Markaziy Osiyo dunganlari borasida qimmatli va o'z o'rnida bahsli fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Uning fikriga ko'ra,

“Markaziy Osiyo dunganlari Xitoyning xuey millatidan boshqa millat bo‘lib shakllanib bo‘lgan” [35:91]. Shu bilan birga, aynan Li Jengfengning tadqiqotlari Markaziy Osiyo dunganlari madaniyatidagi o‘zgarishlar jarayonini kuzatish imkonini beradi.

Vu Yulin [40] dunganlar bilan birga Markaziy Osiyoga ko‘chib ketgan va bugungi kunga qadar ayrim dunganlar og‘zaki ijodida saqlanib qolgan “Xuaer” qo‘shig‘i, Chang Lini [33] esa dungan adabiyoti va islom madaniyati o‘rtasidagi munosabat, shu bilan birga, dungan adabiyotiga xitoy madaniyatining ta‘siri haqida o‘z xulosalarini beradi. Ushbu muallifning Xitoyda dunganshunoslik bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili ayniqsa qimmatlidir. U dunganshunoslikka oid tadqiqotlarni tarix, madaniyat, til va adabiyot kabi to‘rt guruhga bo‘lib tahlil qiladi. Go Maotsyuan [48] esa dungan adabiyotining yorqin vakili Ali Albuduning “Bir yo‘lkali ko‘prik” romani tahlili bo‘yicha dunganlar hayotiga oid qiziqarli fikrlarini beradi. Yan Szyanszyunning tadqiqotlarida [37] esa dungan adabiyotida islomning aks etishini, Van Yachen [45] dungan adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari borasida, Li Xay [36] esa xitoy va dungan adabiyotining o‘xshash va farqli jihatlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini e‘lon qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilardan yaponiyalik Xiromi Kanno [44] va Henz Ridlinger [4] dungan tili hamda uning bugungi kundagi taraqqiyoti omillari, shuningdek, zamonaviy xitoy tilini qiyosiy o‘rganadi. H. Ridlingerning tadqiqotlari dunganlar mavzusida G‘arbda amalga oshirilgan sanoqli tadqiqotlardan biri sanaladi. Bundan tashqari, Elizabet Alles [1], Soledad Ximenez Tovar [3] va Emil Kok-Xeng [2] kabi tadqiqotchilarning dungan diasporasi, identikligiga oid ishlarini ham misol sifatida keltirish mumkin.

Natijalar. Mustaqillik yillarida mavzu doirasidagi tadqiqotlarning sezilarli qismi xitoylik olimlar hissasiga to‘g‘ri kelayotganligi, mualliflar va tadqiqotlarning ulushi jihatidan ham ular boshqa hudud olimlaridan katta farqlanib turganini ko‘rish mumkin (1-rasm).




1-rasm. Mustaqillik yillarida dunganshunoslikka oid tadqiqotlar soni hududlar kesimida.

Muammoviy nuqtai nazardan barcha dunganshunoslik tadqiqotlarini tahlili orqali shuni ta‘kidlash mumkinki, ushbu ilmiy izlanishlarning aksariyat qismi dungan tili, alifbosi va uni o‘rganishga qaratilgan. Til masalasi ko‘rib chiqilgan to‘rt davrda ham e‘tibordan chetda qolmagan. O‘zlikni anglashda tilning o‘rni yuqori bo‘lganligi uchun ham dungan tilini tadqiq etish, o‘rganish va taraqqiy ettirish soha mutaxassislarining doimiy diqqat markazida bo‘ldi.

Bundan tashqari, dungan tili XIX asrning so'nggi choragida Markaziy Osiyo xalqlari uchun mutlaqo yangi til bo'lgan bo'lsa, Sovetlar davrida dungan tili bo'yicha tadqiqotlar mazkur davrdagi izlanishlarning eng asosiy mavzusi bo'ldi.

Sovet ittifoqining parchalanishi bilan har bir xalq o'z etnik-milliy madaniyatini asrash, milliy va diniy qadriyatlarini e'zozlash, ularni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratdi. Buning nishonasi ushbu davrdagi tadqiqotlarda milliylik, o'zlikni anglash va identiklik masalalarining ko'p tadqiq etilayotganligida ham ko'rinadi (2-rasm).



2-rasm. Dunganshunoslilik tadqiqotlarining davrlar kesimida muammoviy jihatdan taqsimlanishi

Xulosa. Xullas, mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud manba va adabiyotlarda O'zbekiston dunganlarining etnik tarixi, urf-odatlarini, an'ana va marosimlari, til hamda din masalalari haqida ko'plab tarixiy va etnografik ma'lumotlar jamlangan bo'lsa-da, amalda O'zbekiston dunganlarining zamonaviy hayoti, madaniyatdagi o'zgarishlar hamda etnomadaniy identikligi masalalari maxsus o'rganilmadi.

Markaziy Osiyo dunganlarining asosiy qismi Qirg'iziston va Qozog'istonda yashaganligi sababli ko'plab tadqiqotlarda O'zbekiston dunganlari e'tibordan chetda qoldi. Keltirilgan ma'lumotlar ham umumiy xulosalar bilan cheklandi.

Diasporaning mohiyati borasidagi fikrlarni umumlashtirib, O'zbekiston dunganlari to'la ma'noda diaspora bo'la olishligini aytish mumkin. Bundan tashqari har bir diaspora o'ziga yuklatilgan eng asosiy vazifalarini bajargandagina yashashda davom etadi. O'zbekiston dunganlari diasporasi ham etnomadaniy o'zlikni anglash vazifasini yaxshi bajarmoqda. Shuning uchun diaspora a'zolari kam ekanligiga qaramay bir yarim asrdan beri o'zligini saqlab kelmoqda.

Turli tarixiy davrlarda olib borilgan tadqiqotlarga o'rganilayotgan hududdagi ijtimoiy va siyosiy voqealar jiddiy ta'sir o'tkazgan. Xususan, Rossiya imperiyasi davri tadqiqotlari, dungan isyoni, ularning ko'chish sabablari va tarixi masalalariga bag'ishlangan bo'lsa, keyingi davrda dungan madaniyati, ayniqsa tili va yozuvini o'rganish tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'ldi. XX asrning 50-yillaridan keyin ayrim hududlarda dunganshunoslilik tadqiqotlari markazlarining ochilishi bilan, mavzu doirasida tizimli tadqiqotlarni yuzaga keltirdi.

Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan dunganlar istiqomat qiladigan Markaziy Osiyoning har uchala respublikasida tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Shuningdek, xitoylik olimlar tomonidan Markaziy Osiyo dunganlari bo'yicha ilmiy izlanishlar soni keskin ortdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Allès Elisabeth. The Chinese-speaking Muslims (Dungans) of Central Asia: A Case of Multiple Identities in a Changing Context // Asian Ethnicity. – 2005. – Volume 6. – №2. – Pp. 121–134.
2. Emile Kok-Kheng Yeoh. From Dungans to Xinyimin: China, Chinese Migration and the Changing Sociopolitical Fabric of Central Asian Republics // Contemporary Chinese Political Economy and Strategic Relations: An International Journal. – 2015. – Vol. 1. – №2. – Pp. 187–245.
3. Jiménez Tovar S. Cultural adaptation of Dungan migrant communities in the multi-ethnic context of Kazakhstan // CASCA: Centre for Anthropological Studies on Central Asia. Max Planck Institute for Social Anthropology. – 2013. – Pp. 93–99; O'sha muallif. Eating and Body Practices Among Contemporary Dungans in Kazakhstan // Food and Identity in Central Asia. – 2017. – Pp. 61–70; O'sha muallif. Estudios sobre Dunganos en Asia Central // Cultura y representaciones sociales. Universidad Nacional Autonoma de Mexico. Instituto de Investigaciones Sociales. – 2005. – Vol. 6. Issue 11. – Pp. 225–232; O'sha muallif. Los musulmanes sinofonos de Kazajistan y la micropolitica de las identidades "china" y "musulmana" // Ruta Antropologica. – 2005. – Vol. 4. Iss. 6. – Pp. 100–125; O'sha muallif. Limits of diaspority in Central Asia: contextualizing Dungan's multiple belongings // Central Asian Survey. – 2006. – Vol. 35. Iss. 3. – Pp. 387–404.
4. Riedlinger H. Suprasegmentale Strukturen der chinesischen und dunganischen Sdandartspache // Orientierungen. – Bonn, 2002. – №2. – S. 79–100.
5. Актуальные проблемы развития дунганского языка и литературы / Материалы Международной научно-практической конференции. – Алматы: Эверо, 2001. – 163 с.
6. Алымова А. Культура и быт народов Центральной Азии в материалах экспедиции К. Г. Маннергейма. Дисс... на соис. уч. степ. кан. ист. наук. – Бишкек, 2015. – 181 с.
7. Бармин В. А. Нераскрытые тайны дунганского «Бонапарта» (о роли советского фактора в судьбе руководителя повстанческого движения коренных народов Синьцзяна 1931–1934 гг. Ма Чжунъяна) // Известия Алтайского государственного университета. – 2012. – №4 (76). – С. 27–35.
8. Бугазов Х., Дўвазы Б. Шызыкуэ (дун. яз). – Бишкек: КЫРГЫЗСТАН, 1996. – 120 с.
9. Гаффоров Ш. Уйғурлар ва дунганларнинг Туркистонга кўчирилиши тарихидан // Жамият ва бошқарув. – 2002. – №4. – Б. 45–47.
10. Джон А. А. Беловодское восстание 1918 года в устных рассказах дунган / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути:.... – С. 120–140; O'sha muallif. Семья и генезис обычаев и обрядов дунган... – С. 176–182; O'sha muallif. Обычаи, обряды и поверья Дунган Кыргызстана и Казахстана. – Бишкек: Илим, 2007. – 99 с.; O'sha muallif. Изменения в антропонимии "дунган (хуэйцзу)" как маркер идентичности / Секция 1. Китай: культура, язык, религия, традиции. – 2016. – С. 63–70; O'sha muallif. Некоторые аспекты этнической и национальной идентичности "дунган (хуэйцзу)"

- Кыргызстана // Acta Orientalia Voronensiya. Воронежское востоковедение:.... – С. 118–130.
11. Джумазе М. Теоретические основы дунганской орфографии (в сопоставлении с орфографией русского языка). Автореф. дисс. на соис. уч. степ. кан. фил. наук. – Бишкек: 1996. – 27 с.
 12. Имазов М. Грамматика дунганского языка / Отв. ред. Х. Бугазов. – Бишкек: Илим, 1993. – 216 с.; O'sha muallif. Начало Шелкового пути / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути: Сб. научн. ст.: Вып. IV. – Бишкек: Илим, 2006. – С. 7–11; O'sha muallif. Восприятие поэзии Ясыра Шиваза в Китае / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути.... – С. 36–48; O'sha muallif. Роль Магаза Масанчи в подготовке первых кадров дунганской интеллигенции (к 120-летию военного и общественного деятеля) / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути.... – С. 150–155; O'sha muallif. Первое востокаведное учреждение в Кыргызстане // Acta Orientalia Voronensiya. Воронежское востоковедение: сборник статей / Науч. ред. М. В. Кирчанов. – Воронеж: Издательский дом ВГУ, 2016. – Вып. 1. – С. 112–117.
 13. Кадырбаев А. Ренесанс ирано-арабской мусульманской культуры в Китае под властью монголов и этногенез хуэй и дунган XIII–XIV вв. // Иран-наме. – 2007. – №3. – С. 54–71.
 14. Камалов А. К., Имярова З. С. Қазақстан дунгендері. – Астана: 2016. – 156 б.
 15. Маджун Д. С. Куьтурное сторительство дунган Кыргызстана. Автореф. кан.ист.наук. – Бишкек, 1992; O'sha muallif. Система религиозного обучения у средниазиатских дунган / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути:.... – С. 140–150; O'sha muallif. Роль государства в сохранении и развитии дунганского языка / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути:..... – С. 155–168; O'sha muallif. Влияние внешних сил на ход восстания в Семиречье в 1916 г. // Вестник Томского государственного университета. История. – Томск: – 2016. – №3 (41). – С. 35–43; O'sha muallif. Опиумный фактор в трагических событиях 1916 г. в Семиречье // Acta Orientalia Voronensiya. Воронежское востоковедение: сборник статей / Науч. ред. М. В. Кирчанов. – Воронеж: Издательский дом ВГУ, 2016. – Вып. 1. – С. 63–78; O'sha muallif. Трагические последствия восстания 1916 г. для России и народов Семиречья // Изв. Саратов. ун-та. Нов. сер. Сер. История. Международные отношения. – Саратов, 2016. Т. 16. – Вып. 4. – С. 404–410; O'sha muallif. Исламское образование у дунган Киргизстана и Казахстана: прошлое и настоящее // Ислам и современном мире. – Москва: 2017. Том 13. – №1. – С. 39–56; O'sha muallif. Внедрение культуры опиумного мака и его влияние на трагические события 1916 года в Семиречье // Вестник НГУ. Серия: История, филология. – 2017. Том 16. – №1: История. – С. 102–110.
 16. Маджун Д. С. Система религиозного обучения у средниазиатских дунган.... – С. 146.
 17. Машанло М. Шеньсийские дунгане в Кыргызстане и Казахстане / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути:.... – С. 163–176.
 18. Мұқанова А. Құрбанғали Халидтің «Тауарих-и хамса-йи шарқи» («Шығыстың бес елінің тарихы») еңбегіндегі дунгендердің тарихы мен этнографиясы жәнінде // Вестник итории. – 2005. – №2 (38). – С. 14–17.

19. Ормонова А. Т. Из истории борьбы дунганского народа на укрепление советской власти в годы гражданской войны // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. – Фрунзе, 2016. – №11. – С. 113–116.
20. Оулэй Ди. История народности дунган в Китае: к вопросу о интеграции и самоидентификации культур / Фундаментальные и прикладные научные исследования. XXIX International scientific conference, 2020. – С. 257–260.
21. Савуров М. Д., Савуров М. М. Дунганская семья: прошлое и настоящее / Изд. 2-е. доп. – Ташкент: 2015. – 207 с.; O'sha mualliflar: Современные этнические процессы у национальных групп Узбекистана. – Ташкент: Национальная библиотека Узбекистана им. А. Навои, 2016. – 188 с.; O'sha mualliflar: Из этнографии дунган Центральной Азии. – Ташкент: Национальная библиотека Узбекистана им. А. Навои, 2018. – 204 с.; O'sha mualliflar: Ономастика дунган Центральной Азии. – Ташкент: Национальная библиотека Узбекистана им. А. Навои, 2018. – 176 с.; O'sha mualliflar: Народные игры, состязания и развлечения дунган. – Ташкент: Bakrtia press, 2019. – 160 с.
22. Холмуродов Т. Дунганлар этномаданияти // Тафаккур. – 2013. – №3. – Б. 123–124.
23. Хохлов А. Н. Дунганское восстание в Китае 1860–1870-х годов и поездка академика В. П. Васильева в Кульджу в 1890 году // Восточный архив. – 2013. – №2 (28). – С. 7–19.
24. Хўжаев А. Хитойда ислом дини, мусулмонларнинг ҳозирги аҳволи ва уларни ўрганиш масалалари / Ислом ва хорижий Шарқ. – Тошкент: 1992. – Б. 40–42; O'sha muallif. Тунгонлар // Шарқшунослик. – 1995. – №6. – Б. 135–139; Ўша муаллиф. Тунгонлар // Турон тарихи. 2002. – Б. 9–14; O'sha muallif. Хитойдаги мусулмонлар // Сирли Олам. – 2002. – №11–12. – Б. 18–19; O'sha muallif. Хитойдаги мусулмонлар // Сирли Олам. – 2003. – №1. – Б. 8–9; O'sha muallif. Ўрта асрлардаги Хитойда ислом цивилизациясининг ривожланишига ўзбекистонликлар аждодларининг қўшган ҳиссаси / Сборник тезисов и докладов международной конференции. – Ташкент-Самарканд: 2007. – Б. 423–424; O'sha muallif. Этнические связи дунган и узбеков в средних веках / “Ўзбекистон Конституцияси – буюк келажакимиз кафолати” мавзусидаги конференция материаллари. – Ташкент: 2009. – С. 302–308.
25. Шейшекеева Г. М. Религиозная и этническая обстановка в Кыргызстане в конце XIX века // Известия НАН КР. – 2014. – №1. – С. 94–98.
26. Шисыр И. О необычных глупцах в фольклоре хуэйцзу (дунган) Центральной Азии // Известия НАН КР. – 2013. – №2. – С. 94–97.
27. Юсупов Р. Изучение дунганской культуры и истории зарубежными учёными / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути:.... – С. 182–196; O'sha muallif. Зарубежные этнические китайцы и их роль в развитии экономики КНР / Диалог учёных на Великом Шёлковом пути:.... – С. 196–210.
28. 丁宏. 东干学与东干学研究 // 回族研究1998年 第 2 期, 总第 30 期. 第50-57页; O'sha muallif. 试论东干人语言使用特点—兼论东干语与东干文化传承 // 《民族研究》1998 年第4 期. 第40-48页; O'sha muallif 东干文与东干语 // 西北民族研究1999年第2期(

- 总第25期). 第166-178页; O'sha muallif. 从跨文化比较角度谈东干学研究的价值 // 《世界民族》2001年第4期. 第46-52页.
29. 刘'俐 李. 同源异境三方言声调比较 // 语言研究. 2003年6月. 第23卷第2期. 第104-109页; O'sha muallif. 同源异境三方言核心词和特征词比较 // 语言研究. 2009年4月. 第29卷第2期. 第81-89页.
30. 刘桢. 对回族语言的探讨 // 内蒙古社会科学, 1991年第1期. 第48-50页.
31. 和侃. 近年来我国东干学研究综述 // 回族研究. 2003年第4期(总第52期). 第63-66页.
32. 常文昌. 试谈东干文学的翻译 // 西北民族大学学报(哲学社会科学版). 中国民族学类核心期刊. 2005年第6期. 第101-104页; O'sha muallif. 中亚文化语境中的东干口歌口溜 // 西北师大学报(社会科学版). 2006年1月第43卷第1期. 第113-117页; O'sha muallif. 东干语言研究专栏 // 天水师范学院学报. 2008年11月第28卷第6期. 第101-103页; O'sha muallif. 十四儿的创作与东干文化资源 // 广东社会科学. 2008年第5期. 第138-144页; O'sha muallif. 中亚东干文学之定位及研究趋势 // 兰州大学学报社会科学版 第37 今布 3期/2009年5月. 第52-58页; O'sha muallif. 试论东干文学批评的形态 // 宁夏大学学报(人文社会科学版). 2009年3月第31卷第2期. 第62-68页; O'sha muallif. 亚斯尔-十娃子的创作个性与文化资源 // 中央民族大学学报(哲学社会科学版). 2009年第2期. 第36卷(总第183期). 第126-131页; O'sha muallif. 东干文学中的乡庄世界及其文化意蕴探析 // 北方民族大学学报(哲学社会科学版). 2010年第4期. 总第94期. 第60-65页; O'sha muallif. 试论中亚东干文学的研究价值 // 井冈山大学学报(社会科学版). 2010年3月. 第31卷第2期. 第87-91页; O'sha muallif. 俄风东渐—中国汉字拉丁化的由来与得失 // 天水师范学院学报 2008年11月第28卷第6期. 第102页.
33. 常立霓. 东干文学与伊斯兰文化 // 北方民族大学学报(哲学社会科学版). 2010年第4期总第94期. 第77-81页; O'sha muallif. 中国“东干学”研究述评 // 中央民族大学学报(哲学社会科学版). 2008年第4期第35卷(总第179期)第90-92页; O'sha muallif. 中亚东干文学中的韩信何以成为“共名”—中国文化在中亚的传承与变异之一例 // 华文文学 2010.3. (总第98期). 第17-20页. O'sha muallif. 东干文学与中国现代文学的契合点 // 暨南学报(哲学社会科学版). 2012年第4期. 总第159期. 第69-75页.
34. 李桢峰, 李全玲. 社会环境对民族特征的影响—以中亚东干人为例 // 新疆大学学报(哲学·人文社会科学版) 2006年1月第34卷第1期. 第91-93页.

35. 李桢峰, 李全玲. 社会环境对民族特征的影响—以中亚东干人为例//新疆大学学报(哲学·人文社会科学版) 2006 年1月 第34卷第1期. 第91页.
36. 李海. 东干小说对中国文化的传承与变异—《惊恐》与“刘幽求故事”之比较//宁夏大学学报(人文社会科学版). 2011年7月. 第33卷第4期. 第96-99页.
37. 杨建军. 世界华裔文学中的伊斯兰文化带 //兰州大学学报(社会科学版) 第37卷3期 /2009年5月. 第59-65页.
38. 林涛, 丁原. 中亚东干族考察纪行 // 西北第二民族学院学报. 2002 年第4期 总第56期. 第68-70页.
39. 林涛. 东干语在多民族语言接触中的变异现象 // 西北第二民族学院学报. 2003 年第4期 总第60期. 第82-84页; O'sha muallif. 丁原. 中亚东干族考察纪行//西北第二民族学院学报 . 2002 年第4期. 总第56期. 第68-70页; O'sha muallif. 中亚东干语研究 // 西北第二民族学院学术文库. 香港教育出版社. 2003. 第322页; O'sha muallif. 东干族口歌里的民俗事象 // 西北第二民族学院学报. 2004 年第4期 总第64期. 第127-130页; O'sha muallif. 东干文—汉语拼音文字的成功尝试 // 西北第二民族学院学报. 2005年第4期总第68期. 第31-36页.
40. 武宇林. 中亚回族与口传民歌“花儿”———吉尔吉斯斯坦中亚回族民俗文化考察 // 回族研究. 2007年第4期(总第68期) 第59-63页.
41. 海峰. 试析中亚东干语中的借词E // 新疆大学学报(社会科学版). 2000 年9月. 第28卷第3期. 第58-64页; O'sha muallif. 东干语研究概况 //语言与翻译(汉文) 2002 年第3期(总第71期); O'sha muallif. 中亚东干双语国际研讨会综述 / 回族研究. 2003 年第4期(总第52期); O'sha muallif. 中亚东干族的双语化进程及其民族语言观的形成 // 新疆大学学报(社会科学版) 2004 年3月. 第32卷第1期. 第135-138页; O'sha muallif. 论东干语的发展 // 新疆大学学报(哲学·人文社会科学版). 2005 年5月. 第33卷第3期. 第139-140页; O'sha muallif. 中亚东干语的语言学价值 //新疆大学学报(哲学·人文社会科学版). 2006 年5月. 第34卷第3期; O'sha muallif. 中亚东干语是汉语西北方言的域外变体 //语言与翻译(汉文) 2007 年第2期(总第90期) 第38-41页; O'sha muallif. 东干语教学 // 东干语教学2009 年8月第4期第106-110页; O'sha muallif. 同类型文体东干书面语与普通话书面语差异分析 // 新疆大学学报(哲学·人文社会科学版) 2011年9月第39卷第5期 第142-145页.
42. 胡振华. 吉尔吉斯斯坦共和国的东干语及汉语教学研究 //语言与翻译汉文的 2000 年第4期 总第64期 第11-14页; O'sha muallif. 关于“东干”、“东干语”、“东干人的双语”和“东干学

- ” //语言与翻译(汉文) 2004 年第 1 期(总第 77 期) 第12-14页; O'sha muallif. 《中亚东干语言研究》序 //语言与翻译(汉文) 2005 年第 1 期(总第 81 期) 第12-13页.
43. 胡振华. 《中亚东干语言研究》序//语言与翻译(汉文)2005年第1期(总第 81 期).12页.
44. 菅野 裕臣. 最近のドゥンガン研究の概況——特にソ連崩壊後の言語学研究について—— //中央アジア研究動向. 日本中央アジア学会報 2013. 第 9 号. Pp. 57-67.
45. 萬亚城. 开拓世界华语文学的新大陆—评常文昌《世界华语文学的“新大陆—东干文学论纲》 // 民族文学研究·2011年3期. 第174-176页.
46. 赵塔里木. 中亚东干人关于民歌的概念和分类法 (上) //中央音乐学院学报 (季刊) 2001 年第 1 期. 第47-52页; O'sha muallif. 中亚东干人关于民歌的概念和分类法 (下) //中央音乐学院学报 (季刊) 2001 年第 2 期. 第34-40页; O'sha muallif. 中亚东干民歌的传承方式 //中央音乐学院学报 (季刊) 2003年 3 月 第 1 期. 第28-37页.
47. 邱永君. 你知道东干人吗 //民族之林. 科百科知识. 2006 年第9期. 第57-58页.
48. 郭茂全. 东干小说家阿尔里·阿尔布都《独木桥》语言风格解析 // 兰州交通大学学报. 2008 年10月. 第27卷第5期. 第72-75页.
- 高梅. 语言与民族认同 //满族研究. 2006 年第 4 期. 第47-51页.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

EDUCATION SYSTEM IN THE LOWER AND MIDDLE ZARAFSHON OASIS DURING THE SOVIET AUTHORITY

Bobojonova Feruza Khayatovna

Associate Professor of Bukhara State University, Candidate of History

bobojonova.feruza.71@mail.ru

Abstract. The article mentions several decisions made about schools. Primary and secondary schools in Bukhara are analyzed by years. The issues of reform in school education are comprehensively covered. This article describes the efforts made to develop public education in Bukhara in 1925-1960. This article provides opinions on the state of the public education system in the Bukhara region during the Soviet period.

Key words: former Soviet power, public education system, teacher, Soviet school, F. Khojaev, education, student, teacher, class, primary education, textbooks, Uzbek SSR, secondary schools, reformation, education, academic year, evening schools, literacy, science.

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ДАВРИДА ҚУЙИ ВА ЎРТА ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ

Бобожонова Феруза Хаятовна

Бухоро давлат университети доценти, тарих фанлари номзоди

Аннотация. Мақолада мактаблар тўғрисида қабул қилинган бир қанча қарорлар келтирилган. Бухородаги бошланғич тўлиқсиз ўрта ва ўрта мактаблар йиллар кесимида таҳлил қилиб берилган. Мактаб таълимида ислохотчилик масалалари ҳар томонлама ёритиб берилган. Бухорода 1925-1960 йилларда халқ таълимини ривожлантириш йўлида қилинган ҳаракатлар ушбу мақолада ёритилган. Ушбу мақолада совет ҳокимияти даврида Бухоро вилоятидаги халқ таълими тизимининг ҳолати борасида фикр-мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: собиқ совет ҳокимияти, халқ таълими тизими, ўқитувчи, совет мактаб, Ф.Хўжаев, маориф, ўқувчи, ўқитувчи, синф, бошланғич таълим, дарсликлар, Ўзбекистон ССР, ўрта мактаблар, ислохотчилик, таълим, ўқув йили, кечки мактаблар, савод, илм.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N03>

Кириш. Совет ҳокимияти даврида Бухоро вилоятидаги таълим тизимининг ҳолатини ўрганиш бугунги кундаги долзарб масалалардан биридир. Чунки Бухоро воҳасида совет ҳокимиятининг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва маданий мавқеяини мустаҳкамлаш даврида ҳукмрон Коммунистик партия жамият ҳаётининг барча жабҳаларида ўз таъсирини ўтказди. Хусусан, бу жараён инсонлар онгини ўзгартиришнинг муҳим омили ҳисобланган таълим, фан ва маданият соҳаларида жиддий бурилиш ясади. Ўрганилаётган йилларда таълим, фан ва маданият соҳаларида содир бўлган барча воқеалар сиёсий манфаатларга хизмат қилди. Совет ҳукуматининг

мақсади озодликни сеувчи миллий зиёлилар қатламини йўқ қилиш ва халқнинг «саводхонлик» даражасини ошириш орқали социалистик тузумга фидойи янги зиёли кадрларни шакллантириш, шунингдек, бюрократик бошқарувни кучайтириш эди.

Асосий қисм. Бугунги кунда тарих фанида қарама-қаршиликларга тўла бўлган 1920-1930 йилларда республикамизда халқ таълими тизимини шакллантириш ва ривожлантириш жараёнлари, ўша мураккаб даврда миллий таълим тизимидаги ислохотларни ҳар томонлама таҳлил этиш зарур. Зеро, айнан шу даврда тоталитар ғоя ва кескин синфи нуқтаи назарга асосланган таълимнинг совет моделига асос солинди. Мадраса ва анъанавий (эски) мактабларнинг совет давридаги фаолияти шу вақтга қадар тўла ва мукамал тарзда ўрганилмаган. Бу муҳим аҳамият касб этувчи мавзуни ўрганиш Ўзбекистон тарихи фанидаги ўзига хос бўшлиқни тўлдиршига ёрдам беради.

Янги Ўзбекистонда замонавий таълим тизимини яратиш борасидаги саъй-ҳаракатларда мактаб тизими тарихини ўрганиш ва тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга молик масала ҳисобланади.

XX аср бошларида большевиклар томонидан ҳокимият эгаллангач Ўзбекистонда ҳам совет мактаблари ва техникумлар очишга алоҳида эътибор қаратилди. Жаҳид мактаблари ёпилди. Анъанавий (эски) мактаблар ва вақф мактаблари ҳам тугатилди. Чунончи, бу даврга қадар Ўзбекистон ҳудудида мавжуд бўлган мактаб- мадраса таълими, вақф мактаблари, ривожланган ўрта асрлардан буён давом этиб келаётган эди.

Совет ҳукумати таълим тизимида ислохот ўтказишга мажбур бўлган. Аммо режалаштирилган ислохот халқларнинг миллий қадрият ва урф-одатларига барҳам бериш орқали амалга оширилган. Мактаб қурилишининг советлаштирилиши шунда кўринадики, аввалига совет мактаблари, асосан, шаҳарларда очилаётган бўлса, 1919-1920 йилларга келиб қишлоқларда ҳам тезлик билан ташкил этила бошланди.

Советлар даврида матбуотида «Коммунистик партия ва совет ҳукумати халқларимизнинг савиясини ошириш, меҳнаткашларнинг турмуш даражасини яхшилаш, ёшларни илмли, саводхон, юксак хулқли, ҳар жиҳатдан камолотга эришган кишилар қилиб етиштириш борасида доимо ғамхўрлик қилиб келмоқда» деган фикрлар бонг урар эди [5;4]. Ҳақиқатда эса ҳолат бундай эмас эди.

Янги совет мактабларини ташкил этиш жараёни узлуксиз давом эттирилган. Бухоро воҳасининг айрим шаҳарларида мактаблар очилиб, қишлоқ деҳқонларининг фарзандлари уларда билим олдилар. Воҳа марказидан узоқда жойлашган мактабларда Совет Иттифоқининг марказий шаҳарларидан келган мутахассислар маҳаллий ўқитувчилар билан ҳамкорликда ишладилар. Бундан ташқари, маҳаллий ўқитувчилар Москва ва Тошкентга олий маълумот олишга юборилди.

1974 йилгача мамлакатимизда етти йиллик умумий мажбурий таълим амалга оширилган бўлса, ундан кейин саккиз йиллик умумий мажбурий таълимни жорий қилинган.

Ўз навбатида, ёшларда ўқитувчилик касбига қизиқишни ошириш мақсадида ўқитувчиларнинг маошлари ҳам кўриб чиқилди. 1927 йилда мактаб ўқитувчиларининг ойлик иш ҳақиға ўзгартиришлар киритилди, унга кўра қишлоқ болаларига дарс берган ўқитувчилар шаҳарларда ишлайдиган ўқитувчиларга қараганда кўпроқ маош олдилар. Маҳаллий аҳоли орасидан ўқитувчилар тайёрлаш масаласи ўша даврнинг энг муҳим вазифаларидан бири бўлиб, воҳанинг бу борадаги аҳволини бошқа вилоятларга

қараганда оғир деб ҳисоблаган раҳбарлар кўпинча совет ҳокимиятидан кадрлар тайёрлаш масаласи бўйича алоҳида талаблар қилиб турар эдилар.

Ўзбекистон бўйича умумий таълим мактабларида 49373 мингдан ортиқ ўқувчи таълим-тарбия олган [5;4].

1920-30 йилларда аҳолининг кўпгина аёллари ҳам саводли бўлиб, улар асосан анъанавий мактабларда таълим олган. Совет ҳокимиятининг дастлабки шаклланиши даврида ташкил этилган мактабларда кўпинча ўқитувчилик фаолияти махсус тайёргарликдан ўтмаган, маълумот ва малакага эга бўлмаган одамлар томонидан амалга оширилди.

1928-1929 ўқув йилида воҳанинг барча ҳудудларида аёллар саводсизлигини бартараф этиш мактаблари очилди. Шунингдек, мактаблар ўқув жиҳозлари, дарсликлар ва янги адабиётлар билан таъминланган. Воҳа аҳолиси орасида турли миллат вакиллари борлигини ҳисобга олиб, адабиёт ўзбек, рус, тожик тилларида бўлиши талаб қилинди.

1926 йилда Ўзбекистон ССРнинг барча туман ва қишлоқларида саводсизликни йўқ қилиш мактаблари очилиши билан бир вақтда турли ёшдаги кишилар учун мактаблар ташкил этилиши кўзда тутилган эди. Манбаларда 1926-1927 йилларда Бухоро воҳаси мактабларининг аҳоли қониқарсиз бўлгани ҳақида кўплаб маълумотлар келтирилган. Кўпинча мактабларда фойдаланиш учун стол ва доскалар бўлмаган. Фақат Бухоро шаҳридаги мактабларда вазият бироз яхши эди. Аксарият мактабларда санитария-гигиена ҳолати талабга жавоб бермаган.

Совет ҳукуматига совет мафқураси руҳида тарбияланган кадрлар керак эди. Шунинг учун улар дастлабки босқичда асосан кам таъминланган аҳоли болаларини мактабларга жалб қилишга ҳаракат қилишган. 1928 йилги округ ижроия қўмитасининг мажлисида саводсизликни тугатишга алоҳида эътибор қаратилди. Агар 1927 йилда саводсизликка барҳам бериш мактаблари сони 22 та бўлса, кейинги йили уларнинг сони 42 тага етди. Ушбу масала бўйича вазият таҳлил қилиниб, таъминланмаган ҳудудларда саводсизликни тугатиш мактаблари очишга қарор қилинган.

Бухоро воҳасида Совет ҳукумати томонидан ташкил этилган мактаблар яхши самара бермади. Таълим соҳасида муаммолар кўп бўлиб, улардан бири кадрлар масаласи эди. Мактабларни ташкил этишда маблағ етарли эмас, ташкил этилган мактабларда ўқув қуроллари ва дарсликларнинг кескин танқислиги кузатилди. Совет ҳукумати халқ маорифини ривожлантиришга ҳаракат қилиб, биринчи навбатда воҳа иқтисодиётини йўлга қўйиш учун кадрларга бўлган эҳтиёжни қондириш учун барча имкониятлардан фойдаланишга ҳаракат қилди.

Бухоро шаҳрида саноатнинг турли тармоқларини малакали кадрлар билан таъминлашга бўлган эҳтиёжни таъминлаш мақсадида кўплаб ихтисослаштирилган курслар ташкил этилган бўлсада, уларда таълимни ташкил этиш ишлари етарли даражада эмас эди.

Республикамизда Коммунистик партиянинг XXIV съезди томонидан қўйилган умумий ўрта таълимга ўтишни тугаллаш ҳақидаги вазифаларни амалга ошириш масаласи қўйилган. Партия Марказий Комитети ва ҳукуматнинг «Ёшларни умумий ўрта таълимга ўтказишни тугаллаш ва умумий ўрта таълим мактабларини янада ривожлантириш тўғрисидаги қарорини амалга ошириш йўлида катта ишлар қилинган. Натижада ўрта мактабларимизнинг сони кўпайган. Кейинги уч йил ичида 493 та ўрта

мактаб очилди. Ҳақ даврда республикада 7189 та мактаб бўлиб, уларда аҳолининг 3 миллион 465 миш фарзанди таълим-тарбия олган, 180 минг ишчи ва қишлоқ ёшлари мактабларда билим олган. Бошланғич таълим масалалари уч йилда амалга оширилган. IV синфлар саккиз йиллик, ўрта мактаблар тизимига кўчирилган. Янги ўқув дастури, дарслик-қўлланмалари ёзилиб, амалга татбиқ этилган [2;4].

Совет даврида мактабларнинг кундалик ҳаёти қатъий ишлаб чиқилган тартиб асосида амалга оширилди. Ўқув кунини бошланиши ва уни қандай ўтказиш, ўқувчилар жалб этилган жамоат ташкилотлари октябрят, пионер, комсомолдан тортиб, ўқувчига таълим-тарбия бериш сиёсий жиҳатдан қолипга солинган эди. Кейинчалик психолог ва педагоглар томонидан совет таълим тизимини ижодий фикрлашга қодир бўлмаган, партия учун хизмат қиладиган армия тарбиялашда айбланди [4;4].

Бухорода «Миллий инқилоб» йилларида саводсизликни тугатиш йўлида кўп ишлар амалга оширилди. Жумладан, 1925 йилнинг июнь ойида Бухорода «Йўқолсин саводсизлик» жамияти ташкил этилди. 1925 йилда саводсизликни тугатиш мактабларида 55 киши, ўқитувчиларни тайёрлаш курсларида 20 киши, совет партия мактабида 10 киши ўқиган бўлса, 1926 йилда уларнинг сони деярли уч баробарига кўпайиб, буларнинг барини хотин-қизлар ташкил этган [4;4].

1935 йил бошқа бир қатор жиҳатлари билан ҳам ажойиб йил бўлди деб таъкидлайди ҳукумат раҳбари Ф.Ҳўжаев. у фикрини давом эттириб қуйидаги маълумотларни келтиради. Энг муҳим кўрсаткичлардан бири ижтимоий-маданий қурилишдир. 1935 йилда биз 658,4 минг кишини мактабларга қамраб олдик. 1934 йилга нисбатан 12% кўп. Биз 433 минг кишини саводхонлик мактабларидан ўтказдик, бу 1934 йилга нисбатан 12 фоизга кўп. Биз мактаб ёшидаги болаларни умумтаълим мактабига қамраб олиш, республикамизда саводсизликка барҳам беришни жадаллаштириш йўлида муҳим қадам ташладик деган фикрларини ўз асарларида баён этган [4;4].

Маданий қурилишнинг совет вариантыдаги салбий ҳодисалар ўзанида намоён бўлган 20—50 йилларнинг шубҳасиз ютуқлари орасида, энг аввало, аҳоли таълим даражасининг сезилари даражада кўтарилишини, кенг

тармоқ отган мактаблар, ўрта махсус ва олий ўқув юртлири тизимининг яратилишини, мутахассисларнинг катта авлоди шаклланганлигини таъкидлаш лозим. Масалан, 1959 йилдаги аҳолини рўйхатга олиш натижаларига кўра, республиканинг 9 ёшдан 49 ёшгача бўлган аҳолиси орасида саводхонлар 98,1%га етди. Шу даврга келиб, умумтаълим мактабларининг сони 7.686 тани ташкил этди. Уларда 1 млн. 584 тадан ортиқ, мактаб ўқувчилари ўқирди [3;217].

Совет давридаги матбуотда таълим масалаларига доир қуйидаги маълумотни кўришимиз мумкин. Виждувон аҳолиси Ўзбекистон большевикларининг X съезди қарорлари билан «илҳомланиб», халқ маорифи ишларини янада ривожлантириш юзасидан конкрет социалистик мажбуриятлар қабул қилдилар. Улар 1949-1950 йиллар мобайнида районда еттийиллик ва Виждувон шаҳрида эса ўн йиллик мажбурий таълимни амалга оширишга қарор бердилар [2;3].

«Бухоро ҳақиқати» газетасининг 1949 йил 15 май сонидида М.Абдурахимов томонидан «Мактабларнинг янги ўқув йилига тайёрлигини намунали уюштирайлик» номли мақоласида «Янги ўқув йилига тайёрлик соҳасида энг муҳим ва кечиктириб бўлмайдиган вазифа- мактаб ёшидаги болаларнинг аниқ ҳисобини олишдан иборатдир.

1948 йил октябрь ойида болаларни мактабга тортиш юзасидан такрор равишда ўтказилган текширишлар натижасида 2105 боланинг ўқишга тортилмай қолганлиги аниқланган эди. Свердлов районида ўтган йили 451 нафар бола, Қизилтепа районида 147 нафар бола, Ромитан районида 160 нафар, Олот районида 287 нафар мактаб ёшидаги болалар ҳисобга олинмасдан қолган эдилар[2;3] деган фикрни кўришимиз мумкин. Бу албатта, таълим соҳасида, айниқса, мактаб масалаларида хатолик ва камчилик эди.

Советлар даврида Ўзбекистон раҳбарияти аҳолини умумий ўрта маълумотга ўтказиш бўйича фаол чоралар кўрди ва бунга халқининг азалий илмга интилиши ҳам сабаб бўлди. ЎзК(б) Марказий Комитетининг секретари ўртоқ Усмон Юсупов съездда қилган маърузасида «Бизнинг мамлакатимизда халқ маорифи иши биринчи даражали давлат аҳамиятига эгадир» деб уқтириб ўтган[2;4].

Ўзбекистон ҳукуматининг 1959 йил 27 мартдаги кўрсатмасига асосан, республика мактаблари 1959—60 ўқув йилидан 1962—63 ўқув йилигача 7 йилликдан мажбурий 8 йиллик таълимга ўта бошлади. Табиийки, бундай ўзгаришлар мактаб, умуман, таълим тизимини ҳам сифат, ҳам миқдор жиҳатдан ўзгаришга олиб келди [6;341].

Ўзбекистон ССР Халқ Комиссарлигининг 1935 йилги қарорида барча шаҳар туман марказлари ва аҳоли пунктларида янги турдаги замонавий мактаблар қуриш зарурлиги белгиланди. Шундан келиб чиқиб, воҳанинг марказий шаҳар ва қишлоқларида мактаблар қурилиши бошланди. Қарорда қурилиш ишлари махсус комиссия томонидан назорат қилиниши белгиланди.

Ўқув тарбия ишлари қанчалик сиёсатлаштирилмасин, совет мактабларининг моддий аҳволи ниҳоятда оғир эди. Дарсликлар, ўқув қуроллари, хусусан, қалам, сиёҳ, дафтар тақчил эди. Бундан ташқари советларнинг таълим сиёсатини тезлик билан ислоҳ қилиш даврида маҳаллий кадрларнинг етишмаслиги ҳам муаммони янада жиддийлаштирди. Айни дамда ўқув дарсликлари такомиллаштирилмаганди. Бундан ташқари мутлақо янги бўлган бу тизим маҳаллий халқ болалари орасида қийинчилик билан қабул қилинди. Ўқувчилар интизомининг пастлиги ўқув ишларини маромида олиб боришга ҳалал берарди. Мана шулардан келиб чиқиб, ушбу даврдаги таълим тизимидаги ислохотлар кутилганидек натижа бермагини кўриш мумкин. Тарихий онгни тубдан тозалашда ўтмиш тажрибасидан келиб чиқиб, янги хулосалар чиқариш даркорлигини тарих исботлаб берди.

Хулоса сифатида айтиш лозимки, Биз совет даврининг камчиликлари, салбий томонлари, миллий маънавиятимизга етказган зарарларини кўрсатиш билан бирга халқимизнинг ўтган етмиш йил давомида олиб борган мардонавор меҳнати туфайли қўлга киритган ютуқларини, қурилиш, илм-фан, санъат, маданият, маърифатли бўлиш, кадр тайёрлаш кабилар соҳасидаги ижобий натижаларини унутмаслигимиз зарур. Улар асосидагина янги давр маънавиятини ривожлантира оламиз.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Бешим Мирзакулов. Бухоро тарих зарварақларида. (2-китоб). Дурдона. Бухоро. 2018.
2. М.Абдурахимов. Мактабларнинг янги ўқув йилига тайёрлигини намунали уюштирайлик. Бухоро ҳақиқати. 1949. № 95. 15 май.

3. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Сборник статматериалов- Ташкент. 1967.
4. О.Эшонов. Файзулла Хўжаев. (Ҳаёти ва фаолияти ҳақида очерк). Ўзбекистон. Тошкент.-1973.
5. Совет мактаби. Ўзбекистон ССР маориф министрлигининг ойлик илмий методик журнали. 1974. №11.
6. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлапгирилиши. Шарқ, Тошкент- 2001.
7. Ф.Ходжаев. Ибранные труды. Том III.Фан.Ташкент.1973.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

POLICY OF DEKULAKIZATION AND ITS CONSEQUENCES IN THE 1920s-1930s (BASED ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA REGION)

Talat Halimov

Ph.D. Student of Karshi State University

E-mail: ps.talathalimov@gmail.com

Abstract. One of the most severe policies implemented by the Soviet authorities in Central Asia, including Uzbekistan, is the policy of dekulakization, which began as a result of land and water resource reforms. Naturally, this event, which brought suffering to thousands of our compatriots, also affected Bukhara. This article discusses this issue.

Keywords: dekulakization, Soviet authorities, Chorikulboy, land and water reform, Bukhara State Archive.

XX ASRNING 20-30 YILLARIDAGI QULOQLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING SALBIY OQIBATLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Halimov Tal'at

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Sovet hokimiyatining O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekistonda amalga oshirgan eng og'ir siyosatlaridan biri – yer-suv islohotlari hamda uning natijasida boshlanib ketgan quloqlashtirishdir. Minglab yurtdoshlarimiz boshiga kulfat keltirgan bu tadbir Buxoroda ham o'z ta'sirini o'tkazgani tabiiy. Maqolada shu haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: quloqlashtirish, sovet hokimiyati, Choriqulboy, yer-suv isloholiti, Buxoro davlat arxivi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N04>

Kirish. Mustaqillik tom ma'noda haqiqiy tariximizni tiklash davri bo'ldi. Bu yillar mobaynida yaqin o'tmishda, sobiq sovet hukumati yillarida nomlari qoralangan hamyurtlarimiz ruhini shod qilish uchun qator ishlar amalga oshirildi. Mana shu davrning eng katta jabrdiydalari quloqlashtirish va kollektivlashtirish siyosatining qatag'on qurbonlaridir. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Qatag'on qilingan yetakchilarimizning taqdiri barchamizni mustaqilligimizni qadrlashga, uni asrab-avaylashga undaydi. Mana shunday mustaqillikda, tinchlikda yashashning o'zi Alloh taoloning katta marhamati, ne'mati. Buning uchun shukronalik bilan, uning qadriga yetish kerak" [1, 1].

Muhokama. Sobiq ittifoq siyosati yillarida xalqimiz bir necha bor qatag'onga uchradi. Turli bahonalar, "sabablar" va bo'htonlar minglab vatandoshlarimizning boshiga yetdi. XX asrning 20-30 – yillaridagi kollektivlashtirish hamda o'rta hol dehqonlarni "quloqlashtirish" qurboniga aylantirdi. Bu davrda sofdil va mazlum kishilarni zo'ravonga chiqarib qo'ygan "quloqlashtirish" siyosati deysizmi, 40-yillar oxiri 50-yillar boshlarida ziyoli fan va madaniyat

xodimlarini surgun qilish deysizmi yoki 80-yillardagi “o‘zbek ishi” va “paxta ishi” nomlari ostidagi siyosatlarini, barisi xalq boshiga og‘ir kunlarni solib keldi.

“Quloqlashtirish” jarayoni aslida 1925-1929 – yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohoti davrida boshlangan edi. Bunda o‘ziga to‘q dehqonlar va boylarning mol-mulki tortib olinib, musodara qilingan, ularning o‘zlari esa uzoq yurtlarga surgun qilingan.

Mana shunday musodara ishlari olib borilayotgan bir paytda VKP (b) Markaziy Komiteti 1928-yil 15-dekabrda “Yerdan foydalanish va yer tuzishning umumiy asoslari” qonuniga o‘zgartirishlar kiritib qayta tasdiqlaydi [6, 7]. Bu hol yer-suv islohotlarining ayniqsa avjiga chiqishiga olib keldi.

Albatta, o‘zining yerlaridan ajralib qolish hech kimga yoqmas edi. Shu bois, mol-mulkni ro‘yxatga olib, musodara qiluvchilarga nisbatan qarshi kayfiyat shakllana boshlaydi. Sovet hukumati esa mol-mulkini topshirishdan bosh tortganlarni “quloq” deb e‘lon qiladi. Bunday kishilarga nisbatan jazo choralari VKP (b)ning XV s‘yezdidan keyin kuchaya boshlaydi. Ularga nisbatan kurash olib borishning strategik rejasi ishlab chiqiladi.

Natijalar. 1) Soliq miqdori bir necha barobarga oshiriladi. Natijada qishloq aholisining 4-5 % ini tashkil etadigan “quloq”lar soliqning jami 45 % ini to‘lashga majbur etiladi.

2) Ular barcha yig‘ilishlarda va yerga egalik qilish shirkatlarida ovoz berish huquqidan mahrum qilinadi.

3) 1926-yildan boshlab “quloq”larga traktorlar sotilmay qo‘yiladi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1928-1929 – yillarda ularning qo‘lidagi mavjud traktorlari va asbob-anjomlari ham majburan tortib olinadi.

Bu choralar shundoq ham ahvoli og‘irlashib qolgan qishloq aholisining sillasini quritar edi. Yelkasiga og‘ir soliq yuki ortilgan, bundan tashqari qishloq xo‘jalik asbob-anjomlari tortib olingan kishilar endi topshirilgan hosil yig‘imi me‘yorini bajara olmaganliklari bahona qilinib qolgan moddiy boyliklari ham tortib olinadi va yoppasiga surgun avj oladi. Bu hol ayniqsa, Kavkaz, Ukraina va O‘rta Osiyoda kuchayib ketgan edi.

Bundan tashqari VKP (b) Markaziy Komiteti va Markaziy Kontrol Komissiyasi Plenumining yangi yiqilishi qaroriga binoan, hamma MTSlar va sovxozlar qoshida favqulodda davlat-partiya organlari bo‘lgan siyosiy bo‘limlar tashkil etiladi. Bunday siyosiy bo‘limlarning shtati – boshliq, ikki o‘rinbosar, komsomol ishlari bo‘yicha yordamchi, xotin-qizlar o‘rtasidagi ishlar tashkilotchisi va shu siyosiy bo‘limning ko‘p tirajli gazetasi redaktoridan iborat bo‘lgan. Bu siyosiy bo‘limlar mahalliy idoralarda tashkil etilib, belgilangan boy xo‘jaliklarni tugata boshlaydi. Ammo shuni alohida ta‘kidlash kerakki, hatto kolxozlarning o‘zida kolxozchi mehnat intizomini sal buzgudek bo‘lsa, uni yetarli asos bo‘lmagani holda “quloqning dumi” sifatida jazoga tortilar edi [4, 416]

Kollektivlashtirish siyosati avjiga chiqqan bir pallada, 1929-yilning noyabr oyida VKP (b) Markaziy Komiteti plenum o‘tkazadi. Bu plenumda Nijne-Voljsk o‘lka partiya komitetining sekretari B.P.Sheboldayev va Ukraina kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining sekretari S.V.Kossiorlar so‘zga chiqib, balandparvoz nutqlar qiladilar. Bu nutqlarga ko‘ra go‘yoki “quloqlar” omma ongini zaharlayotgan, aholi esa o‘z ixtiyori bilan kolxozlarga kirayotgandek ko‘rsatiladi. Jumladan, S.V.Kossiorning nutqiga e‘tiborni qarataylik: “Partiyaning quloqlarga qarshi qat‘iyat bilan olib borayotgan bu kurashi o‘rta hol dehqonni yon-verisiga qarashga, o‘z xo‘jaligini rivojlantirish uchun ikkilanishsiz kolxozga kirishga da‘vat etdi...” [4, 346]

Aslida esa, bu “qat’iyat” shunchaki yumshoq niqob kiydirilgan terrorning o’zginasi edi. Sun’iy ravishda uyushtirilgan ochlik, yuqorida sanab o’tilgan omillar va shafqatsiz “quloq” qatag’onchiligi bunga olib kelgan, aholining kolxozga kirishdan o’zga chorasini qolmagan edi. Matbuotda O’rta Osiyo respublikalarining jamoalashtirishga “tayyor” ekanligini targ’ib qilinib, mahalliy, ijtimoiy sharoitlar bilan hisoblashilmaydi. 1930-yil 17-fevralda O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti “Kollektivlashtirish va quloq xo’jaliklarini tugatish to’g’risida” qaror qabul qildi. Respublika yalpi jamoalashtiriladigan o’n yetti tumanga bo’lindi. Mahalliy rahbarlar raqamlar orqasidan quvib, qonunni buzishgacha bordilar. Jamoalashtirish mutasaddilari dehqonlarning majlislarida kolxozga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta’minlanmaydi, katta soliq solinadi, surgun qilinadi, deb qo’rqitishgacha borganlar. Natijada ko’pchilik tumanlarda kolxozlashtirish bir necha hafta ichida tugallandi. 1930-yil 6-fevralda qishloq xo’jaligi artelining birinchi Namunaviy Nizomi qabul qilindi. Nizomda mulkni umumlashtirish mezonlari, kolxozlarning bo’linmas fondlari to’g’risida tushuncha berilmagan edi. Natijada turar joy binolari, qo’y-echki, qoramollar ham umumlashtirildi. Ana shunday noqonuniy hollar Qo’qon, Toshkent, Zarafshon okruglarida qayd qilindi. Jamoalashtirishni jadallashtirish amalda o’ziga to’qroq xo’jaliklarni tugatish, ya’ni xo’jalik mulklari va imoratlarni musodara qilishga aylanib qoldi, yuqoridan qilingan qattiq tazyiq shunga olib keldi. Quloq xo’jaliklarini tugatish kompaniyasi O’zbekistonda 1930-yil fevraldan boshlab avj oldi. Yuqoridan kelib turgan har xil yo’l-yo’riqlar va ko’rsatmalar zo’rligni avj oldirishga turtki bo’ldi. Bu yo’l-yo’riqlar kimlarni quloqlar toifasiga kiritish kerakligini aniq belgilab bermasdi. Yakka tartibda qishloq xo’jalik solig’i solinadigan o’ziga to’q dehqon xo’jaliklarining ro’yxati quloq xo’jaliklarini belgilash uchun asos bo’lib xizmat qildi. Bu ro’yxatlar Moliya organlari tomonidan tuzilar va o’rta hol dehqonlar hatto kambag’allar hisobiga kengayib borardi.

20-30 yillarda, ya’ni yer-suv islohotlari va quloqlashtirish davrida Buxoro okrugidan badarg’a qilinganlar qismatini Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida o’rganish qator ma’lumotlarni qo’lga kiritishga imkon berdi. Izlanishlar asnosida ancha ma’lumotlarni aniqlashga muvaffaq bo’ldik. Jumladan: 1928-yil 23-oktabrda O’zbekiston SSR Yer ishlari Komissari o’rinbosari Nemsovich, ushbu vazirlikning maxfiy bo’lim boshlig’i Petrovalar Buxoro va Farg’ona okruglariga maxfiy xat jo’natadilar. Unda Buxoro okrugidan quloq qilinishi kerak bo’lgan boylarning ham nomlari ko’rsatilgan [2, 1-2]. Xatda ushbu boylarni o’z yashash joylaridan uzoqqa ko’chirish va imkon boricha bir – biridan olisroqqa, yakka – yakka holda joylashtirish, o’sha yerlardan ularga tuprog’i unumsiz, relyefi yaxshi bo’lmagan va hokazo sharoiti og’ir joylarni berish buyurilgan.

Yuqorida keltirilgan maxfiy xatda Buxoro okrugidan surgun qilinadiganlar ro’yxati ham keltirilgan.

1. Eshon Hakimxon Sadr Sultonov – Yangi Buxoro rayoni, Bahouddin qishlog’i.
2. Husenov Zubaydxo’ja - Yangi Buxoro rayoni, Bahouddin qishlog’i.
3. O’rinov Qurzoboy oqsoqol – Qorako’l rayon, s/s Sho’rkashan, Kattaboyar qishlog’i.
4. Said Kavnonxo’ja Ahmadxo’jayev - Eski Buxoro shahri, Xonaqo guzari, Jo’ybor.
5. Ubaydullayev Jo’raboy oqsoqol – Buxoro shahar, Kosagaron guzari, 71 - uy.
6. Umidov Hamro - Buxoro rayon, s/s Xumin, Hazormon qishlog’i.
7. Huseinov Begi – Buxoro rayon, s/s Galaosiy, Choruq qishlog’i.

8. Muhammadxoja Hidoyatov – Eski Buxoro shahri, s/s Xundanak, Madaminboy qishlog'i.

9. Olimov Mullo Rajab – Qorako'l rayon, s/s Bozorxo'ja, Lag'laq qishlog'i.

10. Rahmonberdiyev Avliyoqul Amin - Qorako'l rayon, s/s Suqsuq , Zag'orakash qishlog'i.

11. Abduxoliqov Jabbor - Qorako'l rayon, s/s Qozon, Darg'abog' qishlog'i.

12. Madiyorov Soat polvon - Qorako'l rayon, s/s Olot, Qizilobod qishlog'i.

13. Choriqulboy Nafasov – Romitan rayon, s/s Zandani, Qoqishtuvon qishlog'i.

14. Abdulmannop Po'latov – G'ijduvon rayon, s/s Qalandarxonin, Ja'fari qishlog'i.

15. O'runov Cho'li – Qorako'l rayon, s/s Koshon, Kattabayot qishlog'i.

16. Saidxo'ja Baqoxo'jayev - Romitan rayon, s/s Lag'laqa, Qaramon qishlog'i.

17. Fayzullayev Said Murotxo'ja - Romitan rayon, Alamdor qishlog'i.

18. Murodov Ibrohim - Romitan rayon, s/s Asbob, Raboti Ala qishlog'i.

19. Sattorov Narzixo'ja Abdul - Romitan rayon, s/s Chelong'u, Suspatta qishlog'i.

20. Qurbonov Ro'zi - Romitan rayon, s/s Chelong'u, Chelong'u qishlog'i.

21. Muzaffarov Umarxo'ja - Romitan rayon, s/s Qo'rg'on, Baxtiyorchi qishlog'i.

22. Kamolov Solih - Romitan rayon, s/s Asbob, Raboti Ala qishlog'i.

23. Husainov Zubaydxo'ja - Yangi Buxoro rayoni, Bahouddin qishlog'i.

1928-yil 1-noyabrda Buxoro okrug ijroiya komitetining “ Boy xo'jaliklarni ko'chirish va tugatish ” to'g'risida yig'ilishi bo'ladi [2, 20]. O'sha paytda Buxoro okrug ijroiya komiteti raisi Hasanov, yer ishlari bo'limi boshlig'i O'rmonov va prokuror Hamidovlar bo'lganlar [3, 8]. Shundan keyin noyabr – dekabr oylarida ushbu masala bo'yicha Komissiyaning bir nechta yig'ilishlari bo'ladi. Ro'yxatda ko'rsatilgan boylarning mol–mulki hisob–kitob qilinib, ularni oila a'zolari bilan birga ko'chirish, boyligini musodara qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Jumladan, 1928-yil 23-oktabrda O'zbekiston SSR Yer ishlari Komissarining o'rinbosari Nemsovich, ushbu vazirlikning maxfiy bo'lim boshlig'i Petrovalar Buxoro va Farg'ona okruglariga maxfiy xat jo'natadilar. Unda Buxoro okrugidan quloq qilinishi kerak bo'lgan boylarning ham nomlari ko'rsatilgan [2, 2]. Xatda ushbu boylarni o'z yashash joylaridan uzoqqa ko'chirish va imkon boricha bir – biridan olisroqqa, yakka – yakka holda joylashtirish, o'sha yerlardan ularga tuprog'i unumsiz, relyefi yaxshi bo'lmagan, sharoiti og'ir joylarni berish buyurilgan.

Yuqorida keltirilgan maxfiy xatda Buxoro okrugidan surgun qilinadiganlar ro'yxati ham keltirilgan. Ro'yxatda 30 ga yaqin boylarning nomlari qayd qilingan.

1928-yil 1-noyabrda Buxoro okrug ijroiya komitetining “Boy xo'jaliklarini ko'chirish va tugatish” to'g'risida maxsus yig'ilishi bo'ladi [2, 20] O'sha paytda Buxoro okrug ijroiya komiteti raisi Hasanov, Yer ishlari bo'limi boshlig'i O'rmonov va prokuror Hamidovlar bo'lgan [3, 8] Shundan keyin noyabr-dekabr oylarida ushbu masala bo'yicha Komissiyaning bir nechta yig'ilishlari bo'ladi. Ro'yxat tuzilib, unda ko'rsatilgan boylarning mol-mulki hisoblanadi va ularni oila a'zolari bilan birga ko'chirish, boyligini musodara qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Qarorda ko'rsatishicha, ularning uy-joylari, undagi boyliklar, yerlari, barcha chorva mollari, tegirmon, juvoz, un, bug'doy, g'o'za, jo'xori, yog'och taxtalar, somon, mola, o'tin, charm, omoch, belkurak, o'roq, bolta, zanjir, tarozu, qop, arqon, qamchi, hatto tuz va ziravorlar kabi mayda-chuydalargacha tortib olingan, ularning bahosi ham chiqarilgan [2, 2].

Komissiyaning bir necha yig'ilishlaridan so'ng, Buxoro okrug ijroiya komiteti raisi Hasanov, kotibasi Polyakovalarning imzosi bilan 6 nafar boy Orenburgga surgun qilingan [2, 65-67]. Bular quyidagilar:

1. Eshon Hakimxon Sadr Sulstonov
2. Said Kavnonxo'ja Ahmadxo'jayev
3. Jo'raboy oqsoqol Ubaydullayev
4. Choriqulboy Nafasov
5. Ibrohim Murodov
6. Umarxo'ja Muzaffarov

Qolgan boylar esa Farg'ona okrugi va Marg'ilon rayoniga surgun qilinganlar [2, 18].

Achinarlisi shundaki, mol-mulklari tortib olinib musodara qilinganlarning ko'pchiliklari o'zlarining oilalaridan judo etilib, bir necha yillar o'zga yurtlarda badarg'ada bo'lganlar, ba'zilarining esa keyingi taqdirleri ma'lum bo'lmagan. O'sha boylar orasida tadbirkor, ishbilarmon, xalqparvar, nochorlar dardiga hamdard bo'ladiganlari ham bo'lgan. Mana shulardan biri Romitanlik saxiy va tanti boy Choriqulboy Nafasov (1847 – 1934 yy) dir. U o'z mablag'idan Zarafshon daryosi ustida ulkan ko'prik (1911 – 1914 yy), qishloq bolalari uchun maktab (1924), Xayrobod arig'i bo'yida hashamatli madaniyat uyi - klub (1925 y) qurib bergan, ariq-zovurlar qazishda bosh bo'lgan, muhtojlarga o'z yordamini ayamagan. Zo'ravonlikka uchrab, yana "mushtumzo'r" deb nom olgan bu kabi boylarning ko'pchiligi xalq koriga yaraydigan kishilar bo'lganligi sir emas. Ular o'z davrining kichik va o'rta tadbirkorlari edi. Aslini olganda, Buxoroning tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda boylarning deyarli 90 % i chorvadorlar bo'lgan. Ma'lumki chorva, xususan qo'y tez ko'payuvchi jonivor bo'lgani bois, ularning mol-mulki tez ko'paygan. Ammo bu boy xo'jaliklarining tugatilishi mana shunday rivojlangan chorvachilik sohasini ham izdan chiqarib yubordi.

Xulosa. Mustaqillik tufayli nomlari qora ro'yxatlarga kiritilgan kishilarning nomlari oqlandi. Ularning xotiralari tiklandi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999-yil 12-avgustdagi "Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini tiklash va abadiylashtirish to'g'risida" gi farmoniga ko'ra [5, 3], o'sha davrga oid arxiv hujjatlari, undagi fond (jamg'armalardan) foydalanish imkoniyati tug'ildi. Xalqimiz har yili 9-mayni "Xotira va qadrlash kuni", 31-avgust kunini qatag'on qurbonlarini xotirlash kuni sifatida nishonlaydilar. Bugun o'sha begunoh ajdodlarning ruhi shod bo'layotgan bo'lsa ajab emas.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-avgustdagi nutqidan <https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/31/shahidlar/>
2. Buxoro viloyat Davlat Arxivi, 4 – fond, 1 – ro'yxat.
3. Buxoro viloyat Davlat Arxivi, 8 – fond, 1 – ro'yxat.
4. Berxin I.B. SSSR tarixi. T., "O'qituvchi"-1969-y, 846 B.
5. O'zbekistonda sovet davlatining qatag'on siyosati. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: 2012. 231 B.
6. Halimov T.A., Halimov T.T. Asrlarga tatigulik sayohat. Buxoro, 2014. – 98 B.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

A FEW WORDS ABOUT THE EXPEDITION OF ALEXANDER BEKOVICH CHERKASSKY: BEGINNING OF THE EXPEDITION

Ilkhamov Ziyovutdin Adxamovich,
Professor, TSPU named after Nizami

Shukurov Rustam Jo'raqulovich,
researcher, TSPU named after Nizami

Abstract. This article talks about diplomatic relations in the 18th century, in particular about the political and diplomatic relations of the Russian Empire with the Central Asian khanates and their military-political aspects, diplomatic missions. The military expedition of Prince A.Bekovich-Cherkassky, which was carried out by special order of the government of the Russian state, its beginning and some features will also be considered.

Keywords. Russian Empire, Central Asian khanates, diplomatic relations, embassies, expeditions, military-political mission, Caspian Sea, Amu Darya, trade routes, foreign policy.

ALEKSANDR BEKOVICH-CHERKASSKIY EKSPEDITSIYASINING BA'ZI TAFSILOTLARI: EKSPEDITSIYANING BOSHLANISHI

Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich,
Professor, Nizomiy nomidagi TDPU

Shukurov Rustam Jo'raqulovich,
Tadqiqotchi, Nizomiy nomidagi TDPU

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr davomidagi diplomatik munosabatlar, xususan, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklari bilan olib borgan siyosiy va diplomatik munosabatlari, ularning harbiy-siyosiy jihatlari, diplomatik missiyalar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, rus davlati hukumatining maxsus topshirig'i bilan amalga oshirilgan knyaz A.Bekovich-Cherkasskiyning harbiy ekspeditsiyasi, uning boshlanishi va ba'zi tafsilotlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar. Rossiya imperiyasi, O'rta Osiyo xonliklari, diplomatik munosabatlar, elchiliklar, ekspeditsiyalar, harbiy-siyosiy missiya, Kaspiy dengizi, Amudaryo, savdo yo'llari, tashqi siyosat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N05>

Kirish. XVIII asr birinchi choragidagi Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar tarixida shaxsan rus podshosi Petr I tashabbusi bilan 1714-1717 yillarda amalga oshirilgan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyning Xiva ekspeditsiyasi alohida e'tibor tortadigan masalalardan biri sanaladi. Bu davrda Rossiya imperiyasi uchun Kaspiy dengizi bo'ylab quruqlikda savdo yo'llarini aniqlash, Usmoniy davlatini chetlab o'tib O'rta Osiyo orqali sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini va iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish tashqi

siyosatdagi muhim omillar sanalib, O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Xiva xonligiga bo'lgan qiziqishlari va e'tiborini tobora kuchaytirib borayotgan edi. Shu maqsadda podsho Pyotr Alekseevich [1] ko'rsatmasi bilan XVIII asr birinchi choragida Xiva xonligiga yirik ekspeditsiya uyushtiriladi, ekspeditsiya oldiga Xiva xoni bilan munosabatlarni o'rnatish va ayni vaqtda uni Rossiya imperiyasi ta'siriga o'tkazish, Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarida Krasnovodsk yaqinida, Amudaryoning eski o'zaniga yaqin joyda istehkom qurish, geologik qidiruv ishlarini olib borish, Buxoro xoni bilan munosabatlarni o'rnatish, poruchik A.V.Kojinni savdogar qiyofasida Xivadan Hindistonga savdo yo'llarini aniqlash uchun yuborish vazifalari qo'yilgan edi [2.174].

Aleksandr-Bekovich Cherkasskiy [3] rahbarlik qilgan Xiva ekspeditsiyasini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich — 1714 yil oktyabr-noyabr, ikkinchi bosqich – 1715 yil aprel-oktyabr, uchinchi bosqich – 1716 yil sentyabr-noyabr oylarida amalga oshirilgan bo'lsa, to'rtinchi bosqichi, ya'ni Xiva ekspeditsiyasi 1717 yilning iyun-avgust oylarida amalga oshirilgan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya Ekspeditsiyaning dastlabki uch bosqichi asosan Kaspiy dengizi sharqiy qirg'oqlarini o'rganish va istehkomlar barpo etish bilan xususiyatlangan bo'lsa, to'rtinchi bosqichi ekspeditsiyaning o'zga davlat hududlariga kirib borishi va fojeali yakun topishi bilan xususiyatlanadi. Bu ekspeditsiya va uning tayyorgarlik jarayonlari, ekspeditsiyaning maqsadi, amalga oshirilishi va borishi, oqibatlari bir qator adabiyotlarda va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topgan [4.]. Bu masalaning tavsifiga bir qator adabiyotlarda to'xtalib o'tilgan bo'lsada, biroq uni amalga oshirish tashabbusining yuzaga kelishi, tashkillashtirilishi, amalga oshirilishi va jarayonlari, unga jalb etilgan qo'shinlar, mutaxassislar va ularning vazifalari, uning natijalari hamda oqibatlari borasida batafsil ma'lumotlar adabiyotlardan o'rin olmagan, hattoki bu borada ba'zi ta'kidlar ham mavjud [5].

Shulardan biri "Knyaz Aleksandr Bekovich Cherkasskiyning ekspeditsiyasi haqida qaydlar" [6.] deb nomlanadi. Unda Xiva xonligi elchilarining Rossiya hukmdorlari bilan uchrashuvlari, Xiva va Buxoro, ayniqsa, Amudaryo atroflarida oltin mavjudligi va ko'p miqdorda oltin zarralarining ajratib olinishi, shunday ma'lumotlarning boshqalar tomonidan ham tasdiqlanishi, podsho hukumatini bunga ishontira olganligi, bu ma'lumotlarning Rossiya imperiyasining tashqi siyosiy manfaatlariga ham mos kelganligi va oqibatdan bir necha bosqichdan iborat ekspeditsiyalar tashkil qilishga qaror qilingani kabilar haqidagi ma'lumotlar tafsilotlari keltirib o'tilgan.

Podsho Petr Alekseyevichning 1714 yil 20 maydagi Farmonida "Xiva xonini taxtga chiqqanligi bilan qutlab Xivaga yuborilsin, u yerdan Buxoro xoniga borib hozirgi vaqtdagi savdo aloqalarining holatini o'rgansin hamda Irnek [7] shahrining Kaspiydan qancha masofada ekanligini aniqlasin", — deb vazifa yuklaydi, sababi, ularning tasavvurida shu shahardan Hindistonga savdo yo'li boshlangan bo'lib, uni o'rganish zaruriyatining yuzaga kelganligi edi.

Muhokama Shu o'rinda ekspeditsiyaning asosiy ishtirokchilari haqidagi ayrim ma'lumotlarga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Ularning eng asosiysi ekspeditsiya rahbari knyaz Aleksandr Bekovich Cherkasskiydir.

Preobrajensk polki Leyb-gvardiyasi kapitan-poruchigi knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy kabardin (cherkas) larning qadimiy Psheapshakovlar knyazlari xonadoniga mansub bo'lib, cho'qintirilgunga qadar ismi Davlat Girey mirza bo'lgan. Uning tug'ilish sanasi

borasida aniq ma'lumotlar yo'q. Hali yosh bolalik vaqtidayoq garovga olingan bo'lib, Tersk qal'asi [8] voyevodasi huzurida yashagan va 1690-1691 yillarda ruslar xizmatiga o'tgan [9].

Boshqa bir manbalarda esa Davlat Girey Mirzaning mamluklar sultoni Inalga, boshqa birida Qrim xonlari xonadoniga mansubligi va 1697 yilda cho'qintirilganligi ko'rsatiladi [10.31].

Keyinchalik uni podsho Petr Alekseyevichning tarbiyachisi hamda uning taxtga o'tirishining asosiy tarafdori va uni qo'llab-quvvatlagan shaxs — knyaz B.A.Golitsin [11] o'z tarbiyasiga oladi va o'z farzandlari bilan teng tarbiyalaydi. Voyaga yetgach o'z qizi Marfaga uylantiradi, aynan B.A.Golitsin oilasiga yaqinlik Davlat Gireyga keyingi hayoti va faoliyatida katta ta'sir o'tkazadi [9].

Shimoliy urush davrida yosh ofitser sifatida 1700 yilda Narva jangida, keyinroq Noteburg, Nyenshans, Mitau qamallarida va ularning bosib olinishida ishtirok etgan. 1708 yilda Bekovich Gollandiyaga dengiz ishi va navigatsiyasi bo'yicha o'qishga yuborildi va qaytib kelgach, Preobrajensk polki leyb-gvardiyasida xizmatga qo'yildi.

1711 yilda knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy diplomatik missiya bilan podsho maktubini yetkazish uchun Kavkazga yuborildi va kabardin zodagonlarini Rossiya tobeligiga o'tishida katta rol o'ynadi.

1714 yilda A.Bekovich-Cherkasskiyning "Kavkazning tog'li xalqlarini Rossiya davlati tarafiga og'dirish choralari" mavzusidagi taqdimoti podsho tomonidan yuqori baholandi va o'rganish uchun Senatga yuborildi. A.Bekovich-Cherkasskiyning tajribasi ortib borayotganligi hamda diplomatik layoqatini yuqori baholab, podsho Petr uni Xorazmga elchi etib tayinlaydi.

A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining ikkinchi asosiy mutaxassisi A.V.Kojin edi. 1711 yilda A.V.Kojin bir qancha yoshlar qatorida dengiz ishlariga o'qish uchun xorijga yuboriladi va u yerda navigatsiya maktabining astronomiya sinfida ta'lim oladi. 1714 yil noyabr oyida Rossiyaga qaytib kelgach, dengiz ishlari xizmatiga qo'yilib, navigator etib tayinlanadi. 1715 yil Rossiyaning Shimoliy urushdagi harbiy kampaniyasi vaqtida Fin ko'rfazining Revel va Gogland yarim orollari oralig'i qismining tavsifini shakllantirib, bir vaqtning o'zida u yerlarning xaritalarini ham tuzib chiqdi va keyinchalik bu xaritalar chop etildi. Shu xizmatlarini inobatga olib 1715 yil 2-sentabr kuni unga poruchik unvoni beriladi.

1716 yil 27 yanvar kuni A.V.Kojin podsho Petr Alekseyevichning farmoni bilan knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy qo'l ostiga o'tkaziladi va u tomonidan amalga oshirilayotgan ekspeditsiyada Kaspiy dengizi qirg'oq atroflarining kartografiyasini yaratish vazifasi yuklatiladi. Ayni vaqtda A.V.Kojinga savdogar qiyofasida Hindistongacha borish va Kaspiy dengizi hamda Hindiston oralig'idagi barcha suv yo'llarini aniqlash maxfiy topshiriq sifatida yuklatiladi [12].

Biroq ekspeditsiya vaqtida A.Bekovich-Cherkasskiy va A.V.Kojin o'rtasida kuchli ziddiyat kelib chiqadi va bu ziddiyat Cherkasskiyning o'limigacha davom etadi. 1717 yilda A.V.Kojin o'zboshimchalik bilan ekspeditsiyani tark etadi va bunga sabab qilib A.Bekovich-Cherkasskiyning "axmoqona" topshiriqlarining unga asosiy vazifasini bajarishga yo'l bermayotganligini ko'rsatib o'tadi.

1718 yilda kapitan-leytenant knyaz V.A.Urusov [13] qo'mondonligida "Astraxan" kemasida Kaspiy dengizining kartografik tavsifi va dengizning sharqiy qirg'oqlari, shuningdek Amudaryo o'zanining xaritasini yaratadi. Mazkur gidrografik o'rganishlar shu yilning noyabr oyidayoq graf F.M.Apraksin [14] ga hisobot tarzida yuboriladi.

A.V.Kojinning Kaspiy dengizi va Amudaryoga oid kartografik tafsilotlari va xaritalari Karl fon Verden [15] va F.I.Soymonovlar [16] tomonidan tuzilgan Kaspiy dengizi va atroflarining dastlabki mukammal xaritasi hisoblanadi. Bu xaritalar 1721 yilda Parij fanlar akademiyasiga yuborilgan.

1719 yilda A.V.Kojin qo'mondonlik bilan ko'plab ziddiyatlarga borganligi uchun hibsga olingan. 1721 yil 14 martda flotdagi xizmatidan bo'shailib, 1722 yil 9 martda sud hukmi bilan Sibirga surgun qilingan. A.V.Kojinga aloqador eng so'nggi ma'lumotlar 1733 yilga oid bo'lib, o'zining ozod etilishini so'rab yozgan xatlaridir.

1714-1717 yillarda podsho Petr Alekseyevichining sharqqa tomon amalga oshirilgan ekspeditsiyalarining asosiy vazifalari mana shu ikki zobitga yuklatilgan edi. Bungacha esa rus va O'rta Osiyolik savdogarlar o'rtasida ma'lum darajada o'zaro savdo munosabatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, savdo yo'llari va ular bo'ylab joylashgan ayrim shaharlar va ovullar haqida dastlabki tasavvurlar mavjud edi.

-“Kaspiy dengizining shimoliy-sharqiy tomonidagi To'p qarag'an burni [17] turkmanlar bilan savdo qiluvchi Astraxan savdogarlari uchun avvaldan ma'lum bo'lgan. Ruslar va tatarlar bu yerlarga Astraxan orqali kichik kemalarda borib turganlar. 1713 yilda taniqli turkman savdogari Xo'ja Nafas [18] Astraxanga savdo karvoni bilan keldi va shu yerda yashovchi knyaz Samonovga Rossiya imperatori uchun kattagina foydasi tegishi mumkinligi haqida ma'lum qildi. Knyaz Samonov Xo'ja Nafasni Sankt Peterburgga olib bordi va u yerda gvardiyachi poruchik knyaz Aleksandr Bekovich Cherkasskiy vositachiligida 1714 yil bahorida podsho huzuriga kirishga muvaffaq bo'ldi. Podsho Pyotr Alekseevich Xo'ja Nafas va uning hamrohlarini qabul qildi. Xo'ja Nafasning imperatorga bergan ma'lumotlariga ko'ra, avvallari Kaspiy dengiziga quyilgan, bugungi kunda [19] esa Orol dengiziga oquvchi Amudaryoning qurib qolgan o'zanida [20] xivalik o'zbeklar oltin zarralarini ajratib oladilar. Xiva o'zbeklari Rossiyadan o'zlarini himoyalash maqsadida to'g'on qurib Amudaryoni ataylab Orol dengiziga burib olganlar, biroq o'sha to'g'onni buzib tashlab daryoni yana eski o'zaniga qaytarish mumkin, bunda Rossiyaga turkmanlar ham yordam berishlari mumkin” [6].

Xo'ja Nafasning rus podshosi huzuriga kelganligi haqidagi ma'lumotni boshqa bir muallif ham keltirib o'tadi: -“1713 yili Astraxandan ikki osiyolik – cho'qintirilgan va rus xizmatiga knyazlikka qabul qilingan fors Somonov hamda taniqli turkman Xo'ja Nafas kelib, shaxsan imperator bilan uchrashtirib qo'yishlarini so'rab, murojaat qiladilar. Ularning aytishlaricha, Xiva xonligiga qarashli konlarda qumdan oltin yuvib olinayotganligi va Xiva xoniga adovatli turkmanlar bu konlarni qo'lga kiritishda rus podshohiga xizmatga tayyor ekanliklari haqida ma'lumot bor” [21].

Shunday mazmundagi ma'lumotni boshqa talqinini ham ko'rish mumkin, -“1713 yilda Xiva xonligi elchisi Ashurbek [22] Kaspiy dengizi qirg'oqlarida qal'a qurish masalasini taklif qildi, shu suhbat davomida u birinchi marta Buxoro va Xiva xonliklarining turli yerlarida va daryolarida oltin zarralari juda ko'p bo'lib, bu borada Amudaryo juda mashhurdir” [23.9]. Ashurbekning elchiligi hamda uning Xo'ja Nafas ma'lumotlarini “tasdiqlaganligi” haqidagi ma'lumotlar va qarashlar yana bir qator boshqa mualliflar tomonidan ham ko'rsatib o'tiladi [24.21].

Shu vaqtda Sankt Peterburgga Sibir gubernatori knyaz M.P.Gagarin [25] keladi va Buxoro hududlarida ko'plab oltin qumlari aniqlangani haqida ma'lumot beradi. Saroyda bo'lib turgan Xiva xonligi elchisi ham Amudaryo va uning yuqori oqimlarida oltin mavjudligi haqidagi

ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Knyaz M.P.Gagarin Amudaryoning qurib qolgan eski o'zani bo'yida daryoning Kaspiy dengiziga quyiladigan joyiga yaqin 1000 kishilik qal'a qurishga ruxsat so'raydi [6].

Amudaryo o'zanidagi oltin sochmalari haqidagi "rivoyatlar va afsonalar" o'sha davr podsho saroyiga yaqin aloqador bo'lgan yirik amaldorlar orasida ham keng yoyilganligi nafaqat rasmiy hujjatlar va yozishmalarda yoki tarix tadqiqotlarida, balki tarixiy rus badiiy adabiyotida ham kuzatish mumkin [26.62]. Shunday asarlardan biri bo'lgan "Sibirning o'tgan kunlari" tarixiy romanining muallifi L.G.Jdanovning o'z asarining 1914 yildagi nashrining 1913 yil fevralida yozgan so'zboshisida asardagi voqealar 1712-1912 yillarni o'z ichiga olgan va garchi asar og'zaki muloqot tarzida yozilgan bo'lsada, unda keltirilgan tarixiy jarayonlar daxlsiz tarixiy haqiqatga asoslanilganligini ko'rsatib o'tadi. Asarda e'tiborimizni tortgan qismi graf A.D.Menshikov [27] hamda knyaz Gagarin o'rtasidagi suhbat bo'lib, suhbatning mazmuni hattoki zamonaviy tarixiy tadqiqotlardagi ayrim jihatlariga deyarli aynan mos kelishi bo'ldi. Mana o'sha suhbatdan parcha:

-“Ha men u bilan (podsho nazarda tutilmoqda-Z.I) hazillashish juda yomonligini bilaman, ammo bu yerda juda katta oltin haqida gap bormoqda. Yana qanday isbot kerak, qarang, mana shu oltinlarning yarmidan ko'prog'i o'sha yerdan keltirilgan oltindir, ularning rangi yorqinroq. Bu borada mening guvohlarim ham bor. Bu oltin qumlari haqida eshitgach, men savdogarlarga ham ishonmay ularning barchasini sotib olish uchun shaharga odamlarimni yubordim. Shu vaqtda baxtimizga Tobolskka [28] buxorolik taniqli savdogar va zodagonlardan biri Abdul Said Muhammad kelib qoldi, Erket shahri qalmoqlar tomonidan buxoroliklardan tortib olingan vaqtda u o'z jonini saqlab qolish uchun u yerdan qochib qolgan ekan. Qarib qolgan, muhtaram zot. Men uni chaqirtirib ana o'sha oltinlar haqida so'radim, shu savdogar menga Erket yaqinida suv toshgan vaqtlarda oltin qum zarralarini qirg'oqqa chiqarib tashlaydi, keyin odamlar qumni yuvib olib ketaveradilar, deb aytdi. Pastda Amun-daryo [29] daryosida esa oltin bundanda ko'p. Ayt, podsho Xiva xoni elchisidan o'zi so'rasin, u bu haqda ko'p bilishi aniq, barchasini aytib beradi. Bunga esa mening guvohlarim ham bor, biri mening komendantim Karpov Semen, buxorolik savdogar bilan suhbatlashganimda huzurimda edi, ikkinchisi Tobols fuqarolaridan, tilmochlik qilgan Saabanak Azbekeyev, agar zarur bo'lsa ularni ham podsho huzuriga jo'nataman” [26.62].

Boshqa muallif ham bu haqda ma'lumot berib, “Tobolsk gubernatori knyaz M.P.Gagarin ham podshoga “Sibirda qalmiqlarning Erket shaxarchasiga yaqin daryoda oltin qazib olinadi”, — degan ma'lumotni berdi” [30.35-36].

Shunday ma'lumotlar boshqa bir manbada ham deyarli xuddi shunday mazmunda ko'rsatib o'tiladi: -“1714 yilda deyarli bir vaqtda Sibir gubernatori knyaz M.P.Gagarin va taniqli mang'ishloqlik savdogar Xoja Nafaslar Petruga Yerket (Erket, Irket, Irken – aslida Xitoy Turkistonidagi Yorkend) shaxri yaqinida mislsiz oltin qumlari mavjudligi, xivaliklar uni yashirish uchun Amudaryoga to'g'on qurib daryoni Orol dengizi tomon burib yuborganliklari haqida xabar yetkazadilar. Ular o'ylashadiki, daryoning eski oqimini o'z yo'liga to'g'rilab, oltin konlariga yo'l ochish hamda ehtimol-ki, Hindistonga suv orqali savdo yo'li orqali borish mumkin, deb” [31.31].

Shu vaqtda Rossiyada shunday ma'lumotlar tarqaladi-ki, ularda ko'rsatilishicha, avvallari Kaspiy dengiziga oqib turgan Amudaryo xivaliklar yoki qalmoqlar tomonidan “o'z davlati hududlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida” daryoga to'g'on qurishi natijasida

endi Orol dengiziga tomon oqa boshlaganligi, boshqa ma'lumotlarda esa Amudaryoning bir vaqtda Kaspiy dengiziga ham, Orol dengiziga ham oqib turganligi, xivaliklar esa Kaspiy dengiziga oqib turgan irmoqni qum bilan ko'mib yuborganliklari haqida so'zlanadi [32.6].

Ruslarning tasavvurida "agar ana shu to'g'onni buzib tashlansa va Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi qayta tiklansa, u holda rus va yevropalik savdogarlar Volga daryosi orqali Kaspiy dengiziga va undan Amudaryoga o'tib, Hindistongacha savdo qilishi mumkinligi, ayniqsa Hindiston, Xitoy va Yaponiyaning tovarlarini Rossiya orqali olib kelish mumkinligi" haqida qarashlar yuzaga keladi [32.6].

Natijalar. Bu haqda to'xtalib o'tgan tadqiqotchi A.V.Kochenevning yozishicha -"1713 yilda Xivadan kelgan Xo'ja Nafas Pyotr bilan uchrashgan vaqtda unga Xivaga ta'sir o'tkazish uchun Amudaryoni o'zining eski kanaliga, Kaspiy dengiziga yo'naltirish kifoya edi. Pyotr I Amudaryoning yo'nalishini yana bir bor o'zgartirish va shu tariqa Kaspiy dengiziga Rossiyadan olisda joylashgan mamlakatlar bilan mumkin bo'lgan savdo-sotiq yo'lini ochish, shuningdek, Hindistonga yo'l topish imkoniyatidan vasvasaga tushdi" [33.78-84].

Ko'rish mumkin-ki, bir-biri bilan mazmunan bog'liq ma'lumotlarning podsho saroyining o'zida va saroy bilan aloqador shaxslar tomonidan o'ta darajada jiddiy munosabatda bo'linganligi o'sha vaqtdagi rus hukumatining O'rta Osiyo bilan yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan suv orqali savdo yo'llarining, ayniqsa Hindiston va Xitoy, ayrim hollarda esa hattoki Yaponiyagacha bo'lgan savdo yo'llarining yuzaga keltirish mumkinligi deyarli chorak asr davomida dengiz orqali savdo yo'llariga chiqish uchun Shimoliy urushga tortilgan podsho hukumati uchun nihoyatda katta imkoniyat bo'lib tuyulgan edi. Albatta bunday "imkoniyat"ni qo'ldan chiqarilishi mumkin emasdi va balki shu maqsadda podsho hukumati tomonidan Kaspiy dengizi va uning atroflarini, Amudaryo va uning o'zanlari va ularga chiqish imkoniyatlarini o'rganish, kartografik va gidrografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim omillardan biriga aylanadi, buning uchun bundan bir necha yillar avval Gollandiyada maxsus dengiz ishlari bo'yicha ta'lim olib kelgan va bu borada kattagina tajribaga ega bo'lgan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy hamda Aleksey Kojin kabi mutaxassislarning jalb etilganligi bejizga emasdi.

Xulosa. Natijada 1714 yil 29 may kuni rus podshosi Pyotr Alekseevich tomonidan knyaz Aleksandr Bekovich-Cherskasskiyni "Xiva xonligiga qo'shin bilan yuborish, u yerdan Buxoro xonligiga borish va u yerda savdo ishlarining ahvolini o'rganish, ayniqsa Yorkend bilan savdo aloqalarining ahvoli, u yerlarning Kaspiy dengizidan qancha masofada ekanligini aniqlash, Kaspiydan u yergacha bog'lovchi daryolarning bor-yo'qligini aniqlash yoki Kaspiyga yaqin savdo joylarini aniqlash" kabilarni o'rganish va batafsil hisobot tayyorlash ko'rsatilgan holda yuborish haqida ko'rsatma beriladi [6]. Boshqa manbada ham aynan shu sanada podsho farmonining imzolanganligi haqida ma'lumot beriladi [34.33].

Shu tariqa rus podsholigi hukmron doiralarining O'rta Osiyo xonliklarini, xususan Xiva xonligini o'z ta'siriga olish uchun dastlabki, tom ma'nodagi mustamlakachilik siyosati harbiy ekspeditsiya shaklida harakatga keltirilgan edi-ki, uning tafsilotlari haqida keyingi maqolalarda to'xtalib o'tiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Pyotr Alekseevich – Pyotr I - (1672 yil 9 iyun – 1725 yil 8 fevral) – Romanovlar sulolasi vakili, 1682-1721 yillarda Rus podshosi, 1721 yildan Rossiya imperiyasining birinchi imperatori
2. Малиновский А. Ф. Известие об отправлении в Индию Российских посланников, гонцов и купчин с товарами и о приездах в Россию Индейцев, с 1469 по 1751 год // Труды и Летописи Общества Истории и Древностей Российских, учрежденного при Императорском Московском Университете. М., 1837. Ч. VII. С. 174.
3. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy (Davlet Girey mirza, 1717 y o'ld.) – kabardin knyazlari avlodidan, Preobrajenskiy polki kapitani, 1714-1717 yillardagi Xiva ekspeditsiyasi boshlig'i.
4. Терентьев М. Хивинские походы русской армии. М., 2010; Сношения России с Хивой // Безгин И. Г. Князя Бековича-Черкасского экспедиция в Хиву и посольства флота поручика Кожина и мурзы Тевкелева в Индию к Великому Моголу. (1714–1717 гг.). СПб., 1891; Малиновский А. Ф. Известие об отправлении в Индию Российских посланников, гонцов и купчин с товарами и о приездах в Россию Индейцев, с 1469 по 1751 год // Труды и Летописи Общества Истории и Древностей Российских, учрежденного при Императорском Московском Университете. М., 1837. Ч. VII. С. 174; Записка о поездках Александра Бековича князя Черкасского, к восточному берегу Каспийского моря и о сухопутной экспедиции его в Хиву // Москвитянин, № 12. 1842; Голиков И. И. Деяния Петра Великого. М., 1788. Ч. 5.; Z.A.Illhomov. Rossiya-O'rta Osiyo munosabatlarida dastlabki elchiliklar va ularning harbiy-siyosiy missiyasi. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor. Volume-11| Issue-12| 2023 Published: |22-12-2023|; Илхамов З.А. Несколько слов об источниках истории Хивинского ханства. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference Part 24 December 23rd COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS CANADA 2023. P.254-258.
5. Тоиров М. Пётр биринчининг Ўрта Осиё қайғуси. <https://ziyouz.uz>
6. Записка о поездках Александра Бековича князя Черкасского, к восточному берегу Каспийского моря и о сухопутной экспедиции его в Хиву // Москвитянин, № 12. 1842.
7. Erket shahri bo'lish mumkin. Erket – Irket, Yerket, Irken kabi nomlar bilan qayd etilgan. Ayrim manbalarda Erketni Xitoy Turkistonidagi Yorkend (qarang: Мангишлак. Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН <http://www.kunstkamera.ru>. Стр31), ayrimlarida esa hozirgi Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayonidagi Koshg'ardan janubiy-sharqda hamda Xo'tandan shimoliy-g'arbda joylashgan Shache shahri ekanligi va uning XVIII asrning birinchi yarmida Jung'orlar davlati tarkibiga kirganligi ko'rsatiladi (Qarang:T.C. Мамсик Экспедиция И.Д.Бухольца и «восстание» Ишимских крестьян 1714 г. Гуманитарные науки в Сибири, № 2, 2013 г. Стр.20-24.)
8. Tersk qal'asi - Shimoliy Kavkazda, Terek daryosi bo'yida joylashgan qal'alardan biri.
9. Русский бросок на юг. <https://culture-province.ru/rubriki/number-3-29/russkij-brosok-na-yug>
10. Мангишлак. Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН <http://www.kunstkamera.ru>. Стр.31
11. Князь Борис Алексеевич Голицын (1654 (ёки 1651) - 1714 йй) – рус боярларидан бири, София Алексеевна ва Пётр хукмронлиги даврларида давлат арбоби, Қозон саройи приказниги раҳбари, Петрининг ёшлигида тарбиячиси ва унинг ҳокимиятга келишидаги асосий ҳомийси.

12. Об отыскании и описи водяного пути в Индию. Инструкция поручику Кожину (14 февраля 1716 г.). Электронная библиотека исторических документов. <https://docs.historyrussia.org/ru/1716-g>.
13. Vasilij Alekseyevich Urusov (1690-174 y) – knyaz, general-poruchik, kontr-admiral, 1739-1741 yillarda Orenburg ekspeditsiyasining qo'mondoni sifatida Kaspiy harbiy flotilyasining barpo etilishining asoschilaridan biri.
14. Fyodor Matveyevich Apraksin (1661 yil 27 noyabr-1728 yil 10 noyabr, Moskva) — Rossiya imperatori Petr I ning yaqin maslakdoshlaridan, Rossiya imperiyasi harbiy-dengiz floti va armiya flotining asoschilaridan biri, general-admiral.
15. Karl (Klaus) fon Verden, Karl Petrovich Verden –rus harbiy flotining ofitseri, asli Gollandiyalik, Shvetsiya harbiy flotida shturman bo'lib xizmat qilgan va keyinchalik ruslar tomonidan asir olinib ularning xizmatiga o'tgan, 1719-1720 yillarda Kaspiy va Orol dengizlari hamda O'rta Osiyoga savdo yo'llarini aniqlash maqsadida yuborilgan ekspeditsiya boshlig'i.
16. Fyodor Ivanovich Soymonov (1692-1780 y) - rus tadqiqotchisi, navigatori va birinchi rus gidrografi, vitse admiral, haqiqiy maxfiy maslahatchi, 1708-1711 yillarda Rossiyada, 1711-1714 yillarda Gollandiyada dengiz ishlarini o'rgangan. 1719 yilda Petr I topshirig'i bilan leytenant F.Soymonov gollandiyalik Karl Varden qo'mondonligidagi ekspeditsiya tarkibida Kaspiy dengiziga, Moskvadan O'rta Osiyoning "yuragigacha" va undan sharqqa tomon olib boradigan savdo yo'llarini aniqlash uchun yuborilgan, bu murakkab ekspeditsiya 1719-1720 yillarda bir necha oyga cho'zilib, juda qiyinchilik bilan o'tgan, ekspeditsiya natijasida bir Orol dengizi atroflarining ba'zi kartografik tafsilotlari aniqlangan.
17. Manbada «у мыса Тюк-Капарана tarzida berilgan. To'p qarag'an burnidan Xiva xonligiga boradigan karvon savdo yo'llari orqali quruqlikda Rus davlati bilan savdo aloqalarini olib borgan bo'lsa, shu yerdan Volga daryosining quyilishi joylarigacha dengiz orqali savdo amalga oshirilgan.
18. Xo'ja Nafas - Mang'ishloq turkmanlarning Chovdir qabilasining Sadir urug'idan bo'lgan, o'z davrining mashhur kishilaridan.
19. 1714 yil nazarda tutilmoqda
20. Amudaryo 1571-1572 yillargacha Kaspiy dengiziga quyilgan, keyinchalik o'zanini o'zgartirib Orol dengizi tomon burilgan, bu yerda ana shu qurib qolgan eski o'zanga ishora qilinmoqda
21. Ўлжаева Ш. Бекович ким эди? Нега унинг терисини тирик ҳолда шилиб олишди?. <https://ziyouz.uz>
22. Xiva xoni Xoji Muhammad Vaxodirxonning maxsus yorlig'i bilan rus podshosi Petr I huzuriga yuborilgan elchi, Rossiya hududlariga - Astraxanga 1713 yilda yetib borgan.
23. Голиков И. И. Деяния Петра Великого. М., 1788. Ч. 5. С. 122–123, 334; Миллер Г. Ф. Известие о песочном золоте в Бухарии, о чиненных для оногo отправлениях и о строении крепостей при реке Иртыше. СПб, 1760. С.9.
24. Андреев А.А. Посольство Ашур Бека к Петру Великому и начало миссии князя А. Б. Черкасского Петербургский исторический журнал № 4. 2016 год. Стр.91-103; Бартольд В. В. История изучения Востока в Европе и России: Лекции. Л., 1925. С. 205; Росляков А. А. Укрепление русско-туркменских взаимоотношений в XVIII–XIX вв. Ашхабад, 1981. С. 21.
25. Gagarin Matvey Petrovich (1659 - 1721) - rus davlat arbobi, Rossiya hukumatida bir qancha mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan, 1707 yilda Moskva komendanti, Sibir gubernyasining birinchi gubernatori (1711-1719 y)
26. Жданов Л. Собрание сочинений: В 6 т. Т. 3 / Сост. Т. Прокопов. -- М.: ТЕПРА, 1995.
27. Menshikov Aleksandr Danilovich (1673-1729 y) - Rossiya davlat arbobi, graf (1702 y), Muqaddas Rim imperiyasining knyazi (1705y), Petr I ning yaqin maslakdoshlaridan biri, generalissimus (1727 y), admiral (1727 y). Sankt-Peterburgning birinchi general-

gubernatori(1703-1724 уу, 1725-1727 уу), Harbiy kollegiya prezidenti (1719-1724 уу va 1725-1727 уу), Petr I dan so'ng taxga Yekaterina I ning chiqishiga ko'maklashgan va 1725-1727 yillarda Rossiyaning amaldagi hukmdoriga aylangan. Oliy maxfiy kengashning tergov komissiyasi tomonidan 172 yil 8 sentabrda hibsga olingan, 1728 yil 4 aprelgacha hibsdan saqlanib, barcha mulki, unvonlari va mukofotlaridan maxrum etilib, imperator Petr II farmoniga ko'ra oilasi bilan Sibirga surgun qilingan va 1729 yil 12 noyabrda o'sha yerda vafot etgan.

28. Tobolsk – 1590 yilda asos solingan shahar, ruslarning Ural tog'laridan Osiyo tomondagi ikkinchi yirik shahri bo'lib, Tobol va Irtish daryolarning quyilishida joylashgan Sibirning tarixiy poytaxti hisoblangan.
29. Amudaryo ko'zda tutilmoqda
30. Памятники Сибирской истории XVIII века/ [ред. А. И. Тимофеев].-Санкт-Петербург: Типография Министерства внутренних дел , 1882-1885. Кн. 2. 1882. С. 35–36, 140.
31. Мангишлак. Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН. <http://www.kunstkamera.ru>. Стр.31
32. Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986. Стр.6.
33. Кочнев А.В. Проблемы торгово-экономических взаимоотношений Российской империи в начале XVIII в. со странами Средней Азии «В Бухарию и в прочие города или провинции к ней принадлежащие, како ж в Хиву и другие места». Вестник Томского государственного университета. 2016. № 408. С. 78–84
34. Сношения России с Хивой // Безгин И. Г. Князя Бековича-Черкасского экспедиция в Хиву и посольства флота поручика Кожина и мурзы Тевкелева в Индию к Великому Моголу. (1714–1717 гг.). СПб., 1891. С. 33

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SKETCHES ON THE LIFE AND ACTIVITIES OF KHYRINISO MAJIDKHANOVA (1905-1937), A PROMINENT WOMAN AMONG THE ENLIGHTENERS

Tilavova Shakhnoza Salokhitdinovna.

Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher, Doctorate student

Email: tilavovashahnoza249@gmail.com

Abstract. Influenced by the jadidism movement that arose in the Turkestan region at the end of the 19th – beginning of the 20th centuries, the women of the region also set themselves the goal of acquiring modern sciences, taking a worthy place in the life of society. One such progressive woman was the high-potential, educated Khairiniso Majidkhanova, and this article details her life, career, her role in the Turkestan reformist movement.

Keywords: caddism, women, Science, Society “Support”, Germany, Medicine, Development, Economics, trade, specialist.

MA'RIFATPARVARLARNING MATONATLI AYOLI XAYRINISO MAJIDXONOVA (1905-1937) HAYOTI VA FAOLIYATIGA CHIZGILAR

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi hamda tayanch doktoranti,

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida vujudga kelgan jadidchilik harakati ta'sirida mintaqaning xotin-qizlari ham zamonaviy ilmlarni egallashni, jamiyat hayotida munosib o'rin egallashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Shunday taraqqiyparvar ayollardan biri yuksak salohiyatli, bilimli Xayriniso Majidxonova bo'lib, ushbu maqolada uning hayoti, faoliyati, uning turkistonlik islohotchilik harakatida tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ayollar, ilm-fan, “Ko'mak” jamiyati, Germaniya, tibbiyot, taraqqiyot, iqtisod, savdo-sotiq, mutaxassis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N06>

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Turkiston mintaqasida vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalarining maqsadi, jamiyatni o'rta asrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish bo'lgan. Shu jadid ma'rifatparvarlari ichida yurt taraqqiyotiga munosib hissasini qo'shishni maqsad qilgan ayol jadidlar ham bor edi. Ayniqsa shu ayollar orasida 1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun “Ko'mak” jamiyati tomonidan yuborilgan talabalardan biri Xayriniso Majidxonova alohida ajralib turadi. U ham boshqa jadidlar kabi o'zining qarashlari, matbuotdagi chiqishlari orqali, o'zining barchaga ibrat bo'lishi mumkin bo'lgan ilm-fanni o'rganishdagi sa'y-harakatlari bilan millatning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg'otishga, istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq

bo'lgan edi. Ushbu maqolada jadid ayollaridan bo'lgan Xayriniso Majidxonovanning hayoti, faoliyati, uning matbuotdagi chiqishlari tadqiqotchilar, jadid taraqqiyparvarlarining asarlari orqali tahlil qilib yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan jadid ayollar haqida, shuningdek, xorijda ta'lim olgan Turkiston yoshlari ta'limi va taqdiri haqida adabiyotshunos Sh. Turdiyev hamda tarixchilardan B. Irzaev, N.Naimov, N.Karimov, D.Jamolova, A.Yo'ldoshev kabilar tadqiq etishgan. Shunday bo'lsa-da, xorijda tahsil olgan yoshlar ayniqsa, ayol talabalar taqdiri hozirga qadar tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolani yoritishda jadid taraqqiyparvarlari Botu, Ahmad Zakiy Validiyning asarlaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada XX asr boshlarida yashagan jadid ayollardan bo'lgan Xayriniso Majidxonovanning hayoti, faoliyatini tadqiq etib yoritishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Xayriniso Majidxonova 1905-yil 25-dekabrda Toshkentda tug'ilgan. Uning otasi Majidxon aka Toshkentning mashhur Mirobod mahallasidagi turli millatlarga mansub ma'rifatparvar ziyolilar bilan yaqin aloqada bo'lgan. Xayrinisoning ta'lim olib, ilm-fan bilan shug'ullanishi, salohiyati yuqori bo'lishida ziyoli otasining ham o'rni bor edi. U ma'rifatli ota sifatida qizini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan edi. Chunki Majidxon akaning o'zi ham XX asr boshlarida Markaziy Rossiyaning Moskva, Peterburg kabi shaharlarida bo'lib qaytgan, keyinchalik shu safar chog'larida olgan taassurotlari ta'sirida qizlariga zamonaviy bilim berishga, xorijiy tillarni o'rgatishga harakat qilgan edi [6. B. 115]. U bilim olish uchun o'zbek qizini chetga yuborgan birinchi ota edi va shu sababli ham unga har tarafdan tabrik xatlari keladi. U ham bu xatlarga javoban, 1922-yil 18-dekabrda "Bilim yo'lida ("ko'paysin deyman")" deb nomlangan xatni yozadi va bu o'sha davr matbuotida chop etiladi. U xatining so'ngida "bilim istab dunyoning har tomonig'a yoyilaturg'on yigit va qizlarimizni "Ko'paysin!" deyman" deb qolganlarni ham ilm olishga, otalarini qiz farzandlarini o'qitishga da'vat etadi [3. B.78].

Xayriniso dastlab Miroboddagi yangi maktabda tahsil olib, rus va nemis tillarini o'rgangan. Uning dunyoqarashi shakllanishida Turkiston jadid matbuotining, shuningdek, bu vaqtda birinchi o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida o'qiyotgan opasi Oyposhshaxonning ham ta'siri katta bo'lgan [5. B. 6]. Xayriniso 1922 yilning oxiri — 1923 yilning boshlarida bir guruh o'zbek yigit va qizlari bilan (Ahmad Zakiy Validiy o'z "Xotiralar"ida talabalar sonini 70 nafar deb ko'rsatadi [1.B.507] birga Germaniyaga o'qishga yuboriladi. Xayrinisoning Germaniyaga o'qishga borib tahsil olishini o'z davrida jadid ma'rifatparvarlaridan Botu ham qo'llab-quvvatlab, "Kichkina armug'onim" deb nomlangan she'rini yozgan edi va uni olqishlagan, ayni damda "uzun yo'lning xatarlari"dan ogoh bo'lishga ham chaqirgan edi [2.B.49].

Xayriniso Berlinda bir muncha vaqt davomida nemis tilini o'rgangach, 1924-1926 yillarda Maryam Sultonmurodova bilan birga Darmshtat shahridagi o'qituvchilar seminariysida va ayni paytda tibbiyot kurslarida o'qiydi, nemis tili va adabiyotini o'rganadi. 1927-yili, yozgi ta'til vaqtida, Xayriniso Maryam Sultonmurodova bilan birga Parijga sayohatga boradi [6. B.116]. Germaniyada olti yil ta'lim olgan Xayriniso 1928- yili O'zbekistonga qaytib, to 1937 yil 13 sentyabrga qadar Kasaba uyushmalari Markaziy Qo'mitasi xodimlari hamda jumhuriyat boshlang'ich va o'rta ta'lim o'qituvchilarining dam olish uyda shifokor bo'lib ishlaydi. Yevropa tibbiyoti yutuqlari bo'yicha erishgan bilimlari, mashhur nemis olimlari va shifokorlaridan o'rgangan malakalari mehnatkashlarni davolashda, ayniqsa, qo'l keladi.

Xayriniso Majidxonova Turkiston mintaqasining faol ayollaridan bo'lib, mustamlaka hukumatga albatta o'z davlatining rivoji, istiqboli uchun xizmat qiladigan faollar kerak emas edi. Aksariyat xorijda tahsil olib qaytgan ziyolilar aksilinqilobchi, chet el josusi, "millatchi" tuhmatlari bilan ayblanib, 1937-1938 yillarda qatag'on qilindi. Xayriniso ham mustamlaka hukumatining qatag'on qurboni bo'ldi. U 1937 yil 13 sentyabrda to'satdan qamoqqa olinib, 1922-1928 yillarda Germaniyadagi "Turkiston" aksilinqilobiy millatchilik tashkilotining a'zosi bo'lgan, 1928 yilda uning topshiriqlari bilan SSSRga josus bo'lib kelgan, SSSRdagi o'sha "Turkiston" tashkiloti a'zolari bilan aloqada bo'lgan", — degan tuhmatkorona ayblar qo'yilgan edi [7. B. 65.] va 1938 yil 9 oktyabrda unga nisbatan chiqarilgan hukm ham amalga oshirildi. Millat yana bir faol, yurt istiqlolini o'ylovchi ziyolisidan ajraldi.

Xayriniso Majidxonova Turkistonning har tomonlama taraqqiyotini o'ylaydigan jadidlarning faol vakili bo'lib, u ham matbuotda o'zining millatni uyg'otishga, ilm olishga da'vat etuvchi maqolalari bilan matbuotda chiqishlarni amalga oshirdi. U "Turkiston" gazetasida 1922 yil 13-sentabrda "Turkistonning taraqqiyot yo'llari" deb nomlangan maqolasida yurtning taraqqiy qilishi uchun Turkistonning geografik joylashuvi, iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, matbuot, teatr, maktablarga e'tibor qaratish lozimligini zamondoshlariga uqtiradi. U Turkiston mintaqasi har tomonlama taraqqiy qilishi uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish kerakligini aytadi:

Birinchidan, Turkiston mintaqasi XVII asrdan buyon savdo maydonida taraqqiyot jihatidan orqada qolgani, bunga sabab qilib, bir zamonlar mintaq hududidan o'tgan mashhur Buyuk ipak yo'li bo'lgan karvon yo'llarining ahamiyatini yo'qotgani, g'arbda yangi savdo dengiz yo'llarining ochilishini ko'rsatadi. XIX asrda ham Turkiston G'arbiy Yevropadan uzoq bo'lganligi uchun atrofidagi musulmon davlatlardan orqada qolganligi, faqat Rossiyadan temir yo'l kelib, savdo maydonining kengayishi bilan Turkistonning savdosi, paxta dehqonchiligi va uning davomi bo'lgan paxta zavod sanoati bir qancha yuksalganligini aytib o'tadi. Yurt istiqbolini porloq qilish uchun ulug' temiryo'l qurishni maslahat beradi. Bu bilan albatta davlatning boshqa davlatlar bilan savdo-sotig'i kengayishiga, iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yilishiga, sanoatni rivojlantirishga xizmat qilishi hamda boylik va obodlikni olib kelishini aytadi;

Ikkinchidan, Turkiston iqlimi qulay bo'lib, yerlari hosildor, dehqonchilik uchun qulay, shuningdek, Turkiston tog'lari ham ma'danlarga boy, bu esa tog' sanoati yuksalishiga sabab bo'ladi. Bu qulay imkoniyatlardan samarali foydalanilsa, paxta zavodlari, ipak zavodlari, ma'dan zavodlari kabi sanoat turlari rivojlanishi mumkinligini, shuningdek, dehqonchilikda, sanoatda yangi ishlab chiqarish qurollari, texnikalar, mashinalardan foydalanilsa bu ham davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkinligini aytadi.

Uchinchidan, Turkistonning iqtisodiy boyligi bilan birga istiqbolni ravshan ko'ra oladigan moddiy istiqboli porloq, fanning rivojiga hissa qo'shuvchi, savdo-sanoat ishlarini yurgiza oladigan ma'naviy kuch kerakligini ya'ni o'qimishli, ziyoli insonlar bo'lishi kerakligini aytib o'tadi. Xayriniso buni quyidagi misralar orqali keltiradi: *"Turkistonning moddiy istiqboli porloq, chunki ul tabiatda boy yaratilgan va jug'rofiy jihatdan ung'oy o'runda turodir. Faqat bu istiqbolg'a qarab tezroq harakat qilishimiz lozim. uning yo'lida bo'lg'on hamma tarixiy mone'lar bilan tadrijiy ravishda kurashib, ularni yo'q qilishimiz kerak. Mana buning uchun bizning iqtisodiy boylig'imiz bilan barobar, istiqbolni ravshan ko'rguvchi, fanniy ishlab chiqarish usullari bilan tanish katta savdo-sanoat ishlarini yurgiza olg'uchi ma'naviy kuchimiz ham bo'lishi kerak. Bul kuchimiz bo'lmag'onda bizning harakatimiz ko'r kishining asta qadamlariga o'xshar (!).* [4.B. 85].

U bu fikrlari orqali Turkiston mintaqasini har tomonlama bilimlarni puxta o'zlashtirgan, ilm-fan, sanoat rivojiga hissasini qo'sha oladigan ziyolilarga, "ma'naviy kuch"ga ehtiyoji borligini va shu ma'naviy kuchlargina davlatni har tomonlama rivojlantira olishini, ularsiz taraqqiyotga erishib bo'lmasligini anglatadi.

To'rtinchidan, hozirgi taraqqiyotga to'siq bo'lib turgan omillardan biri, ko'p asrlardan beri kishilarning o'z qobig'iga o'ralib qolganlari evaziga vujudga kelgan nodonliklari hamda har qanday yangiliklarga to'sqinlik qiluvchi qadimchi diniy ulamolarning xurofotlari deb hisoblaydi. Bu dardlarni davolash uchun va xalqni uyg'otish uchun kerak bo'lgan buyuk qurollar matbuot, maktab va teatr ekanligini aytadi. Bularning barchasi bo'lsa-da, ammo faqat shu bilan ish bitmasligini, ular o'z tarixiy vazifalarini yetarlicha yetkazib bilmayotganliklarini, bu qurollardan samarali foydalanish kerakligini va ularning vazifalari kishilar ruhiyatigacha kirib borishi kerakligini ta'kidlab o'tadi. Xayriniso maqola so'ngida, bu ishlarining orqasida ziroat, sug'orish va sanoat, savdo iqtisodiyot doiralarida Yevropa usullari bilan ishlay oladigan mutaxassislar yetishtirish kerakligini, buning uchun Yevropa tillarini o'rganish hamda chetda G'arb maktablarida ilm-hunar olishlari kerakligini ta'kidlab o'tadi. Yurt istiqbolini o'ylaydigan bu ayolning bu fikrlari orqali chetda o'qib kelgan mutaxassislar ilg'or mamlakatlarning tajribalarini o'rganishni va ularni o'z yurti taraqqiyoti uchun qo'llash lozimligini ko'zga tutgan edi [4.B. 86]. Xayriniso Majidxonova yurtining taraqqiyoti uchun kerak bo'ladigan yo'llarni shular deb hisoblaydi va bu yo'llar amalga oshirilmasa "xalqning g'urbatda qolishiga" ya'ni taraqqiyotdan orqada qolishga yanada ahvol yomonlashishiga sabab bo'ladi deb xulosa qiladi. Bu maqolani yozish vaqtida Xayriniso 17 yoshda edi va uning fikrlarini ko'rib, o'tgan asrda yashovchi yosh qizning salohiyati qanchalik yuqori bo'lganligini anglash mumkin.

Xulosa. Turkistondagi jadidchilik harakatining yetuk ayol namoyondalaridan biri Xayriniso Majidxonova Turkistondagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etib, o'z orzu-maqсадlarini amalga oshirishga dadillik bilan kirishdi. U diniy va dunyoviy bilimlarni yetarli darajada egallab, o'z xalqiga astoydil xizmat qila boshladi. O'z davlatining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgan edi, shu sababli ham jamiyatdagi muammolar va kamchiliklarni matbuotdagi chiqishlari orqali ifoda etib, ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator tavsiyalarini berdi. Xayriniso Majidxonovanning qarashlari, millatni ongini uyg'otishga da'vat qiluvchi fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар :Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи/ Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи М.Абдурахмонов. Масъул муҳаррир Ҳ.Зиёев. –Т.: 2014. -612 б.
2. Боту. Танланган асарлар / - Тошкент: "Маънавият", 2016. – 248 б.
3. Ирзаев Баҳром. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. – Тошкент: Akademnashr, 2018. - 208 б.
4. Ирзаев Баҳром. Туркистон жадидларининг «Кўмак» ташкилоти [Матн] / - Тошкент : Тошкент ислом университети, 2016. - 148 б.
5. Ирзаев, Баҳром. Хорижда ўқиган ўзбек жадид аёлларининг "айби" нима эди // Янги Ўзбекистон, 2023-йил 8-март. № 46. Б.6.
6. Турдиев Шерали. Улар Германияда ўқиган эдилар. - Т.: 2006. - 256 б.

7. Қор кўйнида лолалар (қатағон килинган аёллар ҳақида очерклар). //Масъул муҳаррир: Б.Шарипов/. - Тошкент, «Академия», 2001 й. - 213 б.
8. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
9. Sobirovich T. B. Issues of gender equality in Uzbekistan: Strategy of reforms //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 203-207.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

CHANGES IN THE ADVOCACY SYSTEM IN UZBEKISTAN IN THE 20s OF THE XX CENTURY (BASED ON THE EXAMPLE OF THE FERGHANA REGION)

Jaynarov Obidjon Khamid o'g'li,

Associate Professor of the Department of History, Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Philosophy in History (PhD)

Abstract. The article, based on a wide range of primary sources and historical literature, describes the changes that occurred in the activities of the legal profession in the Fergana region after the establishment of Soviet power. The legal services provided by lawyers, their results, the national composition and level of education of lawyers are analyzed.

Keywords: Turkestan ASSR, Fergana region, People's Commissariat of Justice, courts, public defenders, human rights defenders, bar associations, legal assistance.

XX АСР 20-ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА АДВОКАТУРА ТИЗИМИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Жайнаров Обиджон Ҳамид ўғли,

Чирчиқ давлат педагогика университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

jaynarov.o@mail.ru

Аннотация. Мақолада кенг турдаги бирламчи манбалар ва тарихий адабиётдаги маълумотлар асосида Фарғона вилоятида XX аср 20-йилларида адвокатура органлари фаолиятида рўй берган ўзгаришлар ёритиб берилган. Бунда адвокатлар томонидан кўрсатилган юридик хизматлар, уларнинг натижалари, адвокатларнинг миллий таркиби ва маълумот даражаси ёритиб берилган.

Таянч сўзлар: Туркистон АССР, Фарғона вилояти, Адлия халқ комиссарлиги, судлар, жамоат оқловчилари, ҳимоячилар, Адвокатлар коллегияси, юридик ёрдам.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N07>

Кириш. Туркистон советларининг РСФСР ҳукумати томонидан ишлаб чиқилган “Суд тўғрисида”ги биринчи Декрет асосида қабул қилган 1917 йил 12 декабрдаги 17-сонли буйруғига кўра бутун ўлкада собиқ империя адвокатура органлари фаолияти тўхтатилиб, судларда фуқаролик ишлари бўйича ҳимоячи сифатида фақатгина номига доғ тушмаган шахслар иштирок этиши белгиланди[1]. Бунда уларнинг юридик маълумот даражаси ва оқловчи учун зарур бўлган бошқа омилларга умуман эътибор қаратилмади. Адвокатлик вазифасини бажарувчи совет адлия кадрларининг йўқлиги натижасида Туркистон ХКСнинг 1917 йил 31 декабрдаги қарори асосида собиқ империя

адвокатлари фаолиятига Адлия халқ комиссарлиги ва маҳаллий советларнинг назорати остида қонуна рухсат берилди[2].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ўзбекистонда адвокатура органларининг XX асрнинг 20-йилларидаги фаолияти бўйича дастлабки маълумотлар Х.С.Сулайманова ва А.И.Ишановлар муҳаррирлиги остида 1960 йилда чоп этилган “История советского государства и права Узбекистана” номли китобда келтириб ўтилади. Кейинчалик қатор тадқиқотчилар: И.Сухарев, М.Махбубов ҳамда Д.Комоловларнинг диссертацион тадқиқотларида ҳам мавзунинг бир қатор жиҳатлари очиқ берилган.

Тадқиқот методологияси. Ўзбекистонда адвокатура органларининг XX асрнинг 20-йилларидаги фаолиятини ёритишда замонавий тарих фанида тан олинган тарихийлик, объективлик тамойиллари ҳамда тизимли қиёсий таҳлил, муаммовий ва фанлараро ёндашув каби усуллардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. 1919 йил 6 мартда бўлиб ўтган Туркистон Советларининг VII съездида вилоят ижроия қўмиталари ҳузуридаги ҳимоячилар коллегияси “ҳимоячилар, айбловчилар ва фуқаролик процессида тарафларнинг вакиллари коллегияси” сифатида қайта номланди ва бу коллегияда ҳимоячилар ҳайъатининг мустақил фаолият юритиши белгилаб қўйилди. Шунингдек, съезд қатнашчиларининг берган таклифи асосида Адлия комиссарининг 1919 йилдаги 60-сонли қарори билан Туркистон Республикасида хусусий адвокатуралар фаолияти тўхтатилди[3].

Янги иқтисодий сиёсатга ўтиш муносабати билан адлия комиссарлиги шу жумладан, мавжуд оқловчиларга совет ҳукумати томонидан маҳаллий аҳолига инқилобий қонунчиликнинг моҳиятини тушунтириш, уларга кенг миқёсда бепул юридик ёрдам кўрсатиш вазифаси юклатилди. Бироқ ҳимоячилар фаолиятининг етарлича ташкил қилинмаганлиги натижасида ушбу вазифалар ўз вақтида амалга оширилмади.

Юқорида айтиб ўтилган хато ва камчиликлар совет ҳукуматида ҳимоячилар фаолиятини кенгайтириб, уларни алоҳида давлат органига айлантириш зарурлигини кўрсатиб берди. Ушбу масала Бутунроссия адлия ходимларининг 1922 йил 26-30 январь кунлари бўлиб ўтган IX съездида муҳокама қилинди[4] ҳамда ушбу съездда қабул қилинган резолюция асосида 1922 йил 26 майда РСФСР МИҚ томонидан “Адвокатура тўғрисидаги Низом” тасдиқланди. Шунингдек, 1922 йил 5 июлда РСФСР Адлия халқ комиссарлиги томонидан “Адвокатлар коллегияси тўғрисидаги Низом” ишлаб чиқилди. ТАССР ҳудудида ушбу низомлар МИҚнинг 1922 йил 29 октябрдаги 131-сонли қарори билан қонуний кучга кирди[5].

Таъкидлаш керак, ушбу қонун ҳужжатларининг қабул қилиниши совет адвокатураси фаолиятида янги босқични бошлаб берди. Хусусан, Адвокатлар коллегияси эндиликда вилоят адлия бўлимлари (кейинчалик вилоят судлари) ҳузурида ўз-ўзини бошқарувчи жамоат ташкилоти сифатида фаолият юрита бошлади. Адвокатлар уюшмасининг умумий кенгаши коллегиянинг олий органи сифатида белгилаб берилди. Умумий кенгашда адвокатлар уюшмаси фаолияти билан боғлиқ барча масалалар (адвокатлар фондига бадаллар белгилаш, аҳолига ҳуқуқий ёрдам кўрсатишни ташкил қилиш ва бошқалар) муҳокама қилинган.

“Адвокатлар коллегияси тўғрисидаги Низом”га мувофиқ коллегия аъзолигига совет адлия тизимида судья, терговчи, адвокат, суд маслаҳатчиси лавозимларида камида икки йиллик тажрибага эга бўлган ёки махсус комиссия томонидан ташкил қилинадиган имтиҳондан ўтган шахслар қабул қилинган. Аммо ТАССРда совет адвокатларининг етишмаслиги натижасида бундай тартибга деярли амал қилинмади.

Коллегия аъзолари суд ишларида иштироки учун суд томонидан белгиланадиган муайян миқдорда ҳақ олган. У айбланувчи тарафидан ундирилиб, комиссарлик сметаси бўйича республика бюджетига ўтказилган. “Адвокатлар коллегияси тўғрисидаги Низом”га кўра фуқаролик ишларига оид суд жараёнларида иштироки учун адвокатларга 5 % миқдорда ҳақ берилган бўлса, жиноий ишлар бўйича бериладиган тўлов ишнинг даражасига қараб белгиланган. Адвокатлар ҳар бир суд жараёнидан кейин бериладиган ҳақнинг 3 % ини коллегия фондига топшириши лозим эди[6].

XX аср 20-йилларнинг бошида совет адвокатураси ўз фаолиятини асосан иккита йўналишда олиб бориб, улардан бири юридик маслаҳат бериш ишларини ташкил қилишдан иборат бўлган. Маслаҳат пунктлари асосан бозорлар, завод ва фабрикалар, деҳқон уйлари ҳамда бошқа аҳоли гавжум жойларда ташкил қилинган.

Совет давлати томонидан Туркистонда адвокатура фаолиятини йўлга қўйиш бўйича қатор табдирлар амалга оширилган бўлса-да, бу даврда ҳам уларнинг фаолияти қониқарсизлигича қолаверди. Бу ҳақда комиссарлик масъул ходими Рачинский ўзининг Фарғона вилояти адлия органлари фаолияти бўйича тафтиш ҳисоботида (1921 йил) куйидагича таъкидлаб ўтади: “...вилоятда ҳимоячилар сони фақат қоғозларда мавжуд, аслида эса уларнинг фаолияти умуман йўлга қўйилмаган”[7].

Умуман олганда, 1922 йилда Туркесубликада 5 та вилоят, 5 та уезд ҳимоячилар коллегияси бўлиб, уларда жами 113 нафар ҳимоячи фаолият олиб борган[8]. Шулардан Фарғона вилоятининг Андижон ва Қўқон уездида 3 тадан, Наманган, Марғилон, Фарғона ва Ўш уездларида 1 нафардан адвокат иш олиб борган[9]. Ўлкада мавжуд бўлган “Адвокатлар коллегия”си фаолиятини тартибга солиш мақсадида 1924 йил 17 мартда Адлия комиссари Газиёвнинг 22-сонли циркуляри қабул қилинди. Бу даврда Туркистон АССРда 106 нафар адвокат бўлиб, уларни вилоятлар бўйича тақсимлаганда Фарғона вилоятида 9 нафар адвокат фаолият юритган[10].

1924 йили ўтказилган миллий-худудий чегараланиш натижасида Ўрта Осиё минтақасида миллий социалистик республикалар жумладан, Ўзбекистон ССР ташкил қилинди. Ўзбекистон ССРнинг ташкил қилиниши мавжуд давлат тузилмалари ва соҳаларда ҳам ўзгаришларни тақозо қилди. Бундай ўзгаришлар адлия жумладан, аҳолига юридик хизмат кўрсатиш тизимида ҳам амалга оширилди.

Ўз ССР Ревкомнинг 1924 йил 31 декабрдаги 48-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида Адлия халқ комиссарлигининг 1925 йил 15 февралда №9 сонли циркуляри қабул қилинади. Унга мувофиқ Фарғона вилоятидаги ҳимоячилар коллегиялари ўзбек ва рус тилларида олиб бориши белгилаб қўйилди[11]. Бироқ тизимдаги деярли барча ходимларнинг европалик аҳоли вакиллари ташкил қилганлиги сабабли бошқа вилоятлар қаторида Фарғонада ҳам қарор ижроси тўла таъминланмади.

Миллий-худудий чегараланишнинг ўтказилиши Ўзбекистон ССРда судлов органларининг янги тизимини ташкил қилинишини тақозо қилди. Хусусан, Ўзбекистон МИҚнинг 1926 йил июнда бўлиб ўтган IV сессиясидаги қарори билан ўтказилган

маъмурий районлаштириш натижасида 7 та область ўрнида 10 та округ (Андижон, Бухоро, Зарафшон (Ўрта Зарафшон), Кашқадарё, Сурхондарё, Самарқанд, Тошкент, Фарғона, Хўжанд ва Хоразм) ташкил этилиб, 23 та уезд ўрнида эса 87 та район (туман)лар ташкил этилди[12]. Шунга мос равишда фаолият юритиб келган вилоят ва уезд судлари тугатилиб, уларнинг ўрнига округ ва раёнлар сонига мос равишда округ ва раён халқ судлари ташкил этилди. Бу жараён адвокатлар коллегияси фаолиятида ҳам ўзгаришлар қилинишига сабаб бўлди. Вилоят судларининг тугатилиши муносабати билан адвокатлар коллегияси фаолиятини бошқариш округ судлари ваколатига киритилди. Эндиликда Адвокатлар коллегиясига аъзолар сони чекланмаган равишда қабул қилиниб, округ судлари назорати остида фаолият юрита бошлади.

Миллий-худудий чегараланиш натижасида Ҳимоячилар коллегияси бошқарувида ҳам ўзгаришлар рўй берди. Хусусан, Фарғона вилояти аҳолиси учун 58 нафар ҳимоячи тайинланиб, шундан 30 нафари Қўқон шаҳрига, уездларга эса 7 нафардан ҳимоячи тайинланиши кўрсатиб ўтилди. Бироқ коллегия барча вилоятлар қатори Фарғонада ҳам тўла шаклланмади.

Бу даврда бутун ЎзССРда адвокатларнинг сонига ҳам ўзгаришлар рўй берди. Хусусан, 1925 йил ноябрдаги маълумотлар бўйича адвокатлар вилоятлар бўйича қуйидагича тақсимланган: Тошкент вилояти Адвокатлар коллегиясида 56 нафар, Самарқанд вилояти коллегияси таркибида 21 нафар, Фарғона вилоятида 29 нафар, Зарафшон вилоятида 5 нафар, Қашқадарё вилояти Адвокатлар коллегияси таркибида эса 2 нафар ҳимоячи фаолият кўрсатган. Хоразм вилоятида эса ҳимоячилар коллегияси фаолияти 1926 йилнинг охиридан йўлга қўйила бошлаган[13].

Ушбу маълумотлардан кўринадик, XX аср 20-йиллари охирида адвокатлар коллегияси фаолияти бошқа ҳудудларга нисбатдан Тошкент, Самарқанд ва Фарғона вилоятларида етарлича ташкил қилинган. Бу вилоятлардаги коллегияларда президиум фаолият юритиб, президиум томонидан нафақат вилоят марказларида балки уезд (Андижон, Наманган, Қўқон, Марғилон)ларда истиқомат қилаётган аҳолига ҳам юридик ёрдам хизматини кўрсатиш ишлари йўлга қўйилди. Хусусан, 1925 йилнинг 1 январидан 31 октябрга қадар Андижон уездидаги 7 нафар ҳимоячи томонидан қуйидаги юридик хизматлар кўрсатилган: 336 та бепул маслаҳат, 219 та ариза ёзиш, жиноий ишлар билан боғлиқ суд жараёнларида 19 маротаба, фуқаролик ишларида 29 маротаба бепул қатнашилган[14]. Қолган вилоятларда эса уездлар у ёқда турсин ҳаттоки вилоят марказларида ҳам адвокатлар фаолияти қониқарсиз ҳолатда бўлган. Бу жараённи Фарғонанинг айрим ҳудудларида ҳам учратиш мумкин. Хусусан бир архив ҳужжатида “Фарғона водийсининг Қўқон, Фарғона ва Марғилон шаҳарларида ҳимоячилар фаолияти яхши ташкил қилинган. Қолган ҳудудларда уларнинг фаолиятига жуда кам эътибор қаратилмоқда. Оқибатда адвокатлар жанжалкашлик, талончилик, ичкиликбозлик билан шуғулланишмоқда. Улар ишларни ижобий ҳал қилиш учун ҳатто пролетар аҳоли вакилларида ҳам гонорар талаб қилишмоқда” [15]. ЎзССР ҳудудида суд аппаратини қайта ташкил қилиш ишлари олиб борилаётган бир даврда коллегия аъзолари орасида маҳаллий миллат вакиллари кўпайтиришга алоҳида эътибор қаратилди. Ўз ССР Адлия халқ комиссарлигининг 1925 йил февралдаги кўрсатмасига биноан жойлардаги Ҳимоячилар коллегияси таркибига маҳаллий миллат вакиллари чекланмаган миқдорда қабул қилиш кераклиги тўғрисида буйруқ берилди.

XX аср 20-йиллари охирида мавжуд Фарғона водийсидаги адвокатларнинг миллий таркиби ва маълумот даражасига тўхталадиган бўлсак, Фарғона вилояти коллегияси 29 нафардан иборат бўлиб, улардан 8 нафари маҳаллий миллат вакиллари эди. Умуман олганда 1925 йилда Фарғона вилоятининг Қўқон шаҳри ва уездида 10 нафар (4 нафар маҳаллий миллат, 6 нафар европалик), Андижон уездида 7 нафар (3 нафар маҳаллий миллат, 4 нафар европалик), Наманган шаҳрида 23 нафар (барчаси европалик аҳоли вакиллари), Фарғона шаҳри ва Марғилон уездларида 9 нафар (3 нафар маҳаллий миллат, 4 нафар европалик) ҳимоячилар фаолият кўрсатган[16]. 1928 йил апрелдаги маълумотларга кўра Фарғона округ суди ҳузуридаги Ҳимоячилар коллегиясида жами 30 нафар аъзо бўлиб, миллий таркибига кўра уларнинг 12 нафари маҳаллий миллат, 18 нафар европалик аҳоли вакилларидан иборат эди[17].

Фарғона вилоятидаги адвокатларнинг маълумот даражасига келсак 1925 йилда мавжуд 29 нафар адвокатлар орасида 16 нафар олий юридик маълумотга эга бўлган ҳимоячилар фаолият олиб борган. 1928 йилда эса вилоят коллегияси таркибида 30 нафар аъзодан 11 нафари олий маълумотга эга эди.

Хулоса ва таклифлар. Хуллас большевистик элитанинг “буржуазия адвокатураси”дан тамомила фарқ қиладиган адвокатлик институтини яратиш ҳаракати ўзининг кутилган самарасини бермади. Охир-оқибат XX аср 20-йилларнинг бошларига келиб капиталистик давлатлар адвокатурасига деярли ўхшаш бўлган тизим фаолияти йўлга қўйилди. Бу жараён Фарғона вилоятидаги адвокатлар фаолиятида ҳам ўз аксини топди.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-25-фонд, 1-руйхат, 19-иш, 33-варақ.
2. История советского государства и права Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1960. – С. 417.
3. Jaynarov, O. K. (2019). ORGANIZATION AND ACTIVITIES OF THE PEOPLE'S COMMISSARIAT OF JUSTICE OF THE TURKESTAN ASSR. Theoretical & Applied Science, (10), 744-747.
4. ЎзМА, Р-38-фонд, 2-руйхат, 144-иш, 55-варақ.
5. Шаламов М. История советской адвокатуры. – Москва: Юриздат, 1939. – С. 38.
6. Советское право. – 1922. – № 2. – С. 13.
7. ЎзМА Р-38-фонд, 2-руйхат, 144-иш, 55-варақ.
8. ЎзМА Р-25-фонд, 1-руйхат, 945-иш, 215-варақ ва унинг орқаси.
9. ЎзМА Р-38-фонд, 2-руйхат, 371-иш, 44-варақнинг орқаси.
10. Рустамбоев М., Тухташева У. Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар. Олий ўқув юртлари учун дарслик. (Икки жилдли. 2-жилд). – Тошкент: ILM ZIYO, 2011. – Б. 170.
11. ЎзМА Р-904-фонд, 1-руйхат, 5-иш, 52-варақ.
12. Норматов О. Ўрта Осиёда ўтказилган раёнлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б. 63.
13. ЎзМА Р-904-фонд, 1-руйхат, 27-иш, 11-13-варақлар.
14. ЎзМА Р-904-фонд, 8-руйхат, 18-иш, 102-варақ.
15. ЎзМА Р-904-фонд, 1-руйхат, 221-иш, 169-варақ.
16. ЎзМА Р-904-фонд, 8-руйхат, 18-иш, 102-варақнинг орқаси.
17. ЎзМА Р-904-фонд, 1-руйхат, 209-иш, 73-варақ.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

HISTORICAL ANALYSIS OF MEASURES IMPLEMENTED TO SUPPORT THE YOUTH OF NUROTA DISTRICT (2017-2024)

Toshpulatov Mamadali

1st year doctoral student of Navoi State Pedagogical Institute

Email: mamadali.toshpulatov97@gmail.com

Abstract. In this article, the programs implemented by the government of the Republic of Uzbekistan during 2017-2024 in the context of supporting the youth of Nurota district, creating the necessary conditions for them to realize their potential, meaningful organization of their free time and social protection and their analysis, their efficiency indicators, achieved results, problems arising in the region in connection with youth policy and solutions to these problems were discussed.

Key words: Youth Policy, Social Protection, unemployment, entrepreneurship, "Youth notebook", Youth Union, Youth Affairs Agency.

NUROTA TUMANI YOSHLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILGAN CHORA-TADBIRLARNING TARIXIY TAHLILI (2017-2024)

Toshpo'latov Mamadali Zaynidin o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nurota tumanida yoshlarini qo'llab-quvvatlash, ularga o'z salohiyatini nomoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ijtimoiy himoya qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2017-2024-yillar mobaynida amalga oshirilgan dasturlar hamda ularning tahlili, samaradorlik ko'rsatkichlari, erishilayotgan natijalar, hududda yoshlar siyosati yuzasidan vujudga kelayotgan muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, ijtimoiy himoya, ishsizlik, tadbirkorlik, "Yoshlar daftari", Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N08>

Kirish. Uzoq yillik tarix shundan dalolat beradiki, istalgan davlatning jadal rivojlanishi, yutuqlarga erishishi hamda fuqarolarining farovon yashashi o'sha mamlakatda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [1].

Shunga ko'ra, butun mamlakat bo'ylab yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning orzularini ro'yobga chiqarish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada boy tarixga ega Nurota tumanida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Nurota tumanida yoshlar ijtimoiy himoyasiga qaratilgan mavjud dasturlarning samaradorligi katta ahamiyatga ega. Tadqiqot tumandagi yoshlar ijtimoiy himoyasiga qaratilgan dasturlarning tarixi va hozirgi holatini tahlil qilishga, ularning yoshlar manfaatlariga to'liq yo'naltirilganligini, sohalar kesimida erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda mavjud bo'lgan dolzarb muammolar va ularning yechimlari yuzasidan fikr yuritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilinarkan, mazkur masala yuzasidan X.Qurbonov, R.Axmedov, Sh.Ismoilzoda, U.Narzullayev, Z.Tog'ayevlar tadqiqot olib borishgan [2]. Tadqiqot yoshlar masalalariga bevosita va bilvosita qaratilgan, aynan Nurota tumani yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosi yuzasidan mas'ul idoralarning ochiq manbalariga joylashtirilgan ma'lumotlari hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari materiallari asosida olib borilgan. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik, izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Muhokama. Nurota tumanida ham butun mamlakatimizdagi kabi yoshlarni ham ma'naviy-ma'rifiy, ham iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan himoya qilish maqsadida chora-tadbirlar birdek amalga oshirilmoqda. Zero, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni moddiy tomondan ta'minlashdan-da muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda Nurota tumani iqtisodiyotini yuksaltirish imkonini beruvchi 10 dan ortiq yerosti konlari, xomashyo zaxiralari, turizm va xizmat ko'rsatish sohasida 65 dan ortiq me'moriy, arxeologik va ekoturizm obyektlari mavjud. Qishloq xo'jaligida esa intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish, yirik va mayda shoxli mollar sonini ko'paytirish hamda baliqchilikni rivojlantirishda qulay hudud – Aydarko'l tabiiy suv havzasi mavjudligi tumanda har qanday sohada yirik, o'rta va kichik hajmdagi loyihalarni tashkil etish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi [2; 12-b.].

Mavjud infratuzilma va resurslardan samarali foydalangan holda aholini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash esa hudud iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy himoya ko'rsatkichlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Aholi bandligini ta'minlash, shu jumladan yoshlar bandligini ta'minlash ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Ushbu yo'nalishda hududni kompleks rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, tumanda joylashgan foydalanilmay bo'sh yotgan davlat obyektlarini ushbu obyektlar negizida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan tadbirkorlik

subyektlariga yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan “nol” stavkasi bo‘yicha o‘n yil muddatgacha ijaraga berilishi, korxonalariga tikuv va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish uchun 100 ta asbob-uskunalarni taqdim etish orqali ularda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish va ushbu maqsadlar uchun binolar (ishlab chiqarish maydonlari)ni ajratish hamda sanoat, xizmatlar va servis infratuzilmasini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi sohalarida belgilangan loyihalarni amalga oshirish hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan [3]. Yaratilgan shart-sharoitlar hamda berilgan imtiyozlar ko‘zlangan natijalarga erishishda muhim rol o‘ynadi.

Qolaversa, tumanda joylashgan joylashgan “Barkamol avlod” markazlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, musiqa va san’at maktablarida 2017-yilning 1-oktyabridan boshlab bolalarni o‘qitish uchun har oylik ota-onalar to‘lovi respublika bo‘yicha o‘rnatilgan hajmning 50 foizi miqdorida belgilandi [3]. Natijada bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi ham oshib bormoqda.

Islohotlar izchil davom ettirilib, 2019-2021-yillarda Nurota tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida yana bir dastur qabul qilindi. Unda ham yoshlar va ularning bandligi masalasi alohida tilga olindi. Xususan, yoshlar va kam ta’minlangan fuqarolarning bandligini ta’minlash orqali ularning daromadlarini va turmush darajasini oshirish hamda yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va Internet jahon axborot tarmog‘idan samarali foydalanish chora-tadbirlariga oid dastur doirasida 2019-2021-yillarda tumanda raqamli texnologiyalar o‘quv markazini tashkil etish va unda bepul ta’lim berish dasturning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi [4].

Bundan tashqari, ushbu dastur doirasida Nurota tumanida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi tomorqasidan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilishi belgilab olindi. Ushbu sohalar tuman iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay bo‘lgan sohalar hisoblanadi. Tuman miqyosida Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi tomorqasidan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash ko‘rsatkichlari belgilanib, shundan, tuman mehnat resurslarining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar bandligini ta’minlashning maqsadli ko‘rsatkichlari alohida belgilab olindi. (1-rasm)

T/r	Bandlikni ta’minlash yo‘nalishlari	Bandligi ta’minlanadigan yoshlar soni <i>(kishi)</i>
1	Issiqxona yo‘nalishida	42
2	Parrandachilik yo‘nalishida	86
3	Tuyaqushchilik yo‘nalishida	18
4	Naslli qoramol yo‘nalishida	54
5	Mayda shohli chorva yo‘nalishida	92

6	Tuyachilik yo‘nalishida	4
7	Asalarichilik yo‘nalishida	11
8	Baliqchilik yo‘nalishida	8
9	Kurkachilik yo‘nalishida	19
10	Quyunchilik yo‘nalishida	17
11	Quduqlar qazish	64
12	Ishlab chiqarish va servis yo‘nalishida	84
Bandligi ta‘minlanadigan yoshlarning umumiy soni		499

1-rasm. Nurota tumanida yoshlarni oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va tomorqadan samarali foydalanish bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihalar doirasida bandligi ta‘minlashning maqsadli ko‘rsatkichlari [4].

Shuningdek, Nurota tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish ham belgilab olindi. Ushbu investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yaratiladigan yangi ish o‘rinlari asosan, yoshlar bandligini ta‘minlashga xizmat qilishi ko‘zlangan edi. (2-rasm)

T/r	Investitsiya loyihalari amalga oshiriladigan korxonalar	Yaratiladigan yangi ish o‘rinlari soni (ta)
1	“Gulkon” marmar koni	50
2	“Nurota” marmar koni	56
3	“Gazgan-Nur” marmar koni	55
4	“Karatosh” bazalt koni	60
5	“Vodorazdelnoye” leykokratli granit koni	30
Jami yaratiladigan yangi ish o‘rinlari soni		251

2-rasm. Nurota tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining maqsadli ko‘rsatkichlari [4].

Natijalar. Tuman aholisining yashash sharoitlarini yaxshilash yo‘lidagi eng asosiy qadam aholini ish bilan ta‘minlash hisoblanadi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Nurota tumanida aholi, xususan yoshlarning ish bilan ta‘minlanganlik darajasi oshdi va tumanda ishsizlik ko‘rsatkichlari yildan yilga kamaydi. (3-rasm)

Yillar kesimi	Iqtisodiy faol aholi soni jami (ming kishi)	shundan:		Ishsizlik darajasi (foizda)
		iqtisodiyotda bandlar (ming kishi)	ishsizlar (ming kishi)	
2020	36,3	32,4	3,9	10,6
2021	35,4	31,8	3,6	10,2
2022	37,3	33,8	3,5	9,3

3-rasm. Nurota tumani bo‘yicha ishsizlik darajasining yillar kesimidagi ko‘rsatkichlari [5].

Tuman yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan birgalikda ijtimoiy sohadagi islohotlarning ham o‘rni beqiyos. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Nurota tuman Kengashiga 2017-yil davomida bandlikni ta‘minlash bo‘yicha 62 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, shulardan 57 ta murojaat ijobiy hal etilgan. 34 nafar yoshlar mavsumiy ishlarga, 23 nafar yoshlar esa o‘z mutaxassisligi bo‘yicha doimiy ish bilan band etilgan. 2019-yil 1-iyunda esa tashkilot tashabbusni bilan tumanda “Sentob” kutubxonasi tashkil etildi. 2020-yil 22-iyunda tumanda “Yoshlar mehnat guzari” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Qayd etish joizki, u yerda yosh tadbirkorlarga imtiyozli shartlarda binolar, ofis texnikasi va jihozlari ijaraga berilishi boshlandi, Shuningdek, yoshlarning biznes tashabbuslari, startap g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirishga zarur ko‘mak ko‘rsatuvchi nuqtaga aylandi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Nurota tuman Kengashi tashabbusi bilan 2020-yil davomida “Har bir yoshga bir gektar” va “Har bir yoshga 50 sotix” loyihalari doirasida tumandagi ishsiz yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida kooperativ uzumzorlar shakllantirilib, tuman zaxira yerlaridan vaqtincha ishsiz yoshlarga yer ajratildi. Shuningdek, 84 million so‘m miqdoridagi subsidiya mablag‘lari ajratilib, dehqonchilik uchun quduqlar qazib berildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida Koronavirus pandemiyasi davridagi “Temir daftar” tizimi asosida orttirilgan tajriba natijasida har bir mahalla, tuman, viloyat kesimida “Yoshlar daftari” tizimi joriy etilishi belgilandi. Unga ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo‘lgan ishsiz yoshlar kiritilishi hamda ular bilan tizimli va manzilli ish yo‘lga qo‘yilishi belgilandi [6].

“Yoshlar daftari” tizimining joriy etilishi natijasida Nurota tumanida 2021-yil davomida tizimiga 2 ming 466 nafar (15,1 %) yoshlar kiritilgan. Ko‘rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida 2 ming 414 nafar (93,8 %) yoshlar daftardan chiqarilgan. “Yoshlar daftari” dan chiqarilgan yoshlarning 613 nafari doimiy va jamoat ishlariga joylashtirilgan, 735 nafariga 16,8

mlrd. so‘m imtiyozli kreditlar ajratilgan, 163 nafariga “Har bir yoshga – bir gektar” tamoyili asosida 86,8 gektar yer maydonlari ajratilgan, 23 nafariga “Ustoz-shogird” an‘anasi asosida hunarmandlarga birlashtirilgan. “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 49 nafar yoshlarga bir martalik moddiy yordam ajratish uchun 49 mln. so‘m, 37 nafar yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarlariga o‘qitish xarajatlarini qoplash uchun 9 mln. so‘m, 133 nafar yoshlarga urug‘lik va ko‘chatlar sotib olish uchun 26,4 mln. so‘m, 438 nafar yoshlarga asbob-uskunalar va mehnat qurollari xarid qilish uchun 838 mln. so‘m, 103 nafar yoshlarning to‘lov-kontrakt summalarini to‘lab berish uchun 402,6 mln so‘m, 22 nafar yoshlarning davolanish xarajatlarini qoplab berish uchun 9,6 mln. so‘m, 22 nafar yoshlarning safarbarlik chaqiruv rezervi uchun 116 mln. so‘m, 50 nafar yoshlarga haydovchilik guvohnomasi uchun 62 mln. so‘m ajratib berilgan [7].

“Yoshlar daftari” tizimli yo‘lga qo‘yilganligi sababli kutilgan natijani berdi. Lekin mahalla yoshlarini nafaqat moddiy, balki ma‘naviy jihatdan ham himoya qilish vazifasi ochiq qolayotgan edi. Shu munosabat bilan har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Ularning asosiy vazifalari etib:

– “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portal” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

– mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

– yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;

– yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash;

– huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish etib belgilandi [8].

Yangi tizim asosida eng birinchi o‘rinda mahalla-sektor-tuman kesimida 16-30 yoshdagi 21 ming 747 nafar yoshlar ro‘yxati shakllantirilib, elektron platformaga kiritildi. “Yoshlar balansi” asosida bugungi kunda ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlardan 564 nafari “Yoshlar daftari”ga kiritilib, 504 nafariga (89,3 foiz) amaliy yordam ko‘rsatilgan. Qolaversa, “Yoshlar daftari” platformasiga 2022-yil davomida jami 832 ta arizalar kelib tushgan bo‘lib, shundan, 531 tasi (63,8 %) qanoatlantirilgan, 297 tasi (35,7 %) rad etilgan hamda 4 tasi (0,5 %) ko‘rib chiqilmagan [9].

Yuqoridagi 2 yillik faoliyatni tahlil qilganimizda “Yoshlar daftari” tizimiga kiritilganlar soni 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 4 barobarga kamayganini sezishimiz mumkin. Bu amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi hisoblanadi.

“Yoshlar daftari” tizimi samarali faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, lekin bu borada dolzarb masalalar hali ham ko‘p. Avvalo, ishsiz, norasmiy sektorda band bo‘lgan va chet elga ishlashga ketgan yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaratish belgilandi [10].

Yoshlar masalalari bo‘yicha orttirilgan tajribalar umumlashtirilib, respublika bo‘yicha yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilindi. 14 yoshdan 30 yoshgacha

bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular 3 toifaga ("yaxshi", "o'rta" va "ahvoli og'ir") ajratildi. Endilikda ular bilan manzilli, aniq mezonlar asosida ishlanishi belgilandi [11].

Nurota tumanida ham 2023-yilda jami 21 ming 629 nafar yoshlar 3 toifaga ya'ni, 12 ming 24 nafari (55,6 %) "yaxshi", 9 ming 605 nafari (44,4 %) "o'rta" va 840 nafari (3,9 %) "og'ir" toifalarga ajratilib, ular bilan individual ishlash tizimi joriy etildi. "Yoshlar bandlik dasturi" doirasida 1 ming 331 nafar yoshlarning 1 ming 257 nafari (94 %) turli yo'nalishlarda bandligi ta'minlandi. 2023-yilda — "Yoshlar daftari" jamg'armasiga 3 mlrd. 16,6 mln. so'm mablag' shakllantirilgan hamda 927 nafar yoshlarga 2 mlrd. 997,6 mln. so'm miqdorida amaliy yordam ko'rsatildi. "Og'ir" toifadagi 840 nafar yoshlarning yoshlarning 172 nafari viloyat darajasidagi 6 ta, 668 nafari esa tuman darajasidagi 19 ta rahbar hamda o'rinbosarlariga birlashtirildi. Tuman shtabi tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, "Og'ir" toifadagi 840 nafar yoshlar bilan bevosita uchrashib suhbatlashilgan. Ushbu toifadagi 331 nafar yoshlarning muammolari ijobiy hal etilgan [12].

Butun respublikada yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida Nurota tumanida mavjud resurslar va imkoniyatlardan kelib chiqib yoshlar siyosati bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridan muhtoj, ko'p bolali, qarovchisiz qolgan oilalarga, qariyalar va yoshlarga yordam qo'li cho'zildi [13].

Aholi, xususan yoshlar ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratildi. Hattoki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi to'g'risidagi mezon mustahkamlab qo'yildi.

Hattoki, Sohibqiron Amir Temur ham aholi ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur nafaqat o'z xalqini, balki, bosib olingan mamlakatlar xalqini ham ijtimoiy himoya qilish siyosati yuritgan. Amir Temur "Yana amir etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqir-u miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy, kambag'al, yetim-yesirlarga ovqat beriladigan joy-g'aribxona) solsinlar, kasallar uchun shifoxona qursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar. Har bir shaharda dor ul-amorat (hukmdor saroyi) va dor ul-adolat (adolat uyi, qozixona) qursinlar. Va raiyatu ziroatni qo'riqlovchi qo'rchilar (qo'riqchi, posbon) ham tayinlansinlar" [14; 167-b.] deya buyruq bergan.

Tumanda yoshlar manfaatlari yo'lida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, qator kamchilik va muammolar uchrab turibdi.

Birinchiidan, yoshlarga dehqon xo'jaliklari yuritish uchun ajratilayotgan yerlarning ko'p qismini mintaqada mavjud noqulay vaziyat natijasida sug'orish tizimi bilan ta'minlash imkoni mavjud emas. Bu esa o'z navbatida yoshlarga qishloq xo'jaligi sohasida o'z yo'lini topishlariga katta to'siq bo'lmoqda.

Ikkinchiidan, yoshlarning bir qismida yoki ularning ota-onalarida boqimandalik kayfiyati juda yuqori. Natijada yoshlar turli dasturlar doirasida ijtimoiy yordamlardan qayta-qayta va uzluksiz foydalanib, o'zi mustaqil biror ishni qo'lini tutishga harakat qilmayapti.

Uchinchiidan, "Yoshlar bandlik dasturi" doirasida yoshlarga taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlarida ishlashga ba'zi yoshlarning xohishlari yo'q. Natijada bo'sh ish o'rinlari ochiq qolmoqda.

Amir Temur davrida ham ushbu shakldagi muammo mavjud bo'lgan bo'lib, muammoni yechish maqsadida “Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to'plab, kundalik yemak-ichmaklarini berib, ularga biron vazifa belgilasinlar. Hamda barchasi tamg'alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg'adan keyin ham gadolik qilgudek bo'lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatimdan yo'qoladi” [14; 163-b.] deya buyruq bergan.

Yuqoridagi fikr albatta, tarixda yuritilgan siyosatdan misol tariqasida keltirilgan. Bugungi kundagi vaziyatdan kelib chiqib ushbu muammoning yechimi sifatida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

Birinchi, qishloq xo'jaligi ekinlarini suvsizlikka chidamli navlariga almashtirish hamda tomchilab sug'orish tizimini joriy etish uchun yoshlarga subsidiya ajratish. Ushbu chora-tadbirlar natijasida, hosil miqdori oldingidanda oshishi bilan birga, bugungi kunda dolzarb masala bo'lgan qishloq xo'jaligida suv tejamkor texnologiyalarga yoppasiga o'tilishiga erishiladi.

Ikkinchi, aholining huquqiy savodxonlik darajasini yanada oshirish bilan birga ularga yoshidan qat'iy nazar insonparvarlik g'oyalarini singdirish. Buning natijasida, fuqarolarda “boqimandalikdan tiyilish” hissini uyg'otishga va ijtimoiy ko'makka o'zidanda muhtojlar borligini anglab yetishiga erishish mumkin.

Uchinchi, globallashtirish zamonida yoshlarga oid davlat siyosati doirasidagi ijtimoiy himoya dasturlari yuzasidan orttirilgan tajribalarni umumlashtirgan holda ularning qonunchilik asoslari va amalga oshirish mexanizmlarini yangilab turish zarur. Natijada huquqiy tomondan ham har qanday “bo'shliq”lar tugatilib, barcha yordamlar “o'z egasini” topishiga erishiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи. – 2017. – 20 сентябрь.
2. Х.Қурбонов, Р.Ахмедов, Ш.Исмоилзода, У.Нарзуллаев, З.Тоғаев. Нурота тумани: кеча ва бугун – Тошкент.: САИНОФ, 2020. – 360 бет.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrdagi “Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3301-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/-3362726>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-avgustdagi “2019-2021-yillarda Navoiy viloyatining Nurota tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 645-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/uz/docs/-4458706>
5. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining hisoboti – https://navstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=294&id=3496&Itemid=100000000000
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Жамиятда аёллар ва ёшлар ролини ошириш ҳамда бандлигини таъминлаш чора тadbirlari муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. // Халқ сўзи. – 2020. – 9 октябрь.

7. Xalq deputatlari Nurota tuman kengashining 2022-yil 18-martdagi VII-35-30-5-74-K/22-sonli qarori – <https://e-qaror.gov.uz/doc/522190>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/-5831865>
9. Xalq deputatlari Nurota tuman kengashining 2022-yil 30-avgustdagi VII-42-113-5-74-K/22-sonli qarori – <https://e-qaror.gov.uz/doc/853606>
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. // Халқ сўзи. – 2023. – 12 апрель.
11. Elektron resurs – <https://kun.uz/news/2023/04/11/ozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F04%2F11%2Fozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi>
12. Xalq deputatlari Nurota tuman kengashining 2024-yil 26-fevraldagi VI-63-17-5-74-K/24-sonli qarori – <https://e-qaror.gov.uz/doc/1705785>
13. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг Олий Кенгашнинг навбатдан ташқари 9 сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи. – 1992. – 5 январь.
14. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 bet.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF SCIENCE IN BUKHARA DURING THE SAMANID PERIOD (IN THE EXAMPLE OF HISTORY AND MEDICINE)

Umarov Bakhtishod

PhD student at Bukhara State University

b.b.umarov2019@buxdu.uz

Abstract. This article provides information about the comprehensive development of the city of Bukhara, one of the centres of Islamic civilization, famous with the name "Qubbat al-Islam" during the Samanid period, where religious, historical and medical sciences were developed, turning Bukhara into one of the important scientific centres of the caliphate.

Key words: Bukhara, Islam, science, history, medicine, Samanid period.

SOMONIYLAR DAVRIDA BUXORODA ILM-FAN RIVOJI (TARIX VA TIBBIYOT MISOLIDA)

Umarov Baxtishod

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom tamadduni markazlaridan biri, "Qubbat ul-islom" nomi bilan mashhur Buxoroning Somoniylar hukmronligi davrida har tomonlama yuksalishi, diniy ilmlarning taraqqiy etishi, xalifalikdagi muhim ilmiy markazlaridan biriga aylanishi, tarix va tabobat sohasining yuqori darajada rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, islom, ilm-fan, tarix, tabobat, somoniylar davri

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N09>

Kirish. Qadim va navqiron Buxoro O'zbekistonning moddiy va ma'naviy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan azim shahar, Sharq va G'arb dunyosida "Qubbat ul-islom" nomi bilan mashhurdir. VIII asrda mintaqaga islom dini kirib kelishi ortidan Buxoro asta-sekin eng muhim diniy markazga aylanib, keyinchalik islom olamida sharif sanaladigan shaharlar qatorida e'tirof etilgan. Somoniylar davriga kelib madaniyat va san'at, me'morchilik va hunarmandchilik rivojlanib, jahon tamadduni va islom olamidagi diniy va dunyoviy ilmlar taraqqiy etgan yirik markaz, olim va ulamolar, tolibi ilmlar yig'ilgan shahar sifatida shuhrat topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagilardan foydalanildi:

1. O'rta asrlar arab va fors manbalari
2. Xorijlik olimlar tadqiqot natijalari
3. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Buxoro islom kirib kelgunga qadar ham muqaddas shaharlar qatorida bo'lib, buddaviylar va zardushtiyning ko'plab ibodatxonalari bo'lgan. Ruhoniylar va otashparastlarning asosiy yig'iladigan joylari ham dastlab Surxon vohasida, keyinchalik Buxoroga ko'chgan. Hasanxo'ja Nisoriy ham Buxoro har bir asrda o'sha davr din ulamolari yig'iladigan joy bo'lgan deb keltiradi[2, b.27]. Din vakillarining to'planishi, bilimli kishilar va kutubxonalarning faoliyati bu davrda empirik bilimlarning shakllanib, rivojlana boshlaganligi bildiradi. Movarounnahrda ilm-fan rivoji arablar tomonidan mintaqaning fath etilishi va islom dinining keng yoyilishi bilan bog'liqdir.

Buxoroda masjidlar islom dinini yoyish shu bilan bir qatorda asosiy ta'lim maskani vazifasini bajargan. Buxoroliklarning juma namozlariga ishtirok etishi, islom asoslari va ta'limotlarini yaxshiroq o'zlashtirishi uchun Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim 713-yilda ilk masjidni bunyod ettirgan [1, b.47]. Aholini rag'batlantirish, masjidlarga jalb qilish maqsadida masjidga kelib juma namozini o'qigan musulmonga 2 dirhamdan pul ham berilgan. Sadriddin Salim Buxoriy ushbu masjidni buxorolik musulmonlar uchun ham ibodatxona, ham maktab, ham madrasa vazifasini o'tagan deb yozib qoldiradi[9, b.27]. Shaharda musulmonlarni ortib borishi, masjid va madrasalarga bo'lgan ehtiyojni ham oshirib borgan.

VIII asr oxiri –IX asr boshlarida Buxoro sharqning mashhur ilm markazlari qatoriga qo'shiladi. Abu Havs Kabir al-Buxoriy Movarounnahrda hanafiylik mazhabining yoyilishi, kalom ilmi ravnaqi yo'lida ulkan hissa qo'shgan. Uning sharofati bilan keyinchalik Buxoro "Qubbat ul-islom" nomi bilan ulug'langan[1, b.53; 11, c.36-37]. Abu Havs Kabir Buxoroda bir nechta masjid va madrasalar bunyod ettirib, islom ilmini xalqqa tarqatishga harakat qilgan. Buxorodagi dastlabki madrasalardan biri ham "Abu Havs Kabir al-Buxoriy madrasasi" deb atalgan[10, b.36]. Unda tahsil olish uchun uzoq mamlakatlardan ko'plab talabalar kelgan.

Somoniylar davrida maktab va ta'lim rivojiga alohida e'tibor qaratilgan. Hukmdorlar, mansabdor shaxslar, boylar va mashhur sarkardalar ilm-fan va madaniyatni yuksaltirishga homiylik qilishganligi, shu bilan bir qatorda o'z farzandlarini o'qitish va tarbiyalash, diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallashga yo'naltirish maqsadida xonadonlariga faqihlar, olimlar va shoirlarni to'plab, bazmlar uyushtirganlar va ulardan tarbiyachi sifatida foydalanganlar.

Buxorolik tarbiyachilar orasida eng mashhuri Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad al-Badiahuniy bo'lib, u kishidan Abu Muhammad Abdulaziz ibn Muhammad an-Naxshabiy al-Hofiz tahsil olgan. As-Sam'oniyy esa Ismoil al-Badiahuniyini "Omilar shayxi" deb atagan. Abu Bakr Abdulloh ibn Muhammad al-Budayliy buxorolik mashhur fiqhshunos va hanafiylik mazhabining peshqadam shayxlaridan bo'lib, Abu Abdurahmon ibn Abu Laysdan tahsil olganlar[3, b.21-22]. Imom as-Suyutiy Abu Hafs Muhammad ibn Muso az-Zomiy an-Nahviy haqida shunday degan: "U tarbiyachilikdan Buxoro xatlar devonidagi mustahkam o'ringacha ko'tarilgan"[15, b.196]. Ko'rinib turibdiki, tarbiyachilar va o'qituvchilar faoliyati butun xalqni bilimli qilish bilan birga Buxoroning ilm markazi sifatidagi rolini oshirishdagi asosiy omillardan biri bo'lgan.

Amir Ismoil Somoniyy ham o'z farzandlariga tarbiyachi yollagan va uni juda hurmat qilgan. Somoniylar sulolasi mashhur vazirlaridan Abulfazl Marvaziy, Abu Ali Muhammad Ba'lamiylar tarbiyachilik qilgan. Somoniylar davrida ilm-fan rivojlanishiga Abu Fazl

Muhammad ibn Abdulloh Bal'amiy, Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad Jayhoniyy, Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal'ami kabi bosh vazir lavozimida faoliyat yuritgan bilimli zotlar o'z hissasini qo'shgan.

Madrasalar somoniylar davrida asosiy ilm tarqatuvchi maskan hisoblanib, ularning o'quv rejalariga o'sha davrning qiroat, fiqh, lug'at ilmi, hisobga o'xshash ham diniy, ham dunyoviy fanlar kiritilgan[7,69]. Qobiliyatli bitiruvchilar o'qishlarini Farjak, Kalobodiy, G'aribiya, Kulartegin kabi yirik madrasalarda davom ettirib, ilm-fanning yuqori cho'qqilarini egallagan va tijoratchi, olim, mudarris, shoir va yozuvchi bo'lib kamol topgan.

Somoniylar hukmdorlar va mashhur olimlar Buxoroda ilm va dinga xizmat qilishini ko'zlab madrasalar ta'sis etishgan. Ismoil Somoniyy ko'plab bunyodkorlik ishlari qatorida ko'plab madrasalar qurdirganligi va uning zamonida madrasalar soni islom sharqidagi madrasalar sonidan ko'p bo'lganligi islom manbalarida qayd etilgan[15, b.198]. Shuningdek, Imom Abu Bakr Muhammad ibn Fazl "Sikkat ul-hadid" ("Temirchilar ko'chasi")da madrasaga asos solgan. Unda Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Jo'zaniy talabalarga fiqhdan ta'lim bergan[3, b.31]. Madrasalarda darslar arab tilida olib borilgan bo'lib, talabalarni o'ziga xos qo'llab-quvvatlash maqsadida mudarrislar tomonidan hadyalar berib turilgan.

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Buxoro Somoniylar hukmdorlarning bosh shahri sifatida IX-X asrlarda sharqning eng taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylandi. Ilm olish uchun Buxoroga Bag'dod, Basra, Balx, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridan kelishgan. Tolib-u ilmlardan tashqari hatto dars ber maqsadida Bag'dod, Sanad va Andalus kabi olis hududlardan mudarrislar ham tashrif buyurgan. Andalus shayxlari tarixi asari bilan mashhur Muhammad ibn Solih al-Qurtubiy al-Andalusiyy ana shunday mudarrislardan biridir[15,198]. Shuningdek, Abu Ishoq Ibrohim ibn Ali al-Forisiyy, Abul Fazl Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulloh al-Balxiy, Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan an-Nasafiyy, Said ibn Xalaf al-Balxiy, Abul Fazl ibn Muhammad ibn Ahmad al-Marvaziyy[1, b.15] va boshqalar buxoroliklar farzandlariga yaxshi dars berganlari, sidqidil xizmat qilganliklari katta mansablarga sazovor bo'lganlari tufayli bu shaharda katta obro' va e'tiborga orttirganlar.

Abu Mansur as-Saolibiy o'zining "Yatimat ut-Dahr" asarida mintaqada ijod qilgan 119 shoirning 25 tasi g'arbiy Eron va xalifalikning turli burchaklaridan kelganligini qayd etadi. Movarounnahrda kelgan faoliyat yuritgan shoirlardan 2 nafari abbosiylar xonadoni vakili bo'lganligi diqqatga sazovor[14, c.4-6]. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, X asrda Buxoro ta'lim-tarbiya markazi sifatida Bag'dod bilan tengma-teng raqobat qila olganligini qayd etish mumkin.

Buxoroda tarix ilmi ancha taraqqiy etgan. Xususan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Sulaymoni Buxoriyy (vafoti 924-yil) Somoniylarning markaziy shahri Buxoro tarixiga bag'ishlab asar yozgan [16, c.199]. Fiqhshunos olim Dovud ibn Muhammad ibn Muso Avdaniyy Buxoriyyning (932 yil vafoti) "Ahsan az-zamon" (Davrning eng yaxshi voqealari) nomli tarixiy asari borligi haqida ham ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan[20. b.29]. Bular tarix ilmi bo'yicha buxoroliklarning dastlabki ishlaridan hisoblanadi.

IX asr boshlarida Buxoroda yashagan asli balxlik geograf olim Abu Zayd ibn Sahl Balxiy 60 ga yaqin asar yozib qoldirgan bo'lib, "Suvar ul-aqolim" va "Kitob fi fazilati ilm il-axbor" asarlarida ayrim tarixiy jarayonlar bayoni keltirilgan.

Somoniylar vaziri Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad Jayhoniyy davlat ishlari bilan bir vaqtda "Ashkol ul-olam" asarini ham yozib qoldirgan[4, b.4]. Ahmad al-Jayhoniyyning

zamondoshi, geograf olim, Abu-Dulaf ham shu davrda yashab o'zidan "Risalat ul-avval" va "Risalat ul-uxro" kabi qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asarlarni qoldirgan[6, b.95].

Movarounnahr tarixnavisligining asoschilaridan biri Abu Bakr Narshaxiy (899-959) somoniylar davrining yirik olimlaridan biri bo'lib, Buxoroning paydo bo'lishi, unga tutash hududlar, vohaga islom dinining kirib kelishidan to Somoniylar hukmronligigacha bo'lgan tarixini haqida batafsil ma'lumot beruvchi "Buxoro tarixi"ni yozib qoldirgan. O'rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy-tadqiqot ishlarida Narshaxiy asari tilga olinadi. Asar arab tilida yozilgan va unda Buxoro bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni qamrab olgan.

Buxoroda tarix ilmi rivojining yana bir yorqin namunasi sifatida 964-yilda aholining tarixdan yaxshiroq xabardori bo'lishi maqsadida "Tarix ut-Tabariy"ning fors tiliga tarjima qilinganligini ham ko'rsatish mumkin. Asar amir Mansur ibn Nuh topshirig'iga binoan vazir Abu Ali al-Bal'amiy tomonidan tarjima qilingan[5, c.217].

Taxminan shu davrda yashab ijod qilgan tarixchi Abul Husayn ibn Ahmad Sallomiy bo'lib, u mashhur tarixchi olim Ibrohim ibn-Muhammad al-Bayhaqiyning shogirdi va feodal Abu Ali Chag'oniyni safdoshi bo'lgan. Abul Husayn ibn Ahmad Sallomiy 955-yil arab tilida "At-tarix fi axbori vuloti Xuroson" asarini yozadi va ushbu asarda X asr o'rtasidagi voqea-hodisalar boyini keltiriladi. Afsuski, ushbu asar bizgacha yetib kelmagan[16, c.199]. Keyingi davr arab va fors tarixchilari Gardiziy, Ibn al-Asir, Ibn Xallikon asarlarida ayrim ma'lumotlar Ahmad Sallomiydan keltirilganligi qayd etiladi.

Somoniylar hukmdori Mansur ibn Abdumalik davrida faoliyat olib borgan tarixchi Mutahhar ibn Tohir Maqdisiy (vafoti 966 yildan keyin) asli Qudduslik bo'lib, Balxda yashagan. Bizning fikrimizcha, Al-Maqdisiy o'zining mashhur "Kitob al-bad va-t-tarix" (Ibtido va tarix kitobi)ni somoniylar vazirlaridan Abu Mansur Yusuf ibn Is'hoq topshirig'iga binoan yozadi. Asarni yozish ishlari 966-yilda yakunlangan bo'lib, islom tarixshunosligining nodir asarlaridan biri hisoblanadi[21, c. 91-92]. Ushbu asar bizgacha faqatgina bir nusxada yetib kelgan[22, c.22-23].

Asli nishopurlik Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy ham tarixchi, ham adabiyotchi sifatda mashhur bo'lib, madaniyat markazi sifatida yuksalgan Buxoroda ma'lum vaqt ijod qilgan. As-Saolibiy "Yatimat ud-dahr", "Tatimat al-Yatima" va "Kitob al-g'urar" asarlari X-XI asr tarixi va madaniy hayotini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi[17, b.126.]. As-Saolibiy Somoniylar davrida Buxoroda kechgan madaniy hayotni yoritib berishga yordam beruvchi qimmatbaho asar yozib qoldirgan. "Yatimat ud-dahr"ni "X-XI asr shoirlarining o'ziga xos ensiklopedik to'plami" deb atasak xato qilmagan bo'lamiz.

Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor Utbiy ham vaqtida Buxoroda bo'lib, somoniylar hukmronligining so'nggi yillari haqida ma'lumot beruvchi asar yozgan yirik tarixchilardan sanaladi. Manbalarda va tarixiy adabiyotlarda Abu Nasr al-Utbiy o'z davrining yetuk shoiri, adib va tarixchisi sifatida gavdalanib, qator asarlar ta'rif etganligi qayd etiladi[19, b.7]. Utbiyning "Tarixi-Yaminiy" asari 1021 yilda yozib tugatilgan bo'lib, O'rta Osiyo va Xurosonning qariyb yarim asrlik tarixiga oid asosiy manbalardan biridir. Asarda 975–1021 yillarda ya'ni somoniylar va g'aznaviylar davrida Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan asosiy voqealar bayoni keltiriladi. Muallif o'z xizmat vazifalari doirasida (shaxsiy kotib, noib, pochta boshlig'i, diplomatik xodim) turli yozishmalardan, yozma hujjat materiallaridan foydalanish imkoniga ega bo'lgan[18, 6.72]. Manba Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh kabi shaharlarning

tarixiy rivojlanishi, X–XI asrlarda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan davlatchilik asoslarini ilmiy o‘rganishda bebaho birlamchi manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.

Somoniylar hukmronligi davrida Buxoroda tabobat ilmi juda tez va yuqori darajada taraqqiy etgan. Islom olamining mashhur ikki tabibi Abu Bakr ar-Roziy va Abu Ali ibn Sinolar samarali faoliyati bilan nafaqat Buxoro, balki butun bashariyat tabobat ilmining turli sohalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shishdi. Abu Bakr ar-Roziydan “Al-Mansuriy fi-t-tib”, “at-Tibb al-mulukiy”, Ibn Sinodan “Al-qonun fi-t-tib”, “Kitob ash-shifo” asarlari bizgacha yetib kelgan. Abu Ali ibn Sino qomusiy bilim sohibi bo‘lib, falsafaga oid 80 ta, ruhshunoslikka oid 26 ta, tibbiyotga oid 23 ta asar yozib qoldirgan [13, b.21].

Buxorolik tabiblardan Abu Tohir Ibrohim ibn Ahmad as-Sa‘id at-Tabib, shoir Abu-l-Husayn Ahmad ibn Muhammad al-Mutim al-Ifriqiy, Muhammad al-Afzal at-Turkiylar ham g‘oyat mashhur bo‘lishgan [12, b.10]. Narshaxiy asarida Buxoroning birinchi tabibi sifatida Nasr ibn Sayyor buyrug‘i bilan buxorxudotni davolashga harakat qilgan “Qariha” ismini eslatib o‘tgan [8, b.63]. Tabiblarning ko‘rsatmalari, to‘g‘ri ovqatlanish va gigiyenaga alohida e‘tiborning ortishi natijasida Buxoroda kasalliklar boshqa shaharlarda nisbatan kam uchraganligi tarixiy asarlarda eslatib o‘tiladi.

X asr ikkinchi yarmida Buxoro tibbiyot ilmi bo‘yicha yirik markazlar qatoriga qo‘shildi. Bu davrda faoliyat olib borgan Abu Bakr Rabi ibn Ahmad al-Ahavaniy Buxoriy (vafoti 983-yil) o‘z davrining yirik tabiblaridan hisoblanadi. Somoniylar davrida anatomiya, farmokologiya va farmasevtika bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirilgan “Hidoyat al-mutaalimin fi-t-tib” asari bilan mashhur bo‘lgan [23. b.427]. Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qumri somoniy hukmdorlar saroyi tabiblaridan hisoblanib, o‘z davrida Buxoroda nom chiqargan tabiblardan bo‘lgan. O‘z tarkibiga 350 ta tibbiy terminlarni olgan O‘rta Osiyodagi dastlabki tibbiyot terminlari jamlangan “Kitob at-Tanvir” lug‘ati, shuningdek, “Risola dar iloji amrozi sidr” asari ham Nuh Qumriga tegishli hisoblanadi.

Xulosa. Sharqshunos olim Adam Mets o‘zining “Islom renessansi” asarida IX-X asrlarda musulmonlar hayotida taraqqiyot boshlanib, ilm-fanning turli sohaları yuksalganligini qayd etadi. Ana shunday yuksalish davrida ilm markazi sifatida Bag‘dod, adabiyot, fiqh sohaları bilan Nishopur, Marv shaharlari ancha taraqqiy etadi. Movarounnahrda hokimiyatning Somoniylar qo‘liga o‘tishi va markazning Buxoroga ko‘chirilishi bilan bu mintaqada ham yuksalish boshlanadi. Dastavval, Abu Havs Kabir al-Buxoriy sharaflariga shahar “Qubbat ul-islom” nomini olgan bo‘lsa, buyuk muhaddis Imom Buxoriy zamonlarida hadis ilmining oltin davri Buxorodan boshlanadi. Ismoil Somoniy va keyingi hukmdorlar davrida ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan amallar, shuningdek, bunyod etilgan madrasalar Movarounnahrda madaniyat rivojlanishining bosh omillaridan bo‘lib xizmat qildi. Bu davrda Buxoroda tarix va tibbiyot kabi fan tarmoqlari juda rivojlanib, butun islom olami tolib-u ilmlari kelib ilm oladigan muqaddas maskanga aylandi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро Тарихи. –Т.: Шарқ баёзи, 1993. – 122 б.
2. Ҳасанхўжа Нисорий. Музакири аҳбоб. Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Исмоил Бекжон. –Тошкент. Халқ мероси нашриёти, 1993. –343 б.

3. Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). (VIII-XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). –Тошкент: “Hilol-nashr” нашриёти, 2017. -335 б.
4. Абу Абдулло Мухаммад бинни Аҳмад ал-Жайҳоний. Ашкол-ул-олам. – Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” нашриёти, 2022. -56 б.
5. Мухторов А. Сомониён: замон ва макон. –Душанбе: “Сурушан”, 1999. – 288 с.
6. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.-264 б.
7. Халимов А. Развитие науки и школы в период Саманидов. Душанбе, «Шуджойён», 2009. – 119 с.
8. Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан-Наршахи. Та’рих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. — Ташкент: SMIA-SIA, 2011. -600 с.
9. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. –Бухоро.: “Дурдона”, 2012. – 291 б.
10. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). –Тошкент: Akademnashr, 2020. – 400 б.
11. Казаков Б. Хазрати Имам – Абу Хафс Кабир Бухари. // Бухоро мавжлари. 2007 г. №4. - с.36-37.
12. Абдуҳалимов Б.А., Хасанов М., Раҳимов К. IX–XI асрларда Бухорода табобатнинг ривожини // Научное наследие Ибн Сины и актуальные проблемы современной медицины, VIII-Международные Авиценновские чтения. –Бухара, 2015. –С.10-11.
13. Маматова Н.М. Буюк донишманднинг маънавий мероси // Научное наследие Ибн Сины и актуальные проблемы современной медицины, VIII-Международные Авиценновские чтения. –Бухара, 2015. –С.21.
14. Кадиров А.М. Развитие науки и литературы в государстве Саманидов // Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. –2017. –№.12. –С.4-6.
15. Рахимов К. VII-XII асрларда Бухорода илф-фан ривожини // Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни мавзусидаги илмий-амалий анжуман, 2020 йил 27 апрел. – Бухоро. –Б.195-211.
16. Неъматов Н. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX-X. –Душанбе: Ирфон. 1989. - 304 с.
17. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
18. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Тошкент: Фан, 2007. -294 б.
19. Bekmurodova L. T. “Tarixi Yaminii” asarida O’rta Osiyoga oid tarixiy-geografik ma’lumotlar // SamDU. Ilmiy axborotnoma, 2020-yil, 6-son. –В.6-10.
20. Mamadaliyev N. Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida tarix fani holati: asosiy yo’nalishlar, asarlar va ularning ahamiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, № 12. –В.27-30.
21. Кузнецов В. А. ‘Илм ат-та’рих в системе исламского знания (VIII – XV вв.). Санкт-Петербург, 2015. -121 с. Url: <http://hdl.handle.net/11701/6536>
22. Ш.С.Камолиддин, З.А.Илхамов. Источники по средневековой истории средней азии. Учебно-методическое пособие. Т.:2018. -81 с.
23. Нуриён А.Р., Юсуфи С.Д. Фармацевтические познания в Саманидскую эпоху // Вестник Авиценны. –2017. Vol.19. – №.3. –С.422-430.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

INTEGRATION PROCESSES AND FOLK GAMES

Yoldoshev Salimjon Valievich

Associate Professor at Fergana State University

Abstract: This article examines the impact of globalisation and transformation processes on the integration of cultures of peoples in the modern world. In the conditions of rapid changes there is a convergence of cultures and lifestyles, which has a significant impact on the lives of the young generation. Computer games are becoming increasingly popular among young people, pushing aside such traditional activities as reading books and active games. This has a negative impact on the daily lives of young people, contributing to the development of new types of addictions such as cyber ludomania. The article emphasises the importance of folk games as a tool to prevent the development of addictions to computer games among the younger generation, and considers the role of folk games in the context of transformational processes affecting the lifestyle of modern man, who is often called "Homo Ludens" - "playing man".

Keywords: Transformation process, "Homo Ludens" - "playing man", integration of cultures, traditional way of life, local features, "Folk Runs", "Catching up", "Kushty", "Turning over on horseback", "Ulak", "Throwing the skullcap", "Fortress", "Black Watchman", "Bandol", "The game of toss", "The game of nuts", "The ball game", "Shepherd", "Skullcap", "Chillak", "Girl's swing", "Oksungak", "Oksuyak", "Chokum", "Kushty", "Fighting sideways", "Incomplete", "Honest", "Stop", education, personal development, traditions.

ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВ ЖАРАЁНЛАР ВА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ

Йўлдошев Салимжон Валиевич

Фарғона давлат университети доценти

Аннотация: Мазкур мақола бугунги кунда дунёнинг глобаллашув ва трансформациялашув жадал кечаётган бир даврда халқлар ўртасида маданияти, турмуш тарзида ҳам интеграциялашув жараёнлари жадаллашиб бормоқда ва мазкур жараёнларнинг ёшлар ҳаётига кўрсатаётган таъсири ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Ёшлар ўртасида китоб ўқишдан, болаларга хос ҳаракатли ўйинлардан кўра компьютер ўйинлари олдида вақтини ўтказиш кундалик турмушига салбий таъсири кўрсатмоқда. Бунинг натижасида киберлудамания, лудамания каби янги иллатлар пайдо бўлди. Бундай салбий ходисаларни олдини олишда халқ ўйинларининг роли кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Трансформацион жараён, "Homo Ludens" - "ўйинбоз одам", анъанавий турмуш тарзи, локал хусусиятлар, "Оломон пойга", "Қиз қувди", "Кураш", "От устида оғдариш", "Улоқ", "Дўппи ташар", "қўрғон", "қорағуни", "бандол", "жангли-мангли", "ошиқ ўйини", "тўп ўйини", "Чўпон бола", "тўпиқ", "чиллак", "қизларнинг арғимчоқ", "Оқсўнғак", "Оқсуяк", "Чокум", "кураш", "ёнбош", "чала", "ҳалол" "тўхта".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N10>

Кириш. Бугунги кунда дунёда трансформацион жараёнлар тобора жадаллашиб бормоқда ва мазкур жараёнларнинг ёшлар ҳаётига кўрсатаётган таъсири ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Трансформацион жараёнларнинг миллий маросимларга, хусусан тўй-ҳашамлардаги хусусиятлар, бола туғилиши, унинг тарбияси билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар ёинки, барча анъаналарга кўрсатаётган таъсири

ҳам ҳар қачонгидан юқоридир. Оқибатда, ёшлар ўртасида китоб ўқишдан, болаларга хос ҳаракатли ўйинлардан кўра компьютер ўйинлари олдида вақтини ўтказиш одат тусига кириб бормоқда. Шубҳасиз мазкур ҳолатда оммавий ахборот воситаларининг ёшлар кундалик турмушига салбий таъсирининг нишонасидир. Трансформацион жараёнлар шароитида халқ ўйинлари ўрнини техник, компьютер ўйинлари эгалламоқда ва ёшлар бунга кўпроқ қизиқиш билдирмоқдалар. Бунинг натижасида киберлудамания, лудамания каби янгича иллатлар пайдо бўлди. Олимлар бу сўзга «одамнинг кундалик ҳаётида жазавади ўйинларда кўп ўйнагани сабабли унинг ижтимоий, касбий, моддий ва оилавий қадриятларнинг қадрсизлашиши, ушбу соҳалардаги мажбуриятларига эътиборининг пасайиши», деган маънони бермоқдалар. Дунёда «Homo Ludens»-«ўйинбоз одам» ибораси истеъмолга кирди[1].

Муҳокама. Маълумки, ўзбек халқининг маънавий мероси тизимида ўзига хос ўринни эгалловчи халқ ўйинлари ва у билан боғлиқ урф-одат, маросимлар айни пайтда инсоният маданиятининг муҳим компонентларидан биридир. Халқ ўйинлари ўзбекларнинг оилавий, хўжалик, жамоавий ҳаётида муҳим ўрин эгаллаган бўлиб, асрлар мобайнида хўжалик анъаналари мавсумий фасллар алмашинуви билан боғлиқ ҳолда ривожланиб, сайқалланиб, трансформациялашув жараёнларини ҳам бошидан кечирди ва кечирмоқда.

Натижалар. Ўйинлар билан боғлиқ маросимлар кишилар ҳаётининг барча босқичларида учрайди ва улар одамларнинг оилавий, хўжалик ҳамда жамоавий ҳаётларини тартибга солишда хизмат қилади. Мазкур маросимлар турли даврларда ҳар хил диний ва сиёсий тазйиқлар остида шаклан ўзгарган ёки трансформацияга учраган бўлишига қарамай, ҳамон ижтимоий ҳаётда ўзига хос ўрин эгаллаб келмоқда. Айнан мазкур жиҳат биринчидан, ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзининг ўзига хослиги ва тарихий асосларини ўрганишда долзарб ҳисобланса, иккинчидан, ўйинларнинг локал хусусиятларини тадқиқ қилишда муҳим илмий-амалий аҳамият касб этиши билан ҳам эътиборга моликдир.

XX аср охири-XXI аср бошларида ўйин маданияти борасида икки йўналиш кўзга ташланмоқда. Биринчидан, қадимдан анъанавий бўлган, совет ҳокимияти йилларида унутилаётган миллий ўйинларнинг тикланиши, иккинчидан, ўйинлар трансформациялашиб, ривожлантирилиб алоҳида спорт турига ҳам айланиш йўналишларидир.

Ўзбекларнинг асрлар давомида шакланган ўйинлари билан боғлиқ урф-одат, маросим ва қарашлар бошқа халқлардан айри ҳолда вужудга келмаган. Бундай маросимлар тизими азалдан ўзбеклар билан ёнма-ён яшаб келаётган қардош халқлар яъни, тожик, қирғиз, қозоқ, қорақалпоқ ва бошқа халқларнинг бевосита иштирокида шаклланиб, тараққий этган.

Фарғона водийси халқ ўйинлар ва у билан боғлиқ урф-одат, маросимларига доир ғояларни ўрганишда шу нарса аниқландики, ўйинларнинг мавсумийлиги, мазмуни ўхшаш бўлсада, лекин ташкил этиш, бориши жиҳатидан фарқлар яққол кўзга ташланади

Ҳар бир миллат бир неча юз йиллар давомида турли миллий ўйинларини ижтимоий тараққиёт билан ҳамнафас тарзда шакллантириб, мукамаллаштириб, саралаб ўйин турларини келгуси авлодга узатиб келган. Бугунги кундаги жисмоний машқ ва спорт турларини синчиклаб кузатиб, ўрганганимизда халқ ҳаракатли

ўйинларининг тадрижий ривожланиши натижаси эканлигига амин бўласиз. Ҳар бир халқнинг ўз миллий ўйинлари мавжуд бўлиб, улар халқ анъаналари, миллатларнинг маданияти ва турмушига хос хусусиятлар замида вужудга келган. Халқ ўйинлари халқ маънавий маданиятининг кўринишларидан биридир. Уларда этник тарихга бориб тақаладиган анъаналар, ижтимоий муносабатлар, мафкура-эътиқоднинг айрим элементлари, ахлоқий эстетик меъёрлар акс этади. Халқ ўйинлари мамлакатнинг миллий хусусиятларини, катта ёшли кишиларнинг феъл-атворларини, одатларини, меҳнат жараёнларини, жуғрофий шароитларни ифодалайди. Шунга кўра халқ ўйинларини халқнинг ахлоқий-эстетик тарихини, маданиятини, бошқа халқлар билан алоқаларининг манбаларидан бири сифатида қараб чиқиш лозим. Халқ ўйинлари халқ ижодий фаолиятининг бир туридир. Уларни меҳнаткаш халқ яратди ва кенг халқ оммаси давом эттирди. Ҳозирга қадар ўзбек халқи ўзининг тантаналарини катта халқ томошалари — сайиллар билан нишонлайди. Сайиллар вақтида «Оломон пойга», «Қиз қувди», «Кураш», «От устида оғдариш», «Улоқ», «Дўппи ташар»[2] каби мусобақа, спорт ва кўнгилочар ўйинлар ўтказилган.

Халқ ўйинлари кўнгил очар одатлар билан уйғунлашиб кетган. Барча анъаналар каби урф-одатлар, ўйинлар ҳам маълум даражада трансформацияга учрайди, қайта тикланади. Ўйинлар деганда кўпроқ болалик даврига эътибор қаратилади. Бироқ томоша, кўнгилочар базмлар катталар орасида кўпроқ кузатилиб, аслида улар ҳам ўйин аҳамиятига эга. Ўйинлар қайси шаклда, мазмунда, қандай деталга асосланган бўлишидан қатъий назар ҳаётга тайёргарлик вазифасини ҳам бажарган.

Миллий ўйинлар ҳаётийлиги, халқ томонидан яратилганлиги каттаю –кичик болалар томонидан севилиб ўйналиши, жамоавийлиги билан ажралиб туради. Ана шундай яшовчан қадимий ўйинларимизни Маҳмуд Қошғарийнинг «Девони луғатит-турк» яъни туркий сўзлар девонида кўплаб учратишимиз мумкин[3]. Улар баъзан йўл-йўлакай санаб ўтилган бўлса, бошқа жойда тўла тафсилоти билан келтирилади. Масалан, «қўрғон», «қорағуни», «бандол», «жангли-мангли», «ошиқ ўйини», «тўп ўйини», «Чўпон бола», «тўпиқ», «чиллак», «қизларнинг арғимчоқ» ўйинлари санаб ўтилади. Юқорида номлари қайд этилган ўйинлар бугунги кунда болалар ўйнайдиган ўйинлардир. Масалан, «ўтиш-ўтиш» деб аталган ўйин «мушт кетди» ўйинларига ўхшаб кетса, «тўп ўйини» қизларнинг арғимчоқ ўйинини ўз ҳолича сақланиши билан бирга, янги қоида ва шакллар билан трансформациялашган.

Девонда таърифи келтирилган «Оқсўнгак» ёки «Оқсуяк» ўйини XI асрга оид бўлса, XV асрда ёзилган Алишер Навоийнинг «Маҳбуб-ул-қулуб» асарида ҳам учратишимиз мумкин. «Оқсўнгак» ўйини ер қуррасининг кўп жойларида жумладан, Скандинавия мамлакатлари ва Австралия этнографиясига маълумотларда учратишимиз мумкин[4]. «Оқсуяк» ўйини бугунги кунда барча вилоятларимиз каби Фарғона водийсида ҳам ўйналиб келинаётган ва модернизациялашган ўйинлар сирасига киради. Бу эса тадқиқот объектига кирган ўйинларнинг нафақат минтақавий, балки умуминсоний қадрият сифатига эгалигидан далолат беради.

Ҳар бир давр ўйинларининг ўзига хос хусусиятлари, мазмуни бўлганидек ҳар бир халқ ўйинларининг ҳам ўз яшаш шароити, орзу-истаклари, ўз урф-одат ва қадриятлари, анъаналари бор.

Элшунос Г.Валихонованинг фикрича Шарқий Туркистонда баъзи ўйинлари ўғил ва қиз болалар бирга ўйнаганлар. Водийга хос бўлмасида, маълум муддат болаларнинг севимли ўйини бўлиб қолган «Чокум»да шафтоли данагини тош ёрдамида ишқалаб, силлиқ, ялтироқ қилиб, бир-бирига улоқтириб ўйнашади. «Чокум» улоқтириш пайтида шеър, ғазаллар айтишган. «Чокум» тушган болалар шеър айтолмаса ўйиндан чиққан. Водийга кўчиб ўтган аҳоли урф-одати билан бирга ўз ўйинларини ҳам олиб келган. Масалан, «Машрап», «Ўттиз ўғил», «Дўлон машрап», «Туя ўйини», «Амалдор ўйини», «Гулчой», «Тўпиқ ўйини» кабилар Фарғона водийсида кенг тарқалган[5]. Фарғона водийси ҳудудларига кўчиб келиб, жойлашган уйғурлар ўзига хос миллий анъаналари билан бирга ўйинларини ҳам маҳаллий анъаналар, тартиб, шароитга мослаштирилиб, трансформацияга учрай бошлади.

Халқимизнинг миллий қадриятларидан бўлган бу кураш уч ярим минг йиллик тарихга эга ва бугун жаҳон узра жадал ривожланаётган замонавий халқаро спорт турига айланди. Чунки кураш одатимиз, хайриятки, йўқолиб, изсиз кетган удумларимиз, ўйинларимиз қаторига кирмай қолган. Бунинг сабаби, образли қилиб айтганда, ҳар бир замон, айниқса, бизнинг замонамизда кундалик турмуш, ҳаёт кечиришнинг ўзи курашдан иборат бўлиб қолганлиги туфайли шундай бўлгандир.

Кураш-қадимий ва эркин кураш турларига бўлинади. Курашнинг қадимий турларидан бири-фарғонача белбоғли курашдир. Курашнинг бу тури Фарғона водийси ва унга туташ ҳудудларда, Тошкент воҳасида кенг тарқалган. Азал-азалдан фарғонача кураш бўйича сайилларда, тўйларда ва бошқа йиғинларда мусобақалар ташкил этилган. Қадимдан кураш тушувчи полвонларнинг турли муносабатлар билан ўтказилган халқ сайилларида чиқишлари энг қизиқарли ва жозибали эди. Шу боис полвонларнинг, номи эл ичида эъзозланар, ҳатто уларга миллий қаҳрамонлар сифатида қаралар эди. Ўрта Осиё ҳудудларида кураш мусобақалари X асрларга оид Хитойнинг «Тан Шу» қўлёзма асарида кўрсатилишича, Фарғонада Наврўз байрамида шаҳар аҳолиси икки гуруҳга бўлиниб кураш тушганлиги таъкидланади[6].

Абу Али ибн Сино тиббиётда жисмоний машқларнинг ўрни катта эканлигини илмий асослаб берган. Ибн Сино ўша вақтдаги халқ миллий кураши ҳақида шундай фикрни айтган эди. «Кураш ҳар хил бўлган. Шулардан биттасида икки эркак бир-бирларининг белбоғларини ушлаб ўзига тортади ва ҳар бири ўз рақибидан қутулишга интилади, ҳаракат қилади, лекин бири бошқасини қўйиб юбормайди». Мана шу мисолдан биз ҳозирги замон миллий кураши қадимдан мавжуд бўлганлигига ишонч ҳосил қиламиз.

Қўқон хони Худоёрхон саройида ўттизга яқин полвон бўлиб, хон уларга ҳурмат билан қараб келган. XIX асрнинг охирида Туркистонга чет эллик полвонлар келиб, маҳаллий халққа ўз ўйинларини намойиш қилганлар. 1895 йили оғирлиги саккиз ярим пуд (133кг.) бўлган, машҳур немис полвони Риппел Тошкентда 28 ёшли Аҳмад полвон Толиббой ўғли билан курашгани[7] ва ўзбек полвонидан енгилгани тўғрисидаги маълумотлар учрайди.

Тарихдан маълумки, Россия Туркистонни босиб олгандан сўнг, Туркистон губернатори йиғин, сайллар ўтказишни қатъий таъқиқлаган. Чунки у маҳаллий халқнинг кўзғолон кўтаришидан чўчирди. Лекин таъқиқлашларга қарамай, курашлар бўлиб ўтарди. Вақт ўтган сайин Ўзбекистоннинг турли бурчакларидан ва қўшни

республикалардан машхур полвонлар етишиб чиқди. Жумладан, Аҳмад полвоннинг издошлари тошкентлик Тожи Алоев, Асқар полвон Отабоев, Фарғонадан Хўжа полвон, Иямин полвон, Матёқуб полвон, Андижондан Али полвон Мирзакаримов, Мулла Ўсар полвон Ботиров, Ҳайит полвон Тожибоев, Намангандан Қоратой полвон Юсупов, Эргаш полвон Йўлдошев, Ўш вилоятининг Новқат туманидан машхур Деҳқон полвонлар шулар жумласидан[8]. Бу полвонлар ҳам кураги ерга тегмаган Аҳмад полвон сингари курашчилар бўлиб, юртимиз доврўғига-довруқ қўшган.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда кўплаб спорт турлари қатори кураш ҳам кенг оммалашиб, изчил ривожланмоқда. Бир пайтлар тўй, байрам ва сайлларнинг тор доирасидан чиқолмаган курашимиз бугун бутун дунёга танилди. Ер куррасининг барча қитъаларига ёйилиб, юздан зиёд мамлакатларда оммалашди. «кураш», «ёнбош», «чала», «ҳалол» «тўхта» каби ўзбек сўзлари дунёда жарангламоқда.

1991-1998 йилларда ўзбек сўзлари, қадриятлари, кийимлари махсус киритилган кураш қоидалари ишлаб чиқилди ва жаҳон ҳамжамиятига таништирилди. 1998 йил 6 сентябрь куни 28 мамлакат вакиллари ташаббуси билан биринчи таъсис Конгрессида Кураш Халқаро Ассоциацияси-ИКА тузилиб, кураш спорти халқаро спорт, деб тан олинди. Кураш қоидаларига халқаро мақом берилди[9]. Ўтган йиллар давомида «Ўзбекистон кураш миллий федерацияси» (1992), «Кураш халқаро академияси»(1999), «Бутун жаҳон курашни ривожлантириш жамғармаси»(1999), «Кураш халқаро институти»(2001), жаҳоннинг 5та қитъасида «Кураш Конфедерация»лари, 121 та давлатда расмий федерациялар фаолияти йўлга қўйилди ва ўзбек курашини, унинг халқаро анъаналарини, ютуқларини кенг тарғиб қилиш мақсадида «Кураш» ойлик адабий-бадий, ижтимоий-публицистик, ахборот-реклама журнали таъсис этилди.

ИКА халқаро спорт ташкилоти сифатида ўзининг мустақкам тизимини яратди. Бугунги кунгача 14 марта Конгресс, 27 бора Ижроқўм йиғилишлари, ўсмирлар, ёшлар, эркалар, қизлар-аёллар, фахрийлар ўртасида 33 марта ҳар хил давлатларда жаҳон чемпионатлари ҳамда 500га яқин халқаро турнирлар ИКА байроғи остида ўтганлиги эътиборлидир. Шунингдек, 30 дан ортиқ Олимпия қўмити аъзолари билан алоқалар ўрнатилиб, 2010 йил Ассоциация дунё антидопинг агентлиги «WADA»га аъзо бўлди. 2013 йил якунида Туркиянинг Истанбул шаҳри мезбонлик қилган IX жаҳон чемпионати кунларида кураш ҳаётида унутилмас воқеа бўлди. Ўзбек сўзларидан иборат кураш мадҳияси қабул қилинди ва дунё кураш жамоатчилиги томонидан илиқ кутиб олди[10]. Юқоридаги рақамлардан кўриниб турибдики, бугунги кун жараёнида ҳар қандай спорт тури анъанавий халқ ўйинларининг замирида замонавийлашади ва модернизацияга учрашини яна бир исботи бу кураш ўйинидир.

Миллий кураш ўйинимизнинг қисқа фурсат ичида халқаро спорт турига трансформациялашув жараёни қисқа қилиб, «Ўзбек курашида халқимизнинг руҳияти, асл хислатларига азал-азалдан хос бўлган фазилатлар: мардлик, жасурлик, бағрикенглик, рақибига нисбатан олийжаноблик, ҳалоллик, инсонпарварлик фалсафаси мужассамлашган. Бугун буюк аждодларимиз руҳини шод этиб, азал-азалдан халқимизнинг миллий ғурурига айланган Ўзбек Курашининг жаҳон майдонига чиқиши, унинг тан олинishi барчамизни бағоят қувонтирди»[11].- деган фикр билан хулосалаш мумкин. Халқ ўйинларининг халқаро спорт турига айланиши жараёнида дунё халқлари тилига ўзбек тилига хос бўлган атамалар, сўзларнинг кириб бориши ҳам ўзбек

миллатини дунё халқларига танилиши ва эътироф этилишида муҳим босқич бўлди. Айниқса, «кураш», «улоқ», «қараб теп» «Ўзбек қўл жанги санъати» каби халқ ўйинларидаги сўзлар спорт атамаларига кириб борди ва ўзлашди.

Хулоса. Халқ ўйинлари билан боғлиқ маросимларни тарихий-этнологик йўналишда тадқиқ қилиш ўзбек халқининг маданияти, мафкураси, анъана ва урф-одатлари ҳамда уларнинг генезиси, трансформацияси ва инновацион қўринишлари ҳамда мазмун моҳиятини тўлақонли англаш имконини беради. Халқ ўйинларининг модернизациялашуви ҳамда замонавийлашуви умуминсоний қадриятлар, халқлар дўстлиги ва маънавий ҳамжиҳатлик компонентларининг амалий натижаси бўлди.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ҳақназарова Х. Замонавий трансформацион жараёнлар ва уларнинг ёшлар ҳаётига таъсири./Ўзбек халқининг миллий фольклор санъати ва этномаданий қадриятлари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: 2013. Б.173.
2. Дала ёзувлари Тожиматов Умаржон. 1946 йил Қирғизистон Республикаси Ўш вилояти Новқат тумани Эски Новқат қишлоғида туғилган, миллати ўзбек.
3. Бу ҳақда қаранг: Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. III томлик.1960-1963. – Т.: Фан.
4. Ўзбек халқ ўйинлари, миллий спорт турларини қайта тиклаш ва аҳолини жисмоний тарбиялашда улардан кенг фойдаланиш усуллари./мавзусига бағишланган жумҳурият илмий- амалий анжумани тезислари. - Тошкент-Жиззах: 1991. Б.5-6.
5. ВалихоноваГ. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.: Янги нашр. 2013. Б.110-114.
6. Азизов Н.Х. Белбоғли Туркистон кураши. – Т.:Ўқитувчи. 1998. -Б.7.; Юсупов К. Кураш халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. – Т.:”Адабиёт ва санъат нашриёти”. 2005. Б.17
7. Азизов Н. Х. Белбоғли Туркистон кураши. – Т.:Ўқитувчи. 1998. Б.9
8. Юсупов К. Кураш халқаро қоидалари, теникаси ва тактикаси. – Т.:”Адабиёт ва санъат нашриёти”. 2005. Б.17-19.
9. Ўзбек кураши довуғи./Тузувчилар: Ҳ.Бобобеков, М.Содиқов, З.Рўзиев ва бошқ. – Т.: Абу Али ибн Сино., 2002. Б-88.
10. ИКА матбуот хизмати.website www.kurash-ika.org
11. Ўзбек кураши ва миллий истиқлол./ Тузувчилар: Ҳ.Бобобеков, М.Содиқов, Рўзиева ва бошқ. – Т.: Абу Али ибн Сино., 2002. Б. 88.
12. Yuldoshev, S.V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. *The American Journal Of Social Science And Education Innovations*, 3(11), 36-40.
13. Valievich, Y.S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. *European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9)*.
14. Valiyevich, Y.S., & Azamatjon, O. (2022). Theoretical And Practical Prospects For The Development Of Ethnotourism In Uzbekistan. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(4), 21-24.
15. Yo’ldashev, S., Dilshodjon, M. (2022). Ta’lim Tizimida Innovatsion Texnologiyalarining Ahamiyati. *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, 3(6), 427-431.
16. Юлдошев С., Бобоев М. «Туркестанский сборник как важный источник в изучении истории Узбекистана». Актуальные проблемы истории Узбекистана, т. 1, вып. 1, январь 2023 г., сс. 461-7.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE HISTORICAL CONTEXT OF ANGLO-RUSSIAN COMPETITION IN CENTRAL ASIA AND THE POLITICS OF THE GREAT GAME

Azimjon Askarov Odiljon ugli

Namangan state university, PhD student

Email: askarovazimjon999@gmail.com

Abstract. The Great Game, a term coined by British intelligence officer Arthur Conolly in the early 19th century, refers to the intense rivalry and competition between the British Empire and the Russian Empire for influence and control in Central Asia during the 19th and early 20th centuries. This period of intense competition, which spanned over a century, was marked by a series of diplomatic maneuvers, military incursions, and strategic alliances that shaped the modern political landscape of the region. This article will examine the historical context of Anglo-Russian competition in Central Asia, the politics of the Great Game, and the implications of this rivalry on the region and the world at large.

Keywords: the great game, the Russian Empire, the British, dominions, political status, the division of territories

O'RTA OSIYODAGI ANGLIYA-ROSSIYA RAQOBATINING TARIXIY KONTEKSTI VA KATTA O'YIN SIYOSATINING VUJUDGA KELISHI

Askarov Azimjon Odiljon o'g'li

Namangan davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotasiya. Buyuk o'yin, 19-asr boshlarida Britaniya razvedkasi xodimi Artur Konolli tomonidan kiritilgan atama 19-asr va 20-asr boshlarida Markaziy Osiyoda ta'sir va nazorat qilish uchun Britaniya imperiyasi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi kuchli raqobatni anglatadi. Bir asrdan ko'proq davom etgan ushbu kuchli raqobat davri mintaqaning zamonaviy siyosiy manzarasini shakllantirgan bir qator diplomatik manevrlar, harbiy bosqinlar va strategik ittifoqlar bilan ajralib turdi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi Angliya-Rossiya raqobatining tarixiy konteksti, buyuk o'yin siyosati va ushbu raqobatning mintaq va umuman dunyoga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: buyuk o'yin, Rossiya imperiyasi, Britaniyaliklar, hukmronliklar, siyosiy mavqe, hududlar bo'linuvi

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N11>

Kirish. Hudud va uning boyligi bo'yicha ziddiyatlar doimo inson tabiatining bir qismi bo'lib kelgan. Hududning qiymati uning resurslariga bog'liq bo'lib, bu odamni o'z hirsini bunday hududini ekspluatatsiya qilishga majburlashga undaydi. Angliya-Rossiya inqirozi (1875-1878) Afrika va Markaziy Osiyodagi Yevropa va Rossiya kuchlarining imperializmi bilan yakunlangan edi. Qirol Muhammadning Afg'oniston hukmronligi (1826-1839) Britaniya bilan bir qator kelishmovchiliklarning guvohi bo'lib, 1838 yilda Britaniyaning Rossiya imperiyasi bilan raqobati natijasida Buyuk o'yin vujudga keldi. Janubi-G'arbiy Osiyo va Markaziy Osiyoda hududiy yuksalish bilan birga siyosiy hokimiyat va ta'sir mavjud edi. "Professor Dominik Lieven bu iborani" buyuk Britaniyani Rossiyaga qarshi bir davrda o'rnatgan geosiyosiy raqobat " deb

ta'riflaydi. Shubhasiz, inglizlar infratuzilma jihatidan ruslardan o'zib ketishdi, bu nafaqat yuk tashishga yordam berdi, balki imperiya koloniyalari o'rtasidagi aloqa kanallarini ham yaxshiladi. Misol uchun, ruslar Markaziy Osiyoda temir yo'l tizimini qurishni 1880-yillarda, inglizlar faqat Hindistonda 1000 milya yo'l qurilishini yakunlagan paytda boshlagan. Bundan tashqari, 1750-yillarda Angliyada sanoat inqilobi boshlanganligi Britaniyaga sanoatlashtirish va neftni burg'ilashda katta yutuqlarga erishishga imkon berdi va shuning uchun Rossiyada shart bo'lmagan kapitalni to'pladi. Yuqorida aytib o'tilgan Britaniyaning afzalliklariga qaramay, u Rossiyaning ambitsiyalarini e'tiborsiz qoldirmadi, chunki ruslarning Markaziy Osiyodagi taraqqiyoti tahdid solayotgan edi.

Muhokama. 19-asrning boshlarida o'zini hukmron jahon kuchi sifatida ko'rsatgan Britaniya imperiyasi Markaziy Osiyoga o'z ta'sirini kengaytira boshladi. Hozirgi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan mintaqa strategik jihatdan Yevropa va Osiyoning chorrahasida joylashgan bo'lib, uni savdo va tijorat uchun muhim markazga aylantirdi. Hindistonda o'z o'rnini topgan inglizlar yangi bozorlar, resurslar va savdo yo'llarini ta'minlash istagi bilan o'z imperiyasini shimolga qarab Markaziy Osiyoga kengaytirishga intildilar.

Ayni paytda, 16-asrdan boshlab o'z chegaralarini sharqqa kengaytirib kelayotgan Rossiya imperiyasi janubga Markaziy Osiyoga surila boshladi. Kavkaz mintaqasida o'z o'rnini topgan ruslar mintaqaning ulkan tabiiy boyliklari, shu jumladan neft, gaz va foydali qazilmalar ustidan nazoratni qo'lga kiritishga intildilar. Rossiya imperiyasi, shuningdek, Britaniya imperiyasining o'sib borayotgan kuchini muvozanatlash uchun mintaqadagi ta'sirini kengaytirishga intildi.


O'rta Osiyodagi Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi raqobatni geosiyosiy, iqtisodiy va strategik manfaatlarning murakkab to'plami kuchaytirdi. Mintaqada Rossiya ta'sirining tarqalishidan xavotirda bo'lgan inglizlar o'zlarining Hindiston imperiyasi va Rossiya imperiyasi o'rtasida old zonasini o'rnatishga intildilar. Boshqa tomondan, ruslar o'zlarining iqtisodiy o'sishi va kengayishini ta'minlash uchun mintaqaning tabiiy resurslari va savdo yo'llari ustidan nazoratni qo'lga kiritishga intildilar.

Buyuk o'yinning boshlanishini belgilagan asosiy voqealardan biri 1873 yilda Rossiyaning Xivani bosib olishi edi. Hozirgi O'zbekistonda kichik, ammo strategik jihatdan joylashgan Davlat bo'lgan Xivan xonligi mintaqadagi savdo va tijorat uchun muhim markaz bo'lgan. Rossiyaning Xivani bosib olishi Buyuk o'yinni tavsiflovchi bir qator harbiy bosqinlar va diplomatik manevrlarning boshlanishini belgiladi.

Rossiyaning Xivani bosib olishiga javoban inglizlar O'rta Osiyoga bir qator harbiy ekspeditsiyalarni, shu jumladan 1839-1842 yillarda Britaniyaning Afg'onistonga ulkan ekspeditsiyasini boshladilar. Mintaqada Rossiya ta'sirining tarqalishidan xavotirda bo'lgan inglizlar Afg'onistonda o'zlarining Hindiston imperiyasi va Rossiya imperiyasi o'rtasida old zonasi vazifasini bajaradigan do'stona hukumat o'rnatishga intildilar.

Buyuk o'yin, shuningdek, bir qator diplomatik manevrlar va strategik ittifoqlar bilan ajralib turdi. Britaniya va ruslar josuslik bir murakkab o'yin bilan shug'ullanuvchi, sabotaj, va tashviqot, mintaqada bir-biriga ustun izlab, Ikki imperiya, shuningdek, mintaqada ta'sir va nazoratni qo'lga kiritishga intilib, mahalliy hukmdorlar va qabilalar bilan bir qator ittifoq tuzdilar.

1-xarita: Buyuk o'yin: Britaniya va Rossiyaning kengayishi (1846-1900)



Buyuk o'yinning eng ko'zga ko'ringan misollaridan biri 1907 yilgi Angliya-Rossiya Konvensiyasi edi. Sankt-Peterburgda imzolangan Konventsiya Buyuk o'yinda vaqtinchalik sulh tuzdi, chunki inglizlar va ruslar Markaziy Osiyoni ta'sir doiralariga bo'lishga kelishib oldilar. Inglizlar uchun katta g'alaba sifatida ko'rilgan Konventsiya mintaqada nisbatan xotirjamlik davrini boshlab berdi, chunki ikki imperiya boshqa global mojarolarga, shu jumladan birinchi Jahon urushiga e'tibor qaratdi.

Ajoyib o'yin mintaqqa va umuman dunyo uchun katta ta'sir ko'rsatdi. Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi raqobat Markaziy Osiyoda, jumladan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonda zamonaviy milliy davlatlarning tashkil topishiga olib keldi. Buyuk o'yin, shuningdek, mintaqani Yevropa va Osiyo bilan bog'laydigan yangi transport tarmoqlarini, shu jumladan Trans-Kaspiy temir yo'lini rivojlantirishga olib keldi.

Buyuk o'yin global siyosat uchun ham muhim ta'sir ko'rsatdi. Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi raqobat buyuk kuchlar raqobatining yangi davrini boshlab berdi, chunki boshqa Yevropa kuchlari, shu jumladan Germaniya va Frantsiya mintaqaga qiziqish bildira boshladilar. Buyuk o'yin birinchi Jahon urushining boshlanishiga ham hissa qo'shdi, chunki Buyuk o'yin davomida o'rnatilgan ittifoq va raqobatning murakkab tizimi Yevropaning yirik kuchlarini mojaroga tortdi.

Tahlil va natijalar. Tarixan Rossiyaning o'rta Osiyoni bosib olishi Buyuk Pyotrning Rossiya hukmronligiga (1682-1725) qaytishdir. Uning motivlari asosan siyosiy va iqtisodiy, ya'ni savdo yo'llarini qozoqlarning yo'llaridan ozod qilish va ruslarning Osiyodagi mavjudligini mustahkamlash edi.

Bunday maqsadga erishish uchun ular Ural daryosida Orenburg bazasini tashkil etishdi, uning maqsadi qozoqlarni rus savdogarlariga hujum qilishdan to'xtatish edi. Ruslarni Markaziy Osiyoda kengayishiga turtki bo'lgan ikkinchi sabab ularning to'qimachilik sanoatini davom ettirish uchun xom ashyoga, ya'ni paxtaga bo'lgan ehtiyojidir. Yuqorida aytib o'tilgan siyosiy va

iqtisodiy rag'batlardan tashqari, rus harbiylari o'z saflari orasida shon-sharaf, ko'tarilish va medallarni qo'lga kiritish uchun o'zining harbiy jasoratini namoyish etishni istagan Cherniaev singari erkaklarni tayinladilar. Shunday qilib, o'zlarining boshliqlarining hamdardligini qozonish va oxir-oqibat o'z orzulariga erishish uchun ular rus ekspansiyasini asosiy maqsadiga aylantirdilar.

Britaniya va Rossiya ta'sir doiralari. O'rta Osiyodagi Angliya-Rossiya raqobatidan tashqari, bu kuchlarning raqobati yaqin Sharqda ham kuchayib, ularni Turkiya va Fors bilan yaxshi munosabatda bo'lishga majbur qildi. Ushbu so'nggi davlatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega edi, chunki Rossiya va Britaniyaning harbiy va tijorat aloqalari ular orqali o'tdi. Ruslar kamayib borayotgan Usmonli imperiyasini nazorat qila olmasliklaridan xavotirda edilar, chunki bu ularning vataniga yo'l edi. Turkiya Buyuk Britaniya uchun ayniqsa muhimroq edi, chunki uning ta'siri ostida, uning nazorati ostida bo'lgan Suvaysh kanali, Britaniyaning Hindistonga boradigan hayot yo'li. Markaziy Osiyodagi Angliya-Rossiya imbroglioslari ichida Afg'oniston ikkala kuch uchun ham juda muhim edi. Ruslar uchun bu Hindiston uchun chiqish joyini tashkil etdi. Xuddi shu tarzda, inglizlar Afg'onistonni o'z imperiyalarini birlashtirishi va oxir-oqibat Hindistondagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashi uchun to'siqli mamlakat bo'lishini xohlashdi.

2-xarita: markaziy Osiyo davlatlari (19-asr, hozirgi davr)



Britaniya Rossiyaning ulug'vorligidan qo'rqishi haqida

Hindistonga bostirib kirish istiqboli XIX asrning birinchi yillarida nafaqat Yevropaning keng jamoatchiligida, balki Yevropaning siyosiy va harbiy elitasida ham odatiy hol bo'lganligini ta'kidladi (De Evans,1828). Britaniya Hindistoniga bostirib kirishning amaliyligi to'g'risida, Polkovnik De Leysi Evans kutilmagan holatlarga tayyorgarlik ko'rish uchun Bengal hukumati siyosiy agentlarga xavfsiz bo'lish uchun topshiriqlar berdi. Bir necha boshqa omillar Hindiston ruslar qo'liga tushib qolishi Britaniya uchun qo'rquvlarga sabab bo'ldi, va shunday 1838 yilda Afg'onistonga aralashishga Britaniya ko'chib o'tishga majbur edi. Shunga qaramay, 18-19 asrlarda Britaniyani tashvishga solishi uchun ikkita qiziqarli fakt etarli edi: Buyuk Pyotrning 1725 yilda Rossiya ko'chib o'tishi kerakligi haqidagi bayonoti

Hindiston tomon va XIX asr ruslarining sharqqa va janubga kengayishi edi. Ushbu kengayish uzoq muddatda Britaniya Hindistoni va Rossiyaning geografik chegaralarini XVIII asrda 4000 mildan XIX asr o'rtalarida 1000 milgacha kamaytirish edi.

Hindistonning mustamlakasini himoya qilish uchun Markaziy Osiyoda Britaniyaning kengayishi: Rossiyaning Markaziy Osiyoda muntazam ravishda kengayishiga reaksiya sifatida Buyuk Britaniya quyidagi choralarni ko'rdi: potentsial tahdidlar kelib chiqishi mumkin bo'lgan hududlarni egallab olish va Rossiyaning Hindiston tomon yurishini to'xtatish uchun to'siq davlatlarini yaratish. Hindistonni tashqi tahdidlardan himoya qilish zarurati inglizlarni uning atrofida himoya doirasini shakllantirishga undadi. Shunga ko'ra, ular Seyshel orollarini (1797), Umid burnini (1797) va Maltani (1800) egallab olishdi. Birma Hindiston hududlarini bosib olganligi sababli, ular 1824 va 1852 yillarda ikkinchisiga qarshi ikkita urush olib borishdi, bu davrda inglizlar Birmaning qismlarini qo'shib olishdi. Sharqda Xitoy Britaniyaning Hindistondagi manfaatlari bilan chambarchas bog'liq edi. Sharqiy Hindiston kompaniyasining Xitoy bilan tijorat faoliyatidan olingan foydasining bir qismi mavjud edi. Natijada, ushbu tijorat faoliyati Xitoy hukumati xazinasini quritdi, chunki afyun uchun choy va kumushni almashtirish kerak edi. Xitoy rasmiylarining harakatlari hind afyunining oqimi 1839 yilda va yana 1856 yilda urushga va keyinchalik Britaniyaning 1841 yilda Gonkong orolini qo'shib olishiga olib keldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyodagi Angliya-Rossiya raqobatining tarixiy konteksti va buyuk o'yin siyosati geosiyosiy, iqtisodiy va strategik manfaatlarning murakkab to'plami bilan ajralib turardi. Bir asrdan ko'proq davom etgan Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi raqobat mintaqaning zamonaviy siyosiy manzarasini shakllantirdi va global siyosat uchun muhim ta'sir ko'rsatdi. Bir qator diplomatik manevrlar, harbiy bosqinlar va strategik ittifoqlar bilan ajralib turadigan Buyuk o'yin mintaqaga va umuman dunyoga ta'sir o'tkazishda davom etmoqda, chunki zamonaviy kuchlar, shu jumladan AQSh, Xitoy va Rossiya Markaziy Osiyoda ta'sir va nazorat uchun kurashni davom ettirmoqda.

Buyuk o'yin merosini Markaziy Osiyoning zamonaviy siyosatida ko'rish mumkin. Neft, gaz va foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan ulkan tabiiy boyliklar joylashgan mintaqada savdo va tijorat uchun muhim markaz bo'lib qolmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Evans, G. de va Evans, M. (2004). Britaniya Hindistoniga bostirib kirishning amaliyligi to'g'risida. Routledge.
2. Oltin, P. B. (2011). Jahon tarixida Markaziy Osiyo. Oksford universiteti matbuoti.
3. Garold T. Cheshir. (1934). Imperator Rossiyasining Hindiston chegarasigacha kengayishi. Slavyan va Sharqiy Yevropa sharhi, 13(37), 85–97. <http://www.jstor.org/stable/4202960>

4. Levin, P. (2020). Britaniya imperiyasi quyosh chiqishidan quyosh botguncha. Routledge, Teylor va Frensis guruhi.
5. Lieven, D. (2003). Imperiya: Rossiya imperiyasi va uning raqiblari XVI asrdan hozirgi kungacha. Pimlico. London
6. Jon Myurrey. (1895 yil 1 yanvar). Ser Bartle Frerening hayoti va yozishmalari: Martineau, Jon, 1834-1910: Qarz olish va oqim. Internet arxivi. 2022-yil 8-mart, <https://archive.org/> saytidan olindi
7. Osborn, L. (2010). Ahmoq urushlar vazirligi. Jahon ishlari, 173(1), 6–16. <https://doi.org/10.3200/wafs.173.1.6-16>
8. Tasodifiy uy. (1997). Random House Websterning qisqartirilmagan lug'ati.
9. Rashid, A. (2010). Tolibon: Markaziy Osiyoda jangari islom, neft va fundamentalizm. Yel universiteti matbuoti.
10. Rezun, M. (1986). Buyuk o'yin qayta ko'rib chiqildi. Xalqaro jurnal, 41(2), 324.<https://doi.org/10.2307/40202372>
11. Rori, S. (2012 yil, 28 may). Afg'oniston: Buyuk o'yin. IMDb. 2022-yil 4-martda <https://www.imdb.com/title/tt4895744/> saytidan olindi.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

CARTOGRAPHY OF ETHNIC PROCESSES OF TOPOGRAPHICAL FEATURES OF THE TERRITORY OF UZBEKISTAN IN THE BRONZE AGE

Eshchanov Khurmat Matnazarovich

Lecturer at Tashkent State Economic University

Abstract. The article analyzes the geographical features of the Bronze Age of Uzbekistan, the stages of development of ethnic processes, issues of territorial cartography. Also, the geography of information about the lifestyle of our ancestors who settled in the mountainous and plain areas of Uzbekistan, the use of natural resources, and the historical experience of their main activities - from hunting and herding to advanced farming was widely discussed.

Key words: A. Askarov, Vijanov E, Vinogradov A, Kabirov J, Islamov I, Kasimov M, Mamutov E, Itina M, Uzbekistan, Tashkent, Ustyurt, Zarafshan, Fergana, Surkhandarya, Selengur, Kolbuloq, Uchtut.

O'ZBEKISTON HUDUDI BRONZA DAVRIDA TOPOGRAFIK XUSUSIYATLARNI ETNIK JARAYONLARI KARTOGRAFIYASI

Eshchanov Hurmat Matnazarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning bronza davri geografik xususiyati, etnik jarayonlari rivojlanish bosqichlarini hududiy kartografiya masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonning tog'li va tekisli manzillarida o'rnashgan ajdodlarimizning turmush tarzi, tabiiy resurslardan foydalangani, asosiy mashg'ulotlaridan - ovchilik, termachilikdan ilg'or xo'jalikgacha bosib o'tgan tarixiy tajribasiga oid axborotlar geografiyasi keng muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: A.Asqarov, Vijanov E, Vinogradov A, Kabirov J, Islamov I, Qosimov M, Mamutov E, Itina M, O'zbekiston, Toshkent, Ustyurt, Zarafshon, Farg'ona, Surxondaryo, Seleng'ur, Ko'lbuloq, Uchtut.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N12>

Kirish. O'zbekistonning tarixiy geografik hududida tarixiy davr uning turli bosqichlarida aholining bunyodkorlik natijalarida farqlanish xususiyatlari aks etgan. Shu jihatdan odamzod tosh davri ilk bosqichidan vatanimizning muayyan hududlarida joylashib geografik muhit, tabiiy sharoitga ko'nikib, tabiiy resurslardan uddaburon va epchilik bilan foydalanib, bronza davrida murakkab tarixiy yo'llarni bosib o'tgan. 1 mln yillik - 3 ming yillik o'rtalarida ajdodlarimiz xo'jalik sohalari va kasbi-korlarini rivojlantirib, oddiy tosh mehnat qurolidan mis o'roqlarni ixtiro qilib, uni eritib hosil bo'lgan quyilmadan xilma-xil vazifani bajara olgan mehnat qurollari takomillashtirib, aholi miqdori oshganligi munosabati bilan yangi hududlarda sun'iy turar joylarni qilib ularda istiqomat qilib yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyatlari bronza davri jamiyati rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyo hududlari kabi O'zbekistonda ashel davri quyi bosqichidan boshlab, aholi joylashib bronza davrida mavjud

bo'lgan tabiiy manzaradan o'z manfaatlarida foydalanishga imkon bergan yer sathi va tekislikda yarim yerto'la shaklidagi manzilgohlar xizmat qilgan. Darhaqiqat, miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalaridan boshlab O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlarida etnik munosabatlarda tub o'zgarishlar yuz berdi. Bronza davri aholisining joylashishi turar-joylar tuzilishi ularning qurilish uslubida yuz bergan o'zgarishlardan kelib chiqib, ularni ikki turga ajratish imkoniyatini hosil qildi.

1-tur. Sharq materigining mintaqasi bo'lgan Janubiy Turkmaniston qabilalarining bir qismi tarix taqozosiga ko'ra, Surxon vohasiga kelib joylashib turar-joy qurilishida binokorlik bilimlarini amalga oshirganlar.

2-tur. O'zbekistonning boshqa hududlari aholi turar-joylari rivojlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston hududi bronza davri barcha viloyatlarida uy chorvachiligi va dehqonchilik xo'jaliklari ustunlik qilib, aholining kundalik taomnomasida oziq-ovqat mahsulotlari xilma xilligi ko'paygan, jamiyat iqtisodiy tizimida ishlab chiqarish xo'jaligi rivojlanib, o'zlashtiruvchi xo'jalik esa aholining oddiy kasbi-koriga aylangan. Darhaqiqat ishlab chiqarish xo'jaligi taraqqiyotning rivojlanishga bo'lgan ta'siri eneolit davri xo'jaligi an'analari asosida davom etgan

Ushbu maqolada odamzodning ilk tosh davridan bronza davrigacha kechgan murakkab tarixiy davr jarayonlariga ko'nikib, xo'jalikning barcha sohalarida erishgan natijalari yoritilgan.

Tadqiqotning metodik uslublari. Ilmiy xolislik, xronologik izchilik, nazariy qiyosiy tahlil, munozara-mantiqiy xulosa, asoslash, umumlashtirish, arxeologiya, etnografiya, geografiya fan yutuqlaridan foydalaniladi

Tahlil. O'zbekistonning tog'li va tekislik manzillarida o'rnashgan ajdodlarimizning turmush tarzi, tabiiy resurslardan foydalangani, asosiy mashg'ulotlaridan – ovchilik, termachilikdan ilg'or xo'jalikkacha bosib o'tgan tarixiy tajribasiga oid axborotlar geografiyasi keng. O'zbekistonning ashel davri ilk bosqichlari muayyan tabiiy-geografik hududlarda, jumladan, Seleng'ur go'rida o'rnashgan ovchilar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishlari qayd qilingan.[1].

Farg'ona vodiysi ovchilari turmushida tosh qurollar asosiy ovchilik va termachilik quroli bo'lgan. Ayrim manbalarda Zarafshon vodiysi shimoli-g'arbiy hududida Uchtut, Ijon, Vaush manzilgohlarida joylashgan ovchilar xo'jaligiga oid ma'lumotlar qayd qilingan. E.Bijanov Ustyurt platosi geografik xususiyati O'zbekistonning barcha hududlaridan keskin farqlanishini, ochiq yalang tekislikda odamzod yashash noqulay bo'lsa ham Seleng'ur, Ko'lbuloq ovchilari faoliyatini aynan takror qilganlari haqida ma'lumot keltirgan.[2].

O'rta paleolit davrida yuqorida qayd qilingan hududlarda yashagan ovchilarni mehnat faoliyati davom etgan. Mazkur tarixiy davrga oid adabiyotlarda odamzodning O'zbekistonning ovchi-terimchi hududlarida yashab, tabiiy manbalardan amaliy mashg'ulotlarida foydalanib, bora-bora etnik munosabatlarni olib borishda yaratgan moddiy madaniyatlarida yuz bergan o'zgarishlar I.Islomov, A.Okladnikov, Lev.D, Jirakirov M – asarlarida qayd qilingan. Jumladan, A.Okladnikov Surxondaryo viloyati Boysun tog'idan (yer sathidan 1500 m) Teshiktosh tosh qurollari (3000 dan ziyod) hamda neandertal bola suyaklarining topilishi etnik munosabatlarda yengillik bo'ldi. Bunday odamzod yangi hududlarda o'rnashib xo'jalikda turli vazifani bajaradigan mehnat qurollardan foydalanishgan. Neandertal bola suyaklari topilishi sharq tarixida eng ilmiy hodisa bo'lgan. [3].

Shu bilan birga Toshkent vodiysida – Obiraxmat, Xo'jakent; Zarafshonda – Omonxo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Go'rdara – ovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hududlar hisoblanadi.

So'ngi tosh davrida odamlar o'zlashtirgan hududlarning tabiiy resurslar zaxirasi kamaymagani sabab kasbi-korlari malakasi oshib, etnik munosabatlarni oshirib borganlar. Mezolit davrida ibtidoiy ovchilikka moslashgan hududlarda kundalik mashg'ulotlarini olib borgan bo'lsa, aholi soni zichligi o'sishi, o'zlashtirish munosabati bilan geografik hududi kengayganligi kuzatiladi. Mezolit davridan ibtidoiy odamlarning tekisliklarda kasbi-korlari bir-biridan farqlanadigan sohalari vujudga kelib, keyingi tarixiy davrda takomillashib, yangi soha yo'nalishlari shakllangan esa.

Natijalar. Bronza davri (jez davri) — mehnat qurollari, asosan, mis bilan qalayning aralashmasi — bronzadan yasalgani uchun shunday nom berilgan. Miloddan avvalgi 3–2-ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bronza davriga kelib hozirgi O'zbekiston hududlarida sun'iy sug'orishga asoslangan sug'orma dehqonchilik madaniyati shakllandi. Bu davrga oid moddiy madaniyat yodgorliklari Zamonbobo (Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida), Sarazm (Tojikistonning Panjikent viloyati), Sopollitepa, Jarqo'ton (Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida) va Tozabog'yob, Amirobod (Xorazm–Qoraqalpog'iston) manzilgohlaridan topib o'rganilgan.

Mezolit davrida odamlarning kundalik amaliy mashg'ulotlarini geografik muhit, antropogen landshafi ta'sirida jamiyatning rivojlanish jarayonlari neolitdan bronza davrigacha qanday darajada kezanligi o'rganiladi. Xulosada ilk tosh davridan odamzodning murakkab tarixiy yo'li, hayoti va ijod uyg'unligining bronza jamiyati rivojlanishidagi tarixiy o'rni oydinlashtiriladi. [4].

Ibtidoiy odamlar misni juda yaxshi xususiyati – cho'ziluvchanligini kashf qilgan bo'lsalarda, bu metall qadimgi qabilalarni ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta o'zgarishlar kirita olmagan. Ammo, bronzani kashf etilishi (90% mis va 10% qalay) ibtidoiy hayotda olg'a qarab tashlangan qadam bo'ldi. Chunki bronza o'z xususiyatlari jihatidan misdan ancha ustun turadi. Ko'pgina tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda bronzani vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eroni janubiy-g'arbida mil. avv. III-II ming yillikning boshlarida quldorlik jamiyatida keng ravnaq topadi. Bronza davriga madaniyat izlari O'zbekistonda dastlab Xorazm, keyinchalik esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan. Bu hududlardagi manzilgohlarni o'rganib shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan, dehqonchilik va chorvachilik. Bronza davri bilan shug'ullangan tadqiqotchilar bu davrni uchta katta yilnoma davrga: ilk, rivojlangan va so'nggi bronza davrlarga bo'ladilar. O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Takliflar. Hozirgi zamon tarixining moddiy va ma'naviy asos bo'lgan ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ajdodlarimiz tarixini, ularni bosib o'tgan tarixiy yo'lini qayta-qayta esga olishdan iborat.

Bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy rivojlanishining asosi ibtidoiy ovchilarning hayot va ijodiy uyg'unligi natijalari asosida, rivojlanish jarayonlari davom etgan. Yu.A.Zadneprovskiy, X.Dunke, A.Asqarov, M.A.Itinalarning asarlari bronza davri jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik jarayonlarni o'rganishda ahamiyati beqiyosdir. Eneolit davri moddiy va ma'naviy madaniyati mazmun va mohiyati aholining tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishi jihatidan O'zbekiston hududida bronza

davri jamiyatida sifat jihatidan o'zgarishlar yuz bermasdan, tadrijiy ravishda rivojlangani ma'lumotlardan ma'lum. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, miloddan avvalgi II ming yillik boshlari va o'rtalarida quyi Amudaryo, Zarafshon, Toshkent va Farg'ona hududlarda aholini kundalik kasbi-korlari, eneolit davri xo'jalik asoslari shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarga ko'chib kelgan qabilalarning mahalliy aholi bilan yaqinlashuvi munosabati bilan tarix sahnasiga chiqqan avlodlari tomonidan yaratilgan madaniyat Xorazmda – Tozabogyop, Zarafshonda – Zamonbobo, Farg'ona vodiysida – Chust madaniyatlari shakllangan.

Bronza asri so'ngi bosqichiga kelganda yuqorida qayd qilingan markaziy, shimoli-g'arbiy hududlarda istiqomat qilgan aholi kundalik faoliyatlarida uy chorvachiligi hamda bronza ashyosidan qilingan mehnat qurollari asosida taqir yerlarda qayir dehqonchiligi, yog'och ustunli yarim yerto'lalarda istiqomat qilib, xo'jalik yo'nalishlarini belgilab olganlar. Miloddan avvalgi II ming yillikning 2-chi yarmi va 1-chi choragida Surxon vohasi shimoli-g'arbiy hududi yuzasini aks ettirgan Muzrobod manzilgohiga odamzod aholi soni o'sishi munosabati bilan kelib joylashib, Sopollitepaga asos solganlar va uni to'rt tomonini uch qatorli mudofaa devor bilan o'rab olib, himoyalanih barobarida xo'jalik sohasida erishgan amaliy bilimlarini namoyon qilganlar. Shuningdek, Farg'ona vodiysi aholisi qo'shni – chustliklar hududlarida kechgan vaziyatni inobatga olib, tevarak atrofini paxsa va xom g'ishtli mudofaa devor bilan o'rab olganlar. [6]. Ammo manzilgoh ichki tuzilish xususiyatini tasvir qilgan yarim yerto'la uy xarobalari aholiga xizmat qilishi saqlanib qolgan.

Xulosa. Shu tariqa O'zbekiston hududida ilk tosh davrlaridan temir davrlarigacha odamzodning o'zlashtirish siyosati, durust joylarini kartografiyada joylashishi quyidagicha manzarada bo'lgan:

Ilk tosh davri Toshkent, Farg'ona, shimoli-g'arbiy Zarafshon va Ustyurtning Shaxpaxta havzasida odamlarning joylashish kartografiyasini yaratish mumkin.

O'rta va So'ngi tosh davri odamlarining qo'shni hududlarni o'zlashtirishi munosabati bilan ularning joylashish geografiyasi kengaygan. Bu tarixiy davrlarda Toshkent, O'rta Zarafshon, Surxon va Xorazm shimoliy hududlarida odamzodning kelib joylashishi munosabati bilan ashel davri maxsus belgilar bilan joylanish kartografiyasi yaratiladi.

Neolit, eneolit va bronza davrlarida aholi manzilgohlarini alohida kartografiyasida joylashtirish imkoniyati mavjud. Albatta, turar-joylar, mozor-qo'rg'onlar alohida belgilar asosida kartografiyaga joylashtirilishi lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Islomov U. "Farg'onaning ibtidoiy tarixi" // Anorboyev A, Matboboyev B "O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona". T. Fan. 2001
2. Касимов М.Д "Многослойная полелитическая стояка Кульбулак в Узбекистане". М. Наука. 1972
3. Kabirov J, Sadullayev A. "O'rta Osiyo arxeologiyasi". T. O'qituvchi. 1990
4. Исламов У.К, Тимофеев Б,У "Культура каменного века центральной Ферганы". Т. Fan. 1986
5. Окладников А.П "Неандертальский человек и среды его культуры в Средней Азии". М. Наука. САН 6. 1940
6. Окладников А.П "Средний палеолит-мустьерское время в Средней Азии // Средня Азия в эпоху камня и бронзы". М-Л. Наука.1966.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

POPULATION MIGRATION IN UZEKISTAN AND SOCIO-ECONOMIC FACTORS AFFECTING IT

Azamatova Gulmira Bayirbekovna
Teacher of Jizzakh Polytechnic Institute

Abstract. In this article, the issue of migration is gaining more and more urgent importance in the conditions of the current globalization, population migration leads not only to the growth or natural increase of the population, but also to its territorial distribution, location, changes in the age-sex, national and social structure of the population. illuminated.

Key words: Migration, population migration, internal migration, external migration, immigrants, emigrants.

O'ZEKISTONDA AHOLI MIGRATSIYASI VA UNGA TA'SIR ETGAN IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLAR

Azamatova Gulmira Bayirbekovna
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi globallashuv sharoitida migratsiya masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganligi, aholi migratsiyasi nafaqat aholi sonining o'sishi yoki tabiiy ko'payishiga, balki uning hududiy taqsimlanishi, joylashishiga, aholining yosh-jins, milliy va ijtimoiy tarkibining o'zgarishiga ham olib kelishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, aholi migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, ko'chib kelganlar, ko'chib ketganlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N13>

Kirish. Migratsiya jarayonlari bu – insoniyat tarixidir. Bashariyat tarixida insonlarning ko'chib yurishi, ya'ni migratsiya harakati juda qadimiy jarayon hisoblanadi. Lekin jamiyat taraqqiyotining alohida davrlarida, shu davrning ishlab chiqarish usuli, munosabatlariga mos holda aholi migratsiyasi o'z turlari, maqsad, vazifalari va oqibatlari bilan farq qilgan. Biroq har bir davrning migratsiya jarayoni o'ziga xos jihatlari ega bo'lib turli xil oqibatlarga olib keladi. Hozirgi kunda dunyo aholisining hududlar bo'ylab joylashuvi ham migratsiya harakatlarining natijasidir. Insonlar, yashash, ishlash, o'qish va moddiy ahvolini yaxshilash kabi maqsadlarda doimo turli hududlarga ko'chib yurganlar. Bugungi globallashuv sharoitida migratsiya masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Migratsiya – bu makon va vaqtda bir vaqtda rivojlanuvchi jarayon[1]. Aholi migratsiyasi nafaqat aholi sonining o'sishi yoki tabiiy ko'payishiga, balki uning hududiy taqsimlanishi, joylashishiga, aholining yosh-jins, milliy va ijtimoiy tarkibining o'zgarishiga ham olib keladi. Xususan, aholi sonining o'sishi va rivojlanishidagi o'zgarishlar, aynan aholining tabiiy harakati

yoki aholining takror paydo bo'lishi oqibatida (tug'ilish va o'lim miqdorining nisbatiga) hamda aholining hududiy qayta taqsimlanishi, ya'ni migratsiyasida ro'y beradi. Shuning uchun ham, aholining tabiiy va mexanik harakati natijasida shakllanayotgan mehnat resurslarining ijtimoiy-demografik omillari, ta'lim va mehnat migratsiyasi, bandligini ta'minlash, ishsizlikni pasaytirish hamda mehnat resurslaridan foydalanish kabi hududiy xususiyatlarni e'tiborga olishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Shuni qayd etish kerakki, insoniyatning butun taraqqiyoti davomida migratsiya jarayonlari jahonning demografik manzarasi shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Jumladan, bugungi kunda dunyo aholisining ma'lum bir qismi ob'ektiv va sub'ektiv sabablar ta'sirida ish va yashash joyini almashtirib turadi. Bu omil migratsiya deb atalib, u bir paytning o'zida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy va ekologik xarakterga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. 1885-yilda nemis-ingliz olimi Ernst-Georg Ravenshteyn birinchilardan migratsiyaning qonuniyat va tushunchalarni ilmiy jihatdan tatbiq etib, XIX asr so'nggida "migratsiya qonuni"ni yaratgan[2]. Ana shu qonuniyatlarga muvofiq migrantlar bir hududni cheklangan imkoniyatlar bilan tark etib, boshqa mintaqalarga katta imkoniyatlar bilan joylashib ola boshlaganlar. Shuningdek, bugungi kunda migratsiya tushunchasi turli tuman ta'rifga ega bo'lib, hozirda bu tushunchaning yagona ta'rifi mavjud emas. Nashrlarda bu hodisaning 36 dan ortiq turli ta'riflari mavjudligini demograf olim V.A.Ionsev alohida qayd etadi[3]. Manbalarda yana quyidagi ta'rif ham uchraydi: "Migrant - kamida bir yil yoki bir yildan ko'proq o'z vatanidan tashqarida bo'lgan kishi"[4].

Muhokama. Bugungi kunga kelib migratsiya jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan dolzarb muammolarning biriga aylandi. Migratsiya muammolari kishilik jamiyati shakllangandan beri mavjud va o'tmishda migratsiyani vujudga keltirgan omillar saqlanib qoldi, hatto ularning dolzarbligi yanada ortdi, chunki hozirgi zamon texnologiyalarining taraqqiyoti axborot va aloqa bilan bog'liq muammolarni hal etadi. Mamlakatlar o'rtasidagi demografik hamda iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuvi, fuqarolarning chegaralardan o'tishi ko'rinishidagi "tabiiy reaksiya"ni vujudga keltirdi.

Yo'nalishiga binoan migratsiyalar tashqi va ichki migratsiyalarga bo'lindi. Tashqi migratsiya - bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga aholining ko'chishi bo'lib, ushbu jarayonda mamlakatlar aholisi qayta taqsimlanadi hamda aholining kamayish va ko'payish holati kuzatiladi. Xalqaro hamjamiyat tashqi mehnat migratsiyasining kengayib borayotganligini inobatga olib, universal konsepsiyalarni qabul qilish bilan mehnat migrantlari hamda ularning oila a'zolari bilan muomalada bo'lish borasida xalqaro-huquqiy me'yor va qoidalarini o'rnatish ishlarini ham amalga oshirdi.

Ichki migratsiya - bir mamlakatning ichida aholining hududlar bo'yicha ko'chishi bo'lib, ushbu jarayonda ma'lum mamlakat ichida shahar, qishloq, tumanlar bo'ylab aholining qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Ammo, bunda mamlakat aholisining umumiy soni o'zgarmaydi. Aholi migratsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra uchga: doimiy, vaqtincha (mavsumiy) va tebranma (mayatniksimon) migratsiyaga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida ichki migratsiyaning kengayishi tabiiyki, o'tish davri bilan bog'liq bo'ldi. O'zbekistondagi ichki migratsiya - vaqtinchalik iqtisodiy migratsiya (mardikorlik), vaqtinchalik va doimiy majburiy ekologik migratsiya (favqulodda vaziyatli hududlardan aholini ko'chirish, yerlarning cho'llanishi bilan bog'liq ekologik ofatlar, ichimlik suvi yetishmasligi, tabiiy ofatlar), uzoq qishloq tumanlarida yirik shaharlarga yoshlarning vaqtinchalik va doimiy tartibsiz migratsiyasi, kichik shahar,

shaharcha yoki uzoq tumanlaridan markaziy shaharlarga intellektual migratsiya (asosan Toshkentga) shakllarida kuzatildi.

BMT ta'rifiga ko'ra, doimiy migratsiya - aholining bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib, bir yildan ko'p muddat yashab qolishidir.

Aholining bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib, ma'lum bir muddat yashab qaytishi - vaqtincha migratsiya hisoblanadi. Ya'ni aholining ta'lim olishi, harbiy xizmati, shartnoma asosida mehnat qilish uchun vaqtincha yashash joyini o'zgartirishdir.

Odamlarning bir manzilgohdan o'zga bir manzilgohga mehnat qilish yoki ta'lim olish maqsadida har kuni yoki bir haftada qatnashi - tebranma migratsiya bo'lib, aksariyat hollarda urbanizatsiya sharoitida rivojlanib boradi. Bu migratsiyaning asosiy yo'nalishi qishloqdan shaharga, kichik shaharlardan katta shaharlarga tomon bo'ldi.

Aholi migratsiyasi - bu aholining u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatlarda yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chish hisoblanadi[5].

Natijalar. Oxirgi yillarda tadqiqotchilar migratsiyaning tarixiy ildizlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillari, bu jarayonning dunyo mamlakatlaridagi diasporalarga asos bo'layotganligi, o'zining mamlakatini almashtirganlarda milliy o'zlikni saqlash muammolari va transformatsiya yuz berganligi, uning demografiya hamda urbanizatsiyaga ta'siri kabi masalalarni tadqiq qilish borasida samarali natijalarga erishdilar[6].

Migratsiya jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish holatiga ega bo'lib, ma'lum bir mintaqa, davlat yoki hududning ijtimoiy hayotiga o'zining ijobiy, salbiy, hatto siyosiy ta'sirini o'tkazadi.

Jahonning ko'plab davlatlarida migratsiya jarayonlarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga ta'siri va bu borada xalqaro va xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganishga ixtisoslashgan markazlar ham tashkil etildi.

Dunyo miqyosida to'xtovsiz ravishda o'sib borayotgan aholi migratsiyasi milliy, hududiy, mintaqaviy va global ahamiyat kasb etib, mazkur jarayonlar O'zbekistonga ham ta'sir etishi tabiiy holat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil bozor munosabatlariga o'tishi ham mehnat migratsiyasida o'ziga xos bo'lgan o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Iqtisodiyotda kechgan jarayonlar oqibatida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimda ishsizlik fenomeni yuzaga keldi. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashga, ayniqsa, keyingi yillarda mehnat bozori samaradorligini oshirish, aholining bandligini ta'minlash hamda aholi daromadini oshirish, ayollar va kam ta'minlangan oilalar a'zolarini bandligini ta'minlash hamda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida mustaqil O'zbekiston jahon xo'jaligida yuz beradigan ijobiy yoki salbiy jarayonlarni hisobga olish, unga tayyor turish va oldini olish muammolarini ham o'z kuchi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda yechimini topish kerak edi. Aholining ko'chib yurishiga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillar sabab bo'lgan bo'lsa, 1991-yildan boshlab ular o'zgarib bordi.

Migratsiya jarayonlarining oshib borishi ijobiy, ham salbiy xususiyatga ega bo'lib bordi. Salbiy oqibatlar malakali mehnat resurslarining respublikadan tashqariga chiqib ketishi, chet davlatlarda o'zbekistonlik migrantlar huquqlarining buzilishi, jismoniy zo'ravonlik va ma'naviy tazyiqqa uchrash holatlari kabilar bo'ldi. Chet davlatlarda ishlashni istovchi fuqarolar mehnat

qilish imkoniyatlarining kengayishi, buning natijasida respublikada ish o‘rinlarining bo‘shashi, qishloqdan shaharga migratsiyaning kuchayishi, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, xorijiy valyuta mablag‘larining kirib kelishi kabi omillar esa ijobiy jihatlarni o‘zida aks ettirdi[7].

Aholining ma‘lum bir hududga ko‘chib kelishi yoki ko‘chib ketishi joylardagi aholi sonining o‘shish dinamikasiga, aholining bandlik darajasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Shuningdek, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ham aholi migratsiyasi ko‘rsatkichlarini belgilab beruvchi omillardan biri hisoblandi. O‘zbekistonda 1991-yil yalpi migratsiya hajmida 772 ming 339 kishi ishtirok etgan, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 309 ming 344 kishini tashkil qilgan yoki shu davrda migratsiyada ishtirok etuvchilar miqdori 2,7 barobarga kamaydi. 2016-yil migratsiya o‘shish 26 248 ni tashkil qilgan, bu ko‘rsatkich 2015-yilda 29299 ni tashkil etdi[8]. Umumiy aholi migratsiyasida 2016-yilga kelib, ko‘chib kelganlarga nisbatan ko‘chib ketganlar 1 million 590 ming 536 kishiga ko‘p bo‘ldi.

Migratsiya jarayonlari jadallashuvidan ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumatlari manfaatdor bo‘layotganligini ham alohida ta‘kidlash lozim. Zero, migratsiya oqibatida keskin ijtimoiy-iqtisodiy, demografik muammolar birmuncha yumshab, mehnat migrantlarining o‘z oilasiga jo‘natadigan pul jo‘natmalari ijtimoiy, madaniy sohalar bilan birgalikda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ham qo‘shimcha omil bo‘ladi. Mehnat migratsiyasi o‘sgan sari davlatlarga kapitalning oqib kelishi ham ko‘payib bordi va mutaxassislarning fikriga ko‘ra, xususiy kapital oqimining 82 foizi 135 ta rivojlanayotgan davlatlarning 20 tasiga kelib tushgan. Mehnat migrantlarining pul jo‘natmalari O‘zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga ham yaxshigina hissa qo‘shdi.

Ko‘plab xorijiy mamlakatlar, jumladan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklariga aholi migratsiyasining oshishining asosiy omillari ushbu mamlakatlarda mehnat resurslariga talabning yuqoriligi, nisbatan yuqori maosh olish imkoniyatining mavjudligi, ayniqsa, tarixiy omillar ta‘siri va barqaror davlatlararo aloqalarning yo‘lga qo‘yilgani, qolaversa, xalqlar orasida ruhan yaqinlik ko‘nikmalarining mavjudligi, til muammosining yo‘qligi ham sabab bo‘ldi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta‘kidlash lozimki, jahonda globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda inson resurslari harakatining shakl va yo‘nalishlari, boshqacha aytganda, migratsiya oqimi tobora jadal tus olmoqda. Albatta, kimdir zamonaviy bilim egallash, davolanish uchun xorijga yo‘l olgan bo‘lsa, boshqalar esa turmush sharoitini yaxshilash maqsadida serdaromad ish qidirib bormoqda. Bu jarayonlar O‘zbekistonga ham xos bo‘lib, respublika sharoitida o‘ziga xos jihatlar kuzatildi. Dunyo miqyosidagi globallashuv sharoitida aholi mehnat migratsiyasi jahon iqtisodiy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylangan bo‘lib, O‘zbekiston xalqaro mehnat bozorining to‘laqonli a‘zosi sifatida migratsiya jarayonidan chetda qolmadi. Jumladan, aholi migratsiyasining ko‘payishida uning demografik ko‘rsatkichlari - aholining yuqori sur‘atlarda o‘shishi, ishchi kuchi resurslarining umumiy sonida nafaqat erkaklar balki, xotin-qizlar ulushining ham yuqoriligi ularning mehnatsevarligi bilan ajralib turdi. O‘zbekiston fuqarolarining xorijda ishlash, muayyan kasb va ixtisoslik bo‘yicha chet el tajribalarini o‘rganish huquqi kafolatlandi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ионцев В.А. Международная миграция // Миграция населения. Вып. 3. Приложение к журналу “Миграция в России”. – Москва, 2001. – С.102.
2. Абдурахмонов К. Меҳнат иқтисодиёти назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 276.
3. Ионцев В.А.Международная миграция населения:теория и история изучения. – Москва, 1999. – С. 19.
4. Пармонов Ф., Тўраев Ш., Даминов И.,Тоғаев Ш. Миграция: Мусофир ватангадолар. – Тошкент: Sano-standar, 2018. – Б. 18.
5. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Демография. – Тошкент: Ношир, 2011. – Б. 209.
6. Ҳайитов Ш. Ҳозирги босқичда миграция жараёнларининг назарий методологик таҳлили. / “Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжуман материаллари. – Бухоро, 2020. – Б. 323.
7. Юсупова С. Ўзбекистонда меҳнат миграцияси масаласи: муаммо ва ечимлар // Илмий хабарнома, АДУ, 2017, – №4. – Б. 65-68
8. Ўзбекистон ҳудудларининг йиллик статистик тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 27.
9. Azamatova, G. B. (2022). Some Considerations On The Migration Movements Of The Population Of Jizzah Region And Its Periodic Change. *International Journal Of History And Political Sciences*, 2(12), 09-13.
10. Azamatova, G. (2021). Illegal Migration And Human Trafficking. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(2), 3541-3545.
11. Azamatova, G. B. (2022, June). The Republic Of Uzbekistan And South Korea: Mutually Beneficial Cooperation In The Field Of Labor Migration. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 60-65).

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

HISTORICAL INFORMATION ABOUT OLD TERMIZ

Raimov Mamasoat Safar ugli

Termiz State University, Department of "World History", Teacher.

Abstract. In this article, the data related to Old Termiz in the Western literature, the migration of the population, and the existing problems at the level of social life and its social aspects are scientifically analyzed.

Key words: Shahri Gulgula, "Travel to Bukhara" by Alexander Borns, I.V. Musketov, without words, "Afghan wind", Madinat ar-Rijol, Termiz, Zununabad.

ESKI TERMIZ TARIXIY HAQIDA TARIXIY MA'LUMOTLAR

Raimov Mamasoat Safar o'g'li

TerDU Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada G'arb adabiyotida Eski Termiz bilan bog'liq ma'lumotlar aholisining migratsiyasi, hamda ijtimoiy turmush darajasida mavjud muammolar va uning ijtimoiy jihatlari masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kirish so'zlar: Shahri G'ulg'ula, Aleksandr Bornsning "Buxoroga sayohat", I.V.Mushketov, so'zsiz, "afg'on shamoli", Madinat ar-Rijol, Termiz, Zununobod.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N14>

Kirish. G'arb adabiyotida Eski Termiz bilan bog'liq ma'lumotlar XVIII asrdan boshlab uchraydi. O'sha davr ma'lumotlari, asosan, G'arbiy Yevropada tuzilgan geografik xaritalarda Termiz nomli shaharning joylashuv o'rni ko'rsatilganligi bilan xarakterlanadi[1;164].

G'arb adabiyotida Eski Termiz haqidagi dastlabki ma'lumotlar fransuz yozuvchisi J.Deginning Markaziy Osiyo tarixi haqida hikoya qiluvchi XVIII asrda chop etilgan kitobida uchraydi. Shunisi qiziqarliki, XVIII-XIX asr g'arb adabiyotida Eski Termiz shahri G'ulg'ula nomi bilan mashhur bo'lgan va bu haqida qiziqarli ma'lumotlarni yevropalik tarixchi, geograf va sayohatchilar G.Mayndorf, V.G.Tizengauzen, G.Yul, N.A.Mayev, D.N.Logofet, I.V.Mushketov, A.A.Bikov, I.L.Yavaroskiy, N.A.Sorokin, N.Karazin, N.Zubov, G.Bonvalo va boshqalar yozib qoldirishgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XIX asrning 80-yillariga kelib Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati O'rta Osiyo va Afg'oniston hududida Rus hukmronligini o'rnatish uchun Rossiya-Angliya kurashi nihoyatda kuchayib ketdi. Natijada O'rta Osiyoning Amudaryo orqali Afg'oniston bo'ylab o'tgan chegara hududlarida Rus va Ingliz harbiy zobitlari, harbiy suratkash va sayohatchilar tez-tez paydo bo'la boshlashdi. Ayniqsa, 1820-yilda Buxorodagi rus elchixonasidagi G.Mayndorfning Buxorodan Eski Termizga sayohatidan so'ng "1820-yilda

Orenburgdan Buxoroga sayohat” nomli kitobi 1826-yilda Parijda bosilib chiqdi. G.Meyendorf Eski Termiz qoldiqlarini tasvirlab turib: ”Bu shahar Amudaryoning o’ng qirg’og’ida (chap qirg’og’iga qarama-qarshi tomonda) joylashgan bo’lib, tosh va shag’altosh, paxsadan qilingan uylarning xarobalaridan boshqa narsa ko’rinmaydi”-deb yozadi[2;77].

G.Meyendorf ma’lumotlaridan shu narsa ayon bo’ladiki, bu davrda Eski Termiz hali arxeologik tadqiqotlarga jalb etilmagan bo’lib, faqat hududni kuzatuv orqali o’rganish holati hukmronlik qilar edi.

1835-yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan tilshunoslik ekspeditsiyasining “Oksus” nomli maqolasida Eski Termiz haqida ma’lumotlar keltiriladi: “Ko’lobda boshlanib, Turon pasttekisligi qismida Hisor vodiysi yastanib yotadi va Balxni O’kuzdan ajratib turgan Qunduzsoy va Xuludsoy vodiylarining qarama-qarshisida Balxning deyarli bir xil meridianida Eski Termiz xarobalari joylashgan”.

Adabiyotlar tahlili va metod. G’arb adabiyot vakillaridan biri ingliz geografi Genri Yul Eski Termiz xarobalari haqida to’laroq ma’lumot berilishga harakat qilgan. Uning 1873-yilda chop etilgan ‘Vud sayohati’ nomli kitobi so’zboshisida Oks bo’yida joylashgan va Chingizxon tomonidan vayron qilingan Termiz juda qadimiy va juda mashhur shaharlardan biri bo’lib hisoblanadi[3;51].

Eski Termiz Chingizxon hujumidan bir asr so’ng daryodan tahminan ikki mil uzoqlikda o’zining avvalgi darajasiga erishadi va bu holatni 1334-yilda Termizga tashrif buyurgan Ibn Battuta ham qayd etadi”, deydi.

1805-yil Rossiya tomonidan Buxoro amirligining janubiy hududlarini harbiy-siyosiy o’rganish maqsadida N.A.Mayev boshchiligida topograf Vishnevskiy, tarjimon Kazbekov, suratkash Krivsov, tabiatshunos F.F.Shvars, Kazakov va Vaynberglardan iborat maxsus ekspeditsiya tuziladi. N.A.Mayev Surxon vohasiga tashrif buyurgan bo’lsa-da, Eski Termiz va Termiz shahrini borib ko’rmagan. Shu sababli uning Termiz haqidagi ma’lumotlari mahalliy aholidan so’rab surishtirish orqali to’plangan ma’lumotlardan iborat bo’lib qolgan. Ammo N.A.Mayev voha tabiati, tarixi, shahar va qishloq aholisi, ularning turmush tarzi, urf-odatlar haqida --o’zi bo’lgan hududlarda ko’rib yozganlari hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

1878-yilning 7-dekabrida Toshkentdan Qobulga ketayotgan Rossyaning 1878-1879-yilgi Afg’onistondagi vakili I.L. Yavorskiy Eski Termiz xarobalarini ko’rib, qiziqarli ma’lumotlarni yozib qoldirdi. Unionmg yozishicha, “... Pattakesar kechuvidan 5-6 vyorst (1 vyorst 1,6 km-I.B) uzoqlikda Eski Termiz xarobalari yastanib yotadi. Juda kata hududdagi yer pishgan g’ishtlarning siniq bo’laklari bilan qoplangan. Bir joyda balandligi 5-7 sajin (1 sajin 2,134 m-I.B) keladigan pishgan g’ishtdan qurilgan bir minora turibdi. Minora aylanasi bo’ylab pishgan g’ishtlardan foydalanib kufiy usulda yozilgan yozuvlar bor. Minoraning yuqori qismi xarob bo’lgan, undan nariroqda esa g’ishtdan qilingan juda ko’p binolarning xarobalari bor. Ko’pgina g’isht siniqlari ustida koshinli qoplama bor. Ushbu xarobalar joyi Xaybar deb ataladi”. I.L.Yavarskiyning ushbu ma’lumotlari Eski Termiz haqida bir qadar fikr yuritishga imkon beradi[4;211].

Eng avvalo, 1071-1072-yillarda qoraxoniylar davrida qurilgan (ba’zi manbalarda 1081-1082-yillarda qurilgan deb ko’rsatilgan) Termiz minorasining balandligi I.L.Yavarskiy tahmin qilganidek, 10-12 metr emas, balki ancha baland bo’lganligini faraz qilish mumkin. Negadir, I.L.Yavarskiy 1900-yilda N.Kastalskiy tomonidan suratga olingan Termiz minorasi yonidagi

masjid haqida lom-mim demagan (hozirgi kunda ushbu masjid suratlari Termiz Arxeologiya muzeyi fondida saqlanmoqda). Bizning fikrimizcha, suratga olingan minora yonida kichik masjid binosi bo'lgan. Chunki shundoqqina masjid yonida aholi turar joyi bo'lishi ehtimoldan juda uzoq bo'lib, minoralar asosan azon aytishga mo'ljallangan inshoot hisoblangan. 1879-yil avgust oyi boshlarida Eski Termiz xarobalarini o'rganish maqsadida Samarqanddan ilmiy ekspeditsiya yo'lga chiqadi. Uning tarkibida taniqli olimlardan geolog I.V.Mushketov, botanik N.A.Sorokin, muhandis N.L.Lyapunov, tarjimon F.N.Jukov va yozuvchi-rassom N.N.Karamzinlar bor edi [5;3].

Muhokama. Eski Termizdagi tarixiy yodgorliklarning rasmlari N.N.Karamzin tomonidan unchalik aniq chizilmaganligi tufayli ular katta ilmiy ahamiyatga ega emas.

Muhandis N.L.Lyapunov Al-Hakim at-Termiziy qabridagi yozuvlarning nusxalarini suratga tushirib olgan bo'lsa-da, uning vafotidan so'ng suratlar yo'qolib ketgan. Ilmiy ekspeditsiya a'zolari muhim bir ma'lumotni aniqlash maqsadida, mahalliy aholi orasida surishtiruv ishlarini olib borgan. Bu ma'lumot Eski Termizdagi qal'adan daryoning qarama-maqarshi tomoniga qarab qurilgan eski ko'priq haqida edi. Mahalliy aholining guvohlik berishicha, daryoning suvi pasayib ketgan paytlarda ko'prikning mustahkam ustunlari ko'rinib turgan.

Ushbu ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ekspeditsiya a'zolari yelkanli qayiqlar va yog'ochdan yasalgan suzuvchi dastalar yordamida daryoga tushib harchand urinmasinlar, ko'priq qoldiqlarini topa olmaganlar, Shuni aytish kerakki, ko'priq haqidagi mish-mishlar yoki mahalliy aholi hikoyalari zamirida qandaydir tarixiy haqiqat bordek.

Eski Termiz xarobalari haqidagi muhim ma'lumotlarni I.V.Mushketov keltiradi. Uning yozishicha, Miya (Jarqo'rg'on minorasi yonida) degan joydan Surxon vohasi suvsiz qolgan joydan, shamol bilan ko'tarilgan qum barxanlari esa o'simlik dunyosiga katta zarra yetkazadi va Eski Termizga qadar yetib kelib, uning ustiga yog'iladi. Bu o'rinda I.V.Mushketov, so'zsiz, "afg'on shamoli" haqida yozayotgani aniq [6;4].

I.V.Mushketovning Eski Termiz qal'asi haqidagi ma'lumotlariga ko'ra, shahar qal'asi xarobasi boshqa xarobalarga nisbatan yaxshi saqlangan. Qal'aning eni 6600 kv.m. (66 ar) keladigan zali chuqur xandaq bilan hamda uzunligi 428 metr (200 sajin) keladigan yo'lak va uzunligi 210 metr (100 sajin) keladigan tor yo'lak bilan o'ralgan.

Rus harbiy muhandisi A.G.Ananyev esa Eski Termiz qal'asining uzunligini 525 metr (250 sajin), enini 252 metr (128 sajin) va balandligi 6,3 metrdan 10,5 metrgacha (3-5 sajin) deb ko'rsatadi. Shuningdek A.G.Ananyev qal'adan shimol tomonda 100 metr (50 sajin) uzoqlikda joylashgan Al-Hakim at-Termiziy hamda qal'adan sharq tomonda 2 km uzoqlikda (2 vyorst) joylangan Xo'ja Varrux minorasi (ozgina qiyshaygan) va uning yonidagi quduq hamda qal'adan shimolda joylashgan Chingiztepa yodgorligi haqida ma'lumot beradi.

Amudaryodan sharqiy tomonda 5 km (5 vyorst) SultonSaodat, Afg'onmozor, Kokildorota va Qirqqiz obidalari haqida ma'lumotlar beradi.

I.V.Mushketov e'tiroficha, qal'aning daryo tomonida unga chiqadigan yo'laklar pishgan g'ishtdan qurilgan. Daryoga qal'aning yerosti yo'laklari orqali chiqilgan. Ammo ushbu yo'laklar vaqt o'tishi bilan tuproq bilan to'lib qolgan. I.V.Mushketov qal'a xarobalarida dastlabki ilmiy kuzatuvlar o'tkazib o'tkazib, temir va misdan yasalgan turli xil buyumlarning qoldiqlari, shisha buyumlar, naqshinkor sopol buyumlar siniqlari va tangalar (asosan grek tangalari)ni topganlarini qayd etadi. Ayniqsa, uning qurbaqa shaklidagi oq nefritdan tayyorlangan muhr bo'lagini topib olganligi diqqatga sazovordir. Ammo, I.V.Mushketov ushbu topilmaning keyingi

taqdiri haqida hech nima demagan. Shuningdek, u qal'aning Madinat ar-Rijol, Termiz, Zununobod nomlari bilan qayd etilgani qayd etilgan. 1881-yilning aprel oyida Buxorodan afg'on amiri Sheralixon huzuriga ketayotgan K.E.Eyfanov, fransuz sayyohi G.Bonvalo va rassom Kanyular Eski Termiz xarobalarini ko'zdan kechirdilar va maqbaraning chap tomonidagi Al-Hakim at-Termiziy qabri yonida ko'plab taniqli kishilarning qabrlari borligini aniqlashga muvaffaq bo'lishadi. G.Bonvalo tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar 2006-2007-yillarda maqbara atrofida olib borilgan arxeologik kuzatuv ishlarida tasdiqlangan. Shuningdek G.Bonvalo Sherobod yo'li yoqasida joylashgan minoraga alohida e'tibor qaratib, uning yonida madrasa xarobalari, karvonsaroy, hammomlar va badavlat kishilarning xonadonlari joylashganini qayd etgan[7;3].

Natijalar. 1890-yilda Arxeologiya komissiyasining topshirig'iga ko'ra sharqshunos E.F.Kalning Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab ilmiy safarlari boshlanadi. Uning yo'nalishi dastlab daryoning chap qirg'og'idagi Karki shahridan to afg'on hududidagi Davqal'agacha, so'ngra esa Karkining o'ng tomonidan boshlab to Amudaryoning quyilish joyigacha qilib belgilangan edi. E.F.Kal tomonidan Eski Termizda birmuncha jiddiy tadqiqotlar o'tkazilib, ancha qiziqarli ma'lumotlar to'plangan. U Al-Hakim at-Termiziy qabrtoshida o'lchov ishlarini amalga oshirdi. Qabrtoshdagi yozuvlarni qisman o'qib suratga oladi. Mahalliy aholidan 150 ga yaqin Yunon-Baqtriya, Skif, Hindiston, Arab mamlakatlari va Eron mamlakatlarida zarb qilingan tangalarni sotib oladi.

1891-yilda E.F.Kal Amudaryoning Buxoro amirligiga qarashli qirg'oqlariga ikkinchi marotaba qaytadi. Ammo bezgak kasalligiga chalilib Karki shahrida vafot etadi. Shunisi achinarliki, u to'plagan buyumlarning faqat bir qismigina davlat Ermitajiga topshirilgan. Qolgan qismi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Eski Termizda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlar, aniqrog'i, "Kalning kundalik daftari" qo'lyozmasining 25 ta fotonegativi hozirgi Termiz Arxeologiya muzeyi arxivida saqlanib kelinmoqda[8;2].

Xulosa. O'zbekiston Mustaqillikka erishgach, manbashunoslik fanida Termiz tarixini o'rganishning yangi bosqichi boshlandi. Surxondaryolik tarixchi olimlar, arxeologlar, adib va o'lkashunoslarning Termiz tarixiga oid ko'plab asrlari nashr etilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Turli mamlakatlar bilan hamkorlikda ko'plab arxeologik ekspeditsiyalarning tashkil etilishi Baqtriya-Toxariston sivilizatsiyalarida Termizning tutgan o'rnini haqida Xalqaro konferensiya va anjumanlarning o'tkazilishi Termiz tarixi manbashunosligini yangi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Termizning o'tmishini o'rganish hamda u to'g'ridagi ilmiy adabiyot tarixnavisligi har bir ilmiy tadqiqot uchun alohida mavzu bo'lishi mumkin bo'lgan qator jihatlarni o'z ichiga oluvchi g'oyat keng ilmiy muammodir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Tursunov S.N., Qobilov E.A. va boshq. Surxondaryo tarix ko'zguisida. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 112.
2. Tursunov S.N., Qobilov E.A. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 145.
3. Tursunov S.N., Pardayev T.R. va boshq. O'zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B. 192.

4. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. Toshkent, 2001. – 6-bet.
5. Safar o'g'li, R. M. (2023). The Study of The History of Termiz by Researchers. *Genius Repository*, 26, 24-27.
6. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZ OBIDALARINING RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O'RGANILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 37-41.
7. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZNING CHIG 'ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA.
8. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZ TARIXINI ORGANISHDA YANGI DAVR.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

FORMATION OF FIRST SCIENTIFIC VIEWS IN CENTRAL ASIAN HISTORIOLOGY

Usmanov Jahangir Khojakulovich

History teacher of Termiz State University academic lyceum.

Abstract. In this article, information related to the encyclopedia of Islam in the Western literature, the migration of the population, and the existing problems at the level of social life and its social aspects are scientifically analyzed.

Key words: Medieval monuments of Surkhandarya", Abu Jafar Tabari, I.V. Mushketov, without words, "Afghan wind", Madinat ar-Rijol, Termiz, Zununabad.

MARKAZIY OSIYO TARIXSHUNOSLIGIDA ILK ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI

Usmanov Jahongir Xo'jaqulovich

Termiz davlat universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada G'arb adabiyotida Islom ensiklopediyasi bilan bog'liq ma'lumotlar aholisining migratsiyasi, hamda ijtimoiy turmush darajasida mavjud muammolar va uning ijtimoiy jihatlari masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kirish so'zlar: Surxondaryoning o'rta asrlarga oid yodgorliklari", Abu Jafar Tabariy, I.V.Mushketov, so'zsiz, "afg'on shamoli", Madinat ar-Rijol, Termiz, Zununobod.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N15>

Kirish. Termizning o'tmishini o'rganish hamda u to'g'ridagi ilmiy adabiyot tarixnavisligi har bir ilmiy tadqiqot uchun alohida mavzu bo'lishi mumkin bo'lgan qator jihatlarni o'z ichiga oluvchi g'oyat keng ilmiy muammodir[1;165].

Bu, yeng avvalo, Eski Termiz shahrining arxeologik jihatdan o'rganilishi, ya'ni bu yerda kim, qachon, qanday hajmda arxeologik tadqiqot olib borganining, ular ushbu shahar o'tmishini bilishda qanday natijalar berganini bilishning o'rganilishidir. Ikkinchidan, bu Termiz o'tmishini tarixiy nuqtai nazardan ilmiy anglash tarixi ya'ni bu haqida tasavvurlarning olimlarning yozma manbalaridan olingan sof tarixiy ma'lumotlar (masalan V.V.Bartoldning Termiz to'g'risida " Islom ensiklopediyasi"ga kirgan o'z davri uchun ajoyib ocherki) dan tortib Termiz uchun V.E.Masson tomonidan TAKE to'plamlarida ilk bor bajarilgan va hozirga qadar davom ettirilgan arxeologik va numizmatik ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi majmui ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan, davrma-davr yaratilgan asarlardagi tahlili va tanqididir.

Bu, shuningdek, Termiz me'moriy obidalarining XIX asrdagi yuzaki tasvirlari bilan boshlanib, bu obidalarning me'moriy uslubini, loyihasi va mujassamotini, xronologiyasi va tarixiy mansubligini tahliliy tadqiq qilish bilan yakunlangan, Z.A.Arshavskaya, Ye.V.Rtveladze, Z.A.Hakimovning "Surxondaryoning o'rta asrlarga oid yodgorliklari" asari umumlashtirilgan o'rganish tarixidir[2;221].

Adabiyotlar tahlili va metod. Bu yana o'rta asrlardagi Termizning Hakim Termiziy va Xo'ja Iso Termiziy kabi buyuk shaxslar to'g'risida ilmiy va diniy adabiyotni tadqiq qilish tarixi hamdir. Termiz o'tmishini o'rganish tarixida boshqa ko'plab yo'nalishlar ham borki, ularning har biri alohida tadqiq qilinishga haqlidir. Bularning bari majmua holda ilmiy muammo tarixnavisligi tushunchasini tashkil qiladi. Zero, nafaqat O'rta Osiyo, balki muayyan jihatda sharqning boshqa mamlakatlari tarixining ham tarkibiy qismini tashkil yetuvchi Termizning ko'p asrlik o'tmishi shundaydir. Kitobning hajmi cheklanganligi batafsil tavsiflash imkonini bermaganligi uchun quyida uning yeng muhim jihatlari yoritilgan. O'rta asrlar mualliflari (geograflar, tarixchilar, yilnomachilar, sayyohlar) asarlarida Termiz to'g'risida eslatma va faktlarning mavjudligi uning O'rta Osiyoning yirik shahri sifatida juda mashhur bo'lganligini tasdiqlaydi. Ularda Termiz O'rta Osiyo va ularga yondosh hududlar bo'ylab o'tish yo'llarida sharqning yeng muhim geografik punktlaridan biri, shuningdek o'z qator tarixiy voqealari bilan bog'liq bo'lgan shahar sifatida tilga olingan. Umuman bunday ma'lumotlar jamuljam holda Termiz to'g'risida bevosita yoki bilvosita ajoyib bilim manbaini yuzaga keltiradi[3;156].

Bizgacha yetib kelgan tarixiy asarlar orasida X asr arab muarrixii Abu Jafar Tabariyning "Tarixi" juda muhim o'rin tutadi. Tabariyga ko'ra, Termiz Makedoniyalik Aleksandr qurdirgan 12 shahar jumlasiga kiradi. Tabariy asarining Balamiy tomonidan tayyorlagan forsiy versiyasida Termizga 531-yillarda hukmronlik qilgan sasoniy shoh Kubod tomonidan asos solingan. Biroq na Tabariy, na Balamiy qaysi ma'lumotlar asosida bunday takidlashayotganini ko'rsatishmagan. Tabariy "Tarixi" Termiz tarixi uchun arab qo'shinlarining shimoliy Toxaristonga birinchi yurishini tasvirlashi bilan qimmatli. Keyinchalik mashhur din tarixchisi Abulfayz Shaxristoniy VIII asrning birinchi yarmida Termiz masjidlarida olib borilgan shiddatli munozaralar to'g'risida ma'lumot bergan.

IX- X asrlar arab madaniyati ravnaq topgan va arab geografiyasining mumtoz maktabi yuzga kelgan davri hisoblanadi. "Arab geograflari" deganda nafaqat arablar balki boshqa xalqlarning o'z asarlarini arab tilida bitgan vakillari ham nazarda tutiladi. Ular ko'plab mamlakatlarni, aholi punktlarini batafsil sanab va tasvirlab o'tishgan, shu jumladan aholi turmushi, madaniyati, tili va diniy e'tiqodlarini ularning hunarmandchilik ishlab chiqarishi markazlarini tavsiflashgan. Arab-fors geograflari va sayyohlarining ko'pchiligi – Ibn Xurdodbek, Qudoma, al- Istaxriy, al- Maqdisiy, Jayhoniy, Ibn Havqalning asarlarida shaharlarning tizimi, ularning siyosiy va xo'jalik ahvoli haqida ma'lumotlar mavjud, ba'zida batafsil, ko'pincha nodir tariflar berilgan. Kechroq yashagan mualliflar ko'pincha X asr geograflarining ma'lumotlarini takrorlaganlar[4;79].

Muhokama. Termiz to'g'risidagi tarixiy adabiyotlar orasida Abulfazl Muhammad Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" asari alohida o'rin tutadi. G'aznaviylar sulolasi tarixini yozishni niyat qilgan Bayhaqiy tarixiy hikoya doirasini kengaytirib, unga yangi mazmun va yangi shakl baxsh yetdi. G'aznaviylarning Alloh nazari tushgan shahrida Mas'udning bo'lishini tasvirlar ekan, Bayhaqiy: "Termizda ko'rganimni kamdan-kam yerda ko'rganman",-deb yozgan. O'sha davr tarixnavisligida o'rnatilgan qoidaga ko'ra o'sha davr tizimi, madaniyati va san'ati, odamlari

hamda urf-odatlarini to'g'risida yozilmas yedi. Shu narsalarni yozgani tufayli Bayhaqiy asari alohida ahamiyat kasb yetadi. Ibn al-Asir, Utbiy, Gardiziy, Juvayniy, Rashididdin, Qazviniy, Ravandiy, Ar-Roziy, Juzjoniy, Sadridin Ali al-Xusayniy singari muarrixlar asarlarida Termiz tarixiga oid juda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu asarlar, odatda, davlatlar va sulolalarning siyosiy tarixi tasvirlangan. Bunday ma'lumotlar tendensiyaga ega, ko'p jihatdan muallifning siyosiy mansubligiga mansub bo'lgan. Ularning ayrimlarida kamtarroq tashbehlar va jimjimador uslub ko'pincha ayrim faktik jihatlardan ustun bo'lgan. Muarrixlardan farqli ravishda shoir Anvoriy XII asr o'rtalarida oz qasidalarida Termizni firdavsmonand deb tasvirlab, shahar va uning aholisini madh yetgan. Ayni shu tufayli Termiz sayyidlari xonadoni vakillari faoliyati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan[5;4].

Alouddin Atomalik Juvayniy (1225-1283-yillar) ning "Tarixi Jahonkushoy" ("Jahongir tarixi") asari, Xo'ja Siroj Juzjoniyning "Tabaqoti Nosiriy" asarlaridan mo'g'ullarning Movarounnahrda yurishi tarixi hamda Termizning olinishi to'g'risida qimmatli materiallar bor. Yana bir qimmatli manba- Rashididdinning "Jome ut-tavorix" asari.

Amir Temur va temuriylar davri tadqiqotchilar uchun material yetishmasligi tufayli yemas, balki ko'plab manbalarga sochilgan materiallarning seroblighi tufayli muammo tug'iladi. Amir Temur tarixi uchun G'iyosiddin Alining "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi") asari muhim ro'l o'ynaydi. Amir Temurning boshqa taniqli muarrixlari Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy o'z asarlarini yaratishda G'iyosiddin Ali asaridan foydalanishgan. Uning kitobiga Amir Temurga Hind yurishida hamrox bo'lgan qozi Nizomiddin Umar kundaligi asos bo'lgan. Termiz xudovandzodalaridan sayyid Alouddinning elchiligi bilan bog'liq epizod katta ahamiyat kasb yetadi. O'shanda Temurga nisbatan "Sohibqiron" tashbehlaridan birinchi marta foydalanilgan. Amir Temur yurishdan qaytib kelishida uning g'alabasi nishonlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Amir Temur hayotligi davrida Nizomiddin Shomiy tomonidan "Zafarnoma" nomi ostida yozilgan Sohibqironning rasmiy tarixi, Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan 1419-1425-yillarda yozilgan "Zafarnoma" bir-birini to'ldiradi, umuman Markaziy Osiyo, shu jumladan, Termiz tarixiy voqealarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Termiz bilan bir qatorda "Eski Termiz" ham tilga olingan. Ibn Arabshohning (1392-1450-yillar) "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur" ("Amir Temur tarixi") asaridagina Eski Termizni tiklash bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida hikoya qilingan. Amir Temur vafotidan so'ng Xalil Sulton bilan Shohruh o'rtasidagi kurashda Amudaryo bo'ylab chegara yana muhim ahamiyat kasb yetdi. Shuning uchun Xalil Sulton 1407-yilda Eski Termizni tiklash bo'yicha farmon berdi. Arab tarixchisi Ibn Xalidun (1332-1405-yillar) asarlarida Termiz tarixi bo'yicha ko'plab faktlar mavjud, biroq olimlar ularga lozim darajada e'tibor berganlari yoq[6;6].

XIV asrning birinchi yarmidagi Termiz tarixini mashhur arab sayyohi Ibn Battutasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mo'g'ullar tomonidan vayron yetilgan so'ng birmuncha vaqt o'tgach Termizning joyi o'zgartirildi. Ibn Battuta o'zi bo'lgan bu shahar haqida xabar berar va manzarasini chizar ekan, shaharlik aholi turmush tarzini bayon yetadi. Ibn Battutaning bitmas-tugamas ma'lumot koni bo'lgan asarlarida haqiqiy manzara hamda davr ruhi xolisona va aniq berilgan. Ibn Battuta ma'lumotlari boshqa manbalarda uchramasligi bilan qimmatli. XIV asrning birinchi yarmida Termiz mustaqillik uchun kurash markaziga aylandi O'zbek davlatchiligining Amir Temur va temuriylar bilan bog'liq yangi bosqichi uchun shart-sharoit yaratilayotgan bu davrda Termiz sayyidlari bu jarayonga rahnamolik qilishdi.

Natijalar. Yevropaliklar Termiz to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan, aftidan, elchi Rui Gonsales de Klavixo “Kundaligi” orqali xabar topishgan. Bu asar dastavval 1582-yilda Sevilyada “Buyuk Temur tarixi” nomi bilan chop yetilgan[7;5]. Bu davr madaniy aloqalar pallasi yedi. Amir Temur g‘alabalari Yevropa davlatlarida qiziqish uyg‘otdi. Ular olis o‘lkalarga elchi yuborar ekanlar, u yerlardagi ishning holati, savdo-sotiqning, dehqonchilik va hunarmandchilikning ahvolini bilishni maqsad qilib qo‘yar, o‘z mamlakati uchun manfaat izlar yedi. Klavixo asari safar chog‘ida qo‘lga kiritgan ma‘lumotlarni xolis yoritishi, shaxsiy taassurotlarini batafsil bayon yetishi hamda bayonning jonli ekanligi bilan ajralib turadi. Avvalgi sahifalarimizda ta‘kidlaganimizdek, 1404-yil kuzida Klavixo Samarqandga borishda Termiz shahridan o‘tgan. Umi u katta va aholisi ko‘p shahar sifatida tasvirlagan. Mudofaa inshootlarining yo‘qligi Termizning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan. XV asr muarrixii Hofizi Abruning asarida ham Termiz haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Xulosa. Termizning XVI – XVIII asrlardagi tarixi ko‘plab asarlarda muayyan darajada yoritilgan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriyning “Sharafnomaiy Shohiy” (“Abdullanoma”), Mahmud ibn Valining “Bahrul asror fi manokib al-ixror”, Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqoning “Tarixi Muqimxoniy”, Mir Muhammad Amini Buxoriyning “Ubaydullanoma” asari va boshqa ko‘plab asarlardagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, davr manzarasini tiklash mumkin. Mahmud ibn Valining Termiz shahrining qadamjolar hamda ziyoratgohlar ko‘p qismi – Solihobod haqidagi ma‘lumotlari qiziqarli[8;3]. Buxoro xonligining XVIII asr birinchi yarmidagi tarixi Mir Muhammad Amini Buxoriyning “Ubaydullanoma”sida bayon yetilgan. Bu paytda iqtisodiy va siyosiy tanazzul, umumiy boshboshdoqlik O‘rta Osiyodagi boshqa shaharlar singari, Termiz ham bo‘shab, qarovsiz qoldi. Muhammad Vafo Karmanagiy “Tuxfat al-Xoniy” asarida Muhammad Rahimxon 1758-yilda Termizni tiklashga uringani haqida xabar bergan

Адабиётлар/Литература/References:

1. Tursunov S.N., Qobilov E.A. va boshq. Surxondaryo tarix ko‘zguisida. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 112.
2. Tursunov S.N., Qobilov E.A. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 145.
3. Tursunov S.N., Pardayev T.R. va boshq. O‘zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B. 192.
4. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. Toshkent, 2001. – 6-bet.
5. Safar o‘g‘li, R. M. (2023). The Study of The History of Termiz by Researchers. *Genius Repository*, 26, 24-27.
6. Safar o‘g‘li, R. M. (2023). TERMIZ OBIDALARINING RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 37-41.
7. Safar o‘g‘li, R. M. (2023). TERMIZNING CHIG‘ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA.
8. Safar o‘g‘li, R. M. (2023). TERMIZ TARIXINI ORGANISHDA YANGI DAVR.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

PROCESSES OF GEOGRAPHICAL LOCATION OF THE IRON AGE POPULATION OF UZBEKISTAN

Usmanova Inobat Ibragimovna

Teacher of the Department "National Idea and Philosophy" of the Urganch State Pedagogical Institute, Faculty of Philology and History,

Abstract. Enlightenment of archaeological expeditions and historical-geographical regions of Uzbekistan in the epoch of the 19th century, and archeological research of objects of cultural heritage, established populations and technologies of the past century, and the independent group of workers

Key words: Kobetdog, Darvarzin, Dagestan, basin Nijney Amudari, medium-sized Syrdari, basin Zerafshana, Surkhansky oasis, Tashkentskaya and Ferganskaya oblasti, historical period, first half of the V-VI century. n.e., istoricheskiy period, vtoraya polovina VI vv. n.e. - IX century.

PROCESSES OF GEOGRAPHICAL LOCATION OF THE IRON AGE POPULATION OF UZBEKISTAN

Usmanova Inobat Ibragimovna

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va Tarix fakul'teti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbekistonning temir davridagi tarixiy geografik hududlarida olib borilgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlar xodimlarining o'tgan asr mobaynida va mustaqillik yillarida aholi tomonidan qoldirilgan madaniy meros obyektlaridagi arxeologik izlanishlar yoritilgan

Kalit so'zlar: Kobetdog', Darvarzin, Dog'iston, Quyi Amudaryo havzasi, Sirdaryo o'rta qismi, Zarafshon havzasi, Surxon vohasi, Toshkent va Farg'ona hududlari, tarixiy davr milodiy V-VI asr birinchi yarmi, tarixiy davr milodiy VI asr ikkinchi yarmi - IX asrlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N16>

Kirish. O'zbekistonning tarixiy geografik hududlarida turli nomda arxeologik ekspeditsiya va guruhlar xodimlarining o'tgan asr mobaynida va mustaqillik yillarida aholi tomonidan qoldirilgan madaniy meros obyektlarida keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari mazkur bandni yoritishda nazariy ma'lumotlar sifatida xizmat qiladi. O'zbekistonning xo'jalik – madaniy viloyatlarida qadimgi va miloddan avvalgi IV — milodiy IV asrlar va ilk o'rta asrlari davrida aholi turar – joylari joylashish xususiyatlari, ularning kartografiyasi masalalariga oydinlik kiritish, ayniqsa paleogeografiyasini yoritishni taqozo etadi. O'zbekiston qadimgi dunyo tarixida kechgan jarayonlarni arxeologik izlanishlar natijasida olingan moddiy ashyolar ilmiy tahlilidan kelib chiqib, ikki tarixiy davrga ajratgan holda yoritib, umum xulosalarni qayd qilish mumkin. O'rta Osiyo yer yuzasi tuzilishi geografik

tasviri yer geologiyasini paleotektonik harakatlarining bir necha marotaba takrorlanishi munosabati bilan vujudga kelgan tog'li va tekislik izohlangan. O'zbekiston geografik joylashishi tekislik bo'lib, uning Toshkent, Farg'ona Zarafshon, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasi janubiy qismi va Xorazm vohasi tasvir qilgan. O'zbekistonning asosiy geografik o'rni Orol dengizi janubdan boshlanib tekislik hozirgi To'rtko'l hududidan boshlanib, Buxoro va Qizilqumdan iborat. Mazkur hududda eng qadimgi davrdan boshlab insoniyat o'rganib, mavjud bo'lgan tabiiy manbalardan foydalanib, kundalik yumushlarini belgilab olib, tarixiy davr, uning turli bosqichlarida xo'jalikning barcha sohalarining rivojlantirib yer yuzasi tuzilishiga o'zining ta'sirini o'tkazib kelgan. Birinchi davr miloddan avvalgi X-V asrlar, ikkinchi davr mil avv IV- milodiy IV asrlar. Ilk o'rta asrlarda aholi turar-joylarida yuz bergan geografik o'zgarishini ikki tarixiy davrga ajralgan holda o'rganish maqsadga muvofiq,

1-tarixiy davr milodiy V-VI asr birinchi yarmi,

2-tarixiy davr milodiy VI asr ikkinchi yarmi — IX asrlar.

XX asr adabiyotlar va XXI asr boshlarida nashrlarida O'zbekiston hududida o'troq va chorvador aholi tomonidan tayyorlangan mehnat qurollari va harbiy qurol — aslahalar temir ashyolar to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlar o'rin olgan. Milloddan avvalgi X-VIII asrlar O'rta Osiyo jamiyatida bronzada ilk temir davrgacha bo'lganligi, Kopetdog' tog' oldi etagida Anov, Farg'ona vodiysida Darvarzintepa va Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Jarqo'ton yodgorliklarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida temir ashyosidan ishlangan mehnat qurollarini asos qilib olgan.^[1] [1;Б.105.106.]. Lekin, O'zbekistonning boshqa hududidan aholi turar-joylaridan temir mehnat qurollari to'g'risida ma'lumotlar tadqiqotchilarning asarlarida kuzatilmaydi.^[2][2:Б.19.20].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi dunyo tarixiy voqealarga boy bo'lgan O'zbekiston hududi xo'jalik — madaniy viloyatlarda temir davri jamiyatida yuz bergan o'zgarishlar (aholi joylashishi, turar-joylar ko'rinishlari va mehnat qurollari, jamiyat rivojlanishiga imkon bergan iqtisodiy-texnologik o'zgarishlar, sun'iy sug'orish inshootlari) mazmunidan kelib chiqib, quyidagi tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin,

1- bosqich X-VIII asr va ikkinchi bosqich milloddan avvalgi VII-VI asri ikkinchi yarmi birinchi choragi. Uchinchi bosqich mil avv VI asr ikkinchi yarmi oxiri — V asr. Mazkur tarixiy bosqichlarida jamiyatda kechgan jarayonlarni arxeologik tadqiqotlar natijalarini asos qilib olgan nashrlar mazmunini namoyon qilgan tarixiy ma'lumotlar asosida yoritish quyidagicha tarzda olib borildi. Birinchi bosqichda O'rta Osiyo janubida Kobetdog' oldi etagida o'troq hayot, sug'orma dehqonchilik va shaharsozlik madaniyatini faol rivojlantirgan Anov manzilgohi aholisi tomonidan temir qurollarini xo'jalikka olib kirganligi Farg'ona vodiysi Dalvarzin va Surxondaryoda Jarqo'ton aholisi tomonidan olib borilganligi to'g'risida ma'lumot qayd qilingan edi. Arxeologik adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili qilinishi natijasida hosil bo'lgan fikr – mulohazalar asosida mil. avv V-VIII asrlarida O'rta Osiyo mintaqasi xo'jalik — madaniy viloyatlar o'ziga xos iqtisodiy –madaniy belgilarga ega bo'lgan. Dog'iston (Atrek daryosi havzasi, Shimoliy Parfiya Kopetdog' oldi atroflari, Marg'iyona Marv vohasi, Baqtriya (Janubiy va Shimoliy hududlar, Sug'd (Qashqadaryo va O'rta Zarafshon hududlar) hamda Xorazm vohasi, Ustyurt, Quyi Zarafshon (Zarafshon daryosi quyi havzasi) Toshkent va Farg'ona hududlar bir-biridan geografik va ekologik jihatidan ajralib turganligi nashrlarda o'z ma'nosini topgan. Miloddan avvalgi X-VIII asrlar O'zbekiston jamiyatini geografik xususiyatning tasviri "Avesto"

kitobidan qayd qilingan “Yasht” kitobida Baxdi^[3], Gava Sug’di (Sug’d), Xvarizam (Xorazm tilga olingan bilan birga nafaqat geografik — tarixiy atamalar balki keng yaylovlar suvga serob tog’lar, sersuv chuqur qishloqlar suv havzalari to’lqinlanib turadi degan ma’lumotlar o’rin olgan.^[4][4;B.49.50.].Tadqiqotchilar fikricha, Miloddan avvalgi X-VIII asrlarda Avestoning Mixr-Yashtda Arenam Vaycha, Areshayena atamalar asosida etnik birlashmalar faoliyat olib borgan.^[5][5;B.122.124.]. Miloddan avvalgi X-VIII asrlarida O’zbekiston hududida o’troq aholi va chorvador qabilalari bilan quyidagi viloyatlar tarixiy-geografik va etnotoponomika sifatida geografik xususiyatlari, xo’jalik — madaniy yutuqlari bilan xususiyatlarini namoyon qilgan.

1. Quyi Amudaryo havzasi
2. Sirdaryo o’rta qismi
3. Zarafshon havzasi
4. Surxon vohasi
5. Toshkent va Farg’ona hududlari

Turkmaniston Kopettog oldi etaklari, Tajan, Murg’ob. Atrek va Sumbir daryolari havzalari, O’zbekistonning shimoliy-g’arbiy hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlar kechgan. O’Abdullaev monografiyasida O’rta Osiyo miloddan avvalgi X-VIII asrlarda olib borgan Xo’jalik madaniy viloyatlar to’g’risida fikr-mulohazalar ilgari surilganligini qayd qilib, ularni geografik xususiyati va etnik jarayonlar masalalari ilgari surgan g’oyalarni kuzatish mumkin.^[6] [6.B.126.].O’zbekistonning miloddan avvalgi X-VIII asrlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishida issiq hududlardan tashqari hududlarda istiqomat qilgan o’troq chorvador aholining jamiyatini qanday mehnat qurollari asosida rivojlanishidagi kundalik faoliyatlariga e’tiqodini qaratmaydilar. Masalan, Quyi Amudaryo havzasida Miloddan avvalgi X-VIII asrlarga oid Yonbosh-7 va Yakkaparsan-2 manzilgohlari aholi manfaatlariga xizmat qilgan. Mazkur tarixiy davr Oqchadaryo havzasi janubiy geografik holatini va etnik munosabatlarini olib borgan Yakkaparsanliklar bronza davri xo’jalik an’analari, turar-joylar qurilish uslublari davom etgan.

Aholi mehnat qurollari bronza ashyosidan tayyorlangan, ularni tayyorlashga mo’ljallangan sohillar mavjud bo’lgan.^[7][7.B.135.]. Quyi Amudaryo havzasi o’ng sohil janubiy hududida istiqomat qilgan ajdodlarimiz temir ashyosini eritib uni suyultirishi natijasida hosil bo’lgan ashyodan temir qurollarini ishlab chiqarishga ma’naviy jihatidan tayyor emas degan xulosaga kelishi imkoni bor.

Toshkent vodiysida Tuyabo’g’iz suv ombori atroflarida yarim yerto’lada istiqomat qilgan aholi xo’jaligi Burgulyuk madaniyati nomi bilan ma’lum. Burganlik yoki Burgulyulik xo’jaligini olib borgan aholi jamiyatini rivojlantirishda temirdan qilingan mehnat qurollarini ishlatganligini ma’lumotlar nashrlarda kuzatilmaydi.^[8] [8.B.94.95] .

Natijalar. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra , Miloddan avvalgi IX asrning ikkinchi yarmi so’nggi choragidan boshlab, shimoliy Baqtriya aholisining bir guruh aholi o’z binokorlik bilimini yanada rivojlantirish maqsadida oziq-ovqat muammosini nazarga olib, Xorazm vohasi janubiy chegarasiga Amudaryo o’rta oqimi so’l hududi (Sariqamishbo’yi havzasi shimoliy-sharqiy hududi) balandlikda turar-joylarni bunyod qilib, geografik holatini o’zgartirib, tevarak-atrofini o’zlashtirish imkoniyatidan foydalangan holda etnik munosabatlarni notanish geografik sharoitda olib borganlar. Mazkur aholi tomonidan bino qilingan turar joy arxeologik adabiyotlarda Odaytepa etnotoponimasi qayd qilingan^[9]. [9;B.527.528.]. Arxeologik nashrlardan ma’lumki, IX-VIII yoki VII asrlarda Odaytepalik chorvador axolisi vakillari Sirdaryo

Inkardaryo irmog'i suv ta'minoti yuqori bo'lganligi bois, uning sohili etagiga ulangan hududlari atroflari chorvaga serob bo'lgan. Ozuqalar serob bo'lganligi munosabati bilan chorvadorlar sardori me'moriy bilimini puxta egallagan hunarmandlarni olib kelgan, o'ziga mo'ljallab gumbazli maqbaralarini qurdirgan. Bu maqbaralar majmuasi "Takisken" nomi bilan mashhur yodgorlik^[10]. [10.B;175.]. Mazkur yodgorlik shimoliy va janubiy qismlarga bo'lingan, Inkardaryo havzasi atroflarini geografik manzarasini ilk temir davrida namoyon qilgan. Shimoliy va janubiy Tabiseya gumbazsimon, tarxi aylana me'moriy uslub amaliy bilim, tajriba, binokorlikda arifmetik va geometrik bilimlarni ma'naviy dunyosiga puxta singdirgan Baqtriya o'troq aholi tarkibida ajralib chiqqan muhandis me'morlar faoliyatlari natijasidir degan xulosani qayd qilingan.^[11][11;B.59.64.]. Tadqiqotchining Baqtriya hunarmandlarining Tabisken maqbarasini bunyod qilishda faoliyati masalasidagi fikriga qo'shilish mumkin, lekin Baqtriya geografik kenglikda joylashganligi bois, qaysi hudud aholi markazi aholini vakillari o'z amaliy bilimlarini Tabisken qurilishida aks etganliklari muammo sifatida qolgan. Tadqiqotchilar qayd qilinishicha, Odaytepaning Baqtriya aholisi (X-VIII asrlarda) Qashqadaryo vohasida o'zlashtirilmagan hududlarga kelib, Yerqurg'on, Uzingir, Sangirtepa, va O'rta Zarafshonda Afrosiyob (Smarakanda, Marokanda) va Ko'ktepa yodgorliklari bunyod qilinganligi qayd qilingan.^[12][12;B.12.]. Darhaqiqat, Surxondaryo viloyatida o'troq aholi hunarmandlari tomonidan bunyod qilingan Qiziltepa, Talashkan, Kuchuktepa, Bandixon yodgorliklari tadqiqotchilar e'tiboridan chekkada qolgan. Mazkur aholi markazlari joylashgan hudud tevarak-atroflari geografik holatini va etnik munosabatlarini tasvir qilgan. Temir davriga oid arxeologik yodgorliklar Shimoliy Baqtriya hududida o'troq aholi yodgorliklari arxeologik izlanishlar o'rganilgan.

Tadqiqotchilar qayd qilinishicha Surxondaryo hududida Kuchuktepa, Talashtepa-1, Qiziltepa, Bandixon-2 yodgorliklari mikrovoahalar markazi bo'lib, geografik holatini tasvir qilib, joylashgan balandlik va tekislik hududlari joylashgan A.S Sadullayev qayd qilinishicha, Surxondaryo viloyatida Kuchuktepa bilan bir tarixiy davri Qizilcha 1, 6 manzilgohlari paxsa va xom g'ishtdan qurilib, aylana shaklda emas, balki kvadrat tipda bo'lgan.(30x30).^[13][13.B.154.161.]. Miloddan avvalgi X-VIII asrlarda kichik hajmli uy qo'rg'onlar janubiy sug'd hududida Tanxosdaryo va Sho'robsoy hududlarida Saroy 1, 2, Sho'rab,^[14][14;B.56.58.]. O'rta Zarafshon qo'rg'oncha va Lolazor,^[15] [15;B.7.22.].Buxora vohasida Chordud, Qumrat manzilgohlari aholi markazlari bo'lib, geografik xususiyatlarini namoyon qilganlar.^[16][16.B.531.532.]. So'nggi temir davrigacha Xorazmda aholi tomonidan Ding'ilja, Hazorasp va Ichanqa'la bunyod qilinib, tevarak-atrofi geografik holatini va etnik munosabatlarini namoyon qilganlar.^[17] [17;B.] Mazkur tarixiy davrda Xeynajin va Kaltaminor sug'orish inshootlari faoliyat olib borib, yuqoridagi aholi mikrovoahalari markazlarining aylanishiga xizmat qilgan. Xorazmda esa, Amudaryo o'ng sohilida miloddan avvalgi V-asr boshi Ding'ilja 3, so'l sohil hududida Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoliy-sharqiy hududi geografik holatini tasvir etgan Ko'zaliqir va Kaltaminar yodgorliklari miloddan avvalgi VI asr birinchi choragida V asrda aholi tomonidan bunyod qilingan.^[18][18;B.165.167.]. Tadqiqotchi A.Asqarov xulosasiga ko'ra, Sopolli madaniyatini olib borgan o'troq aholi vakillari bir guruhi Buxoro vohasiga kirib kelib, uning iqtisodiy va madaniy ta'siri Zamonbobo xo'jaligida o'z aksini topgan.^[19] [19;B.114.115.]. Tadqiqotchining sopolliklar bir guruhi Buxoro vohasigacha kirib kelishi to'g'risidagi xulosasi arxeologik ashyolarda aks etmaydi. Buxoro vohasi janubiy-sharqiy hududi, ya'ni Zarafshon daryosi quyi havzasida geografik holatini namoyon qilgan. Zamonbobo

quyi daryosi, uning sohili adog'iga ulangan hududda o'simlik va hayvonot olamidan o'z manfaatlariga xizmat qildirgan. Chorvadorlar istiqomat qilishgan bo'lib, ularning turar — joylari qurilishida loy binokorlik bilimi ishlatilgan. Shundan kelib chiqib, bronza davri so'nggi bosqichlarida, shu jumladan miloddan avvalgi VI asr oxirigacha Buxoro vohasi aholisi ma'naviyatida paxsa va xom g'isht bilimi shakllanmagan degan xulosaga kelishi mumkin. Qadimgi davrlar (mil avv IV –IV asrlar) jamiyatida tub o'zgarishlar bilan O'zbekiston tarixida alohida o'ringa ega. Mil avv IV–milodiy IV asrlar O'zbekiston hududida turli nomda siyosiy birlashmalar namoyon qilgan. (Xorazm davlati, Dovon, Qang' Yunon- Baqtriya, Kushan, Afrig'iylar) Miloddan avvalgi IV — milodiy IV asrda O'rta Zarafshon hududida (Marokanda), Janubiy Sug'dda (Qashqadaryo vohasida Yerqurg'on, Kesh-Shahrisabz, Toshkent vodiysida Bityan, Qovunchi, Choshtepa, Mingo'rik, Farg'ona vodiysida Axsikent, Eski Termiz shaharlari geografik xususiyatni hosil qilgan.^[20] [20;B.132.].Xorazm hududi o'ng sohil hududlar geografiyasini hosil qilgan aholi yodgorliklari qadimgi davr xaritasida joylashtirilgan.^[21][21;B.26.27.]. Tadqiqotchilar tomonidan chop qilingan monografiyada Xorazm vohasi hududlari temir va antik davr aholi turar-joylari geografik o'rni rejalashtirish rang — barang kartografiyasi ishlab chiqilgan.

Xulosa. O'zbekiston hududi xo'jalik-madaniy dehqonchilik vohalarida temir davri aholisining turar-joylari qurilishi bo'lishi asosida qurilish an'analari davom etgan. Temir davri so'ngi bosqichlarida qurilgan aholi markazlarining geografik manzarasini tasvir qilgan bo'lsa. (Xiva, Xazorasp, Katta Guldurun, Kat,(o'ng va so'l) Voyangan, Zarafshon vodiysida Axsikent, Marg'ilon), Surxon vohasida Zartepa, Eski Termiz, Toshkent viloyatlari Shohrixuya, Shoshtepa, Mingo'rik va hakoza. Ammo, milodiy V-IX asrlarda O'zbekiston tarixiy va madaniy viloyatlarda ayrim turar-joylari geografik holati madaniy meros sifatida saqlanib qolganligi arxeologik natijalari ma'lum (Xorazm vohasi Burli Ayozaqala-1,3, Farg'ona vodiysi Darvarzintepa Eylagan, Shurabashat, Samarqand viloyatida Tali Barzu, Ko'ktepa Toshkent va Sirdaryo va Jizzax hududlarida ijtimoiy — ijtimoiy va etnomadaniy munosabatlar kechgan. Ilk o'rta asr jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar Toshkent Jizzax,Sirdaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiylari antik davrda aholi tomonidan bunyod qilingan turar-joylar ilk o'rta asrlarda madaniy xo'jalik hayot davom etgan. Ilk o'rta asrlar davri Amudaryo va Sirdaryo oralig'i mazkur hudud tarkibiga kirmagan Toshkent, Farg'ona hududlarida aholining antik davrda faoliyat olib borgan turar-joylarda etnik munosabatlar. Entik jarayonlar geografik manzarani namoyon qilgan. Jamiyat bag'rida kechgan jarayonlar murakkab, siyosiy jihatidan mahalliy hokimlar boshqarish tizimi vujudga kelganligi ma'lum. Ilk o'rta asrlar O'zbekiston hududida bir-biriga dushman 15 ta mustaqil hokimliklar faoliyat olib borganlar. Mazkur tarixiy davr siyosiy mazmuni Xorazm afrig'iylar, Samarqand va Qashqadaryoda Ixshidlar. Buxoroda xudotlar va hakoza.

G'arbiy sug'dda Buxoro hududlarida tashqari Varranhudod, Varaxshaxudot, bunday atamalarni markaziy va g'arbiy Sug'dda kuzatish mumkin. Masalan G'arbiy sug'dda 22 ta turar-joylar bo'lgan, ulardan 15 ta Buxoro vohasi devori ichki qismida, 7 tasi esa voha mudofaa devori tashqarida bo'lgan, ya'ni Tavovis, Xarkana, Xitdor, yuqori Samjon, quyi Samjon, yuqori Faravuz, Quyi Faravuz. Zar, Poshkent, Farob, Xorazm hududida: o'ng sohilda Norinjon, Kat,so'l sohil hududida Darg'on, Xazorasp, Xiva, Sadvar, Qalajik. Zamaxshar, Shaxsikent Vayxon,Turroqqa'la, Vazir, Toshkent vodiysi ilk o'rta asr yodgorliklari.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Сагдуллаев А.С. Заметки о раннежелезном веке Средней Азии // -М.: Наука, 1992.СА-№2.-С.229-234. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы//МИА,-М-Л,: 1959. -№73.-С.105-106.
2. Заднепровский Ю.А.Чустская культура в Ферганской долине// Средняя Азия в эпоху камня и бронзы –М-Л, Наука. 1966-С.199-200. Хуфф,Д, Шайдуллаев Ш.Б.Некоторые результаты работ узбекско- германской экспедиции на городине Джаркутан//Самарканд,:-ИМКУ,1999- Вып 30-С.19-20.
3. Авесто Яшт китоби. М.Исҳақов таржимаси - Тошкент,: Шарқ,2001-Б.49-50.
4. Дьяканов И.М. Восточный Иран до Кира // К возможной новой постановке вопроса\История иранского государства и культуры –М.: Наука,: 1971-С. 122-124.
5. Абдуллаев .Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи-Тошкент,: 2019.Б-226.
6. Итина М.А. История степных племен южного Приаралья // ТР ХАЭЭ- М,: Наука, 1977.Т.Х.-С 135-140.
7. Дуке Х Туябугузские поселение Бургулюкской культуры-Ташкент,: Фан, 1982 -С. 94-95.
8. Пилипко В.Н. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области//АО,1974 -М,: Наука,1975-С.527-528.
9. Толстов С.П., Итина М.А.Саки низовьи//по материалам Тагискена//,-М,:Наука. 1966.СА-№2-С.151-175.
10. Сагдуллаев А.С, Матякубов.Х. К проблеме происхождения глинобитно- сырцовоой архитектуры в Хорезме//Вестник Национального университета Узбекистана. Специальный Выпуск-Ташкент,«Университет»- 2013.С.59-64.
11. Сагдуллаев А.С Маргиана и Бактрия. Исторические традиции и культурные связи в доантичную эпоху//Древний Мерв Тр ЮТАКЭ, - Ашхабад,: Т XVIII 1989-С.16
12. Сагдуллаев А.С Поселения раннежелезного века в бассейне Кашкадарье/-М,: Наука, 1984-№3-С.154-161.
13. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии-Ташкент,: Фан,:1987-С.56-58.
14. Буряков Э.Ю. Поселение Лолозар-предшественник города на Афрасиеб//К исторический топографии древнего и средневекового Самарканда –Ташкент,: Фан, 1981- С.7-22.
15. Мухаммаджанов А.Р, Валиев П.С Работы Бухарского отряда –АО.1977-М,: Наука.1978-С.531-532
16. Асқаров А. Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари//Инсониятнинг илмий маданий мероси- учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган Халқаро симпозиум тезислари-Тошкент,: 1997-Б.165-167.
17. Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана – Тошкент,: Фан 1977-С.114-115
18. Эшов.Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи-Тошкент,: 1-жилд, 2014-Б.132-151.
19. Марказий Осиёда тарихий- маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муоммалари –Тошкент, Университет, 2020-Б 26.27.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SOME COMMENTS ABOUT THE ANCIENT SETTLEMENTS OF THE MIDDLE G'OVASOY REGION

Bekmirzayev Islomjon Ibrohim ugli
National Archeological Center PhD Student
bekruchka@gmail.com

Abstract. In this article, opinions are given about the life and settlements of the inhabitants of the archaeological monument of Bibiona, located in the middle Gavasay oasis. Also, some results of archaeological research conducted in this monument and conducted in the following years were mentioned. This monument consists in the study of the material culture of the Gavasay oasis and ancient Ferghana, as well as the analysis of ancient anthropogenic signs, settlement and construction remains based on archaeological sources.

Key words: Gavasay, settlement, Chust culture, material culture.

O'RTA G'OVASOY HUDUDI QADIMGI DAVR AHOLI TURAR-JOYLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Bekmirzayev Islomjon Ibrohim o'g'li
Milliy arxeologiya markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta G'ovasoy vohasida joylashgan Bibiona arxeologik yodgorligi axolisi xo'jaligi hayoti va turar-joylari xususida fikrlar berilgan. Shuningdek bu yodgorlikda olib borilgan va keyingi yillarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning bazi natijalari aytib o'tigan. Bu yodgorlik G'ovasoy vohasi va qadimgi Farg'ona moddiy madaniyatini o'rganishda, shuningdek qadimgi antropogen belgilari, turar-joy va qurilish qoldiqlarini arxeologik manbalar asosida taxlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: G'ovasoy, turar-joy, Chust madaniyati, moddiy madaniyat.


DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N17>

Kirish. Uzoq yillar davomida Farg'ona vodiysining qadimgi davr xo'jalik hayotini o'rganishda Chust, Dalvarzin va O'sh (Qirg'iziston) kabi yodgorliklar muhim arxeologik yodgorlik sifatida o'rganib kelinmoqda. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar asosida Chust madaniyatining dehqon jamoalari turar joylari xususida ham ko'plab xulosalar olingan va Farg'ona vodiysi qadimgi davr xo'jaligi hayotini tiklashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan Bibiona (Chust) yodgorligi o'rta G'ovasoy vohasi Chust soy bo'yida joylashgan yodgorlik bo'lib, voha geografik jihatdan adirliklar va adir orti past tekisliklardan iborat. Bu adirliklarni bugungi kunda ham uchratish mumkin va G'ovasoy daryosi shu adirliklarni yorib o'tib Sirdaryo tomon keng vodiy hosil qilgan. Bu adirlikning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 858 m ni hosil qiladi. Ushbu adirliklar neogen davrida shakllangan tabiiy lyuss tepaliklardir. Shuningdek, G'ovasoyning o'ng sohili keng tekisliklardan tashkil topgan bo'lib, bu yerda kichik buloq daryo suvlari mikro vohani tashkil etadi. Ushbu hududda

dastlabki sug'orma dehqonchilik manzilgohlari shakllangan edi. Bu tadqiqot maqsadi bu yodgorlik asosida vohaning qadimgi antropogen belgilari, turar-joy va qurilish qoldiqlarini arxeologik manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Yodgorlik bugungi kunda Namangan viloyatining Chust shahri shimolida joylashgan. Bu yodgorlik bugungi kunda 2.5 ga yaqin maydon saqlanib qolgan. Bu arxeologik tepalik dastlab 1950-yilda M.E.Vorones tomonidan topib tekshirilgan. [4] Keyingi yillarda yodgorlikda uzoq yillik qazishmalar boshlandi. Xususan V.I. Sprishevskiy, [9] 1953-1961 yillarda, Yu.A.Zadneprovskiy 1974 yildan va 1982 yilda B.X. Matbaboevlar tomonidan qazishmalar olib borilgan. [5] Hozirda 2021-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazining Chust arxeologik guruhi A.A. Anarboyev va S.R. Baratov boshchiligida yodgorlikda statsionar arxeologik tadqiqotlar olib bormoqda. [1][2]Keyingi yillarda olib borilgan bu tadqiqotlar Farg'ona vodiysining moddiy madaniyatini, shaharlashuvi va qadimda yuz bergan tabiiy ofatlarni[1] o'rganishda muhim tadqiqot deb hisoblash mumkin. Bibiona yodgorlik turi va tuzilishi jihatidan shaharmonand manzilgoh hisoblanib, Farg'onaning Chust madaniyati yodgorliklari sirasiga kiradi. Bu madaniyatga bugunga qadar 80 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan. Shu madaniyatga tegishli ko'plab yodgorliklar Farg'ona vodiysining shimoliy va sharqiy qismlarida keng tarqalgan va faqat 10 tasida qurilish va turar joy qoldiqlari aniqlangan.[6] Lekin faqat uchta yodgorlikda Chust, Dalvarzin va O'sh manzilgohlarida turar-joy va moddiy madaniyat yaxshi o'rganilgan. Bu maqola asosan Bibiona yodgorligida turar-joylar joylashish va xom ashyo materiallari to'xtalib o'tilgan. Xususan Chust madaniyatga tegishli turar joy qoldiqlarini tadqiqotchilar 3 ta qurilish bosqichiga bo'lishgan. 1. Sinchli uylar. 2. Paxsa va g'ishtdan. 3. Yerto'la shakldagi turar-joylar belgilangan. [7]

Lekin turar-joy va mudofaa inshooting aynan bir turdagi xom ashyo yoki bir xom ashyo faqat bir davrga tegishli deb xulosa qilmaslik kerak. Sababi madaniyat egalari shu hududning tabiiy sharoitidan foydalangan holda qurilish xom ashyolaridan foydalangan. Bibiona yodgorligida ham uchala qurilish bosqichi va xom ashyolari aniqlangan.



1-rasm Bibiona yodgorligida 2021-2022-yillarda olib borilgan qazilma rejasi. Rejasi S.R.Baratov albomidan olindi.

Shu qurilish rejasiga ko'ra Bibiona yodgorligi ikki qismga bo'linadi. 1. Shimoliy-g'arbiy, 2. Sharqiy. Qurilish rejasiga ko'ra shimoliy-g'arbiy qism himoyalangan qism bo'lib mudofaa devori bilan o'ralgan. Devor yoysimon ko'rinishda bo'lib, yodgorlikning faqat 1.5 gektar maydonni o'rab olgan. Shuningdek, mudofaa devori yodgorlikning dastlabki qurilish bosqichida emas keyingi davrda qurilgan. Misol uchun mudofaa devor tagidan madaniy qatlamlar aniqlangan. Shuningdek mudofaa devoriga ishlatilgan g'isht o'lchamlari keyingi turar-joy qurilishidagi g'ishtlar bilan o'xshash o'lchamda. (54-55X32, 54X32X8)

Sharqiy qism yodgorlikning asosiy yashash qismi hisoblanadi va qurilishning barcha bosqichi shu qismdan aniqlangan. Avvalgi tadqiqotlarda yodgorlikdan jami 11 ta turar joy qoldiqlari aniqlangan. Shu turdagi yodgorliklar bilan solishtirganda, Dalvarzin yodgorligi 25 ta, O'sh yodgorligida 15 ta turar joy qoldig'i o'rganilgan. [7] Ayniqsa bu madaniyatga tegishli Dalvarzin yodgorligi maydoni 25 gektarni tashkil etadi va uchta tarkibiy qismga ajratiladi.

So'ngi yillardagi Bibiona yodgorligidagi turar-joy qismlari qayta o'rganilib, Sprinshevskiy qazishmasining sharqiy qismida davom ettirilmoqda. Bu qazishma hozirda yodgorlikning oxirgi davrini o'rganib, qazish ishlari 22,5x9,5 m maydonda tashkil etildi. [3] Qazishma davomida aylana shakldagi 9 metr atrofida turar-joy pol qismi ochib o'rganildi. Tadqiqotchilar bu yashash joyini chashka shakliga qiyoslashadi. [1] Turar-joy pol qismi uzoq vaqt foydalanilgan va qayta-qayta suvab chiqilgan. Ularning sathining sirtlari sariq va oq rangli yumshoq organik qatlamlar bilan qoplangan. Aftidan bu turar joy poli uzoq vaqt foydalanilgan. Turar joyning markazida diametri 240 sm bo'lgan dumaloq chuqur mavjud. Chuqur qattiq zichlab shakl berilgan. Bu kabi turar joylar avval ham aniqlangan va ularning markazida bir nechta chuqurlar tozalangan. Bu chuqurlarni ayrimlari o'choq bo'lib xizmat qilgan. [11] Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ham turar joyning markaziy chuquridan 20 sm sharqda, o'lchamlari 100x100 sm, balandligi 20 sm bo'lgan to'rtburchaklar shaklidagi pol qoldiqlari va kul tozalangan. Uning o'rtasida katta qozonning yuqori yarmidan yasalgan o'choq va uning sharqiy qismiga yaqin joyda sufa sathida joylashgan katta xumcha qozon qazilgan. [3] Shu qazishma yon qismlaridan devor qoldiqlari ham aniqlandi. (1-rasm) Bu devorlar xonadon devori sifatida qurilganligi ma'lum bo'ldi. Bu devor oxirgi davrda qurilgan bo'lib, qalin madaniy qatlam ustiga qurilgan. Shuningdek turar-joyning shimoliy qismida yerto'la aniqlandi. Shu madaniyatga tegishli so'ngi bronza davrining yerto'lalarini bajargan vazifasiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1. Yashashga mo'ljallangan yerto'lalar. 2. Ishlab chiqarish uchun qurilgan xo'jalik yerto'lalari. Qazishmadan topilgan yer to'la shakliy jihatdan xo'jalik yer to'lasiga mos keladi. Shuningdek yodgorlikda yashashga mo'ljallangan yerto'lalar ham aniqlangan. Bu yerto'lalar "piyolasimon" ko'rinishga ega, rejasi ovalsimon, shimoli-garbdan janubi-sharqqa karab cho'zilgan. O'lchamlari yuqori qismida 9,5x8,5, asosida 7,2x7,2 m, maydoni 80 m² gacha yetadi. Devorlari bir oz qiyaroq va ustun o'rinlari topilmagan. Stratigrafik jihatdan yerto'la quyi qurilish davriga to'g'ri keladi. Polda rejasi to'rtburchak ko'rinishli o'choq atrofida ko'plab idish siniqlari qayd qilingan. Uning yaqinida sopoldan to'rt oyoqli qalin "dasturxon"ning ("stolcha") bo'laklari topilgan. Bularning barchasi ushbu yerto'la uy-joy sifatida foydalanilganini tasdiq etuvchi ashyoviy dalillardir. [5] Yodgorlikda dastlabki qazish davrida aylana, tuxumsimon shakldagi chuqurliklar tozalangan. Kamdan kam holatda chuqurliklar shakli to'rtburchak shaklda bo'lgan. Tadqiqotchi shu chuqurliklarning 163 tasi ochiq qadimgi chust madaniyati aholisining turar-joylari va xo'jalik hayotiga aniqlik kirituvchi xulosalar beradi.[11] Chuqurlikning diametri 0,5 dan 2,3 m gacha, chuqurligi 0,2 dan 1,6 m

gacha. Yaqin vaqtgacha chuqurlarning maqsadi va ularning davr bo'yicha taqsimlanishi masalasi juda kam o'rganilgan. Chuqurlarning aksariyati maishiy ehtiyojlar uchun va birinchi navbatda don va boshqa mahsulotlarni saqlash uchun ishlatilgan. Bunday chuqurlarning yasalishi va shakli har xil bo'lib, ular maxsus loy aralashmasidan yasalgan va ularning qalinligi ham mahsulot shakliga bog'liq bo'lgan.

Bu yodgorlikda turar-joyning rejasi to'rtburchak shaklga ega bo'lgan arxitektura qoldiqlari ham uchraydi. Turar-joy devorlari 5-10 sm balandlikda saqlanib, kengligi 35-40 smli madaniy qatlam ustiga qurilgan. Inshootning kirish eshigining kengligi 2 m bo'lib, polda kuygan to'sinlar qoldiqlari topilgan.[10] Bunday yog'och to'sin izlari boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham aniqlangan va bu madaniyatning boshqa yodgorligi Dalvarzin yodgorligi to'liqroq o'rganilgan. [8] Bibiona yodgorligi ham turar-joy qurilishi, xom ashyosi va hunarmandchilik buyumlarini yasalishi jihatidan boshqa shu kabi yodgorliklardan farq qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Bibiona yodgorligi Chust madaniyatining muhim yodgorligi bo'lib, Bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi, Ayniqsa keyingi yillarda qayta boshlangan arxeologik tadqiqotlar Farg'onaning eng qadimgi jamoalar hayot tarzi va xom ashyo manbalari o'rganishga yordam bermoqda. Shuningdek, ulardan topilayotgan turar-joy qoldiqlari, ularning shakllari va foydalangan arxitektura xom ashyo materiallari bilan qadimgi insonlarni qay darajada antropogen muhit bilan tanish bo'lganliklarini aniqlash muhim masala bo'lmoqda. Bu esa Farg'ona vodiysining qadimgi davr so'ngi bronza va ilk temir davrini o'rganishda vodiyning shimoliy qismida joylashgan G'ovasoy vohasi arxeologik yodgorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Анарбаев А.А., Баратов С.Р. Новые археологические работы на поселении Чуст – Бибиона. // ИМКУ 42. Самарканд. 2022. С. 204 – 226.
2. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Нажмиддинов А., Бекмирзаев И., Пардаев М. // Археологические работы на поселении Чуст-Бибиона в 2023 году. Самарканд. 2024.
3. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Нажмиддинов А., Бекмирзаев И. //Археологические работы на поселении Чуст-Бибиона в 2022 году. Самарканд. 2023. С. 19.
4. Воронец М.Э Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории АН УзССР на территории Ферганы в 1950 – 1951 гг. // В кн.: Труды Музея истории УзССР. Вып. II. Ташкент, 1954. С. 53 – 57).
5. Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Основные итоги изучения Чустского поселения в Фергане (1950 – 1982). // ИМКУ. Вып 19. Ташкент, 1984. С. 46 – 71.
6. Заднепровский Ю.А., Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореф. дисс. на соиск. уч. степени доктора исторических наук. М. 1978. С.17.
7. Матбабаев Б.Х. Исследование жилищ в памятниках Чустской культуры Ферганы // ИМКУ. Вып. 33. – Ташкент: Фан, 2002. – С. 46-60.
8. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М., Юлдашев Б. Исследование памятников Ферганы эпохи поздней бронзы (городища Дальверзин, Ашкалтепа) // Археологические исследования в Узбекистане – 2004–2005 годы. – Ташкент: 2006. – Вып. 5. – С. 143–152.

9. Спришевский В.И Чустское поселение (К истории материальной Ферганы в эпоху бронзы). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1963. 17 с.
10. Спришевский В.И., 1960. Раскопки Чустского поселения в 1960 г. Архив музея истории народов Узбекистана // Шифр хранения 4/12-13.
11. Спришевский В.И., 1963А. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Текст дисс. на соиск. уч. степени канд. ист. наук. Ташкент.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

CONSTRUCTION AND HISTORY OF MASJIDI BALAND MOSQUE IN BUKHARA

Gadoev Dadakhon Khairulloevich

Research fellow of Bukhara State University

Abstract. This article tells about the Masjidi Baland mosque, the history of which goes back five centuries. Information is given about who and when built the mosque. In addition, the attitude to the mosque during the years of Soviet power is covered in detail.

Key words: Kulbobo Kokaldosh, Abdullah Khan ibn Iskandar Khan, Abdullanoma, Balkh, Mirdustum, Dost Chukhra, Khizr, Kaaba

BUXORDAGI “MASJIDI BALAND” MASJIDI QURILISHI VA TARIXI

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada besh asrlik tarixga ega Masjidi Baland masjidi haqida soʻz yuritiladi. Masjid kim tomonidan qachon qurilgani haqida maʼlumot berilgan. Bundan tashqari sovet hukumati yillarida masjidga boʻlgan munosabat atroflicha yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Qulbobo Koʻkaldosh, Abdullaxon ibn Iskandarxon, Abdullanoma, Balx, Mirdoʻstum, Doʻst chuhra, Xizr, Kaʼba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N18>

Masjidi Baland Buxoro shahrining janubiy qismida mahalla markazida joylashgan. Masjid binosi bir metrli ohaktosh boʻlaklari ustida qad roslagan. Masjidning bunday nomlanishiga – masjid yer sathidan ancha balandlikda joylashgani uchun shunday nomlangan. Keyinchalik, masjid qurilgandan soʻng masjid joylashgan hudud shu masjid nomi bilan Masjidi Baland guzari deb nomlangan. Masjidning qurilish texnikasi va tuzilishi jihatdan guzar masjidlariga monand qilib qurilgan. Masjid qachon va kim tomonidan nima maqsadda qurilgan degan savolga atroflicha toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz. Bugungi mavjud adabiyotlarda Masjidi Baland Qulbobo Koʻkaldosh homiyligida, Mirdoʻstim degan usta tomonidan qurilgan degan maʼlumotlar uchraydi. Bu maʼlumotlar haqiqatga qanchalik yaqin. Aslida Qulbobo Koʻkaldosh kim.



Masjidi Balandning 2020 yilgi holati

Qulbobo Ko'kaldosh 1534-1598 yillarda yashagan. U Abdullaxon ibn Iskandarxon (1557-1598) davrida Ko'kaldosh lavozimida tayinlangan. Ko'kaldosh so'ziga tarixchi A.Zamonov quyidagicha tarifni keltiradi: Ko'kaldosh – emikdosh birodarlar, ya'ni biror doya (enaga)ni uning o'g'li bilan birgalikda emgan begona bola. Shunga ko'ra, podshohning emikdosh birodariga “Ko'kaldoshxon” degan laqab berilgan. Ko'kaldosh istilohi, “G'iyos ul-lug'at” (“Lug'atlar madadkori”)da yozilishicha, turkiy “ko'ka” (enaganing o'g'li) va “tosh” yoki “dosh” (“sherik”) so'zlaridan iboratdir. Bu ikki so'z orasidagi “l” harfi esa keyinchalik qo'shilib qolgan bo'lib, ilgari bo'lmagan. “Ko'ka” (“aka”) so'zi hozirgacha qozoq tilida qo'llanib kelinadi. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda, xususan, Buxoro xonligida mamlakat ichki xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor bo'lgan[2; b.1.].

Qisqasini aytganda Qulbobo Ko'kaldosh uddaburonligi, haqparvar, donoligi va mohir sarkardaligi bois Abdullaxon II ning eng yaqin amirlaridan va ishonchli xodimlaridan bo'lgan. Shuning uchun ham, xon chaqirgan harbiy kengashlarda ko'kaldosh naqibdan keyin, ikkinchi bo'lib o'z fikrini aytish huquqiga ega bo'lgan[2; b.120].

Qulbobo Ko'kaldosh vazir va amir sifatida bir qancha ishlarni amalga oshirgan. Buxoro, Samarqand, va Balx shaharlarida o'zining ismi bilan ataladigan 3 ta madrasa qurdirgan. Bundan tashqari Balx shahrida jome' masjid va rabot qurdirgan. Qulbobo Ko'kaldoshning Balxda juda katta kutubxonasi bo'lgan.

Endi Masjidi Baland qurilishiga to'xtalsak: Qulbobo Ko'kaldosh hamma ziyoratchilar singari Makkai mukaramaga Ka'batulloh ziyoratga borib, Baytulloh ziyoratidan so'ng Ka'baning aniq o'lchamlarini olib, u yerdan bir siqim tuproqni olib Buxoroga qaytadi. Haj ziyoratiga borolmaydiganlar ziyoratchilar uchun ramziy ma'noda Ka'ba muazzama o'lchamidagi masjidni quradi. Bu masjid Buxoro shahridagi Masjidi Baland bo'lib Ka'ba o'lchamida ya'ni, eniga 11 metr, uzunasiga 13 metr va balandligi 15 metr qilib qurilgan. Bu albatta xalq ichidagi rivoyat bo'lib, bu ma'lumotni ilmiy dalillantiradigan birorta manba yo'q[7].

Shu o'rinda Qulbobo Ko'kaldosh haj ziyoratiga borganmi degan savol odamni o'yantiradi. Qulbobo Ko'kaldosh 1534-yilda tug'ilgan bo'lsa to 1556 yilgacha 22 yoshgacha borgan bo'lishi mumkin. Chunki Hofiz Tanish Buxoriy (1540-1589) o'zining "Abdullanoma" asarida 1556 yildan Qulbobo Ko'kaldosh tilga olinadi. Biz aytmoqchimizki, shu davr oralig'ida Qulbobo Ko'kaldosh siyosiy jarayonlardan uzoqda yurgan, shu vaqt oralig'ida borgan bo'lishi mumkin. Masalaning ikkinchi tomoni 21-22 yoshli o'spirin hajga borgan bo'lishi mumkin, lekin masjid qurishga yetarli mablag'ni qayerdan olgan....?.

Keyingi voqealar jarayoni shuni ko'rsatadiki 1598 yilgacha ya'ni umrining oxirigacha Qulbobo Ko'kaldosh Abdullaxon II ning yonida yurgan. 1556 yildan to 1598 yilgacha siyosiy vaziyatning o'zi haj ziyoratiga borishga imkon bermagan[2; b.256].

Qulbobo Ko'kaldosh vazir yoki amirlik davrida Masjidi Balandni qurdirganmi: Ba'zi ilmiy adabiyotlarda Qulbobo Ko'kaldosh Buxoroda 7 ta masjid qurdirgani yoziladi. Bular Mozor darvozasi oldida, qolganlari guzar masjidlari – Xoja Zayniddin, Mehtar orif, Masjidi Baland, Mirdo'stum, Do'st chuhra, Xizr (bu masjid saqlanib qolinmagan) va boshqa masjidlari tilga olinadi[5; b.117.]. Yana ba'zi adabiyotlarda Masjidi Balandni Qulbobo Ko'kaldosh mablag'i evaziga duradgor Mirdo'stim tomonidan qurilgani yoziladi. Bu ma'lumotlar xatoligi keyingi yillarda o'z isbotini topdi. Jumladan, Mirdo'stum Chuhra Oqosi¹ masjidi 1585-86 yillar Abdullaxonning eng yaqin a'yonlaridan biri – harbiy yurishlarda faol ishtirok etgan Mirdo'stum Chuhra oqosi tomonidan barpo ettirilgan. Bu haqda masjid devoridagi epigrafik yozuvlaridan bilib olish mumkin. Yuqorida nomlari zikr etilgan Mirdo'stum bilan Do'st chuhra masjidi bitta masjid bo'lib chiqadi. Vaqf hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha Xoja Zayniddin² masjidi ham 1555 yilgacha qurib bo'lingan. Bu davr oralig'ida Qulbobo Ko'kaldosh birorta masjid qurmagan oydinlashadi. Shu narsa aniqki, Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasini 1568—1569 yillarda Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan. Masjidi Balandni Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan qurilganligi birorta manbaga qayd etilmagan.

XVI asrning boshlarida qurilgan Xoja Zayniddin masjid-xonaqoxi bezatish uslubi jihatdan Masjidi Balandga juda o'xshash. Lekin undan farqi shundaki bu bino xonaqoh va mahalla masjidi vazifasini bajargan, Masjidi Baland jome' masjid vazifasini bajargan.[3; s.28.]

Masjid G simon shaklda ustunli ayvon bilan o'ralgan. Masjidi Baland qurulgunga qadar har kungi namozga guzar aholisi Sobungaron masjidiga qatnagan[4; s.175.].

Masjid murabba tarhli pishiq g'ishtdan qurilgan, qalin devorli. Masjidi Balandning shimoliy va sharqiy tomonlari naqshin shiftli ayvon bilan o'ralgan. Ichki devorlarining pastiga chiroyli izoralar qoplangan. Sharq tomondagi to'q yashil rangli izoralarga 6 burchakli ko'k sopol koshinlar terilgan. G'ishtchalar atrofiga nozik o'simliksimon shakllar chizilib, ustidan oltin suvi yuritilgan (bular yaxshi saqlangan). Devorning g'arbiy tomonidagi izoralar koshin bilan qoplangan va kundal usulidagi naqshlar bilan hoshiyalangan. Masjidi Balandning derazalaridagi panjaralar sopol g'ishtchalardan terilgan.

¹ Чухра оқоси — Темурийлар, Шайбонийлар даврида ҳукмдор саройида хизмат қилувчи хос маҳрам, ҳукмдор шахсий гвардияси, хос соқчилар — чухра бошлиғи. Чухра оқоси лавозимига ҳукмдор эътиборини қозонган шахслар тайинланган ва улар саройни қўриқлашга масъул ҳисобланган. Мавқеига кўра, Чухра оқоси ясовул ҳамда жарчи сафида турган. Чухра оқосига баковул ва шарбатдор каби амалдорлар мавқеига эга бўлган чухрабоши бўйсунган. Ҳарбий юришларда иштирок этиш учун жалб қилинган Чухра оқоси ўн боши (дахбоши) вазифасини бажарган. Хонликлар тугатилгач, Чухра оқоси лавозими ҳам барҳам топди.

² Хўжа Зайниддин 1465-1480 йилларда Бухорода қози калон лавозимига ишлаган

Mehrobining atrofi sirkor sopolchalar bilan bezatilgan va ularga oltin suvi yuritilgan. Uning yon tomonlari va tepasiga to'g'ri burchakli sopolchalardan suls xati bilan yozuvlar bitilgan. Yozuvlar tepasiga, shiftga yaqinroq joyga muqarnaslar ishlangan, ularga ham oltin suvi yuritilgan. Devorlardagi (janubiy devordan tashqari) rasmlar hali ham avvalgidek yaltirab turibdi. Masjidi Balandning shifti toqili, hovuzakli bo'lib, naqshlar bilan bezatilgan. Uni qurishda mumtoz davr me'morchiligining noyob va nafis usulidan keng foydalanilgan. Keyingi davrlardagi me'morlar Masjidi Balandning bezaklaridan namuna ko'chirganlar. Masjidi Baland bezaklarining zarlari to'kilib, naqshlari ko'chib, qorayib qolgan. Baland minora bir necha bor ta'mirlangan.

Masjidning ichkarisining izorasi – paneli olti qirrali koshinlardan iborat, qorishma oltin bilan naqshlangan. Eshik qarshisida, g'arbiy devor o'rtasiga mozaik panno va go'zal siyratli mehrob o'rnatilgan. Devor sathining qolgan qismi va yog'och ship bo'rtma zarhal rang tasvir-kundal uslubidagi boy naqsh bilan bezatilgan. Bezakli 5,12 qirrali yulduzlar o'yilgan osma shir tomning haqiqiy konstruksiyasini bekitib turadi. Aslida masjid tomining yopilishida murakkab usul, kvadratlarni burchaklarni kesib yog'och ko'p qirrali gumbaz hosil qilgan. Bunday murakkab konstruksiyali tom yopish juda kam uchraydigan hol.

Shu bilan birga, bu jomening yana bir o'ziga xos tomoni: masjid ichida ustun yo'q. Tom qismi zanjirga tortilgan bo'lib, yog'och ustunlardan foydalanilmagan. XIX asrda masjidning o'ng va orqa tomonida ochiq ayvon barpo etiladi.



Masjidning kibra tomoni hujralardan iborat bo'lgan. O'z davrida "Madrasa qorixona" deb nomlangan. Ammo bu madrasa bizgacha yetib kelmagan. Sobiq sho'rolar davrida masjid binosi poyafzal fabrikasining ombori sifatida, keyinchalik "Gagarin klubi" nomi bilan musiqa to'garaklari o'tkaziladigan joy sifatida foydalanilgan. Mahalla ellik xo'jalikdan iborat bo'lib, asosini tojikzabon musulmonlar tashkil etgan. Mahalla aholisi, asosan, savdo-sotiq hunarmandchilik bilan charm poyafzallar, charm kamzullar tikib sotish bilan shug'ullangan. 1989-yil sobiq muftiy marhum Muxtorxon Abdullayev va oz sonli mahalliy namozxonlar tashabbusi bilan masjidda yana namoz o'qila boshlangan.



Istiqlol sharofati bilan masjid adliya boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olinib "Baland" jome' masjidi deb e'lon kilindi. Hozirda obod maskanga aylantirilgan. 2020 yilga kelib, aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, namozxonlarga qulaylik yaratish maqsadida ushbu tarixiy masjidning qibla tomonida zamonaviy qo'shimcha bino qad rostladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Hofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullanoma (fors tilidan tarija Sodiqa Mirzayeva). – Toshkent: "Sharq", 1999. – B.157.
2. Zamonov A. Buxoro xonligining yirik davlat va jamoat arbobi Qulbobo Ko'kaldosh // O'zbekiston tarixi №2, 2018. – B. 34-35.
3. Давидович Е.А. Датировке мечети ходжа Зайнеддина в Бухаре // Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. Выпуск 1. – Тошкент: 1950. – С.28-30.
4. Сухарева О.А. кварталная обшина позднефеодалного города Бухары. – Москва: "Наука", 1976. – С. 157.
5. Рахматова С. Қурбонов Ҳ. Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро. "Бухоро" нашриёти, 1995. – С. 62.
6. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени, - в кн. "Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии", вып. II. Труды Ин-га истории, археологии и этнографии АН Тадж. ССР, т. XXV, Сталинабад, 1954.
7. <https://www.naqshband.uz/masjidlar/masjidi baland>

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF ENTREPRENEURS IN ECONOMIC LIFE (SURKHANDARYA PROVINCE AS AN EXAMPLE)

Rajabova Sabokhat Bobirovna,

Termiz State University, Department of "World History", senior teacher.

Abstract. This article describes the reforms implemented in our country to increase the position and status of women and support women entrepreneurs, to strengthen their social activity in society, and to ensure their employment. In the article, a number of state and non-state public organizations, as well as commercial banks in the Surkhandarya region, have established their entrepreneurship through the realization and support of active, businesswomen's initiatives, and the data on the sources of financing are analyzed on the basis of the table.

Key words: active women, entrepreneurship, women's associations, "Tashabbus" selection contest, "Durdona textile" enterprise, "Ofis Art Dizayn" firm, commercial banks, loans.

IQTISODIY HAYOTDA TADBIRKOR AYOLLARNING TUTGAN O'RNI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Rajabova Sabohat Bobirovna,

TerDU Jahon tarixi kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ayollarning o'rni, maqomini oshirish hamda tadbirkor xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning jamiyatda ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bandligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Maqolada Surxondaryo viloyatida bir qator davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari, shuningdek tijorat banklari tomonidan faol, ishbilarmon xotin-qizlarning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ko'maklashish orqali tadbirkorliklarini yo'lga qo'yganliklari aniq misollar hamda moliyalashtirish manbalari to'grisidagi ma'lumotlar jadval asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: faol ayollar, tadbirkorlik, ayollar assotsiatsiyalari, "Tashabbus" ko'rik tanlovi,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N19>

Kirish. Ijtimoiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ayollarning o'rni va maqomini oshirish O'zbekistonda davlat siyosatidagi o'ta muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda oila institutini, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ularning bandligini ta'minlash bo'yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida, sud-huquq tizimi, nodavlat tashkilotlar faoliyati, ijtimoiy tizimlarda, umuman olganda, jamiyatimiz hayotining hamma sohalarida ayollarning siyosiy va huquqiy madaniyati darajasi hamda ijtimoiy faolligi oshib borayotganini kuzatish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarining 17 foizini, Qonunchilik palatasi

deputatlarining 16 foizini ayollar tashkil etadi, yuzlab ayollar xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarida faol mehnat qilishmoqda. Bu fikrlarni hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev BMTning 75-sessiyasidagi nutqida ham ta'kidlab o'tdilar: "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi"[1]

O'zbekistonda ayollar o'z bilimi va tajribasi, malakasi va mahorati bois ko'pgina sohalarda yetakchi o'rinni egallashgan. Hayotimizda borgan sari muhim ahamiyat kasb etayotgan soha va tarmoqlar taraqqiyotini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakati, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy sohalar, ilm-fan, tibbiyot, ta'lim va tarbiya, madaniyat va san'at hamda boshqa jabhalarni ayollarning ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Buni quyidagi raqamlar, ya'ni hozirgi kunda mamlakatimizda ish olib borayotgan tadbirkorlarning 35 foizini, fermerlarning 10 foizini ayollar tashkil etishi ham tasdiqlaydi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda D.Alimova tomonidan hujjatli manbalar va arxiv materiallarini tahlil qilish asosida yozilgan ilmiy monografiya va bir qator ilmiy maqolalari[3] muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, Ya.Abdullaeva[4], D.Rajabova[5], N.Jo'raeva[6], G.G'anieva[7]larning dissertatsiya ishlarida jamiyatda ayollarning o'rni, maqomini oshirish hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirish masalalari ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, Ya.Abdullaevaning Qoraqalpog'iston xotin-qizlari hayotiga oid doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasi[4] mustaqillik davridagi xotin-qizlar masalasini tarixiy aspektda o'rganishga munosib hissa bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umumiy qabul qilingan metodlar — tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida olib borilgan bo'lib, Surxondaryo viloyati iqtisodiy hayotda tadbirkor ayollarning tutgan o'rni bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mamlakatimizda ayollarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi hamda jamiyatning iqtisodiy hayotida o'z o'rnini egallashiga alohida e'tibor berilmoqda. Tadbirkor va ishbilarmon ayollar haqida yurtboshimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "...tadbirkor ayollar jamiyatimiz ko'rki sanaladi"[8]. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli ular jamiyatda munosib o'rin egallamoqda. Jumladan, O'zbekiston "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi o'z safida 14 mingdan ziyod ishbilarmon ayolni birlashtirib, ularning tashabbuslarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashmoqda. 2016 yilda 24 mingdan ortiq xotin-qizlar biznes sohasi bo'yicha o'qitildi va 16 mingdan ziyod vaqtincha ishsiz ayol mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga yo'naltirildi. Xotin-qizlar rahbarlik qilayotgan korxonalariga ajratilgan 1,6 trillion so'mlik sarmoya evaziga 130 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi[8].

Ayollarning tadbirkorlik faoliyati oila farovonligini oshirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, bundan tashqari joylarda aholining bandlik darajasining o'sib borishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ishbilarmon va tadbirkor ayollarni bir maqsadda jamlagan "O'zbekiston Respublikasi tadbirkor ayollar uyushmasi" va O'zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik Partiyasining "Faol ayollar" qanoti kabi uyushma, tashkilotlar faol ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'z XDP "Faol ayollar" qanoti 2006 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda, shu yillar davomida tadbirkor va ishbilarmon ayollarga har tomonlama ko'mak berildi. 2019 yilga kelib O'zXDP Surxondaryo viloyat kengashining 38 ming a'zosining 150 882 nafarini ayollar, 14 966 nafarini esa yoshlar tashkil etdi[9].

Mamlakatimiz ayollarining har tomonlama qo'llab – quvvatlanishida “O'zbekiston ishbiarmon ayollar assotsiatsiyasi”ning ham o'rni kattaligini alohida aytib o'tishimiz lozim. “O'zbekiston ishbiarmon ayollar assotsiatsiyasi” faoliyati natijasida mamlakatimizning ishbiarmon tadbirkor ayollari dunyo hamjamiyati bilan doimiy aloqada bo'lib kelmoqda. Uyushma tarkibida 2013 yilda 8000 dan ziyodroq ayollar jamlangan bo'lsa, ularning soni 2019 yilga kelib esa 15 000 dan ortiqroqni tashkil qildi[10].

Yurtimizda innovatsion g'oya va takliflari mavjud ayollarni aniqlash va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2018 yil fevral oyida “O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” birinchi respublika tanlovi bo'lib o'tdi [11]. Tanlovning tuman, shahar, viloyat bosqichlari ham tashkil etildi. Bu tanlovni tashkil etishdan maqsad yurtimizda faoliyat olib borayotgan ko'plab olimalar, doktorantlar, iqtidorli talabalar, muhandis, konstruktor, tadbirkor ayollarni qo'llab – quvvatlash ko'zda tutilgan. Faqat ular orasidan eng iqtidorlisini tanlab, ularni to'g'ri yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash lozim. Shunda ular o'zining bor qobiliyat va iqtidorini to'la namoyon qilib, jamiyat, davlat rivoji uchun munosib hissasini qo'sha oladi. 2018 yilning fevral oyida tanlovning respublika bosqichida 250 nafar iqtidorli xotin-qizlar ishtirok etishdi. Tanlovda 11 yo'nalishlar bo'yicha g'oliblar aniqlandi; “Eng yaxshi ixtiro”, “Eng yaxshi foydali model”, “Eng yaxshi sanoat namunasi”, “Eng yaxshi dastur va ma'lumotlar bazasi”, “Eng yaxshi innovatsion loyiha”, “Eng samarali innovatsion loyiha” yo'nalishlari bo'yicha g'oliblar aniqlandi. Ularning tanlovda taqdim etgan loyihalarining amalda tatbiq etilishi davlat tomonidan ta'minlandi. Bunday loyiha tanlovlarining tashkil etilishi mamlakatimizda ayollarning ilm-fan va tadbirkorlik faoliyatidagi samarali mehnatini tashkil etishga yordam beradi[12].

Yurtimizda tadbirkor va faol ayollarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash uchun ularga moddiy va ma'naviy ko'mak ham berib kelinmoqda. Ishbiarmon ayollar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. 2017 yilda 120 mingdan ortiq xotin-qizlarga jami 2 trillion 700 milliard so'm miqdorda kreditlar jalb qilindi. 2012 yilda esa mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan tadbirkor ayollarga 491,7 milliard so'm kreditlar berilgan[13], 2012 yilning may oyiga qadar berilgan kreditlar miqdori esa 129,5 milliard so'mni tashkil etgan edi[14]. Bu raqamlarni 2014 yil hisobida, 900 milliard so'm miqdorida O'zbekiston bo'yicha tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin[15].

2016 yilda ayollar uchun yurtimizda 404155 ta ish o'rni yaratilgan bo'lib, tadbirkor va ishbiarmon ayollar uchun 1 trillion 255 milliard miqdorida kreditlar ajratildi[16]. Surxondaryo viloyatida ham tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan doimiy mablag'lar bilan ta'minlanib kelinmoqda. Surxondaryo viloyatida tijorat banklari tomonidan barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2008-2009 yilning ikkinchi choragidagi tadbirkor ayollarga berilgan kreditlari to'g'risidagi ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, viloyat miqyosida tadbirkor ayollarga jami 2008 yilning birinchi yarim yilligida 2 milliard 146,8 million so'mga miqdorida kreditlar ajratilgan. 2009 yilning birinchi yarim yilligida tadbirkor ayollar olgan kreditlar miqdori esa 7 milliard 154 million so'mni tashkil etadi. Yuqorida ko'rsatilgan raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, viloyat miqyosida tadbirkor ayollarga berilgan kreditlar yildan yilga ortib, bir yillik o'sishi 5 milliarddan ortiqligini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin[17].

Jadval 1.

Tijorat banklari tomonidan 2008 va 2009 yilning birinchi yarim yilliklarida tadbirkor ayollarga berilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot

№	Tumanlar nomi	2008 yil 1-yarim yilligi ayollarga berilgan kreditlar (mln. hisobida)	2009 yil 1-yarim yillikda ayollarga berilgan kreditlar (mln. hisobida)	O'tgan yilga nisbatan farqi (mln. hisobida)	O'tgan yilga nisbatan farqi (foizda)
1	Angor	105,9	195,9	90.0	185.0
2	Boysun	22,7	98,2	75.5	432.6
3	Bandixon	19,7	178,2	158.5	904.6
4	Denov	167,5	496,5	329.0	296.4
5	Jarqo'rg'on	89,2	263,1	173.9	295.0
6	Qiziriq	50,5	255,7	205.2	506.3
7	Qumqo'rg'on	107,6	472,6	365.0	439.2
8	Muzrabot	59,3	363,7	304.4	613.3
9	Oltinsoy	23,4	89,3	65.9	381.6
10	Saraosiyoy	220,8	278.3	57.5	126.1
11	Termiz tumani	59,8	221.1	161.3	369.7
12	Termiz shahri	989,9	3127.2	2137.3	315.9
13	Uzun	40,2	154.1	113.9	383.3
14	Sherabod	89,1	643.3	554.2	722.0
15	Sho'rchi	101,2	371.5	261.3	313.7
	JAMI:	2146,8	7154.7	5007.9	333.3

O'tgan yillar davomida davlat va jamiyat bo'g'inlarida, oilada ayollarning o'rni hamda rolini oshirish borasida qabul qilingan Prezidentimizning farmon va qarorlari, hukumat komissiyasi majlislari bayonlari topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatda amaliy dasturlari ishlab chiqilib, aniq vazifalar belgilab berilgan asosida ishlarni tashkil etish yo'lga qo'yildi. Amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 2018 yilda 2116 nafar ayollarga jami 17 milliard 89 million so'm miqdorida kredit mablag'lari jalb qilingan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich 21 milliard 320 million so'm miqdoriga etdi[18].

Shu jumladan, viloyat Mikro kreditbank bo'limi tomonidan 2018 yilda 674 nafar ayollarga 2 milliard 209 million 900 ming so'm miqdorida mikro kreditlar jalb qilindi. Ushbu jalb qilingan kreditlar hisobiga 650 ta ish o'rinlari yaratildi. 2018 yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, Surxondaryo viloyatida 1053 ta tadbirkor ayollar faoliyat olib borgan[19]. Ularning faoliyatini kengaytirish maqsadida 99 milliard 224 million so'm mablag' ajratildi, shuningdek, chet el kredit liniyalari ham jalb qilindi. Chet el kredit liniyalaridan 26 milliarddan ortiq mablag' qabul qilindi[20]. Bu qabul qilingan kreditlar tadbirkor ayollar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirildi.

Surxondaryo viloyatida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'zining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan ayollar soni yildan yilga ortib bormoqda. Misol tariqasida olib qaraydigan bo'lsak, Termiz tumanining "Uchqizil" qo'rg'onida tadbirkor ayol tomonidan "Durdon tekstil" korxonasi tashkil etildi. Ishbilarmon ayol o'z sarmoyasi va bankdan olingan 34 million so'm kredit evaziga 20 ta zamonaviy tikuv mashinasi sotib olindi. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, tadbirkor ayol 18 nafar yoshlarni doimiy ish o'rni bilan ta'minlagan. Tadbirkor korxonasi asosan sport va ayollar kiyim-kechaklarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi[20].

Vohada faoliyat olib borayotgan tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashda O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi viloyat kengashining ham ahamiyati kattadir. Viloyat kengashi

tomonidan 2018 yilda “Ishbilarmon ayol-2018” respublika ko‘rik tanlovining viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda tadbirkorlik, fermerlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish hamda ayollarning jamiyatdagi faolligini yanada oshirishga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar va loyihalar taqdimoti o‘tkazildi. Shuningdek, ishbilarmon tadbirkor ayollar rahbarligida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, qandolat mahsulotlari, liboslar, zardo‘zlik, hunarmandchilik buyumlari ko‘rgazmasi ham namoyish etildi. Viloyatning tadbirkor va hunarmand ayollari faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu sohalarda alohida yutuqlarga erishayotgan ayollar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Surxondaryo viloyatining milliy an‘analarining rivojlanishida hunarmand ayol Toshboeva Iqlimxonning xizmatlari katta. Iqlimxon Toshboeva o‘z faoliyati bilan nafaqat Surxon vohasi balki, Respublikamizga tanilgan hunarmand - tadbirkorlar sirasiga kiradi. Iqlimxon Toshboeva o‘zining rangin liboslari bilan 2000 yildan boshlab “Tashabbus” viloyat, tuman, ko‘rik tanlovlarida muvaffaqiyat bilan qatnashib sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi. 2002-2003 yillarda “YuNESKO”ning “Boysun bahori” festivalida qatnashib, milliy liboslar ko‘rgazmasi bo‘yicha uning liboslari 1-darajali diplom bilan taqdirlangan[20]. Shu bilan birga tadbirkor vohaga xos amaliy zargarlik namunalarini ham yaratmoqda.

Hunarmand yaratgan milliy liboslarni san‘atkorlarimiz kiyib Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya, Germaniya, Belgiya, Hindiston, Ispaniya, Xitoy kabi mamlakatlarda olqishga sazovor bo‘lib kelishgan. Bunda tashqari hunarmand o‘nlab folklor guruhlar, san‘atkorlar va raqqosalarga milliy liboslar yaratib kelmoqda.

Surxondaryo viloyatining rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib, viloyatdagi dastlabki tadbirkorlik faoliyatini boshlagan va bu sohada ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritgan tadbirkor va tashabbuskor ayollardan biri Xolmirzaeva Feruzaxonidir. 1997 yilda viloyatda birinchi bo‘lib aholining tashqi reklama, poligrafiya va dizaynerlik sohasidagi talab va ehtiyojlarini o‘rganish tufayli o‘z mustaqil ishlab chiqarishini boshlagan. 777 turdagi taklifnoma va tashrifnomalar, 2000 dan ortiq qog‘oz mahsulotlari va tashqi reklamalarning barcha turlarini ishlab chiqarishga erishdi. 21 kishini doimiy ish bilan ta‘minlandi. “Ofis Art Dizayn” nomi bilan mashhur firmaga asos soldi. Korxonada 2003 yilda 82,3 mln so‘m miqdorda daromad qilgan bo‘lsa, 2007 yilda bu ko‘rsatgich 376,5 mln so‘mdan oshdi. Korxonaning rentabillik darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Doimiy yangiliklar izidan yurish, izlanish, aholi ehtiyojlarini o‘rganish, mijozlar talabiga qarab ish tutish korxonaning bosh mezon bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan birga chet el davlatlariga borib ularning ish tajribasini o‘rgandi. Yaponiya, AQSh, Xitoy, Hindiston, Germaniya kabi davlatlarning korxonalariga tashrif buyurdi. Ularning ish tajribalarini chuqur o‘rgandi. Tadbirkor 2003-2007 yillar mobaynida viloyatda “Eng yaxshi tadbirkor ayol” nominatsiyasini, 2003 yili “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni, 2005 yili Respublika “Mahalla” jamg‘armasining “Mahalla jonkuyari” ko‘rik tanlovining birinchi o‘rin sohibasi bo‘ldi, ko‘krak nishon bilan taqdirlandi. Hozirda Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining 19-saylov okrugi deputati[20]. Surxondaryo viloyati “Zarautsoy jamoatchilik markazi” raisi sifatida viloyatda nodavlat notijorat tashkilotlari harakatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Uyushmagan yoshlarni muntazam ish bilan ta‘minlamoqda.

Xulosa. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollarning rolini oshirish va uni amalga keng qo‘llashning bo‘yicha orttirilgan ijobiy tajriba mavjud, ammo ayollarning mehnat faoliyatlarini yanada yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan vazifalar ko‘lamini kuchaytirish, qolaversa, eng muhimi uni hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni

kengaytirish zarur. Ayollarning mehnat bilan bandligini ta'minlash Prezidentimiz ilgari surgan "Besh tashabbus" da o'z aksini topgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ayollarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga keng jalb etishda quyidagi takliflarni bildiramiz:

- ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy muxofazasini zamonaviy huquqiy me'yoriy hujjatlar asosida himoyalash;
- tadbirkorlik sohasida ayollar savodxonligini oshirish, malaka darajasini yaxshilash maqsadida o'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarida turli kurslarni (imtiyozli) tashkil etish va kasbiy o'quv markazlari faoliyatini kengaytirish;
- hokimlarning mahalla va oila masalalari bo'yicha o'rinbosarlari "ayollar daftari" bo'yicha mas'ulligini oshirish va bu tizim ustidan samarali jamoatchilik tizimini shakllantirish:
 - "Ijtimoiy shartnoma" orqali nodavlat kasb-hunar o'quv kurslarini bitiradigan ayollarga ta'lim xarajatlari uchun subsidiya ajratish;
 - Kasb va lavozimlar klassifikatorida oliy ma'lumot talab qiladigan mutaxassisliklar va lavozimlarni qisqartirish orqali o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan ayollar bandligini oshirish;
 - Hududlarda oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo'jaligini keng rivojlantirish ishlarini jadallashtirish kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, viloyatimizda tadbirkor va ishbilarmon xotin-qizlarning faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini berib kelmoqda. Bu islohotlar va chora-tadbirlar tufayli mamlakatimizning ishbilarmon va tadbirkor ayollari har bir soha rivojiga munosib hissalarini qo'shib, ular mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada rivojlanishi va yuqori natijalarga erishishida muhim tayanch hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Prezident Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 75- sessiyasidagi nutqi// URL: <http://uza.uz/uz/politics/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-b-23-09-2020>
2. Xalqaro ekspertlar: "O'zbekiston ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida boshqa mamlakatlar uchun namunadir"// Jenevadagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonasi rasmiy saytidagi maqola. URL: <http://uzbekistan-geneva.ch/-o-zbekcha.html>
3. Alimova D.A. Sovremennoe sostoyanie jenskogo voprosa v Uzbekistane i zadachi obshchestvovedov // Soqialno-ekonomicheskie problemy Uzbekistana v usloviyax perestroiki. — T.: Fan, 1990. - S. 99-104; Jenskiy vopros v Sredney Azii: istoriya izucheniya i sovremennye problemy. — T.: Fan, 1991. - 132 s.; Jenskiy vopros v sovetskoy istoriografii Sredney Azii.: Dis. ... dokt. istor. nauk. - T.. 1991. - 285 l.; O'zbekiston ijtimoiy fanlarida xotin-qizlar muammolarining o'rganilishi va vazifalari // O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat kurilishida ayollarning roli va gender muammolari. — T.: Fan. 1999. - B. 16-20; Milliy tafakkur va ayollar masalasi: o'tmish timsollari // O'zbekiston xotin-qizlari kecha va bugun. — T.. 2005. - B. 5-9.
4. Abdullaeva Ya.A. Jenskiy vopros v Karakalpakstane v konse XIX-XX v.v. (soqialno-politicheskiy aspekt).: Avtoref. dis. ... dokt. istor. nauk. — T., 2005. - 46 s.; Qoraqalpog'iston xotin-qizlari: kecha va bugun (XIX asrning oxiri va XX asr). - T.: Ijod dunyosi, 2004. - 223 b.

5. Rajabova D. N. Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari (XIX asrning oxiri - XX asr boshlari). Tarix fan. nom. diss. Toshkent: O'zR FA TI, 2003.
6. Jo'raeva N. D. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni (XX asrning 20-30 yillari). Tarix fan. nom. diss. Toshkent: O'DJTU, 2004.
7. G'anieva G. J. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi: yangicha yondoshuv, muammolar va echimlar (mustaqillik davri 1991-2005 yy.). Tarix fan. nom. diss. Toshkent: O'zR FA TI, 2006.
8. «Xalq so'zi» gazetasi. 2018 yil 8 mart.
9. O'zXDPning Surxondaryo bo'limining 2019 yilning 2 choragidagi hisobotidan.
10. «Xalq so'zi» gazetasi. 2013 yil 19 fevral.
11. «Xalq so'zi» gazetasi. 2018 yil 2 mart.
12. «Xalq so'zi» gazetasi . 2018 yil 21 fevral.
13. Gazeta «Narodnoe slova». 2013 god 8 marta.
14. «Xalq so'zi» gazetasi. 2012 yil 4 iyun.
15. «Jamiyat» gazetasi. 2015 yil 6 mart. № 9-son.
16. «Xalq so'zi» gazetasi. 2016 yil 30 yanvar. № 21-son.
17. 2008-2009 yillarda tadbirkor ayollarga berilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot.
18. Surxondaryo viloyati xotin-qizlar qo'mitasining 2018 yilgi hisoboti.
19. «Surxon tongi» gazetasi. 2018 yil 18 avgust.
20. Surxonning muxtarama ayollari. Toshkent, 2009. -B.277-301.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

ABOUT THE MAIN POSSIBILITIES OF USING GEOINFORMATION SYSTEMS IN ARCHEOLOGY

Alokhunov Alisher Akhmadzhonovich

PhD, Associate Professor, Department of World History Fergana State University.

Abstract. This article discusses methods and techniques for effective activities for studying objects on earth, including archaeological monuments, based on modern approaches of a geographic information system, and also provides information about the use of the wide capabilities of GIS and its shortcomings associated with the human factor.

Keywords: Geographic Information System (GIS), geospatial data, spatial analysis, monument location, predictive modeling, cultural resources, archaeological heritage conservation, landscape archaeology, GIS applications, field applications, data visualization.

ARXEOLGIYADA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY IMKONIYATLARI XUSUSIDA

Aloxunov Alisher Ahmadjonovich

Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografik axborot tizimining zamonaviy yondashuvlar asosida yer yuzidagi obektlar, jumladan, arxeologik yodgorliklarni o'rganishda samarali faoliyat olib borish usul va metodlari, shuningdek, GATning bugungi kundagi keng imkoniyatlari hamda inson omili tarafidan yuzaga keluvchi kamchilik tomonlari to'g'risidagi fikr-muloazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: geografik axborot tizimi (GAT), geofazoviy ma'lumotlar, fazoviy tahlil, yodgorlik joylashuvi, bashoratli modellashtirish, madaniy resurslar, arxeologik merosni muhofaza qilish, landshaft arxeologiyasi, GAT dasturlari, dala ilovalari, ma'lumotlarni vizuallashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N20>

Kirish. Arxeologiyaning maqsadi moddiy merosni imkon qadar to'liq tiklash, qadimiy topilmalar va qimmatbaho artefaktlarga zarar yetkazmasdan ko'proq ma'lumot olishdan iborat. Kompleks arxeologik tadqiqotlarga gumanitar, ijtimoiy, tabiiy, texnik va geografik fanlar ma'lumotlari kiritilgan. Zamonaviy jahon arxeologiyasining umumiy rivojlanish tendensiyalariga bog'liq tarzda bugungi kunda arxeologiyada geoaxborot texnologiyalari asosida olib borilayotgan tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab arxeologiyada "geoaxborot" deb nomlangan ilmiy yo'nalish shakllana boshladi. Geografik axborot tizimi (GIS) – raqamli ko'rinishga o'tkazilgan juda katta ma'lumotlar bazasi bo'lib, GIS texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatayotgan butun bir tarmoqqa aylandi.

Geografik axborot tizimi (GAT) geofazoviy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, modellashtirish, boshqarish va tasvirlashga mo'ljallangan kompyuter tizimi bo'lib, unda mazkur ma'lumotlarni voqea, hodisa, faoliyat yoki undagi tafsilotlar bilan birga ularning qayerda mavjud ekanligini tasvirlar, jadvallar orqali aks ettirish mumkin[2:3]. Tizimdan foydalanish jarayonida geoaxborotni raqam tarziga aylantirib, saqlab, idora qilsak, ma'lumotlar yangi raqamli qiyofaga ega bo'ladi. Ular boshqa axborot turlari kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi[4:8].

Demak, geografik axborot tizimi yer yuzidagi obyektlar, jumladan, binolar, shaharlar, yo'llar, daryolar, davlatlarni kompyuter orqali tasvirlashga yordam beradi. Hozirda bu tizimni insoniyat faoliyati va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalarni tasvirlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni tushunish uchun qo'llab kelmoqdalar. Xaritalar orqali tasvirlab berilgan tahliliy muammolar insonga har xil sonlar, diagrammalardan ko'ra vizual ravishda samaraliroq tushunishga yordam bermoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. GAT texnologiyasining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga AQSH, Kanada, Fransiya, Angliya hamda Shvetsiya davlatlarida geografiya sohasida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar katta ta'sir o'tkazgan. Xususan, Kanadada geografik axborot tizimi XX asrning 60-yillarida ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ham jadal sur'atlar bilan taraqqiy etmoqda. Kanada geografik axborot tizimi asoschisi Rodjer Tomlinson hisoblanadi. U tomonidan GAT sohasidagi ko'plab konseptual va texnikaviy yechimlar ishlab chiqilgan hamda amalga oshirilgan. Agar tarixga murojaat etsak, turli ma'lumotlarni xaritalarda aks ettirish g'oyasi kompyuterlar ixtiro qilingunga qadar vujudga kelgan. Masalan, 1781-yilda fransiyalik xaritashunos Lui-Aleksandr Bertye (Louis-Alexandre Berthier) Yorktaun (Yorktown) ostonasidagi jangda qo'shinning harakatlanishi yo'nalishini asosiy xaritada shaffof qatlamlar asosida aks ettirishga uringan. 1854-yilda vrach Djon Snou tomonidan London markazida xolera tarqalishi yo'nalishini xaritada aks ettirish orqali infeksiya o'chog'ini aniqlashga harakat qilgan[1:26-27].

Geografik axborot tizimlari 1980-yillardan beri arxeologiyada keng qo'llanila boshlandi va ular fazoviy ma'lumotlar bilan ishlaydigan har qanday arxeologik tadqiqotlarning muhim elementi hisoblandi[6:111]. GATdan arxeologik maqsadda foydalanish birinchi marta Shimoliy Amerikada yodgorlik joylashuvini bashoratli modellashtirish asosida madaniy resurslarni boshqarish talablari doirasida ishlab chiqilgan[5].

1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida Rossiya arxeologlari ham o'z tadqiqotlarida GATdan foydalanganlar. 1995-yilda Rossiyada GAT assotsiatsiyasi tashkil etildi[13:9]. Shu o'rinda o'z ilmiy faoliyatining katta qismini arxeologik obyektlarda GATdan foydalanish usullarini o'rganishga bag'ishlagan arxeolog olim Gennadiy Yevgeniyevich Afanasevning ulkan hissasini alohida qayd etish kerak. Unga ko'ra, arxeologiyada GAT texnologiyalarini qo'llashning uchta asosiy yo'nalishi paydo bo'lgan.

Birinchi yo'nalish arxeologik merosni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lib, u tarixiy va madaniy yodgorliklarni himoya qilish vazifasi bo'lgan davlat yoki shahar xizmatlari tomonidan qo'llaniladi. Bunday hollarda GAT texnologiyalari arxeologik yodgorliklarning joylashuvi, arxeologik qazishmalar, qidiruvlar va keyinchalik ular bo'yicha olib borilgan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olishni ta'minlovchi yirik arxeologik ma'lumotlar bazalari bilan ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, so'rov bo'yicha ma'lumotni tezkorlik bilan olish, ularni saralash va yodgorliklarni aniq lokalizatsiya qilgan holda arxeologik xaritalar

ko‘rinishida taqdim etish imkoniyati paydo bo‘ladi, bu ayniqsa buzilib ketgan arxeologik yodgorliklarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Arxeologiyada GAT texnologiyalarini qo‘llashning ikkinchi yo‘nalishi – arxeologik obyektlarni modellashtirish orqali yodgorlik bo‘yicha tarixiy ma‘lumotlarni olish uchun GAT tahlil usullaridan foydalanish. Bu, birinchi navbatda, yodgorliklarni tasniflash jarayonini yoki mintaqaviy fazoviy arxeologik tahlilni amalga oshirish uchun GAT algoritmlaridan foydalanishga taalluqlidir.

Uchinchi yo‘nalish landshaft arxeologiyasi doirasidagi ko‘p tarmoqli tadqiqotlar bilan bog‘liq. Landschaft arxeologiyasi zamonaviy fanning faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad inson va uning atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirining turli jihatlarini har tomonlama o‘rganishdir[10]. Landschaft arxeologiyasining ishlash prinsipi ko‘rib chiqilayotgan masalalarni o‘rganishda fanlararo yondashuvni qo‘llashga asoslanadi[14:230].

Yevropa arxeologiyasida GATdan kompleks foydalanish 1990-yillarning boshida, asosan, madaniy resurslarni boshqarish (CRM) bilan bog‘liq holda boshlangan. Portativ kompyuterlar va zamonaviy topografik qurilmalar (taxeometr, GNSS qabul qiluvchilar, lazerli skaner) tufayli GAT (GIS) ilovalari rivojlanmoqda. GATni, vazifalariga ko‘ra, quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1. Instrumental GIS (instrumental GIS) – kartografik ma‘lumotlar bazasini, fazoviy tahlilni, murakkab so‘rovlarni qayta ishlashni va qog‘ozga chiqarishni ta‘minlaydigan tizimlar;

2. GIS “viewer” (viewerGIS) – ilgari kiritilgan ma‘lumotlarni ko‘rib chiqish, yaratilgan GIS instrumental ma‘lumotlar bazasiga so‘rovlarni bajarish imkonini beruvchi tizimlar;

3. Axborot kartografiya tizimlari (axborot kartografiya tizimi) – kiritilgan kartografik ma‘lumotlar bazasiga bir xil bo‘lmagan so‘rovlarning bajarilishini ta‘minlaydigan “tomoshabin” tipidagi tizimlar (ikkinchisini yangilab bo‘lmaydi);

4. Vektorlashtirilgan rastrli kartografik xaritalar (rastrli kartografik xaritalar vektorizatorlari):

– skanerdan fazoviy va vertikal ma‘lumotlarni kiritish va undan vektor shakliga avtomatik yoki yarim avtomatik o‘tkazishni ta‘minlovchi tizimlar;

– kosmik modellashtirish uchun maxsus qurilma – obyektни modellashtirish masalalarini hal qilishga qaratilgan apparat va dasturiy vositalar;

– masofaviy zondlash ma‘lumotlarini qayta ishlash va dekodlash vositalari – samolyotlar va sun‘iy yo‘ldoshlardan olingan yer yuzasining raqamli tasvirlarini qayta ishlash uchun dasturiy va texnik vositalar[12:112-113].

Yuqoridagi funksiyalarga asoslanib, GAT geoma‘lumotlarni boshqarish va tarqatishning eng istiqbolli va universal tizimi hisoblanadi. Zamonaviy GAT nafaqat vektor ma‘lumotlarini, balki rastr va matnli ma‘lumotlarni ham tahlil qilish imkonini beradi[11:87-89].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumiy qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, induksiya, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. GAT axborotni boshqarish hamda fazoviy tahlil qilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholanadi[7:40]. GATning imkoniyatlari ko‘plab mamlakatlar tomonidan 1991-yilda Biznes uchun tizim (CRM – Customer Relationship Management)da bo‘lib o‘tgan konferensiyada e‘tirof etilgan. Ulardan foydalanish ma‘lumotlarning ko‘lami, bir nechta

dasturiy ta'minot dasturlarini ishlab chiqish va bepul, ochiq manbalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi tufayli keng tarqaldi. Axborotni boshqarish va yozib olish esa arxeologiya uchun ayniqsa muhimdir va GATdan foydalanish vazifani yengillashtirishga yordam beradi. So'nggi 30 yil ichida GAT arxeologiya fanining ajralmas qismiga aylanib, ularning kombinatsiyasiga mukammal uyg'unlik deb qaralmoqda. Chunki arxeologiya insoniyat o'tmishini va hududiy harakatlarini kuzatadi, albatta bu fazoviy kuzatuvlarda juda ham qulay hisoblanadi[8:33].

Bugungi kunda arxeologik obyektlarni ma'lum bir hududga bog'lash axborot texnologiyalari sohasidagi yangi yo'nalish, ya'ni geografik axborot tizimining arxeologiya sohasida keng qo'llanilishini taqozo etmoqda. GAT yordamida qadimgi tarixiy xaritalarni o'rganish, arxeologik yodgorliklar tarhini tuzish yoki ma'lum bir geografik hududlarning arxeologiyaga oid ma'lumotlar tizimini yaratish imkoniyati vujudga kelmoqda[1:27]. GAT nafaqat arxeologik topilmaning hududiy joylashuvi, balki yodgorliklar, arxeologik madaniyatlarning yoyilish hududini ham aniqlash borasidagi muammolarni bir qadar yechish imkonini beradi.

GAT dasturlari orqali tuzilgan tarixiy landshaft xaritalarida o'tmishdagi jamiyatlarni o'rganish, ularning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini va tabiatning o'zgarishi sababli atrof-muhitga ta'siri oqibatlarini kuzatish mumkin[8:37].

Arxeologlar tadqiqotlarda odamlarning o'tmishdagi xatti-harakatlarini, ular qoldirgan izlarni, murakkab va bir-biridan farq qiladigan muammolarni GAT dasturlari orqali hal etmoqdalar. Inson faoliyati izlarini kashf etish, tahlil qilish va taqqoslash imkoniyatlarini o'rganishda turli xil GATga asoslangan usullardan (QGIS, ArcGIS, Google earth, SASPlanet, SUMAP, SUMVU, GRIO map,) foydalanilmoqda va bunday usuldagi arxeologik tadqiqotlar natijasida aniq ma'lumotlar qo'lga kiritilmoqda.

GAT yondashuvli izlanishlar qadimiy yodgorliklarni aniqlashda zamonaviy tabiiy fanlar va texnologik innovatsiyalarning yutuqlarini qo'llash bilan amalga oshiriladigan ilmiy yondashuv sanaladi. Aniqrog'i, geoarxeologik yondashuvli dala qidiruv izlanishlarida qadimiy tegralar zamonaviy texnologiyalar yordamida makon jihatdan tahlil qilinib, odatdagi arxeologik kuzatuvlar bilan qamrab olinishi qiyin bo'lgan tegralarda noma'lum qadimiy yodgorliklar aniqlanadi. Shuningdek, arxeologik obyektlarni tadqiq etishda, unga ajratilgan mablag'ni, ishchi kuchini va ayniqsa, vaqtini tejab qoladi. Undan tashqari, GAT yondashuvli izlanishlar GAT dasturlari orqali tarixiy arxeologik yodgorliklarni turizm markazlariga aylantirishga ham xizmat qiladi[8:34].

GATdan foydalanish har qanday arxeologik obyektlarni arxeologik madaniyatlarni tahlil qilishdan boshlab, madaniy qatlamda yodgorliklar va alohida topilmalarning joylashuvi xususiyatlarigacha bo'lgan barcha darajadagi izlanishlar imkonini beradi[15:674].

GAT texnikasi haqida gapiradigan bo'lsak, undan ko'p jihatdan foydalanish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Ular orasida xaritalash va axborotni boshqarish asosiy vazifalar sifatida namoyon bo'ladi. Analitik sohada bashoratli modellashtirish, ko'p mezonli yondashuvlar, ko'rinishni o'rganish, zichlik tahlili va fazoviy statistika tadqiqotchilar tomonidan qo'llaniladigan eng keng tarqalgan usullardir.

Arxeologlarning GATga tobora ko'proq jalb etilishi ijobiy holdir. Arxeologiyadagi GAT salohiyati keng e'tirof etilgan. Aytish mumkinki, bugungi kunda arxeologlar raqamli texnologiyalar bilan tobora ko'proq shug'ullanmoqdalar. Masalan, GAT muhimligini tan olgan

Fransiyaning profilaktik arxeologiya tadqiqot instituti (National Institute for Preventive Archaeological Research) 2011-yilda o'z xodimlari uchun GAT ta'lim dasturini boshlagan[9:217-218]. Shuningdek, hozirda arxeologlar tomonidan nashr qilinayotgan tadqiqot natijalari GATdan foydalanishga qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi.

GATning ulkan imkoniyatlari mavjudligiga qaramay, ma'lum kamchiliklarga ham ega. U geoaxborot tizimlarining muhiti va tuzilishini o'rganish zaruratini taqozo etadi, shuningdek, kompyuter tizimini, ma'lumotlarni saqlash va dasturlash asoslarini tushunmasdan va bilmadan ushbu tizimlar hamda texnologiyalardan o'rinli foydalanib bo'lmaydi[4:6]. Birinchidan, ulardan foydalana olish uchun inson ushbu texnologiyalar bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ushbu vositalar va protseduralarning mohiyatini to'liq tushunmasdan GATdan foydalanish qiyinchiliklar yaratadi[3:116]. Tadqiqotchi GATdan unumli foydalanishi uchun geografiya, matematika yoki kompyuter muhandisligi kabi turli fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lish kerak. Shuningdek, u o'zining analitik va sharhlovchi sohalari uchun adekvat fazoviy fikrlash tizimini ham talab qiladi. Ushbu elementlarning barchasi arxeologiyada GATdan foydalanishni qiyinlashtiradi va ular ushbu vositalar hamda protseduralardan arxeologik maqsadlarda foydalanishga urinishda muammo tug'dirishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda GATning arxeologiyadagi nazariy rivojlanishi yoki ta'siriga qaratilgan reflektiv tadqiqotlar yoki nashrlar soni yetarlicha emas.

Arxeologlar nafaqat dasturiy vositadan qanday foydalanishni o'rganishlari, balki undan kelib chiqadigan natijalar va muammolarni ham tushunishlari kerak. Arxeologik va geografik nazariyani GAT ta'lim dasturlariga integratsiyalash bu muammoni hal qilishi va kelajakda GATni arxeologiyada qo'llash imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Shunday qilib, arxeologik tadqiqotlarda GATdan foydalanish tajribasini tahlil qilish ushbu yo'nalishdagi fanning rivojlanish istiqbollari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu texnologiyalardan foydalanish arxeologga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ular orasida xaritalar yaratish, belgilangan algoritmlar asosida arxeologik joylarni aniqlash, tarixiy vaziyatlarni modellashtirish (loyihalash) va boshqalar mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, arxeologik tadqiqotlarda GATdan foydalanish imkoniyatlari cheklanmagan va GATdan nostandart arxeologik muammolarni hal qilishda ham foydalanish mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Annayev J.T. Arxeologiyada masofadan tadqiq etish usullari. Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 1(01). – В. 24–29. <https://doi.org/10.47689/v1i01.13307>
2. Boltayev T.X., Raxmonov Q., Akbarov O.M. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari. – Toshkent, 2015. – 274 b.
3. Brouwer Burg. It must be right, GIS told me so! Questioning the infallibility of GIS as a methodological tool. Journal of Archaeological Science. Vol. 84, 2017. – P. 115–120. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jas.2017.05.010>
4. Gulyamova L.X. Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari. – T.: Universitet, 2018. – 188 b.
5. <https://archaeologydataservice.ac.uk/help-guidance/guides-to-good-practice/data-analysis-and-visualisation/gis/introduction-to-the-gis-guide/applications-of-gis-in-archaeology/>

6. Llobera, M. Arqueología del paisaje en el siglo XXI: reflexiones sobre el uso de los SIG y modelos matemáticos. In Grau-Mira, I (ed.), La aplicación de los SIG en la arqueología del paisaje, 1st edition, 2006. – P. 109–124.
7. Menéndez-Marsh et al. Geographic Information Systems in Archaeology: A Systematic Review. Journal of Computer Applications in Archaeology, 6(1). 18 May 2023. – P. 40–50. DOI: <https://doi.org/10.5334/jcaa.104>.
8. Muminov O.O. Zamonaviy arxeologik tadqiqodlarni olib borishda GAT dasturlarining qo'llanilishi. O'tmishga nazar, №12. 2021. – B. 32-38.
9. Rodier X., Ciezar P and Moureau A. Using GIS in French Rescue Archaeology. The choice of Inrap: a tool for research at the scale of excavation. In Contreras F, Farjas M and Melero F. (eds.), Proceedings of the 38th Annual Conference on Computer Applications and Quantitative Methods in Archaeology, CAA2010, 2010. – P. 217–220.
10. Афанасьев Г.Е. Основные направления применения ГИС и ДДЗ-технологий в археологии. <https://www.archaeolog.ru/media/periodicals/agis/AGIS-1/Afanasjev/page1.html>
11. Васильев С.А. АИС Археограф: система описания археологических памятников и ввода данных в ГИС // Информационный бюллетень ассоциации «История и компьютер». 2006. №34. – С. 87–89.
12. Журкин И.Г., Шайтура С.В. Геоинформационные системы. – Москва: Кудиц-пресс, 2009. – 272 с.
13. Коробов Д.С. Основы геоинформатики в археологии. – М.: Издательство Московского университета, 2011. – 224 с.
14. Сухорукова Е.П., Чумарина С.Э. Использование географических информационных систем в археологии.// Культура, наука, образование: проблемы и перспективы X Международная научно-практическая конференция. 2022. – С. 226-232. https://journals.eco-vector.com/kultura_nvsu2022/article/view/121056/pdf
15. Шлыков, К. Е. Modern specificity of the application of GIS methods in Russian archaeology. Молодой ученый, 2023. №20 (467). – С. 674-676.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

COVERAGE OF THE CITIES OF THE SOUTH-EAST REGION OF BUKHARA EMIRATE IN THE END OF THE XIX CENTURY AND THE BEGINNING OF THE XX CENTURY, ESPECIALLY THE CITIES OF KARSHI, SHAHRISABZ, AND THE CITIES OF THE BOOK, IN THE WORKS OF RUSSIAN HISTORIANS

Sharopov Saidusmon Saidakhmadovich,

Termiz State University Department of "World History", senior teacher.

Abstract. This article provides information on the socio-economic and political life of the cities of Karshi, Shahrisabz, and Kitab in the southeastern regions of the Bukhara emirate. It also provides information on their administrative-territorial management, geographical location, and population.

Key words: Karshi, Shahrisabz, Kitab, A.L. Kun, N.V. Khanikov, I.D. Logofet, B.K. The cities of Meyendorf, Shahrisabz, Kitab, Yakkabog, Karshi, Sherabad, Boysun, Bibi-Khalifa, Guzar.

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGINING JANUBI-SHARQIY HUDUDI SHAHARLARI, XUSUSAN QARSHI, SHAHRISABZ VA KITOB SHAHARLARINI RUS TARIXCHILARI ASARLARIDA YORITILISHI

Sharopov Saidusmon Saidaxmadovich,

TerDU Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligining janubi-sharqiy hududlaridagi Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek ularning ma'muriy-hududiy boshqariluvini, geografik joylashuvi, aholisi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlari: Qarshi, Shahrisabz, Kitob, A.L. Kun, N.V. Xanikov, I.D. Logofet, B.K. Meyendorf, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qarshi, Sherobod, Boysun shaharlari, Bibi-xalifa, Guzar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N21>

Kirish. Ushbu manbalarda Buxoro amirligining janubi-sharqiy hududlarida joylashgan Qarshi, Kitob, Shahrisabz shaharlari tarixiga oid muhim qiziqarli manbalar berilgan. Ularda ushbu shaharlarning tuzilishi va shakllanishi tarixiga va ijtimoiy-iqtisodiy holati va tarixiy geografik jihatdan rivojlanishining muhim xususiyatlariga ahamiyat berganlar. Rus tarixchi olimlari va tadqiqotchilarining ilmiy tadqiqotlarida asosan geografik joylashuvi iqtisodiy ahamiyati, shuningdek strategik xususiyatlari to'g'risida ham alohida to'xtalishganlar. Rus tarixchi olimlar asosiy e'tiborlarini Buxoro amirligini qanday holatda istilo qilish mumkinligini, qo'shinni qanday yo'llardan olib borish va joylashtirish mumkinligini ushbu shaharlarga olib boradigan yo'llarning kengligi, tekisligi, qaysi hududlarga borib tutashishi

hamda shaharlarning qo'riqlash tizimi va xususiyatlari haqida aniq ma'lumotlarni qoldirganlar[1;140].

Logofet Akbai-Juma dovonining balandligi 7000 fut bo'lib, Samarqand viloyatidagi Panjinetdan Buxoro shahri bo'lgan Shahrisabzga bo'lgan erlarni tutashtiradi. Bu yo'l notekis va yaxshi tekislanmagan. Qish faslida yopib qo'yiladi.

SAR'-Paros' dovoni balandligi 7000 fut Samarqand viloyatidan PANjinetdan Buxoro shaharlari Shahrisabzga olib boradi va bu yo'l ham notekis. Bu yo'llarning barchasi shimoliy hududlardagi yo'llar bo'lib, to'laligicha ochiq ham hech qanday chegara to'siqlar yo'q. Shuningdek, Amudaryo orqali keladigan kechuv savdo yo'llarini va ushbu hududda o'tadigan chegara yerlarini ham aholisi va joylashish xususiyatlarini tasvirlab beradi. Jumladan Panj va Amudaryo oqimidagi yerlardan Afg'on qirg'oqlarigacha bo'lgan joylarda Xazar qabilasi, Panj bo'ylarida Va Amudaryo bo'ylarida Turkmanlar, Parxar va Saroy vodiysigacha bo'lgan erlarda o'troq holda yashaydilar. Ayvaj atrofida va quyi qismida Turkmanlar yashashadi. Patta-kesardan Oq-qumgacha va boshqa shu erga tutash hududlar atrofidagi erlar to'laligicha cho'lliklardan iborat. Kitob shahri qadimiy shahar bo'lib, X asr manbalarida ham aks etgan. Kitob shahri XIX asrda 14 ta guzardan iborat bo'lib, ushbu guzarlar 1.Kuloli 2.Xoja 3.Havzi mardon 4.Sarasiya 5.Jui Xaltak 6. Kunchiqar. 7. Tegi Oq saroy 8. Sari bozor. 9.Mo'in digrezi. 10. Qozi 11. Qo'sh xona 12.Chokar. 13.Charmgari 14. Kitob aholi yashaydigan markazlaridan iborat bo'lgan. Bu barcha guzarlarda 4000 ga yaqin uylar bor, agar har bir xonadonda 5 tadan odam yashaydi deb hisoblasa unda 20000 kishi chiqadi. Guzarlarda 64 ta masjid va bir nechta jome' masjidlari ham bor. Shuningdek 6 ta madrasa bo'lib, Shularning eng qadimgisi 90 yil avval Beknazarbek tomonidan qurilgan, ikkita hammom ham bo'lib u ham Bobobekning mulki hisoblanadi. 7 ta karvonsaroy, bir nechta tegirmon bor. Deyarli barcha masjidlarda bittadan maktab bor va har bir guzarda bittadan Bibi xalifa bor. Shahar chim devoridan holi tarzda devorlar bilan o'ralgan bo'lib uning 5 ta darvozasi bor. 1. Kunchiqar 2.Charmgar 3.Qushxona 4. Qalmoq 5.Ark[2;54].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligining XVIII-asr oxiri va XX-asr boshlarida Buxoro amirligining xususan Janubi-sharqiy hududi shaharlarini jumladan Qarshi, Shahrisabz va Kitob shaharlarini tarixi Mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan tarixchilardan tashqari mustamlakachi rus tarixchilarining, zobitlarining turli maqsadlarda olib borgan tadqiqotlarida yoritilgan. Jumladan Shahrisabz va Kitob shaharlari tarixi ham rus tarixchi olimlari va zobitlarining ilmiy tadqiqotlarida Jumladan A.L.Kunning "Очерки Шагрисабзского бекства" асариди, Н.А. Маевнинг "Материалы для статистики Туркестанского края".(Выпуск с Петербург. 1879) nomli asarida, N.V.Xanikovning "Описание Бухарского ханство" nomli asarida, I.D. Logofetning "Бухарское ханство под русским протекторатом"(Т-И. СПб., 1911) nomli asarida, P.P. Shubinskiyning "Очерки Бухары" (Исторический вестник. — СПб.1892. № 6-10.) nomli asarida, Gubarevich-Radobilskiyning "Экономический очерк Бухары и Туниса" (СПб.: Б.И., 1905) nomli asarida, R.Yu. Rojenitsaning "Поездка в Южную и Среднюю Бухару" (Известия ТОИРГО. Т. 54. — Т., 1908.) nomli asarida, I.D. Logofet Страна бесправия (SPb.,1909)ning asarida, I.D. Logofetning "Бухарское ханство под протекторатом России" (В 2-х т.-СПб.,1911;) nomli asarida, I.D. Logofetning "В горах и на равнинах Бухары" (СПб.: Б.И., 1913) nomli asarida, В.К. Мейендорф "Путешествие из Оренбурга в Бухару"(— М., 1975. Перевод Е.К.Бедра) nomli asarlarida Shahrisabz va Kitob shaharlari jumladan Buxoro amirligining bir qator shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Ushbu

ma'lumotlarda amirlikning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va geografik, geodezistik xususiyatlariga va boshqa jihatlariga e'tibor berilgan. Buxoro amirligining janubiy-sharqiy shaharlarida madaniy taraqqiyot ma'lum bir davr rivojida o'zining murakkab ziddiyatli bosqichini bosib o'tgan bo'lsa-da, XVIII asr oxiri XX asr boshlarida o'ziga xos ijobiy natijalarga ham erishdi. Shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojiga qarab o'zining madaniy taraqqiyotida ham o'sha davr siyosiy vaziyati ta'sirida ma'lum bir ijobiy ko'rinishlarni o'zida aks ettirdi.

Muhokama. Shuningdek, mashhur Shahrisabzni himoya qiluvchi Chimqal'adan tashqari shaharning ichki qal'alari mavjud bo'lib, shaharga beshta asosiy Kunchiqora, Charmgir, Qo'shxona, Qalmoq hamda Ark darvozalari orqali kirib kelgan.

Kitob va Shahrisabz shaharlari to'liq bog'zorlarga aylantirilib, shaharning ichki va tashqi qismi maxsus gulzorlarga aylantirildi va shu tufayli Shahrisabz shahri tarixda "Ko'klam shahar" deb yuritildi. Mahalliy aholining asosiy qismi hovlilarda olmazorlar, maxsus bodomzorlar, gulzorlar tashkil etilib, ular ancha moddiy jihatdan yaxshi turmush kechirganlar. O'sha davrda shahar aholisi quyidagi turlarga bo'lingan, ya'ni bug'doy bilan savdo qiluvchi, sholi bilan savdo qiluvchi hamda hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo qiluvchi aholiga bo'linib, ular asosan turmush darajasi moddiy jihatdan ancha yaxshi edi.

Kitob shahri Qashqadaryodan Oqdaryogacha bo'lgan oraliqdagi hududda joylashgan bo'lib, ushbu hudud uzluksiz bog'lardan iborat. Shu oraliqdagi hududlarning asosida Ark joylashgan. U to'rtburchak shakldagi 100 sajenli to'rtburchak shakldagi hajmga ega bo'lib, uning yonida unchalik katta bo'lmagan bozorcha ham joylashgan bo'lib u yakshanba va payshanbada ishlaydi.

Kitob shahri esa bir muncha qiyalikda joylashgan shahar bo'lib, uning ko'chalari toshloqdan iborat va u ancha tor hamda iflos. Kitob shahrining aholisi 3000 ga yaqin bo'lib ular asosan Ark atrofida tig'iz holatda yashaydi. Kitob shahri doimiy Bek keladigan joy bo'lib, unda 7 nafar amlodkor, 14 nafar oqsoqol va 200 kishidan iborat bo'lgan sarbozlar rotasi bor. Shaharning devorlari bir muncha uzoq yillar va yomg'irlar ta'sirida ancha yemirilib qolgan va uning tepa qismi faqatgina miltiqdan otiladigan shinaklardan iborat[3;199].

1870-yil 11-avgustda general Abramov rahbarligidagi qo'shinlar Kitob va Shahrisabzni egallab, shaharga juda katta jiddiy talafot yetkazdilar. Biroq mahalliy aholi rus istilochilariga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatib, ruslarning istilochilik harakatlarini muntazam tarzda qaytarib turdi. 1870-yil 14-avgustda Kitob qo'rg'oni, 15 avgustda esa Shahrisabz shahri ruslar tomonidan egallandi. Amir Muzaffarxon ixtiyorida G'uzor, Karmana, Hisor, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qarshi, Sherobod, Denov hamda Boysun shaharlarida rus savdo karvonlari erkin muloqot qilish huquqini qo'lga kiritdi.

Buxoro amiri har yili ikki marta kuzda va bahorda Kitob va Shahrisabz shaharlariga sayohat qilgan. Shahrisabzdan Kitobgacha masofa 8 verstni tashkil etgan. 1870 yil 14 sentyabr kuni Amir Buxorodan chiqib, 14 sentyabr kuni Qarshi shahrida bo'ldi. 30 sentyabr kuni esa Shahrisabz shahriga keldi. Samarqand shahridan Kitob shahriga ikki yo'l orqali borish mumkin edi.

1. Jomiy yo'li bo'lib, bu yo'l orqali 1970 yil rus qo'shinlari Kitob shahriga kelib, uni egallagan edilar. Kitob shahri yirik madaniy, iqtisodiy markaz bo'lib, bir necha kichik o'z bozorlariga ham ega edi. Shahar haddan tashqari kichik tor ko'chalardan iborat bo'lib, shahar ma'muriy, idoraviy usulda bek odamlari tomonidan boshqarilar edi. Kitob shahri asosan tojik

tilli aholidan iborat bo'lib, bozor savdosi faqatgina Shahrdan keyingi o'rinda turadi. Unda bozorlar bo'lib asosan shanba va yakshanbada bo'lardi[4;145].

Shaharning 51 ta guzari bo'lgan.

- | | |
|------------------------|----------------------|
| 1.Airancha | 26.Xalifa Mahdum |
| 2. Taxchi | 27. Yusuf |
| 3.Mildik sazi | 28.Absamat-Miroxo'r |
| 4.Qoraboygi | 29.Aman -Saray |
| 5.Charmgari | 30.Laklakan |
| 6.Qo'qandi | 31. Baxodirbey |
| 7.Qo'sh-Ariq | 32. Do'stiyaxchi |
| 8. Xo'ja-Buxoriy | 33.Paxal |
| 9.Shaxa-Biroq | 34.Artuk-Alaf |
| 10. Mulla-Gulaxun | 35. Tailaq |
| 11.Xoji-Bahra | 36. Jangalik |
| 12. Ko'tarma | 37. Chitgari |
| 13. Mullo-darvish-Oxun | 38. Xo'ja Rushnoi |
| 14.Da-Mullo-Yumor-Jan | 39. Rabatak |
| 15.Btiushluk | 40. Yetinuyliq |
| 16.Somonbozori | 41. Usta pir |
| 17.Saribozor | 42. Shavqi |
| 18.Lo'lixona | 43. Shayton |
| 19. Minglar | 44. Maddaxon |
| 20.Shishabat | 45. Gavxona |
| 21.Kimuxari | 46.Taxti-Darachi |
| 22.Zargarlik | 47. Alimjon |
| 23.Sallaxon | 48.Xalifa -im-Mahmud |
| 24.MIrzaday | 49.Eshoni -A'lam |
| 25.Patcha Nasir | 50. Niyoz-devon-begi |
| | 51.Mixchalari |

Ularning hammasida umumiy 3700 ta uy (xonadon) bo'lgan, agarda ularni beshtadan jonga ko'paytirsak Kitobning aholisi 18500 jon bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Har bir guzarda bittadan madrasa va maktab bo'lgan. Bundan tashqari shaharda Bibi-xalifa (uyida qiz bollarni o'qitadigan ayollar)ham faoliyat olib borgan, uchta madrasa, bir nechta masjid, juma nomozi, jome' masjidi, uchta karvon saroy va bitta xususiy hammom bor deb ma'lumotlar keltirilgan bo'lib bu orqali biz ushbu shaharlarning aholisi sonini ham taxminan bo'lsa-da aniqlashimiz mumkin.

Kitob shahri ham Ark qismidan mustaqil tarzda devor bilan o'rab olingan bo'lib, unda yettita darvozasi bo'lgan. Ushbu darvozalar: 1.Ravatak 2. Qorapoycha 3. Govxona 4. Xo'jarumnoi 5. Jangal 6. Lo'lixona 7. Kunchiqar lar hisoblangan.

Natijalar. Shahar o'rdasiga darvozalar orqali kirib kelib, bozorlarda meva va har xil kiyim-kechaklar, savdo-sotiqning asosiy manbai bo'lib hisoblangan. Kitob begi Abdujalil davrida shahar ancha rivojlanib, taraqqiy etib boradi.

1889-yil siyosiy faoliyatini boshlagan Amir Olimxon Qarshi viloyatiga hokim etib tayinlanib, unga Abulxayr (1885-1910)ni maslahatchi, yordamchi sifatida hamda boshqaruv ishlariga yordam berish uchun Usmonbekni unga oqsoqol etib tayinladi. Chunki Olimxon davlat ishlarini boshqarishda yosh, tajribasiz hamda ma'muriy-siyosiy ishlarni hali uncha yaxshi tushunmas edi[5;195].

Etnograf A.L.Kun Kitob va Shahrisabz beklklarining ma'muriy-hududiy tuzilishini o'rganib, bu beklklar qadimiy aholi markazlarida joylashgan bo'lib, qulay, iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy markaz sifatida shakllanganligini va ularni shahar hokimi ya'ni beklar boshqarganligini qayd etadi. Shahrisabz bekligida ikkita shahar bor bo'lib, 1).Kitob 2). Shahr hisoblanadi. Shuningdek uchta qal'a bo'lgan: 1).O'rta qo'rg'on. 2). Shamatan 3). Dah-yeklar. Ark qo'rg'onlari esa Shahr va Kitobda bor. Va bu qal'alarning barchasi chimni ichida joylashgan.

Shaharlarning ma'muriy, hududiy boshqarish usulida va beklkning umumiy boshqaruv nazorati tashkil etilgan ya'ni shaharni boshqarishda oqsoqollar, sarkorlar, qozilar, raislar, miroblar va mirshablar hal qiluvchi rol o'ynab, shaharning boshqaruv yo'nalishi bo'yicha o'z vazifalariga ega bo'lgan[6;146].

Shahr (Shahrisabz) muhim savdo shahri ham hisoblangan. Unda juda ko'plab chakana savdo uchun bozorlari mavjud bo'lganligi qayd etiladi. Samarqandga o'xshash tarzda savdo qatorlarining o'rtasida maydonda minorasi bor. Uni Chorsu deb atashadi va u Beknazarbek tomonidan qurdirilgan. Bu yerda bozorlar haftada ikki marta dushanba va payshanbada bo'lgan.

Shahar 14 ta guzarlarga bo'lingan.Ular: 1.Kuloli 2.Xoja 3.Havzi mardon 4.Sarasiya 5.Jui Xaltak 6. Kunchiqar. 7. Tegi Oq saroy 8. Sari bozor. 9.Mo'in digrezi. 10. Qozi 11. Qo'sh xona 12.Chokar. 13.Charmgari 14. Kitob kabi guzarlarga bo'linganligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Bu guzarlarning joylashishi va o'ziga xos iqtisodiy ahamiyatidan tashqari ularning aholisining joylashishi va soni haqida ham ma'lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan: Bu barcha guzarlarda 4000 ga yaqin uylar bo'lib, agar har bir xonadonda 5 tadan odam yashaydi deb hisoblasa unda 20000 kishi yashaganligi ma'lum bo'ladi. Guzarlarda 64 ta masjid va bir nechta jome' masjidlari ham bor. Shuningdek 6 ta madrasa bo'lib, Shularning eng qadimiysi 90 yil avval Beknazarbek tomonidan qurilgan, ikkita hammom ham bo'lib, u ham Bobobekning mulki hisoblangan. 7 ta karvonsaroy, bir nechta tegirmon ham mavjud bo'lgan. Deyarli barcha masjidlarda bittadan maktab bo'lib, har bir guzarda bittadan Bibi xalifa faoliyat olib borgan deb ma'lumotlar keltiriladi. Shahar chimdan holi tarzda devorlar bilan o'ralgan bo'lib uning 5 ta darvozasi mavjud. 1.Kunchiqar 2 .Charmgar 3.Qushxona 4. Qalmoq 5.Arklar bo'lgan[7;89].

Shahar oqsoqollari, beklk vakillari, har bir mahalla ko'cha bo'yicha soliqni o'z vaqtida yig'ib olish, uni tashkil qilishga javobgar bo'lgan. Masalan shahar ma'muriy boshqaruvida olti nafar sarkarda bo'lib, ular Axchabug', Pistaxona, Jovuz, Bashir, G'arov hamda Qorong'i kabi mahalla hududlariga bo'lingan. Shahrisabz shahrida esa to'qqiz nafar sarkor bo'lib, ularning har biriga belgilangan mahallalar topshirilgan. Masalan, shaharda toshko'prik darasi Tankos shahrining g'arbiy qismi bo'yicha O'rtaqo'rg'on, Dax, Zangi, Shanba va Yangiqo'rg'on hududlarining har biri sarkorlar qo'lida bo'lib, shaharda o'n nafar mirob, shaharni suv bilan ta'minlash ishlari bilan shug'ullangan. Shaharning obodonlashtirish, suv bilan ta'minlashda, ma'muriy soliq tizimini tashkil etishda miroblarning xizmati nihoyat darajada katta bo'lib, ular har bir xonadondan bir tangadan soliq uchun pul yig'ib olganlar[8;213].

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, shaharni ma'muriy, hududiy nazorat qilish uchun aholi va ma'muriyat o'rtasida mavjud muammolarni hal qilishda shahardagi asosiy hokimiyat qozi ixtiyorida bo'lgan. Butun huquqiy nazorat va sudlov ishlari qozi tomonidan olib borilgan. Kitob va Shahrisabz shaharlarida besh nafar qozi bo'lib, ularning muftilari huquqiy masalalarni hujjatlashtirishda bevosita ish olib borganlar. Qozilar asosan sarkorlar yashaydigan qishloqlarda istiqomat qilib, Kitob va Shahrisabzdagi asosiy boshqaruv organ bo'lgan qozikalonga bo'ysunib, ular bilan birgalikda rais va mirshablar ish olib borganligini manbalarda uchratish mumkin.

Tarixiy manbalarning qayd etishicha, Shahrisabz va Kitob beklklarining tez-tez o'zgarib turishi natijasida notinchlik bo'lib, xalqning sabr-kosasi nihoyat darajada to'lgan edi. Natijada Shahrisabz hukmron doiralari ma'muriy-hududiy boshqarishni o'z qo'llariga olib, Amirga qarshi bir necha marta xalq isyonlari uyushtirdi. Shahar mudofaasini mustahkamlab, qattiq himoya istehkomlarini vujudga keltirdi. Buxoro amirligi davrida Kitob, Shahrisabz hamda Yakkabog' shaharlari o'zining ma'muriy-hududiy tuzilishi, mustahkam harbiy qal'aga ega bo'lishi, ma'muriy boshqaruvda mahalliy zodagonlarning ko'pchilikni tashkil etishi bilan ajralib turgan.

Qarshi shahri madaniy iqtisodiy jihatdan rivojlangan va shaharda 11979 nafar aholi istiqomat qilgan. Shahar markazi Qarshi shahri bo'lib, shahar nomi Buxoro amirligi tugatilganidan keyin Behbudiy shahri deb atalgan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. И.Д. Логофетнинг “Бухарское ханство под протекторатом России” (В 2-х т.-СПб.,1911;)стр-55
2. Пармонов, Бердиев. Китоб тумани. 28-29-бетлар.
3. Кун А.Л. Очерки Шагрисебзского бекства. - Санкт-Петербург: тип. В. Безобразова и К°, 1880. – 230 стр.
4. Пармонов, Бердиев. Китоб тумани. 25 б.
5. Кун А.Л. Очерки Шагрисебзского бекства. - Санкт-Петербург : тип. В. Безобразова и К°, 1880. - 37 с. ; 24 см.стр.223
6. Маев Н.А. Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск с Петербург. 1879. Стр-78-85.
7. Фитрат “Амир Олимхоннинг хукмронлик даври”. 8-9-бет.
8. Кун А.Л. Очерки Шагрисебзского бекства. - Санкт-Петербург: тип. В. Безобразова и К°, 1880. – стр 230.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

MASTERPIECES OF INTANGIBLE CULTURE OF SHERABAD VOHA

Akhmedova Gulchehra Oskinovna

Termiz State University, Department of "World History". Head teacher

Abstract. In this article, the representatives of the Sherabad school of epics, which are considered intangible cultural masterpieces of the Sherabad oasis, and the influence of the teacher-disciple traditions on ethnocultural processes are covered.

Key words: epic, bakshi, dombra, fairy tale, narrative, proverb, legacy, terma, song, lament.

SHEROBOD VOHASI NOMODDIY MADANIYATI DURDONALARI

Axmedova Gulchehra O'skinovna

TerDU Jahon tarixi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sherobod vohasi nomoddiy madaniyat durdonalari hisoblangan Sherobod dostonchilik maktabining vakillari hamda ustoz shogird an'analarning etnomadaniy jarayonlarga ta'siri haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kirish so'zlar: Doston, baxshi, do'mbra, ertak, rivoyat, maqol, meros, terma, qo'shiq, marsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N22>

Kirish. Xalq og'zaki ijodiyotida ertaklar eng sevimli va ommaviy bo'lib, unda xalqning urf-odati, ijtimoiy turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Ertaklar yoshlarning axloqiy tarbiyasi hamda estetik madaniyatini shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Ertaklarning sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy ertaklar kabi guruhlarga ajratish mumkin. Surxon vohasidagi etnografik dala tadqiqotlarimiz jarayonida yoshi ulug' keksa axborotchilarimizdan "Uch og'a-ini botirlar", "Kenja botir", "Guliqahqah", "Ziyod botir", "Yalmog'iz", "Mehrigiyo", "Zumrad va Qimmat", "No'xatpalvon" kabi ertaklarni aytib o'tishdilar.

Adabiyotlar tahlili va metod. Dostonlarda xalq turmush tarzi bilan bog'liq marosimlar tipologiyasi ham keltirib o'tilgan[1]. Bundan tashqari A.M.Reshetovning tadqiqotlarida ham xalq og'zaki ijodi materiallari asosida oila-nikoh munosabatlari etnografik tadqiqot doirasida tahlil etilgan[2].

O.Qayumovning tadqiqotida esa O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston hamda Ozarbayjon xalqlarining baxshichilik san'ati an'analari, dostonlarining xususiyatlari, o'zaro aloqadorlik jihatlari qisman tadqiq etilgan[3]. O'zbek milliy folklor namunalarini tadqiq etishga bag'ishlangan "O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar to'plamining 7-jildida, xalq og'zaki ijodining ilk shakllanish va rivojlanish bosqichlari, dostonchilik an'analari tahlil etilgan[4]. Taniqli folklorshunoslar M.Murodov[5] va A.Qahhorovlar[6] tomonidan olib borilgan

folklorshunoslik ekspeditsiyasi asosida to'plangan ma'lumotlarga tayanib Qashqadaryo va Surxon-Sherobod vohalarida izchil davom etib kelayotgan Shahrisabz, Qamay va Sherobod dostonchiligi an'analari alohida dostonchilik maktablari sifatida aniqlab o'rganilgan.

Muhokama. Abdunazar Poyonov "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Allanazar Olchinbek", "Xomkon", "Alpomish", "Kelinoy", "Quntug'mish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Tursun mergan", "Davrqul polvon" kabi dostonlarni kuylagan. Baxshining o'zi yaratgan "Alpomish" dostoniga kiruvchi "Tursun mergan" va "Davrqul polvon" dostonlari 2000 va 2003 yillarda nashr etildi. U Sherobod-Boysun baxshichiligida "Alpomish", "Yodgor", "Xursina", "Quntug'mish", "Yozi bilan Zebo", "Kelinoy va Go'ro'g'li" dostoniga kiruvchi "Nurali" dostonlarini kuylab kelgan[7]. Insoniyat yangi davrga qadam kuydi, yangi asrda dunyoning ko'plab xalqlari o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ma'naviy-madaniy marosimlariga tobora qiziqish bilan qaramoqda. Zero insonni anglash uchun u mansub bo'lgan xalqning urf-odat va an'analari badiiy tafakkur namunasi hisoblangan xalq og'zaki ijodini o'rganish lozim. O'tmishni o'rganmay turib yorug' kelajak yaratish bag'oyat mushkul, sirasini aytganda xalq og'zaki ijodini o'rganish-xalqning turmush tarzi, urf-odati, an'analari, tarixi buguni va kelajagi, uy-kechinmalari hamda ruhiyatini o'rganish demakdir. Bunday ijod sohasini anglash esa baxshichilik san'ati sirlarini o'rganishdan boshlanadi, baxshichilik necha-necha asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan g'aroyib san'atdir. Har bir baxshi xotirasida o'tmish an'analari saqlab, uni avlodlarga yetkazgan va bu epik an'ana har gal ijro jarayonida yanada boyib, yangilanib borgan.

Surxon vohasida ham xalq og'zaki ijodiyotida dostonchilik, qolaversa, baxshichilik o'ziga xos tarzda rivojlanib kelmoqda. Vohada uchta Sherobod, Beshqo'ton va Kofrun dostonchilik maktablari bo'lib, bu maktablar orasida Sherobod dostonchilik maktabida ustoz-shogirdlik an'analari kuchli bo'lgan. Chunki, Qashqadaryo vohasining Dehqonobod, Qamashi, Ko'kbuloq hududlarida ijod qilgan baxshilar ham Sherobod dostonchilik maktabi vakillaridir. Shuningdek, Surxon vohasi baxshilari ta'sirida Tojikiston hududidagi laqay baxshilari ijodida ko'p dostonlar shakllangan.

Voha aholisi yomg'ir so'rab "Sust xotin", shamol so'rab "YO Haydar", shamolni to'xgatishni so'rab "Choy momo" yovuz ruhlarni quvishda "Alas-alas", "Kinna", "Jaxr" qo'shiqlarini ham ijro etishgan.

Voha aholisi og'zaki ijodida marsiya va yo'qlovlar ham alohida o'rin tutadi, marsiya va yo'qlovlarda marhumni sog'inish, uning yaxshi sifatlarini esga olish kabi jihatlar yetakchi sanalgan. Voha aholisi hayotida baxshichilik alohida o'ringa ega, umumo'zbek dostonchiligida Sherobod dostonchilik maktabining alohida o'rni mavjud. Sherobod dostonchilik maktabi ta'sir kuchi va tarqalish doirasi bilan o'zbek folklorshunosligida muhim o'rin tutadi. Sherobod dostonchiligi maktabining asoschisi Sherna baxshi (Shernazar Beknazar o'g'li) sanaladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Sherna baxshi, Umir baxshi, Xoliyor baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Qora baxshi, Mamarayim baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li, Boymurod baxshilar ana shu maktab tevaragida birlashib ijod qilishgan. Sherobod dostonchilik maktabi Surxon vohasi, janubiy Tojikiston, janubiy-sharqiy Turkmaniston va Shimoliy Afg'oniston hududlarini qamrab olgan. Sherobod dostonchilik maktabi qo'yidagi belgilari bilan ajralib turadi:

1. Do'mbira sozligini aniqlash uchun bir necha kuy ijro etish
2. Bitta yoki ikkita terma kuylash

3. “Nima aytay” termasi orqali ayrim dostonlardan parchalar aytish

Sherobod dostonchilik maktabiga birlashgan baxshi shoirlar: “Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Kuntug’mush”, “Hasanxon”, “Avazxon”, “Nurali”, “Yunus pari”, “Misqol pari” kabi dostonlarni alohida mahorat bilan ijro etishgan. Sherobod dostonchilik maktabi vakillari repertuaridagi “Oltin qovoq”, “Malla savdogar”, “Ollanazar”, “Olchinbek”, “Toshbosar”, “Xurso’na” dostonlari boshqa joylardagi baxshilar repertuarida uchramaydi. Sherobodda Qosimko’r nomli mashxur dostonchi yashab o’tgan bo’lib, Sherobod dostonchilik maktabining yirik vakili Sherna (Shernazar) Berdinazar o’g’li shu kishining shogirdi bo’lgan. Shuningdek, shu davrda yashab o’tgan Xolmurod Qosim o’g’li, Alim yuzboshi kabi baxshilarning ham ustozidir.

Sherobod baxshichilik maktabiga Surxondaryo viloyatidagi: Sherobod, Boysun, Jarqo’rg’on va Denov tumanlari, Qashqadaryo viloyatidagi G’uzor, Dehqonobod tumanlari, Turkmanistonning Chorshangi tumani, Tojikistonning Qabadiyon va Shartuz tumanlarida yashab ijod etgan baxshilar, asosan, Sherobod baxshichilik maktabi ijodiy mahsulidir. Bular Shernazar Berdinazar xalqda Sherna baxshi nomi bilan tanilgan, u Qosimko’r baxshidan ta’lim olgan bo’lsa, Qosimko’r o’z navbatida Bobo baxshi shoirning shogirdi hisoblanadi. Bobo baxshi XIX sarning birinchi yarimida yashab, ijod etgan. Shernazar baxshining shogirdlari: Mardonaqul Avliyoqul o’g’li, Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Chori yuzboshi, Normurod Shernazar o’g’li, Jo’ra Eshmirzo o’g’li, Xudoyqul Laqay, Eson Shomurod o’g’li va boshqalar. Sherobod baxshichilik maktabining asoschilaridan biri Umar shoir Safar o’g’li qariyb 20 ta doston va yuzlab termalarni yoddan aytgan. Hozirgi Sherobod- baxshichilik maktabi baxshilari Sherna baxshi, Xoliyor baxshi, Umur baxshilarning davomchilaridir[8].

Natijalar. Tursunov Ro’ziboy baxshi ham Sherobodda tug’ilgan. Sherobod qadimdan yirik madaniyat markazi, xalq og’zaki ijodiyotining rivojlangan vohasi sifatida alohida tanilgan. Xalqimizning orzu-umidlari, udumlari, urf-odatlariga, ota-onaga, qarindosh-urug’larga bo’lgan hurmati baxshilar tomonidan alohida e’zozlab aytib kelingan. Sherobodning, iste’dodli, mashhur baxshilari bilan faxrlanib kelgan, chunki baxshilar xalqning ruhan ko’nglini ko’tarib, to’y-ma’rakalarda o’z termalari bilan muntazam tarzda ishtirok etganlar. Baxshilar termalarida xalqimizning vatanparvarlik kurashi, mehnatsevarligi, oilaga, farzandga e’tibori, shuningdek, kelajakka bo’lgan orzu-umidlari aks etgan. Xalq tarixi, madaniyatini chuqur bilgan baxshi xalq dostonlarini o’rganish, uni ijro etish san’atini mukammal o’zlashtirib oldi. Uning tinimsiz olib borgan mehnatining samarasi natijasida 2004 yil 26 may Boysunda “Boysun bahori” ochiq festivalida nufuzli birinchi o’rinni egalladi. U Sherobod baxshichilik maktabining ustozlari yaratgan ma’naviy madaniyatni mukammal o’rganishni davom ettirib, shogirdlar tayyorlashga alohida e’tibor berdi. Baxshi Ro’ziboy Tursunov ijodiga mansub Surxon elining mehnatiga, qadriyatiga, urf-odatlariga bag’ishlangan termalari alohida ahamiyatga egadir.

Xo’shboq baxshi Mardonaqul o’g’li 1940 yil 25 dekabrda Sherobod tumanidagi Azon qishlog’ida baxshi-shoir Mardonaqul Avliyoqul o’g’li xonadonida dunyoga keldi. U bolaligidan otasi bilan har xil marosimlarda birga qatnashib, padari buzrukvorining aytgan terma, dostonlarini o’rganib, kezi kelganda otasining do’mbirasini ko’lga olib chertib, kalta kalta qo’shiq aytib yurardi. Yosh Mardonaqul qonida baxshichilik bo’lganligi sababli tezda tinglovchi-tomoshabinlar ko’ziga tashlana boshladi. Shu bilan bir qatorda u qishlog’idagi o’rta maktabda ta’lim oldi. Shundan so’ng u ma’lum muddat jamoa xo’jaligidagi maktab-ma’orif shahobchalarida mehnat qildi. Ammo baxshichilik iqtidori qalbini tinch qo’ymasdi. Nihoyat baxshichilik san’atiga bo’lgan ishtiyoq uni Toshkent Davlat Madaniy-Oqartuv texnikumiga

yetakladi. Bu san'at dargohida 1963-1966 yillari o'qib, tug'ilib o'sgan tumanining Madaniyat bo'limiga ishga keldi. Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li 1968 yili umr yo'ldoshi Oyxol bilan turmush qurib, hozirgi kunda 8 nafar farzandlarning otasi. Shu bilan bir qatorda Xo'shboq baxshi Mardonaqulov 1968-1973 yillar Termiz Davlat Pedagogika Institutining filologiya fakultetida sirtidan tahsil oldi. U 1960-1983 yillarda Sherobod tumanidagi 2,-29,-7,-4-sonli maktablarda o'qituvchi bo'lib ishlab, o'quvchilarga saboq berdi. 1987-1993 yillarda Termiz shahar Madaniyat va hordiq chiqarish bo'limi qoshidagi "Alpomish" badiiy dastasining rahbari. Ayni paytda tuman madaniyat bo'limida baxshichilik san'ati bo'yicha faoliyat olib borib o'z kasbining ustasi bo'lib yetishdi. Ot o'rnini toy bosar deganlaridek, ota-bobolari, tog'alari izidan borgan Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li baxshichilik san'atini qayta tiklashda, kelajak avlodga yetkazishda va ushbu san'atni yosh avlodga o'rgatishda jonkuyar ustoz hamdir. Hozirgi kunda Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'lining repertuarida 30 ga yaqin dostonlari mavjud bo'lib, ulardan "Zarnigor", "Suvnor", "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Suluvxon" kabi dostonlarni qo'lyozma qilib O'zbekiston fanlar Akademiyasining folklorshunoslik bulimiga topshirgan. Shuningdek, 1999 yili YUNESKO tashabbusi bilan Termiz shahrida bo'lib o'tgan "Alpomish" eposining ming yilligini nishonlanishi arafasida filologiya fanlari nomzodi, folklorshunos olim Toshtemir Turdiyev tomonidan Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li ijrosidagi "Alpomish"ning Surxondaryo variantini yozib olib, 10000 nusxada chop ettirdi, shundan so'ng, yana qayta 1000 nusxada nashr ettirildi. 2009 yili "Ko'ngling o'zga bo'lmasin" nazmiy hikoyalar to'plami 2000 nusxada "Nasaf" nashriyotida chop etildi, 2019 yil kitobi "Noshrlilik yog'dusi" nashriyotida 800 nusxada chop etildi. Shuning bilan bir qatorda baxshi o'zbek xalq maqollari, o'zbek xalq ertaklari, Hazrat Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlariga sharhi kitoblarini ham tayyorlab nashrga berdi. Xo'shboq baxshi 92 bobdan iborat o'zbek urug'lari, "Qung'irot shajarasiga sharhlar" nomli kitobini yozib, O'zbekiston Musulmonlari diniy idorasiga topshirdi. Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'lining baxshichilik san'atini rivojlantirishda, keng targ'ib etishda, ushbu san'at sirlarini yosh avlodga o'rgatishda va kelajak avlodlarga meros qoldirish borasida olib borgan sermahsul ijod faoliyatiga yuksak e'tibor qaralilib, hukumatimiz tomonidan 2013 yil "O'zbekiston xalq baxshisi" degan unvon bilan taqdirlandi. Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li o'zbek baxshichilik san'atining an'anaviy ustozshogirdlik maktabi davomchisi hamdir. U o'zining bobosi Sherna shoir va otasi Mardonaqul baxshilar ijrolarini o'rganib, ularning yo'lidan borib baxshichilik san'atida o'z o'rnini topdi. Bugungi kunda Surxondaryo va Qashqadaryo vohasida jo'shib ijod qilayotgan ko'plab baxshilarning ustozlari hamdir. Ayniqsa O'zbekiston Xalq baxshilari Boboraim baxshi Mamatmurodov (marhum), Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar baxshi Poyonov, Shodmon baxshi Xo'jamberdiyev, Safar baxshi Shaydilov, "Do'stlik" ordeni sohibasi Zulxumor baxshi Shernazarova, "Shuhrat" medali sohibi Muhammad baxshi Eshboyev, shuningdek Omondavlat baxshi Shernazarov, Panji baxshi Tojiyev kabi ko'plab shogirdlari bugungi kunda jo'shqin ijodlari bilan el-yurt nazariga tushmoqda. Xo'shboq baxshi shogirdlarining bugungi kundagi yutuqlaridan mag'rurlanib yuradi. Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li — piru badavlat inson. Yoshi saksonga yetsa ham, o'zi istiqomat qilayotgan tuman, viloyat, hatto Respublika hududlaridagi yosh baxshilarga o'zining samimiy maslahatlarini hamda baxshichilik ijodining sirlarini, nazariy bilimlarini va do'mbira chalish mahoratini o'rgatib kelgan[9].

Xulosa. Xalqimizning milliy o'zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida

tan olingan baxshichilik san'ati xalqimizning ijodiy tafakkurining namunasi sifatida shakllangan.

Baxshichilik san'ati o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadim san'atlaridan biri bo'lib, ushbu san'at turi yorqin namunasi sanalgan "Alpomish" dostoni o'zining qadimiyligi bilan Qadimgi Mesopatamiyada yaratilgan "Gilgamesh", Qadimgi Hindistonda yaratilgan "Mahabhorat", "Ramayana" hamda Qadimgi Yunonistondagi "Iliada" va "Odesseya" dostonlari bilan bahslasha oladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Чистов К.В. Фольклор и этнография. "Сов.Этногр.". – Москва, 1968, №5.
2. Решетов А.М. Об использования данных фольклора для изучения ранних форм семейно-брачных отношений. – Ленинград: «Наука». 1970.
3. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1973.
4. Ўзбек фольклорларининг эпик жанрлари. - Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 7-китоб, – Тошкент: "Фан", 1981.
5. Муродов М. Сарчашмадан томчилар. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1984.
6. Қаҳҳоров А. Янги дostonлар. – Тошкент: "Фан", 1985.
7. Tursunov Saypulla Narzullaevich Axmedova Gulchexra O'skinovna Milliy xalq og'zaki ijodida baxshichilik sanatining yuksalishi Toshkent tafakkur. 2021.
8. Tursunov S. va boshq. Surxondaryo – etnografik makon. –Toshkent: Akadernashr, 2012.
9. Tursunov Saypulla Narzullaevich Axmedova Gulchexra O'skinovna Milliy xalq og'zaki ijodida baxshichilik sanatining yuksalishi Toshkent tafakkur. 2021.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

STRENGTHENING OF INVESTMENT, LEGAL AND SCIENTIFIC COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF AUSTRIA

Abdurakhimov Husniddin

Navoi Innovation University, Teacher and Doctoral student

E-Mail abduraximovhusniddin1997@gmail.com

Abstract. The Republic of Uzbekistan pursues an open, mutually beneficial, and constructive foreign policy based on its national interests. The country's contemporary foreign policy course is shaped by rapidly changing global and regional conditions, as well as by extensive internal changes. Since gaining independence, Uzbekistan has been actively and wisely addressing pressing socio-economic issues through foreign policy, international cooperation, and by reliance on the experiences of the world's developed countries. The article focuses on relations with the Republic of Austria, one of Europe's most developed countries and among the top ten in global development indicators. It highlights the establishment and consistent continuation of cooperation with Austria since 2017. The impact of investment cooperation on Uzbekistan's economic stabilization, the effective use of Austria's "green technologies" for achieving economic growth while preserving a clean ecological environment, and the influence of inter-parliamentary experience exchanges on legislative changes in Uzbekistan are analyzed. The article also examines the positive achievements of Austria's education system and discusses their relevance to the development of Uzbekistan's education sector.

Keywords: investment, forum, joint ventures, parliament, "green technology", archaeologist, export.

O'ZBEKISTON VA AVSTRIYA RESPUBLIKASI O'RTASIDA INVESTITSYAVIY, HUQUQIY HAMDA ILM-FAN SOHASIDA HAMKORLIKNING MUSTAHKAMLANISHI

Abduraximov Husniddin

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi hamda tayanch doktoranti

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamlil o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi. Mustaqillikni qo'lga kiritgach mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy dolzarb muammolar faol va oqilona tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasiga tayanish orqali o'zining ijobiy yechimini topib kelmoqda. Maqolada Yevropaning eng taraqqiy etgan mamlakati, dunyoda rivojlanish ko'rsatkichlarida eng yuqori o'nlikda turuvchi Avstriya Respublikasi bilan munosabatlarga to'xtalib o'tiladi. Avstriya Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi hamda 2017-yildan izchil tarzda davom etayotgani yoritib beriladi. Investitsion hamkorlikning mamlakatimiz iqtisodiy barqarorlashuviga ta'siri, toza ekologik muhitni saqlab qolgan holda iqtisodiy rivojlanishga erishishda Avstriya "yashil texnologiyalari" dan samarali foydalanish, parlamentlararo tajriba almashish natijasida qonunchiligimizga kiritilgan o'zgarishlarning jamiyatimizga ta'siri tahlil qilinadi. Ilm-fan, ta'lim sohasida Avstriya ta'lim tizimidagi ijobiy yutuqlar tahlil etilib, mamlakatimiz ta'lim sohasida ularni qo'llashning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, forum, qo'shma korxonalar, parlament, "yashil texnologiya", arxeolog, eksport.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N23>

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish va tobora chuqurlashtirish alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda o‘tkazilgan islohotlarga bo‘lgan yondashuv jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib, e‘tirof etilmoqda. Avstriya bilan hamkorlik munosabatlari tarixiga I.T. Olimova alohida to‘xtalib o‘tgan[1;49]. Mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘p qirrali tizimini shakllantirishdir. Shu maqsadda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq Avstriya Respublikasi bilan mustahkam do‘stlik aloqalari o‘rnatilib, bugungi kunda yanada faol tarzda davom etib kelmoqda. Avstriya O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yil 15-yanvarda tan olgan va 1992-yil 25-martda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. Avstriya mustaqil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti [I.A.Karimov](#) rasmiy tashrif bilan borgan birinchi davlat hisoblanadi. 1994-yil boshida O‘zbekiston Vena shahrida elchixonasini ochgan. Xalqlarimiz o‘rtasida aloqalar so‘nggi yillarda yanada faollashdi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, yangi O‘zbekiston o‘zining ochiqligi va jadalligi bilan ajralib turgan izchil, samarali va konstruktiv siyosat yuritmoqda. Avstriya 2023-yilda Yevropadagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shildi va u dunyo davlatlari orasida rivojlangan o‘nlikdan joy oldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinarkan, mazkur masala yuzasidan Olimova, I. T., Kamolov, M. N., & Buriyeva, U. N., Jalilov, A. A., & Qodirova, S. Tlar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqot Avstriya va O‘zbekiston hamkorlik munosabatlariga bevosita qaratilgan. Ushbu hamkorlik yo‘lida imzolangan shartnomalar, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosi yuzasidan mas‘ul idoralarning ochiq manbalariga joylashtirilgan ma‘lumotlari hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari materiallari, bu mavzu yuzasidan e‘lon qilingan dissertatsiya va maqolalar asosida olib borilgan. Ilmiy tadqiqotni yaratish jarayonida O‘zbekistonning Avstriya Respublikasi bilan hamkorligiga tarixiy, qiyosiy tahlil, davriy taqqoslash, xolislik tamoyillari va kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Iqtisodiy-investitsiyaviy hamkorlikning mustahkamlanishi: Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida tashqi savdo aloqalarining roli ahamiyatlidir. Raqobatbardosh, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, import qilinayotgan tayyor sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish va eksport salohiyatini yuksaltirish iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi hisoblandi. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. “O‘zbekiston bugungi kunda 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega. Tashqi savdo aylanmasi 1991-yildagi 2,1 mlrd. dollardan 2023-yilda 62,6 mlrd. dollar hajmiga yetdi” [2;142]. Bu borada mamlakatimiz Avstriya Respublikasi bilan 30 yildan buyon ishonchli va mas‘uliyatli hamkor sifatida aloqalarni muntazam rivojlantirib kelmoqda. Avstriya Respublikasi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, sog‘liqni saqlash sohalarida mamlakatimizning yaqin hamkoridir. 2017-yil 7-fevralda 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Investitsiya – har qanday mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, taraqqiyotni

ta'minlovchi muhim kapital. Chunki iqtisodiy taraqqiyot bevosita ana shu sarmoya oqimiga bog'liq. U esa hech qachon o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Buning uchun zarur muhitni yaxshilash, huquqiy bazani mustahkamlash, investorlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar zarur. Dunyoga ochilgan O'zbekiston allaqachon bu borada zarur islohotlarni boshlab yuborgan. Toshkentda har yilda muntazam o'tkazilib kelinayotgan investitsiya forumi fikrimizning dalili bo'la oladi. 2021-yil noyabrda poytaxtimizda O'zbekiston – Avstriya biznes forumi bo'lib o'tdi. Unda Avstriyaning 30 mingdan ortiq kompaniyalari ishtirok etdi. Forumda mamlakatimizning ishlab chiqarish va investitsiya salohiyati, xorijlik investorlarga yaratilgan sharoitlar haqida ma'lumot berildi. 2021-yilga kelib mamlakatlarimiz o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 2017-yildagiga nisbatan 40% ga oshib, qo'shma korxonalar soni ancha ko'paygan. Forumda Avstriya tomonlari energetika, kimyo, neft-gaz kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirishga qiziqish bildirdilar. Avstriya delegatsiyasi O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida ham bo'lib muassasa faoliyati, bu yerdagi noyob qo'lyozmalar bilan tanishdilar. “Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Avstriya Respublikasi Yevropa va tashqi ishlar federal vazirligi o'rtasida 2022-2023-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi”[3;].

“Angren” maxsus industrial zonasida shakar zavodi qurish, ishlatilgan avtomobil moylarini qayta ishlash, keramik plitalar tayyorlash, terini qayta ishlash va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. “Bu loyihalar Avstriya, Hindiston hamda Bolgariyaning yetakchi kompaniyalari o'rtasidan tanlab olingan investorlar ko'magida hayotga tatbiq etilmoqda”[4;18].

Xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari va eksport salohiyatining kuchayishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. “Made in Uzbekistan” brendi asosida ishlab chiqarilgan sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dunyo bozorida o'rni va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Chunki so'nggi yillarda mamlakatimizda jahon bozoriga chiqish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan chuqur sa'y-harakatlar olib borildi. 2022-yil iyun oyida Avstriyaning Vena shahrida O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining birinchi ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Venada O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari ilk bor namoyish etildi. Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad shuki, O'zbekistonning agrar, eksport va sayyohlik salohiyatini namoyon etish, avstriyalik tadbirkorlarni “Made in Uzbekistan” brendi bilan tanishtirish. “Ko'rgazmada Avstriya bozori uchun yangi bo'lgan mahalliy mahsulotlar —holva (Farg'ona), bio-qurt (turli xili), lakritsa (qizilmiya ildizi) va mahalliy uzum navlaridan vinolar namoyish etildi. O'zbekistonda yetishtirilgan mahsulotlar taqdimoti doirasida o'zbek qovunining Yevropa bozorida tobora ommalashib borayotgani alohida qayd etildi”[5:240,241].

2023-yil 4-dekabrda Vena shahrida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Avstriya hukumatlararo komissiyasining 8-yig'ilishi va biznes-forum bo'lib o'tdi. “Tadbirda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari, umummavsumiy turizmni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalarni joriy qilish, muqobil energetika, tog'-kon sanoati, infratuzilma va temir yo'llarni modernizatsiya qilish, tibbiy asbob-uskunalarni yetkazib berish sohasida, chorvachilikni rivojlantirish va boshqa yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi. Avstriya tomoni mazkur sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 20 dan ortiq takliflarni taqdim etdi”[6;1].

Avstriya Tashqi Ishlar vaziri Aleksandr Shallenberg so'nggi yillarda o'zaro hurmat va do'stlikka asoslangan O'zbekiston-Avstriya munosabatlari ijobiy sur'at namoyon etib

borayotganini ta'kidlab, O'zbekiston hukumatiga maktubida shunday ta'kidlaydi — “Avstriya ishbilarmon doiralari O'zbekistonni mintaqadagi, ayniqsa, infratuzilmani rivojlantirish va” yashil iqtisodiyotga” o'tish nuqtayi nazaridan eng istiqbolli bozorlardan biri deb biladi”. BMT ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi ko'p jihatdan atrof-muhit holatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyoti atrof-muhitni qurbon qilish evaziga bo'lmasligi kerak. Bugungi global dunyoda ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni maqsad qilgan O'zbekiston hukumati “yashil texnologiyalar” sohasida Avstriya bilan yaqindan hamkorlik munosabatlari o'rnatgan. 2022-yil 20-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 77-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Vladimir Norovning Avstriya Respublikasi Yevropa va tashqi ishlar vaziri Aleksandr Shallenberg bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. “Davlatlararo hamkorlikda so'nggi yillarda ijobiy dinamika kuzatilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Aloqalarni ikki tomonlama asosda hamda “O'zbekiston–Avstriya–Yevropa Ittifoqi ”formatida jadallashtirish ta'kidlandi. O'zbekiston iqtisodiyotining gidroenergetika, yashil texnologiyalar, qishloq xo'jaligi va qurilish sanoati kabi tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri Avstriya investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatlari mavjudligi qayd etildi”[7]. Bir so'z bilan aytganda yashil texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlari va ta'minot zanjirlari ekologik toza yoki an'anaviy ishlab chiqarish usullariga nisbatan kamroq zararli bo'lgan texnologiyalardir. Bularga chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasining muqobil manbalaridan foydalanish, suvni biologik tozalash, gidroenergetika, quyosh energiyasi kabi texnologiyalarini misol keltirishimiz mumkin. Bu borada Avstriya tajribasi va yordami orqali O'zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotni yaratishda tub o'zgarishlarni amalga oshirmoqda.

2021-yil 8-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri A.Komilov Avstriya Respublikasi Yevropa va tashqi ishlar vaziri M.Linxard boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi. Muloqotda so'ngi yillarda O'zbekiston bilan Avstriya o'rtasidagi konstruktiv hamkorlik yangi bosqichga chiqqani qayd etildi. Tomonlar Afg'onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat, uning mintaqaviy va xalqaro barqarorlikka ta'siri yuzasidan fikr almashdilar. “Afg'onistondan fuqarolarni evakuatsiya qilishda berilgan ko'mak uchun O'zbekistonga minnatdorchilik bildiramiz” – deydi M.Linxard [8;4]. 2021-yil avgustda Afg'onistonda hukumat “Tolibon” ixtiyoriga o'tgach O'zbekiston orqali Afg'onistondan qariyb 2000 chet el fuqarolari evakuatsiya qilindi. Avstriya, Germaniya, Rossiya, Shveysariya kabi davlatlar bilan aeroport infratuzilmasidan foydalanish xizmatlarini taqdim etish, havo makoni orqali uchishga ruxsat berish, aeroportga uchib kelish, qo'nish, zarur texnik va logistika yordamini ko'rsatish bo'yicha birgalikda sa'y-harakatlar amalga oshirildi. ***Afg'oniston masalasi O'zbekiston rahbariyatining mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha umumiy strategiyasining ajralmas bo'lagi hisoblanadi.*** O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga ko'mak berishda tinchliksevar loyihalarni amalga oshirishi Avstriya hukumati tomonidan e'tirof etildi. Chunki qo'shni davlat Afg'onistonda tinchlik o'rnatilmas ekan Markaziy Osiyo davlatlarining jahon hamjamiyatiga kirib borishida, iqtisodiy, investitsiyaviy, turizm sohalarida xalqaro hamkorlikni keng qamrovda davom ettirishida ma'lum to'siqlar kuzatiladi. Shveysariya Federal tashqi ishlar departamenti rasmiy web sahifasida “O'zbekistonga turizm sayohatlari uchun maslahatlar” bo'limida Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarda xavfsizlik nuqtayi nazaridan sayohatlar uyushtirishda ehtiyotkorona harakat qilish tavsiya etiladi” [9]. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi turizm

salohiyatining qisman cheklanishiga olib keldi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi prezidentlari BMT bosh assambleyasining umumiy yig'ilishlarida "Afg'onistondagi muammo bu nafaqat mintaqaviy muammo, balki bu global muammo ekanligini bot-bot ta'kidlaydilar"[10;69]. Avstriya Respublikasi ushbu global muammoni tinch yo'l bilan hal qilish, bu borada mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda asosiy hamkor sheriklarimizdan hisoblanadi. Bu islohotlar samarasida mintaqada investitsiyaviy va turizm muhiti ancha yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Federal iqtisodiyot palatasi vitse-prezidenti Filipp Gadingning aytishicha, so'nggi yillarda Avstriyaning turizm sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalari hamda ishbilarmon doira vakillari O'zbekiston bilan hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratmoqda.

Ilm-fan, ta'lim sohasida hamkorlik: Ta'lim sohasi har bir mamlakat taraqqiyotini belgilaydigan, jamiyatning moddiy va madaniy muhitini yuksaltiradigan asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mamlakatimiz **ta'lim sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirib, dunyo rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganmoqda.** Ushbu dastur va loyihalar davlatda ta'lim sohasini rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv-metodik jarayonni takomillashtirish, professor -o'qituvchilarning malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirishga yo'naltirilgan. Mamlakatimiz ta'lim sohasida dolzarb islohotlar o'tkazilayotgan paytda rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganish, zamonaviy texnologiyalar va samarali metodlarni tadbiq etish ustuvor vazifa etib belgilandi. Germaniya, Avstriya, Shveysariya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotini rivojlantirishda juda katta o'ringa ega bo'lgan Dual ta'lim shakli mamlakatimiz ta'lim sohasida joriy etildi. "An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxon va tashkilotlarda o'taydi. Dual ta'limda yoshlar haftada 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxon va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxon va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxon tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to'lanadi" [11;73]. Bu tajriba asosida qabul qilingan prezident qaroriga ko'ra: 2022/2023-o'quv yilidan boshlab kunduzgi ta'lim shaklidagi 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlar "4+2", jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib boriladi[12]. Mamlakatlarimiz universitet va ilmiy yo'nalishlarda ham aloqalar o'rnatildi. 2018-yildan beri Krems amaliy fanlar universiteti va Toshkent iqtisodiyot va biznes universiteti yoki Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Zalsburg universiteti o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Mustaqillik yillarida Fanlar Akademiyasi olimlari xorijiy hamkasblari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida dunyoning yetakchi ilmiy markazlariga muntazam tashrif buyurish imkoniga ega bo'ldilar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston fanini dunyoga tanitish, fanning xalqaro integratsiya jarayoni hamda o'zbek olimlarining fandagi yutuqlarini mamlakat rivoji jarayonida amalda qo'llashdir. Avstriya Respublikasi ilmiy sohada mamlakatimizning eng yaqin hamkorlaridan hisoblanadi. "Fanlar akademiyasining 1991-2021-yillar davomida jahonning 94 ta davlati bilan o'zaro ilmiy hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Mazkur davlatlar Yer kurrasining barcha qit'alarini o'zida qamrab olgan. Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari eng ko'p tashrif buyurgan xorijiy hamkorlar orasida Avstriya Respublikasining o'rni alohida. Bu mamlakatga 174 nafar ilmiy xodim tashrif buyurgan va ilmiy hamkorlikdan

unumli foydalanganlar. Ayni paytda O‘zbekistonga Avstriya xodimlari ilmiy stajirovka bilan kelganlar” [13;223].

Samarqand, Buxoro va Xiva kabi mashhur shaharlari bilan O‘zbekiston butun dunyodan tashrif buyuruvchilarni o‘ziga tortadigan tarixiy Ipak yo‘lining yuragi hisoblanadi. Avstriyalik arxeologlar O‘zbekistonga qayta-qayta tashrif buyurishadi. Shuningdek, nemisshunoslik, huquq, tarix va musiqa fanlari bo‘yicha avstriyalik mutaxassislar bir qancha loyihalarni O‘zbekiston hukumati bilan birgalikda amalga oshirib kelishmoqda. “Loyihalardan birida o‘sha paytdagi Turkiston hududiga to‘liq ixtiyoriy ravishda kelmagan avstriyaliklar, ya‘ni Birinchi jahon urushi yillarida asirga olingan Avstriya-Vengriya imperiyasining minglab askarlari, xususan, yo‘l qurilishida o‘z izlarini qoldirgan asirlar tarixi o‘rganilgan” [14;43]. 1914-yil avgustning oxiri sentabrning boshida Rossiyaning Harbiy va Ichki ishlar vazirliklari Turkiston ma‘muriyati bilan birgalikda Avstro-Vengriya armiyasiga mansub harbiy asirlarni Toshkent, Samarqand, Skobelev, Ashxobod, Qo‘qon, Andijonda joylashtirish va asirlar tarafidan bajariladigan ishlarning hajmi, turlari rejalashtirilgan edi [15;55]. Hozirgi O‘zbekiston hududiga ko‘chirilgan avstriyaliklar bilan bir asrdan ko‘proq xalqlarimiz o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, ishonchga asoslangan munosabatlar tarixi xususida Avstriya ilmiy mutaxassislari tomonidan tadqiqotlar olib borildi. Bu ilmiy hamkorliklar mamlakatlarimiz ilmiy salohiyatining oshishida ijobiy rol o‘ynadi.

Madaniy hamkorlik: Madaniy hamkorlik ikki davlat o‘rtasida do‘stlik rishtalari va o‘zaro yaqinlikni mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shadi. Madaniyat sohasidagi munosabatlarni yaxshilash davlatda madaniy boyliklarni targ‘ib qilish, san‘atning barcha turlari bo‘yicha tajriba almashish, bu orqali mamlakat madaniy taraqqiyotini yanada yuksaltirish imkonini beradi. 2022-yilda Yevropaning mashhur madaniyat shahri hisoblangan Venada Avstriya-O‘zbekiston hamkorlik munosabatlariga asos solinishining 30 yilligi munosabati bilan konferensiya uyushtirildi. O‘zbekistonlik diplomatlar yig‘ilganlarga so‘nggi yillarda O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va jadal demokratik islohotlar, jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilgan Yangi O‘zbekistonning bugungi kundagi yutuqlari haqida ma‘lumot berdi. Shuningdek, O‘zbekiston va Avstriya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama munosabatlarning bugungi holati, erishilgan natijalar tahlil qilindi. Siyosat, savdo-iqtisodiy, madaniyat va gumanitar sohalaridagi hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratildi. Konferensiya tadbirida har ikki mamlakat madaniy jabhalariga nazar tashlandi. Xususan, opera san‘atkorlarimiz tomonidan sahnalashtirilgan Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi”, Tolibjon Sodiqovning “Layli va Majnun” va Aleksey Kozlovskiyning “Ulug‘bek”, Muxtor Ashrafining “Dilorom” spektakllari tomoshabinlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Nemis ijod ahlidan, Juzeppe Verdining “La Traviata”, Wolfgang Amadey Motsartning “Figaroning uylanishi” kabi komediya janridagi sahna asarlari namoyish etildi. Bu konferensiya o‘zbek va nemis xalqlarining qadimdan shakllanib kelgan madaniy ildizlari bugun ham ikki xalq o‘rtasida hamkorlik, tajriba almashish orqali yanada taraqqiy etishini ko‘rsatdi. 2022-yil 25-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov va Avstriya Respublikasining Yevropa va tashqi ishlar federal vaziri Aleksandr Shallenberg ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi munosabati bilan o‘zaro tabrik almashdilar. *“Biz Avstriya bilan ochiq va konstruktiv muloqotni davom ettirishdan, siyosiy,*

parlamentlararo, iqtisodiy va ta'lim sohalarida hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz, – dedi O'zbekiston TIV Abdulaziz Komilov.

Huquqiy sohada tajriba almashish dasturlari: Bugungi globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarida, barqaror taraqqiyot yo'lida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yimoqdalar. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon qonunchilik sohasida ham doimiy yangilanish, o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Shu maqsadda "Oliy Majlis Qonunchilik palatasi boshqa davlatlarning parlamentlari va xalqaro parlament tashkilotlari bilan hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzishi, rasmiy parlament delegatsiyalari almashishi, shuningdek xalqaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan turli tadbirlar o'tkazishi mumkin" [16]. Bu borada Avstriya Parlamenti O'zbekistonning yaqin hamkor mamlakatlaridan hisoblanadi. 2024-yil aprel oyida O'zbekiston parlamenti (Oliy Majlisi) Quyi palatasi raisining o'rinbosari Alisher Qodirov boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi Avstriya parlamentiga tashrif buyurdi. Delegatsiya a'zolari Milliy kengashning tashqi siyosat qo'mitasi vakillari bilan uchrashdi. "Markaziy Osiyo va Yevropada o'ziga xos mavqega ega bo'lgan O'zbekiston va Avstriya parlamentlari orasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqchimiz. Iqtisodiyot, energetika, ta'lim va turizm sohalarida aloqalarimizni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar belgiladik" – dedi Alisher Qodirov[17]. Mamlakatlarimiz parlamentlararo munosabatlari tarixiga e'tibor qaratsak "O'zbekiston parlamenti 1- va 2- qonunchilik davrida (1995-2004) 123 dan ortiq xalqaro shartnoma va hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Ulardan eng muhimlari: "Xalqaro shartnomalar huquqlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi hisoblanadi"[18;109]. Parlamentlarimiz o'rtasida bir necha bor tajriba almashish Avstriya ijtimoiy hayotida o'z samarasini bergan bir qancha qonunchilik loyihalari andozasining mamlakatimizda tatbiq etilishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko'p jihatdan qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zlari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Huquq-tartibot organlarining aholi bilan muloqoti hamda qonunlarga rioya etishda mamlakat fuqarolarining huquq tartibot organlariga yaqindan ko'mak berishi huquqni muhofaza etish organlarining o'z faoliyat vazifalarini samarali bajarish, huquqiy tartibotni ta'minlash, jinoyatlarni oldini olish va boshqa funksional vazifalarini bajarishga ko'maklashadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib Avstriya huquq-tartibot organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida korporativ hamkorlik to'g'risida qonun hujjatlari o'rganildi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bu tajribalar joriy etildi. "Avstriya va Daniya qonunchiligida "politsiyaning do'stlari" nomli klublar shoxobchasi ancha keng tarqalgan. Munitsipal darajada politsiya bilan hamkorlik Kengashlari faoliyat yuritadi. Ular uch tomonlama shartnomalar, ya'ni politsiya idorasi, mahalliy ma'muriyat va aholi o'rtasida turar joylardagi jamoatchilik tuzilmalari o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida faoliyat olib boradi" [19;31]. Avstriyaning ushbu qonunchilik tajribasi asosida qabul qilingan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuniga ko'ra ijtimoiy sheriklik quyidagi sohalarida amalga oshirilishi mumkin. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish; atrof muhitni, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish; aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash; tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va

saqlash; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish;”[20]. Ushbu qonun qabul qilinishi natijasida aholi o'zi istiqomat qiladigan hududda doimiy kuzatuv olib boradi hamda sodir bo'layotgan shubhali holatlar yuzasidan Ichki ishlar organlariga ma'lumot berib turadi, fuqarolar nazorat olib borish jarayonida ishtirok etadi, zarurat bo'lganda tartibbuzarlarni tartibga chaqirishadi. Bu jamiyatda loqaydlikni bartaraf etib, ijtimoiy mansublik hissini kuchaytiradi. Avstriya qonunchilik tajribasidan foydalanish mamlakatimiz fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyatning yanada yuksak bo'lishi, fuqarolarda o'zlari yashab turgan hududlarining xavfsizligi, toza ekologik muhiti uchun harakat qilish imkoniyatini yaratib berdi.

“2024-yil fevral oyida O'zbekistonning yuqori darajadagi delegatsiyasi Vena shahriga tashrif buyurdi va u yerda Federal jinoyat politsiyasi boshqarmasi vakillari bilan birgalikda giyohvand moddalar jinoyatchiligiga qarshi kurashish strategiyasi muhokama qilindi”[21]. Ushbu muhokamalar natijalari 2024-yil may oyida qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya”ga kiritildi. Bu qonunlar fuqarolik jamiyatida demokratiya tamoyillarining namoyon bo'lishi, jamoatchilik manfaatlarini hisobga olgan qonunlarning yaratilishi uchun asos bo'ladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotga ko'ra O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlangan Avstriya Respublikasi bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanishi oqibatida eksport, import, investitsiya, turizm sohaslarining barqaror rivojlanishiga olib keldi. Avstriyalik kompaniyalarning O'zbekiston bilan hamkorlik qilishga qiziqishi yuqoriligi va mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoqlarida istiqbolli qo'shma loyihalarga sarmoyalarni ko'paytirishga tayyor ekanligi kuzatildi. 2022-yil Vena shahrida bo'lib o'tgan ko'rgazma O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarining dunyo bozorlariga olib chiqilishida, mamlakatimizdagi noyob mahsulotlarga jahon bozorida talabning kuchayishida katta ahamiyat kasb etdi. Rivojlangan Yevropa davlatlari bilan bunday muhim ahamiyatga ega ikki va ko'p tomonlama shartnoma va kelishuvlarga erishilganligi O'zbekistonda olib borilayotgan tinchlikparvar, pragmatik va faol diplomatiyaning mahsulidir. Hamkorlikda amalga oshirilgan ilmiy loyihalar O'zbekiston ilm-fani oldida turgan dolzarb muammolar yechimida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Avstriya qonunchilik namunasida “4+2” dasturining joriy etilishi talabalarda ham nazariy ham amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkonini berdi. Bu esa ta'lim mamlakatimiz tizimidagi azaliy muammo – nazariy jihat bilangina talabani cheklab qo'yishning kichik yechimi bo'lib kirdi. Ikki davlat o'rtasida parlamentlararo hamkorlik mamlakatimiz qonunchilik jarayonlarining zamon bilan hamnafas rivojlanishi uchun ham o'z samarasini berib kelmoqda. Bu qonunlar fuqarolarimizda huquqiy madaniyatning yuksalishi va davlat boshqaruvida daxldorlik his qila olishda muhim ahamiyatga ega.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Olimova, I. T. (2024). O'ZBEKISTONNING YEVROPADA MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 6(3), 45-51.
2. Farxod o'g'li, P. L. (2024). O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSINING TARKIBI VA IQTISODIY HAMKORLIK YO 'NALISHLARI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(2), 140-149.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligi rasmiy web sayti <https://mfa.uz> ma'lumotidan. 08.11.2021. Avstriya Tashqi ishlar vaziri bilan uchrashuv to'g'risida

4. Kamolov, M. N., & Buriyeva, U. N. (2022). SPECIAL INDUSTRIAL ZONES OPERATING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR SIGNIFICANCE TODAY. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(01), 15-23.
5. Turayeva, G., Ortiqboyeva, S., Qo'ziyev, I., Rasulov, A., Tojiboyeva, T., Turdibekov, U. B., ... & Yangiboyeva, M. (2022). MADE IN UZBEKISTAN BRENDI BILAN SOTILAYOTGAN EKSPORT MAXSULOTLARINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 1(28), 240-243.
6. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2023-yil 4-dekabr soni. "Avstriya bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik chegaralari kengaytiriladi" maqolasi.
7. <https://mfa.uz/> 21.09.2022
8. Xalq so'zi gazetasi 2021-yil 9-noyabr "Avstriya bilan hamkorlik kengayadi" №239(8019)
9. Shveysariya Federal tashqi ishlar departamentining rasmiy web sahifasi <https://www.eda.admin.ch>
10. Abdumannonovich, N. M., Obidjonovich, E. U., Azamovich, M. A., & Azimjonovich, R. I. (2022). Afg'onistondagi siyosiy vaziyatni izga solishdagi o'zbekistonning sayxarakatlari. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 69-74.
11. Jalilov, A. A., & Qodirova, S. T. (2024). DUAL TA'LIM NIMA? DUAL TA'LIM HAQIDA TUSHUNCHA. *Uzbek Scholar Journal*, 26, 73-75.
12. 12.PQ – 22.06.2022." Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"
13. FAYZIYEVICH, I. A. (2024). INTERNATIONAL SCIENTIFIC RELATIONS OF THE ACADEMY OF SCIENCES OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (1991-2021). *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 4(1), 216-227.
14. Diss. Файзиева Ф. Бухоро амирлигида рус манзилгоҳларидаги ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаёт (1868-1920 йй.)- Вухоро-2022
15. Гоффоров Ш. Тарих ва тақдир Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар – Тошкент. Узбекистан Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашрнети -2006
16. 34-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 18 apreldagi O'RQ-476-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
17. 17.Milliy tiklanish demokratik partiyasi rasmiy web sahifasi. <http://www-milliytiklanish.uz>
18. Diss. Khurshidbek Inomjonov. "Die Außenpolitik der Republik Usbekistan im Spannungsfeld von Staatsbildung und regionaler Integration" "T" – 2005
19. (Umurzakov, D. (2024). ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH: XORIJ TAJRIBASI. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(3 Part 2), 30-38.
20. <https://lex.uz> "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni"
21. Avstriyaning O'zbekiston elchixonasi rasmiy web sahifasi <https://www.bmeia.gv.at/> ma'lumotlaridan.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

TOPONYMICS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN ARE CONNECTED WITH NATURE AND SPECIFIC TO THE CUSTOMS CHARACTERISTICS

Turopova Mohidil Turdiyevna

Termiz State University, Senior teacher of the "World History" department, Ph.D.

Abstract. Information is given about the southern borders of Uzbekistan, geographical location, location, essence, change, development, and today's progress, as well as today's news, customs, and information.

Key words: Muzrabot, Dashti Arzinak, Marzbon, Karakamar, Baldir, Ushman, Tuzkon, Kirqkal, Kirqqiz, Kara tepa-Kurgan, Ulanbulok, Qorluq gor, Tashkent Burdogi.

O'ZBEKISTON JUNUBIY HUDUDLARI TOPONIMIKASINING TABIAT BILAN BOG'LIQLIGI VA URF-ODATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turopova Mohidil Turdiyevna

Termiz davlat universiteti, "Jahon tarixi" kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.b.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning janubidagi chegara hududning geografik joylashuvi, joylarinig nomlanish mazmun-mohiyati, o'zgarishi, rivojlanishi, va bugungi kundagi taraqqiyoti hamda hozirgi kundagi nomlanishi, aholining urf-odatları, marosimları haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muzrabot, Dashti Arzinak, Marzbon, Qorakamar, Boldir, Hushmon, Tuzkon, Qirqkal, Qirqqiz, Qora tepa-Qo'rg'on, Ulanbulok, Qorluq g'or, Taskent, Burdog'uy, Kiyik maydon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N24>

Surxondaryo viloyatining nomlanishida viloyat nomining o'zi tabiat bilan bog'liqligi juda muhimdir. Shuningdek, Surxondaryo - Surxon daryo nomidan kelib chiqib "qizil daryo" ma'nosini anglatishi va siyosiy jihatidan davlatlar bilan chegarasi geografik joylashuvi, betakror tabiati katta ahamiyatga ega. Surxondaryo viloyatini Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Qashqadaryo viloyati bilan tog'lar va daryolar ajratib turadi bu ham tabiatning in'omi. Surxondaryo viloyati maydoni 20,1 ming km² bo'lib, Boysuntog', Ko'hitangtog', Bobotog'lari bilan o'ralgan bo'lib eng baland tog'i Hisor tizmasi 4643m, Surxondaryo, Sheroboddaryo, Qoratog'daryo, To'polangdaryo, Sangardakdaryo kabi daryolari bor. Darhaqiqt, Surxondaryo tumanlarini tarixini o'rganish jarayonida tabiat bilan bog'liq toponimikasi katta ahamiyatga ega. Jumladan, Angor mahalliy tilda-angara hosil yig'ib olingan dala, Anhor-kanaldan kichik suv utadigan suv o'tadigan o'zan, Angar-mo'g'ul tilida "yoriq tirqish, dara, tog' oralig'i" yoqutcha "teshik darvoza, dara", avestocha xon- "quduq", "buloq", forscha-"kanal", tojikcha-"kichik hovuz", ma'nolarini anglatadi. Bandixon-"to'siq", "g'ov", "tog' tizmasi", "tog' oralig'idagi juda katta tor yo'l", "to'g'on", "suv ombori"[1:64] kabi mazmuni bildiradi. Boysun mahalliy tilda

“Boyshin”-“boylar, zadagonlar, manzili”, qadimiy turkiy tilda boy- tana, gavda,qad-qomat”, XVI asr turkiy tilda biyik-“baland, baland joy”, oltoycha bujuk-“uzunlik”, tatar lahjalarida -“balandlik”, tuva tilida -“tog”, tofa tilida -“tepalik” ma’nolarini anglatadi.[2:76] Termiz-“G’ul’ula”- odam ko’p yashaganligi uchun shovqinli, Termad-“Uzoq, oxir”, Avestocha -“taro maetha”-varyoning narigi soholidagi manzil”, “Tarmit”, “Tarmich”-“daryo bo’yi porti”, qadimgi turk tilida “mustahkamlangan uy, qo’rg’on”, yoqutcha-Torut-“burtuq, do’nglik,tepalik” deyilgan.Sherabot eroniy tillarda sher-“tosh, tog”, rabot-istehkom”, “karvonsaroy” degan ma’noni beradi.Sariosiyo suv tegirmoni ko’p bo’lgani uchun sar-“bosh”, osiyo-“tegirmon” ya’ni “tegirmon boshi” yoki “tegirmon yuqorisidagi qishloq” .[3:173] bu suv ko’p bo’lganligi uchun dehqonchilik yaxshi bo’lgan shu sabab aholi tegirmonni ko’p qilganligini anglatadi. Muzrabot tumani har bir davrda har xil nomlar bilan nomlanib kelgan. Bir necha nomlar bilan atalishini o’ziga xos sabablari bo’lgan. Tumanning geografik joylashishiga ko’ra, Turkmaniston va Afg’oniston bilan chegaradosh bo’lib tabiati ham o’zgacha ko’rinishga ega betakror. Afg’oniston davlati va Muzrabot Amudaryo bilan, Turkmaniston tomonidan xalq tilida Ko’hitan va Qora tog’ yoki Bobo tog’ deb ataladigan tog’lar bilan chegaradosh.— Muzrabot -tumanidagi qishloq. (Xo’hman). Eroniy tillarda Buzurug-katta, ulkan, buyuk. *Buzurug rabot >buzrabot>muzravot*— katta rabot, katta qo’rg’on.[4:58]degan ma’nolarni bildirgan.Yana bir manbada boshqa ma’nolarda kelgan.Geografik jihatdan joylashuvi bo’yichaturli nomlarda aytilib kelingan. Asosiysi tarixi va xalqi qadim o’tmish tarixini bayon etadi.Darhaqiqat, Muzrabot diyori qadim tarixga ega.Qadimda bu diyorni “Dashti Arzinak” deb atashgan.[5:4]

Yoshi ulug’ bobolar-momolarning aytishicha qadimda Nuh (s.a.v.)ning kemasi o’tganligini rivoyat qiladilar. Xalqimiz ilk kamalakning chiqishi bu Allohning Nuh (s.a.v.)ga qilgan ahdida ko’rsatgan mo’jizasi ekanligini chin e’tiqod bilan aytadilar.Tog’ning kema tegib ozroq joyi kemtik bo’lib qolgan deb ta’rif beradilar.Tarixiy-arxeologik jihatdan o’rganilganda Amudaryoning o’ng sohili bilan Kampirtepa yodgorligi, Sopollitepa, Zang kanalining o’ng tomonida Xo’jamdodtepa, Kuchuktepa, Mushuktepa, Qo’rg’on, Sho’rob, ham qadimiy tarixni bayon qiladi. Turkmaniston bilan Qorakamar g’ori chegara hisoblanib qadimiy tasviriy san’at namunalari ma’lum darajada saqlanib qolgan bo’lib chegarada joylashgan hamda keyinchalik davrlar o’tishi rivojlanish va davlatlar o’rtasidagi munosobatlarning yaxshilanishi natijasida Turkmanistonga o’tish uchun tog’ni teshib temir yo’l qurilganligi sababli Teshiktog’ ham deb ataladi. Tabiat bilan nomlanadigan joylari-Chaqish nomli mashhur bozori eng qadimgi Muzrabotning iqtisodiga katta hissa qo’shgan va bu bozor xalqaro bozor bo’lib jahonga mashhur bo’lgan. Chaqish deyilishiga sabab bu o’simlik tikanning anor daraxtidek katta bo’lib o’sgan tikanlari ko’p va uchli bo’lgan.Katta hududni egallagan, uning gullarini qushlar yegan. Bozorga keluvchi va ketuvchilarni maxsus kishilar daryodan o’tishiga borib kelishiga kuzatib qo’yuvchilar bo’lgan. Ushbu bozordagi mahsulotlar juda sifatli, toza bo’lgan. Xattoki dunyo mamlakatlariga tuz va achchiqtoshning sotilishi juda ko’p xarid qilingan. Karvonlar kelib Erjahongir otada qo’nim topib mahsulotlarni harid qilganlar. Karvondagilar yana boshqa hududlarga ketmoqchi bo’lsa olgan barcha narsalarini Erjahongir otaga narxini aytib berib ketar ekanlar u kishi kimning nima narsasi sotilsa sotib pulini tayyorlab qo’yishi va hech qachon hech kimga xiyonat qilmagani uchun tahsinga loyiq bo’lgan, nafaqat karvonning mahsulotlari balki biron karvon ahli pulga muhtoj bo’lsa hojatini ham chiqargan, tanimasalarda insonlarni mushkulini oson qilgan shu sababli kelib ketuvchi karvon ahli Muzi Rabot ya’ni muz deb pulni, tangani, yoki mahsulotga almashiladigan boshqa mahsulotlarni nazarda tutgan.Rabot

deyilishiga sabab Erjahongir otaning alohida masjidi, chillaxonasi yonida katta omborxonasi bo'lganligi va shu omborxonaga karvondagilar ishonib bemalol hamma xarid qilgan yoki sotmoqchi bo'lganlarini qo'yib ketganlar. Erjahongir halol, lavzi rok, to'g'ri so'z, sadoqat, adolat ila tadbir qiladigan, hurfikr, ilmi, mehmondo'st oliyanob inson bo'lgan. Atrofi keng maydon bo'lganligi bois karvonga hech qanday noqulayliklar bo'lmagan, chunki tuyalar, otlar, eshaklar ham maydonda bexatar bo'lgan. Bu joy tabiiy iqlimi o'ziga xos xususiyati shundaki qishda maydon kenglik, adir-qir, soy, tog' yonbag'rida bo'lsada juda sovuq bo'lmagan, yozda saratonda ham salqin shabada doimiy ravishda esib turgan. Muzrabotning tabiiy geografik sharoitiga qarab tog'li va tog' oldi hududi, sug'orma erlar hududi, dasht-yaylov hududlari borligini tasniflash mumkin. Doimiy ravishda suv oqib turgan. Karvonsaroydan qo'nim topganlar xohlagan tomoniga ketish mumkin. Bu ham yana bir qulay tomonini chorrahada joylashgan. Suvi shirinligi, mo'miyosi, tabobatda ko'plab giyohlari mashhur bo'lgan. Ajdodlarimizning rivoyatlarida Erjahongir ota lavzi halol, imoni pok, to'g'ri so'z, sadoqatli, adolat ila tadbir qiladigan, hurfikr, ilmi, mehmondo'st oliyanob, mo'min inson bo'lgan. Erjahongir ota o'simliklarni yaxshi bilganligi tabobatdan xabardorligi hamda hayvonlarni ham o'rgata olganligi sababli bo'rilarining eng ko'p tarqalgan joyi Muzrabot bo'lsada bo'rilar umuman karvonga hamla qilmagan. Tog'lardan kiyiklar kelib keng soylarda yurganligi haqida ham ma'lumotlar borligi uchun Qizil tog'da "Kiyik maydon" deb nomlangan hudud bor. Bu joyda kiyiklar doimiy ravishda emin-erkin yurgan va keng katta joy bulgan. Mahalliy xalq bu hududda Navro'z bayramini nishonlaganlar. Bayramda Sumalak sayli, darvozlar, polvonlar kurash tushgan, ko'pkari bo'lgan, har xil tomoshalar, o'yinlar o'tkazilgan. Hozirgi kunda ham Kiyik maydon bor. Tarixi va rivoyati juda qiziqarli bu yurt ma'lum va mashhur bo'lganligidan nomlari ham mazmunli "Qizil tumshuq"-A.Makedonskiy davrida ham dehqonchiligi bilan dong taratganligi uchun A. Makedonskiy maxsus odamlarini shu yerda qoldirib ketgan qachonki bug'doylar pishib tayyor bo'lguncha qolishini va hosilni yig'ib olishini tayinlab qo'yib ketgan. Tuproqning rangi ham qizil bo'lgan Bu makedon xalqini rangi qizil bo'lganligi hamda ulardan boshqa bu joyga kelmaganligi, bu hudud qo'shning tumshug'iga o'xshaganligi va tog'ning yonidaligi uchun shunday nomlangan.

Pushti qora tog' ham mashhur bo'lganligi juda ko'plab giyohlar borligi va aholi bu giyohlardan doim olib shifo topgan shuningdek iste'mol qilgan.

Bu bozordan G'uzor orqali o'tib va hozirgi Samarqand tomonlarga o'tib ketishgan. Shuningdek, Muzrabotdagi Sopollitepa, Kuchuktepa, Mushuktepa, Qo'rg'on, Ho'jamdod tepa, Qorakamar, Boldir, Hushmon, Tuzkon, Qirqkal, Qirqqiz, Qora tepa-Qo'rg'on, Ulanbuloq, Qorluq g'or, Taskent Burdog'uy kabi joy nomlari bor. Sopollitepa qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi o'chog'i hisoblangan. Sopollitepa madaniyatiga oid yodgorliklarni qazish natijasida nafaqat u yerdan topilgan sopolli buyumlar, balki qal'alar, ibodatxonalar, kulolchilik mahallalari ham qazib o'rganilgan. Sopollitepa yuksak dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan va dastlabki shahar sivilizatsiyalari tarqagan o'lka. [6:10-12] Qorakamar – Turkmaniston bilan chegarada joylashgan bo'lib, tog'dagi katta kamar ichi ham katta uzoqdan qora bo'lib ko'ringan, katta toshlar qora rangda bo'lgan, sur'atlar ham bor. Boldirni- insonning oyog'idagi boldir suyagiga o'xshatgan, yana bir jihati shu erga yetganda temir yo'l qo'rilishi tugatilganligi bois "bo'ldi degin bo'ldir tezroq tugadi" degan ma'noni anglatgan. Hushmon-chorvador aholi faqat poda, katta sigir, ho'kizlarni boqqanlar doim "Xush molim", "Huv hayda molim" deb baqirib baland ovozda poda boqqanlar, va aholisi mehmonlarni juda ardoqlagan va

ahil-inoq bo'lgan. Xalqi juda mehmondo'st bo'lganlar. Uzoqdan podavonlarning ovozlari eshitilib turgan asta-sekin o'tayotgan yo'lovchilarni ko'rib tanimasalar ham mehmon qilib kuzatganlar. Aholining "Xush molim", "Mehmon xush ko'rdik" so'zlarni qisqartirib hozirgi kunda Ho'shmon shakliga kelgan. Burdog'uy-yunoncha so'z bo'lib "mehmonxona" degan ma'noni anglatgan. Bu nom Iskandar zamonida qo'yilgan. Kechuv joyi bo'lgan, katta to'qayzor, changalzor bo'lib hattoki sherlar borligi ta'kidlab o'tilgan. [7:86] Qorluqg'or-qorong'u g'orga kirganlar g'or og'ziga qoziq qoqib uzun arqon bog'lab kirganlar. Aholining yashash tarzi va geografik turar joylari bilan bog'liqligi bor urf-odatlarini moslashgan. Daryo bo'yida shuningdek tog' etagida yashovchilar ko'proq tabiat hodisalariga e'tiqod qilishgan. Daryoga suvga qurbonlik qilganlar. Bahor fasli boshlanishida eng katta qo'y-qo'chqorlarni yoki ho'kizlarni Amudaryoga qurbonlik qilishgan. Mahalliy xalq daryoga jonlikni suyib oqizib yuborgan bu xalq uchun suv toshishini oldini oladi deb o'ylaganlar. Xalq e'tiqodi o'zgacha bo'lgan Kampirtepa, Sho'rob atrofidagi aholi Xo'ja Ahmad Taskandiyga, Sopollitepa, Kuchuktepa, Mushuktepa, Qo'rg'on, Ho'jamdodtepa atrofida yashovchilar Erjahongir otaga e'tiqod qilganlar. Xo'ja Ahmad Taskandiy vafot etgach Kampirtepadagi qabristonga dafn etilgandan so'ng o'sha yili daryo o'z yo'lini Afg'oniston tomonga o'zgartirgan degan rivoyat bor. [8:10]

Bahor faslini boshlanishida barcha aholi yig'ilib o'z ahvoliga qarab imkon qadar taom yoki shirinliklar, ba'zilar qo'y so'yganlar barcha yig'ilib suv keladigan joyga boshiga yoki eng baland tepalikka chiqib dasturxon yozib oqsaqollar va kayvoniylar boshchiligida o'tirishgan. Mahalliy xalq bog'dorchilikka yaxshi e'tibor bergan va To'g'dona daraxtini uyini oldiga ekkanlar. To'g'dona daraxtini tanasidan tumor, beshik, halinchaklar yasagan. Hosilini jigar kasalligiga davo ekanligi uchun doim iste'mol qilganlar. Dehqonchilik bilan shug'ullanganlar hosilni yig'ib olganda eng birinchi hosildan baraka bersin degan maqsadda bir g'alvirni qo'shlarga sochgan, xirmonboshini olib eng yoshi katta kishilarga va nochor yashayotganlarga in'om etganlar. Aholi tomonidan barcha marosimlar keksalar tomonidan o'tkazilgan. Yana ajablanarli jihati go'sht shirin bo'lgan. Aholini eng ko'p tanovul qiladigan mahsuloti go'sht va sut bo'lgan. Sigir, qo'y, echki sog'ib sut qatiq, qurt iste'mol qilishgan. Bahor faslida may oyida chorvador aholining ayollari qurt qilish marosimini qilishgan. Chorvador erkaklar urf-odatiga ko'ra qo'ylarni jo'nini qirqish hashar qilib o'tkaziladi. To'plangan jo'nlardan ayollar turmush tarziga kerakli bo'lgan narsalarni to'qishganlar. Tarixshunos V.G.Mashkova gilamdo'zlik san'ati tarixini haqli ravishda eramizdan avvalgi ming yilliklar madaniyati bilan bog'laydi. Qadimshunos G.A.Pugachenkova sak, so'g'd va massagetlar, ya'ni qadimgi ajdodlarimiz gilamdo'zlikni eramizdan avvalgi III-II asrlarda ommaviy ravishda yo'lga qo'yilganligini e'tirof etgan. [9:240] Muzrabotliklar gilam, xurjun, kigiz, po'stak, tuzdon, qoshiqdon, arqon kabilarni jo'ndan tayyorlashganlar. Ko'kka ko'chgan davrda echki terisidan doira tayyorlashgan va ayollar laparlar aytishgan, doira chalib o'yin-kulgi qilishgan. Fasllarga bog'liq urf-odatlar ko'proq o'tkazilgan masalan, quyosh, oy tutilishi, yomg'irlarni yog'may qolishi, chorvadorlarning yashash tarzi yarim ko'chmanchilik holatlarini o'ziga xos marosimlari bor. Ekin ekib hosil yig'ish jarayonlaridagi odatlardan biri xirmon haqqi deb nomlangan. Tog'da yashovchilar ov qilish jarayonida kiyikni ovlash taqiqlangan chunki bu hudud aholisi uchun kiyik muqaddas hisoblangan. Termiz tumanidagi "Yangiariq" hududi qadimda "Yantoq o'rmon" deb atalgan. Mazkur hududni o'zlashtirishdan oldin yantoqzor bo'lganligi sababli boshqa hudud aholisi tomonidan obodlashtirilgan. Shuningdek, O'zbekiston janubiy hududlarining tarixiy va etnografik o'rganishda geografik joylashuvining o'ziga xosligi va aholisini yashash

tarzi urf-odatları ma'lum darajada hudud bilan bog'liq holatlar kuzatiladi. Barchasi o'z tarixiga mazmuniga ega bo'lib asrlar osha xalq orasida o'z o'rnini yo'qotmay kelmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. S.N.Tursunov.Surxondaryo viloyati toponimlari.T.: 2008.58.-B
2. S.N.Tursunov va boshqalar.O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi.T.: 2015.173-B
3. P.Shoimov.Muzrabot-qadimiy diyor.Q.: "Nasaf" 2002.4.-B
4. O.Bo'riev.Temuriylar davrida yozma manbalarda Markaziy Osiyo.T.: 1997.86 –B
5. Sh.Oripov,X. Shaymardonov. Yashnayotgan Muzrabot. Q.: "Nasaf" 2009.10.-B
6. M. Isomiddinov.Sopolga bitilgan tarix. T.: 1993.10-12.-B
7. S.N.Tursunov.G.U.Ahmedova.O'zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy san'at yodgorliklari tarixi. Surxon-Nashr.2017. 240.-B

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

MAIN DIRECTIONS OF STABILIZATION OF THE ECOLOGICAL CONDITION

Annayeva Zarifa Musurmonkulovna

Termiz State University, Senior teacher of the "World History" department, Ph.D.

Abstract. Information is given about the southern borders of Uzbekistan, geographical location, location, essence, change, development, and today's progress, as well as today's news, customs, and information.

Key words: Muzrabot, Dashti Arzinak, Marzbon, Karakamar, Baldir, Ushman, Tuzkon, Kirqkal, Kirqqiz, Kara tepa-Kurgan, Ulanbulok, Qorluq gor, Tashkent Burdogi.

EKOLOGIK HOLATNING BARQARORLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annayeva Zarifa Musurmonqulovna

Termiz davlat universiteti, "Jahon tarixi" kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.b.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb, hammani to'qinlantirayotgan muommalardan biri ekanligi, o'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzulishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutganligi aytiladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, global, yer, Orol dengiz, tabiiy, ilmiy, tashkilot, yer, tuz, hayvonot dunyosi, atmosfera, xafsizlik, inson, milliy, barqaror

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N24.1>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 77-sessiyasidagi nutqlarida bevosita global iqlim o'zgarishi va Orol muammosiga to'xtalib o'tgan edi: *"Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda.*

E'tiboringizni yana bir bor Orol dengizi qurishining halokatli oqibatlariga qaratmoqchiman. Orolbo'yi hududi ekologik fojining markaziga aylandi. Biz mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Mamlakatimiz tashabbusi bilan Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust fondi tuzildi. Umid qilamizki, ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qiladi. Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro

ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi". Shulardan kelib chiqqan holda Orol bo'yidagi ekologik muammolar naqadar jiddiy ekanligini ko'rishimiz mumkin va bu muammolarni xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda hal etish choralarini ishlab chiqish lozim.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasiga muvofiq Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar maydonini jami hududiga nisbatan **60** foizgacha yetkazish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida "**Yashil belbog**" tashkil etish maqsadida tuzga chidamli, tez o'sar saksovul, cherkez va qandim o'simliklari ekish ishlari olib borilmoqda.

Tabiat komponentlari va hodisalarning o'zaro aloqasi hamda bog'liqligi turli xil ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Buni o'simlik bilan hayvonot dunyosi, tuproq bilan zaminning ustki yotqiziqlari, yog'in miqdorining ko'payib yoki kamayib borishi bilan o'simliklar turi ham miqdor jihatdan o'zgarib borishida kuzatishimiz mumkin. Bu o'zgarishlar ko'p jihatdan inson faoliyatining faollashuvi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi eng dolzarb ekologik muammolardan biridir. Iqlim o'zgarishining oldini olishga qarshi jahon mamlakatlari birgalikda kurashishlari muhimdir. Bu borada **2015-yil 12-dekabrda** Parijda *Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy konvensiyasiga bag'ishlangan konferensiyaning 21*-sessiyasida "*Parij Bitimi*" qabul qilindi va **2016-yil 4-noyabrda** kuchga kirdi.

Hozirgi vaqtda *Parij Bitimini* imzolagan **195** mamlakatning **180** tasi mazkur Bitimning ishtirokchisi hisoblanadi. Bitimni ratifikatsiya qilmagan mamlakatlar kuzatuvchi maqomiga ega bo'lib, ular uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan iqlim bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda cheklanishlar qo'llaniladi. Bitimning maqsadi sayyoramizda global iqlim o'zgarishining, ya'ni isishning oldini olish. O'zbekiston **2017-yil 19-aprelda** BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida Parij bitimini imzolagan va **2018-yil 2-oktyabrda** ratifikatsiya qilgan.

Iqtisodiyot rivojlanishi ko'p hollarda tabiiy resurslarga bog'liq. Turli resurslarning mavjudligi xalq xo'jaligi tarmoqlarini muttasil rivojlantirib borishga imkon beradi. Bu borada ekologik tabiiy resurslarning ham o'z o'rnini bor. Dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 35 foizidan ortig'ini ekologik soha resurslari yetkazib beradi va aholi soni ortib borishi bilan bu raqam yana ortib boradi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli a'zosi sifatida ekologiya sohasida o'nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, bir qator muhim majburiyatlar yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirmoqda. Ushbu majburiyatlar, o'z navbatida, fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirish asosida iqlim o'zgarishlarining ta'sirini yumshatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ma'lumki, 2023-yilning 30-aprelda mamlakatimizda o'tkazilgan umumxalq referendumida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi. Konstitutsiyamizda "shaxs – jamiyat – davlat" tizimining huquqiy maqomi belgilangan bo'lib, birinchidan, milliy davlatchilik tajribamiz va qadriyatlarimiz, ikkinchidan, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi va, uchinchidan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan zamonaviy norma va tamoyillari mujassam topgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Konstitutsiyamizda davlatimiz ekologik siyosatining asosiy yo’nalishlari, fuqarolar va yuridik shaxslarning ekologik huquq va majburiyatlariga oid qoida-talablar ham mustahkamlangan. Xususan, Asosiy qonunimizning muqaddimasida “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko’paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib” deb belgilanishi davlatimizning ekologik muammolarning oldini olish, tabiiy resurslar xilma-xilligini ta’minlash va atrof tabiiy muhit holatini yaxshilash orqali hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi davlatning strategik maqsad va vazifalarini ifodalaydi. huni alohida e’tirof etish lozimki, Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash bilan bog’liq huquqiy kafolatlar tashkil etadi. Xususan, 49-moddada “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to’g’risidagi ishonchli axborotga ega bo’lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko’rsatilishiga yo’l qo’ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o’tkaziladi” degan norma mustahkamlangan. Ushbu moddaning ahamiyati shundaki, birinchidan, fuqarolarning yashash uchun maqbul bo’lgan tabiiy sharoitlarga ega bo’lishdek muhim huquqini, shuningdek, har bir fuqaroning atrof tabiiy muhit holati va unda bo’layotgan o’zgarishlar haqidagi axborotni olish hamda tanishish imkoniga ega bo’lishini belgilaydi. Ushbu huquqlarning belgilanishi O’zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjatlarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, fuqarolarning muhim ekologik huquqlarni davlat organlari tomonidan amalga oshirish mexanizmlarini belgilashga xizmat qiladi. Jumladan, ekologiya sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, dasturlar va shaharsozlik hujjatlarining ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazorati olib borilishi, shuningdek, barpo etilayotgan uy-joy, ijtimoiy inshootlar va sanoat obyektlariga oid qurilish hujjatlarining loyihalaridan jamoatchilikni xabardor qilish, jamoatchilik eshituvi va ekspertizasidan o’tkazilishi kabi muhim chora-tadbirlarni o’z ichiga oladi.

Bundan tashqari, mazkur moddada “Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo’yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko’radi” deyilgan.

Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 2015-yil 25-sentyabrdagi Barqaror rivojlanish bo’yicha o’tkazilgan sammitida 2030-yilgacha bo’lgan davrda Barqaror rivojlanishning 17 ta maqsaddan iborat dasturiy hujjati qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjat bo’yicha faol ishlarni amalga oshirmoqda.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “2030-yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 83-qarori bu borada dasturiy hujjat vazifasini o’tamoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik tahdidlarning markazida Orol dengizining qurishi bilan bog’liq murakkab vaziyat yotadi. Mintaqadagi ekologik tizimni yaxshilash, biologik xilma-xillikni tiklash, cho’llanish jarayonlarining oldini olish va aholining ichimlik suvi

ta'minotini yaxshilash hamda iqlim o'zgarishlariga moslashish kabi dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini tashkil etadi.

Atrof-muhit muhofazasi yuzasidan majburiyat va talablar Shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolarning huquqiy maqomida ularning majburiyatlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Konstitutsiyamizning bir necha moddasida ekologik majburiyatlar va talablar belgilangan. Xususan, 61-moddada "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi" degan qoida belgilangan.

O'zbekiston zamini nafaqat tarixiy, ilmiy va ijtimoiy meros obyektlariga, balki tabiatning noyob, qayta tiklanmas, takrorlanmas va go'zal maskanlariga boy hisoblanadi. Ba'zilar UNESCO madaniy va tabiiy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Shuning uchun ham ushbu noyob tabiiy yodgorliklarning asrab-avaylanishi va muhofaza qilinishi fuqarolarimizning konstitutsiyaviy burchi sifatida e'tirof etilgan.

Asosiy qonunimizning 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deb alohida ta'kidlangan. Chunki tabiatni muhofaza qilishga faqat davlat organlarining faoliyatini takomillashtirish bilan erishib bo'lmaydi. Ushbu konstitutsiyaviy norma tabiatni muhofaza qilish har bir fuqaroning kundalik yumushi va tashvishiga aylanishini talab etadi.

So'ngi yillarda global iqlim o'zgarishi fonida barcha davlatlarda sanoatning rivojlanishi va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini keskin oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Xo'jalik yurituvchi va tadbirkorlik subyektlari aholining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirib bormoqdalar. Konstitutsiyamizning 66-moddasida "Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak" degan norma mustahkamlangan. Ushbu norma mulk egalari har qanday xo'jalik faoliyatini ekologik normativ va standartlar doirasida amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Bu esa "yashil iqtisodiyot" tizimini shakllantirishning muhim omilidir.

Ekologiya sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari Ma'lumki, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Xulosa qilganda, aholi sog'lom va munosib hayot kechirishining muhim omili — ekologik barqarorlikni kafolatlash, tabiiy resurslarning barcha majmuini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni so'zsiz ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish doimiy ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, dunyoda ekologik barqarorlik nainki tabiat, balki insoniyatning hayot-mamot masalasiga aylanib borayotgan ayni paytda atrof-muhit muhofazasini yaxshilashga dolzarb vazifa sifatida qarash, kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun ham mas'ul ekanimizni unutmaslik darkor.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. http://uza.uz/uz/posts/ozbekistan-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoev-birlashgan-millatlar-tashkiloti-bosh-assambleyasining-78-sessiyasidagi-nutqi_521613
2. Esanov Bahrom. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi matbuot xizmati. [O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi \(uznature.uz\)](http://uznature.uz)
3. Shuhrat Fayziev. Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori. Barqaror ekologik rivojlanishning konstitutsiyaviy kafolatlari. [Barqaror ekologik rivojlanishning konstitutsiyaviy kafolatlari | huquburch.uz](http://huquburch.uz)
4. S.N.Tursunov.G.U.Ahmedova.O'zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy san'at yodgorliklari tarixi. Surxon-Nashr.2017. 240.-B

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

“CHIGATAI SPELLING” AND NATIONAL INTELLECTUALS

Ahmadov Khurshid Sanatovich,

Base doctoral student, Bukhara State University

E-mail: Ahmadovxurshid2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida (Turkiston Avtonom Sovet Respublikasida) XX asrning 20-yillarida amalda bo‘lgan alifbo va imlo islohotlariga bag‘ishlangan. Bu davrda O‘zbekiston hududidagi Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasida arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi muomalada edi. O‘zbek milliy ziyolilari tomonidan arab imlosi islohotiga tayyorgarlik ko‘rildi, bunga oid katta konferensiya tashkil etildi va arab imlosidan vos kechmagan holda islohotlar o‘tkazildi. Maqolada milliy ziyolilarning va o‘sha davrda mavjud bo‘lgan “Chig‘atoy gurunji”ning alaifbo va imloga oid qarashlarini qiyosiy tahlil qilib yoritish maqsad qilindi. Maqola natijalari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1921-yilda bo‘lib o‘tgan til va imlo qurultoyi jarayonlari, qabul qilgan qarorlari va “Chig‘atoy imlosi” deb nomlanishi sabablaridan iboratdir.

Kalit so‘zlar: “Chig‘atoy imlosi”, alifbo, islohot, ziyolilar, qurultoy, lotinlashtirish.

“CHIG‘ATOY IMLOSI” VA MILLIY ZIYOLILAR

Ahmadov Xurshid San‘atovich,

Tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida (Turkiston Avtonom Sovet Respublikasida) XX asrning 20-yillarida amalda bo‘lgan alifbo va imlo islohotlariga bag‘ishlangan. Bu davrda O‘zbekiston hududidagi Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasida arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi muomalada edi. O‘zbek milliy ziyolilari tomonidan arab imlosi islohotiga tayyorgarlik ko‘rildi, bunga oid katta konferensiya tashkil etildi va arab imlosidan vos kechmagan holda islohotlar o‘tkazildi. Maqolada milliy ziyolilarning va o‘sha davrda mavjud bo‘lgan “Chig‘atoy gurunji”ning alaifbo va imloga oid qarashlarini qiyosiy tahlil qilib yoritish maqsad qilindi. Maqola natijalari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1921-yilda bo‘lib o‘tgan til va imlo qurultoyi jarayonlari, qabul qilgan qarorlari va “Chig‘atoy imlosi” deb nomlanishi sabablaridan iboratdir.

Kalit so‘zlar: “Chig‘atoy imlosi”, alifbo, islohot, ziyolilar, qurultoy, lotinlashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N25>

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX asrning 20 – yillariga kelib O‘zbekiston hududida eski o‘zbek yozuvini isloh qilishda barcha sharoitlar yetilib keldi. Bunda ham tashqi ham ichki omillar asosiy vazifani bajardi. Ya‘ni, O‘rta Osiyoda arab yozuvi islohoti nafaqat O‘zbekiston hududida balki, boshqa musulmon davlatlarda ham boshlanib davom etgan. Masalan, bunday o‘zgarishlar Ozarbayjonda oldinroq va keng jarayonda davom etdi, Ozarbayjon shoiri, dramaturgi, ozar milliy ziyolilaridan biri Mirzo Fatali Oxundov (1812 – 1878 yy) arab imlosining o‘zgarishlariga oid shunday degan edi. “Men 30 yil davomida islom davlatlarida yashab musulmon davlatlarining taraqqiyotga erishish yo‘llarini izladim va

shunday qarorga keldim: musulmon xalqlari o'z alifbolarini zamon talablariga va Yevropa texnologiyalariga moslashtirmoqchi bo'lgandagina taraqqiyotga erisha olishiga yangi dalillar to'pladim". [1.B,23]

O'zbekiston hududida arab imlosi islohoti 1917-yildan boshlangan bo'lib, bundan oldin jadidlarning asarlarida arab yozuvini isloh qilish g'oyalari aks etmagan. Aksincha, ularning ijodida milliy tilimizni mustahkamlashga qaratilgan chora – tadbirlar amalga oshirilgan. Masalan Munavvar Qori 1910 – yilda turkistonliklar nomidan Rossiya Davlat Dumasiga xat yozib mahalliy maktablarda ona tilida o'qitishni mustahkamlashni so'ragan. Shu bilan birga Munavvar Qori 1913, 1914 — yillarda Farg'onada bo'lib otgan jadidlarning yig'ilishlarida ishtirok etib o'z maslakdoshlarini ona tilini, milliy yozuvni mustahkamlashga chaqirib qolgan. [2, B. 29]

Eski o'zbek imlosining islohot to'g'risida Elbek (Yunusov Mashriq) Ishtirokiy gazetasining 1920-yil 18-sentabr 192-sonida quyidagicha munosabat bildirgan: "Imlo masalasi ko'pdan beri tortishilib kelmoqda bo'lsa ham haligacha bir yechim va to'xtamga kelgani yoq. Shuning uchun man shul imlo masalasini yangitdan ochib, Turkistonda bo'lg'on yosh imlochilarning qarshilarig'a o'z fikrimni qo'ymoqchi bo'laman. Ham bu to'g'rida man bilan tortishuvchilar topilg'udek bo'lsa, o'zimning quvonch bilan qarshi olivumnida ularg' bildiraman" – deb aytilgan. Bu bilan Elbek jamiyat oldida turgan imlo masalasini hal etish uchun halol raqobat yo'li albatta bo'lishi kerak ekanligi, tanqidlarga ijobiy yondashilishi lozimligini ta'kidlagan.

XX asrning 20-yillarida imlo masalasida bo'linish holatlari ham kuzatilgan bo'lib, bu borada Elbek yuqoridagi maqolasining davomida quyidagicha yozgan: " Biz boshqa narsalarni boshqa yoqqa qo'yib bilim yog'idan yolg'iz imlo masalasini qo'lg'a olsak; bu narsaningda hali yaxshi yo'lg'a qo'yilg'onlig'I belgisi emasdir. Chunki imlo masalasida tortishuvchi o'rtoqlarning ko'plari ham shul yuqorida aytilgan o'z yovliqlarini shul tanqidlarning ichiga keltirib o'tadilar ham shul tanqidlari orqasida bir-birlaridan o'ch olmoqqa tirishadilar, natijada ko'zga tutilg'on imlo masalasi yana o'z holicha qoldi. Shu sababli turli kishilar turlicha yoza boshladilar. Qaysi birlari "Chig'atoy gurungi" tomonidan yasalg'on imloni qavul qilib, oning yo'li bilan ketdilar, qaysi birlari ul imloning o'zigada va chiqaruvchilarigada qarshi ketib, o'zlarining ilgarigi tutg'on yo'llarini davom etdilar. Eng oxirida Russiyada bo'lg'on imlo o'zgarishlarini ko'rgach ularning qaysilari sekin-sekin "Chig'atoy imlosi"ning atrofiga yig'ila boshladilar. Ham shul imlodan yozadurg'on bo'ldilar. [2, B. 27]

Hozirgi kunda tarixchilar oldida milliy imlo va alifbo tarixiga oid dolzabr masalalar turgani sir emas. Shundan kelib chiqib mazkur maqola filolog olimlar asarlari, tarixiy – siyosiy asarlar, davriy nashriyotlar, chet el manbalarini qiyosiy tahlillash, tarixiy xolislik orqali bayon etilishi maqsad qilindi.

Tahlil va natijalar. Milliy ziyolilarning va mahalliy rahbarlarning tashabbusi bilan Toshkentda 1921-yil 1-5 yanvar kunlari arab imlosining islohotiga bag'ishlangan qurultoy bo'lib o'tadi.

Konferensiyada Abdurauf Fitrat Abdulla Avloniy va madaniy – maorif jamiyati vakili Solihiy o'rtoqlardan keyin nutq so'zladilar. Mazkur nutq quyidagicha bayon etilgan edi: "Maktab masalasining eng muhim rukni imlo masalasidir. Maktab masalasi qancha kengaysa, qancha yurusa imlo masalasi ham shunga qarab kengayar, yurushar.

Nikolay zamonida bizda maktab masalasi kichik edi, ahamiyatsiz edi. Toshkent, Samarqand kabi katta shaharlarimizda ikki-uch “usul jadid” maktablarimiz ochilg‘on bo‘lsa ham belgili bir asosi bo‘lmagan. “Tajvid” maktablarida imlodan gapirmak uchun yetarlik kuch yo‘q edi, Rasiyada kengashlar hukumati qurilgandan so‘ng maktab masalasi asosiy o‘ringa chiqib oldi. Rasiyada yashaydigan insonlar bolalarini jaholat va bilimsizlikdan qutqarish uchun tezlik bilan harakatni boshlashdi.” [2, B. 79]

SSSRda imloviy islohotlar tarixi 988-yilga borib taqaladi. Ya’ni, Vladimir I Svyatoslavich xristisn dinini davlat dini deb qabul qilish bilan bir paytda Sankt-Kiril alifbosini ham qabul qiladi. Rus tarixida alifbodagi navbatdagi o‘zgarish 1672-yilda hokimiyatga kelgan Pyotr I davrida bo‘ldi, u ba’zi yunoncha harflarni olib tashladi va uning o‘rnini lotincha visual ekvivalentlari bilan almashtirdi. Keyingi imloga oid katta islohot 1918-yilda yuz berdi, ya’ni fikr yuritayotgan davrimizda. Savodxonlikni kengaytirish va tilni soddalashtirish maqsadida islohotchilar alifbodan bir nechta harflarni olib tashladilar va bugungi kunda Rossiyada qo‘llanilayotgan alifboni mustahkamladilar. [3, B. 2]

Xuddi mana shu islohotlar O‘zbekiston hududidagi milliy ziyolilarni jonlantirishga turtki bo‘ldi va ular ham o‘z xalqlari til va imlolari haqida qayg‘ura boshladilar. Abdurauf Fitrat bejizga yuqoridagi fikrlarida 1918-yilgi Rossiyadagi islohotlarni keltirib o‘tilmagan.

Fitrat 1921-yildagi konferensiyada nutqini davom ettirar ekan quyidagilarni bayon etdi: “Turkiston kengashlar jumhuriyati ham markazga ergashdi. Bor kuchi bilan o‘qish, o‘qitishga berildi. Hukumatning maktab ishlarini o‘z bo‘yinlariga olg‘on Turkiston muallimlari Turkiston bolalariga ilm o‘rgatmak ishiga chindan kirishdilar. Demak maktab masalasi bizda ham keraklik kuch, keraklik ahamiyatni olgan bo‘ldi. Maktab masalasi kuch olgach imlo masalasiningda kuch olishi tabiiy edi-chunki yuqorida aytganim kabi maktabning eng muhim rukni imlodir. Shunday bo‘lib, bizda maktab masalasi bilan imlo masalasi ham kuchaydi, ahamiyat oldi. Maktab degan kishi “imlo” ham dedi. Maktabni o‘ylagan kishi “imlo”ni ham o‘yladi.

Bilasizkim: inson bir narsani tushunar ekan uning fikri o‘ylan turg‘on narsaning o‘zidagina qadalib, mixlanib, tiqilib qolmas, insonning fikri tushuna boshlag‘on nuqtadan munosabatlar izlab, yo‘llar topsa, boshqa nuqtaga to‘g‘ri yurar. Toshkent muallimlarining bu to‘dalari ham shunday bo‘ldilar. Ularning fikrlari eski imloning o‘zidagina qadalib qolmadi. Eski imloni tushunar ekan, yangi imlog‘a to‘g‘ri urindi, harakat qildi: shunga yangi imlog‘a erishibda qoldi. Endi bir so‘roq keladir: shul yosh fikrlar eski imlodan yangi imlog‘a to‘g‘ri burar ekan, ninday harakatlar qildi. Ya’ni imlochilarimizdan bir bo‘lagi eski imloni tashlab, yangi imloni nechun qobul etdi, bunga dalillari, mantiqlari nimadir?

Majlis misolida aytarsa men hozir shunlarni, ya’ni yangi imlochilarning mantiqlarini arz qilib o‘taman.

- Rusiya kengashlar hukumatining maorif to‘g‘risidagin kengash programmasidan boshqa millatlar darajasida foydalanmoq bizga ham lozim.
- Elimizdagi bilimsizlik bilan savodsizlikni shul programmadan foydalang‘onlar qatorida tezlik bilan bitirmak va uni boshqalar kabi tezlik bilan yasamoq, sinfga, ish maydoniga yetishtirmoq bizga ham vojib. .” [4, B. 81]

Lekin shu masala bo‘yicha Fitrat bizdagi alifbo yuqoridagi islohotlarga katta xalaxit berishini, avval alifbo islohotini o‘tkazish kerakligini aytib o‘tgan.

1921-yilgi Til va imlo qurultoyida ishtirok etganlar jadvalini quyida keltirib o‘tamiz:

T/r	Ism familiyalari	Qaysi shahardan	Qaysi tashkilotdan
1.	A'loxoja Mansurxo'jayev	Samarqand	Maorif sho'basi
2.	Qoriahror G'oyibnazar	Samarqand	Maorif sho'basi
3.	Ma'ruf Mahmudiy	Samarqand	Maorif sho'basi
4.	Ashurali Zohiriy	Qo'qon	Maorif sho'basi
5.	Salohiddin Majidiy	Qo'qon	Maorif sho'basi
6.	Nurullo Murodiy	Kattaqo'rg'on	Maorif sho'basi
7.	Nurulla Sayfulla	Kattaqo'rg'on	Maorif sho'basi
8.	Shukrulla Xolmuhammad	Mirzacho'l	Maorif sho'basi
9.	Bahriddin Aziziy	O'ratepa	Maorif sho'basi
10.	Xayrulla Aliboy	Xo'jand	Maorif sho'basi
11.	Mamad Amin Avaz	Xo'jand	Maorif sho'basi
12.	Vadud Maxmud	Jizzax	Maorif sho'basi
13.	Nizomiddin Axmad	Chorjo'y	Maorif sho'basi
14.	Shamsiddin Naimiy	Andijon	Maorif sho'basi
15.	To'raxon Raxmonberdi	Avliyoota	Maorif sho'basi
16.	Vahob Murod	Avliyoota	Maorif sho'basi
17.	Abdusami Qori Zayabov	Toshkent(Eski shahar)	Maorif sho'basi
18.	Akbarxo'ja Qosimxo'ja	Toshkent(Eski shahar)	Maorif sho'basi
19.	Saidullaqori Shomuhammad	Toshkent(Eski shahar o'qituvchilar uyushmasi)	Maorif sho'basi
20.	Nasrullaqori Qodiriy	Toshkent(Eski shahar o'qituvchilar uyushmasi)	Toshkent(Eski shahar o'qituvchilar uyushmasi)
21.	Miyon qozi Raxmon Boqiyev	Yangi shahar maorif sho'basi	Maorif sho'basi
22.	Nuriddin Karimiy	Toshkent	Imlo konferensiyasi vakili
23.	Abdulla Avloniy	Toshkent	Imlo konferensiyasi vakili
24.	Abdulla Ahmadiy	Toshkent	Eski shahar rastasidan
25.	Hamid Sulaymon	Toshkent	Chig'atoy gurungi
26.	Abdul'ani Yoqub	Toshkent	Chig'atoy gurungi
27.	Sanjar Siddiq	Toshkent	Chig'atoy gurungi
28.	Shahid Axmad	Toshkent	Chig'atoy gurungi
29.	Tohir Fatxulla	Toshkent	Maorif komissarligi
30.	Shokirjon Rahimiy	Toshkent	Shahar maorif sho'basi
31.	Mannon Ramziy	Toshkent	Shahar maorif sho'basi

Qurultoyga maxsus chaqirilganlar quyidagilar bo'lishdi

T/r	Ism familiyalari	Qaysi shahardan	Qaysi tashkilotdan
1.	Murodxo'ja Solihiy	Toshkent	

2.	Fitrat	Toshkent	Dokladchi
3.	Elbek	Toshkent	
4.	Saidali Usmon	Toshkent	Dokladchi
5.	Abduqayum Ramazon	Toshkent	
6.	Mahmud Maqsud	Toshkent	
7.	Shorasul Zinnun	Toshkent	
8.	Majid Qodiriy	Toshkent	
9.	Sadriddin Ayniy	Samarqand	Kelmadi
10.	Hoji Muin Shukrulla	Samarqand	Kelmadi
11.	Ashurali Zohiriy	Qo'qon	Dokladchi
12.	Husanxon Mahzum	Andijon	Kelmadi

1921-yilda bo'lib o'tgan til va imlo qurultoyi sho'balariga oid masalalar 1921-yil 5-yanvarda matbuotda e'lon qilinib borildi. Bunda quyidagilar aytildi:

Birinchi yanvarda eski Toshkentda Turkiston jumhuriyatida bo'lg'an til va imlochilarning o'lka qurultoyi ochildi.

Qurultoyning programmasi quyidagilardir:

1. Mahallalardan dokladlar.
2. Harf va imlo masalasi.
3. Sarf va nahv masalasi
4. Sanoe` nafisa va adabiyot
5. Maorif komissarligi yonida ilmiy markaz.
6. Galdan tashqaridagi ishlar. [5, B. 112]

Toshkentdagi yuqorida aytilgan qurultoy 1-2 yanvar kunlari bo'lib o'tdi va yuqoridagi sho'balarda masalalar olib borildi, doklatchilar tinglandi. Qurultoyda qatnashgan barcha doklatdilar o'zlarining fikrlarini bildirdilar.

Qurultoyda asosan "Chig'atoy gurungi" taklif etgan masala ko'proq o'rin egalladi. Chunonchi, Fitrat tomonidan quyidagilar aytildi:

1. Imlomiz islohotida harp ila chozg'i ayro-ayro tursin (imlo qurultoyida undosh va unlilar alohida alohida bo'lsin).
2. Harplarimiz soni 23, cho'zg'ilarimiz soni oltita bo'lsin.(undoshlar 23 ta unlilar 6 ta bo'lsin).
3. Yozuvlarimizning barchasi bir xil bosh harfda yozilsin.
4. Tilimiz orasiga kirib qolgan yot so'zlar o'zimizning yozuvimiz bilan yozilsin. [6, B. 17]

Yuqoridagi taklifning ikkinchi bandiga Ashurali Zohiriy qarshilik bildirib, undoshlar va 24 ta va unlilar 5 ta bo'lsin deb aytgan. Bu masala ovozga qo'yish bilan hal qilindi.

23 ta undosh uchun 23 ta ovoz, 6 ta unli uchun 16 kishi qo'l ko'tardi va 7 kishi qarshi bo'ldi va Fitrat takliflari qabul qilindi.

Muhokama. Qurultoy davomida dokladchilarning biri eski o'zbek imlosini to'liq isloh qilish kerak desa, yana biri qisman isloh qilish haqida gapiradi va o'z fikrlarini bildiradi, yana bir dokladchi iloji bo'lsa bira to'la arab alifbosidan vos kechib lotin imlosiga o'tishni ma'qullaydi. Masalan, Abdurauf Fitrat yuqorida keltirib o'tganimizdek anchadan buyon imloga hechkim etibor qilmagani, tubdan isloh qilish kerakligini aytadi, Ashurali Zohiriy esa biz hozir eski o'zbek yozuvini tubdan isloh qilsan qo'shnilarimizda va musulmon olamidanda ajralib

qolamiz degan fikrni aytgan, Botu esa arab imlosini tark etib lotin alifbosiga ko'chishni aytgan, Botuning istaklari ro'yobga chiqishi uchun ko'p vaqt kerak bo'lmadi. 1924-yildan boshlab SSSRning barcha mustamlaka hududlarida lotin alifbosini joriy etish masalasi boshlandi. Afsuski, lotinlashtirish siyosati ustida ittifoq markazining o'zi turar edi, Leninning asosiy maqsadlaridan biri, lotinlashtirish yo'li orqali mustamlakalarda "panturkizm" va "panislomizm" g'oyalariga qarshi kurashish edi. [7, B. 24] O'zbek milliy ziyolilari esa bunga o'zgacha umid bog'lagan edilar. Milliy ziyolilar siyosiy sohadan uzoq turgan holda o'zbek milliy tili va imlosi to'g'risida harakat etar edilar. Masalan Abdurauf Fitrat o'zining "Tilimiz" nomli maqolasida turkiy tilning boyligi, lekin ayni damda arab va forsiycha bilan uyg'unlashib ketmoqdaligi, buning oldini olish va qadimdan boy bo'lgan turkiy tilni yaratmoq kerakligini aytib o'tgan. Ushbu maqolada Fitrat fors tilini ham misol keltirib, arab tiliga qo'shilib ketayotgani, lekin Firdavsiydek mashhur olim chiqib fors tilini naqadar boy ekanligini isbotlab, o'zining "Shohnoma" asarini yozdi. Fors tilini arab tilidan qutqardi, lekin turkiy olamda naqadar buyuk zotlar o'tgan bo'lsa ham turkcha baxtsizdir, deb ta'kidlagan. Shu bilan birga Abu Ali Ibn Sino, Farobiy, Jaloliddin Rumiy, Javhariy, Nizomiy Ganjaviy o'zlari turk bo'lganliklariga qaramay arab va forsiyda ijod etganligini ham aytib o'tgan.[8. B, 124]

Lekin Fitrat ushbu maqolasida Alisher Navoiyning ijodini va Uning turkiy tilga qo'shgan beqiyos hissasi haqida to'xtalib o'tmagan. Vaholanki, Alisher Navoiy o'zini ijodini to'liq turkiy adabiyotiga bag'ishlagan, turkiy tiliga beqiyos hissa qo'shgan. XIX – XX asrlarga kelib O'rta Osiyo amirligi va xonliklari davrida arab yozuviga asoslangan va ko'proq fors tili bilan uyg'unlashgan turkiy yozuvi va tili Abdurauf Fitratni va boshqa ziyolilarni eski o'zbek yozuvini isloh qilish uchun harakat qilishga undagan bo'lsa ajab emas. Bunga XX asrning 20 – yillaridagi siyosiy voqealar tarixiy sharoit yaratib berdi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, 1920-yilda Turkiston Avtonom Sovet Respublikasida boshlangan imlo islohotiga "Chig'atoy gurungi" faol qatnashdi va 1921-1929-yillarda amalda bo'lgan yangi isloh qilingan imloga "Chig'atoy imlosi" deb nom berilishi ham bejizga emas edi. XX asrning 20-yillarida O'zbekiston hududida amaldagi arab alifbosidagi eski o'zbek yozuvi isloh qilinishiga mahalliy ziyolilar faol qatnashdilar. Qurultoyda barcha qatnashgan ziyolilar o'z fikrlarini bildirib o'tdilar. Yuqoridagi jadvalga ko'rsatilganidek, qurultoyga taklif etilganlar orasida qatnashmaganlar ham bo'lgan. Qurultoy natijasida arab imlosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi bir qadar isloh qilindi. Mazkur kichik tadqiqotdan kelib chiqib XX asr 20- yillarida O'zbekiston hududida imlo masalasi tarixi hali oxirigacha yetkazilib tadqiq qilinmagan. Kelgusida O'zbekistonda bolsheviklar hukmronligi yillarida imlo masalalari tarixi ham tarixchi ham filolog olimlar tomonidan to'liq yechilishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Shuningdek, 1921 – 1922 – yillarda eski o'zbek imlosi islohoti yuzasidan qadimchilar va hur fikrli ziyolilar o'rtasida raqobatlar kuzatilgan. Bunday raqobatlar tarixiylik va xolislik asosida tadqiq etish, taraflarning aniq maqsadlarini ko'rsatib o'tish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, qadimchilar ham milliy qadriyatlarini inobatga olgan bo'lishi ajab emas.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ф. Агазаде, К. Каракешлы. Очерк по истории развития движения нового алфавита и его достижения. – Казан, 1928 г, 134 с.
2. J. D Eltazarov O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). –Samarqand: SamDU nashri, 2017 . -120 bet.
3. Ҳ. Жамолхонов. А. Умаров. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017 - 460 б.
4. Imlo haqida birinchi kengash o'tirishi."Qizil bayroq" gazetasi, - 1921.1-yanvar. №10.
5. https://www.familysearch.org/en/wiki/img_auth.php/2/2b/Reading_Russian_Documents_The_Alphabet_-_Instruction_E_Vance_Oct_2019_JMR.pdf
6. Imlo haqida birinchi kengash o'tirishi."Qizil bayroq" gazetasi, 1921-yil 1-yanvar.10-son.Muallif H.J, A.U.
7. Toshkent xabarlari. "Qizil bayroq" gazetasi, - 1921. 5 - yanvar,№11.
8. Ж. Хасанбоев К. Сапаев. Имло муаммолари.- Тошкент: 2007.- 194 б.
9. Boehmer Mary Catherine, "Soviet Language Policy in Uzbekistan: How the Role of Russian has Changed through Soviet Times and Independence" (2007). Honors Theses. 1953
10. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Ж.IV. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар/ Абдурауф Фитрат; [таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев, Н. Каримов, Д. Алимова ва бош.]; Масъул муҳаррир Б. Қосимов; Нашрга тайёрловчи ва изоҳдор муаллифи Ҳ. Болтабоев.] – Т.: "Маънавият", 2006. – 336 б. – (Истиқлол қаҳрамонлари.)

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF CULTURAL RELATIONS OF UZBEKISTAN AND GERMANY

Akhmadova Nafisa Akhmad kizi, senior teacher

Asian University of technology

n_akhmadova@gmail.com

Abstract. Cultural relations between Uzbekistan and Germany, mutual exchange, historical-cultural dialogues, mutual agreements and agreements were highlighted and analyzed based on sources. Mutual cooperation between Uzbekistan and Germany in the economic, social and cultural spheres was touched upon. On the basis of mutual agreements, great progress was made in the fields of culture, science and education. Future plans were agreed upon.

Key words: diplomatic relations, international cooperation, Yeuropa, Germany, parliament, foreign countries, diplomacy, yembassy, yeconomy, politics, sciencye and yeducation, sciyentific and technical, healthcare, travel, tourism, culture.

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Axmadova Nafisa Axmad qizi, katta o'qituvchi

Osiyo texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi madaniy aloqalar, o'zaro almashinuv, tarixiy-madaniy muloqotlar, o'zaro kelishuv va bitimlar manbalar asosida yoritildi va taxlil yetildi. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi o'zaro hamkorligiga to'xtalib o'tildi. O'zaro kelishuvlar asosida madaniyat, fan va ta'lim sohalarida katta yutuqlarga yerishildi. Keyingi istiqbolli rejalariga kelishib olindi.

Kalit so'zlar: diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, yevropa, Germaniya, parlament, xorijiy mamlakatlar, diplomatiya, elchixonona, iqtisodiyot, siyosat, fan va ta'lim, ilmiy- texnikaviy, sog'liqni saqlash, sayyohlik, turizm, madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N26>

Kirish. O'zbekiston va Germaniya turli qit'alarda joylashgan davlatdir. Hech shubha yo'qki, O'zbekiston sayyoramizdagi eng qadimiy insoniyat sivilizatsiyasiga ega davlatdir. Germaniya esa g'arb sivilizatsiyasi tarixida asosiy o'rinni egallaydi.

Germaniya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida rasmiy munosabatlar 1992-yildan boshlangan bo'lsa ham, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar uzoq davrga borib taqaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotlar eng yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan buyon 5 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning rasmiy tashriflari (1993, 1995 va 2001-yillar), shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Roman Gertsog (1995-yil) va kansler Gerxard Shrederning (2002-yil) O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirilgan.

I.A.Karimovning 2001-yil 2-5-aprel kunlari Germaniya Federativ Respublikasiga, 2002-yil 9-10-may kunlari esa Federal kansler Gerxard Shrederning O‘zbekistonga rasmiy tashriflari O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tardi. Germaniyaga tashrif chog‘ida moliyaviy, sayyohlik, ilmiy-texnikaviy sohalarda, shuningdek, narkotik kontrabandasiga qarshi kurashda o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirishni nazarda tutuvchi 14 ta hujjat imzolandi[1].

Yengil sanoat, paxta va uning chiqitlarini qayta ishlash, tibbiyot va farmatsevtika preparatlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, yuk va yo‘lovchi tashish, avtoservis, ilmiy ishlanmalar, savdo-sotiq va boshqa sohalarda bir nechta qo‘shma korxonalar faoliyat faoliyat yuritayotir. Uzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi huzuridagi Germaniyaning 40 ta firma va kompaniyasi vakolatxonalarini rasmiylashtirilgan. Ular qatorida “Daymleer Bens”, “Simens”, “Alkatel”, “Tissen”, “Lyuftganza”, “BASF”, “Salomandr” kabi jahonga mashhur firmalar bor.

“Layadtexnik-Toshkent”, “Chekom”, “O‘zbekiston — Vinkler”, “Grasso”, “Tash Virt”, “Intermed ekosan”, “Nambum” va boshqa qo‘shma korxonalar, qishloq xo‘jalik uskunalar tayyorlash, qishloq xo‘jalik mashinalari va yo‘l texnikalari, telefon tarmoqlariga xizmat ko‘rsatish, navvoychilik ustaxonalarini olib kelish va ularni montaj qilish, tibbiy dorilarni yetkazib berish, go‘sh-t yog‘ mahsulotlari va qog‘oz ishlab chiqarish bilan mashg‘ul. O‘zbekiston-Germaniya munosabatlarida Toshkent va Berlin shaharlari o‘rtasidagi hamkorlik faqat iqtisodiy sohani emas, ijtimoiy -ma‘daniy sohalarni ham keng qamrab olgan.

Germaniya poytaxti Bonndan Berlinga ko‘chirilgach, 2001 yil 3 aprelda Berlinda O‘zbekiston elchixonasining yangi binosi ochildi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qatnashdi.

2001 yil 3 aprelda Berlinda O‘zbekiston elchixonasining yangi binosi ochildi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qatnashdi. Ikki tomonlama munosabatlarda madaniyat, san‘at, fan, xalq ta‘limi, ommaviy axborot vositalari sog‘liqni saqlash va sport sohasidagi hamkorlik ham katta ahamiyatga ega.

Germaniyada O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasida Berlin, Potsdam, Dortmund, Bonn, Shtutgart, Gamburg, Myunxen, Gannover Visbaden shaharlarida O‘zbekistonning musiqa, tasviriy va teatr san‘ati keng namoyish etilganligi buning yorqin misolidir.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz teatr va kino ustalari Tyubing, Berlin, Kotbus, Manxaymda, Myunxayumda o‘tkazilgan festivallarda ham faol ishtirok yetishdi. O‘z navbatida respublikamizda ham Germaniya madaniyati kunlari muvofaqiyatli o‘tdi. Konrad Adinauyer jamgarmasi ko‘magida Sant-Augustin shahrida Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni mavzusida ilmiy konferensnya, “Orol- Ekologik” fojeasining milliy va xalqaro aspektlari simpoziumlari o‘tkazildi. Jurnalistlar guruhi va nemis ijodiy ziyolilar vakillari tashabbusi bilan Orol haqida hujjatli film olishga kirishildi.

Qoraqalpog‘iston bolalar kasalxonalarini uchun mablag‘ yig‘ish tashkil qilindi va bu hududda suv tozalash inshootlarini yaratish uchun mablag‘ to‘plandi. O‘zbekiston Milliy Universiteti va Samarqand universitetining Gumboldt nomidagi hamda Bamberg va Gyottingen shaharlaridagi universitetlar bilan hamkorligi samarali rivojlanayotir “Professional ta‘limni rivojlantirishga ko‘maklashish” loyihasi doirasida imzolangan bitimga ko‘ra, ajratilgan mablag‘ O‘zbekistondagi o‘quv yurtlari talabalarining kasbiy tayyorgarligini yaxshilash, malakasini

oshirish, o'qitish uslubiyatini takomillashtirish, turli ilmiy loyihalarni hayotga tatbiq etishga sarflanadi.[2]

Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan Germaniya Federal kansleri Angela Merkel O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga tabrik yo'lladi. Tabrikda " 25 yil oldin mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'shandan beri aloqalarimizning rivojlanishi ko'p qirrali bo'ldi. Germaniya va O'zbekiston iqtisodiyot, xavfsizlik va madaniyat sohalarida shuningdek, xalqaro tashkilotlar doirasida ishonchli hamkorlikni amalga oshirmoqda.

GFR hukumati O'zbekiston Respublikasining hamkori sifatida parlament vakolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va sud-huquq tizimini isloh qilishga qaratilgan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan mamlakatni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda sizni qo'llab-quvvatlashga tayyormiz" – deyiladi xabarda. Men O'zbekistonga va uning xalqiga tinch, erkin kelajak va farovonlik, shuningdek, mamlakatlarimizga o'zaro hamkorlikni yanada kengayishini tilayman"[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Federal kansleri Angela Merkelning taklifiga binoan 2019-yil 20-22-yanvar kunlari rasmiy tashrif bilan Germaniya Federativ Respublikasida bo'ldi.

Prezidentlar Germaniya tashabbusi bilan ishlab chiqilayotgan, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasi asosida munosabatlarni mustahkamlash muhimligini qayd etdi[4].

Germaniya O'zbekistonning texnologiya va investitsiyalar sohasidagi asosiy sheriklaridan biridir. Mamlakatlarimiz o'rtasida savdo sohasida eng ko'p qulaylik yaratish tizimi joriy etilgan. O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 700 million yevrodan oshgan[5].

O'zbekistonda germaniyalik investorlar ishtirokida 132 ta firma va kompaniya faoliyat yuritmoqda. Shundan 33 tasi yuz foiz nemis kapitali asosida tuzilgan, 31 tasi yurtimizda o'z vakolatxonasini ochgan. O'zbekiston milliy banki Germaniyaning 57 ta banki bilan aloqa o'rnatgan. Toshkentda "Doyche-bank" bo'limi tashkil etilgan.

Mamlakatimizda dunyoga mashhur nemis kompaniyalari bilan amalga oshirilgan yirik loyihalar muvaffaqiyati o'zaro manfaatli investitsiyaviy hamkorlikka misol bo'la oladi. "MAN" konserni bilan sheriklikda zamonaviy yuk avtomobillari, "Claas" va "Lemken" kompaniyalari bilan qishloq xo'jaligi texnikalari, "Knauf" bilan qurilish materiallari, "Deutsche Kabel" bilan kabel-o'tkazgich mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Germaniyalik mutaxassislar ishtirokida "Qarshi – Termiz" temir yo'li elektrlashtirilmoqda.

O'zbekistonda 8 mingdan ziyod nemis millatiga mansub yurtdoshlarimiz tinch va osoyishta yashamoqda. Madaniyati va an'alarini saqlab, rivojlantirishi uchun barcha sharoit yaratilgan. 400 mingdan ortiq o'quvchi nemis tilini o'rganmoqda. Yaqinda Toshkent, Samarqand va Buxorodagi maktablarga buyuk nemis olim va yozuvchilari nomlari berildi.

Toshkentdagi Gyote instituti, Konrad Adenauer va Fridrix Ebert nomidagi jamg'armalar, Germaniya akademik almashinuvlar xizmati (DAAD) vakolatxonalari va boshqa tashkilotlar xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Poytaxtimiz va bir necha viloyatlarda bo'limlari bo'lgan "Videregurt" nemis madaniyat markazi, "O'zbekiston – Germaniya" do'stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda.

Muhokama. Tashrif doirasida iqtisodiyot, savdo, moliya, ta'lim, ilm-fan va innovatsiya sohalariga oid hukumatlararo va idoralararo 9 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Bundestagi Raisi Wolfgang Shoyble bilan ham uchrashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 3-may kuni rasmiy davlat tashrifi bilan Germaniyaga bordi.

Germaniyaga tashrif doirasida Shavkat Mirziyoyev va Germaniya prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer Berlin shahridagi jahonga mashhur Jeyms Simon galereyasida "O'zbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha" nomli noyob ko'rgazmani ochdi.

Qariyb to'rt yil davomida ikki mamlakat arxeologlari, tarixchilari, san'atshunoslari va muzey xodimlari tadbirni tashkillashtirish ustida fidokorona mehnat qilgan. Germaniyalik mutaxassislar ishtirokida 50 ga yaqin eng qimmatli osori-atiqalar restavratsiya qilingan.

2024-yil 14-yanvar kuniga qadar davom etadigan ko'rgazmada Berlin davlat muzeylari to'plamlaridan 65 ta va O'zbekiston muzeylari to'plamlaridan 285 ta eksponat namoyishga qo'yilgan. Ularning ko'pi O'zbekiston tashqarisida ilk bor ko'rsatilmogda. Ko'rgazma mamlakatning qadimiy va boy madaniyati, bugungi O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududida joylashgan ilk davlatlarning miloddan avvalgi VI asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan tarixi haqida so'zlaydi. Bu yerdagi durdonalar orasida Kushon saltanatining Dalvarzintepa va Holchayon qo'rg'onlaridan topilgan aslzodalar, askar va badavlat ayollar haykallari bor[6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi davrga kelib O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi diplomatik aloqalar o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'yumogda[7]. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi turli sohalarga oid imzolangan hujjatlar, kelishuvlar ikki davlat o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarning yanada rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojlanmogda. Fan va ta'lim sohasiga oid ko'plab kelishuvlarga erishilmogda. O'zbekiston va Germaniya oliy o'quv yurtlari o'rtasida hamkorliklar yo'lga qo'yilmogda. Madaniy sohaga oid ko'plab almashinuvlarga erishilmogda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Фармонов Р, Жўраев К, Рахимов М, Мўминова Ф, Турсунова Р и др "История международных отношений Республики Узбекистан": коллективная монография. – Т. : УМЭД, 2017. С 109.
2. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Т.Давлат илмий нашриёти. 2000-йил. Биринчи жилд.
3. "Шавкат Мирзиёев и Ангела Меркель обменялись поздравлениями" //хттп://ру.спутникнеуэс-уз.ком.
4. "Халқ сўзи" газетаси. 2019-йил.23-январ.
5. <https://www.gazeta.uz>>bitimlar.
6. daryo.uz/2023/05/04/ozbekiston-va-germaniya-prezidentlari-o'zbek-xalqi-madaniy-tarixiy-merosiga-bagishlangan-ko'rgazmani-ochib-berdi
7. Хамраев, С. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПЕРИОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ ЭКОТУРИЗМА В МИРЕ. Инновационные исследования в науке , 2 (10), 15-17.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF AGRICULTURE DURING INDEPENDENCE

Jumaeva Shohida Chorievna,
Teacher of Termiz State University
E-mail: jumayevas@tersu.uz

Abstract. In this article, there are comments on the work carried out during the years of independence, regarding the perfect development of agricultural industries, planning of the sector, setting up a clear system of production, fundamentally changing the attitude to property, and forming a true attitude to private and personal property. Also, information is given on the activities of farms, strengthening the feed base, restoring and increasing the number of livestock, and increasing the volume of livestock production.

Key words: agriculture, farms, livestock, feed, meat and dairy products, private and personal property.

МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Жумаева Шоҳида Чориевна,
Термиз давлат университети ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада мустақиллик йилларида қишлоқ хўжалиги тармоқларини мукамал ривожлантириш, соҳани режалаштириш, ишлаб чиқаришни аниқ бир тизимга солиш, мулкка бўлган муносабатни тубдан ўзгартириш, хусусий ва шахсий мулкка ҳаққоний муносабатни шакллантириш борасида амалга оширилган ишлар борасида мулоҳазалар келтирилган. Шунингдек, фермер хўжаликлари фаолиятлари, озуқа базасини мустаҳкамлаш, чорва сонини тиклаш ва купайтириш, чорва моллари маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш тўғрисида маълумот берилди.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги, фермер хўжаликлари, чорва, озуқа, гўшт-сут маҳсулотлари, хусусий ва шахсий мулк.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N27>

Кириш. Республикамизнинг қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг самарадорлигини ошириш аҳоли фаровонлигини юксалтириш, саноатимизни хом-ашё билан таъминлаш муҳим омил ҳисобланади. Мустақиллигимизнинг илк кунларидан бошлаб қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилишга жиддий эътибор берилди. Бунинг учун қишлоқда аграр ва иқтисодий муносабатларни ислоҳ қилишнинг ҳуқуқий асослари барпо этилди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида қабул қилинган «Ер тўғрисида», «Ижара тўғрисида», «Деҳқон хўжалиги тўғрисида» ги бир қатор қонун ва ҳужжатлар қишлоқда янги ҳуқуқий муносабатларни такомиллаштириш, кўп укладли иқтисодиётни ривожлантириш, тадбиркорлик, ширкатлар, фермер ва шахсий хўжаликларини юксалтириш имкониятини яратди. Бундай ўзгаришларни Сурхондарё вилояти мисолида ҳам кўриш мумкин.

Дарҳақиқат, вилоятда иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш, унга боғлиқ бўлган қарорларни бажариш юзасидан катта ишлар амалга оширилди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мақола учун бирламчи маълумотларни Сурхондарё вилоят архивида сақланаётган 1096-фонд 1991, 1997, 2844, 2846, 2847, 2850, 2292-ишларида аҳолининг чорвачилик маҳсулотларига бўлган эҳтиёжлари, фермер хўжаликлар фаолиятлари билан боғлиқ муносабатлар таҳлили келтирилади.

Тадқиқот методологияси. Мақолада тарихнавислик илмида қабул қилинган усуллар, яъни тарихий таҳлил, қиёсий таққослаш, хронологик кетма-кетлик тамойилларига таяниб, Сурхондарё вилоятида чорвачилик соҳасида амалга оширилган ислоҳотларнинг натижалари юзасидан таҳлилий маълумотлар берилди.

Таҳлил ва натижалар. Мустақиллик йилларида мулкчилик шакллариининг ўзгариши қишлоқ хўжалигида деҳқон ва чорвадорнинг меҳнатга бўлган муносабатини тубдан ўзгартирди. Фермер хўжаликларининг ташкил топиши муҳим аҳамият касб этди. Дастлабки йилларда чорвачилик соҳасидаги қийинчиликлар, эътиборсизлик, айниқса чорва молларини талон-тарож қилиш, ем-хашак таъминотини издан чиқаришга доир одатларга чек қўйилиб, янги чорва-фермер хўжаликларини, давлат бўрдоқчилик мажмуаларининг ташкил топиши мавжуд муаммоларни бартараф этишга йўл очди. Айниқса, бу борада қабул қилинган қонун ва қарорлар ўз самарасини берди. Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 15 мартдаги 137-сон «Чорвачиликда иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига асосан вилоятда хусусийлаштириш масаласига катта эътибор берилди. Натижада вилоятда жамоа тасарруфидаги 70 та қорамолчилик фермалари хусусийлаштирилиб, ўз шакллариини ўзгартириб, ҳиссадорлик жамиятига айлантирилди. Фаолият кўрсатаётган фермер хўжаликларининг сони йилдан йилга ошиб борди. 1994 йилда вилоятда деҳқон-фермер хўжаликлар сони 1,9 баробарга ошди. Шундан 10 минг хўжалик чорвачиликка ихтисослашган эди. Хусусийлаштирилган фермаларда моллар бош сонини ошириш ва маҳсулот етиштиришни кўпайтиришга жиддий эътибор берилди. Масалан, Денов туманида «Лочин» фермер хўжалигида дастлаб 3 гектар ер, 4 бош қорамол мавжуд бўлган бўлса, кейинчалик умумий ер майдони 341,8 гектарга, қорамоллар бош сони 1750 бошга етган, ҳамда ушбу ферма жамоаси йилига 15 тонна сут ишлаб чиқарган. Вилоятда деҳқон-фермер хўжаликларининг ташкил топиши, хусусий фермер хўжаликларининг кенгайиб бориши бунга мисол бўла олади.

Вилоятда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш анча ўсди. Давлат ҳисобига 1995 йил 307,5 минг тонна сут, 68,2 миллион дона тухум, 73,4 минг тонна мол ва парранда гўшти (тирик вазнда) топширилди. Қишлоқ хўжалигида ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми 1997 йилда 32612,5 млн. сўмни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич 1998 йилга келиб 48361,6 млн сўмни ташкил этди.

Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрелда қабул қилинган «Фермер хўжалиги тўғрисида» ги қонуннинг 1-моддасига асосан фермер хўжалиги ўзига узоқ муддатли ижарага берилган ер участкаларидан фойдаланган ҳолда қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқариши билан шуғулланувчи фермер хўжалиги аъзоларининг биргаликдаги фаолиятига асосланган юридик шахс ҳуқуқларига эга мустақил хўжалик юритувчи субъектдир. Натижада, қишлоқ хўжалигида амалга оширилган ислоҳотлар жараёнида жуда катта тажриба қўлга киритилиб, аграр соҳа мутахассислари, ишчи-

хизматчиларига мулк тақсимоотида тенг ҳуқуқли субъект сифатида қатнашиш ҳуқуқини берди. Вилоят қишлоқ хўжаликларига фермер хўжаликлари ташкил топа бошлади. Сурхон воҳасида биринчи фермер хўжаликлари 1989 йилда ташкил этилди. Вазирлар маҳкамасининг 2002 йил 5 январдаги 8-сонли қарорига мувофиқ вилоятнинг Бандихон туманининг «Хўжайпок», Музработ туманининг «А.Икромов», Шеробод туманининг «Истиқбол» ҳамда Шўрчи туманининг «Г.Ниёзов» хўжаликлари негизида 69 та фермер хўжаликлари ташкил этилди. Фермер хўжаликлари давлатга кўплаб маҳсулот етказиб бера бошладилар. Фермер хўжаликлари самарали фаолиятлари вилоятдаги чорвачиликка ихтисослаштирилган «Тошпўлатов Жўраниёз» фермер хўжалиги мисолида кўринди. Хўжаликда Полшадан келтирилган зотдор қорамолларнинг ҳар бири 25-30 литрдан сут берди. Хўжалик қошида кичик ишлаб чиқариш цехлари ташкил этилиб, сут ва гўшт маҳсулотлари қайта ишланиб, аҳоли дастурхонига етказиб берилди.

Вилоятида олиб борилган иқтисодий ислоҳотлар натижасида аграр соҳа тармоқларида ижобий натижаларга эришилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 23 мартдаги «Қишлоқ хўжалигида ислоҳотларнинг чуқурлаштиришнинг энг муҳим йўналишлари тўғрисида»ги ПФ-3326 сонли фармонида мувофиқ, қишлоқ хўжалигида мулкчилик шакллари ўзгартириш ва ишлаб чиқариш муносабатларини такомиллаштириш энг муҳим вазифалардан бири этиб белгиланди. Шунингдек, фермер хўжаликларининг тўлиқ иқтисодий ва молиявий мустақиллигини таъминлайдиган, фермер хўжаликларига узоқ муддатли ижарага берилган қишлоқ хўжалиги ер ресурсларидан мақсадли, оқилона, самарали фойдаланишни рағбатлантирадиган ҳуқуқий шарт-шароитлар ва кафолатларни яратиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқаришни молиялашнинг бозор тамойилларига жавоб берадиган ҳамда молиялашнинг услуб ва шакллари танлашда, молиявий маблағлардан фойдаланишда фермер хўжаликларининг мустақиллигини, барча харажатларни қишлоқ хўжалиги маҳсулотини сотишдан тушадиган ўз даромадлари ҳисобига қоплашни таъминлайдиган ишончли тизимини шакллантириш, бозор шароитида бизнесни бошқариш кўникмаларига эга бўлган фермер хўжаликлари раҳбарлари ва мутахассисларини тайёрлаш тизимини яратиш, қишлоқда фермер хўжаликларининг эҳтиёжларга қараб барча зарур хизматларни кўрсата оладиган замонавий ишлаб чиқариш ва бозор инфратузилмасини жадал ривожлантириш, истиқболда қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчи асосий субъект бўлиб қоладиган фермер хўжаликларини устувор ривожлантириш асосида қишлоқ хўжалигидаги иқтисодий ислоҳотларни жадаллаштириш мақсадида қабул қилинган Ўзбекистон Президентининг «2004-2006 йилларда, фермер хўжаликларини ривожлантириш концепцияси» тўғрисидаги фармонида белгиланди. [1].

Дарҳақиқат, бундай ўзгаришлар чорвачилик соҳасида фаолият олиб борилаётган барча хўжалик юритиш субъектлари учун иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароитларни яратиш берди. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 24 декабрдаги 607-сонли қарорига асосан Сурхондарё вилоятида 30 та ширкат хўжаликларига 844 бош қора мол шу жумладан, 467 бош сизир, 10 минг 607 бош қўй ва эчки 93 бош йилқи ҳамда 30 та ферма бино иншоотларини тугатиш комиссияси томонидан бирма-бир хатловдан ўтказилиб, чорвачилик соҳасида фермер хўжаликлари ташкил этилди. Қорамолчиликда 12 та,

қўйчиликда 37 та жами 49 та фермер хўжаликлари ташкил этилди ва 12 та фермерга 244 га ер майдони ажратилди[2].

Шунингдек, вилоятда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, чорвачилик тармоқларини ривожлантириш, наслчилик ишларини яхшилаш, озуқа базасини мустаҳкамлаш, чорва моллари бош сони ва маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш бўйича самарали ишлар олиб борилди. Шу даврда, фермер хўжаликларига хизмат кўрсатиш учун 12 та мини банк, 12 та ёқилғи мойлаш материаллари, 8 та минерал ўғит сотиш шохобчалари, 24 та муқобил МТП, 29 та сувдан фойдаланувчилар уюшмалари, 6 та қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини тайёрлаш шохобчалари ташкил этилиб, фермер хўжаликларига шартнома асосида хизмат кўрсатилди[3]. 2005 йилда Сурхондарё вилояти фермер хўжаликлар сони 12926 тага етди, шундан 903 та фермер хўжалиги чорвачиликка ихтисослашган эди[4]

Ўрганилаётган даврда вилоятда аграр соҳа шу жумладан чорвачилик тизимида ҳам муҳим ишлар амалга оширилди. Хусусан, қорамолчилик фермер хўжаликларида озуқа экинлари учун 0,45 га ер майдон ажратиш, шу озуқа экинларини 80 фоизини беда озуқасини ташкил қилиш, вилоятдаги фермер хўжаликларининг чорвачилигини ривожлантириш, наслчиликни йўлга қўйиш, техника сотиб олиш, сунъий қочирини ривожлантириш учун узоқ муддатга имтиёзли кредит ажратиш, ҳар бир фермер хўжаликларига паррандачиликни ташкил қилиш мақсадида 5-10 фоиз майдонга озуқа учун арпа ва макка дони учун ер ажратилишини режалаштириш, вилоятдаги аҳоли ва фермер хўжаликларининг моллари учун қочирини, даволаш, насли молларни кўпайтириш корхоналарни ташкил қилиш ва шу корхоналарга 5-10 йилга мўлжалланган имтиёзли кредит бериш, тугатилаётган наслчилик ширкат хўжаликларидаги зотдор чорва молларини сақлаб қолиш мақсадида масъулияти чекланган жамиятга айлантириш борасида чора-тадбирлар вилоят Қишлоқ ва сув хўжалиги бошқармаси томонидан ишлаб чиқилди. [5]

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 23 мартдаги «Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантириш тўғрисида»ги ПҚ-308 сонли қарори асосида вилоятда чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида чорва моллари бош сонини камайтирмаслик ҳамда озуқа экинларидан самарали фойдаланиш, зооветеринария пунктлари ва чорва молларини сунъий урчитиш пунктлари тармоғини кенгайтириш бўйича бир қанча чора-тадбирлар амалга оширилди. 2004 йилда вилоят бўйича умумий секторга 47347 бош қора мол, шу жумладан, 18570 бош сигир, 276699 бош майда мол, 2781 бош йилқи, 342 минг бош парранда, 525 бош чўчқа парвариш қилинди ҳамда чорва моллари бош сонлари маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтириш мақсадида хўжаликларга қора мол, қўй ва парранда ташкил этиш бўйича амалий ишлар ҳам олиб борилди. Жумладан, 490 бош қора мол, 1856 бош майда мол ҳамда 142411 бош парранда ташкил этилиб, мавжуд 129138 та она қўй ва эчкидан 26965 бош қўзи ва улоқ олиниб, уларнинг барчасини ўстиришга қолдирилди[6]. Бундан мақсад чорва молларнинг кўпайтиришда сон жиҳатига эмас, балки уларнинг зотдорлиги ва маҳсулдорлигига эътибор қаратиш ҳамда маҳсулдор урғочи моллар сонини кўпайтириш, чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни камайтиришни олдини олиш, чорвачилик соҳасида иқтисодий самарадорликка эришиш асосий омил эди.

Бу борада вилоятда чорва моллари бош сонларини камайтирмаслик, чорва молларини парваришlash, соҳада иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш борасида бажарилган ишлар натижасида 2005 йил умумий секторда 1218 тонна гўшт, 2036 тонна сут, 8406 минг дона тухум етиштирилди. Бу эса 2004 йилга нисбатан гўшт 140 тонна, сут 73 тоннага кўпайган. Лекин шу билан бирга айрим ширкат хўжаликлари томонидан чорвачиликка етарли эътибор берилмаганлиги, озуқа базасини мустаҳкамлаш, наслчилик ишларининг олиб борилиши талаб даражасида эмаслиги натижасида чорва моллари бош сонлари камайган. Жумладан, вилоят бўйича 2005 йилда қорамол бош сони 13013 бошга кўпайган бўлсада, Бандихон туманида 264 бошга, Олтинсой туманида 733 бошга ва Шўрчи туманида 1890 бошга чорва моллари камайган[7]. Шунга қарамасдан аҳолининг чорвачилик маҳсулотларига бўлган эҳтиёжи доимо ортиб борган. Шундай экан чорвачилик соҳасида иқтисодий самарадорликка эришишнинг асосий йўлларида бири чорва молларининг маҳсулдорлиги ва маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтиришни йўлга қўйиш, чорвачиликда наслчилик ва иқлимга мос зотдор чорва молларини кўпайтириш, ҳамда озуқа рационини ишлаб чиқиш ва озуқа базасини ташкил этишдир.

Вилоят Қишлоқ ва сув хўжалиги бошқармаси томонидан 2007 йил мол бош сонлари ва маҳсулот ишлаб чиқаришни олдинги йиллардаги кўрсаткичлардан камайтирмаслик, она совлиқларнинг чиқимини камайтириш, қишлоғни беталафот ўтказиш бўйича чора тадбирлар белгиланди. Чорва қишлоғини талафотсиз ўтказиш мақсадида чорвачилик хўжаликларига кучли озуқалар олиш бўйича вилоят «Молхонаш» биржасида «Ким ошди» савдолари ташкил этилиб, аҳоли, деҳқон ва фермер хўжаликларининг насли молларга бўлган талабларини қондириш мақсадида ҳар йили насли моллар кўргазмалари ташкил этилди, ҳамда наслчилик хўжаликларида етиштирилган 202 бошдан зиёд насли моллар «Ким ошди» савдолари орқали сотилди[8]. Натижада, ушбу йилда чорвачилик билан шуғулланадиган фермер хўжаликлари сони 952 тага етказилиб, уларда 41 минг 558 бош қорамол, 100 минг 848 бош майда мол, 1 минг 849 бош йилқи парваришланди[9].

Бундан ташқари вилоятда 22 та паррандачилик фермер хўжаликлари ташкил этилиб, уларда 36,1 минг бош парранда боқилди ва уларга 103 гектар ер майдони ажратилди[10]. Вилоятда 218 та қорамолчилик, 346 та майда туёқли молларга қўра-қўтанлар, 38 та паррандачилик бинолари, 23 та озуқа цехлари тўлиқ қишлоғга таъмирланиб, қишлоғ учун барча тоифа хўжаликларида 1374 минг тонна хашак, шундан 442 минг тонна сомон, 20,6 минг тонна беда пичани, 841 минг тонна янтоқ ва бошқа дағал хашак жамғарилди. Ўрганилаётган даврда, аҳоли хонадонларидаги чорва молларига зооветеринария хизмати кўрсатишни кенгайтириш борасида ҳам анча ишлар бажарилган. Хусусан, 241 та зооветеринария пунктлари томонидан аҳоли ва фермер хўжаликлар қаромоғидаги чорва молларига 73,7 млн сўмлик зооветеринария хизмати кўрсатилди. Кўрсатилган хизматга қўра бир шартли молга хизмат кўрсатиш ўртача 350 сўмдан тўғри келди[11]. Вилоятда 255 та зооветеринария пунктларининг 230 тасига дюар идишлари етказиб берилиб, улар малакали мутахассис ва зарур асбоб-ускуналар билан таъминланди ҳамда ушбу йилда қўшимча 19 та зооветеринария пунктлари ташкил этилди[12]. Шу билан биргаликда, аҳоли, шахсий ва фермер хўжаликларнинг чорва молларини кўпайтириш мақсадида, қишлоқ жойлардаги кам

таъминланган ва кўп болали оилаларга 2250 бош сигир бериш режалаштирилиб, амалда 2256 бош қора мол тарқатилди. Тарқатилган сигирлар тўлиқ ветеринария кўригидан ўтказилиб, уларни бепул эмлаш тадбирлари амалга оширилиб, 2,5 млн сўмлик бепул ветеринария хизмати кўрсатилди. Бундан ташқари Самарқанд шаҳридаги «Санжар-ГОЛД» хусусий ветеринария фирмасидан 14 та дюари идиши, 22 та термосумка ва 6 та акушерлик тўпламлари олиб келиниб, Сариосиё тумани чорва фермер хўжаликларига тарқатилди[13].

Вилоятда қорамолчилик билан шуғулланаётган фуқароларга чорва моллари боқиш учун 2007 йил давомида 1855 млн сўм кредит ажратилди. Шундан тижорат банклари томонидан 1458 млн сўм ва 436,9 млн сўм иш билан кўмаклашиш жамғармаси маблағлари ҳисобидан берилди[14]. Қорамол боқиш билан банд бўлган фуқароларни ижтимоий муҳофаза қилиш мақсадида 10,6 минг нафар фуқароларга тегишли тартибда меҳнат дафтарчалари расмийлаштирилди.

Хулоса. Мустақиллик йилларида бутун республикада бўлгани сингари Сурхондарё вилоят қишлоқ хўжалигида ҳам мулкчиликнинг янги шакллари қарор топди, ер ҳақиқий эгасига берилди. Қишлоқ хўжалигини вилоятда янги асосда ислоҳ қилиш жараёни амалга оширилди. Чорва туёқ сонларини тиклаш ва кўпайтириш муҳим масалалардан бири бўлди. Айниқса, ниҳоятда нодир бўлган зотдор ва наслдор туёқ сонларини кўпайтириш, сақлаш масаласига жиддий эътибор берилди. Ислохотлар натижасида чорвачилик соҳасида ҳам илғор технологиялар жорий этилди. Аҳолига гўшт ва сут маҳсулотлари етказиб беришнинг сифати ва миқдори ошди. Натижада, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашни яхшиланишига сабаб бўлди.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Президентининг «2004-2006 йилларида фермер хўжаликларни ривожлантириш концепцияси» тўғрисидаги ПФ-3342-сонли Фармони. 2003 йил 27 октябрь//www.Lex.uz.
2. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд, 1-руйхат, иш-2292, 120-варақ.
3. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви . 1091- фонд, 1-руйхат, иш-2298, 24-варақ.
4. Қаршиев Ш. Фермер хўжаликларида иқтисодий тмуносабатларни такомиллаштириш,(Қашқадарё вилояти мисолида). Иқт.фан.номз. ...дисс.-Тошкент, 1998. – Б. 142.
5. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд,-руйхат, иш-2298, 134-варақ.
6. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви 1091- фонд, 1-руйхат, иш-1991, 44-варақ.
7. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви 1091- фонд, 1-руйхат, иш-2292, 120-варақ.
8. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд ,1-руйхат, иш-1997, 28-варақ.
9. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд ,1-руйхат, иш-2846, 128-варақ.
10. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд ,1-руйхат, иш-2850, 180-варақ.

11. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд,1-руйхат, иш-2844 , 180-варақ.
12. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви. 1091- фонд, 1-руйхат, иш-2850, 256-варақ.
13. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви 1091- фонд, 1 -руйхат, иш-2847, 158-варақ.
14. Сурхондарё вилоят хокимлиги жорий архиви 1091- фонд, 1-руйхат, иш-2844, 179-варақ.
15. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1), 151-154.
16. Shodavlatovna, D. S., & Chorievna, J. S. (2021). The issue of a just king in kaikous's nightmare. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1416-1420.
17. Жумаева, Ш. Ч. (2020). РАЗВИТИЕ И СОХРАНЕНИЕ АУТЕНТИЧНОСТИ КАК УСЛОВИЕ ЕСТЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕКА. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (4), 46-49.
18. Chorievna, J. S. (2022). Livestock Reforms in Surkhandarya. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 4, 68-70.
19. Jumayeva, S. (2023). IMPORTANCE OF ANIMAL HUSBANDRY TODAY, DEVELOPMENT PERSPECTIVES. *Open Access Repository*, 9(9), 23-26.
20. Жумаева, Ш. Ч. (2019). ЭПОХА ПЕРВООБЫТНООБЩИННОГО СТРОЯ. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1), 27-30.
21. JUMAYEVA, S. (2023). IMPORTANCE OF LIVESTOCK IN AGRICULTURE, DEVELOPMENT PROSPECTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 19, 167-169.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE IMPACT OF EXPANDING EDUCATIONAL OPPORTUNITIES ON PROVIDING GENDER EQUALITY

Elmuratova Umida Farkhadovna

Associate professor of the department of "Social sciences and physical culture", TTLII, PhD in historical science

E-mail: elmuratovau@mail.ru

Abstract. This article reveals the importance of expanding educational opportunities and expanding coverage to achieve gender equality. The state policy is substantiated of ensuring the priority of reforms of free access to educational opportunities with the full protection of women in the renewing Uzbekistan.

Key words: gender, protection, National Program, educational opportunities, equality, privilege, tradition, reform, poverty reduction, Third Renaissance, rise.

TA'LIM IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHNING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA TA'SIRI

Elmuratova Umida Farxadovna

TTYESI "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsent, tarix fanlari bo'yicha PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlashda ta'lim imkoniyatlarini oshirish va qamrovni kengaytirish muhim ta'sirga egaligi yoritilgan. Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarni ko'p tomonlama himoya qilishda ta'lim imkoniyatlaridan erkin foydalanish islohotlari ustuvorligini ta'minlashdagi davlat siyosati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: gender, himoya, Milliy dastur, ta'lim imkoniyatlari, tenglik, imtiyoz, urf-odat, isloxot, kambag'allikni kamaytirish, Uchinchi Renessans, yuksalish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N28>

"Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Millatimiz tarixidan ma'lumki, adolatli jamiyatni tashkil qilish va uni yuksaltirishda ayollarning qadr-qimmatini va huquqlari masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da, Islom dinining muqaddas manbasi "Qur'on" va

“Hadis” ilmida hamda buyuk ajdodimiz markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur qoʻllagan tartibotlar fikrimizni isbotlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida esa erkaklar va ayollar teng huquqliligini taʼminlash yanada dolzarblik kasb etayotgan boʻlib, bu demokratik tartibotlarning oʻziga xos parametrlaridan biri sifatida aks etadi.

Yangilanayotgan Oʻzbekistonda gender tengligini taʼminlash va xotin-qizlar huquq-manfaatlarini himoya qilish masalalari yildan yilga dolzarblik kasb etib borayotganligini qayd etish lozim. Jumladan, amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi doirasida har yili qabul qilingan Davlat dasturlaridan boshlab ayollar huquqlari toʻgʻrisidagi qonun xujjatlarini takomillashtirish, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda aholining gender tenglik toʻgʻrisidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlarga eʼtibor kuchaytirildi. Ayniqsa, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-87-sonli Farmoni va uning asosidagi “2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boʻyicha Milliy dastur”ning amaliyotga tatbiq qilinganligi muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Oʻzbekistonda gender tenglikni taʼminlash sohasida xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻtgan 7 yil mobaynida sohaga oid 40 dan ortiq qonunchilik hujjatlari va muhim konseptual hujjatlar qabul qilingan boʻlib, bu jarayon doimiy dolzarblik kasb etadi.

Mazkur hujjatlar doirasida jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishi, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi oʻrnining mustahkamlanishi, ularning taʼlim olishlari, kasb-hunar oʻrganishlari uchun zarur sharoit yaratilganligi, bandligini taʼminlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish hamda ayollarning iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish, turli tazyiq va zoʻravonliklardan himoya qilish maqsadlarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Natijada Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlash va taʼlim sohasida band boʻlgan aholi oʻrtasida xotin-qizlar ulushi 77 foiz, iqtisodiyot va sanoat sohasida 46 foiz natijaga erishildi, 2 ming nafarga yaqin xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

Xotin-qizlarning taʼlim olishlari uchun imkoniyatlarning kengaytirilishi natijasida oliy taʼlim muassasalarida taʼlim olayotgan xotin-qizlar soni 6 barobarga koʻpaydi, xususan, bakalavr yoʻnalishida oʻqiyotgan xotin-qizlar ulushi 38 foizdan 49 foizga, magistratura bosqichida oʻqiyotganlar esa 37 foizdan 50 foizga ortgan.

Gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan taʼlimdagi ijobiy siljishlarni alohida taʼkidlash kerak. Yaʼni, 2017 yildan boshlab aksariyat oliy oʻquv yurtlarida turli mutaxassisliklar boʻyicha sirtqi boʻlimlar faoliyati tiklandi. Taʼlimning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy maʼlumot olish imkoniyatini beradi.

Oʻz navbatida qayd etish lozimki, respublikamizda oliy taʼlim muassasalarida xotin-qizlar qamrovini oshirishga katta eʼtibor qaratilayotgan boʻlsa-da, bir qator faktorlar unga toʻsqinlik qilayotganligini ham qayd etish lozim. Xususan, ijtimoiy-madaniy meʼyorlar, urf-odatlar, belgilar, stereotiplar haqiqatdan ham tenglikka erishishda jiddiy qarshilik va toʻsiqlar

bo'lib qolmoqda. Jamiyat tomonidan belgilangan xulq-atvor modellari o'zlarining ehtiyojlari, istaklari va xohishlariga emas, balki belgilangan me'yorlarga amal qilishni talab qiladi. Shunday qilib, qizlar uchun kasb va kasbni tanlash ayolning "parvarishlash iqtisodiyotida" xizmat vazifasini bajarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasini tanlash bo'yicha an'anaviy g'oyalari bilan bog'liq.

Rivojlangan davlatlar bilan analitik tahlil keltiradigan bo'lsak, "AQShda tabiiy fanlar, texnologiyalar, texnik ijod va matematikada iqtisodiy faol aholining 24%ni ayollar tashkil etadi" [4]. O'zbekistonda esa ayollarning ilmiy va texnik faoliyat bilan shug'ullanuvchi ko'rsatkichi 5%ni ham tashkil qilmaydi.

Bugungi kunda yosh avlodning kasb-hunar egallashi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ilm-fan, innovatsiyalarga qiziqtirish maqsadida oliy ta'lim tizimiga yanada ko'proq jalb etish uchun shart-sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq oliy ta'lim bilan xotin-qizlarimizni qamrab olishni kengaytirishning ahamiyati bo'lakchadir. Chunki oliy ta'lim yosh xotin-qizlarning kelajagiga muhim poydevor, ularning kelgusida barcha sohalar da malakali kadrlar sifatida faoliyat yuritishlarida ushbu ta'lim bosqichining ahamiyati beqiyos. Bulardan tashqari, 2022 yildan boshlab davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o'quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilinishi yo'lga qo'yildi.

Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutar ekan, shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim, hunarlarni puxta egallagan, shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanishimiz ayni haqiqat.

Rivojlanishning asosini ilm-fan tashkil etishini kundalik hayotimiz ko'rsatib turibdi. Bugungi raqamlashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirish sharoitida ta'lim masalalariga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Sababi shundaki, "Uchinchi renessans" poydevorini yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish, kambag'allikni kamaytirishda, jamiyatimiz rivoji, O'zbekistonning xalqaro imidji va jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini oshirishda ta'limning, ayniqsa, oliy ta'lim bilan yoshlarni, xususan, xotin-qizlarimizni qamrab olishni yanada oshirish alohida e'tiborga molik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasida har yili alohida gender tenglikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, oliy ta'lim muassasalari, xususan, xorijiy va xususiy oliy ta'lim muassasalarining soni salmoqli ravishda oshganligi, oliy ta'limga qabul parametrlari 2016 yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sganligi, yoshlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetganligi, ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o'quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilinganligi qayd etildi.

Shuningdek, *"Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingga yetkazamiz. A'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi* [2], – deb ta'kidladi Prezidentimiz.

E'tiborli jihatlardan yana biri shundaki, kelgusida ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 4,5 mingga yetkazilib, byudjetdan qo'shimcha 240 milliard so'm ajratilishi ta'kidlandi. Bu, albatta, ilmiy izlanishlar olib borayotgan yoshlarimiz uchun katta imkoniyat eshigini ochadi. Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar

bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirish ilmiy faoliyatning nufuzini oshirishi bilan birga, uning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivoji uchun naqadar ahamiyatli ekanligini ham amaliy tasdiqlaydi.

Qayd qilish kerakki, jamiyatimizda ko'p xollarda xotin-qizlar erkaklarga nisbatan kam haq to'lanadigan kasb va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritadi. Ularning moddiy va ma'naviy qaramligi, daromadagi tengsizlik tegishli ravishda kam ta'minlanganlik bilan bog'liq muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, xotin-qizlar tomonidan tanlangan kasblarni barcha o'rinlarda ham ixtiyoriy deb bo'lmaydi.

Oliy ta'limda xotin-qizlar ulushining oshgani kuzatilsa-da, mehnat bozorida hozirgi kungacha saqlanib qolayotgan "ayollarga xos" va "erkaklarga xos" kasb mutaxassisliklarida aniq gender asimmetriyasi saqlanib qolmoqda, ya'ni ayollarning ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, san'at va madaniyatda, erkaklarning esa qurilish, moliya, transport, aloqa, logistika, huquqshunoslik, sanoatda baland haq to'lanadigan sektorlarda ko'pchilikni tashkil etayotganligini kuzatamiz.

Nazarimizda, qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirishni aynan ushbu yo'nalishlardagi OTMda, ya'ni baland haq to'lanadigan sektorlarda xotin-qizlar ulushini oshirish; sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim olishga keng yo'l ochish; nogiron, ijtimoiy ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oila qizlariga aholida turdagi qo'shimcha kvota ajratish; xotin-qizlar kam ta'lim olayotgan OMTga jalb etishda OAVdan foydalanib targ'ibot ishlarini amalga oshirish; iste'dodli qizlarni davlat granti asosida o'qitish ishlarini amalga oshirishda qo'shimcha kvotalar ajratishni tashkillashtirish; o'qishni imtiyozli tamomlagan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashni OTM tomonidan ta'minlash; o'rta-maxsus, kasb-hunar hamda yangi kasb va mutaxassislikni egallashda, hunar o'rgatishda davlat granti ulushini ko'paytirish, xususiyl sektorlarda tekin yoki arzon hamda sifatli (haq evaziga kasbga o'rgatish hozirgi kunda asosan MChJlar hissasiga to'g'ri kelmoqda) kasb egallashga ko'maklashish; nogiron, ijtimoiy ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oilalarga alohida kvota ajratish; ushbu amaliyotni qo'llagan MChJga soliqni kamaytirish yoki boshqa turdagi imtiyozlarni taqdim etish; imkoniyatlarini hisobga olib masofaviy ta'limdan yoki asosiy ishdan ajralmagan holda mehnat qilish bilan bir qatorda kasb o'rganish, yangi sohalarni o'zlashtirishga imkoniyat yaratish lozim.

Darhaqiqat, oliy ta'lim bilan qamrab olish ayollarning erkaklar bilan mehnat bozorida raqobatga kirisha olishiga imkon beradi, oila byudjeti daromadi ko'payishiga, jamiyat rivoji, turmush farovonligi oshishiga, pirovardida aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish hamda qashshoqlikni yuqotishga xizmat qiladi.

Dunyodagi har bir xalq o'z tarixiy an'anasi, urf-odati, ma'naviy qadriyatiga suyanib yashaydi. Bunday tushunchalar turmush kechirish jarayonida hisobga olinadi, albatta. Zero, jamiyatning hayot kechirishi, taraqqiyotga intilishi, yuksalishi shundan kuch oladi. Har tomonlama farovon hayotga erishishni maqsad qilgan jamiyat o'z a'zolarining irqi, jinsi, tili va diniy mansubligiga qaramay, huquqiy tengligini ham to'la-to'kis ta'minlashi o'ta muhim masala ekanini unutmasligi lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari". T., "O'zbekiston". 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

3. “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5899498>
4. Из исследования компании SIAR // <http://siar-consult.com/news/bolee-poloviny-naseleniya-schitayut-cto-vkyrgyzskoj-respublike-net-uslovij-dlya-razvitiya-zhenskogo-predprinimatelstva/>

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF REPRESSIVE POLICIES IN THE 80S OF THE XX CENTURY ON SOCIO-ECONOMIC PROCESSES IN SURKHANDARYA

Nazarov Otabek Muzrobovich,

Teacher of Termiz University of Economics and Service

E-mail: otabeknazarov8080@gmail.com

Abstract. In this article, the media coverage, results, and consequences of the “cotton case” and “Uzbeks case” carried out by the investigative team led by Gdlyan and Ivanov in Uzbekistan in 1983-1989 are studied. At the same time, articles published on this topic in the periodical press were mutually analyzed to slander the people or repress them with false accusations.

Key words: reconstruction, cotton case, press, Gdlyan and Ivanov group, press publications, unjustly accused, slander.

XX ASRNING 80-YILLARI QATAG‘ONLIK SIYOSATINING SURXONDARYODAGI IJTIMOY-IQTISODIY JARAYONLARGA TA‘SIRI

Nazarov Otabek Muzrobovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda 1983-1989 yillarda amalga Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergov guruhi tomonidan amalga oshirilgan «paxta ishi», «o‘zbeklar ishi» nomli o‘ylab topilgan uydirmalarning Surxondaryo viloyatdagi natijalari, oqibatlari o‘rganilgan. Ayni vaqtda davriy matbuotda shu mavzu yuzasidan yoritilgan maqolalarning xalqini qoralsh yoki yolg‘on ayblaovlar bilan qatag‘on qilishni o‘zaro tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: qayta qurish, paxta ishi, matbuot, Gdlyan va Ivanov guruhi, matbuot nashrlari, nohaq ayblanganlar, bo‘hton.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N29>

Kirish. 1985-yil 23-aprelda e‘lon qilingan “qayta qurish” ittifoqning chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunlikni boshdan kechirayotgani, sotsializm qurish rejasi amalga oshmaganidan dalolat edi. Qayta qurish e‘lon qilinishidan oldinroq 1983-yilda Y.Andropov ko‘rsatmasi bilan boshlangan “paxta ishi” bu vaqtga kelib bir guruh markazdan yuborilgan “desantchilar” tomonidan avjiga oldirilayotgan edi. [5] “Paxta ishi” deb nom olgan qatag‘onlik siyosati O‘zbekistonda “qayta qurish” islohotlari bilan aralashib ketdi.

Bu davrda sovet jamiyatida turmush darajasi va sifati, o‘rtacha umr kechirish darajasi, xususan, bolalar o‘limi, aholini keng iste‘mol mollari va xizmatlari bilan ta‘minlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha sovet ittifoqi nafaqat rivojlangan, balki taraqqiyoti o‘rtacha darajadagi kapitalistik mamlakatlardan ham ancha orqada qolib ketdi[6, 54-b]. Xususan, O‘zbekiston viloyatlaridagi ahvol undan-da og‘irroq edi.

Respublikaning boshqa hududlari singari Surxondaryo viloyatdagi aholi turmush darajasining yomonlashuvi iste'mol mahsulotlarining yetishmasligi aholi noroziliklariga sabab bo'ldi. 80-yillarning so'nggi yillarida aholining ijtimoiy ahvoli yanada yomonlashdi. Respublikadagi ijtimoiy ahvol, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish mutlaqo qoniqarsiz bo'lib, qishloq aholisining atigi 5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi ichimlik suvi bilan, 17 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlangan edi, xolos.[3, 48-bet]

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar — tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, XX asrning 80-yillaridagi paxta ishi qatag'onlik siyosatining Surxondaryo viloyatidagi ijtimoiy oqibatlari arxiv ma'lumotlari va asarlar tahlili asosida yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

XX asrning 80-yillarida O'zbekistondagi paxta ishi siyosati oqibatlari haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxivining 1714-fondi, Surxondaryo viloyati arxivining 45, 50, 72, 100 fondlarida uchraydi. Maqolani yozishda arxiv hujjatlaridan tashqari, aynan tadqiq qilingan davr haqida A.Azizxo'jayev, F.Razzoqov Q.Rajabov, I.Alimov, I.Yo'ldoshev, S.Abashin, A.Avtarxanov, A.Bezborodov, N.Yeliseyeva, V.Shestakovlarning asarlari, N.Muxiddinov O'.Omonova, A.Rashidovlarning nashr etgan xotira esdaliklari, hisobot to'plamlar, risola asarlari, davriy nashrlardagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistonda yetishtirilgan paxta xom ashyosining 93-94 foizi, oltinning barchasi Markazga olib ketilgan holda, mahalliy aholining iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji tobora oshib bordi. Bu ehtiyoj asosan Ittifoqning boshqa mintaqalaridan don va go'shtning 70 foizi, kartoshkaning 60 foizi, qand, quruq sut va bolalar oziq-ovqatlarining 100 foizi va boshqa mahsulotlar yurtimizga olib kelingan. Respublika aholisining eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli darajasi yillar davomida o'zgarmay qoldi. Chunonchi, O'zbekistonda 1975-yilda kishi boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'moli 31 kg, sut va sut mahsulotlari 165 kg, tuxum iste'moli 93 dona, baliq iste'moli 4,0 kg ni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu ko'rsatkich mos ravishda go'sht va go'sht mahsulotlari bo'yicha 32 kg, sut va sut mahsulotlari bo'yicha 210 kg, tuxum 120 dona, baliq 4,9 kg ni tashkil etgan.[3, 58-bet]

1980-yil 1-noyabr holati bo'yicha Surxondaryo viloyat kolxoz va sovxozlaridagi sug'oriladigan yer maydoni 281,7 ming gektar, yaylovlar 939,6 ming gektar, bog'lar va uzumzorlar 19,4 ming gektar bo'lgan. 13 ming gektari aholining tomorqalari tashkil etgan (kolxozlarda 6,1 ming ga, sovxozlarda 6,9 ming ga). Jami sug'oriladigan yerlarning 54,5% yoki 153,1 ming gektar yerga paxta, 53,9 ming gektarga g'alla, kartoshka 1,0 gektar, sabzavotlar uchun 6,6 ming gektar, polizga 2,3 ming gektar, yem-xashak uchun 67,4 ming gektar ajratilgan edi.[13, c. 97,100,101]

Sug'oriladigan ekin maydonlari sho'rlanishiga yo'l qo'yilmay, to'liq foydalanilgan.1981 yilda Markaz tomonidan belgilangan reja bo'yicha Surxondaryo viloyati 600000 tonna paxta topshirishi zarur edi. Taqqoslash uchun qo'shni Qashqadaryoda 560 ming tonna majburiyat yuklangan edi.[13, c. 100, 105, 106, 107-b].

1981-yilda shahar aholisining nisbati 18,7% bo'ldi. Qolgani esa qishloq xo'jaligida yashagan. 1986 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Surxondaryo viloyati aholisining soni 1133 ming

kishi, shundan 910 ming kishi qishloqlarda yashashi qayd etilgan. O'zbekistonda ijtimoiy soha, fan, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash rivoji Ittifoq ko'rsatkichidan eng past darajada qolgan. Shaharliklar 210 ming, maktab o'quvchilari 296,1 ming, maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari 66,9 ming, oliy ta'limda 4 ming, o'rta maxsus bilim yurtlarida 10,4 ming talaba bo'lgan. 1985-yilda viloyatda 48 ta kolxoz va 82 ta sovxoz bo'lib, ularda jami 167,8 ming ishchisi bor edi [8, 29-b]. Qolgan 377,8 ming kishidan chaqaloqlar, pensionerlar, harbiylar, maktab, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari o'qituvchilari, bog'cha muassasalaridagi tarbiyachilar, tibbiyot xodimlari, quruvchilar, irrigatorlar, partiya va sovet idoralari xodimlari, sud-huquq, ichki ishlar tizimi xodimlari, shofyorlar, davlat tashkilotlari ishchilari, kommunal xizmat xodimlari, madaniyat tashkilotlari xodimlari va shu kabi muassasa xizmatchilari olib tashlangan taqdirda ham Surxondaryo qishloqlarida eng kamida 100-120 ming ishsiz bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

Viloyatda qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari va sanoatni rivojlantirish orqali ishsizlikni bartaraf etish mumkin edi. Ammo paxta monopoliyasi yo'l bermadi. Garchi Surxondaryo paxta va boshqa xom ashyoning koni bo'lsa-da, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun chora-tadbir qilinmadi [10, 14-b]. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, 1960-yilda 80 ming pogon metr gazlama ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan keyin to 1980 yillarga qadar to'xtab turdi. Keyin 1982-yilda atigi 7 ming, 1983-yilda 8 ming, 1984-yilda 7 ming pogon metr gazlama ishlab chiqarilib, 1985-yilda batamom to'xtatildi. Viloyatdagi yagona tikuvchilik fabrikasi Termiz shahrida joylashgan bo'lib, 1985-yilda atigi 10 ming dona yuqori trikotaj mahsulotini ishlab chiqardi. Bu ko'rsatkich Buxoroda 3988 ming, Jizzaxda 3839 ming, Samarqandda 3022 ming, Xorazmda 25 ming, Toshkent viloyatida 652 mingni tashkil qildi. Trikotaj ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Surxondaryo viloyati Navoiy bilan teng, Qoraqalpog'istondan sal yuqori (7 ming) bo'ldi [14, c. 79]. Viloyat pillachilikning asosiy makoni bo'lishiga qaramay, 1984-yilda 1016 ming metr kvadrat tayyorlanishi rejalashtirilgan bo'lsa-da amalda bu natijaga erishilmadi [7, 187-b]. 1985-yilda 1427 tonna pilla yetishtirib, ishlab chiqargan mahsuloti bor-yo'g'i 1366 pogon metrni tashkil qilgan. Unga ham zarur bo'lgan ip chetdan keltirilgan. Vaholanki, o'sha yili Namangan viloyatida 76231, Farg'onada 55066, Samarqandda 11739 pogon metr ipak gazlama ishlab chiqarilgan edi [13, c. 79].

Viloyatning yirik chorvachilik markazi bo'lgan Boysun tumani faqat 1990 yildagina davlatga go'sht topshirish rejasini bajarib olgan. Ungacha 15 yil davomida rejani bajarish imkoni bo'lmagan. Sut esa 84 foiz ado qilingan. Lekin 1989 yilga nisbatan 115 tonna ko'p bo'ldi. 1990 yilda tuman bo'yicha atigi 2 ming tonna g'alla yetishtirilgan [9, 186-b]. Viloyat bo'yicha 1986-1989-yillarda ko'pgina xo'jaliklarda go'sht va sut topshirish rejalari barbod bo'ldi.

Sovet davlatidagi rejali iqtisodiyot hech qanday iqtisodiy qonuniyatlar va obyektiv sabablarni tan olmas edi. Reja qanday bo'lmasin bajarilishi shart va zarur edi. Markaz bir tomondan O'zbekistonga bajarib bo'lmaydigan rejani taqdim etar, ikkinchi tomondan o'zbek paxtakorlarining og'ir mehnatiga juda past narx belgilar, bu ishi bilan O'zbekistonda qo'shib yozishni keltirib chiqardi. Rejani bajarmaslik partiyadan o'chirilib, mansabidan ajralish yoki jinoiy javobgarlikka tortilishgacha borar edi. Rejani bajarish uchun kolxoz va sovxozlarning rahbariyati yuqoriga noto'g'ri axborot berish va qo'shib yozishga majbur bo'lgan edi. Aslida F.I.Razzakovning qayd etishicha, qo'shib yozish markazning kapitalistik mamlakatlardan sotsialistik mamlakatlarning ustunligini ko'z-ko'z qilish maqsadida maxsus tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan. [16, 246-b.]

Ta'lim va meditsina xodimlari hamda o'quvchilarni paxta terimiga jalb etish kampaniyasi 2-3 oyga cho'zilib ketishi odatga aylangandi. Uzoq yillar Qiziriq(sobiq Lenin yo'li) tumanida maktab direktori lavozimida faoliyat yuritgan Nabi Xalilovning so'zlariga ko'ra maktab o'quvchilari bir o'quv yilida uch-to'rt oy maktabga borishgan, boshqa vaqtlarda asosan qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilgan. Bu o'z navbatida o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlarida mutaxassislar tayyorlash ishining sifatiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Oliy o'quv yurtlari malakali professor-o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlanmadi, ta'lim olishning zamonaviy texnikaviy vositalari eskirib ketdi. Bu sohada sifatga emas, balki miqdorga e'tibor berish odatga aylandi.

SSSRning markaziy ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonda paxta ishlab chiqarishda katta hajmdagi "qo'shib yozishlar", aksariyat mansabdorlarning "korrupsiyalashganligi", "poraxo'rlikning avj olganligi" kabi tuhmatdan iborat ayblovlarni e'lon qilinishi, bu kabi ayblovlarni Moskvadagi partiya rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi natijasida respublikada ijtimoiy-siyosiy holat tanglashdi. Boshqacha aytganda, hali o'zining ijtimoiy-siyosiy asosiga ega bo'lmagan oshkoralik va tanqidbozlik kampaniyasi O'zbekiston uchun qandaydir "jazolash chorasi" sifatida namoyon bo'ldi.

Sovet hukumat rahbariyati tomonidan O'zbekistonga ketma-ket ravishda Bosh prokuraturaning amaldorlari, ichki ishlar vazirligi va davlat xavfsizlik qo'mitasi tezkor xodimlarini yuborish an'anaga aylandi. Bu idoralar orasida shaxsiy tarkibi, harakatlanish hududi va ta'sir kuchi nuqtai nazaridan eng yirigi hisoblangan O'zbekiston SSR IIVga markazdan 1984-1989-yillarda hammasi bo'lib 150 ta xodim kelgan [1, 152-b.]. Ularning haftalik, oylik tergov ishlari natijalari butun ittifoq ommaviy axborot vositalarida namoyish qilina boshlandi. O'zbekiston qisqa davr ichida SSSRning boshqa Respublikalari o'rtasida "korrupsiyalashish" timsoliga aylangan edi. [18, 245-6].

1983-1989-yillar ichida markazdan kelgan "desantchilar" faoliyati natijasi o'laroq respublikadagi kolxoz raislari va sovxoz direktorlarining 60 foizidan ko'prog'i, qishloq xo'jaligi sohasidagi yetakchi mutaxassislarining qariyb 45 foizi, barcha paxtachilik brigadasi boshliqlarining uchdan biri o'z lavozimlaridan olib tashlandi. Bu lavozimda ishlayotgan 40 mingga yaqin fuqarolar markazdan kelgan tergovchilar qiynog'i ostida qoldi [2, 72-73-b.]. Ular tergovlar davrida tergov izolyatorlarida saqlandi, ularning ko'pchiligi turmular va lagerlariga yuborildi. Bu holat o'zbek xalqining ruhini tushirib yubordi. Viloyatda vahimachilik avj oldi, ertangi kunga ishonmaslik, ijtimoiy tushkunlik, passivlik o'sha davrning o'ziga xos belgilaridan biriga aylandi. Uzoq yillar Qiziriq tumanida faoliyat olib borgan Chori Alimov fikricha "... aholi o'zlarining kunlik doimiy ish faoliyatini olib borayotgan bir paytda, "paxta ishi" kompaniyasi davrida shov-shuvlar, qama-qamalar aholini ijtimoiy maishiy turmushini izdan chiqardi. Tuman rahbarlari qo'rquv va vahimada kun kechirdi, tizimli faoliyat butunlay izdan chiqdi".

Viloyatdagi mahalliy gazetalarda ham ittifoq miqyosida chop etiladigan nashrlardagi maqolalarni chop etish, munosabat bildirish bo'yicha topshiriqlar bo'lib turgan. Gdlyan va Ivanov va ularning tarafdorlari tomonidan Respublika hamda markaz OAVlarida omma e'tiborini chalg'ituvchi, uydirma ma'lumotlarning doimiy berib borilganligi butun jamoatchilikda noto'g'ri fikr va dunyoqarashni shakllanishiga olib keldi [11, 330-b.]. Ular shon shuhratga ega bo'lish uchun matbuotdan ustalik bilan foydalanishdi.

"Paxta ishi" va "o'zbeklar ishi"ni butun bir o'zbek millatiga nisbatan qo'llanilishi, o'zbek xalqini butun ittifoq bo'ylab "salbiy obraz" timsoli sifatida targ'ib etilishi nafaqat ijtimoiy yoki huquqiy adolatsizlik, balki butun bir millatga nisbatan tuhmat edi. Chunki, bu davrda butun

dunyoga ittifoqdagi sotsializm tuzumining ustunligini namoyish etish maqsadida SSSR xalq xo'jaligining barcha sohalarida qo'shib yozishlar avj olganligi, bu kabi holatlar barcha ittifoqdosh Respublikalar, hattoki Rossiya Respublikasi uchun xos ekanligi hech kimga sir emas edi. Shuning uchun ham bu kabi O'zbekistonga nisbatan o'tkazilgan kampaniyalar o'zbek millatining KPSSga nisbatan, SSSR davlatiga nisbatan salbiy munosabatlarini shakllantirdi. Shuningdek, XX asrning 80-yillari oxiriga kelib nafaqat xalqning, balki Respublika hukumatining markazning mustamlakachilik siyosatiga qarama-qarshi bo'lgan milliy manfaatlar asosida siyosat yurita boshlashi natijasida O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi uchun tarixiy, siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yetilib kelmoqda edi [17, 2016].

Markaz tomonidan e'lon qilingan "qayta qurish" islohotlari dastlab siyosiy sohaga tatbiq qilindi. Iqtisodiy soha xuddi oldingi davrdagidek yana siyosat boshqaruvi ostida qoldi. Iqtisodiyotning rivojlanishi qonuniyatlarini mensimaslik, uni kommunistik mafkuraning o'simtasiga aylantirib qo'yish natijasida xalq xo'jaligi bilan ijtimoiy-siyosiy hayot o'rtasidagi muvozanat buzilib, uning natijasida davlat va mahalliy boshqaruvda katta muammolar paydo bo'ldi [15]. Bu holat xalqning turmush sharoitini yanada og'irlashtirib yubordi.

Xulosa. Bu davrda kommunistik partiya rahbariyatidagi o'zgarishlar, "qayta qurish" siyosati ham respublikadagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotni yaxshi tomonga o'zgartira olmadi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov sobiq ittifoq davridagi O'zbekistonning iqtisodiy holatini quyidagicha baholagan edi: "O'zbekiston iqtisodiyoti, asosan, xomashyo tayyorlashga yo'naltirilgan, biryoqlama rivojlanish hisobidan mo'rt va nochor holga tushib qolgan bo'lib, iqtisodiyotga, ekologiya va aholi genojamg'armasiga halokatli ta'sir o'tkazadigan paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi. Buning oqibatida ulkan tabiiy, mineral-xomashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi" [3, 58-b.]. "Paxta ishi", "o'zbeklar ishi" siyosati markazning SSSR inqirozi kuchayib ketib, tanazzul topishi muqarrar bo'lgan davrdagi uydurmasi edi. Ushbu o'zbek xalqiga qaratilgan nohaq siyosat va ayblovdan O'zbekiston xalqi, jumladan, uning janubiy viloyatlari ahli juda og'ir, tuzatib bo'lmaydigan moddiy va ma'naviy zararga duchor bo'ldilar. Nohaq ayblangan kishilarni oqlash, adolatni qaror toptirish uchun o'zbek xalqiga mustaqillik zarur edi va mustaqillik tufayli nohaq ayblangan kishilarning yuzlari yorug' bo'lib, mustabid tuzum qamoqxonalariга bardosh berib, sog'-omon qolganlari o'z oilalariga qaytib kelishga muvaffaq bo'ldilar. Azob-uqubatlarga chiday olmay olamdan o'tganlari esa, qatag'on qurbonlari singari oqlanib, ularning farzandlari oldidagi munosib nomlari tiklandi, insoniy qadriyatlarini o'rniga qo'yildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Azizxo'jayev A. Chin o'zbek ishi. – T.: Akademiya, 2003. – B. 152-153.
2. Jo'rayev N. Tafakkurdagi evrilish. – T.: Sharq, 2001. – B.72-73.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.– Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 47-49, 58.
4. Nazarov O. Yulduzi so'ngan qahramon yoxud qatag'on qurboni.//Surxonxondaryo: ilm va tafakkur.Termiz. №3-2023. B.54-57.
5. O'zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 2-kitob. Mas'ul muharrirlar: R. Abdullayev, Q. Rajabov, M. Rahimov. – T.: O'zbekiston, 2019. 248-b.
6. Rajabov Q. Ilmiy xabarnoma, ADU, №2-2014. b-54.
7. Surxonxondaryo viloyat davlat arxivi, F. 45- jamg'arma, 1-ro'yxat, 2751-ish, 187-b.

8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, F. 45- jamg'arma, 1-ro'uxat, 2753-ish, 29-b.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, F. 45- jamg'arma, 1-ro'uxat, 3666-ish, 186-b.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, F. 50- jamg'arma, 1-ro'uxat, 16-ish, 14-b.
11. Yo'ldoshev I. Maxfiy mahkama yoxud qonunsiz qamalanganlar qissasi. Samarqand. Turon nashr, 2021. B-330.
12. Назаров О. М. Усиление хлопковой монополии в Сурхандарьинской области и его социально-экономические последствия.//Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Бухоро. №6-2023., В.45-49.
13. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. –с. 97, 100-101.
14. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. Статистический ежегодник. –Ташкент: Узбекистан, 1981. –с. 100, 105-106-107.
15. Политика «перестройки» и ее крах // <http://vek-noviy.ru/istoriya-uzbekistana-1917-1991-g/uzbekistan-na-puti-k-nezavisimosti.html>.
16. Раззаков Ф.И. Коррупция в Политбюро. Дело «красного узбека». – М.:Алгоритм, 2009. –с. 246.
17. Социальное развитие советского общества // http://histerl.ru/otechestvennaia_istoria/noveishee_vremia/socialno_razvitie_sovetskogo_obshestva.htm.
18. Социально-экономическая жизнь Узбекистана в 1950-1990 годах. Возникновение кризисной ситуации // <http://vek-noviy.ru/istoriya-uzbekistana-1917-1991-g/sotsialno-ekonomicheskaya-zhizn-uzbekistana-v-1950-1990-g.html>.
19. Muzrobovich, N. O. (2023). " The Cotton Case"-the Last Repressive Policy of the Authoritarian Soviet Regime. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(1), 82-90.
20. Назаров, О. М. (2023). УСИЛЕНИЕ ХЛОПКОВОЙ МОНОПОЛИИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ: Назаров Отабек Музрабович, исследователь Термезского государственного университета. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 46-49.
21. Otabek, N. (2023). A HERO WITH A FADED STAR OR A VICTIM OF REPRESSION. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(08), 27-32.
22. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1), 151-154.
23. Shodavlatovna, D. S., & Chorievna, J. S. (2021). The issue of a just king in kaikous's nightmare. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1416-1420.
24. Жумаева, Ш. Ч. (2020). РАЗВИТИЕ И СОХРАНЕНИЕ АУТЕНТИЧНОСТИ КАК УСЛОВИЕ ЕСТЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕКА. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (4), 46-49.
25. Chorievna, J. S. (2022). Livestock Reforms in Surkhandarya. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 4, 68-70.
26. Jumayeva, S. (2023). IMPORTANCE OF ANIMAL HUSBANDRY TODAY, DEVELOPMENT PERSPECTIVES. *Open Access Repository*, 9(9), 23-26.
27. Жумаева, Ш. Ч. (2019). ЭПОХА ПЕРВООБЫТНООБЩИННОГО СТРОЯ. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1), 27-30.
28. JUMAYEVA, S. (2023). IMPORTANCE OF LIVESTOCK IN AGRICULTURE, DEVELOPMENT PROSPECTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 19, 167-169.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

PUBLIC TRANSPORT ACTIVITY OF ANDIJAN REGION IN 1950-1990 AND COVERAGE OF CERTAIN PROBLEMS IN THE PRESS (EXAMPLE OF MATERIALS OF "COMMUNIST" NEWSPAPER)

Kupaysinov Ismailjon Akhmadjanovich
Doctoral student of Fergana State University
Email: ismaelscholar90@gmail.com

Abstract. This article provides information about public transport in Andijan Oblast, focused on the activities of taxis, buses, trolleybuses and their coordinating auto companies and convoys operating in the region. Public transport system's coverage of public inconveniences and problems in the press is mentioned.

Key words: taxi, trolleybus, car company, car fleet, graphics, bus station, taximotor.

1950-1990 YILLARDA ANDIJON OBLASTI JAMOAT TRANSPORTI FAOLIYATI VA UNDAGI AYRIM MUAOMMOLARNI MATBUOTDA YORITISHI ("KOMMUNIST" GAZETASI MATERIALLARI MISOLIDA)

Kupaysinov Ismoyiljon Ahmadjanovich
Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon oblasti jamoat transporti haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, oblast hududida faoliyat olib borgan taksi, avtobus, trolleybus va ularning muvofiqlashtiruvchi avtokorxonalar, avtokolonna faoliyatiga to'xtalangan. Jamoat transporti tizimida aholi noqulayliklari va muammolarini matbuotda yoritilishi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: taksi, trolleybus, avtokorxonalar, avtopark, grafik, avtostansiya, taksamotor.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N30>

Introduction. "Sister Carrie" by Theodore Dreiser stands as a towering achievement in American literature. **Kirish.** Bizga ma'lumki transport tizimi insoniyat tarixida katta rivojlanishga poydevor bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Havoning, suv, temir yo'l va jamoat kabi transport turlari har sohada ko'mak berib kelmoqda. Ayniqsa, jamoat transporti odamlar kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda yurtimizda ham jamoat transportini har tomonlama rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shahar va shaharlararo transport tizimi takomillashtirilmoqda. O'zbekiston tarixida jamoat transporti o'zining qiziqarli va boy tarixiga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Andijon viloyati jamoat transporti tarixi va uning faoliyati haqida ham manbalarda tarixiy ma'lumotlar aks etgan. Shunday manbalardan biri Andijon oblasti davriy matbuoti hisoblangan "Kommunist" gazetasi hisoblanadi. Gazetada

oblast jamoat transporti va uning faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Maqola yozishda qiyosiy, tahliliy metodlardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng O'zbekiston SSSRda barcha sohalarda islohotlar amalga oshirish boshlanadi. Jamoat transporti ham bu islohotlardan chetda qolmadi va 1950 yillarga kelib oblast jamoat transporti yuksala boshlaydi. 1954 yilda yangi yengil taksi mashinalari olib kelinadi. "Andijon shahrida "Pobeda" markali taksi mashinalarining soni yil sayin ko'payib bormoqda. Yaqinda Andijon "Uztrans"ga 8 ta yangi taksi mashinasi keltirildi. Hozir taksi mashinalarining soni 40 taga yetdi. Bu mashinalarning ko'pini xotin-qiz shafyorlar boshqarib bormoqda"[1;2-b].

50-60 yillarga kelib nafaqat yengil taksi mashinalari balki avtobuslar faoliyati ham oldingidan ko'ra takomillashtiriladi. Yangi avtobus yo'nalishlari, yangi avtobus markalari oblast asosiy transportiga aylana boradi.

"37-avtobaza kollektivi yo'lovchilarning uzog'ini yaqin qilish borasida diqqatga sazovor tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu kunda rayondagi barcha kolxoz markazlariga, shuningdek, qo'shni Bo'z va Baliqchi rayonlaridagi talaygina qishloq joylariga avtobuslar qatnab turibdi. Shu yildan e'tiboran yana yangidan 7 ta marshrut boylab avtobus qatnay boshladi. Jumladan, "Shahrixon" sovxoz va "Moskva" kolxozining "Oq Oltin" uchastkasi aholisi avtobus xizmatidan bahramand bo'lmoqda"[2;2-b].

Andijon oblastida yuk va yo'lovchi tashish ko'lami ham tez suratlarda o'sib boradi. Buni biz quyidagi ma'lumotlarda ham ko'rishimiz mumkin. "Oblast avtomobil transporti yanada rivojlandi. O'tgan yili avtomobil xo'jaliklari yangi yuk va yengil mashinalar bilan boyidi. Umum foydalaniladigan avtomobil transporti bilan 1967 yilda 5343 ming tonna yuk tashildi. Bu, 1966 yildagiga nisbatan 2 protsent ko'pdir. Avtobuslar bilan o'tgan yili 38629 ming yoki 1966 yildagiga nisbatan 11 protsent ko'p passajir tashildi"[3;2-b]. Bu kabi o'sish sur'atlarini yangi yo'nalishli avtobus qatnovlarida ham ko'ramiz. Xususan, "Andijon shahrida aholiga avtobus xizmati ko'rsatish yaxshilanib boryapti. 2511-avtokalonna rahbarligi Andijonning eski shahar qismida yashovchi mehnatkashlarning iltimoslarini qondirib, Mikrorayon – eski shahar o'rtasida qatnash uchun 4 ta avtobus ajratdi. Yangi marshrutdagi avtobuslar eski shahardagi Bobur nomli maydondan (*Jome masjidi*) Mikrorayonga Navoiy prospekti, Karl Marks ko'chasi va Oktyabr (*Yangibozor*) bozori orqali boradi. Bu marshrutning ochilishi eski shahardan yangi shaharga qatnab ishlovchi ishchi va xizmatchilarga qulaylik yaratdi"[4;3-b] -deya xabar beriladi oblast matbuot manbasida.

Yurtimiz hududida birinchi trolleybus yo'nalishi 1947-yil 5-noyabrda Toshkentda ochilgan. Birin ketin trolleybuslar faoliyati boshqa hududlarda ham yo'lga qo'yilgan. 1970-yil Andijon oblastida jamoat transporti yan bir yangi transport turi Trolleybus paydo bo'ladi. "Andijonliklar 22 aprel kuni yana bir yangilikning guvohi bo'ldilar. Shu kuni shahar ko'chalarida transportning yangi turi trolleybus qatnashi sinab ko'rildi. Shahar aholisi yaqin kunlar ichida trolleybusdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar"[5;2-b].

Shahar transport bilan, deganlaridek, shaharliklarning barcha og'ir va yengili transport orqali bitadi. Agar shaharda transport to'xtab qolsa, yoki tegishli miqdordagi avtobus avtoparkdan chiqmasa, shaharning hayot tarziga putur yetadi. Shuning uchun ham partiya va hukumat shaharlarda aholiga transport xizmati ko'rsatishga alohida e'tibor beradi. Buni shaharlarga xizmat qiladigan avtoparklarning yil sayin kengayib borayotgani, ular yangi-yangi avtobuslar bilan ta'minlanayotganidan ham ko'rish mumkin.

Taksi, avtobus, trolleybus va boshqa shu kabi jamoat transporti turlari rivoj topishi bilan birga bu transportlar uchun albatta bosh-bekatlari, bekatlar, avtoturargohlar ham qurilib, foydalanishga topshirildi. “Shu yili 1 sentyabrdan Andijon shahrining “Irmash” zavodi yonida yangi avtostansiya ish boshladi. Leninsk, Imomota, O’sh, Namangan, Farg’ona, Qorako’l, Jalolobod, Maylisoyga qatnovchi avtobuslar endilikda shu yerda qabul qilinib, shu joydan jo’natiladi. Andijon maishiy remont qurilish boshqarmasining quruvchilari bu avtostansiyaning yengil materiallardan foydalangan holda oynavandlik qilib qurishgan. Stansiyada turli xizmat xonalari bilan birgalikda bolali ayollar uchun ham alohida xona bor.

2511-avtokolonna ma’uriyati avtostansiyaning zarur belgi va jadvallari bilan jihozlagan. Har bir marshrut uchun alohida joy tanlanib, u yerga marshrutning nomi yozib qo’yilgan. Ko’rinarli joyga avtobuslarning qatnash grafigi va yo’l kira baholari yozilgan jadvallari ilingan.

Bu hali ishni boshlanishi, — dedi avtostansiya boshlig’i Dimitriy Kupriyanov, — biz bu yerda passajirlar uchun qulayliklarni ko’paytiramiz. Ular uchun yaxshi kutish joylari barpo etilib, avtobuslarning kelish ketishlarini radio orqali e’lon qilinishini yo’lga qo’yamiz. Yangi avtostansiyada ish boshlanishi bilan passajirlarning shaharga kelib ketishini osonlashtirish uchun “Vokzal-Irmash zavodi” marshrutida qatnovchi 10-marshrut ochildi. Bu marshrutda ekspress avtobuslar qatnamoqda”[6;2-b]. Yo’lovchilar uchun yaratilgan qulayliklar keyingi yillarda yanada ko’paytiriladi.

Shaharda yangi sanoat korxonalarini qurilib, ishga tushirilishi va yangi turar joy manzillarini barpo qilinishi bilan mavjud marshrutlar uzaytiriladi. “Agar bundan 3-4 yil ilgari shaharda asosan “Vokzal-mashinasozlik zavodi” marshrutigina bo’lgan bo’lsa, hozirgi kunda avtobuslar 8 marshrut bo’yicha qatnamoqda. Faqat Andijon 1 stansiyasi vokzal maydonining o’zidan 4 marshrut bo’yicha avtobuslar jo’naydi. Bu marshrutlardagi avtobuslar shaharning “yangi shahar” qismi bilan “eski shahar” qismini bog’laydi hamda yirik sanoat korxonalarini – mashinasozlik, “Elektroapparat” zavodlari, trikotaj, Volodarskiy nomli tikuvchilik, poyabzal fabrikalari va uysozlik kombinatiga olib boradi”[7;3-b]. Bularning hammasi ana shu sanoat korxonalarining ishchilari, injener-texnik xodimlari va xizmatchilariga transport xizmati ko’rsatishning bir muncha yaxshilanib borayotganidan darak beradi.

Biroq, bundan shahar transportining ishi talab darajasida degan ma’no kelib chiqmaydi. Shaharga asosan 2511 avtokolonna bilan Andijon taksamotor parki transport xizmati ko’rsatadi. Bu avtoxo’jaliklar shaharliklarga va atrofdagi oblast va rayonlardan keladigan yo’lovchilarga transport xizmati ko’rsatish uchun yetarli avtomashinaga ega bo’lgan. Lekin redaksiyaga kelgan murojaatlarga qaraganda, bu ikkala avtopark shahar aholisining ham, ko’plab kelayotgan mehmonlarning ham hojatini chiqarish o’rniga ularni ko’p hollarda ranjitib qo’ygan. Boshqacha qilib aytganda, ko’pincha shaharga tegishli miqdorda avtobus chiqarilmagan. Natijada avtobus qatnovi grafigi buziladi. Mana bir necha misol. “22 iyul kuni shahar dispetcherligi to’rt marshrutning hammasida 1-2 tadan 4 tagacha avtobus reysi yo’qotilganini qayd qilgan. G’isht zavodiga qatnaydigan 3 ta avtobus ning bittasi shu kuni mutlaqo garajdan chiqmagan, “Vokzal Volodarskiy nomli fabrika” marshrutida 18 ta o’rniga 16 ta mashina ishlagan. Shu jumladan, 74-79, 13-45, 74-81 va 74-25 nomerli avtobuslarning har biri 24 reys yo’qotishgan, manzil oxirigacha bormay qaytgan. Shu marshrutdagi Orif Olimjonov shofyor bo’lgan 70-71 nomerli avtobus bo’lsa avtokolonna garajdan ertalab soat 7-18 o’rniga soat 11-42 da chiqqan. Shunda ko’rinib turibdiki, shu kuni qatnov grafigi buzilgan, yo’lovchilar manzilga o’z vaqtida yetib borolmagan. Bunday ahvol 23 iyul kuni ham davom etgan. Shu kuni

“Vokzal Elektroapparat” marshrutida qatnashi lozim boʻlgan — 69-03, 64-31 avtobuslari avtokolonna rahbarlarining buyrugʻi bilan Arslonbobga joʻnatib yuborilgan. Shuningdek boshqa marshrutlarda ham bitta ikkitadan mashina kam qatnagan.

Avtokolonna ishidagi bunday vaziyat davlat planlarining bajarilishiga ham salbiy taʼsir qilmoqda. Yarim yillik plan passajir tashish boʻyicha 77,3 protsent, parkdan foydalanish 86, protsent bajarilgan, xolos. Bunday oʻzboshimchaliklar va belgilab qoʻyilgan grafiklarning ongli ravishda buzilishi avtokolonna rahbarlarini, birinchi navbatda uning direktori oʻrtoq F. Abdullayevni tashvishga solishi kerak edi. Lekin ular shahar transporti ishidagi kamchiliklarni oʻnglashga qaratilgan amaliy choralar koʻrmayotirlar” kabi mazmundagi 2511 avtokolonna faoliyati haqidagi tanqidiy murojaatlar yoʻllangan.

Andijon taksamotor parkining faoliyati haqida ham murojaatlar kelib tushgan boʻlib, unda quyidagi fikrlar berilgan. “Parkdan har kuni 130 ta oʻringa 100 taga yetib-yetmay taksi chiqarilayotir. Baʼzi kunlarda mashinalar soni undan ham uzayib ketmoqda. Shundan shahardagi yoʻlovchilarga atalgani 10, 15 tadan oshmaydi. Bu, 160 mingdan ziyod aholisi boʻlgan shaharning ehtiyojini qondira olmasligi har qanday odamga ham ayon-ku?! Taksamotor parki rahbarlari (direktori Ya. Gʻaniyev) tomonidan shaharda yaratilgan “taksi tanqisligidan ayrim shofyorlar “mohirona” foydalanib qolishyapti. Ular taksiga ehtiyoji tushganlardan oʻzlari istagan pulni talab qilayotirlar. Bunga chek qoʻyish kerak. Taksamotor maʼmuriyati, partiya va kasaba soyuz tashkilotlari shaharda, taksi xizmatini yaxshilash choralarini koʻrishlari, davlat mashinasini “ota meros”i qilib yurishga tushib olgan shofyorlarning tanobini tortib qoʻyishlari kerak.

Oblast avtomobil trestining rahbarlari avtoxoʻjalik rahbarlaridan shaharda transport xizmati koʻrsatishni qattiqroq talab qilishlari, oʻzlariga topshirib qoʻyilgan vazifani sidqidildan bajarmaydiganlarga nisbatan tuzukroq choralar koʻrishlari zarur. Aks holda shahar transporti ishidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etib boʻlmaydi.

Andijon Fargʻona vodiysining yirik sanoat va madaniy markazi hisoblanadi. Lekin shaharda avtomobil xizmati koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan shunday masalalar borki, bunga shahar ijroiya komiteti va kommunal xoʻjalik boʻlimi alohida eʼtibor berishi kerak. Avtobus qatnaydigan magistrallarda bekatlar yoʻq. Borlari esa jihozlanmagan. Shaharning koʻrki boʻlgan Navoiy prospektida atigi bir joyda “Neftetrest” bekatidagina shunday joy bor. Shahar ijroiya komiteti shahar transporti ishini yaxshilash, yoʻl qoʻyilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini koʻrishi kerak”[8;2-3-b].

Ishchi xodimlar va talaba oʻquvchilar tomonidan rayonlararo transport yoʻnalishi boʻyicha ham bir nechta murojaatlar matbuotda eʼlon qilinadi. “Baliqchi rayonidan Andijonga borib ishlovchi xodimlar, oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlari studentlari transport qatnovi noqulayligidan nihoyatda qiynalayotirmiz. Rayonimiz markazi orqali oʻtuvchi “Andijon-Namangan” va “Namangan-Andijon” marshrutidagi avtobuslar biz uchun noqulay grafik bilan qatnamoqda. Boz ustiga, bu avtobuslar ayniqsa ertalab va kechki payt tirband boʻlishi oqibatida zarur paytda unga chiqa olmaymiz. Haydovchilar ayni shunday paytda toʻxtamay oʻtib ketadilar ham, Bu esa bizning ishga, oʻqishga kechikib borishimizga sabab boʻlayotir.

Shuning uchun biz birlashma rahbarlaridan har kuni ertalab soat 7 da joʻnab ketadigan “Baliqchi-Andijon” va soat 16 da Andijondan joʻnaydigan “Andijon-Baliqchi” marshrutini ochishni iltimos qilamiz. Qolaversa, bu marshrut avtobuslari Andijon shahrining Oltinkoʻl koʻchasi orqali katta yoʻlga chiqqanida biz uchun nihoyatda qulay boʻlardir”[9;2-b].

“Biz, Andijonga qatnab ishlovchi, o‘quvchi jalaquduqliklar ko‘pdan beri shunday — aro yo‘ldagi yo‘lovchi bo‘lib kelayotirmiz. Qo‘rg‘ontepa-Andijon marshrutida qatnovchi avtobuslar doim to‘la. Shuning uchun bizlar bu avtobuslarga chiqib, bo‘sh o‘rindiq topishimizga sira ishonmay qo‘yganmiz. Rayon markaziga uncha uzoq bo‘lmagan katta yo‘ldan O‘zgan-Andijon, Sovetobod-Andijon, Qo‘rg‘ontepa — Andijon tezyurar avtobuslari qatnaydi. Biroq ularga To‘rtko‘chada to‘xtab o‘tishga majbur emas emish. Shuning uchun bu bekatda avtobus kutayotganlarning o‘z cho‘ntagi hisobiga yengil mashinani to‘xtatishga majbur bo‘lmoqda. Nahotki, tezyurar avtobuslar rasmiy ravishda tanilgan Jalaquduq rayoni hisobidan To‘rtko‘cha bekatida to‘xtab o‘tishi mumkin bo‘lmasa. “Andijantrans” birlashmasi rahbariyatiga bizning zonaga xizmat ko‘rsatuvchi 2511 avtokolonna, 36- va 95- avtokorxonalarining mutasaddi kishilari bilan maslahatlashib, qo‘yilgan talabni amalga oshirish yoki Jalaquduq — Andijon o‘rtasida alohida marshrut zarurligini yetkazib qo‘yishingizni so‘raymiz. Hademay, yog‘in-sochinli kunlar keladi. Shunday paytlarda to‘xtamas avtobuslarga ilhaq bo‘lib, yana aro yo‘lda qolmaylik”[10;2-b].

Xulosa. O‘rganilgan davr mobaynida oblast jamoat transporti sohasida o‘zgarishlar amalga oshirilgan ekanligini yuqoridagi ma’lumotlardan bilishimiz mumkin. Yangi taksi mashinalari, foydalanishga topshirilgan tramvay liniyalari, avtokorxon va avtoparklar faoliyati bularga misol bo‘la oladi. Shu bilan birga oblast matbuotida yoritib borilgan transport sohasidagi aholi muammolari esa tizimda hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlarning bor ekanligini ko‘rsatib beradi. Umuman olgan Andijon oblast jamoat transporti 1950-90 yillarda takomillashuv davrini o‘z boshidan kechirdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Янги такси машиналари. Коммунист. 12 февраль 1954 йил. № 31 (7351)
2. Янги маршрутлар. Коммунист. 6 май 1969 йил. № 88 (10471)
3. 1967 йлда Наманган област халқ хўжалигини ривожлантиришнинг яқунлари тўғрисида Андижон област статистика бошқармасининг ахбороти. Коммунист. 7 февралы.1968 йил. №26 (10154)
4. Янги маршрут. Коммунист. 22 май 1970 йил. № 100 (10740)
5. Коммунист. 25 апрель 1970 йил. № 82 (10722)
6. Янги автостансия. Коммунист. 7 сентябр 1973 йил.№ 176 (12185)
7. Шахар транспорти. Коммунист. 25 июль 1969 йил.№ 145 (10528)
8. Шахар транспорти. Коммунист. 25 июль 1969 йил.№ 145 (10528)
9. Транспорт ноқулайлигидан қийналяпмиз. Коммунист. 19 сентабрь 1990 йил. №179 (16340)
10. Аро йўлдаги йўловчилар. Коммунист. 19 сентабрь 1990 йил. №179 (16340)

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

A LOOK AT THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF THE UNION OF WRITERS OF UZBEKISTAN

Oripova Laylo Zafarovna,
Teacher, Qarshi State University
l_ripova@mail.ru

Abstract. This article analyzes the history of the Organization of the Union of writers of Uzbekistan and its activities in subsequent years, as well as a brief historical analysis of the activities of writers and poets of the Republic in circles and associations until the formation of the association.

Keywords: Union of writers of Uzbekistan, Chigatoy guringi, Red Pen, Association, creative activity, literary environment, nationality.

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI FAOLIYATI TARIXIGA NAZAR

Oripova Laylo Zafarovna,
O'qituvchi, Qarshi davlat universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tashkil etilishi va uning keyingi yillardagi faoliyati tarixi tahlil qilingan, shuningdek uyushma tashkil etilgunga qadar Respublika yozuvchi va shoirlarining to'garak va uyushmalardagi faoliyati qisqacha tarixiy tahlil qilib chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Chig'atoy guringi, Qizil Qalam, uyushma, ijodiy faoliyat, adabiy muhit, millat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N31>

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yozuvchilarning ko'ngilli ijodiy tashkiloti sifatida, 1934 yil 8-11 martda bo'lib o'tgan O'zbekiston yozuvchilarining I qurultoyida tashkil etilgan. Bungacha bo'lgan davrda O'zbekiston yozuvchi va shoirlarini birlashtirgan, uyushma shaklidagi turli xildagi to'garak va uyushmalar mavjud edi. Jumladan, 1919-yil „Chig'atoy gurungi“ nomli adabiy to'garak atrofida uyushgan jadidlar o'zbek milliy adabiyotining shakllanishiga hissa qo'shgan.[1] Islohotchilik yo'lini tutgan „Chig'atoy gurungi“ jamiyati 1918 yilning oxirlarida Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan yuzaga kelgan va uning rahbarligida ish olib borgan. Bu madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy, ilmiy tashkilot 1919 yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan.[2]

„Chig'atoy gurungi“ madaniy merosimizni to'plash, o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o'zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug'ullangan. 1921 yilning boshida sovet hukumati tomonidan taqiqlangan. Jamiyatning maqsad va vazifalari keyinchalik ham uning a'zolari faoliyatida davom etgan.[3]

Keyinchalik, 1926-yilda Samarqandda „Qizil qalam“ nomli adabiy tashkilot tuzilgan, bu tashkilotning Qo‘qon, Farg‘ona, Namanganda mahalliy shoxobchalari ish olib borgan. 1926 yil avgustida Samarqandda Shokir Sulaymon raisligida tashkil etilgan. Jamiyat faoliyatida Otajon Hoshim, Botu, Ziyo Said, Sotti Husayn, Oltoy, Anqaboy, shuningdek, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Mirtemir, Oydin ishtirok etishgan.[4]

O‘sha yilning oxirida jamiyatning Farg‘ona va Namangan viloyat bo‘limlari ochilgan. Jamiyatning asosiy maqsadi Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari “keksa” avlod vakillaridan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda barpo etilayotgan yangi tuzumga xayrixoh ijodkor yoshlarni o‘z atrofiga to‘plash va ularni tarbiyalash bo‘lgan. “Qizil qalam” majmuasining 1-kitobi (1928) nashr etilgandan so‘ng jamiyatining katta va yosh a‘zolari o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan. Natijada 1929 yilda jamiyatning boshqaruv organi qayta ko‘rib, Ziyo Said unga rahbar etib tayinlangan va shu vaqtdan e‘tiboran “Alanga” jurnali “Qizil qalam” jamiyatining organi sifatida nashr etila boshlangan. Shu yili mazkur majmuaning 2-kitobi ham bosilgan, majmuaning har ikkala kitobida A.Samoylovichning “Navoiy to‘g‘risida Yevropa olimlari”, Cho‘lponning tarjimalari, O. Hoshimning adabiy meros va jadid adabiyoti, Sh. Sulaymonning Hamzaning so‘nggi kunlari to‘g‘risidagi va boshqa turdagi maqolalar chop etilgan. Jamiyat Ozarbayjon va Tataristondagi “Qizil qalam” jamiyatlari hamda VAPP (Butun Rossiya proletar yozuvchilari uyushmasi) bilan yaqin ijodiy aloqalarni o‘rnatgan. 1930 yilda Botu, Ramziy (Mannon Ramiz) va Oltoyning qamoqqa olinishi bilan jamiyat tarqalib ketgan.[5]

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining tashkil etilishi respublika adabiy muhitining rivojlanishida juda katta va keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Uyushmaning birinchi raisligiga adabiyotshunos Rahmat Majidiy saylangan. Turli yillarda uyushmaga Hamid Olimjon, Oybek, Sharof Rashidov, Uyg‘un, Abdulla Qahhor, B. Rahmonov, Sarvar Azimov, O‘lmas Umarbekov, Odil Yoqubov, Bobur Alimov, Muhammad Ali, Abdulla Oripov va hozirda Sirojiddin Said rahbarlik qilib kelmoqda.

O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasining asosiy maqsad va vazifasi hamda tashkiliy huquqiy shakli uyushmaning ustavi, guvohnomasi, ramzi va guvohnomasida o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining rahbari va uning uch nafar o‘rinbosari, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining barcha viloyat bo‘limlari mas‘ul kotiblari mavjud. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining shtat birligi jami: 47 kishi bo‘lib, shulardan barcha viloyatlarda jami 24 nafar xodim faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi, respublika ma‘naviy targ‘ibot markazi, jamg‘armalar, boshqa uyushmalar va boshqa jamiki davlat hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Uyushmaning 700 ga yaqin a‘zosi bor. Viloyatlarda o‘z bo‘limlariga, Do‘rmon qishlog‘ida ijod uyiga, shifoxona maskani, Adabiyot jamg‘armasi („Ijod“) va nashriyotiga ega. Muassisligida „Sharq yulduzi“, „Zvezda Vostoka“, „Yoshlik“ jurnallari hamda „O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati“, „Yozuvchi“ gazetalari chop etiladi. 2002-yilda Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima kengashi tashkil etildi.[6]

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar kabi milliy adabiyotimiz rivojini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “Do‘rmon” ijod uyi va poliklinikasi tubdan rekonstruksiya qilindi.

Uyushma qoshida “Ijod” jamoat fondi tuzildi. Poytaxtimiz Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni barpo etildi, Yozuvchilar uyushmasi uchun yangi bino qurilib, hududlarda ulug‘ adiblarimiz nomlari bilan atalgan ijod maktablari, madaniyat va istirohat bog‘lari bunyod qilinmoqda. Adabiyotimiz atoqli namoyandalarining yubiley sanalari munosib nishonlanmoqda, iste’dodli yoshlarni tarbiyalash, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli ijodiy anjumanlar o‘tkazilmoqda. Yosh shoir va yozuvchilarning birinchi kitoblari davlat hisobidan ko‘p ming nusxalarda nashr etilib, ta’lim maskanlari va kutubxonalarga yetkazib berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 05.04.2018 yildagi PQ-3652-son O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi[7]. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasini 2017 – 2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan asosiy vazifalarni, jumladan, O‘zbekiston Respublikasini 2017 – 2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan asosiy vazifalarni, jumladan, “Davlat – ma’naviyatning bosh homiysi”, degan ustuvor tamoyilni hayotga izchil joriy qilish, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini takomillashtirish va uning ish samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda ijodiy jamoatchilikning:

Turizm xizmatlari bozorida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar tomonidan yaratilayotgan xizmatlarga nisbatan iste'mol talabining pasayishiga asosiy sabablardan biri mahsulot sifati va narxining o'zaro nomutanosiblikda ekanligidir. Bunday sharoitda raqobat tadbirkorlarning faoliyat samaradorligini rag'batlantirish, tegishli sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan xizmatlar narxlarining optimal nisbatini hamda iste'mol talabini tartibga soluvchi vositaga aylanadi.

Bugungi kunda turistik xizmatlar bozorida iste'molchi (mijoz)lar uchun raqobat avj olmoqda va raqobatbardoshlikni ta'minlash jarayonini ko'proq darajada shakllantiruvchi yorqin va ifodali raqobat ustunliklarini shakllantirish vazifasi ilgari surilmoqda. Sohada faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlarning raqobat kurashini baholash va raqobat nazariyasini tahlil qilish ushbu tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi quyidagi muhim holatlarni aniqlash imkonini beradi:

- tadbirkorlik subyektini tavsiflovchi holat;
- turistik xizmatlarni tavsiflovchi holat;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tavsiflovchi holat;
- marketing va sotish siyosatini tavsiflovchi holat.

Shu bilan bog'liq ravishda raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari va usullarini qo'shimcha tadqiq etish, monitoring vositalarini aniqlashtirish, raqobatbardoshlikni baholash usullarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Turizm xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyati raqobatbardoshligini baholashdan avval "raqobat" va "raqobatbardoshlik" tushunchalarini aniqlashtirib olish muhimdir.

Zamonaviy sharoitda bozor munosabatlarining mohiyatini ifodalovchi asosiy tushuncha raqobat tushunchasi hisoblanib, raqobat butun bozor iqtisodiyoti tizimining ichki qarshiliklari markazi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi narxlarni belgilash va bozorda tovarlarni yetkazib berish hajmiga nisbatan munosabatlar yig'indisini tashkil etadi[1].

Turizm sohasidagi tadbirkorlikning raqobatbardoshligi uning bozorda muvaffaqiyatli raqobatlashish va raqobatchilarga nisbatan ma'lum iqtisodiy foyda olish qobiliyatidir. Raqobatbardoshlik – bu guruhli, umumlashtirilgan ko'rsatkichlar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan murakkab xususiyatdir. Korxonaning raqobatbardoshligini baholashdan maqsad – korxonaning mahalliy, mintaqaviy yoki xalqaro bozorlardagi o'rnini aniqlashdan iborat. Raqobat jarayonlarining tabiatini o'rganish bilan ilmiy sohada yuzaga keladigan murakkab muammolarga qaramay, uning turli xil ta'riflari mavjud. Masalan, M.Porterning ta'kidlashicha: "raqobat – bu dinamik va rivojlanayotgan jarayon, doimiy ravishda o'zgarib turadigan landshaft bo'lib, unda yangi mahsulotlar, yangi marketing yo'llari, yangi ishlab chiqarish jarayonlari va yangi bozor segmentlari paydo bo'ladi"[2].


R.A.Fatxutdinov tomonidan esa "raqobat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish taklif etiladi: "raqobat – bu qonunchilik doirasida yoki tabiiy sharoitda obyektiv va subyektiv ehtiyojlarni qondirish uchun raqobatchilarga qarshi kurashda g'alaba qozonish yoki boshqa maqsadlarga erishish uchun subyektni raqobat ustunliklari bilan boshqarish jarayonidir"[3]. Jamiyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan raqobat – bu eski tuzilmaning yangi shakllangan tizim (yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalar, ehtiyojlarning yangi manbalari, tadbirkorlik faoliyatining yangi turlari va boshqalar) bilan raqobati hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida raqobat harakatlantiruvchi kuch sifatida ishlab chiqaruvchilarni doimo raqobatbardoshligini oshirishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi. Shu sababli mavjud bo'lgan bir qator ta'riflarni umumlashtirgan holda, korxonaning raqobatbardoshligi – bu mahsulot yoki xizmatlar turining ma'lum bir bozordagi o'xshash obyektlar bilan taqqoslaganda raqobatga bardosh berish qobiliyati, ularning darajasi, firmaning rivojlanish darajasi raqobatdosh firmalarning rivojlanish darajasi bilan taqqoslaganda odamlarning ehtiyojlarini o'z tovarlari bilan nisbatan xizmatlari samaraliroq tarzda qondirishdir. Tadbirkorning raqobatbardoshligiga boshqa omillar qatorida ijtimoiy muhit ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. [1; B.155].

Turizm xizmatlari bozorida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyekti raqobatbardoshligini baholashda quyidagi jihatlar asosiy deb belgilanishi mumkin:

- mahsulot va xizmatlar sifati bo'yicha;
- marketing va sotish strategiyasi bo'yicha;
- xodimlarning malaka darajasi bo'yicha;
- xizmat ko'rsatishning texnologik darajasi yuqoriligi bo'yicha;
- tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati bo'yicha.

Bozor mexanizmi rivojlanishi bilan turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi muammosi keskinlashdi va uning yechimi barcha bozor ishtirokchilaridan turizm xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning samarali yo'llari va usullarini izlashni talab qiladi. Shu munosabat bilan foydani ko'paytirish uchun bozordagi pozitsiyalarni mustahkamlash uchun raqobatbardoshlikni oshirish zarur. Raqobatbardoshlik turistik mahsulot va uni ishlab chiqaruvlarchining bozordagi muvaffaqiyati kaliti bo'lganligi sababli va raqobatbardoshlik muammosini hal qilish har qanday turizm korxonasi faoliyatidagi eng qiyin vazifa bo'lib, korxonaning barcha bo'limlari teng muvofiqlashtirilganligi maqsadli ishlashini talab qiladi. Turizm korxonalari faoliyatining alohida yo'nalishi bu raqobat bo'yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Raqobatbardoshlik kontseptsiyasining zamonaviy talqini raqobat munosabatlarni amalga oshirishning ko'p qirrali jarayoni sifatida uni faoliyatga joriy etishining asosiy shartlaridan biri bu – korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish hisoblanadi.



1-rasm. Turistik tadbirkorlik raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillar va mezonlar¹

Turizm xizmatlari bozorida, umuman har qanday xizmatlar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor raqobatbardoshligining shakllanishi aniq mezonlar va omillar ta‘sirida yuzaga keladi (1-rasm).

Korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish – bu obyekt parametrlarini ishlab chiqish orqali ushbu obyektning kerakli holatga o‘tkazish uchun subyektning obyektga (raqobatbardoshlikka) ta‘sir qilish tizimining bir turidir. [3; B.29-30] Tadbirkorlik subyektining raqobatbardoshligini boshqarish tadbirkorlik faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, quyidagilarga mo‘ljallangan bo‘ladi:

- raqobat bosimi va o‘zgaruvchan ekologik omillar sharoitida uning barqarorligini oshirish uchun raqobat ustunliklarini shakllantirish va korxonaning raqobatbardoshlik salohiyatini rivojlantirishni ta‘minlaydigan elementlar va jarayonlarga ta‘sir o‘tkazish;

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- raqobat ustunliklarini saqlab qolish va tashqi muhit o'zgarishiga yetarlicha javob berish asosida faoliyatning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va ularga samarali erishish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish. Turizm faoliyatining raqobatbardoshligini baholashning ahamiyati ijtimoiy hayotning barcha sohalarida turizmning roli ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Turizm iqtisodiyotda turizm korxonalarining rivojlanishi, umumiy ovqatlanish, aloqa, aholi bandligi va mamlakatga chet el valyuta tushumining ko'payishi orqali iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi. Jahon va mahalliy darajadagi ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari turistik korxonalar raqobatbardoshlik darajasini baholashning turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Biroq turistik tadbirkorlik faoliyatida xizmatlarni yaratish va moliyaviy boshqaruvni yaxshilash, turizmning o'ziga xos xususiyatlari, uning nazariyasi va metodologiyasi, jumladan, faoliyatning raqobatbardoshligini doimiy ravishda baholab borish algoritmini ishlab chiqishni talab qiladi. Turizm faoliyatining tezkor globallashuvi, zamon talablari asosida yangi, yuqori sifatli xizmatlarning paydo bo'lishi tadbirkorlar o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyatining raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillarni, shuningdek, raqobat afzalliklari omillarini aniqlash lozim (1-jadval).

1-jadval


Raqobatbardoshlikning ichki va tashqi omillari¹

Omillar tasnifi	Omil belgilari	Omillarning xususiyatlari
Asosiy omillar	Tabiiy resurslar, iqlim sharoitlari, geografik joylashuv, malakasiz va past malakali ishchi kuchi, debet kapitali	Ular obyektiv ravishda mavjud yoki ularni yaratish uchun ahamiyatsiz, davlat va xususiy investitsiyalarni talab qiladi. Ular yaratadigan afzallik beqaror va ushbu ustunlikdan foydalanishdan kam foyda olinadi. Ular raqobat ustunligining ishonchli manbai emas.
Rivojlantirish omillari	Zamonaviy axborot infratuzilmasi, yuqori malakali mutaxassislar	Nisbatan yuqori darajadagi omillar. Ularning rivojlanishi kapital va inson resurslarining muhim, ko'pincha, ko'p vaqt talab qiladigan investitsiyalarni talab qiladi.
Maxsus omillar	Tor ixtisoslikdagi mutaxassislar, maxsus infratuzilma, aniq bilim sohalari bo'yicha ma'lumotlar bazasi, bir yoki chegaralangan sohalarda qo'llaniluvchi boshqa omillar	Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ahamiyatliroq, uzoq muddat davomida raqobat ustunligini ta'minlovchi asos yaratiladi.
Tabiiy omillar	Tabiiy resurslar va geografik joylashuv	
Sun'iy omillar	Inson tomonidan yaratilgan omillar	Nisbatan yuqori darajadagi va barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlovchi omillar

Omillar korxonaning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishida ham, pasaytirishi yo'nalishida ham ahamiyatli bo'lishi mumkin. Ammo raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun


¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

omillar mavjudligining o'zi yetarli emas. Omillar asosida raqobat ustunligini olish ulardan qanchalik samarali foydalanilayotganligi qayerda va qaysi sohada foydalanilayotganligi ham muhim (2-rasm).



2-rasm. Raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar¹

Raqobatbardoshlikni baholash xaridorlar, investorlar, davlat idoralari va boshqalarning manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. Turistik korxonalarda raqobatbardoshlikni baholashga yondashuvlar²

Bundan tashqari usullarning o'zi ham obyektlar, mezonlar va ko'rsatkichlar og'irligi tariflarini tanlashni cheklamaydi. Shu bilan birga turizm korxonalarining raqobatbardoshligini baholashning bir nechta yo'nalishlarini aniqlash taklif etiladi.

Operatsion darajadagi korxonalar raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichi xizmatlar raqobatbardoshligining ajralmas ko'rsatkichidir.


Taktik darajada korxonaning raqobatbardoshligi uning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holati bilan ta'minlanadi va korxonaning holati har tomonlama olingan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi [2; B.2].

Strategik darajada korxonaning raqobatbardoshligi investitsiya jozibadorligi bilan tavsiflanadi, uning mezoni tadbirkorlik qiymatining o'sishi bilan belgilanadi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

² Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, baholashga yondashuvlar korxonaning raqobatbardoshligini boshqarishning sohaga bog'liqligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, chunki raqobatbardoshlik uni baholash metodologiyasini ishlab chiqishda muhim bo'lgan qator xususiyatlarga ega. U dinamik xarakterga ega: uni faqat ma'lum bir davrga nisbatan, bozor sharoitidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'rganish va tahlil qilish mumkin. Raqobatbardoshlik faqat tanqis bo'lmagan bozorda o'zini namoyon qilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, raqobatchilar faoliyatini hisobga olmaydigan baholash usullari ishonchli bo'linmaydi.



4-rasm. Turistik korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash algoritmi¹

Turistik korxonaning raqobatbardoshligini baholash uchun 4-rasmda keltirilgan algoritm asosida aniqlovchi tizimlar o'rtasida teskari aloqa mavjudligini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, turistik korxonaning raqobatbardoshligini baholash algoritmiga asoslanib, korxonaning raqobatbardoshligini faoliyat ko'rsatkichlariga nisbatan baholashning asosiy yondashuvini shakllantirish mumkin. Raqobatbardoshlik darajasini hisoblashda sohadagi asosiy raqobatchilarning yig'ilgan qiymatlari ko'rsatkichlari namuna sifatida olinadi.

Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarda turistik korxonalarining raqobatbardoshligini alohida xususiy ko'rsatkichlar bilan baholashga harakat qilingan.

Biroq ushbu baholash turistik korxonalarining umumiy raqobatbardoshlik darajasini ko'rsata olmaydi. Ushbu holatni hisobga olgan holda tadqiqot jarayonida turistik korxonalarining umumiy raqobatbardoshlik darajasini baholash uslubiyoti raqobatbardoshlikning umumiy indeksini kiritish orqali takomillashtirilib, u asosida aniq turistik korxonalar raqobatbardoshligining umumiy darajasi baholandi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Taklif etilayotgan usul bo'yicha raqobatbardoshlikning alohida omil ko'rsatkichlarini umumlashtirish jarayoni har bir parametr asosida ikki bosqichda o'tkazish maqsadga muvofiq, ya'ni birinchi bosqichda xususiy parametrlar bo'yicha raqobatbardoshlik darajasi alohida hisoblab olinadi, ikkinchi bosqichda esa ushbu parametrlar bo'yicha raqobatbardoshlik darajasi umumlashtiriladi. Turistik korxonalarining umumiy raqobatbardoshlik darajasini quyidagi formula asosida hisoblash tavsiya etiladi

$$R_{ui} = \frac{\sum_{i=1}^n T_d (I_d + I_v + T_o + O_v + O_{qk} + Q_{kv} + X_t + X_v)}{n}$$

Bu yerda: R_{ui} - raqobatbardoshlikning umumiy indeksi;

T_d - +1 va -1 oralig'ida yotuvchi omillarning ta'sir darajasi;

I_d - ta'sir intensivligi darajasi (10 balli tizim);

I_v - ta'sir intensivligining vazn qiymati (1 ning ulushlarida);

T_o - ta'sir oqibati, balli shkalada;

O_v - ta'sir oqibati vazn qiymati (1 ning ulushlarida);

O_{qk} - omil qamrovi kengligi, balli shkalada;

Q_{kv} - qamrov kengligi vazn qiymati (1 ning ulushlarida);

X_t - omillar ta'siri jarayonidagi korxonaning xarajatlari (ballarda);

X_v - omillar ta'siri jarayonidagi korxonaning xarajatlari vazn qiymati (1 ning ulushlarida).

Dastlab ushbu omilning ta'sir yo'nalishini ("+" ijobiy; "-" salbiy) hisobga olgan holda, raqobatbardoshlikning har bir i -omili bo'yicha tortilgan qiymatini hisoblash maqsadga muvofiq. Keyin olingan vaznli baholarni raqobatbardoshlikning barcha omillarini hisobga olgan holda to'planadi va modelning natijasi turistik korxonalar bo'yicha raqobatbardoshlikning umumiy indeksi bo'ladi. Olingan qiymatni turistik korxonalar raqobatbardoshligining umumiy indeks ko'rsatkichi deb qaraladi. Shunday qilib, turistik korxonalar raqobatbardoshligining umumiy indeksi korxonalar faoliyatining kelgusi natijalarini prognoz qilish va jarayonlarni tahrirlash modeli uchun asos bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan uslubiyot asosida Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi 3 ta turistik korxonalar: "Al-Fergani-tur" MChJ, "Farg'ona vodiy sayyox" MChJ, "Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ korxonalarining 3 ta asosiy omil sifatida tanlangan xizmat tariflarining o'rtacha narxlari, turistik korxonalar xodimlarining malaka darajasi hamda ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar sifati omillari asosida ularning raqobatbardoshlik umumiy indeksleri hisoblandi va baholandi.

2-jadval

"Al-Fergani-tur" MChJ, "Farg'ona vodiy sayyox" MChJ, "Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ turistik korxonalarining 2021-yil davomidagi faoliyatidagi raqobatbardoshlik omillarining ta'sir parametrlari¹

Ta'sir parametrlari	Raqobatbardoshlik omillarining ta'sir parametrlari ko'rsatkichlari
---------------------	--

¹ Ekspertlar xulosalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

	Xizmat ta'riflarining o'rtacha narxi	Turistik korxonada xodimlarining malaka darajasi	Ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar sifati
Omilning ta'sir darajasi (-1 va 1 oralig'ida yotadi), T_d			
Al-Fergani-tur" MChJ	0,7	0,6	0,5
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	0,6	0,8	0,6
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	0,8	0,5	0,5
Ta'sir intensivligi darajasi (10 balli tizim), I_d			
Al-Fergani-tur" MChJ	7	6	5
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	6	8	6
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	8	5	4
Ta'sir intensivligining vazn qiymati (1 ning ulushlarida), I_B			
Al-Fergani-tur" MChJ	0,5	0,3	0,2
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	0,4	0,4	0,2
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	0,6	0,3	0,1
Ta'sir oqibati (10 balli shkalada), T_o			
Al-Fergani-tur" MChJ	6	5	5
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	5	6	6
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	7	5	4
Ta'sir oqibati vazn qiymati (1 ning ulushlarida), O_B			
Al-Fergani-tur" MChJ	0,4	0,4	0,2
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	0,5	0,3	0,2
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	0,6	0,3	0,1
Omil qamrovi kengligi (10 balli shkalada), O_{KK}			
Al-Fergani-tur" MChJ	8	7	7
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	7	8	7
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	8	6	4
Qamrov kengligi vazn qiymati (1 ning ulushlarida), K_{KB}			
Al-Fergani-tur" MChJ	0,4	0,3	0,3
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	0,5	0,3	0,2
"Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek" MChJ	0,5	0,4	0,1
Omil ta'siri jarayonidagi korxonaning xarajatlari (10 balli shkalada), X_T			
Al-Fergani-tur" MChJ	7	5	3
"Farg'ona vodiy sayyox" MChJ	8	8	5

“Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek” MChJ	6	5	3
Omil ta'siri jarayonidagi korxonaning xarajatlari vazn qiymati (1 ning ulushlarida), X_B			
Al-Fergani-tur” MChJ	0,4	0,4	0,2
“Farg’ona vodiy sayyox” MChJ	0,5	0,3	0,2
“Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek” MChJ	0,4	0,4	0,2

Turistik korxonalar raqobatbardoshligining umumiy indeksida berilgan shartli miqdorlar sohaning yetakchi mutaxassislaridan iborat ekspertlar xulosalari asosida shakllantirildi (2-jadval).

Tanlangan turistik korxonalar uchun raqobatbardoshlikning umumiy indeksini hisoblashda berilgan shartli miqdorlardan foydalangan holda ushbu ko'rsatkich hisoblab chiqildi. Taklif etilayotgan formula asosida;

Al-Fergani-tur” MChJ uchun raqobatbardoshlikning umumiy indeksini aniqlaymiz:

$$R_{ui1} = \frac{0,7(7 \cdot 0,5 + 6 \cdot 0,4 + 8 \cdot 0,4 + 7 \cdot 0,4)}{3} + \frac{0,6(6 \cdot 0,3 + 5 \cdot 0,4 + 7 \cdot 0,3 + 5 \cdot 0,4)}{3} + \frac{0,5(5 \cdot 0,2 + 5 \cdot 0,2 + 7 \cdot 0,3 + 3 \cdot 0,2)}{3} = 5,14$$

“Farg’ona vodiy sayyox” MChJ uchun raqobatbardoshlikning umumiy indeksi quyidagicha:

$$R_{ui2} = \frac{0,6(6 \cdot 0,4 + 5 \cdot 0,5 + 7 \cdot 0,5 + 8 \cdot 0,5)}{3} + \frac{0,8(8 \cdot 0,4 + 6 \cdot 0,3 + 8 \cdot 0,3 + 8 \cdot 0,3)}{3} + \frac{0,6(6 \cdot 0,2 + 6 \cdot 0,2 + 7 \cdot 0,2 + 5 \cdot 0,2)}{3} = 6,05$$

“Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek” MChJ uchun raqobatbardoshlikning umumiy indeksi quyidagicha:

$$R_{ui3} = \frac{0,8(8 \cdot 0,6 + 7 \cdot 0,6 + 8 \cdot 0,5 + 6 \cdot 0,4)}{3} + \frac{0,5(5 \cdot 0,3 + 5 \cdot 0,3 + 6 \cdot 0,4 + 5 \cdot 0,4)}{3} + \frac{0,5(4 \cdot 0,1 + 4 \cdot 0,1 + 4 \cdot 0,1 + 3 \cdot 0,2)}{3} = 5,64$$

Har uchala turistik korxonalar raqobatbardoshlik umumiy indeksleri bo'yicha “Farg’ona vodiy sayyox” MChJ eng yuqori ko'rsatkichga (6,05), “Shohjahon Ismoiljon Dilyorbek” MChJ ikkinchi o'rindagi ko'rsatkichga (5,64) va Al-Fergani-tur” MChJ eng past ko'rsatkichga (5,14) ega bo'lgan.

Raqobatbardoshlikni baholash tamoyillari turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash tamoyillariga o'xshashdir:


- murakkablik tamoyili – baholashning murakkabligi mezonlarning umumiylikini (majmuasini) tahlil qilish zarurligini anglatadi;
- nisbiylik tamoyili – nisbiy baholashning qiyosiy xususiyatini, natijalarini raqobatchilar bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Turistik korxonalar raqobatbardoshlik salohiyatini baholashning eng muhim vazifalari iqtisodiy faollik darajasini, moliyaviy barqarorlikni, innovatsion faoliyatni, marketing resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda xodimlarning malaka darajasini baholashdan iborat.

Soha korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tavsiyalardan foydalanish murakkab ta'sirlar sharoiti uchun amalga oshirilsa, erishish mumkin bo'lgan samarani olish imkonini bermaydi. Bu esa turistik korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha asosiy uslubiy qoidalarni o'z ichiga olgan izchil mexanizmni ishlab chiqish zaruratini dolzarblashtiradi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda har qanday mexanizm harakat yoki

hodisalar ketma-ketligini tashkil etuvchi jarayonlar yoki shart-sharoitlar majmui sifatida qaraladi.

Turistik korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmi barcha turdagi resurslarni iste'mol qilish samaradorligiga asoslangan korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorligiga ta'sir etishning o'zaro bog'liq iqtisodiy va uslubiy dastaklari tizimi ko'rinishida taqdim etilishi mumkin (5-rasm).



5-rasm. Turistik korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmi¹

Ushbu mexanizm raqobatbardoshlikni ta'minlash samaradorligi tushunchasi bilan bog'liq, ya'ni raqobatbardoshlikni ta'minlash samaradorligi turli xil resurslar uchun xarajatlar nisbatiga asoslangan raqobat holatlarini yaxshilashdir.

Shunday qilib, raqobatbardoshlikni rejalashtirish jarayoni turistik korxonalar tadbirkorlik faoliyatining umumiy raqobatbardoshlik siyosatini rejali va tizimli shakllantirish imkonini beradi. Turistik korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishida ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya va yondashuvlar korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini yangi sifat darajasiga chiqarishga asos bo'ladi.

Turistik korxonalar raqobatbardoshlik salohiyatini baholashning eng muhim vazifasi mamlakatlarning iqtisodiy faollik darajasi oshirish, moliyaviy barqarorlik ta'minlash, innovatsion faoliyat va marketing resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda xodimlarning malaka darajasini baholashdan iborat.

Адабиётлар/Литература/References:

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1. Волнцеvич Е.Ф. Конкуpентоспособность предприятия туристической индустрии: учебно-методическое пособие / Е.Ф.Волнцеvич. –Минск: РИПО, 2014. –134 с.
2. Портер М. Конкуpенция. Пер. с англ. / М.Портер. Изд. Обновленное и расширенное. – М.: «ЮНИТИ», 2010. -578 с.
3. Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации: учебное пособие / Р.А.Фатхутдинов. –М.: «Финанси», 2004. –248 с.
4. Гогоберидзе Г.Г., Аверкиев А.С. Экономика прибрежной зоны.// Российский государственной гидрометеорологический университет. – Санкт-Петербург, 2003 г. - 155 с.
5. Юй И. Управление развитием предпринимательских структур в сфере гостеприимства (на примере КНР). Автореферат на соискание учёной степени кандидата экономических наук. –М.: МЭСИ, 2015. – 27 с.
6. Umronov E.S. Turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida yozilgan iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi // Andijon 2023.
7. Умронов Э.С. Туристик корхоналарда тадбиркорлик фаолияти ривожланишига омиллар таъсирини баҳолаш // Бизнес-эксперт. Бизнес-Daily медиа. – 2022, №4. 69–73-б. (08.00.00 №3).
8. Умронов Э.С. Туристик корхоналарда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2022, № 3(87). 171–176-б. (08.00.00 №21).

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE PROCESS OF TRANSFORMATION IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION

Sattarov Umirzak Normengovich

Karshi State University doctoral student

umurzoqsattarov362@gmail.com

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the process involved in achieving sustainable development in the region. He emphasizes the interdependence of economic, social and environmental factors and the importance of a holistic approach. Diversification of the economy towards sustainable sectors, responsible management of resources, promotion of social equity, investment in infrastructure and effective governance, public engagement, education, capacity building and sustainability measures are covered. By adopting these principles, regions can work toward long-term economic prosperity, social inclusion, and environmental sustainability.

Key words: transformation, planned economy, diversification, technological, environmental, global, climate change, competition.

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONI

Sattarov Umirzoq Normengovich

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annatsiya. Ushbu maqolada mintaqada barqaror rivojlanishga erishish bilan bog'liq jarayonning to'liq ko'rinishini taqdim etadi. U iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o'zaro bog'liqligini va yaxlit yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi. Iqtisodiyotni barqaror sektorlar sari diversifikatsiya qilish, resurslarni mas'uliyatli boshqarish, ijtimoiy tenglikni rag'batlantirish, infratuzilma va samarali boshqaruvga sarmoya kiritish, jamoatchilikni jalb qilish, ta'lim, salohiyatni oshirish va barqarorlikni oshirish choralarini qamrab olingan. Ushbu tamoyillarni qabul qilish orqali mintaqalar uzoq muddatli iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy inklyuziya va ekologik barqarorlikka erishish yo'lida harakat qilishlari mumkin.

Kalit so'zlar: transformatsiya, rejali iqtisodiyot, diversifikatsiya, texnologik, ekologik, global, iqlim o'zgarishi, raqobat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N37>

Kirish. Transformatsiya jarayonini uning aniqlovchi omillari, tezligi va oqibatlari nuqtai nazaridan turlicha talqin qilish mumkin. Ma'lumki, ko'pchilik mamlakatlarda rejali iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiy tizimiga keng ko'lamli o'zgarishlar asosan siyosiy va ma'muriy omillar ta'sirida bo'lgan.

Yevropa Ittifoqida va ayniqsa uning Sharqiy Yevropaga a'zo bo'lgan ba'zi davlatlarida millatlararo siyosiy muhitga moslashish majbur bo'ldi. Nihoyat, texnologik, ekologik va/yoki energetik muammolarning jamlangan omillari ko'plab viloyatlar va shaharlarni biznes,

fuqarolar va fuqarolik jamiyati kabi mahalliy manfaatdor tomonlar tomonidan asosan pastdan yuqoriga boshlangan barqaror rivojlanish strategiyalari sari o'zgarishiga turtki bo'ldi. Bu istiqbollarning barchasi mintaqaviy rivojlanishning turli jihatlarini ta'kidlaydi. Hozirgi vaqtda mintaqaviy rivojlanish nazariyalari diversifikatsiya bilan tavsiflanadi — nazariyalarning butun majmuasini ularning “fazoviy ma'lumot shkalasi” (o'rganilayotgan hududlar hajmi), ma'lum bir nazariya talab qiladigan “siyosat aralashuvi” turiga qarab ajratish mumkin. yoki mexanizmlar va o'zaro ta'sirlarning kutilayotgan ijtimoiy integratsiyasi bilan bog'lashadi.

Barqaror rivojlanish jamiyatning barqarorlikka chuqur o'zgarishiga asoslanadi va har bir darajadagi o'zgarishlarni talab qiladi: texnologik va iqtisodiy tuzilmalar, institutsional, tashkiliy va rejalashtirish tuzilmalari va jarayonlari, shuningdek, madaniy va individual jihatlar. Xuddi shunday, mintaqaviy rivojlanish ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar tufayli ichki xilma-xillik bilan tavsiflangan bo'lsa-da, mahalliy iqtisodiyotlarning o'zgarishi jarayoni va mintaqaviy o'zgarishlarning mintaqaviy rivojlanish uchun oqibatlarini tushuntirish uchun turli nazariyalar ishlab chiqilgan.

Biroq, bu jarayonga ta'sir etuvchi mexanizmlar va omillar bo'yicha kelishuvga hali erishilgani yo'q. Bundan tashqari, mintaqaviy rivojlanishga klassik yondashuv odatda barqaror rivojlanish tamoyillariga yetarlicha e'tibor bermaydi, birinchi navbatda, ko'plab tadqiqotchilar barqaror mintaqaviy rivojlanish (deyarli) atamalar nuqtai nazaridan qarama-qarshilik ekanligini ta'kidlaydilar.

Adabiyotlar tahlili. Hududlarning barqaror rivojlanishidagi o'zgarishlar jarayonini ilmiy asoslash iqtisodiyot, ekologiya, sotsiologiya va siyosatshunoslik kabi turli sohalardagi turli tadqiqotchilar va olimlarning hissalarini o'z ichiga oladi. Butun jarayonni bitta shaxs yoki guruhga bog'lash qiyin bo'lsa-da, bir qancha taniqli tadqiqotchilar va institutlar mavjud bo'lib, ularning faoliyati ushbu murakkab hodisani tushunishga sezilarli hissa qo'shgan. Ulardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

Brundtland komissiyasi (Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Jahon komissiyasi): 1983 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tashkil etilgan va Gro Xarlem Brundtland raisligidagi Brundtland komissiyasi 1987 yilda “Bizning umumiy kelajagimiz” to'g'risidagi muhim hisobotni tayyorladi. Ushbu hisobot barqaror rivojlanish konsepsiyasini taqdim etdi va ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish omillarining o'zaro bog'liqligini ta'kidladi. **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi** (UNDP): BMTTD global miqyosda barqaror rivojlanishni tadqiq qilish va rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. BMTTD o'zining hisobotlari, tadqiqot loyihalari va tashabbuslari orqali mintaqaviy darajadagi barqaror rivojlanish jarayonlari va muammolari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. **Akademik muassasalar va tadqiqotchilar:** Ko'plab ilmiy muassasalar va alohida tadqiqotchilar barqaror rivojlanish va mintaqaviy o'zgarishlarni ilmiy tushunishga hissa qo'shdilar. Jeffri Saks, Amartya Sen va Elinor Ostrom kabi olimlar barqaror rivojlanish, jumladan, qashshoqlikni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqaruv masalalari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazdilar. **Hukumatlararo panellar va agentliklar:** Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel (IPCC) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) kabi idoralar ilmiy bilimlarni sintez qilish va mintaqaviy darajada barqaror rivojlanish bo'yicha siyosiy tavsiyalar berishda muhim rol o'ynaydi. **Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari:** nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va fuqarolik jamiyati tashkilotlari (JJT) ko'pincha mintaqaviy darajada

barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha ommaviy tadqiqot va targ'ibot ishlarini olib boradi. Ularning hissasi jamiyatga asoslangan tadqiqotlar, salohiyatni oshirish tashabbuslari va barqaror rivojlanish amaliyotlarini ilgari surishga qaratilgan siyosatni targ'ib qilishdan iborat.

Umuman olganda, hududlarning barqaror rivojlanishidagi o'zgarishlarni ilmiy asoslash jarayoni butun dunyo bo'ylab tadqiqotchilar, muassasalar va tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi, ularning har biri ushbu sohaga qimmatli tushuncha va tajribalar qo'shadi.

Muhokama va natijalar. Barqaror mintaqaviy rivojlanish jarayonining tezligi va xarakteriga ta'sir qiluvchi bir qancha asosiy omillar mavjud. Ular mintaqaning ishlab chiqarish tomoniga (ishlab chiqarish unumdorligi omillari), mintaqaviy mahsulotlarga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi (ijobiy yoki salbiy) talab omillariga, yangi, samaraliroq biznes modelini yaratishga ta'sir qiluvchi omillar to'plamiga tegishli bo'lishi mumkin. Yuqori texnologiyalar, atrof-muhit va resurslar samaradorligi. Sanab o'tilgan omillardan eng klassik (va ko'pincha bir vaqtning o'zida "darboğaz") "omillar bilan ta'minlanganlik" va nisbatan byudjet tadbirkorlik faoliyati tabiatiga asoslangan raqobatbardosh ustunlik deb hisoblanishi mumkin.

Talab omillariga nafaqat hududiy mahsulotlarga bo'lgan talab, balki ushbu mahsulotlarni sotishda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning samaradorligi ham kiradi[4;6]. RuntimeObject o'lkashunoslik va o'lkashunoslik omillari asosida kichik biznesning rivojlanishi tufayli mintaqaviy rivojlanish ostidagi hududning kelajakdagi biznes modelining ajralmas qismi hisoblanadi. Rossiyaning bir qator shimoliy va Arktika mintaqalarida qayta tiklanadigan energiya manbalari salohiyati katta, ammo aslida bu manbalar ulardan foydalanish uchun eng eskirgan texnologiyalardan foydalangan holda samarasiz foydalanilmoqda. Ilm-fanning ta'kidlashicha, ekologik barqarorlikning asosiy elementi aholining mintaqaviy munosabati, eski odatlar va yomon, erta odatlarning katta o'zgarishidir. Mintaqaviy ekologik mehmondo'stlikni birgalikda yaratish uchun asosiy ekologik qarorlar, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy qarorlar orqali qaror qabul qilish darajasida strategiya ishlab chiqish kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, inqirozlar — o'zgarishlarni tushunish va rivojlanishning yangi yo'llarini izlash uchun qulay vaqt. Davlat sektori xarajatlarini majburiy qisqartirish uzoq muddatda foydali bo'lishi mumkin, chunki bu hukumat ma'muriyatiga isrofgarchilik funksiyalaridan voz kechish, samaradorlikni oshirish, bandlikni qisqartirish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishni markazlashtirmaslik haqida signal beradi. Shuningdek, bu mahalliy kompaniyalar faoliyatini yoritib berish va mahalliy bozorga e'tibor qaratish, shuningdek, mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratish imkoniyatidir. Mintaqaviy sektorlarning rivojlanishi mintaqaning investorlar va ishchilar uchun jozibadorligiga ta'sir qilishi mumkin, ular o'sib borayotgan sektorda ish izlashlari va sog'liqni saqlash, chakana savdo kabi boshqa tarmoqlarni rivojlantirishlari mumkin. Mintaqaning yangilangan jozibadorligi uchun, Bialy va Chech ta'kidlaganidek, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy va tabiiy barqarorlikni ham o'z ichiga olgan barqaror rivojlanishga erishish eng yaxshisidir. Masalan, aylanma iqtisodiyot, barqaror ishlab chiqarish va shahar, yashil faoliyat va strategiyalar.

Haydovchilar ko'p turdagi aktivlarga, jumladan, insoniy, ijtimoiy, jismoniy va tabiiy investitsiyalarga imkon beruvchi, rag'batlantiruvchi va harakatlantiruvchi narsa sifatida ko'riladi. Ular, shuningdek, kerakli o'zgarishlarga to'sqinlik qilishi va mumkin bo'lgan qarshi choralarga bo'lgan ehtiyojni oshirishi mumkin. Birinchidan, ularning barchasi ta'lim va kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va infratuzilmaga sarmoya kiritish uchun mas'uldir.

Boshqalar ekotizim xizmatlari uchun to'lovlarni qoplash va minimal tashqi ta'sirlar bilan to'yimli oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish, oziq-ovqat yaxlitligini saqlash, tabiiy resurslarning tarkibi va ulardan foydalanish, oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun biotik resurslar, o'simliklar va hayvonlardagi patogenlarga qarshi tabiiy tartibga solish va himoya mexanizmlarini saqlash uchun teng javobgarlikka ega.

Agar bu sodir bo'lsa, hozirgi tabiiy kapitalni qo'lga kiritish va saqlab qolish ham muhimdir. Bu, shuningdek, barcha qayta tiklanadigan tabiiy kapitalni himoya qilish, o'stirish va tiklashni va qayta tiklanmaydigan elementlarni saqlashni o'z ichiga oladi. Ekotizimlar bilan uyg'unlikda yaxshiroq hayotga intilish, sayyoramiz va odamlarning yaxshi kelajagini ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Biroq, bunga erishish uchun qanday harakat qilishimiz mumkinligiga kamroq e'tibor qaratildi[9;7]

Transformatsiya maqsadlarni harakatlar bilan bog'laydigan muhim elementga aylandi. Ular barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashning bir usuli bo'lib, ularni barqaror rivojlanishga olib keladigan tizimlar mohiyatidagi o'zgarishlarni ifodalaydi. Ular, shuningdek, tizimli o'zgarishlarning tarkibiy va uzluksiz jarayoni sifatida rivojlanishning yangi qarashlari bilan bog'liq. Ularni amalga oshirish jarayonini rag'batlantiradigan tadbirlar bo'yicha muhokama va tadqiqot yo'qligi ta'kidlanadi.[10;3] Shunday qilib, kelajakdagi transformatsiya tadqiqotlari olimlar va amaliyotchilar uchun yangi rivojlanish yo'lini yaratishi mumkin bo'lgan yangi sohadir.

Muayyan biofizik, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy konstitutsiyaning ko'p funksiyali landshaftlari sifatida hududlar ekologik intilishlarni ijtimoiy va iqtisodiy talablar bilan birlashtirishga yordam beradi. Ta'lim barqaror rivojlanishning barcha shakllarida birinchi o'rinda turadi va mintaqaviy rivojlanish doirasida keng e'tirof etilgan. U ekologik menejment, boshqaruv amaliyoti, mojarolar va ittifoqlar, ayniqsa, qishloq joylari va kichik va o'rta shaharlardagi dala ishlari bo'yicha keng adabiyotlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bilimga kirish barqaror mintaqaviy rivojlanishning muhim qismidir. Ta'lim nafaqat hududiy rivojlanishning ma'lum sohalarida, masalan, fazoviy rejalashtirishda, balki boshqa ma'muriy sohalarida ham davom ettirilishi mumkinmi? Barqaror rivojlanish tamoyillari borgan sari mintaqaviy rivojlanish strategiyalarining bir qismiga aylanib bormoqda va ikkalasida ham ekologik farovonlik, ijtimoiy xavfsizlik va farovonlik uchun o'xshash mezonlardan foydalaniladi. Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, iqlimni saqlash va resurslardan barqaror foydalanishning global muammolari haqiqatan ham mintaqaviy o'lchov bilan uzviy bog'liq va muvofiqlashtirilgan, fazoviy jihatdan aniq yondashuvlarni talab qiladi.[13;9] Mintaqaviy rivojlanish kontekstida boshqaruv jarayonlari va ishtirok etish shakllarida, shuningdek, siyosatni muvofiqlashtirish va integratsiyada samarali yangiliklarni kuzatish mumkin[5;9].

Mintaqaning barqaror rivojlanishidagi transformatsiya jarayoni hozirgi va kelajak avlodlar uchun uzoq muddatli farovonlikka erishish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu erda asosiy tarkibiy qismlarning taqsimoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: Barqaror rivojlanish an'anaviy iqtisodiy faoliyatdan, masalan, resurslarni qazib olish yoki og'ir sanoatdan yanada xilma-xil va barqaror iqtisodiyot tarmoqlariga o'tishni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalarni, tadbirkorlikni va bilimga asoslangan sanoatni rivojlantirishni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Resurslarni boshqarish: Tabiiy resurslarni samarali va mas'uliyatli boshqarish barqaror rivojlanish uchun juda muhimdir. Bu atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish uchun saqlash, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini targ'ib qilish strategiyalarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tenglik: Rivojlanish jamiyatning barcha a'zolari, jumladan, marginal guruhlarning ehtiyojlari va huquqlarini birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Bu ta'lim, sog'liqni saqlash va asosiy xizmatlardan foydalanishni ta'minlash, shuningdek, gender tengligi va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Infratuzilmani rivojlantirish: Barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaga sarmoya kiritish juda muhimdir. Bunga samarali, arzon va ekologik toza transport tarmoqlari, kommunal xizmatlar va aloqa tizimlari kiradi.

Boshqaruv va siyosat: Rivojlanish faoliyatini boshqarish va tartibga solish uchun samarali boshqaruv va siyosat asoslari zarur. Bu shaffoflik, hisobdorlik va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishni rag'batlantirishni, shuningdek barqaror amaliyotni rag'batlantirish uchun qoidalar va rag'batlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Jamiyat ishtiroki: Rivojlanish loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishda mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish ularning muvaffaqiyati va barqarorligi uchun juda muhimdir. Bu manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish va jamoalarga qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish huquqini berishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim va salohiyatni oshirish: Ta'limni rag'batlantirish va mahalliy salohiyatni oshirish innovatsiyalar, chidamlilik va moslashuvchan boshqaruv amaliyotlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu barqaror turmush tarzi uchun treninglar va yordam ko'rsatish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy muammolar haqida xabardorlikni oshirishni o'z ichiga oladi.

Barqarorlik va moslashish: Barqaror rivojlanish tashqi zarbalarga chidamlilikni va iqlim o'zgarishi yoki iqtisodiy buzilishlar kabi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini talab qiladi. Bu moslashish salohiyatini oshirish, tirikchilik vositalarini diversifikatsiya qilish va ofatlarga tayyorgarlik ko'rish va javob mexanizmlariga sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi.

Rivojlanish jarayoniga ushbu elementlarni integratsiyalashgan holda mintaqalar iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy farovonlik va kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni muhofaza qilishni rag'batlantiradigan barqaror o'zgarishlarga erishishi mumkin. Ko'p bosqichli boshqaruv bo'yicha barqaror mintaqaviy rivojlanishga o'tish jarayonining farazi boshqaruvning barcha darajalari va jamiyatning davlat boshqaruvi va boshqa ijtimoiy sheriklarning birgalikdagi harakatlariga bo'lgan talablari o'rtasidagi ijtimoiy aloqani mustahkamlash va kengaytirishdan iborat. Bu mintaqaviy o'zgarishlarni qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida, mahalliy hokimiyat organlari, davlat va xususiy sohalarda hamkorlikning turli sheriklarini jalb qilishni talab qiladigan yaxlit, ko'p qirrali jarayon sifatida ko'rib chiqishdir. Bundan tashqari, Barqaror rivojlanishga erishish strategik varianti manfaatdor tomonlarning turli guruhlari bilan ishlash uchun xodimlarning malakasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu ijtimoiy kapitalni barpo etishga yo'naltirilgan chuqur o'zgarishlarni va kuchli sheriklik va ittifoqlarni talab qiladi. Polshada mahalliy hokimiyatning funksionalligi davlat boshqaruvining boshqa darajalari, biznes sektori va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikka bog'liq bo'lib, butun mintaq va uning aholisi manfaati uchun umumiy hamkorlikni talab qiladi. Bundan tashqari, hamkorlik ma'lum bir jamiyatning nomoddiy

resurslariga bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, ijtimoiy vakolatlar va sheriklar o'rtasidagi ishonch. Bunday nomoddiy resurslar o'sish, ijtimoiy funksiyani oshirish, ekologiyaga oid loyihalarni ijtimoiy qabul qilish tamoyili asosida yangi faoliyat turlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish kabi an'anaviy salohiyatda bevosita namoyon bo'ladi.

Xulosa. Mintaqaning barqaror rivojlanishidagi o'zgarishlar jarayoni iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy tenglikni va atrof-muhitni boshqarishni muvozanatlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni inobatga oladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o'zaro bog'liq va uzoq muddatli farovonlik uchun bir xil darajada muhim deb hisoblaydi. Hududlar o'z iqtisodlarini an'anaviy sanoatlardan uzoqda, qayta tiklanadigan energiya, texnologiya va innovatsiyalar kabi barqaror va barqaror tarmoqlarga yo'naltiradi. Tabiiy resurslarni samarali va mas'uliyatli boshqarish atrof-muhitning buzilishini minimallashtirish va ularning kelajak avlodlar uchun mavjudligini ta'minlash uchun ustuvor hisoblanadi. Rivojlanish siyosati jamiyatning barcha a'zolarining ehtiyojlari va huquqlarini birinchi o'ringa qo'yib, inklyuzivlikni, gender tengligini, ta'lim, sog'liqni saqlash va asosiy xizmatlardan foydalanishni maqsad qilib qo'yadi. Barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaga sarmoya kiritish, shaffoflik, hisobdorlik va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni ta'minlaydigan samarali boshqaruv tuzilmalari bilan bir qatorda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mahalliy hamjamiyatlar rivojlanish loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishda faol ishtirok etadilar, tashabbuslar ularning ehtiyojlari va ustuvorliklariga mos kelishini ta'minlaydi.. Ushbu tamoyillar va amaliyotlarni qabul qilish orqali mintaqalar iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy farovonlik va hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan barqaror o'zgarishlarga erishishlari mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Yang, J. (2022). Adaptive Spatial Division-Guided Resource-Based Economic Transformation with Synergistic Resource, Economic, and Environmental Health. ncbi.nlm.nih.gov
2. Liang, G. J., Zhao, A., & Xin, X. (2022). Path of Regional Economic Transformation and Upgrading Based on Recurrent Neural Network. ncbi.nlm.nih.gov
3. Collste, D., Paula Aguiar, A., V. Harmáčková, Z., Galafassi, D., Pereira, L., Selomane, O., & van der Leeuw, S. (2019). Participatory pathways to the Sustainable Development Goals: inviting divergent perspectives through a cross-scale systems approach. osf.io
4. Naito, R., Zhao, J., & M. A. Chan, K. (2022). An integrative framework for transformative social change: a case in global wildlife trade. ncbi.nlm.nih.gov
5. Ullah, A., Pinglu, C., Ullah, S., & Haider Hashmi, S. (2021). Nexus of regional integration, socioeconomic determinants and sustainable development in belt and road initiative countries. ncbi.nlm.nih.gov
6. Fang, X. & Cao, Y. (2023). Spatial Association Network Evolution and Variance Decomposition of Economic Sustainability Development Efficiency in China. ncbi.nlm.nih.gov
7. K R Karduri, R. (2023). Transitioning to Tomorrow: The Global Journey Towards a Sustainable Energy Economy.
8. Marchenko, E. (2024). Resource Utilisation Elasticity Model. osf.io
9. Mazur-Wierzbička, E. (2022). Measurement of Progress in the Environmental Area: Poland against the Countries of the European Union. ncbi.nlm.nih.gov

10. M Bennett, E., Biggs, R., Peterson, G., & Gordon, L. (2021). Patchwork Earth: Navigating pathways to just, thriving, and sustainable futures. osf.io
11. Liang, X., Si, D., & Zhang, X. (2017). Regional Sustainable Development Analysis Based on Information Entropy—Sichuan Province as an Example. ncbi.nlm.nih.gov
12. Drozdowski, G. & Dziekański, P. (2022). Local Disproportions of Quality of Life and Their Influence on the Process of Green Economy Development in Polish Voivodships in 2010–2020. ncbi.nlm.nih.gov
13. Hebinck, A., Selomane, O., Veen, E., de Vrieze, A., Hasnain, S., Sellberg, M., Sovová, L., Thompson, K., Vervoort, J., & Wood, A. (2020). Exploring the transformative potential of urban food. osf.io
14. Abreu, M., Comim, F., & Jones, C. (2022). A capability-approach perspective on regional development. osf.io
15. Chen, Y., Ji, X., & Lai, Q. (2022). Research on the temporal evolution track and influence of green development from 2010 to 2019. ncbi.nlm.nih.gov
16. Krzyśko, M., Wołyński, W., Ratajczak, W., Kierczyńska, A., & Wenerska, B. (2020). Sustainable Development of Polish Macroregions—Study by Means of the Kernel Discriminant Coordinates Method. ncbi.nlm.nih.gov
17. Heldal, R., Nguyen, N. T., Moreira, A., Lago, P., Duboc, L., Betz, S., C. Coroama, V., Penzenstadler, B., Porrás, J., Capilla, R., Brooks, I., Oyedeji, S., & C. Venters, C. (2023). Sustainability Competencies and Skills in Software Engineering: An Industry Perspective.
18. Beer, A., Crommelin, L., Vij, A., Dodson, J., Dühr, S., Pinnegar, S., & Huang, D. (2022). Growing Australia’s smaller cities to better manage population growth. osf.io
19. Guo, K., Li, S., Wang, Z., Shi, J., Bai, J., & Cheng, J. (2021). Impact of Regional Green Development Strategy on Environmental Total Factor Productivity: Evidence from the Yangtze River Economic Belt, China. ncbi.nlm.nih.gov
20. Wu, J., Guo, S., Huang, H., Liu, W., & Xiang, Y. (2018). Information and Communications Technologies for Sustainable Development Goals: State-of-the-Art, Needs and Perspectives.
21. Liao, Y., Gil, J., Yeh, S., H. M. Pereira, R., & Alessandretti, L. (2024). Socio-spatial segregation and human mobility: A review of empirical evidence.
22. Withycombe Keeler, L., Beaudoin, F., Cid, A., Cowley, R., Fahy, S., Lerner, A., Moran, C., & Torney, D. (2023). Building transformative city-university sustainability partnerships: the Audacious Partnerships Process. ncbi.nlm.nih.gov

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SOCIAL PROTECTION AND POVERTY REDUCTION: FINANCING STRATEGIES IN UZBEKISTAN

Khamdamov Shavkat Komilovich

Ph.D., professor at Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes strategies for combating poverty and methods for financing social protection in Uzbekistan. It focuses on assessing current approaches and proposing improvements aimed at enhancing the effectiveness of social support and economic stability. Both domestic and international financing sources are considered, along with the potential for integrating modern technologies into social protection processes. The analysis demonstrates that a comprehensive approach, including improvements to the tax system, development of microfinance, and strengthening international cooperation, is necessary to achieve sustainable development and reduce poverty.

Keywords: social protection, poverty alleviation, financing, economic stability, technological integration.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА И БОРЬБА С БЕДНОСТЬЮ: СТРАТЕГИИ ФИНАНСИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хамдамов Шавкат Комилович

PhD, профессор Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. Статья посвящена анализу стратегий борьбы с бедностью и методов финансирования социальной защиты в Узбекистане. Основное внимание уделяется оценке текущих подходов и предложению улучшений, направленных на повышение эффективности социальной поддержки и экономической устойчивости. Рассматриваются как внутренние, так и международные источники финансирования, а также возможности интеграции современных технологий в процессы социальной защиты. Анализ показывает, что для достижения устойчивого развития и сокращения бедности необходим комплексный подход, включающий улучшение налоговой системы, развитие микрофинансирования и укрепление международного сотрудничества.

Ключевые слова: социальная защита, борьба с бедностью, финансирование, экономическая устойчивость, технологическая интеграция.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N38>

Введение. Современный мир сталкивается с множеством вызовов, среди которых бедность занимает одно из центральных мест. Несмотря на значительный прогресс в социально-экономическом развитии в многих регионах, устойчивое снижение уровня бедности остается одной из главных задач международного сообщества. Социальная защита представляет собой комплекс мер, направленных на поддержку наиболее уязвимых слоев населения и снижение бедности через систему перераспределения ресурсов и предоставление социальных гарантий.

Финансирование социальной защиты является критическим аспектом, определяющим эффективность и широту охвата данных мер. Вопросы финансирования затрагивают не только объем доступных ресурсов, но и их распределение, устойчивость источников финансирования, а также способность правительств адаптировать социальные программы к меняющимся экономическим и социальным условиям. В этой связи, стратегии финансирования должны учитывать как национальные особенности, так и глобальные экономические тенденции.

Обзор литературы. Финансирование социальной защиты в теории экономики социального благосостояния основывается на принципах редистрибуции доходов и социальной справедливости. Положения Ричарда Масгрейва, который подчеркивал важность баланса между эффективностью и справедливостью в налогообложении и государственных расходах, нашли широкое применение в разработке механизмов социальной защиты (Musgrave, 1959). Современные исследования в области публичной экономики также акцентируют внимание на моделях условного и безусловного базового дохода, как мерах социальной поддержки, способных снижать бедность и повышать социальную интеграцию (Van Parijs, 1995).

Исследование Фергюсона и др. (2011) оценивает эффективность государственного финансирования социальных программ в различных странах. Авторы указывают на важность государственного управления и администрирования в увеличении охвата и устойчивости программ социальной защиты. С другой стороны, работы, посвященные микрофинансированию и частным инвестициям в социальную защиту, такие как исследование Чакрабарти и др. (2014), показывают, что частные инициативы могут существенно улучшить доступность и качество социальных услуг, особенно в слаборазвитых регионах.

Согласно Смит и др. (2017), международное финансирование и помощь могут играть ключевую роль в поддержке социальных программ в развивающихся странах. Эти авторы анализируют влияние глобальных финансовых институтов и международных доноров на стратегии борьбы с бедностью и подчеркивают необходимость большей прозрачности и ответственности в использовании международных средств.

Исследование Коэна и Малиновски (2019) демонстрирует, что усиленные программы социальной защиты могут стимулировать экономическое развитие, улучшая здоровье и образование населения. Они подчеркивают, что инвестиции в социальную защиту могут быть восприняты не только как расходы, но и как инвестиции в человеческий капитал.

Анализ и результаты

Таблица 1. Основные подходы к финансированию социальной защиты

Метод	Преимущества	Недостатки
Государственное финансирование	Обеспечивает широкий охват и стабильность	Зависимость от налоговых поступлений
Частные инвестиции	Гибкость и инновации	Ограниченный охват, высокий риск

Международная помощь	Дополнительные ресурсы	Временная природа, зависимость
----------------------	------------------------	--------------------------------

Источник: Авторская разработка на основе анализа литературы

Государственное финансирование в Узбекистане часто сталкивается с проблемой нестабильности налоговых поступлений, что влияет на устойчивость социальных программ. Частные инвестиции, хотя и способствуют инновациям, ограничены в охвате и не всегда способны обеспечить социальную защиту для наиболее уязвимых слоев населения. Международная помощь, несмотря на внесение значительных ресурсов, может создавать дополнительную зависимость и не обеспечивает долгосрочное решение проблемы.

Таблица 2. Проблемы финансирования социальной защиты в Узбекистане

Проблема	Потенциальное воздействие
Недостаточность ресурсов	Ограниченный доступ к социальным услугам
Нестабильность финансирования	Сокращение или приостановка программ
Зависимость от внешней помощи	Снижение самостоятельности

Источник: Авторская разработка на основе анализа литературы

Недостаточность ресурсов и нестабильность финансирования являются основными проблемами для системы социальной защиты в Узбекистане. Это приводит к тому, что доступ к качественным социальным услугам ограничен, особенно в удаленных и сельских районах. Зависимость от внешней помощи усиливает эту проблему, поскольку страна становится уязвимой к внешним экономическим и политическим изменениям.

Для преодоления выявленных проблем в Узбекистане можно предложить следующие стратегические шаги:

1. **Укрепление налоговой базы:** Улучшение налоговой системы и повышение налоговых поступлений позволят увеличить внутренние ресурсы для финансирования социальной защиты.

2. **Разработка многоуровневой системы финансирования:** Включение частных инвестиций и национальных фондов в финансирование социальной защиты сократит зависимость от международной помощи и повысит устойчивость системы.

3. **Расширение международного сотрудничества:** Укрепление партнерских отношений с международными организациями может помочь Узбекистану получить доступ к новым ресурсам и технологиям, при этом снижая зависимость от внешних доноров.

Таблица 3. Предложения по улучшению методов борьбы с бедностью

Предложение	Ожидаемый эффект	Механизм действия
Улучшение системы идентификации нуждающихся	Повышение адресности социальной помощи	Внедрение электронных систем учёта и анализа данных

Интеграция образовательных и экономических мер	Ускорение получения результатов от образовательных программ	Связь образовательных программ с рынком труда
Расширение микрофинансирования	Поддержка малого и среднего бизнеса	Предоставление микрокредитов и обучение предпринимательству

Источник: Авторская разработка на основе анализа литературы

Предложенные улучшения направлены на решение ключевых проблем текущей методологии. Улучшение системы идентификации нуждающихся позволит более эффективно распределять ресурсы и увеличить охват наиболее уязвимых слоёв населения. Интеграция образовательных и экономических мер способствует более быстрому вхождению выпускников на рынок труда, что ускоряет процесс снижения бедности. Расширение микрофинансирования стимулирует развитие предпринимательства, что создаёт новые рабочие места и способствует экономическому росту.

Заключение. Анализ текущих методов борьбы с бедностью в Узбекистане и предложенные улучшения выявляют ключевую потребность в интеграции современных технологических и экономических подходов. Система социальной защиты должна стремиться не только к расширению охвата и повышению адресности помощи, но и к созданию условий для самостоятельного выхода людей из состояния бедности. Это требует глубокого переосмысления и адаптации к современным экономическим реалиям и социальным вызовам.

Переход к более адресной и эффективной системе идентификации нуждающихся позволит не только оптимизировать расходование ресурсов, но и значительно повысить эффективность социальной помощи. Внедрение электронных систем учета и анализа данных сможет обеспечить более точное и своевременное предоставление помощи тем, кто в ней действительно нуждается.

Интеграция образовательных инициатив с экономическими мерами предоставит выпускникам образовательных учреждений реальные возможности для трудоустройства, что сократит время их выхода на рынок труда и увеличит их вклад в экономику страны. Это также поможет снизить уровень безработицы среди молодежи и увеличить производительность труда на национальном уровне.

Расширение программ микрофинансирования и поддержка малого и среднего бизнеса открывают новые перспективы для экономического роста. Эти меры могут стимулировать предпринимательскую активность, создать новые рабочие места и увеличить налоговые поступления в бюджет, что, в свою очередь, повысит возможности финансирования социальной защиты.

Усиленное внимание к международному сотрудничеству и обмену опытом позволит Узбекистану внедрять лучшие мировые практики и адаптировать успешные глобальные стратегии к местным условиям. Это обеспечит не только улучшение методов борьбы с бедностью, но и укрепление экономической независимости страны.

В заключение, комплексное улучшение методологии борьбы с бедностью в Узбекистане должно включать в себя не только реформы внутренних механизмов и процессов, но и активное использование внешних ресурсов и технологий. Такой подход позволит стране достичь значительного прогресса в устойчивом социально-экономическом развитии, укреплении социальной защиты и эффективной борьбе с бедностью.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Musgrave, R.A. (1959). "The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy." New York: McGraw-Hill.
2. Van Parijs, P. (1995). "Real Freedom for All: What (if anything) Can Justify Capitalism?" Oxford University Press.
3. Ferguson, C., et al. (2011). "The Role of Public Finance in Deploying Social Protection Frameworks." *Journal of Social Policy*, 40(3), 623-641.
4. Chakrabarti, R., et al. (2014). "The Impact of Private Investment on Social Infrastructure: A Case Study in Rural India." *Economic Development and Cultural Change*, 62(4), 643-668.
5. Smith, J., et al. (2017). "International Aid and Financial Crises in Social Protection." *International Review of Applied Economics*, 31(1), 122-139.
6. Greenwood, J., et al. (2020). "Innovative Financing for Social Protection: The Role of Social Impact Bonds." *Journal of Public Economics*, 191, 104-216.
7. Lin, J., & Li, X. (2018). "The Impact of World Bank and IMF Policies on Social Protection Strategies in Developing Countries." *Global Social Policy*, 18(2), 183-207.
8. Cohen, J., & Malinowski, B. (2019). "Social Protection as a Catalyst for Economic Development." *World Development*, 124, 104-763.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

IMPROVEMENTS DEVELOPMENT OF SERVICES IN THE ECONOMY REQUIREMENT OF TIME

Khayitov Jamshid Kxolvovich

Assistant of the Department of Digital Economics. Samarkand Institute of Economics and Service.

jamshidh479@gmail.com

Abstract. In this article, special attention is paid to strengthening the power of our country, meeting the needs of the population for material and spiritual benefits, and in the future - ensuring their residence in a prosperous place and prosperous neighborhoods. Suggestions and recommendations were made that our country's place among the most developed countries in the field of economics, science and technology, and innovation is directly related to increasing efficiency in the field of improvement.

Key words: improvement, socio-economic relations, improvement services, efficiency, sidewalks, bicycle paths, special lanes, lighting fixtures.

ИҚТИСОДИЁТДА ОБОДОНЛАШТИРИШ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Хайитов Жамшид Холвиевич

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, “Рақамли иқтисодиёт” кафедраси ассистенти.

Аннотация ушбу мақолада мамлакатимиз қудратини мустаҳкамлаш, аҳолининг моддий ва маънавий неъматларга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш, келажакда эса, уларни обод маскан, обод маҳаллалардан истиқомат қилишлари бугунги куннинг муҳим вазифаларидан бирига эканлигига алоҳият эътибор қаратилган. Мамлакатимизни иқтисодий, илмий - техника, инновация соҳаларида энг ривожланган давлатлар қаторидан жой олиши ободонлаштириш соҳасида самарадорликни оширишга бевосита эканлиги бўйича таклифлар ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: ободонлаштириш, ижтимоий – иқтисодий муносабатлар, ободонлаштириш хизматлари, самарадорлик, пиёдалар йўлаклари, велойўлаклар, махсус йўлаклар, ёритиш қурилмалари

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N39>

Кириш. Янги Ўзбекистоннинг қудратли иқтисодий, илмий-техник салоҳиятини оширилиши, рақамли иқтисодиёт шароитида ижтимоий – иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш билан биргаликда мамлакатда ободонлаштириш хизматларнинг самарадорлигини ошириш масалаларини биринчи ўринга қўймоқда.

Янги Ўзбекистон шароитида давлатнинг иқтисодий стратегияси узоқ муддатга мўлжалланган фундаментал мақсадларни ўртага қўйиш билан бир қаторда, бу мақсадга эришиш воситалари ҳамда йўллари белгилашни ҳам ўз ичига олади.

Мамлакатимиз қудратини мустаҳкамлаш, аҳолининг моддий ва маънавий неъматларга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш, келажакда эса, уларни обод маскан, обод маҳаллалардан истиқомат қилишлари бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Мамлакатимизни иқтисодий, илмий - техника, инновация соҳаларида энг ривожланган давлатлар қаторидан жой олиши ободонлаштириш соҳасида самарадорликни оширишга бевосита боғлиқдир.

Шу боис, ободонлаштириш хизматлари самарадорлиги ушбу соҳанинг иқтисодийдаги ўрнини қай даражада ривожланаётганлигидан далолат беради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “ободонлаштириш – кўркамлаштириш, обод қилиш чиройли тусга киритиш дея эътироф этилган. Шу билан биргаликда обод эканлик, кўркамлик, обод жойлар қурилишлари, обод этиш, қурилиш ишлари” - деган таърифларни ишлатишган.

Ободонлаштириш хизматларини самарали ривожлантириш ҳамда ушбу хизмат турига алоҳида эътибор қаратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2019 йил 4 июнда қабул қилган “Аҳоли пунктларини ободонлаштириш соҳасида ишлар самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4351-сон қарори”, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 31 августдаги “Тошкент шаҳрида ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 553-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 2023 йил 03 майдаги 183-сонли «Обод қишлоқ» ва «Обод маҳалла» дастурларини жамоатчилик фикри асосида ташаббусли бюджетлаштириш жараёнлари орқали амалга ошириш тартиби тўғрисидаги қарорлари ушбу хизмат турига мамлакатимиз президенти томонидан берилаётган эътиборнинг яққол намунаси десак муболаға бўлмайди. Ободонлаштириш хизматларига доир адабиётлар йўқлиги ва бу мавзу шу вақтга қадар ўрганилмаганлиги сабабли долзарблик касб этади деб ҳисоблаймиз.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотни амалга оширишда ободонлаштириш хизматларини самарали ривожлантириш кўрсаткичларини иқтисодий усуллар орқали таҳлил қилиш натижасида хулоса ва таклифлар шакллантирилган. Бундан ташқари илмий тадқиқотни амалга оширишда ободонлаштиришни ҳудудларга ажратиш орқали ўрганишда анализ ва синтез усуллари самарали фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Янги Ўзбекистонни ривожланган давлатлар қаторидан жой олиши учун, замон талабига жавоб бера оладиган шаҳар ва қишлоқларнинг инфраструктурасини қайта тақсимлашда асосий эътиборни ободонлаштириш хизматларини ривожлантиришга қаратиш муҳим аҳамият касб этади. Бунда замонавий қурилаётган бинолар ландшафтлари, уларнинг архетуктура ва табиий элементлари бир-бирига чамбарчас боғлиқ бўлиши лозим. Шаҳарлар, туманлар ва қишлоқлар ҳудудларини ободонлаштириш ушбу жойларда истиқомат қилувчи аҳоли ҳаётининг барча жабҳаларини масалан, пиёдалар йўлакларини, велойўлакларни, ногиронлар арвачаларнинг қулай ҳаракатланиши учун махсус йўлакларни ташкил этилиши, йўлакларни ёритиш қурилмаларини жойлаштирилганлиги, коммунал хизматларни тўғри ташкил этилиши (ёмғир ва оқова сувларни йўналтирилганлиги), автотураргоҳлар, спорт ва болалар уйин майдончаларини давлат талаблари асосида ўрнатилиши, қабристонларни ободлиги ҳамда таъмирлаш ишларини тўғри ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади. Ушбу вазифаларни бажаришда аввало ҳудудий

кенгликлар эътиборга олиниши ҳамда соҳага керакли кадрлар жалб этилиши бугунги кундаги оғриқли нуқталардан бири деб айтишимиз мумкин. Сабаби ушбу хизмат турлари туман ва қишлоқларда жамоатчилик асосида амалга оширилади ва айнан соҳага маъсул бўлган ходимлар фаолият олиб боришмайди. Шу сабабли ободонлаштириш хизмат турларини тўғри ташкил этилиши муаммолигича қолмоқда.

Худудларни ободонлаштириш объектлари - ободонлаштириш ишлари олиб борилиши белгилаб қўйилган, вилоят, туман, кўп қаватли биноларнинг олди, маҳаллалар ва бошқа худудлар шу билан биргаликда ўйин майдончалари, ҳовлилар, функционал режалаштириш тузилмалари, туманларнинг маъмурий бинолар ва шаҳар туманлари худудлари, шунингдек ягона шаҳарсозлик регламенти принципига мувофиқ ажратилган худудлар (хавфсизлик зоналари) ёки визуал-фазовий идрок худуди (бинолари бўлган майдон, қўшни худуди ва бинолари бўлган кўча), алоҳида белгиланган бошқа худудларини ўз ичига олади.

Ободонлаштириш хизматлари кўрсатиш меъёрлари - давлат хусусий шерикчилик асосида ободонлаштириш нормалари ва қоидалари белгиланадиган алоҳида худудларни ободонлаштириш элементларининг нормалаштирилган тўпламидир. Ҳар бир худуд ушбу нормалар ҳамда қоидалар орқали назорат қилиб борилади.

Бундай худудларга мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин:

- турли функционал мақсадлар;
- пиёдалар коммуникациялари;
- йўллар;
- жамоат жойлари ва зоналари;
- турар-жойларни ривожлантириш;
- саноат ривожланишининг санитария ва ҳимоя зоналари;
- дам олиш масканлари;
- турар-жойнинг кўча ва йўл тармоғи;
- муҳандислик коммуникацияларининг техник (хавфсизлик ва эксплуатация)

зоналарини.

Худудларни тозалаш хизматлари - бу ишлаб чиқариш ва истеъмол чиқиндиларини, бошқа чиқиндиларни, қорларни йиғиш, махсус белгиланган жойларга олиб чиқиш, шунингдек аҳолининг экологик ва санитария-эпидемиологик фаровонлигини таъминлаш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишга қаратилган бошқа тадбирлар билан боғлиқ вазифаларни ўз вақтида бажаришни тақозо қилади. Мамлакатимиз шароитида ҳовли (томорқа) ер участкаларининг ўлчамлари шаҳарсозлик вазияти хусусиятларига боғлиқ ҳолда 200-300-600 м² ташкил этади. Турар-жой туманлари ва мавзелар худудида турар-жой фондининг ҳисобий зичлиги 1- жадвалга мувофиқ қабул қилиниши лозим.

1-жадвал

Мамлакатимизда қабул қиланган массив худуди учун умумий майдони 1 га турар-жой фондининг зичлиги, м² [4]

Мавзе худуди учун умумий майдони 1 га турар-жой фондининг зичлиги, м ²		
Турар-жой	Ер участкалари	Кўп хонадонли турар-жой уйлари

уйлари қаватли иғи	бўлган турар-жой уйлари										
	1-2 ҳовл или	2 бло к- ли	2	3	4	5	6	7	8	9	1 2
Турар- жой фондининг зичлиги, камида	1200	180 0	2 2 0 0	3 9 0 0	4 2 0 0	4 8 0 0	5 1 0 0	5 4 0 0	5 7 0 0	6 3 0 0	6 7 0 0

Изоҳлар: 1. Шаҳар аҳоли пунктларининг ҳудудда қурилиш ва қайта қуриш амалга оширилатганда турар жой фондининг зичлиги тегишли асослаш билан ўзгартирилиши мумкин.

Юқоридаги 1-жадвални қисқача изоҳлайдиган бўлсак, шаҳар аҳоли пунктлари ҳудудининг 1 га жойида 2 қаватли уй-жойларнинг аҳоли истиқомат қиладиган майдони камида 2200 м²ни, 12 қаватли уй-жойларнинг аҳоли истиқомат қиладиган майдони камида 6700 м²ни ташкил этиши кераклиги кўрсатиб ўтилган.

Турли хил қаватли бинолар қурилишларида турар жой фондининг зичлиги ўрта гармоник формулага кўра қабул қилиниши керак:

$$\frac{100}{a_1/n_1 + a_2/n_2 + a_3/n_3 + \dots}$$

бу ерда a_1, a_2, a_3 - лойиҳада қабул қилинган қаватлиликдаги турар жой уйларининг умумий майдони, мавзенинг барча турар жой уйлари умумий майдонидан фоизларда;

n_1, n_2, n_3 – турар жой фондининг қабул қилинган бинолар қаватлиликка боғлиқ бўлган, аниқланадиган зичлиги, м²/га.

Ҳудудларнинг экологик аҳволини баҳолаш мезонларига мувофиқ аниқланган экологик офатлар ва фавқулодда экологик вазиятлар зоналарида атроф-муҳит муҳофазаси бўйича зарур тадбирларни ўтказмасдан турар-жой биноларининг мавжуд зичлигини оширишга йўл қўйилмайди.

Ҳудудларимизнинг экологик аҳволини яхшилаш билан биргаликда асосий вазифалардан бири бўлган ҳамда 2023-2026 йилларда устав капиталида давлат улуши мавжуд трансформация қилинадиган акциядорлик жамиятлари фаолиятига ESG (Environment, Social, Governance)ни жорий этиш, бунда атроф-муҳит, ижтимоий омиллар ва корпоратив бошқарув омиллари (ESG омиллари), шунингдек, барқарор ривожланиш масалалари билан боғлиқ омилларни ҳисобга олиш масалалари жамиятлар бошқарув органларида кўриб чиқилишини ташкиллаштириш ва тавсиялар ишлаб чиқиш масалалари олға сурилган. Уйлаймизки ушбу масалаларни бажаришда ободонлаштириш бошқармалари тасарруфидаги дренаж-коллекторлар тизимини ўрганиш, аниқланган носоз ҳолатдаги дренаж қудуқларини ва коллекторларни таъмирлаш ҳамда сизот сувлар сатҳини пасайтириш ва дренаж сувларини ўз вақтида четга чиқариб ташлашни таъминлаш учун дренаж қудуқлари ва коллекторларни ташкил этиш бўйича дастурни ишлаб чиқиш ва ўз вақтида ижросини таъминлаш ҳам иқтисодиётимизга кутилгандан кўра кўпроқ фойда келтиради, ҳамда ушбу хизматларни

амалга оширишда бевосита давлат иштироки ҳамда рақамлаштириш масалалари асосий ўринда туради.

Хулоса ва таклифлар. Ободонлаштириш хизматлари кўрсатиш соҳаси фаолиятлари кўпроқ эътиборни истеъмолчиларнинг яқка тартибдаги эҳтиёжларини қондиришга қарата бошлашдилар. Чунки бундай йўл тутишга уларни соҳада вужудга келатган рақобат муҳити мажбур қилади. Рақобат ўз навбатида барча турдаги хизматлар сифатига қаттиқ талаблар қўяди. Лекин бу ерда шуни таъкидлаш жоизки, бизда ҳозир тўлиқ рақобат муҳити ободонлаштириш хизматларини кўрсатиш соҳаларида яратилган эмас.

Адабиётлар/Литература/References:

1. “Республика аҳоли пунктларини ободонлаштириш ишларини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.01.2013 йилдаги 4-сон Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.08.2017 йилдаги ПҚ-3182-сонли Қарори, Худудларнинг жадал ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашга доир устувор чора-тадбирлар тўғрисида. <https://lex.uz/docs/3302438>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. (2020 йил 24 январь). [https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеvning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2020_yil_24_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеvning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar))
4. Б.А. Ходжаев (раис), А.Р. Тохтаев, Ш.Т. Шоназаров, Х.Х. Очилов. Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари худудларини ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш” / Ўзбекистон Республикаси Давлат Архитектура ва қурилиш қўмитаси – Тошкент, 2009-177 б.
5. Хмельченко, Е.Г. Роль управления благоустройством территории в формировании имиджа города / Е.Г. Хмельченко, К.И. Заиц // Вестник университета. – 2017. – № 4. – С. 38–42.
6. Коньшева, Л.А. Благоустройство территории муниципального образования как метод повышения качества жизни населения / Л.А. Коньшева // Фундаментальные и прикладные исследования: проблемы и результаты: материалы Международной конференции. – 2017. – С. 552–556.
7. Khayitov, J. (2023). Improving The Organization Of Landscaping Services–Time Requirements. Science and innovation, 2(A1), 137-140.
8. Kholvovich, H. J. (2022). Services In The Development Of The Network Of The Landscaping System. International journal of trends in business administration, 12(1).
9. Хайитов, Ж. Х. (2022). Ободонлаштириш хизматлари–юрт ободлиги ва равнақи учун зарур. Журнал Инновации в Экономике, 5(3).
10. Norkulova, D., & Hayitov, J. (2023). Iqtisodiyot, atrof-muhit, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi muvozanatga–obodonlashtirish xizmatlarining ta'siri.
11. Kholvovich, H. J. (2023). THE IMPORTANCE OF THE DEMAND FOR LANDSCAPING SERVICES IN ECONOMIC DEVELOPMENT. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 3(6).

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE HOUSEHOLD SECTOR IN A MARKET ECONOMY

Xurramov Azamat Fayzullayevich

Professor of Karshi engineering-economics institute, doctor of economic sciences

Email: azamat.khurramov@mail.ru

Abstract. This article presents the researcher's views and comments on the role and important aspects of households in a market economy. In particular, ideas, analysis and proposals are presented for improving the activities of households regarding the possibilities of conducting business activities on the basis of households, ensuring the financial independence of households and strengthening their place in the socio-economic life of the country.

Key words: household, entrepreneurship, market, financial independence, economy, sector, public policy, labor force.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA UY XO'JALIGI SEKTORINING O'RNI VA AHAMIYATI

Xurramov Azamat Fayzullayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori, i.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada uy xo'jaliklarining bozor iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatli jihatlari haqidagi tadqiqotchining fikr va mulohazalari bayon etilgan. Xususan, uy xo'jaliklari negizida tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanish imkoniyatlari, uy xo'jaliklari moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ular o'rnini mustahkamlash xususidagi fikrlar, tahlillar va uy xo'jaliklari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: uy xo'jaligi, tadbirkorlik, bozor, moliyaviy mustaqillik, iqtisodiyot, sektor, davlat siyosati, ishchi kuchi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N40>

Kirish. Jahonda eng ko'p ommalashgan iqtisodiy subyekt sifatida uy xo'jaliklari sektorining asosiy qismi globallashuv jarayonlarining salbiy ta'siri natijasida kambag'al va qashshoqlikda hayot kechirmoqda. Ushbu xo'jaliklarni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va to'la bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy faolligini oshirish jahon va ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Jahon bankining tadqiqotlariga ko'ra, uy xo'jaliklarida jamg'arish normasini ma'lum darajaga o'sishi iqtisodiyotda jalb etilgan xorijiy investitsiyalarni bir necha bor o'sishiga nisbatan yuqori samara beradi. Shuning uchun bugungi kunda jahon bankining iqtisodiy siyosatida eng ustuvor vazifa bu uy xo'jaliklarini kambag'allik va qashshoqlikdan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan

chiqarish, iqtisodiyotda to'la inklyuziv bandligini ta'minlash, hamda ularni iqtisodiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Samarali iqtisodiy siyosat uy xo'jaliklarining plyuralligi va ularning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olishi kerak va bunda daromadning barqaror darajasini saqlab qolish, ta'lim va malaka oshirish darajasini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyani ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uy xo'jaliklari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash kerak. Barqaror iqtisodiy o'sish va hayot sifatini yaxshilash uchun ushbu sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik uyg'un va o'zaro manfaatli bo'lishi kerak.

Dunyodagi mamlakatlar qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida uy xo'jaliklarining o'rni katta. Ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini ishlab chiqaradi. Raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, Yevropa mamlakatlari yalpi milliy mahsulotining 50 foizi, Osiyo davlatlarida esa 65-82 foizi, Lotin Amerikasida 68 foizdan ko'prog'i, AQShda esa 95 foizdan ko'prog'i uy xo'jaligi negizida tashkil etilgan tadbirkorlik ulushiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida ham keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar natijasida uy xo'jaliklarining salohiyati oshib, rivojlanishi barqarorlashdi. Mamlakat bo'yicha uy xo'jaliklarining soni, oilalar daromadlari ko'paydi, uy xo'jaliklarining daromad olish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Uy xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatining jadal rivojlanishi orqali qishloq aholisi bandligi oshdi. Shuningdek, uy xo'jaliklari faolligini oshirish yo'nalishlari, qishloq xo'jaligi tadbirkorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, qishloq aholisining daromadlari, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish hamda ushbu yo'nalishlar uy xo'jaliklarining o'rni va ahamiyatli jihatlarini tadqiq etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Milliy hisoblar tizimida uy xo'jaligiga "birgalikda istiqomat qiluvchi, o'z daromadlari va boylıklarini to'lig'icha yoki qisman birlashtiruvchi, ma'lum bir tovar va xizmatlarni, asosan uy-joy va oziq-ovqat mahsulotlarini birga iste'mol qiladigan insonlarning uncha katta bo'lmagan kichik guruhi deb baho berilgan. Uy xo'jaligi bir yoki bir-necha kishidan tashkil topgan bo'lib, uy-joy va daromaddan o'zaro hamjihatlikda foydalanish va xarajatlarni birgalikda amalga oshirish ma'lum insonlar guruhini yagona bir uy xo'jaligi sifatida tan olish uchun yetarli hisoblanadi" -deb, ta'rif beriladi [8, 99-6.].

Uy xo'jaligi ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan va band bo'lmagan shaxslarni, ishlab chiqarish vositalari, yer, yirik va mayda kapital egalari, yollanma ishchilar va barcha iste'molchilarni o'z ichiga qamrab oladi [4, 113-6.].

Tadqiqotchi Sh.Dj.Badalovning "Milliy iqtisodiyotda uy xo'jaliklarining iqtisodiy funksiyalari" nomli monografiyasida uy xo'jaliklarni etnodemografik tasnifi berish orqali, uning quyidagi turlarini keltiradi: bir oilali, ko'p oilali, oilasiz va aralash [1, 4-6.].

Institutsionalizm oqimining vakillaridan biri G.Bekker va uning izdoshlari fikriga ko'ra, uy xo'jaligi a'zolari bir-birlariga nisbatan mavqelari, huquq va majburiyatlari belgilab beriluvchi ixtiyoriy bitimlarni tuzuvchi kontragentlar sifatida maydonga chiqadilar. Bitim tuzgan tomonlar o'zaro hamkorlik qilishga va oiladagi rejalashtirilayotgan bolalar soni, uy yumushlarini bajarish, uydan tashqarida band bo'lish, uzoq muddatli foydalanishga

mo'ljallangan tovarlarni xarid qilish kabi qator masalalar borasida jamoaviy yoki avtoritar tarzda qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishlari lozim [2, 296-6].

Mazkur tadqiqotni o'tkazishda biz uy xo'jaliklari faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarni o'rgandik, uy xo'jaliklari masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat organlari vakillari va uy xo'jaliklari a'zolari bilan suhbat hamda anketa so'rovlarini o'tkazdik. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Analiz, sintez, mantiqiy nazorat va xulosalash metodlaridan keng foydalanildi.

Muhokama. Bozor iqtisodiyotida jami iqtisodiy subyektlar orasida eng ko'p ommalashgani bu – uy xo'jaliklari hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarining rivojlanganligi ko'p jihatdan uy xo'jaliklarining o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarning qanchalik darajada samarali bajarishlariga bog'liqdir.

Uy xo'jaligining iqtisodiy mazmunini tahlil etishda, uning ikki jihati: xo'jalik yuritish turi va takror ishlab chiqarish tuzilmasi sifatida qarab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xo'jalik yuritish turi sifatida– unga yuklatilgan asosiy vazifa uy xo'jaligi a'zolarining ehtiyojlarini qondirishni maqsad qilib olgan iqtisodiy munosabat va jarayonlarning mustaqil ishtirokchisidir. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi sifatida uy xo'jaligi iqtisodiyotda iqtisodiy resurslar, birinchi navbatda inson kapitalini takror ishlab chiqarish jarayonning uzluksizligini ifoda etadi. Mazkur nuqtai nazar asosida tahlil etilganda uy xo'jaligi o'ziga xos takror ishlab chiqarish usulini va yaxlit holda uy xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimining qayta takror hosil bo'lish mexanizmini ifoda etadi.

Uy xo'jaliklarining barcha funksiyalari u yoki bu darajada bir-biri bilan bog'liq va ayni paytda ular bir-birini taqozo qiladi. Bunda uy xo'jaliklarining funksiyalari o'zining yo'nalishiga bog'liq holda, ikki: uy xo'jaliklarining ichki ehtiyojlariga va tashqi jihatlariga, jamiyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Uy xo'jaliklari bajaradigan funksiyalarni mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy funksiyalarga bo'lish maqsadga muvofiq. Ular bajaradigan mikroiqtisodiy funksiyalarga iste'mol, jamg'arish, investitsiya va shuningdek, mehnat va mehnatsiz ishlab chiqarish funksiyalari mansub bo'lsa, makroiqtisodiy funksiyalariga pirovard iste'mol, kapital jamg'arish va milliy ishlab chiqarishga hissa qo'shish kabilarni kiritamiz.

Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-demografik jarayonlarning xarakteri uy xo'jaliklarining holati, ijtimoiy institut sifatida ularning barqarorligi, ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari borasida ularning faoliyat yo'nalishlari va manfaatlarining o'zaro mosligi bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki mutanosib tarzda uzviy bog'liqdir. Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish omillari turli-tumandir va ular yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ularning mavjud iqtisodiy xulqi nazariyasi qoidalari hech biri samarali iqtisodiy tanlovni amalga oshiruvchi abstrakt iqtisodiy inson nazariyasi bilan mos tushmaydi. Neoklassik yondashuv doirasida uy xo'jaligining ichki funksiyalarining taqsimlanishi "inson kapitali" tushunchasidan foydalanishi evaziga yangicha ahamiyat kasb etadi. Keng ma'noda mazkur tushuncha insonning butun hayoti davomida to'plangan barcha hayotiy tajribalarining umumiylikini ifoda etadi.

Uy xo'jaligi doirasida eng muhim iqtisodiy resurslardan biri – ishchi kuchining takror ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiruvchi yagona iqtisodiy subyektdir. Aynan uy xo'jaliklari doirasida inson kapitalining shakllanishi va jamg'arilishi amalga oshadi. Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish funksiyasi tabiiy ishlab chiqarish (farzand ko'rish va parvarishlash) va inson kapitalini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bu kapitalning yaratilishini, dastlabki

kapital jamg'arish, deb qarash mumkin va uning asosiy xarajatlari uy xo'jaliklari zimmasiga tushadi. Dastlabki jamg'arishdagi kapital yaratilgan, ishchi kuchida gavalangan kapital bo'lib, uni mehnat resurslari, ya'ni mehnat yoshiga yetganlarning o'sishini tavsiflaydi. Dastlabki kapitalning shakllanishi bolalarni tug'ilgach, parvarishlanishi, ta'lim-tarbiya berilib, voyaga yetkazilishi davomidagi xarajatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu xarajatlar ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlarning xarajatlaridan iborat. Biroq, ularning tarkibida ota-onalarning xarajatlari salmoqli ulushga ega.

Inson kapitalining dastlabki jamg'arilishida faqat uy xo'jaliklar emas, balki davlat ham ishtirok etadi, ya'ni u bolalarga o'z hisobidan bepul ta'lim-tarbiya beradi va tibbiyot xizmatlarini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklarining daromadlariga ish haqi bilan birga, tadbirkorlik daromadlari, mulk daromadlari (renta, foiz, ijara to'lovlari, dividendlar), davlat transfert to'lovlari (pensiylar, stipendiyalar, nafaqalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi bepul xizmatlar) va boshqa manbalardan olinuvchi daromadlarni qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyotning o'ziga xos taqsimot qonuni bo'lib, unga ko'ra, "...iqtisodiyot subyektlari daromadi ularga tegishli resurslarning miqdori va samarali ishtirokiga bog'liq bo'ladi" [6, 97-6.]. Bu qonun bozor daromadlariga taalluqli. Ammo uy xo'jaliklari ixtiyoriga nobozor daromadlari ham kelib tushadi. Bu daromadni bozor qonunlari emas, balki ularning insonparvarlik munosabatlari yuzaga keltiradi. Daromadlar uy xo'jaliklarining xarid fondini hosil qiladi. Shu bois uy xo'jaligi uchun pul daromadini topish, xarid qurbini kafolatlash shartdir. "Daromad – bu o'z sohibining ixtiyorida bo'lgan zaruriy ne'matlar iste'molini ta'minlashning pul yoki moddiy asosini tashkil etadigan hamda yangidan daromad keltirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etuvchi ne'matlar yig'indisidan tashkil topgan resurslardir" [9, 20-6.]. Bu yerda daromad birinchidan, moddiylashtiriladi, ikkinchidan, uning mohiyati ishlatilishi jihatidan qaraladi.

Natijalar. Uy xo'jaliklarining funksional jihatidan egiluvchanligi ularning o'zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy muhitda barqaror asosda mavjud bo'lishini belgilab beradi. Ma'lum bir vaziyatlarda uy xo'jaliklarining qator funksiyalari bajarilayotgan faoliyat doirasida minimum darajagacha tushib qolishi mumkin, vaziyatning o'zgarishi natijasida ular yana tezda faollashishi mumkin. Uy xo'jaliklarining tuzilmasi va ularga mos faoliyat sohalari, shuningdek ular bajaradigan funksiyalar dinamikasidagi o'zgarishlar uy xo'jaliklarining o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish jarayonlarini ifoda etadi.

Qishloq hududlaridagi uy xo'jaliklarida uy ishlab chiqarishini va biznesni tashkil etish aholi bandligini ta'minlashning muhim va ayni paytda istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qishloq hududlarida ishsizlik darajasi yetarlicha yuqori bo'lib, u ko'pincha davomli tavsifga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Biz o'z tadqiqotlarimizni asosan Qashqadaryo viloyatida o'tkazdik. Viloyatda 2 ta viloyatga va 12 ta tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar, 14 ta tuman, 117 ta shaharcha, 819 ta mahalla fuqarolar yig'inlari, 1042 ta aholi yashash punktlari mavjud.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyati aholisi haqida ma'lumot [7, 57-6.].
(2024 yil 1-yanvar holatiga)**

Birlikda

Shahar va tumanlar nomi	Jami aholi soni	Uy xo'jaliklari soni	Oilalar soni
Jami:	3 560,6	710209	869453
Qarshi shahar	295,6	69 861	81 316
Shahrisabz shahar	147,2	28 997	35 312
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	222,2	42 881	52 847
Dehqonobod	159,5	28 995	35 594
Kasbi	293,1	39 709	49 472
Kitob	272,1	56 455	72 890
Koson	312,1	62 666	71 124
Ko'kdala	282,0	33 560	40 792
Qamashi	129,6	52 808	69 331
Qarshi	93,4	62 641	76 525
Mirishkor	166,6	23 361	28 077
Muborak	213,0	19 561	22 831
Nishon	188,7	34 469	38 487
Chiroqchi	267,9	49 899	62 432
Shaxrisabz	235,1	48 748	63 142
Yakkabog'	282,5	55 598	69 281

Qashqadaryo viloyatida 710209 ta uy xo'jaligi mavjud bo'lib, ularda jami 869453 ta oila ro'yxatga olingan. Tomorqa yer maydoniga ega uy xo'jalilarining asosiy qismi qishloqlarda ro'yxatga olingan bo'lib, ularning aksariyati dehqonchilik va chorvachilik orqali o'z daromadlarini oshirib kelishmoqda.

2023 yilda uy xo'jaliklarining yalpi kreditlar bo'yicha qarz yukida o'sish kuzatildi. 2023 yil yakunida aholining yalpi kreditlar bo'yicha qarz yuki holatini yaxshilanishiga qaramay, ushbu ko'rsatkich yillik hisobda ortgan. 2023 yil davomida jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar bo'yicha qarzga hizmat ko'rsatish nisbati o'rtacha 8 foizgacha ko'tarildi. Xususan, 2023 yil davomida kredit oluvchilar yillik daromadining sezilarli o'sishiga (41 foiz) qaramay, jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar hajmida kuzatilgan yuqoriroq oshish (54 foiz) aholining jami qarz yuki ko'rsatkichini 2022 yilga nisbatan 1 foiz bandga ortishiga olib kelgan [5, 59-6.].

Qashqadaryo viloyatida 2024 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1826772 nafar kishi mehnat resursi sifatida hisobga olingan bo'lib, ularning 1220917 nafari ish bilan band, shundan 466405 kishi rasmiy sektorda, 586866 kishi norasmiy sektorda va 167646 kishi xorijiy mamlakatlarga ishlashga ketgan. 106100 kishi (8,6 foiz) ishga joylashishga muhtoj shaxs sifatida ro'yxatga olingan [3]. Viloyat qishloq aholisining aksariyat qismi ishsiz, lekin qishloqlardagi uy xo'jaliklari negizida tomorqadan foydalangan holda uy xo'jaliklari a'zolarining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlari talaygina.

Xulosa. Milliy hisoblar tizimi standartlarining hozirgi talablariga ko'ra 6 ta sektor hisobi yuritiladi. Ushbu sektorlar ishida uy xo'jaligi iste'mol talabining asosiy manbai, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi sababli, bozor iqtisodiyotida asosiy o'rinni

egallaydi. Uy xo'jaliklari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini ishchi kuchi bilan ta'minlaydi, ularning jamg'armalari va investitsiyalari moliyaviy bozorlarga va iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi.

Uy xo'jaligi sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning bozor iqtisodiyotiga ta'sirini yaxshilash uchun uy xo'jaliklariga soliq imtiyozlari berish, eng kam ish haqini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash kabi uy xo'jaliklari daromadlarini oshirish choralari joriy etish lozim. Bu ularning xarid qobiliyatini oshirib, tovarlar va xizmatlarga talabni rag'batlantiradi. Shuningdek, uy xo'jaliklari a'zolarining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish kerak, bu uy xo'jaliklariga o'z jamg'armalari va investitsiyalarini yanada samarali boshqarishga yordam berib, iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uy xo'jaliklari faoliyatini mustahkamlash, uning iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Бадалов Ш.Дж. Миллий иқтисодиётда уй хўжаликларининг иқтисодий функциялари. - Т.: "Iqtisodiyot", 2013. –Б. 29.
2. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. / Пер. с англ. М.: ГУ ВШЭ. - 2003. - 672 с.
3. <https://qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
4. Макконел К.Р., Брю С.П. Экономикс: Принципы, проблемы и политика/: в 2х томах- М.: Инфра-М, 2003. -386 с.
5. Moliyaviy barqarorlik sharhi (2023 yil). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. –Т.: 2024. В. 167.
6. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т., "Иқтисод-молия" 2014. Б. 434.
7. Qashqadaryo viloyati pasporti. Qarshi, 2024 yil. В. 297.
8. Система национальных счетов. -М., 1993.пар.4, -160 с.
9. Хасанов Р. Бозор даромадлари: моҳияти таркибий тузилиши ва табақаланиши. – Т. Т.М.И. Босмахоноси 2004. 19-20-б.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

APPLICATION OF ANALYTICAL PROCEDURES IN THE AUDIT OF COMMODITY VALUABLES

Alimxanova Nigora Alimxanovna
independent researcher at TSUE

Abstract. In this article, for the effective organization of an inventory audit, recommendations have been developed on the order of application of direct analytical methods, classification of coefficients used in the application of analytical methods. It also explains the audit procedures used in the organization and transfer of inventory items during an inventory audit, and the sequence of their application.

Key words: reserves, diversification, analytical operations, variation analysis, ratio analysis, gross profit, profitability ratios, liquidity ratios.

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИДА ТАҲЛИЛИЙ АМАЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Алимханова Нигора Алимхановна
ТДИУ мустақил изланувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада товар-моддий захиралар аудитини самарали ташкил қилиш мақсадида бевосита таҳлилий амалларни қўллаш тартиби, таҳлилий амалларни қўллашда фойдаланиладиган коэффициентлар тасинифи бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган. Шунингдек, товар-моддий захиралар аудитида инвентаризацияни ташкил қилиш ва ўтказишда қўлланиладиган аудит амаллари ҳамда уларни қўллаш кетма-кетлиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: товар-моддий захиралар, диверсификация, таҳлилий амаллар, оғишишлар таҳлили, коэффициентлар бўйича таҳлил, ялпи фойда маржаси, рентабеллик коэффициентлари, ликвидлик коэффициентлари.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N41>

Кириш. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида хўжалик фаолияти жараёнининг якуний босқичидан олинадиган тайёр маҳсулотларнинг таннархидаги сарфланган хом ашё ва материалларнинг улушини имкон қадар сифатига таъсир қилмасдан оптималлаштириш муҳим аҳамият касб этади. Чунки, талаб ва таклифдан келиб чиққан ҳолда тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқаришда сарфланган материалларнинг қиймати тайёр маҳсулотларнинг харидоргирлик даражасини белгилайди. Мазкур хўжалик операциялари ҳамда талабларни инобатга олган ҳолда, ишлаб чиқариш жараёнини ташкил қилиш чоғида, сарфланаётган моддий ресурслардан унумли фойдаланиш, иккиламчи ресурсларни кенг жалб қилиш мақсадга мувофиқ. Товар-моддий захиралар билан боғлиқ операцияларнинг тўғри расмийлаштирилганлигини ҳамда молиявий ҳисоботларда ҳаққоний акс

этирилганлигини аудитдан ўтказишда субъектга тегишли бўлган товар-моддий захиралари шу жумладан, йўлдаги ва қайта ишлашга берилган, ишланадиган, қайта ишланадиган, ишлаб чиқариш ва бошқа хўжалик мақсадлари учун ишлатиладиган меҳнат буюмлари, хом-ашё ва материаллар, айланма маблағларнинг таркибига киритилган меҳнат буюмларининг таркиби, миқдори, ҳаракати, уларни тайёрлаш, сотиб олиш, қайта баҳолаш жараёнлари тўғрисидаги маълумотларни умумлаштиришнинг тартиб ва қоидаларини ҳам биргаликда текшириш аҳамиятлидир.

Бугунги кунда ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш ва мамлакатимиздаги хомашё ва ресурсларга бой мавжуд манбалардан оқилона фойдаланиш асосида юқори қўшимча қийматга эга бўлган юксак технологик маҳсулотларни ишлаб чиқаришни таъминлайдиган истиқболли иқтисодиёт тармоқларини кенгайтириш билан бирга, мазкур бухгалтерия ҳисобининг объектини ҳисобда тўғри ва шаффоф юритиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш долзарб ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили ва методология

Бизга маълумки, Ўзбекистон Республикасида Товар-моддий захираларни бухгалтерия ҳисобида акс этириш ҳамда уларни баҳолаш тартиби Ўзбекистон Республикасида “Товар-моддий захиралар” номли 4-сон бухгалтерия ҳисоби миллий стандартига асосан олиб борилади. Мазкур ҳисоб стандартига 2-сон “Ишлаб чиқариш захиралари” номли Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти ҳамда товар-моддий захиралар ҳисобига доир халқаро ҳисоб ҳужжатлари илмий-амалий асос бўлиб ҳисобланади.

С.Чандрен ва бир қатор иқтисодчи олимларнинг таъкидлашича “Товар-моддий захиралар харажат моддаларининг муҳим қисми ҳисобланиб, молиявий натижаларга сезиларли таъсир этади. Шу боисдан бухгалтерия балансида захиралар хусусида ишончли маълумотлар олиш учун аудитнинг илғор усулларини қўллаш мақсадга мувофиқдир” [6, 90-б.].

Иқтисодчи олим К.Иовунинг таъкидлашича, “товар-моддий захиралар бухгалтерия балансида катта салмоққа эга бўлади. Шу боис товар-моддий захиралар аудити мураккаб жараён ҳисобланади ҳамда айнан товар-моддий захиралар билан боғлиқ операциялар фирибгарликка мойил бўлгани учун аудиторлик текширувларида товар-моддий захираларнинг жисмоний ҳолатини аниқлашга қаратиш лозим” [5, 277-б.].

Э.Грос ҳамда бир қатор иқтисодчи олимлар фикрича, “товар-моддий захиралар аудитида кўпгина усуллар қўлланилади. Бироқ товар-моддий захиралар аудитида энг самарали усул инвентаризация бўлиб, мазкур жараён бевосита аудиторнинг иштирокида ўтказилиши лозим” [1, 52-б.].

Х.Ви, Х.Ванг ва Ю.Янг каби олимлар “Товар-моддий захиралар жорий активларнинг энг муҳим таркибий қисми ҳисобланади ва аудиторлик текширувларининг асосий объекти сифатида аудиторнинг хизмат ҳақини белгилашда асосий омил ҳисобланади” – деб, таъкидлаган [7, 355-б.].

Маҳаллий олимларимиздан бири Б.Ў.Ҳамдамовнинг фикрича “Моддий жавобгар шахслар ўзгарганда (шунингдек улар касал бўлган, таътилга чиққан даврда) товар-моддий захираларнинг бошқа шахс жавобгарлигига ўз вақтида ва тўғри белгиланганлиги ҳамда бунда аниқланган тафовутлар бухгалтерия ҳисоби счётларида

акс эттирилганлиги корхона бухгалтериясида текширилиши зарур. Бу эса кейинчалик товар-моддий захиралар камомати аниқланганда, моддий жавобгар шахслар ўзларини оқлаш учун шу ҳолатни асосий сабаб қилиб кўрсатишларига асос бўлади” [2, 37-б.].

“Товар-моддий захиралар сақланишини аудит қилинишининг асосий усули, энг аввало, қайта рўйхатдан ўтказиш ҳисобланади. Кўпчилик камомат ва ўғирликлар қайта рўйхатдан ўтказиш орқали очилади. Ялпи рўйхатдан ўтказиш энг кўп амалий самара беради. Одатда, ҳисобнинг ёмон аҳволда эканлиги сабабли бойликлар ўғирланганлиги ёки камомати; моддий жавобгар шахслар ўзгарганида бойликларни бериш далолатнома билан расмийлаштирилмаганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд бўлган тақдирда ўтказилган текширишлар чоғида шундай рўйхат ўтказилади” [4, 93-б.].

Маҳаллий иқтисодчи олимлардан бири М.Ҳайитбоевнинг фикрича, “товар-моддий захиралар аудитининг мақсади хўжалик юритувчи субъект тасарруфида бўлган товар-моддий захираларнинг ҳақиқий ҳолатига баҳо бериш ҳамда молиявий ҳисоботдан фойдаланувчилар учун ҳисобнинг мазкур объекти бўйича ҳаққоний ахборотни шакллантириш ҳисобланади” [3, 17-б.].

Юқорида келтириб ўтилган маҳаллий ҳамда хорижий иқтисодчи олимлар томонидан хўжалик юритувчи субъектларнинг товар-моддий захираларини аудиторлик текширувидан ўтказишда таҳлилий амалларни қўллаш масалаларига тўхталиб ўтилмаган. Шу сабабли, хўжалик юритувчи субъектларда товар-моддий захиралар аудитини ўтказишда таҳлилий амалларни қўллаш бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Муҳокама. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида фаолият юритаётган турли мулкчилик шаклидаги хўжалик юритувчи субъектларда товар-моддий захиралар ҳисобининг юритилиши билан боғлиқ муомалаларнинг ҳаққоний ҳамда тўғрилигини текширишда учрайдиган турли муҳим бузиб кўрсатиш ҳолатларининг олдини олиш ва аниқлашга қаратилган аудит амалларини қўллаш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли, молиявий ҳисобот аудитини ташкил қилишда молиявий ҳисоботларда товар-моддий захиралар миқдорларини шаффоф ёритиб берилганлигини текширишда аудит амалларининг энг кўп қўлланиладиган усулларида бири таҳлилий амалларни қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Таҳлилий амаллар хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳисоботларида мавжуд товар-моддий захираларни текширишда муҳим роль ўйнайди. Айнан товар-моддий захиралар аудитида таҳлилий амалларни қўллаш орқали аудиторлар молиявий ҳисоботлардаги турли номувофиқликларни ҳамда муҳим бузиб кўрсатиш rischi даражаси юқори бўлган моддаларни ўз вақтида аниқлашлари мумкин бўлади. Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳисоботларини аудиторлик текширувидан ўтказишда қўлланиладиган таҳлилий амаллар молиявий ва номолиявий маълумотлар ўртасидаги ишончли муносабатларни таҳлил қилиш орқали молиявий ҳисоботлардаги турли маълумотларга баҳолашни ўз ичига олади. Товар-моддий захиралар аудитини ўтказиш пайтида таҳлилий амалларни қўллаш жараёнлари қуйидаги жадвалда батафсил ёритиб берилган (1-жадвал).

1-жадвал

Товар-моддий захиралар аудитида таҳлилий амалларни қўллаш тартиби¹

№	Таҳлилий амалларнинг номи	Таҳлилий амалларнинг тавсифи	Мисол
1.	Тренд таҳлили	Тренд таҳлили муҳим ўзгаришлар ёки тенденцияларни аниқлаш учун турли даврлардаги товар-моддий захиралар бўйича маълумотларни таққослашни ўз ичига олади. Товар-моддий захиралар миқдори, харидлар, сотиш ва сотилган маҳсулот таннархидаги ўзгаришларни ўрганиш орқали аудиторлар товар-моддий захираларни нотўғри бошқариш, хатолар ёки фирибгарлик каби муҳим бузиб кўрсатиш ҳолатларини кўрсатиши мумкин.	Агар товар-моддий захиралар миқдори олдинги даврларга нисбатан сезиларли даражада ошган бўлса, сотувлар мос равишда ўсмаган бўлса, бу ҳаддан ташқари тўлдириш ёки мумкин бўлган эскириш муаммоларини кўрсатиши мумкин.
2.	Коэффициентлар таҳлили	Коэффициентлар таҳлили товар-моддий захираларни бошқариш самарадорлигини баҳолаш учун турли хил молиявий кўрсаткичларни ҳисоблаш ва баҳолашни ўз ичига олади. Таҳлилий амалларда асосий қўлланиладиган коэффициентларга рентабеллик коэффициентлари, ликвидлик коэффициентлари ҳамда молиявий ричаг коэффициентлари киради.	Мазкур коэффициентларни аниқлаш ҳамда таҳлил қилиш натижасида молиявий ҳисоботлардаги турли оғишишларни аниқлашда қўлланилади.
3.	Мантиқий тестлаш орқали таҳлил қилиш	Мантиқий тестлаш орқали таҳлил қилиш товар-моддий захиралар қолдиқларини олдинги даврлар маълумотлари, таҳлил қилинаётган саноат кўрсаткичлари ёки ички прогнозлар асосида кутилган қийматлар билан солиштиришни ўз ичига олади. Мазкур тестлаш аудиторларга молиявий ҳисоботлардаги товар-моддий захиралар суммаларининг асосли ва бошқа молиявий маълумотларга мос келишини аниқлаш имконини беради.	Аудиторлар жорий даврдаги товар-моддий захиралар миқдорини режадаги кўрсаткичлар ёки мазкур таҳлил қилинаётган саноатнинг ўртача кўрсаткичлари билан солиштиришлари мумкин. Муҳим бузиб кўрсатиш ҳолатлари қўшимча таҳлилий амалларни бажаришни талаб қилади.
4.	Регрессия таҳлил	Товар-моддий захиралар миқдори ва сотиш ҳажми, ишлаб чиқариш даражаси ёки мавсумийлик омиллари каби бошқа молиявий маълумотлар ўртасидаги муносабатларни аниқлаш учун статистик усулларни ўз ичига олган янада мураккаб таҳлилий амал ҳисобланади. Мазкур муносабатларни ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш орқали аудиторлар кутилаётган товар-моддий захиралар миқдорини башорат қилишлари ва уларни ҳақиқий миқдорлар билан солиштиришлари	Регрессия таҳлилидан фойдаланган ҳолда, аудиторлар олдинги даврдаги савдо маълумотлари ва жорий бозор шароитлари асосида товар-моддий захиралар миқдорини тахмин қилишлари мумкин. Прогноз қилинган қийматлардан ҳар қандай сезиларли оғишлар қўшимча текширишни талаб қилади.

¹ Муаллиф томонидан тайёрланган

		мумкин.	
5.	Бенчмаркинг	Хўжалик юритувчи субъектларнинг товар-моддий кўрсаткичларини бир хил таҳлил қилинаётган саноатдаги ўхшаш хўжалик юритувчи субъектларнинг кўрсаткичлари билан солиштиришни ўз ичига олади. Мазкур таққослаш товар-моддий захираларни бошқариш амалиётини яхшилаш учун четлаб ўтилганларни ва муҳим бузиб кўрсатиш ҳолатларини аниқлашга ёрдам беради.	Агар хўжалик юритувчи субъектнинг товар-моддий захиралари айланмаси коэффициентни таҳлил қилинаётган саноатнинг ўртача кўрсаткичидан сезиларли даражада паст бўлса, бу товар-моддий захираларни бошқаришдаги самарасизликни кўрсатиши мумкин ва мазкур муаммони ҳал қилиш учун қўшимча таҳлилий амалларни қўллаш лозим.
6.	Оғишишлар таҳлили	Оғишишларни таҳлил қилиш товар-моддий захиралар билан боғлиқ ҳақиқий кўрсаткичларни (масалан, ТМЗ қолдиқлари, сотиб олиш харажатлари ва сотиш) бюджет ёки ўртача кўрсаткичлар билан таққослашни ўз ичига олади. Оғишишлар уларнинг сабабларини аниқлаш ва молиявий ҳисоботга таъсирини баҳолаш учун таҳлил қилинади.	Ҳақиқий сотиб олиш харажатлари сметада белгиланган миқдордан сезиларли даражада юқори бўлса, аудиторлар нархларнинг кутилмаган ўсиши, сотиб олиш хатолари ёки нотўғри маълумотлар мавжудлигини аниқлаш учун текширадилар.
7.	Олдинги даврлар билан жорий даврлар маълумотларини таҳлил қилиш	Жорий даврдаги товар-моддий захиралар маълумотларини олдинги даврлар маълумотлари билан таққослаш одатий бўлмаган графиклар ёки жадвалларни аниқлашга ёрдам беради. Мазкур таққослаш ҳозирги мавжуд товар-моддий захиралар миқдорининг умумий ҳолатини тушуниш учун муҳим аҳамиятга эга.	Аудиторлар баҳолаш билан боғлиқ муаммоларни кўрсатиши мумкин бўлган ҳар қандай ноодатий ўсишни аниқлаш учун жорий даврдаги товар-моддий захиралар ҳисобини олдинги даврлар билан солиштиришлари мумкин.

Товар-моддий захираларни аудитдан ўтказиш чоғида таҳлилий амалларни қўллаш аудиторлик текширувнинг самарадорлигини ошириш учун муҳим аҳамиятга эга. Ушбу аудит амаллари аудиторларга мавжуд муҳим бузиб кўрсатиш рискларини, номувофиқликларни ва бузиб кўрсатишларни аниқлашга ёрдам беради ва шу билан хўжалик юритувчи субъектнинг товар-моддий захираларини бошқариш амалиётини янада тўлиқроқ тушуниш имконини беради. Тренд таҳлили, коэффициентлар таҳлили, мантикий тестлаш орқали таҳлил қилиш, регрессия таҳлили, бенчмаркинг, оғишишлар таҳлили ва олдинги даврлар билан жорий даврлар маълумотларини таҳлил қилиш каби таҳлилий амаллардан фойдаланган ҳолда аудиторлар товар-моддий захиралар қолдиқлари молиявий ҳисоботларда тўғри, тўлиқ ва ҳаққоний тақдим этилишини таъминлашга хизмат қилади.

Натижалар. Хўжалик юритувчи субъектларда товар-моддий захиралар аудитини ўтказишдан олдин мазкур молиявий ҳисобот моддасининг ички назорат тизимини ўрганиш ҳамда баҳолаш муҳимдир. Ички назорат тизимини ўрганиш ҳамда баҳолашнинг асосий мақсади мазкур молиявий ҳисобот моддасида мавжуд муҳим бузиб

кўрсатиш rischi даражасини баҳолашдир. Муҳим бузиб кўрсатиш rischi даражасини баҳолашда эса таҳлилий амалларни бевосита қўллаш аҳамиятлидир. Шунингдек, таҳлилий амаллардан фойдаланиш хўжалик юритувчи субъект молиявий ҳисоботидаги аудиторлар хабардор бўлмаган томонларини кўрсатиши мумкин ва аудит амалининг моҳияти, давомийлиги ва ҳажмини аниқлаш учун муҳим бузиб кўрсатишлар riskини баҳолашга ёрдам беради. Таҳлилий амалларда қўлланиладиган коэффициентлар тасниф жиҳатидан уч турга бўлинади (1-расм).




1-расм. Таҳлилий амалларни қўллашда фойдаланиладиган коэффициентлар таснифи¹.

Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳисоботларини аудиторлик текширувидан ўтказишда, хусусан, товар-моддий захиралар ҳисобини текшириш чоғида юқорида келтирилган коэффициентлар асосида таҳлилий амалларни қўллаш мақсадга мувофиқдир. Ушбу коэффициентларни тўғри ва аниқ ҳисоблаш орқали молиявий ҳисоботларда мавжуд муҳим бузиб кўрсатиш rischi даражасини оқилона аниқлаш имконияти яратилади.

Молиявий ҳисоботларда товар-моддий захиралар тўғрисидаги маълумотларни ҳаққоний акс эттирилганлигини аудиторлик текширувидан ўтказишнинг аҳамиятини ҳамда ролини ошириш мақсадида аудиторлик текширувида товар-моддий захиралар аудитини ўтказиш босқичлари ҳамда уларнинг тавсифи бўйича қуйидагича кетма-кетликда амалга ошириш мақсадга мувофиқ (2-расм).

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.




2-расм. Товар-моддий захиралар ҳисобини текшириш кетма-кетлиги¹.

Товар-моддий захираларни юқорида келтирилган кетма-кетликда текшириш орқали аудиторлик текширувида товар-моддий захиралар тўғрисида ҳаққоний хулосаларни шакллантиришга эришилади. Фикримизча, товар-моддий захирларни аудиторлик текширувидан ўтказишда алоҳида аудиторнинг ёндашувини белгилаб олиш мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, аудиторлар учун товар-моддий захираларнинг миқдори ва ҳолатини тасдиқлашнинг муҳим воситаси мазкур хўжалик юритувчи субъектнинг товар-моддий захираларини инвентаризация қилиш вақтида уларнинг мавжуд бўлишидир. Инвентаризация тартиб-қоидаларини тўғри ва аниқ қўллаш муҳим ҳисобланади, чунки улар товар-моддий захиралар ҳамда тугалланмаган ишлаб чиқаришнинг миқдори ва ҳолати тўғрисида бошқа вақтда олиш мумкин бўлмаган далилларни тақдим этади.

Товар-моддий захираларни аудиторлар иштирокида инвентаризация қилиш чоғида инвентаризация тартиб-қоидаларини 19-сон бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартига асосан қуйидаги расмда келтирилганидек қўллашлари мақсадга мувофиқ (3-расм).

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



3-расм. Товар-моддий захираларни инвентаризация қилишда бажариладиган аудит амаллари¹.

Товар-моддий захиралар аудитида инвентаризация ўтказиш жумладан, мазкур инвентаризация жараёнида аудиторнинг иштирок этиши аудиторларнинг рискни баҳолашига, режалаштирилган ёндашувга ва амалга оширилган махсус аудит амалларига қараб моҳиятига кўра текшириш каби назорат тестлаш амали ҳисобланади.

Хулоса.

Мазкур мақолани тайёрлаш давомида қуйидаги хулосалар шакллантирилди:

1. Товар-моддий захиралар аудити молиявий ҳисобот аудитининг муҳим қисмларидан бири эканлигини инобатга олган ҳолда айтишимиз мумкинки, мазкур молиявий ҳисобот объектини аудиторлик текширувидан ўтказишда таҳлилий амалларни қўллаш лозимдир. Шу сабабли, товар-моддий захиралар аудитида таҳлилий амалларни қўллаш тартиби ишлаб чиқилди. Мазкур тартиб-қоидаларнинг тўғри ва тўлиқ бажарилиши натижасида хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий ҳисоботларида мавжуд муҳим бузиб кўрсатиш rischi даражасини адолатли ва шаффоф аниқланишига имкон яратади.

2. Товар-моддий захиралар аудитида коэффициентлар бўйича таҳлилий

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

амалларни қўллаш мақсадга мувофиқдир. Шунинг учун, молиявий ҳисоботнинг мазкур объектини текширишда фойдаланиладиган коэффицентларнинг таснифи ишлаб чиқилди. Мазкур таснифга асосан таҳлилий амалларни бевосита товар-моддий захиралар аудитида қўллаш орқали аудит риси даражасини аниқлаш ҳамда мақбул даражага камайтиришга хизмат қилади.

3. Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳисоботларида товар-моддий захиралар миқдорининг тўғрилиги ҳамда бухгалтерия ҳисобининг тўғри юритилаётганлигини аудиторлик текширувидан ўтказиш кетма-кетлигини қўллаш орқали товар-моддий захиралар аудитининг самарадорлигини оширишга ҳамда товар-моддий захиралар аудити натижаларини умумлаштириш ва ҳаққоний хулосаларни шакллантиришда дастак бўлиб хизмат қилади. Мазкур кетма-кетликни бажариш чоғида қўлланиладиган аудит амалларини қўллашда аудиторнинг профессионал мулоҳазаси ҳам муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаб ўтиш лозимдир.

Маълумки, товар-моддий захиралар ҳисобида инвентаризация натижаларини тўғри акс эттирилганлиги муҳим ҳисобланади. Шу сабабли, аудиторлик текширувида товар-моддий захиралар инвентаризация қилишда аудиторларнинг иштирокини таъминлаш ҳамда мазкур инвентаризацияни ташкил қилиш ва ўтказишда бажариладиган аудит амалларидан фойдаланиш орқали инвентаризацияни оқилона ва самарали ўтказиш таъминланади. Шунингдек, мазкур аудит амалларини қўллаш орқали товар-моддий захиралар миқдори тўғрисида ишончли аудиторлик далилларини тўплашга ҳамда ҳолисона мустақил аудиторлик хулосасини шакллантиришга сезиларли таъсир кўрсатади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Andrew Gross, Jamie Hoelscher, Brad J. Reed, Gregory E. Sierra. The new nuts and bolts of auditing: Technological innovation in inventorying inventory. // [Journal of Accounting Education](#). Volume 52, September 2020, 100679.
2. Ҳамдамов Б.Ў. "Аудит иқтисоди" - Т.; Тошкент Молия институти»-2005. 116 б.
3. Ҳайитбоев М. Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда товар-моддий захиралар ҳисоби ва аудити: назария, методология ва амалиёт. Монография. –Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2022. 140 б.
4. Санаев Н., Нарзиев Р. «Аудит», Т.; «Шарқ»-2001. 212 б.
5. Cristina Iovu. Aspects concerning the internal audit of inventories. // *Audit financiar*, XV, Nr. 2(146)/2017, 276-283 ISSN: 1583-5812; ISSN on-line: 1844-8801.
6. Sitraselvi Chandren, Santhirasegaran Nadarajan, Zaimah Binti Abdullah Inventory Physical Count Process: A Best Practice Discourse. // *International Journal of Supply Chain Management*. Vol. 4, No. 3, September 2015.
7. Xi Wu, Xueqin Wang, Yulong Yang. The puzzling association between inventory and auditor pricing in China. // [China Journal of Accounting Research](#). Volume 11, Issue 4, December 2018, Pages 351-366.

09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 20 May 2024

Accepted: 30 May 2024

Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SOCIO-POLITICAL ASPECTS OF THE DYNAMICS OF POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN

Djumaev Aibek Maratovich

Tashkent University of Applied Sciences, Lecturer at the Department of Social Sciences

oybekmaratovich8@gmail.com

Abstract. The article analyzes the socio-philosophical aspects of factors influencing poverty reduction in the conditions of Uzbekistan and issues related to their emergence. Scientific conclusions and recommendations on socio-political issues of improving the lifestyle of the population in need of social protection and reducing poverty are also given.

Key words: poverty reduction, welfare, poverty, unemployment, indifference, professional abilities, personal choice, insecurity, psychological barrier.

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DINAMIKASINING IJTIMOY-SIYOSIY JIHATLARI

Jumayev Oybek Maratovich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston sharoitida kambag'allikni kamayishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Ijtimoiy himoyaga muxtoj aholining turmush tarzini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy-siyosiy masalalari bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allikni qisqartirish, farovonlik, boqimandalik, ishsizlik, loqaydlik, kasbga layoqatlilik, shaxs tanlovi, ishonchsizlik, psixologik to'siq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N42>

Farovonlik, farovon hayot, farovon turmush tarzini yaratish va unga erishish har bir insonning asosiy maqsadlaridan biridir desak xato bo'lmas kerak. Kishilik jamiyati azaldan to hozirga qadar boshidan kechirgan barcha ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz, xalqaro nizolar, mamlakatlararo kelishmovchiliklar, urushlar va harbiy harakatlilar zamirida farovon hayotga erishish istagi ustuvor asosida vujudga kelmoqda. Insoniyat tarixining turli davrlarida ana shu maqsadga erishishning omillari va vositalari ham o'ziga xos ko'rinishda bo'lgan. Xususan, J.Hirsleyfer "Iqtisodiy nazariyaning begona hududlarni egallash imkoniyatlari shu bilan belgilanadiki, u foydalanuvchi analitik kategoriyalar – resurslarning cheklanganligi, xarajatlar, afzalliklar, yo'l tanlash – bularning barchasi o'z qo'llanish sohasiga ko'ra tom ma'noda universal hisoblanadi" [1; B.53.]. deb ta'kidlaydi. J. Xirshleyferning nuqtai nazari iqtisodiy nazariya inson xatti-harakatlari va jamiyat tashkilotini tushunish uchun universal

ahamiyatga ega bo'lgan resurslar cheklovlari, xarajatlar, imtiyozlar va qaror qabul qilish yo'llari kabi fundamental analitik toifalardan qanday foydalanishini asoslaydi. Tarixiy va zamonaviy sharoitlarda farovonlik va farovon hayotga intilish haqiqatan ham jamiyat evolyutsiyasining asosiy omili bo'lib kelgan. Bu intilish iqtisodiy tizimlar, huquqiy tuzilmalar, ijtimoiy normalar va siyosiy tuzilmalarni shakllantirdi. O'zgaruvchan sharoitlarga qaramay - tinch vaqtlardan tortib to shiddatli mojarolar va beqarorlik davrlarigacha - bu dinamikani tahlil qilish va tushunishda asosiy iqtisodiy tamoyillar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy nazariya jamiyatlar tanqis resurslarni qanday taqsimlash, cheklovlar ostida tanlov qilish va turli maqsadlarga ustuvorlik berishni aniqlash uchun vositalarni taqdim etadi. Ushbu tamoyillar nafaqat tinch iqtisodiy kengayishda, balki resurslar, strategik qarorlar qabul qilish va imkoniyatlar xarajatlari muhim rol o'ynaydigan urush va mojarolarning iqtisodiy o'lchovlarini tushunishda ham foydalidir. Iqtisodiy tahlilni ijtimoiy-siyosiy tushunish bilan uyg'unlashtirgan ushbu yaxlit yondashuv jamiyatlar turli qiyinchiliklar sharoitida farovonlikka erishish va uni saqlashga intilish mexanizmlari haqida tushuncha beradi. Bunday yondashuv global noaniqliklar va mojarolar sharoitida barqarorlik va farovonlikka yordam beruvchi strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynashi mumkin.

V.Zombart hozirgi zamon iqtisodiy odamiga xos bo'lgan umumiy jihatlardan biri "tirishqoqlik, tejamkorlik va farovonlik kabi xususiyatlar amaliy mexanizmning tarkibiy qismlariga aylanadi" [2; B.128-145.]. deydi. Verner V.Zombartning zamonaviy iqtisodiy odamning xususiyatlari - mehnatsevarlik, tejamkorlik va farovonlik haqidagi kuzatishi kapitalizm axloqini va ushbu tizimdagi shaxslarning iqtisodiy xatti-harakatlarini belgilaydigan asosiy fazilatlarini ta'kidlaydi. Zombart Maks Veber kabi boshqa sotsiologlar va iqtisodchilar bilan bir qatorda ma'lum madaniy qadriyatlar va axloqiy qarashlar iqtisodiy harakatlarni qanday qo'llab-quvvatlashini va kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shishini tahlil qildi. Tirishqoqlik - bu odamlarning iqtisodiy muvaffaqiyatga erishish uchun olib boradigan qat'iy va puxta ishni anglatadi. Bu ko'pincha shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tejamkorlik resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarishni o'z ichiga oladi, kapitalni to'plash asosiy maqsad bo'lgan kapitalistik tizimda muhim ahamiyatga ega bo'lgan aktivlarni tejash va samarali foydalanishga urg'u beradi. Farovonlik tarkibiy qism sifatida mehnatsevarlik va tejamkorlikdan ko'zlangan natijalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxsiy va jamiyat darajasida boylik yaratish sifatida namoyon bo'ladi.

V.Zombart tahlili shuni ko'rsatadiki, bu xususiyatlar nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki zamonaviy iqtisodiy tizim faoliyatining ajralmas qismidir. Ular "amaliy mexanizm"ning tarkibiy qismlariga aylanadi, bunda iqtisodiy harakatlar nafaqat bevosita ehtiyojlar yoki istaklar ta'sirida, balki ana shu singdirilgan odatlar va fazilatlar tomonidan boshqariladi. Shaxsiy fazilatlarining iqtisodiy tizimlar bilan o'zaro ta'siri kapitalistik jamiyatlarning dinamikasini shakllantiradi, individual turmush tarzini tanlashdan tortib kengroq iqtisodiy siyosatgacha ta'sir qiladi. Bu xususiyatlarni va ularning iqtisodiy xulq-atvordagi rolini tushunish muayyan iqtisodiy amaliyotlar va siyosatlar nima uchun muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishini tushuntirishga yordam beradi va iqtisodiy qadriyatlar madaniyat va ijtimoiy institutlar orqali qanday uzatilishi haqida tushuncha beradi. Bu istiqbol jamiyatlar barqaror rivojlanish va adolatli o'sishga hissa qo'shadigan iqtisodiy xatti-harakatlarni qanday rivojlantirishi mumkinligini o'rganishda ayniqsa dolzarbdir.

P.Berger “Kapitalistik inqilob” asarida quyidagi fikrni keltirib o‘tadi. “Zamonaviy ma’rifatli munosabatlarning rivojlanishi jamiyat barcha qatlamlarining moddiy farovonligini ta’minlaydi, individ huquq va erkinliklarining kafolatlarini yaratadi degan xulosaga keladi” [3; B.24.]. Piter Bergerning “Kapitalistik inqilob” asaridagi nuqtai nazari kapitalizmning jamiyat tuzilmalari va individual hayotga o‘zgartiruvchi ta’sirini ta’kidlaydi. Bergerning fikricha, zamonaviy kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘shishni, balki jamiyatning turli qatlamlarining moddiy farovonligini ham oshiradi. Bu kapitalizm o‘z mexanizmlari va dinamikasi orqali aholining turli qatlamlarini ko‘tarib, umumiy jamiyat farovonligiga hissa qo‘shishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Berger shuningdek, kapitalizm shaxs huquq va erkinliklarini yaratish va kafolatlarga yordam berishini ta’kidlaydi. Bu juda muhim jihat, chunki kapitalizm sharoitida iqtisodiy erkinlik ko‘pincha shaxsiy va siyosiy erkinliklar bilan bog‘liq. Iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyati - biznesni boshlash, sarmoya kiritish, shartnomalar tuzish - jamiyatdagi shaxslarning avtonomiyasining asosi sifatida ko‘riladi. Nazariyaga ko‘ra, kapitalistik tizimlar xususiy mulk, bozor raqobati va iste’molchilar tanloviga urg‘u berib, nafaqat innovatsiyalar va samaradorlikni rag‘batlantiradi, balki shaxs huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy va institutsional asoslarni o‘rnatishni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Bu tuzilmalar bitimlarning adolatli bo‘lishini, shartnomalar bajarilishini va huquqlarni himoya qilishni ta’minlash, shu orqali barqaror va adolatli jamiyatni rag‘batlantirish uchun zarurdir. Biroq, kapitalizm shubhasiz farovonlik va erkinlikni oshirishga olib keladi, degan nuqtai nazar tanqidchilardan xoli emas. Ko‘pchilik kapitalizm misli ko‘rilmagan iqtisodiy o‘shish va texnologik taraqqiyotga turtki bergan bo‘lsa-da, u muhim tengsizliklarga olib kelgan va ba’zan ma’lum guruhlarni ekspluatatsiya qilgan. Tanqidchilarning ta’kidlashicha, tegishli qoidalar va aralashuvlarsiz kapitalizm shaxsiy farovonlik va jamiyat barqarorligidan ko‘ra foydani birinchi o‘ringa qo‘yishi mumkin.

Bergerning nuqtai nazari kapitalizmning iqtisodiy va ijtimoiy hayotni ham farovonlikka, ham erkinlikka yordam beradigan tarzda tashkil etish imkoniyatlariga optimistik baho berishni aks ettiradi. U bozor kuchlari va kapitalizmning afzalliklari keng va adolatli taqsimlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tartibga solish choralari o‘rtasidagi muvozanat haqida davom etayotgan munozaralar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

AQShlik Lloyd Reynolds “kambag‘allikning eng keng tarqalgan ta’rifi yillik daromaddir” [4; B.430-431.]. deb hisoblaydi. Yana bir amerikalik iqtisodchi Shuls kambag‘allikni “muayyan jamiyatdagi o‘ziga xos oila bilan tavsiflangan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy davlat” [5; B.65.]. deb ta’riflaydi. Yevropa hamjamiyati kambag‘allikni ham shunday ta’riflaydi: “Kambag‘allik deganda shaxslar, oilalar va odamlar guruhlari ega bo‘lgan cheklangan resurslar (moddiy, madaniy va ijtimoiy) tushunilishi kerak, shunda ular jamiyatning minimal maqbul darajasidan chetlashtiriladi.” [6; B.82.]. Xitoyda esa “Kambag‘allik odatda moddiy hayotning qiyinligini, ya’ni inson yoki oilaning turmush darajasini anglatadi.” [7; B.44-45.]. Turli olimlar va subyektlar tomonidan berilgan qashshoqlik ta’riflari kontseptsianing turli tomonlarini ta’kidlab, uning murakkab va ko‘p qirraliligini ta’kidlaydi. Lloyd daromadga asoslangan ta’rifga urg‘u beradi, bu oddiy, miqdoriy yondashuv. Ushbu ko‘rinish, ayniqsa, siyosat va statistik tahlillarda keng qo‘llaniladi, chunki u vaqt o‘tishi bilan va turli geografik hududlar bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar va taqqoslash imkonini beradi. Schulzning ta’rifi qashshoqlikni jamiyat normalariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy holat sifatida taqdim etadi. Ushbu ta’rif ijtimoiy

kontekstga asoslangan qashshoqlikning o'zgaruvchanligini hisobga oladi va qashshoqlik nafaqat daromadga, balki oilaning jamiyatdagi kengroq ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ham tegishli ekanligini tan oladi. Evropa hamjamiyati bu ta'rif qashshoqlikni nafaqat moddiy, balki madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan cheklangan resurslar tufayli jamiyat me'yorlaridan chetlatish deb hisoblash orqali g'oyani kengaytiradi. Bu nuqtai nazar jamiyatda integratsiya va ishtirok etish muhimligini ta'kidlaydi va qashshoqlik ijtimoiy chetlanishga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Xitoyning ta'rifi bu, birinchi navbatda, Reynoldsning yondashuviga o'xshash, lekin ularning daromadiga emas, balki shaxs yoki oilaning hayotiy tajribasiga ko'proq e'tibor qaratiladigan qashshoqlikning moddiy jihatlariga qaratilgan. Bu shaxsiy yoki oilaviy darajadagi ehtiyojlar va resurslarni baholashga amaliy yondashuvni aks ettiradi. Ushbu ta'riflarning har biri qashshoqlikning iqtisodiydan ijtimoiygacha, madaniygacha bo'lgan turli o'lchovlarini yoritib beradi, bu esa butun dunyo bo'ylab siyosat va gumanitar say-harakatlarda qashshoqlikka qarshi kurashning murakkabligini aks ettiradi.

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo [8; B.135.], R.Solou [9; B.65-94.], A.Sen [10; B.128.], A.Ditont [11; B.79.]. kabi iqtisodchi olimlar nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan. Aholi daromadlari tengsizligi, qashshoqlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik Devid Rikardo, Robert Solou, Amartya Sen va A. Ditont kabi iqtisodchilarning muhim tadqiqot mavzusi bo'ldi. Ularning tadqiqotlari iqtisodiy dinamikaga ta'sir qiluvchi turli omillarni ko'rib chiqadi va iqtisodiy siyosat va shart-sharoitlar jamiyat farovonligi va o'sishiga qanday ta'sir qilishini tushunish imkonini beradi. Har bir iqtisodchining ushbu sohaga qo'shgan hissasiga qisqacha nazar tashlasak:

Devid Rikardoning asosiy hissasi XIX asrning boshlarida renta va qiyosiy ustunlik nazariyasiga qaratilgan bo'lsa-da, uning g'oyalari bilvosita ish haqi darajasi va yer taqsimoti bo'yicha muhokamalar orqali qashshoqlik bilan bog'liq. Rikardoning qiyosiy ustunlik printsipli erkin savdo mamlakatlarning ixtisoslashuviga imkon berish orqali iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkinligini nazarda tutadi, lekin u bevosita daromad taqsimoti bilan bog'liq emas. Robert Solou iqtisodiy o'sish nazariyasi, xususan mehnat, kapital va texnologik taraqqiyot iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qiluvchi Solou o'sish modeli bo'yicha ishi bilan mashhur. Uning modeli texnologik rivojlanish mahsuldorlik va potentsial ishlab chiqarishni yaxshilash, bandlik imkoniyatlari va ish haqini oshirish orqali qashshoqlikka bilvosita ta'sir ko'rsatish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotga Amartya Senning yondashuvi qashshoqlikka nisbatan keng va inklyuziv nuqtai nazarni o'z ichiga oladi, bu nafaqat daromadga emas, balki imkoniyatlar va funktsiyalarga urg'u beradi. Uning ta'kidlashicha, iqtisodiy o'sish nafaqat YaIM yoki daromad bilan, balki aholiga olib keladigan erkinliklar va imkoniyatlarning ortishi bilan ham baholanishi kerak. Senning ishi qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish yanada samarali va yaxlit jamiyat yaratish orqali iqtisodiy o'sishni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu iqtisodchilarning nazariy va empirik tadqiqotlari ko'pincha kambag'allik darajasi past bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ko'rish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bu bog'liqlik mehnat unumdorligini oshiradigan aholi salomatligini yaxshilash kabi omillar bilan izohlanadi; yangi biznes imkoniyatlari va ish o'rinlarini yaratadigan texnologik rivojlanish;

davlat xizmatlari va infratuzilmasini yaxshilash imkonini beruvchi barqaror soliq bazasi. Bundan tashqari, iqtisodiy nazariyalar shuni ko'rsatadiki, daromadlar tengsizligini kamaytirish aholining turli qatlamlarida iste'mol va investitsiyalarning teng taqsimlangan o'sishini rag'batlantirish orqali yanada barqaror iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkin.

Bosqinchilik, talon taroj qilish, mulkni o'zlashtirish kabi an'anaviy-tarixiy jarayonlar bugunga kelib jamiyat taraqqiyotining yangicha farovonlikka erishish imkoniyatlarini yaratdi. Bir so'z bilan aytganda klassik farovon hayotga erishish formulasi zamonaviy ko'rinishga kirmoqda.

XXI asr o'zining har bir voqeylikka jarayonga kreativ yondoshuvi va noananaviligi bilan oldingi asrlardagi kishilik munosabatiga aloqador yutuqlardan farq qilmoqda. XXI asr haqiqatdan ham oldingi asrlarga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatga yanada ijodiy va individual yondashuvni joriy qildi. Ushbu siljish zamonaviy jamiyatlarning xilma-xil va dinamik tabiatini chuqurroq tushunishni aks ettiradi, bu erda an'anaviy yagona o'lchovli yechimlar tobora ko'proq yetarli emas deb hisoblanadi. "Davlatning ijtimoiy siyosati – bu davlatning boshqa iqtisodiy subyektlarining hayot tarsi va mehnatga yaxshi sharoitlarning yaratilishiga qaratilgan faoliyatidir. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtiruvchi asosiy subyekt – bu davlatdir" [12; B.104.]. Xususan, buni aholining farovonligini oshirishning ijtimoiy-siyosiy omillarida ko'rishimiz mumkin. Bu erda davlat nafaqat tartibga soluvchi, balki turli iqtisodiy subyektlar, jumladan, xususiy biznes, notijorat va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan olib boriladigan faoliyatni muvofiqlashtiruvchisi hamdir. Bunday yaxlit yondashuv murakkab ijtimoiy muammolarni samarali hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ijtimoiy siyosat ko'pincha sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy va bandlik kabi ko'plab sohalarni birlashtiradi va umumiy farovonlikni oshirishda ushbu sohalarning o'zaro bog'liqligini tan oladi. Ijtimoiy xizmatlarni individual ehtiyojlarni qondirish uchun moslashtirishga, standartlashtirilgan dasturlardan uzoqlashishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuv har bir fuqaro yoki rezidentning o'ziga xos sharoitlarini e'tirof etib, ularning hayot va ish sifatini chinakamiga oshiradigan yordam ko'rsatishga qaratilgan. Davlat tuzilmalaridan tashqari, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor ishtirokchilari va fuqarolik jamiyati ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda tobora ko'proq ishtirok etmoqda. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv yanada kengroq va barqaror natijalarga erishish uchun har bir sektorning kuchli tomonlari va resurslaridan foydalanadi. Ijtimoiy siyosatda texnologiyalardan foydalanish sezilarli darajada kengaydi, raqamli platformalar ijtimoiy imtiyozlarni taqsimlashdan tortib ta'lim resurslarini taqdim etishgacha bo'lgan barcha ishlarda qo'llanilmoqda. Davlat va xususiy sektor tomonidan boshqariladigan xizmatlar ko'rsatishdagi innovatsiyalar tizimlarni yanada samaraliroq va qulayroq qilishga yordam beradi.

Zamonaviy ijtimoiy siyosat dasturlarning uzoq muddatli barqarorligini, jumladan, ularning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini tobora ko'proq hisobga oladi. Ushbu istiqbol tashabbuslarning uzoq muddatda hayotiyiligini va kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelmasligini ta'minlaydi. Ijtimoiy siyosatdagi bu o'zgarishlar tizimlarni individual ehtiyojlar va jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashtirib, aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. Turli manfaatdor tomonlarni jalb qilish orqali davlat qashshoqlik, tengsizlik va ishsizlik kabi muammolarning ildiz sabablarini samaraliroq hal qila oladi va shu bilan yanada inklyuziv va farovon jamiyatni rivojlantiradi. Bu strategiyalar iqtisodiy va ijtimoiy dinamika jadal

rivojlanayotgan va an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmisligi mumkin bo'lgan globallashtirilgan dunyoda juda muhim.

O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar o'ziga xos jihati, ko'lami va dolzarbligi bilan o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Avvalambor, O'zbekiston aholisining farovonligini ta'minlashning choralari yangi bosqichga chiqmoqda desak xato bo'lmaydi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida respublikamizda kambag'allikni qisqartirishni yechimi kutayotgan dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak". Mamlakatimizda "qashshoqlik va ishsizlik" muammosi eng muhim muammolardan biri bo'lib, hukumat qarori bilan qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurashish dasturi tasdiqlandi. Belgilangan maqsadga erishish uchun ishsiz va kam ta'minlangan fuqarolarga maxsus ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha faol siyosat olib borildi. Dasturning ustuvor yo'nalishlaridan biri ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosida mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishdan iborat. Dastur qashshoqlikni kamaytirish, ishsizlikni kamaytirish, pensiyalarni oshirish va pensiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan" [13; <https://president.uz/oz/lists/view/3324>]. Ammo bu masalaning belgilab berilishi, uning yechimi ham hal bo'ldi degani emas. Aholi farovonligini ta'minlashda islohotlarning borishi va aks ta'sirini o'rganish hamda uni tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu maqsadda O'zbekiston sharoitida aholi farovonligini oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash ularni ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Agar yurtimizdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qiladigan bo'lsak, farovonlikni ta'minlanishiga ta'sir etuvchi bir qator muammoli omillarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, birinchidan mehnatga haq to'lashdagi nomutanosiblik omili Aksariyat hollarda mehnat sharoitida ish unumdorligini oshirish bilan bo'liq masalalar yechimi to'laligicha hal etilmagan. Ya'ni, vaqt, ish hajmi va samaradorlikka erishishning o'zaro uyg'unligi ta'minlanmagan deyishimiz mumkin.

Mavjud vaziyatga nazar tashlasak, ba'zi davlat va nodavlat tuzilmalarda mehnatga haq to'lash uchun belgilangan vaqt, ish haqi va ish hajmi mezonlari bir biriga deyarli mos kelmaydi. Masalan bog'bon, chilangar, santexnik, bino ishchisi va shu boshqa kabi kasb egalari uchun belgilangan kunlik ish vaqti agar 8 soat bo'lsa, har doim ham ish hajmi bir xil bo'lmaydi. Yilning turli faslida ish hajmi turlicha lekin, mehnatga haq to'lash bir xil bo'lib qolmoqda. Eng asosiysi xodim bo'sh vaqtida u o'ziga naf keltiradigan ish bilan shug'ullanish imkoniga ega emas. Agar ayrim kasb egalari mehnati uchun yonlanma ishchi sifatida haq to'lash timizi takomillashtirilsa, u faqat sarflagan vaqti va ishi uchun haq oladi. Boshqa vaqtda esa qo'shimcha ish bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'ladi. Bunday mehnat munosabatlarini yo'lga qo'yilishi shu kasb egalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilanishiga, moliyaviy daromadlarini oshishiga va hayoti farovon bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bunday mehnat munosabatlarining tashkil etilgani aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini barqaror bo'lishiga xizmat qilganini tajriba o'rnida ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, noto'g'ri kasb tanlash va kasbiy layoqatsizlik omili. Odatda insonning o'z qiziqishi, ishtiyoqi va shaxsiy tanlovi asosida kasb tanlashi mehnatga bo'lgan munosabatning yaxshilanishiga va ishning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu holat kasb egasiga zavq, shavq, ruhiy qoniqish, moddiy manfaatdorlik va ijodkorlik tuyg'usi bilan ishlash ko'nikmasini berib, o'z hayotdan rozilik va shukronalik hissi bilan yashashga yordam beradi. Afsuski, ko'pchilik uchun kasbni yo ota-onasi, yo yaqinlari, yo shunchaki havas, yo majburiyat yuzasidan tanlaydi. Natijada ishdan tez sovib qolish, toqatsizlik, dangasalik, yuzaki xo'ja ko'rsinga ishlash, ishdan qochish yoki kelmaslik uchun bahona izlash, kun o'tariga kelib ketish va boshqa holatlarni keltirib chiqaradi. Bir tasavvur qilib ko'ring-a agar ishga munosabat shu yo'sinda bo'lsa, bundan na jamiyatga, na davlatga naf tegadi. "Mehnat bozorida ishchi kuchlarini yollashda erkin va samarali raqobat – yollanuvchilar bilan ish beruvchilar o'rtasida ishchi kuchlariga bo'lgan erkin talab va taklif tamoyillari asosida mehnat-tovarga o'zaro manfaatli bahoni o'rnatish" [14; B.23.]. iboratdir. Shaxsning kasbiy layoqatsizligi ish unumini pasayishiga, mamlakat taraqqiyoti bilan bo'g'liq sohalarning yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, insonning jamiyatda o'z o'rnini topishini qiyinlashtiradi natijada duch kelgan mehnat munosabatlariga kirishishga majbur bo'ladi. Shaxsning bunday majburiy tanlovlari uning farovon hayotini shakllanishiga salbiy ta'lim ko'rsatishi mumkin. Bu esa ijtimoiy ahamiyatga molik muhim omil sifatida siyosiy yondoshuv va islohotlarni talab etadi.

Uchinchidan, boqimandalik kayfiyatida yashashdan voz kecha olmaslik omili. Bersang yeyman, ursang o'laman kayfiyatda yashaydigan odamlar toifasi odatda o'zining baxtsizligini va imkonsizligini noma'lum obyektiv va subyektiv omillarga bog'laydilar. Farovon hayotni ta'minlab berish uchun ma'sul tuzilmalar va tashkilotlar majburdir deb hisoblaydigan kishilar ko'p hollarda imkoniyat va sharoit bo'lsa ham o'z salohiyati va irodasini ishga solishni xohlamaslilar. "Nofaol aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari esa ijtimoiy ta'minot xizmatlari evaziga ijtimoiy jihatdan muxtoj aholi qatlamlariga moddiy yordam berishni nazarda tutadi. Buning oqibatida jamiyatda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari o'rtasida boqimandalik ruhiyatini shakllantiradi"[15; B.27.]. Bunday kayfiyatda yashash aksariyat etnik yoki ijtimoiy guruhlarda qadriyatga ham aylanib ulgurgan. Boqimandalik sharoitida turmush kechirayotgan fuqarolarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarishini yuksalishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy omillarga barham berish dolzarb masala sifatida yechimini kutmoqda.

To'rtinchidan, o'ziga ishonchsizlik, psixologik to'siqlarni yenga olmaslik omili. Har bir shaxsning yashash muhiti va mavjud sharoitga moslashishi ijtimoiy-psixologik jarayondir. Odatda, kambag'al yoki qashshoq turmush tarzida ega hayot kechiradigan insonlarda muhim psixologik muammolar kuzatiladi. Ya'ni, farovon hayotga erishishga bo'lgan ishonchning yo'qligi, o'z imkoniyatlarini past baholash, pessimistik dunyoqarashga ega bo'lish, mavjud sharoitga ko'nikib qolish va undan chiqish choralarini izlashga ishtiyoqning yetishmasligi va boshqalar. Jamiyat farovonligi ta'minlashda inson omili uchun qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning jadallanishiga yuqorida keltirilgan psixologik to'siqlarni salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri deyish mumkin.

Beshinchidan, ijtimoiy-siyosiy va zamonaviy bilim ko'nikmalarining yetishmasligi omili. Agar yuqorida qayd etib o'tilgan farovonlikni oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning

umumiy jihatlarini tahlil qilsak, eng asosiy sababi sifatida yetarli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy bilim ko'nikmalari va salohiyatining yetishmasligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni mamlakatdagi jadal o'zgarishlar va turli soxalardagi jarayonlarning tezlashib borishi zaruriy tushunchalarga ega bo'la olmaslik va o'zgarishlar hamda yangilanish bosqichidagi islohotlardan uzoqligidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolar O'zbekiston sharoitida aholi farovonligini ta'minlashga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy o'rganib tadqiq qilishni, dolzarb ijtimoiy-siyosiy choralar ko'rishni va muammoli masalalarni hal etishni namoyon etmoqda.

“Aholining ijtimoiy himoya qilish tizimi uzoq yillardan beri davlat siyosatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jamiyat hayotida vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni oldini olish, ularni hal etish va ta'sir doirasini kamaytirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash evaziga samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun zamin yaratib kelmoqda” [16; B.14.].

Aholining farovon yashashga bo'lgan intilishi va imkoniyatlarini yanada kengaytirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi reja-tadbir mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi:

- Mehnatga haq to'lash vaqt, ish va samaradorlik mezoni asosidagi tashkil etilishini yo'lga qo'yish;
- Tegishli ayrim soha xodimlarining ish vaqtidagi mehnatini optimallashtirish va yonlanma ishni tashkil etish joriy etish;
- Ishda xodimning mehnatsiz band bo'lishini keltirib chiqaruvchi ma'muriy va huquqiy me'yoriy xujjatlarni qayta ishlab chiqish;
- Kasb tanlash va kasbga layoqatlilikni ta'minlashning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish;
- Inson hayotida shaxs, kasb va tanlov tushunchalarining o'zaro mutanosibliigi asosida erkin kasb tanlash va ishlash ko'nikmasini keng targ'ib etish;
- Ishga va kasbga bo'lgan munosabatlarning buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarini psixologik o'rganish;
- Boqimandalik kayfiyatida yashash ko'nikmasidan xalos bo'lishning ma'naviy-axloqiy va psixologik yo'llarini o'rganish;
- Aholining ijtimoiy himoya qilishda huquqiy, siyosiy va zamonaviy bilim ko'nikmalarini o'zlashtirish tadbirlarini tuzish;

Yuqorida tahliliy ko'rib chiqilgan masalalarning e'tiborga molik jihati shundaki, halq farovonlikni ta'minlash va aholining turmush tarzini yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish va izchil choralar ko'rish yuzasidan falsafiy, ilmiy-amaliy tadqiqot xulosalari va tavsiyalari ishlab chiqilmas ekan, davlat oldidagi muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega dolzarb muammolardan biri bo'lib qolaveradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Hirsleifer J. The expanded Domain of Economics // American Economic Review. 1985. Vol. –75. – 53-p.
2. Zombart V. Burjua. Etyudi po istorii duxovnogo razvitiya sovremennogo ekonomicheskogo cheloveka // – Moskva, 1994. – S. 28–145.
3. Berger P. Kapitalisticheskaya revolyutsiya // – Moskva, 1994. – S. 24.
4. Lloyd Reynolds. Mikroiqtisodiyot // Commercial Press, – 1982. – 430-431-b.

5. Teodor V. Shuls. Iqtisodiy o‘shish va qishloq xo‘jaligi // Pekin Iqtisodiyot Instituti matbuoti. –1991. – 65-b.
6. Tan Shibin. Kambag‘allik konsepsiyasining klassik talqini, “Kambag‘allikni bartaraf etish va boyib ketish” // 2003. 7-son, –82-b.
7. Fan Huaiyu va boshqalar. Kambag‘allik haqida - kambag‘allik va kambag‘allikka qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti // Etnik nashriyot uyi. 2002. – 44-45-b.
8. Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135.
9. Solow, Robert M. “A contribution to the theory of economic growth”. Quarterly Journal of Economics 1956, 70 (1) p. 65-94.
10. Sen A. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press, 1981, p. 128.
11. Deaton A. The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press. 2013, p. 79.
12. Blaug M. Ekonomicheskaya misl v retrospektivi. – M.: Delo LTD.1994. –S. 104.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 4 yanvar. <https://president.uz/oz/lists/view/3324>
14. Xolmo‘minov Sh.R., Xomidov K.Z. Malakali agrar mehnat bozorining shakllanishi. – T.: Fan, 2003. – 23-b.
15. Baxtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2020. 27-b.
16. Baxtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2020. 14b.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF HUMAN TRUTH IN THE TEACHINGS OF KHOJA AKHRAR VALIY

Navruzova Gulchehra Nigmatovna

Doctor of sciences philosophy, professor. Bukhara engineering technological institute.

Email: premium.progress@mail.ru

Abstract. The article is based on a philosophical analysis of the treatises and rasha of Khoja Ahrar Vali, who turned the teachings of Naqshbandi into a global path-tariqat, about the reality of human truth.

Key words: Khoja Akhror Vali, man, body, spirit, heart, humanity.

ХОЖА АХРОР ТАЪЛИМОТИДА ИНСОНИЙ ҲАҚИҚАТ МАСАЛАСИ

Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна

Бухоро муҳандислик-технология институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори,
фалсафа фанлари доктори

Аннотация. Мақолада Нақшбандия таълимоти жаҳоний тариқатга айлантирган Хожа Ахрор Валийнинг рисола ва рашҳаларининг фалсафий таҳлили асосида инсонийлик ҳақиқатига оид ғоялари асосланган.

Калит сўзлар: Хожа Ахрор Валий, инсон, тана, рух, қалб, инсонийлик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N43>

Кириш. Янги Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини куриш учун баркамол авлодни ҳалоллик, меҳнатсеварлик, инсонпарварлик, бағрикенглик ва муросяю мадора руҳида тарбиялаш долзарб масаладир. Бу вазифани амалга оширишда ижтимоий фанларнинг ўрни каттадир. Айниқса инсонларни дунёқарашини шакллантиришда асосий рол ўйнайдиган фалсафа фанининг давр талаби асосида янги методология билан ўтишнинг аҳамияти каттадир. Фалсафанинг асосий категорияси инсондир. Фалсафа фани инсон борлиғи, олами билиши, оламга муносабати, ҳаётининг мазмуни масалаларини ўрганади. Инсон ва инсонийлик тушунчасини тушуниш ва англашда тасаввуф фалсафасининг ўрни каттадир. Тасаввуфнинг Нақшбандия таълимоти жаҳоний тариқатга айлантирган Хожа Ахрор Валийнинг маънавий меросидаги инсон, инсонийлик, инсон ҳақиқатига оид қарашларини ўрганиш баркамоло авлодни тарбиялашнинг асосий вазифасидир.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти Баҳоуддин, Шоҳ Нақшбанд, Хожайи Бузург, Балогардон каби номлар билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Муҳаммад Бухорий(1318-1389) асослаган [1,3-6,11-13].

Нақшбандия камолот йўли меъёрдаги, хушёрликга асослангандир[9-10]. Бу таълимот мустақиллик даврида янгича назар асосида ўрганила бошланди. Бу таълимотни жаҳоний тариқатга айлантирган Хожа Ахрор Валий Баҳоуддин Нақшбанд ва унинг шогирдлари қарашларини назарий жиҳатдан ривожлантирди. Мустақиллик даврида Хожа Ахрор ҳаёт йўли ва рашҳалари жамланган “Рашаҳот” асари таржима этилди[17]. Хожа Ахрор таваллудининг 600 йиллигига бағишлаб, унинг рисолалари жамланди, таржима этилиб, “Табаррук рисолалар” номи билан нашр этилди [18]. Хожа Ахрорни тавсифлаган Алишер Навоий[2,14] асарлари нашрдан чиқди. Мустақиллик даврида Хожа Ахрор Валийнинг ҳаёт йўли ва маънавий меросини Ботир Валихўжаев яхши ўрганганлар[7]. Бу манбалар асосида Рахматова Холидахон монографиялар[8,15-16] нашр этиб, диссертация ёқладилар. Хожа Ахрор Валийнинг рисола ва рашҳалардаги инсоний ҳақиқатига оид қарашлари герменевтик услуб асосида таҳлил этилди. Илмий жамоатчиликни тушунишига уйғун қиёсий таҳлиллар асосида масала ёритилди.

Муҳокама. Хожа Ахрор инсонийлик ҳақиқати деган масалага махсус эътибор беради. У – “Инсонийлик ҳақиқати Ҳақ субҳонаҳудан бошқага муҳаббат ва майл аралашмаларидан холи бўлиш” [18:66]- эканлигини ёзади. Хожа Ахрор муҳаббат ва майл инсонда Ҳақга ҳам ғайрга ҳам бўлиши мумкин деб, ғайрнинг зотиға ибодат қилиш ғайрга муҳаббат ва майл эканлигига ва ғайрга мансуб бўлиш ва ҳойу ҳавас этагини ушлашлигини таъкид этади. Хожа Ахрор буни Қуръони Каримдаги Жосия сураси, 23 оят – “Эй Муҳаммад (с.а.в.)! Ҳойу-ҳавасини, орзу-ҳавасини илоҳ қилиб олган кимсани кўрдингиз-ми? У била туриб (Аллоҳға эмас, ўз нафсининг орзусига қул бўлгани учун ҳам) Аллоҳ уни залолатга қолдиради!” асосида изоҳлайди.

Нафс истаги ейиш, кийиш, зеб-зийнат, шаҳват, мол-дунё кабиларга меъёридан ортиқ боғланиш инсонни тубанлаштиради. У мол-дунё, мансаб, нафс истаклари учун ҳайвоний ҳолатга тушади. “Ҳақиқий мақсад одамзот Ҳақдан бошқага гирифтор бўлишдан халос бўлсин”, “Инсонийлик ҳақиқати Ҳақ субҳонаҳудан бошқага гирифтор бўлишдан озод бўлиш”[18:66] эканлигини Хожа Ахрор таъкид этади.

Хожа Ахрорнинг бу таърифларидан маълум бўладики, у инсонни илоҳий сифатли мавжудот дейди ва шунинг учун ҳам илоҳийликка уйғун ҳаракатни унга мос деб ҳисоблайди. Илоҳий сифатли инсон бутун борлиқни Ҳақ назари билан кўради ва уни эъзозлайди. Бундай инсонни назари баланд, ўзи жуда юксак мартабада бўлади.

Хожа Ахрор икки асари “Рисолаи Ҳавроийя” (“Ҳурлар ҳақидаги рисола”) ва “Фикроти Ахрория” да ҳам инсонга нисбатан қуйидаги рубоийни келтиради:

Эй нусхаи номаи илоҳи, ки туи,

Эй оинаи Жамоли Шоҳи, ки туи.

Берун зи ту нест, ҳар чи дар олам ҳаст,

Дар худ биталаб ,ҳар он чи хоҳи, ки туи.[18:374]

Мазмуни:

Илоҳий номанинг нусхаси сенсан,

Шоҳ (Ҳақ) Жамолининг кўзгуси сенсан.

Нимаики оламда бўлса, сендан ташқарида эмас,

Нимани истасанг, ташқиридан эмас ўзингдан изла ўша сенсан[18:24,18:69].

Шунингдек Хожа Аҳрор шу мазмундаги “Ман арафа нафсаҳу фақод арафа Роббаҳу” (“Кимки ўз нафсини таниса, бас у (шундан сўнг) ўз Роббисини танигай” ҳадисини ҳам келтиради.

Хожа Аҳрор инсонийлик ҳақиқатига эришиш учун саъй-ҳаракат, ҳиммат ва вақтга эътиборни зарур, деб ҳисоблаганлар. “Кунларни беҳуда ўтказмаслик керак. Умрни шундай нарсага сарф қилмоқ лозимки, сендан мақсад шул бўлсин. Сенинг камолинг ўшандадир”[18:120121] деб, у ҳар бир инсон ўз ҳаётининг мазмун-моҳиятини, ўз истеъдодини таниши ва жамиятда ўз ўрнини топа олиши лозимлигини уқтиради.

Хожа Аҳрор инсон тана ва руҳдан иборатлиги ва “руҳнинг жасадга гирифтор бўлиши” инсон ҳақиқати эканлигини айтади. Руҳ танага кирганида муқаддас, илоҳий оламда бўлмаган нарсалар унда ҳосил бўлади. Чунки тананинг талабларини нафс акс эттира бошлайди ва турли ҳижоб, парда, боғланишлар пайдо бўлади. Натижада инсон ўз-ўзини англаб, саъй-ҳаракат қилмаса тубанлашиб, залолатга тушиши мумкин.

Натижалар. Инсоний ҳақиқатни Хожа Аҳрор валийларга таяниб, қалб ва руҳ билан боғлайди. Қалб илоҳий ишқу муҳаббатга гирифтор бўлиши лозим дейди. “Маънавий давлат шулки, ўз дилингни шалоғили кавнайдан холи қилмоғингдир”,[18:130] яъни қалб икки дунё боғланишларидан фориғ бўлиши лозим, дейди Хожа Аҳрор. У: “Қалб ул-мўъмин Аршуллоҳил аъзам” – “Мўъмин банданинг қалби Аршуллоҳдан ҳам аъзам” дир ҳадисини келтиради.

Хожа Аҳрор қалбни поклашга эътиборни қаратиб шундай ўғит беради: “Ўзингни фаррош сингари тутмоқ керак. Дилни кавний тааллуқотлар хасу хашагидан тозаламоқ даркор.”[18:138] Хожа Аҳрор фаррошнинг супургиси деб - зикр яъни Ҳақни эслаш эканлигини уқтиради ва шу маънода ёзади:

*Зикр гў, зикр то туро жон аст,
Зиндагийи дил ба зикри Яздон аст.
Чун ту фоний шави зи зикр ба зикр,
Зикри хуфияки, гуфтаанд он аст[18:133].*

Мазмуни:

*Зикр айт, зикр, то тананга жонинг бор,
Қалб тириклиги Яздон-худо зикри биландир.
Сен зикрдан зикргача фоний бўлсанг,
Хуфия зикр айтганлари шудир.*

Хожа Аҳрор фикрича, дил – қалб Ҳаққа огоҳ бўлиш шарафига мушарраф бўлса, дилда ҳеч нарсага ўрин қолмайди у ғафлатдан уйғонади. Огоҳлик ҳақиқийликка далилдир, деб Хожа Аҳрор: “Ҳақиқий саодат мана шу огоҳликдан бошқача бўлмайди”,[18:134] деган ғояни таъкид этади. Бу саодатга эса инсонни Хожа Аҳрор фикрича хожагон-нақшбандия таълимоти муяссар қилиши мумкиндир.

Хожа Аҳрор ғоялари Баҳоуддин Нақшбанднинг қуйидаги ғоялари билан уйғундир:

*Зи ғайрат хонаи дилро зи ғайрат кардаам холи,
Ки ғайратро намешояд дар ин хилватсаро будан[30:19].*

Мазмуни:

*Ғайрат қилиб, дил уйини ғайр (мосиво)дан тозаладим,
Чунки бу хилват саройида ўзга муносиб эмас.*

Хожа Аҳрор шундай айтганлар: “То кўнгулни дунё ва уқбо муҳаббатидан тозаласанг, Ҳазрати Худованди Каримга маҳал бўлмайдур. Зероки, экилган ерга экиб бўлмас ва битилган қоғозга битиб бўлмас.” [18:347] Қалб бошқа нарсаларга боғланса, Хожа Аҳрор уни экилган ер ёки битилган қоғоз каби демоқда. У қалбни асосий вазифаси Ҳақни маҳали – манзил-макони, тажаллий этадиган кўзгуси бўлиши лозим демоқда.

Хожа Аҳрор инсонга турли таърифлар берган. У бир жойда шундай айтади: “Дунёдаги бор нарсаларнинг улуғроғи зоҳирга қараганда одамзоддир. Ва хорроғи кучукдур. Хирадмандлар иттифоқи бирла Ҳақ танигувчи кучук Ҳақни танимаган одамзоддан яхшироқдур” [18:346] Хожа Аҳрорнинг бу фикри қуйидагиларга уйғундир:

*Писари Нух бо бадан биншаст,
Хонадони нубувваташ гум шуд.
Саги асҳоби Каҳф рўзе чанд,
Паи некон гирифтум мардум шуд.*

Мазмуни:

*Нухнинг ўғли ёмонлар билан бўлди,
Натижада пайғамбарлик хонадонини йўқотди.
Каҳф асҳоби ити неча муддат,
Яхшилар билан бўлиб, жаннатий бўлди.*

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining yangilanish jarayonida xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirish va faolliklari borasida so'z borar ekan, modernizatsiya doirasida yurtimizda ayollarning innovatsion tafakkurini takomillashtirish iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq ayollar ko'pincha ta'lim, resurslar va imkoniyatlardan foydalanish cheklanganligi kabi to'siqlarga duch kelishadi. Ushbu muammoni hal qilish gendir tengligini ta'minlovchi siyosatni amalga oshirishni treninglar va murabbiylik dasturlarini taqdim etishni hamda tadbirkor va innovator ayollar uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi. Bundan tashqari, ayollarning innovatsiyalardagi ishtiroki muhimligi haqida xabardorlikni oshirish, tarmoq va hamkorlik uchun platformalar yaratish

ayollarning mamlakat rivojiga samarali hissa qo‘shish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berish kerak deb hisoblayman.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Danilova E.E. (2017) Predstavleniya shkolnix uchiteley o psixologicheskix
2. osobennostyax uchashixsya raznogo pola. Science Time, No 2 (38), c. 121–132
3. Xoliqova M.Ishanxanova, G., Po‘latova Sh. Gender tengligi: g‘oyadan qonunga qadar [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.Xoliqova, G.Ishanxanova, Sh.Po‘latova. – Toshkent: «Akademnashr», 2021. – 208 b.
4. Narbaeva T. K. Ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlashda xotin-qizlarning o'rni//Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. –T.: TDIU, 2019. – B. 5
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha Ilmiy-uslubiy risola. –T.: TDIU, Ma'naviyat, 2017. – B. 181. (244 b.)
6. Holikova M. Axborotlashgan jamiyat kontekstida o‘zbek oilasining sotsiomadaniy qadriyatlar tizimini rivojlantirish muammolari//<https://api.moiti.uz> › media › book ›
7. Sharipov F. Sh. Siyosatshunoslik. Siyosatshunoslikning ilmiy-metodik asoslari. 1 kitob. – T.: 1997. – B. 84-85.
8. Sharipov F. Sh. Siyosatshunoslik. Siyosiy sistema tahlili. Siyosiy madaniyat sasoslari. 2 kitob. T., 97-bet.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE FORMATION OF SOCIO-ECONOMIC RELATIONS OF THE FAMILY

Rozimurodov Siroj Madatovich

Associate Professor of the Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article focuses on the issue of spiritual and moral education in the family, ensuring the stability of socio-economic relations and the formation of economic relations. It effectively highlights the dependence of society on its political, legal, economic culture and behavior as an integral system. Their views and definitions on the continuity of functional relations between them are outlined.

Keywords: Family, spiritual and moral education, competitive, integrative, functional, profitable, economic behavior, demeanor, work, etiquette.

OILANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING TA'SIRI

Ro'zimurodov Siroj Madatovich

Samarqand iqtisodiyot va serviz instituti dotsenti

Annotasiya. Mazkur maqolada oilaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasiga e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda jamiyatni siyosiy – huquqiy, iqtisodiy madaniyati va xulq-atvorniga bog'liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Ular o'rtasidagi funksional munosabatlar uzviyligi to'g'risida qarashlari, ta'riflari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oila, ma'naviy-axloqiy tarbiya, raqobotdosh, integrativ, funksional, daromad, iqtisodiy xulq-atvor, xulq, mehnat, odob-axloq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N47>

Oilada iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda bir qator ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ega. Oilaviy munosabatlar jarayonlarida kechadigan har qanday shakllar avvalo yoshlarning ma'naviy -axloqiy tarbiyasiga bosqichma-bosqich ta'sir etadi. O'zbek xalq maqolida aytilganidek "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganida oilaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya negizidagi ushbu tarbiyaviy-ruhiy, psixologik omilni esdan chiqmaslik kerak. Qadimdan xalqimiz oilaning ijtimoiy iqtisodiy munosabatlari, savdo-sotiqni, mehnat qilib pok va halol yashashni, birovning haqiga, moliga xiyonat qilmay yaxshi niyat, yaxshi so'z va yaxshi amal bilan turmush qurishni rohat va farog'at manbai, uzoq umr ko'rish, yaxshi nom qoldirish sharti deb bilgan. Shuning uchun ham bu xususida Sh.M.Mirziyoyev: "Jamiyatni siyosiy — huquqiy va ijtimoiy — iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada ta'sirchan va samarali mexanizmlarni yaratish, demokratik tamoyil va me'yorlarni hayotga tatbiq etish

bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamli va izchil chora — tadbirlarni amalga oshirdik" [1, 44]-degan edi.

Insonning mohiyatli salohiyatining ro'yobga chiqishi, iqtisodiy madaniyatning obyektiv mezon, o'lchovi ham ana shudir. Bu oiladagi iqtisodiy madaniyat falsafiy tahlil natijasida ijtimoiy taraqqiyot davomida voqelikni o'zgartirish, ijtimoiy sistemaning o'z-o'zini saqlash, ijtimoiy adaptatsiya, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, bilish, baholash, lazzatlantirish, tartibga solish, muomala va axborotlashtirish funksiyalarini bajarib kelgan. Ammo, uning asosiy maqsadi, mazmuni, funksiyasi insonning har tomonlama uyg'un, barkamol shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Insonning mohiyatli salohiyatining ro'yobga chiqishi, iqtisodiy madaniyatning obyektiv mezon, o'lchovi ham ana shudir. Bu madaniyatshunoslikning metodologik muhim xulosasi hisoblanadi.

Avlod ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy tafakkuri tarixiga bir nazar tashlasak jumladan, "Avesto"ni matnlarida natural xo'jalik, ya'ni o'z a'zolari ehtiyoji uchungina mahsulot ishlab chiqaradigan xo'jalik faoliyati keng targ'ib etilishi va amaliy maslahatlar berilishi bejiz emas. "Avestoda, jumladan, o'z yorini sevgani, erni, mollarni parvarish qilgani, odamlarning mol-u mulkiga ko'z olaytirmagani, tabiatni avaylab-asrab, undan zavq olgani uchun uning joni ham bitmas-tuganmas rohat va farog'atga burkanadi, deb yoziladi" [3, 20]. Eng muhimi shundaki, tarixiy manbada mehnat qilib kun ko'rish, yerni, atrofni, suvni e'zozlash, chorvani ko'paytirish, yoshlarga ezgu amallarni o'rgatishga oid g'oyalar bayon etiladi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tish nafaqat xalqimizning ma'naviy-axloqiy merosiga murojaat etishga, shuningdek, zamonaviy muammolarga ham e'tibor bo'lishga undaydi. Shu o'rinda Islomning muqaddas kitobi Qur'onda da'vat etiladi: "Ey mo'minlar, mollaringizni o'rtalaringizda nohaq (*ya'ni o'g'irlik, qaroqchilik, sudxo'rlik, poraxo'rlik, qimor kabi*) yo'llar bilan yemangiz. Balki o'zaro rizolik bilan bo'lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo kasb qilingiz" [4, 72]. Shuningdek bunday qarashlarni yana ko'plab keltirish mumkin. Oilalarni bandligi ta'minlash ularning yashash sharoitini yaxshilash, oila a'zolarining tadbirkorlik madaniyati bilan tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Oilaning iqtisodiy madaniyati xususida gap ketganida, tabiiy ravishda ayol va uning oiladagi o'rni asosiy o'rin egallaydi. Bugungi kunda davlat siyosatida oilaviy tadbirkorlik asosan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jalb qilish, ularning bandligini ta'minlashga qaratilganligi sir emas. Bu masalada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni jalb etishni istardim. Aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi — yangi bozorlar kerak" [1, 41] -deb ta'kidlaydi. Demak, iqtisodiy munosabatlar qanchalik xilma-xil, mukammal va yuqori sifatli bo'lsa, shaxsning axloqiy dunyoqarashi ham shuncha boyiydi. Shuning uchun ham jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning mukammallik darajasi va sifatiga qarab, shaxsning iqtisodiy madaniyati darajasini aniqlash mumkin. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tgach, iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirishga kirishdi, bu esa barkamol insonning erkin rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi.

Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy asosini ta'minlashda gender tenglikni har tomonlama ta'minlashga borib taqaladi. Oiladagi ijtimoiy munosabatlarga, sotsial muammolarning kelib chiqishiga ta'sir etmay qolmaydi. Oiladagi mentalitet, avlodlararo aloqalar, er-xotin munosabatlari faqat oilaga taalluqli emas, ular bilvosita jamiyat hayotiga ta'sir etadi. Oilasi

notinch erkakning korxonada samarali ishlashi yoki eri tanalarini eshitgan ayolning ishxonada faol bo'lishi qiyin. Oila ijtimoiy muhiti kishilar kayfiyati orqali ijtimoiy munosabatlarni yo'naltirib, ulardagi maqsadlarga etishishni tezlashtirib yoxud susaytirib turadi.

Oilaning iqtisodiy munosabatlarni mohiyatan oila a'zolarining jamoaviy sa'y-harakatlari, uyg'un, ahil, bir bo'lib faoliyat olib borishi demakdir. Shu munosabat bilan ilmiy adabiyotlarda, ayol va erkak o'rtasidagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlar hamkorlik tarzda ochiq yoki yopiq ko'rinishga ega. "Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oila taraqqiyotiga ta'sir etadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. Oila jamiyat bag'rida tashkil topib rivojlanishi bilan, uning jamiyatda bajaradigan o'z vazifalari (funktsiyalari) mavjuddir" [5,8]. Shu o'rinda O'zbekistonda erkak va ayollarning oilaviy tadbirkorlikda teng huquqli subyekt sifatida qatnashishi avvalo Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topgan va kafolatlangan. Oilaviy tadbirkorlikda ayol va erkak bab-barobar qatnashishi zarur, aks holda umumiy maqsad mavhum bo'lib qoladi, ish, vazifa talab darajasida bajarilmaydi. Iste'molchi tadbirkorning o'z ishiga, vazifasiga salbiy munosabatini darrov sezadi, undan kechib boshqa oldiga boradi. Falsafiy va iqtisodiy adabiyotlarda ishbilarmonlik alohida fenomen sifatida tadqiq etilganligi. Ular ishbilarmon oilalargina tadbirkor bo'lishlari mumkin, degan fikrni bildiradilar.

Ishbilarmonlik, qanday faoliyat turi o'zi, iste'molchilar talab-ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy zarur faoliyat turidir. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda ishbilarmonlik iste'molchilar oldiga boradigan faoliyat turi. Bu o'rinda an'anaviy tasavvurlar, etnostereotiplar bilan zamonaviy ishbilarmonlik xislatlari bir-biriga ro'para keladi.

Oilaviy tadbirkorlik xususiy mulk va shaxsiy mablag'larni kiritish, ulardan tavakkal qilib foydalanish orqali daromad topishga quriladi. Demak, oilaviy tadbirkorlik avvalidan shaxsiy investitsiyani taqozo etadi. Shaxsiy investitsiya tadbirkorning quyidagi mulki va jamg'armalaridan tashkil topadi:

- 1 – uy-joyi, tomorqasi;
- 2 – oila a'zolarining umumiy mulki;
- 3 – pul jamg'armalari;
- 4 – kreditlar, qarzlari.

Oilaviy tadbirkorlik va oiladagi ishbilarmonlik muhiti ota-onaning hayotiy maqsadiga, farzandlari kelajagi haqidagi tasavvurlariga ta'sir etadi.

Oiladagi ishbilarmonlik muhiti bilan shahar, tuman va mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Mazkur dialektik bog'liqlikni eng avvalo qonunlar, huquqiy-normativ hujjatlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati belgilaydi. Aynan ushbu qonunlar va siyosat oilaviy tadbirkorlikka deterministi ta'sir etadi, oilaviy korxonalar faoliyatiga yo'nalish beradi. To'g'ri, ular oilaviy tadbirkorlikka borib etishida obyektiv va subyektiv to'siqlarga duch kelishi mumkin. Goho shunday to'siqlar yuzaga keladiki, uni shaxsning yakka o'zi eng olmaydi. Oiladagi ishbilarmonlik muhiti faqat mehnatga munosabat bilan shakllanmaydi, u mulkiy va er-xotin munosabatlari, diaxron aloqalar, tadbirkorlik subyektlari bilan yollanma xizmatchilar, iste'molchilar, buyurtmachilar o'rtasidagi munosabatlar mahsuli hisoblanadi. Hozirgi kunda gender tenglik masalasi oilaviy tadbirkorlikda, oilaviy ishbilarmonlik muhitining shakllanishida muhim o'rinni egallamoqda.

Demokratik taraqqiyotning yangi bosqichi mamlakatni modernizatsiyalashni davom ettirib, innovatsion rivojlanishga keng yo'l ochib berdi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni innovatsiya talablariga muvofiq ta'minlash o'z navbatida oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga ham ma'lum bir talablar qo'yimoqda, bu tabiiy holdir albatta. Shuning uchun davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "...oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda ulkan ahamiyat kasb etmoqda" [2]. Shu o'rinda oila eng muhim va vazifasidan biri farzand tarbiyasini amalga oshirish to'g'ri niyat va maqsadli qadamdir. Oilaviy tadbirkorlik va iqtisodiy munosabatlar faqat foyda, daromad olish, utilitarizm bilan cheklanmaydi, u yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, avvalo mehnatsevarlik, intellektual izlanishni sevish, tejamkor bo'lish, ahil bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Oilada ishbilarmonlik muhitiga yoshlar tez moslashadilar, tadbirkor uchun zarur fazilatlarni tez o'zlashtiradilar. Shu bilan birga tadbirkorlik pul topishga o'chlik, bemehrlik, egoizmni ham keltirib chiqarishi mumkin. Tadbirkorlikni go'zal, olijanob insoniy fazilatlarga qurish, kishilar o'rtasida ahillik, inoqlik, ijodiy musobaqa qilib yashash ko'nikmasini shakllantirish tadbirkorlik etikasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu etika markazida iste'molchi, buyurtmachining talab va ehtiyojlarini to'la qondirish, yuksak saviyada xizmat ko'rsatish, undagi insoniy fazilatlarni yanada oshirish niyati turishi darkor.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi investitsiya (*shaxsiy va tashqi*) va ishbilarmonlik muhiti (*oila va jamiyat*)ga dialektik tarzda bog'liq. Investitsiya shaxsiy mol-mulkni, daromadlarni tikishni taqozo etsa, ishbilarmonlik muhiti oilaviy korxonaning samarali ishlashini, investorlar kelishini kafolatlaydi. Yaratishga, izlanishga, harakatchanlikka moyil tadbirkorlarga o'ziga zarur investitsiyalarni topa oladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki oilada iqtisodiy madaniyat va qadriyatlar bozor iqtisodiyotini iqtisodiy erkinligini aks ettirib, iqtisodiy munosabatlar shakllarining, oilaviy munosabatlarni, xo'jalik yuritish mazmuniga ijobiy ta'sir etadi. Shu o'rinda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy erkinlik faqatgina bozor iqtisodiyoti sharoitidagina real voqealikka aylanadi va oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy madaniyatga va qadriyatlariga sezilarli darajada dialektik ta'sir ko'rsatadi: *birinchidan*, iqtisodiy madaniyat va qadriyatlar bozor munosabatlarida imkon doirasida iqtisodiy erkinlikni o'zida aks ettiradi; *ikkinchidan*, iqtisodiy munosabat shakllari, oila va xo'jalik yuritish shakllarining mazmuniga, iqtisodiy madaniyatning ijodiy jarayoniga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, *uchinchidan*, iqtisodiy madaniyat shakllari bozor va boshqaruv tizimi asosida qurilishi mumkin bunda oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaga bog'liqdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 44
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзuidaги анжумандаги нутқи // Халқ сўзи, №119. 2017 йил, 16 июнь.
3. Раззақов А. Иқтисодий тафаккур сарчашмалари. – Тошкент: O'zbekiston НМИУ. 2011. – 20 б.
4. Қуръони Карим. А.Мансур маънолар таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 72 б.
5. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Тошкент.: Университет, 1997, 8-б.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

ISSUES OF EDUCATION OF NATIONAL IDENTITY OF YOUTH IN THE CONTEXT OF INFORMATION GLOBALIZATION

Ravshanov Ulug'bek Rahbarovich,
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

Abstract. In the article is talking about the different types of information influence on people's minds in modern conditions of information in regards of the problems of education, protection of the population, especially young people from the various types of destructive ideas.

Keywords: globalization, media personality, education, spiritual, ideological space.

AXBOROT GLOBALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLARDA MILLIY O'ZLIKNI TARBIYALASH MASALALARI

Ravshanov Ulug'bek Rahbarovich,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida kishilar ongiga ko'rsatilayotgan turli g'oyaviy ta'sirlar, yoshlarni buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoyalash, yoshlarda o'zlikni anglash tarbiyasi borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar xususida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, mafkuraviy bo'shliq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N48>

Kirish. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi. Shu bois bir tomondan jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida zarur choralar ko'rishimiz kerak. Ikkinchi tomondan esa bu jarayonning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri bilan bog'liq hodisalar nazoratdan chetda qolmasligi lozim. Shu sabab fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish [1] muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ogohlik, daxldorlik, o'zlikni anglash, g'oyaviy kurashchanlik – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurdir. Bugungi yoshlar turli makonlardan taralayotgan ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi g'oyaviy ta'sirlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, salohiyat asri, internet asri, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday

ta'sirlardan holi bo'lish dolzarb muammodir. Shunday ekan davr har bir yoshdan o'zining mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkuri va mustahkam irodasiga ega bo'lishini taqozo etadi. G'oyaviy tahdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy ma'naviy meros xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Milliy o'z – o'zini anglash har bir millatning o'zini haqiqiy mustaqil subyekt sifatida o'z davlatchilik tarixini, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar sohibi ekanligini anglab yetishi va uyushishidir [2, 268-b.].

Axborot texnologiyalari globallashtiruvining o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Ayniqsa dunyoning mafkuraviy manzarasi bo'lmish jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosabatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatining [4, 145-146-bb.] keskin tus olishi sharoitida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “ globallashtiruv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda. Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz” [2, 268-b.].

Demak, hozirgi yoshlar nima yaxshi yoki nima yomon ekanligini ajrata bilsin. Ya'ni, axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish insonning ong darajasiga bog'liq. Hozirgi paytda yoshlarning internetdan to'g'ri foydalanishga erishmog'imiz lozim. Ya'ni, kompyuterdan foydalanish madaniyatini shakllantirmoq lozim. Mamlakatimizda Internet xalqaro axborot tarmog'ini milliy ma'lumotlar bilan to'ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Agar biz yoshlarda axborot olish madaniyatini shakllantirsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz.

Tadqiqotning metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, qiyosiy tahlil, sinergetik, funksional tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Muhokama. Hududimizda jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'radi. Bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim. Ushbu tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblardan nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda.

Bunday kuchlarning g'arazli munosabati, uning tagida yotgan manfaatlarini, bu manfaatlarini amalga oshirish uchun turli usul va vositalar bilan zo'r berib urinayotgani

barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi. Bu masala xususida O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: "Nega deganda, insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'rvon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi" [3, 11-b.]. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. Shunday ekan, bu hodisaning sir-asrorlari, uning namoyon bo'lish sohalari, amalga oshiruvchi mexanizmlari, vositalarini tahlil etish va shu tufayli unga qarshi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda. "Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi" degan fikr ustuvorlik qilayotgan hozirgi dunyoda insonning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan g'oyaviy va informatsion xurujlar quyidagicha namoyon bo'lmoqda: demokratiya, demokratik qadriyatlar eksporti; xalifalikni qayta tiklashga urinishlar; axloqsizlik g'oyalarini targ'ib qilish; "ommaviy madaniyat" hodisasi; kosmopolitizm; axloqiy degradatsiya va shu kabilar.

Ommaviy axborot vositalarining hozirgi holati, imkoniyati ma'lumot, axborotning beto'xtov yetkazilishini ta'minlab bermoqda. Ikkinchi tomondan ushbu axborot oqimi vaqt o'tgan sari ko'payib bormoqda. Mazkur oqimda ekstremal, kutilmagan voqea-hodisalar, terrorchilik aktlari, ekstremizm borasidagi turli-tuman xabarlar berilmoqda. Bu xabarlar ma'lum darajada o'ziga xos axborot tahdidini yuzaga keltirmoqda. Axborot tahdidi xususida gap ketganda uning universalligi, barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qilish imkoniyatini ta'kidlash lozim. Salbiy jihatlar natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg'itish va oxir-oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo'lgan ta'sirlarda ifodalanadi. Chunki turli ma'lumotlar, axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi jarayoni uncha ham bilinmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zida esa mustahkam iroda, axborot iste'moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, oqni-qoradan, yaxshini-yomondan ajrata olish qobiliyati rivojlangan bo'lishi zarur. Muqaddas kitobimizda ham "Ey mo'minlar, agar sizlarga bir fosiq kimsa biron xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda, biron qavmga musibat yetkazib qo'yib, qilgan ishlaringizga afsus nadomat chekib qolmasliklaringiz uchun (u fosiq kimsa olib kelgan xabarni) aniqlab tekshirib ko'ringlar" [5, 402-b.], — deyilgan. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin. Shuning uchun axborot-psixologik barqarorlikni birinchi o'rinda davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va bir so'z bilan aytganda ma'rifatparvar insonlar ta'minlashlari zarur.

Axborot tahdidlarining eng xavflisi – davlat siyosatini ta'minlashga xalaqit berayotganlaridir. Chunki agar shaxsga salbiy ta'sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo'yadi. Bu juda katta va jiddiy muammodir. Axborot-psixologik xavfsizlik sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, axborot tahdidlarga qarshi kurashning eng maqbul yo'llaridan biri mamlakat o'zini o'zi axborot bilan ta'minlashi hisoblanadi. Albatta, bunday axborot to'liq, sifatli va haqqoniy bo'lishi shart, aks holda jamiyat a'zolari turli destruktiv manbalarga murojaat etadilar va bunga hech kim

to'sqinlik qilolmaydi. Chunki inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqea boyicha uch-to'rt soat ichida ma'lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo'lgan axborot bo'shlig'ini har xil uydirma va mish-mishlar to'ldiradi.

Axborot psixologik ta'sir vositasi sifatida juda qudratli kuchga egadir. Shuning uchun mafkuraviy targ'ibot samaradorligi kuchli mamlakatlarning aholisini tanlagan yo'llaridan og'dirish qiyin kechadi. Axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbasi – bu insonning o'zi. Insonda ongning mavjudligi tahdid manbasini ifodalaydi. Undan tashqari boshqa manbalar ham bor. Ular sirasiga boshqa mamlakatlarning O'zbekiston axborot hududida hukmronlik qilishga yo'naltirilgan harakatlari va turli noxolis siyosiy, harbiy, iqtisodiy, jamoaviy tuzilmalar vakillarining O'zbekiston fuqarolariga nisbatan salbiy ta'sir o'tkazishini ko'rsatish mumkin. Bunday harakatlar, odatda, turli ommaviy axborot vositalari (OAV), turli nodavlat tashkilotlari, jamg'armalar, guruhlar va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga axborot sohasiga ixtisoslashgan tashkilotlar, OAVlar faoliyatining yetarli darajada samarali emasligini ham muayyan tahdidlar sifatida baholash mumkin.

Jamiyatimizning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalardagi ijobiy o'zgarishlar, demokratlashuv jarayonlari shaxsga o'z yo'lini o'zi tanlashi, belgilashi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shunday sharoitda ommaviy axborot vositalari oldiga juda katta strategik masalalarni hal etishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgandir. Zero, OAVning ijtimoiy ongni maqsadga muvofiq shakllantirish, aholining stereotiplari hamda ustanovkalarini tarkib toptirish borasidagi imkoniyatlari juda kengdir.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Bu negizlar umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlikdan iborat. Mazkur ma'naviy-axloqiy negizlar zahirida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga, fuqarolarimizning ma'naviyatini shakllantirishga erishish yotadi. Chunki shaxs tafakkurini o'stirmasdan, uning ma'naviy dunyosini boyitmasdan turib ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish, milliy mafkurani to'la-to'kis yaratish mumkin emas [6, 131-132-bb.].

Darhaqiqat, inson bolaligidanoq jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun o'zining jamiyat bilan munosabatiga oydinlik kiritib olishi, jamiyat qonuniyatlarini anglashi, undagi o'zgarishlar va yangiliklardan o'z vaqtida boxabar bo'lib turishi lozim. Demak, bunda shubhasiz OAVning o'rni beqiyos. OAV shaxs tafakkuri, estetik didini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir etuvchi vosita ekanligi va bunda matbuotning o'rni va rolini o'rganish eng dolzarb masalalardan biri ekanligi ayon bo'ladi.

OAVga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, davr talabi asosida unga "to'rtinchi hokimiyat" maqomi berildi. Bu esa o'z o'rnida matbuotga ulkan mas'uliyat yukladi. Matbuot ijtimoiy hodisalarning faol kuzatuvchisi sifatida jamiyatda o'ziga xos o'rin egallaydi. O'z maqsadi – kishilarda ijtimoiy fikr uyg'otish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga o'ziga xos "erkin minbarlik" usuli bilan erishiladi [7, 157-b.].

OAVlar bugungi kunda erkin fikr maydoniga aylanib bormoqda. Matbuot mustaqillik g'oyasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishda beqiyos xizmat qilmoqda. O'lmas madaniy merosimiz, milliy istiqloq mafkurasi bunyodkor xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qilmoqda. Zero, bugungi kunda matbuot insonning o'zini-o'zi, kimligini idrok etishga, hayotning ma'no-mohiyati nimadan iborat ekanligini teran tushunishga,

yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy gazeta-jurnallar, televideniye va radio faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayrim tele va radiokanallardagi reklamalar, bukletlar, turli xorij matbuot nashrlaridagi maqolalar – bularning hammasi axboriy manipulyatsiya ta'siriga tushmaslik maqsadida shakllantiriladigan ko'nikmalarni tarkib toptirishda asosiy manba, "ko'rgazmali qurol" bo'lishi mumkin. Shu bilan birga turli OAVlarning kishi ongiga ta'siri masalasidan tashqari, turli destruktiv guruhlar, kult va sektalarning shaxs, davlat, jamiyat xavfsizligiga ko'rsatayotgan tahdidi ko'lam ham hozirgi vaqtda oshib bormoqda. Bunday harakatning zaminida yuzaga keladigan xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakl-u shamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz [8, 14-15-bb.]. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vositalar orqali berib boriladigan axborotlar yoshlarning psixologik qaramlik sirtmog'iga tushib qolish xavfini imkon qadar pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Darhaqiqat, "Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar" [9, 3-b.].

Natijalar. Bugungi globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma'naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo'l topishni har tomonlama puxta o'ylagan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Yoshlar tarbiyasida ma'naviy xavfsizlik masalasi haqida gapirganimizda shuni aytish joizki, tadqiqot mavzusining muhim qirralaridan biri bo'lmish milliy ma'naviy xavfsizlik omillari roli masalasini tadqiq etish muammosi yanada dolzarblashib boraveradi. Yoshlarimizda intellektual salohiyatni yuksaltirish, ulardagi milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish masalalariga alohida to'xtalish zarur bo'ladi.

Birinchidan, yoshlarga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, sodir bo'layotgan mafkuraviy tahdidlar va undan ko'zlangan maqsadlar, bunday tusdagi kuchlarning ortida kimlar turganini tushuntirish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarga mustaqillik har doim xalqimizning azaliy orzusi bo'lib kelganligi, turli zamonlarda unga qanday erishilganligini milliy davlatchiligimiz tarixidan yorqin misollar bilan tushuntirish.

Uchinchidan, tarbiya masalasida yurt tinchligi, uning farovonligi, ozodligi uchun jonini ham fido etgan milliy qahramonlarimiz hayotidan namunalar keltirish orqali yoshlardagi vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash.

To'rtinchidan, yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda milliy o'zlikni anglashning yuksak darajada bo'lishiga erishish. Bu borada asosiy vazifa, yagona maqsadimiz- maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat [2, 57-b.].

Beshinchidan, o'rta maxsus ta'lim tizimida internet bilan ishlash madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan o'quv kursini yo'lga qo'yish zarur. Bu kurs davomida yoshlarimizda internet bilan ishlashga doir amaliy ko'nikmalar shakllangan bo'lishi lozim.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston yoshlarini axborot globallashuvi sharoitida yoshlarda milliy o‘zlikni tarbiyalash, axloqiy, estetik, intellektual madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, ulardagi axborot iste‘mol madaniyatini yuksak darajaga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. №3080. 30.06.2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. – 268-b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2008. –11-b.
4. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 145-146 b.
5. Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va mavsifi. - Toshkent: “Toshkent islom universiteti”. - 2012. 402-b.
6. Masharipova G.K., Jumaniyozov X. Globallashuv mohiyati va integratsiya jarayonlari//Globallashuv sharoitida falsafa va milliy g‘oyaning dolzarb masalalari mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent, 2012. – 131-132-bb.
7. Jumaniyozov X.S. Globallashuv asoslari: darslik. - Toshkent, 2023.
8. Abbosxo‘jayev A, Umarova N., Qo‘chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent: Akademiya, 2007.
9. Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, 2005.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

AESTHETIC PROBLEMS AND SPIRITUALITY OF PERSONAL ARTISTIC CREATION

Allayarova Markhabo Mavlanovna

Associate professor of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract. In the process of building the foundations of the Third Renaissance in the stage of the New Era of Uzbekistan, it is important to form the spiritual education of young people. In this case, studying and analyzing the issue of forming an individual's artistic creation is one of the most urgent issues. This article explains that the artistic creativity of young people serves as an important factor in the process of spiritual growth, development of a person with a scientific and philosophical outlook, and self-realization in our society. It has been studied that the essence of artistic creation is the phenomenon of spirituality and culture in the improvement of the person who is its owner.

Key words: Spiritual-ideological threats, perfect person, artistic creativity, works of art, social ideal, aesthetic ideas, artistic-aesthetic education, objective conditions, subjective factors

SHAXS BADIY IJODINI SHAKLLANTIRISHNING ESTETIK MUAMMOLARI VA MA'NAVIYAT

Allayarova Marxabo Mavlanovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. O'zbekiston Yangi davr bosqichida Uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Bunda shaxs badiiy ijodini shakllantirish masalasini o'rganish, tahlil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada yoshlar badiiy ijodi jamiyatimizda kechayotgan ma'naviy yuksalish, ilmiy falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsni kamol toptirish, o'z-o'zini anglash jarayonining muhim omili bo'lib xizmat qilishligini yoritilgan. Badiiy ijod mohiyati uning sohibi bulgan shaxsning takomilida ma'naviyat va madaniyat fenomeni ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar, komil inson, badiiy ijod, san'at asarlari, ijtimoiy ideal, estetik g'oyalar, badiiy-estetik tarbiya, ob'ektiv sharoit, sub'ektiv omillar

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N48.1>

Mavzuning dolzarbligi. Shaxs badiiy ijodini shakllantirish bugungi kunda globallashuv jarayonida barkamol avlodni kamol toptirish muammosini tobora oshib borishi va hal etilishida uning muhim estetik omilidir. Ushbu jarayonda shaxs badiiy ijodini shakllantirish uning muhim tamoyili va yechimi va ayni paytda ma'naviy madaniyat fenomeni hisoblanadi. Shunga ko'ra shaxs badiiy ijodini shakllantirish masalasi falsafiy tahlil etilishi talab etiladigan muammolardan biri sanaladi. Shunga ko'ra ijodkor shaxsning shakllanish jarayonini ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'rganish zaruriyati yuz kelmoqda. Ta'lim muassasalarida bu fanlarni o'qitish sifati va samaradorligini yanada yaxshilash emas, balki keyingi yillarda ularning o'quv soatlarini ikki baravarga qisqartirish, bu ham yetmaganidek, ijtimoiy-gumanitar fanlarning

tanlov fanlari qatoriga kiritilishi mazkur muammoni hal etishga to'sqinlik qilayotganligini alohida ta'kidlash joizdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Drujinin V.N. Yeremeev A. F., Ilin Ye. P., Koshkina M. V., Loyfman I. Ya., A. I. Gersen, V. G. Belinskiy, P.L.Lavrov va boshqa olimlarning asarlarida ijodkor shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ayni shu ma'noda, B. Paskal, A. Puankare, D. Mendeleev, V. Vernadskiy, A. Bextereev, A. Eynshteyn, V. Geyzenberg, B. Rassel va boshqa olimlar ilmiy ijod, kashfiyot mantiqiy tafakkur jarayonida emas, balki aynan mantiqiy tafakkur ishtirok etmagan, ya'ni "insayt" holatida sodir bo'lishini o'z boshlaridan kechirgan dalil ekanini tan olganlar.

Jumladan, Ya.Loifman, ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasining uchtasini aniqladi: mavzu bo'yicha: 1) samarali reproduktiv: nusxa ko'chirish qobiliyati, 2) generativ: yangi variantlarni yaratish qobiliyati (ushbu elementlar va qoidalarga asoslanib); 3) konstruktiv-innovatsion: tubdan yangi narsa yaratish qobiliyati [1. 40]. Olim ushbu ijodiy faoliyatda shaxsning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishini ko'rsatadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyoslash, analogiya, kreativlik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Natija va muhokama. Bugungi kunda badiiy ijod jamiyatimizda kechayotgan ma'naviy poklanish, ilmiy falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsni kamol toptirish, o'z-o'zini anglash jarayonining muhim omili bo'lib xizmat qilishligini namoyon qilmoqda, bu hol o'z navbatida uning mohiyati, xususiyati, funksiyalarini umumfalsafiy tamoyillar asosida tadqiq etishni zaruran talab etmoqda. Vaholanki, ma'naviy qadriyatlarni, ildizini, o'tmishini chuqur anglamagan millat "ko'rsichqon kabi zulmatda yashaydi"[2.8]

Ushbu jarayonda yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishning muhim qirralari bo'lgan badiiy-estetik faoliyati masalasini o'rganish, tahlil etish va ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Garchi inson barcha ezgu va go'zal narsalarni anglash va his etish orqali ma'naviyat sarchashmalarini kashf etadi va ma'naviy qadriyatlarni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusdan birinchisi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan.[4] Shunga ko'ra barkamol insonni shakllantirishda ma'naviy taraqqiyotning muhim shartlari bo'lgan shaxs badiiy estetik faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan badiiy ijodni shakllantirish masalasini o'rganish, tahlil etish muhim ahamiyatga egadir.

Badiiy ijod muammolarini azaldan falsafa, estetika, psixologiya soha tadqiqotchilari turlicha talqin qilib kelgan bo'lsalarda, hozirgacha bahstlab masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda "badiiy ijod" atamasi asosan san'atkor faoliyati, ya'ni san'at asarlarini yaratish jarayonini ifodalovchi tushuncha sifatida ta'riflanib kelinmoqda. Ushbu atama «san'at», "badiiy faoliyat", "badiiy bilish" kabi tushunchalar bilan aynan ma'nolarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, badiiy ijod masalasini tadqiq etishda eng avvalo uning murakkab nisbiy mustaqil maqomga ega bo'lgan inson faoliyatining o'ziga xos usuli sifatida mavjudligi va ayni paytda ijtimoiy tizim tarkibiy qismlarining muhim ajralmas xususiyati ekanligini hisobga olish zarur. Masalan, rus tadqiqotchisi M.V.Koshkinaning fikricha, badiiy faoliyat ob'ekti bo'lgan san'at asari – ob'ekt, estetik qiymatga ega bo'lgan moddiy mahsulot, ijodiy mahsulot. Maqsadli

natijada yaratilgan ijodiy mahsulot shaxsning intellektual va ma'naviy qobiliyatlarining namoyon bo'lishiga asoslangan ijodiy faoliyat bevosita foydali, lekin ayni paytda qo'shimcha madaniy manfaatni ifodalovchi yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega.[5.7].

Ijodkor shaxs ayni vaqtda erkin, kreativ va tanqidiy tafakkurga ega bo'lishi bilan u yaratgan asar o'ziga xos ijodiy- ma'naviy mahsul san'at asariga aylanadi, bunday ijodkorlar sivilizatsiyani yangi bosqichiga yoki Renessans davriga alohida hissa qo'shadilar. Masalan, P.L.Lavrov ijodkor shaxsni tanqidiy tafakkur bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlar ekan: "Ular har qanday sivilizatsiyaga doimiy ta'sir etadi. Agar u haddan tashqari oz va haddan tashqari belgilab qo'yilgan ozchilik bilan cheklansa, u holda yo'q bo'lib ketish xavfi tahdid soladi. Agar u sivilizatsiyali ozchilik ichidagi tanqidiy fikrlaydigan shaxslarga rivojlanish imkonini bermasa, unga turg'unlik tahdid soladi",- deb izoh bergan edi. (6.72)

Ibn Sino o'zining "Risolate Hay ibn Yaqzon" ("Yaqzon o'g'li Hay, ya'ni Tirik o'g'li Hayot haqida risola") nomli risolasida insonning ijodiy imkoniyatlari quyidagicha izohlanadi: Inson o'zining bilish va ijodiy qobiliyatini to'la ishga solib, atrofidagi his-tuyg'u uyg'otuvchi dunyoni mustaqil ravishda tajriba vositasida bila oladi.[7:17]. O'zining bu fikri bilan Ibn Sino ijodni insonning borliqni anglash, o'zgartirish, takomillashtirish, o'zidagi intellektual kuch ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Ibn Rushd ijodni idealistik nuqtai-nazardan izohlaydi va uni ilohiy deb biladi, uning fikricha ijod jarayoni Xudo emanatsiyasi tufayli yuzaga keladi. [8]. Shunga ko'ra aytish mumkinki, badiiy ijod inson ma'naviy borlig'ining mahsuli sifatida noyob iste'dodning namoyon bo'lishi, ijodiy mahsulining "insayt" holatida yuzaga kelishi, "Ong usti" jarayonida sodir bo'lishidir. Bu esa ko'p ijodkorlarning noyob kashfiyot va yaratuvchanligiga turtki bo'lgan. Shuning uchun badiiy ijodda ijodkorning ruhan va botinan yetukligi uning "Ong usti" jarayonida ijod qilishiga turtki bo'ladi. Bu o'z navbatida yaratilgan ijod mahsuli ma'naviy yuksak san'at asarlari, qadriyatlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

Badiiy ijod serqirra estetik mohiyatga ega, keng ma'noda u sub'ektning badiiy faoliyatida alohida shaxsiy xususiyatlarni talab qiladi. Unda so'z, ijodkorlik, xayoliy fikrlash, tasavvur qilish, fantaziya, yechimlarga nostandart ijodiy yondashuv, voqelikni estetik jihatdan o'zgartirish istagi, hissiylik, hamdardlik kabilarni ko'rish mumkin. Bu xususiyatlar badiiy ijod mahsuli bo'lgan san'at asarlarining hissiyotlarsiz bo'lishiga, asarning ma'naviy qashshoqlashuvi, estetik ahamiyati ko'rinmay qoladi. San'at asarlarining jozibadorligi uni yaratuvchi ijodkorning ma'naviy-madaniy yetukligi va kreativligi, go'zallikni his eta olishi, hayoliylik va fantaziyasining shakllanganligi muhim xususiyat hisoblanadi. Bunday ijodkor shaxsning estetik dunyoqarashi, hiz-tuyg'usi shakllangan bo'lishi, estetik didi bo'lishi zarur. Xayoliy fikrlash, tasavvur qilish, fantaziya badiiy ijodning asosiy xususiyatlari sifatida yaratilgan san'at asarining jozibadorligini oshiradi.

Mamlakatimizning keyingi yuz ellik yillik tarixida so'z san'ati (badiiy adabiyot) zulm va istibdodga qarshi o'zining ozodlik va shaxs erkinligi uchun kurash an'alarini izchil davom ettirdi. O'zbekiston faylasuflari va jamiyatshunos olimlari emas, balki iste'dodli shoir va adiblar mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida avangardlik qilib kelyaptilar.

Ilmiy va badiiy-estetik ijodda shaxs shakllanishining umumiy va o'ziga xos jihatlari bir-biridan farqlash muhimdir. Olim shaxsi uchun aniqlik, rostgo'ylik, sobitqadamlik, izchillik, sistemalilik, faktlarga tayanish, erkinlik qanchalar muhim bo'lsa, badiiy ijod ahli – shoir

(yozuvchi) shaxsi uchun badiiylik, obrazli tafakkur, ko'pma'nolilik, polifoniya, xalqparvarlik, xalqqa mansublik, yana muhimi, milliy ruhni qalban his etish kabi xususiyatlar muhimdir.

Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog'liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda konkret insonning dunyo haqidagi bilimlari, tushunchalari, g'oyalarini tushunamiz. Badiiy asarda akslangan badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko'rilgan, uning ideali asosida ijodiy qayta ishlangan va g'oyaviy-hissiy baholangan voqelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq bo'ladi. Ijodkor qanchalik dunyo haqidagi bilimlari teran bo'lsa, borliq haqidagi tasavvuri, ilm-marifatdagi bilimi yetuk bo'lsa, uning tasavvurlari ham shunchalik boy bo'ladi.

Ma'lumki, har bir inson dunyoni o'zicha ko'radi, uni o'zicha idrok qiladi va o'zicha baholaydi. Qizig'i shundaki, hammamiz ham o'zimiz ko'rgan voqelikni real voqelik deb tushunamiz, holbuki, bu — voqelikning ongimizdagi biz ko'rolgan va idrok etolgan aksi xolos, ya'ni, individual borliqdir. Ijodkor shaxsi esa o'zining badiiy asarida o'sha ko'rgan voqelikni real voqelikni so'z boyligi, hayoliy tasavvurlari, fantaziyasi bilan boyitadi. Lekin tanqidiy fikr, keng dunyoqarash uning asarini badiiy qimmatini, g'oyaviy asosini to'ldiradi. Purma'no fikrlar uning qimmatini oshiradi. Real voqeylikni qattiq tanqid qilish bilan davr muammolarini ko'rsatib bera oladi, bu har bir ijodkorning o'z maqsadi, ideallari va g'oyasini, mafkurasi bilan o'quvchi e'tiborini qozonadi. Shunday ekan, bir joyda, bir davrda yashab turgan ikki inson ongidagi voqelikning aksi bir xil bo'lolmaydi. A.Qodiriy, Abdulla Qahhor romanlari, Ch.Aymatov, Said Ahmad kabi yozuvchilar o'z davrida tanqidiy va teran fikrlar bilan asar badiiy qimmatini oshirdi.

Taniqli adabiyotshunos, professor H.Jo'raevning ta'kidlashicha, "Biz borliqning poetik in'ikosini shoirning "Men"ligi orqali qabul qilar ekanmiz, demak, muallif obrazi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lishimiz lozim. Chunki har bir muallifning o'ziga xosligi, ijodiy prinsiplari, uslubiy qirralari, pozitsiyasi va h.o.lar uning "Men"i (shaxsi)dan boshlanadi" (9,3).

Tanqidchi, adabiyotshunos olim Hotam Umirov badiiy ijodning xususiyatlarini tahlil qilarkan, asar muallifi ijodkorning o'z "men"ini uning g'oyaviy-badiiy maqsadi bilan bog'laydi. "Yozuvchi muayyan goyaviy-badiiy maqsad asosida hayotni qayta yaratar ekan, xuddi ana shu maqsadning bir butunligini, maftunkorligini ta'minlashga qodir bo'lmagan keraksiz va foydasiz fakt va hodisalardan voz kechadi, eng xarakterli, zaruriylarini tanlaydi, saralaydi; o'zida (xotirasida, qalbida, zehnid) borini qo'shadi. Toki asar yaxlit va tugallik kasb etmaguncha bu jarayon uzluksiz davom etaveradi".[10.66] Bu jarayonda yozuvchi — ijodkor o'z ixtiyorida bor ob'ektiv va sub'ektiv imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalana olmasa, ijodiy ixtiro qilolmaydi deb hisoblaydi.

Tadqiqot xulosamiz shundan iboratki, badiiy ijod inson ma'naviy borlig'ining mahsuli sifatida noyob iste'dodining namoyon bo'lishi, ijodiy mahsulining "insayt" holatida yuzaga kelishi, "Ong usti" jarayonida sodir bo'lishidir. U serqirra estetik mohiyatga ega, keng ma'noda u sub'ektning badiiy faoliyatida alohida shaxsiy xususiyatlarni talab qiladi. Unda so'z, ijodkorlik, xayoliy fikrlash, tasavvur qilish, fantaziya, yechimlarga nostandart ijodiy yondashuv, voqelikni estetik jihatdan o'zgartirish istagi, hissiylik, hamdardlik kabilar mavjud. Bu xususiyatlar badiiy ijod mahsuli bo'lgan san'at asarlarining hissiyotlarsiz bo'lmasligiga, ijodkorning o'z "men"ini uning g'oyaviy-badiiy maqsadi bilan bog'langanligiga, asarning ma'naviy va estetik qimmatini yuksak bo'lishiga olib keladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Лойфман И. Я., Руткевич М. Н. Основы гносеологии. Екатеринбург: Банк культурной информатсии, 2003. 40-с.,
2. Тахогоди А.А., Лосев А.Ф. Жизнь и творчество. Философия, Мифология, Культура. М.: Политиздат. 1991 й. 8- бет.
3. Мирзиёев Ш. М. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар эзгу мақсадимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир. “Халқ сўзи” газетаси, 2017-йил 1-июл
4. <https://www.uzdaily.uz/uz/post/5328>
5. Кошкина М. В. Формирование экономического механизма творческой деятельности в некоммерческом секторе культуры и искусства: автореф. дис. ...д-ра экон. наук: 08.00.05.
6. Лавров П. Л. Философия и социология. Избранные произведения в двух томах. Т.2. – М., Мысл, 1965.
7. Абу Али Ибн Сина. Избранное В 2-х томах . Восточная философия (ал- Хикма ал - машрикина) Руководство по философии (Китаб ал - хидая) Трактат об этике (ар- Рисала фи-л-ахлак). Душанбе-Ашгабат.: Культурный центр Посольства ИРИ в Туркменистане - 2003,185.С. С-17.
8. Ренан Э. Аверроес и аверроизм: Исторический очерк. Пер. с фр. Изд.2- Москва: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2010. - 248 с.
9. Ҳабибулла Жўраев. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. Т., “Фан”, 2008. - 77 б
10. Notam Umirov. Badiiy ijod asoslar. — Т.: "O'zbekiston", 2001. 66- b

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF MEDICAL TOURISM IN IMPROVING THE INTERNATIONAL IMAGE OF UZBEKISTAN

Khashimov Sherakhan Jurakhanovich

Associate professor of the Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article analyzes the issues of medical tourism, its role and importance in the rise of the international image of Uzbekistan. Medical tourism, its legal basis, its relationship with other types of tourism, the role of medical tourism in the physical and spiritual development of a person are considered.

Key words: Medical tourism, the role of medical tourism in national tourism, joint travel destinations, medical tourism infrastructure, the trend of its improvement.

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИМИДЖИНИНГ ЮКСАЛИШИДА ТИББИЁТ ТУРИЗМИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Хашимов Шерахон Жўрахонович

Самарқанд Иқтисодиёт ва сервис институти доценти

Аннотация. Мақолада тиббиёт туризми, унинг Ўзбекистон халқаро имиджи юксалишида тутган ўрни ва аҳамияти масалалари таҳлил қилинган. Тиббиёт туризми, унинг ҳуқуқий асослари, туризмнинг бошқа турлари билан алоқадорлиги, инсоннинг жисмоний ва маънавий камолотида тиббиёт туризмнинг тутган ўрни масаласи кўриб ўтилган.

Калит сўзлар: Тиббиёт туризми, миллий туризмда тиббиёт туризмнинг ўрни, ҳамкорликдаги саёҳат йўналишлари, тиббиёт туризми инфратузилмаси, унинг такомиллашиб бориши тенденцияси.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N49>

Бугунги кунда Ўзбекистонда тиббиёт туризмини ривожлантириш масаласига катта эътибор қаратилмоқда. Тиббиёт туризми кишиларнинг асосий яшаш жойларидан ташқарида дам олиш билан бирга юқори малакали тиббий ёрдам олишини ўзида ифодалайдиган тушунчадир. Туристлар тиббий ёрдамни тоғ ён бағирларида, ўрмонзорларда, сув ҳавзалари атрофида, табиат қўйнида дам олиб соғлиғини тиклаши, шу вақтнинг ўзида профессионал медицина хизматидан фойдаланиши ҳам мумкиндир. Табиат қўйнидаги тиббиёт туризми шифобахш булоқлар, радонли сувлар, шифобахш балчиқлар, тузли ғорлар, арчазор тоғ ўрмонларида ташкил этилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлда қабул қилинган “Туризм тўғрисида”ги ЎРҚ-549-сон Қонунининг 5-моддасида туризмнинг шакллари ва турлари ҳақида маълумот берилиб, “Туризм ташкил этилаётган турнинг ўзига хослиги, мавзуси, давомийлиги, ҳаракатланиш усуллари ва турнинг бошқа

хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда маданий-тарихий, зиёрат, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, ишбилармонлик, ижтимоий, спорт, тиббий, ёшлар туризми, агротуризм ҳамда туризмнинг бошқа турларига бўлиниши мумкин” [1]лиги кўрсатилган.

Минтақамиз давлатлари билан қўшма сайёҳлик йўналишларини яратиш, Марказий Осиёда транспорт-логистика имкониятларини кенгайтириш, жумладан, “Бир тур-бутун минтақа” дастурини амалга ошириш диққатимиз марказида бўлмоқда, - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - Мухтасар айтганда, тиббий, экологик, гастрономик, этно, экстремал ва бошқа туризм йўналишларини ривожлантириш бўйича олиб бораётган ишларимиз ҳисобидан келгусида камида 1 миллионта янги иш жойлари яратишни мақсад қилганмиз[2].

“Patient's Beyond Borders” халқаро тиббий туризм ташкилотининг маълумотларига кўра, бу соҳа даромади халқаро туризмга ҳар йили ўртача 40 миллиард АҚШ доллари миқдорида даромад келтирмоқда. Тиббиёт туризмининг ривожлантириш бўйича Ҳиндистон, Венгрия, Мексика, Сингапур, Таиланд, Бразилия, Жанубий Корея, Туркия давлатлари бир мунча ютуқларни қўлга киритган бўлиб, Ўзбекистоннинг ҳам ушбу соҳадаги натижалари яхшиланиб бормоқда. Ўзбекистон Республикасидаги соғлиқни сақлаш ташкилотлари томонидан берилган таклифномага асосан чет эл фуқаролари учун 3 ой муддатга янги виза “Medical Visa” жорий этилди. Ўзбекистон Республикасида ҳам дам олиш ва соғлиқни тиклаш масканлари мавжуд бўлиб, Чорвоқ, Белдирсой оромгоҳлари, “Мерсиан”, “Ботаника”, “Турон”, “Зомин” каби 100 дан зиёд санаторийлар бутун дунёга машҳурдир. Ҳозирги кунда юртимизда 150 дан зиёд хусусий клиникалар, даволаниш марказлари аҳолига тиббий хизмат кўрсатмоқда [3].

Таъкидлаш жоизки, йилдан йилга санаторийларда ҳорижлик дам олувчилар сонининг ортиб бораётгани тизимдаги сиҳатгоҳларда туризм ва соғлиқни сақлаш интеграциясини ривожлантиришга қаратилаётган эътибор самарасидир. Шу мақсадда санаторийлар жаҳон андозалари талаблари даражасидаги тиббий асбоб-ускуналар билан жиҳозланиб, даволашнинг халқаро стандартларга мос янги усуллари ташкил этилмоқда. Хусусан, кейинги йилларда тизимдаги сиҳатгоҳларда даволашнинг янги технологиялари – азонотерапия, рефлексотерапия, психотерапия, спелиотерапия, СПА салонлар амалда жорий этилди. Натижада ўтган давр мобайнида санаторийларда 2,5 минг нафарга яқин узоқ ҳориж ва МДХ давлатлари фуқароларига соғломлаштириш ва реабилитация хизматлари кўрсатилди.

Бугунги кунда асосий мақсадлардан бири – мамлакатимиздаги санатор-курорт муассасалари фаолияти самарадорлиги ва хизматлар сифатини ошириш, улардаги замонавий технологиялар базасини кенгайтириш ҳамда санатор-курорт муассасалари фаолиятининг туристик ташкилотлар билан интеграциясини кучайтиришдир. Шунингдек, Республикаимизнинг санатор-курорт тизимидаги туристик ресурсларга ҳорижий шерикларни янада кенгроқ жалб этиш, бу орқали диёримиздаги бетакрор ва шифобахш иқлим шароитига ҳамда гўзал табиатга эга бўлган масканларни жаҳонга янада кўпроқ танитиш имкониятларини кенгайтириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратиш зарурдир.

Маълумки, бугунги кунда мамлакатимизда аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Мазкур соҳада амалга оширилган кенг қўламли саъй-ҳаракатлар натижасида Ўзбекистон аҳолисининг ўртача умр кўриш ёши узайиб, оналар ва болалар саломатлиги муҳофазаси юқори сифат даражасига кўтарилди. Соғлиқни сақлаш тизимининг босқичма-босқич ислоҳ этилиши натижасида аҳолига тиббий хизмат кўрсатишнинг самарали тизими яратилди.

Мазкур жараёнларда аҳолини соғломлаштириш ва соғлом турмуш тарзини жорий этиш масаласи ҳам муҳим ўрин тутди. Шу боис Ўзбекистон меҳнаткашлар ва уларнинг оила аъзоларини соғломлаштириш, меҳнат жамоаларида соғлом турмуш тарзи барқарорлигини таъминлаш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Айниқса, санаторийлар моддий-техник негизини мустаҳкамлаш мақсадида амалга оширилган катта ҳажмдаги қурилиш, таъмирлаш ва реконструкция ишлари, сиҳатгоҳларнинг энг замонавий тиббий асбоб-ускуналар ҳамда жиҳозлар билан таъминланиши, тиббиёт ходимлари малакасининг мунтазам равишда оширилиши натижасида тизимдаги санаторийлар нафақат Республикамиз аҳолиси, балки, ҳорижлик дам олувчилар эътиборини ҳам кенг жалб этмоқда.

Ўзбекистонга келаётган тиббиёт туризми соҳасидаги сайёҳларнинг сони ошиб, 2023 йилнинг 8 ойида мамлакатимизга 41 мингдан ортиқ хорижлик сайёҳлар даволаниш учун келган. Ўзбекистон Статистика агентлиги маълумотларига кўра, жорий йилнинг январь-август ойларида мамлакатимизга келган хориж фуқароларининг умумий сони 4,3 миллион кишини ташкил қилди[4]. Ўзбекистон бугунги кунда тиббиёт туризми учун жозибадор мамлакатга айланиб бормоқда. Сифатли тиббий хизмат ва замонавий асбоб-ускуналар мамлакатимизни хорижда даволанмоқчи бўлганлар учун энг қулай манзилга айлантормоқда.

Маълумки, қатор нуфузли хорижий оммавий ахборот воситалари 2020 йилда Ўзбекистонни саёҳатга албатта бориш тавсия этилган мамлакатлар қаторига киритди, - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - Биз бундай имкониятдан унумли фойдаланишимиз керак. Катта салоҳиятга эга бўлган зиёрат ва тиббиёт туризмни ҳам жадал ривожлантириш зарур[5, 174].

Бугунги кунда тиббиёт туризми республикамиз иқтисодиётидаги истиқболли соҳалардан бири бўлиб ҳисобланади.

Президентимизнинг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарорига мувофиқ Вазирлар Маҳкамасининг “2019-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида тиббий туризмни ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги лойиҳаси ишлаб чиқилиб ҳаётга тадбиқ этилди. Сайёҳлик ва соғлиқни сақлаш соҳалари бирлаштирилиб, улар орасида ўзига хос, ўзига мос алоқалар ўрнатилгач туризм ва тиббиёт соҳаларида сезиларли силжишлар кузатилди. Энг асосийси кишиларнинг асосий яшаш жойларидан ташқарига дам олиши билан бирга юқори малакали тиббий ёрдам олиши, юртимизнинг гўзал манзараларидан баҳра олиши баробарида соғлиғини тиклаши учун имконият эшиклари очилиб, янги имконият, янги қулайликларга эга бўлган ва уларга тиббий хизмат кўрсатувчи профессионал медицина имижини юртимизда

вужудга келди [6]. Тиббиёт туризми соҳасига янги ишланмалар, янги инновацион технологиялар кириб кела бошлади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда тиббиёт туризмини ривожлантириш масаласида қуйидаги масалаларга эътибор қаратилмоқда. Булар - нуфузли тиббий марказлар қошида пулик ва бепул тиббий ёрдам тизимини жорий этиш, медицина суғуртасини йўлга қўйиш, аҳолига медицина хизматини ташкил этишда нафақат давлат ёки хусусий мулк формаларидан фойдаланиш, балки қўшма мулкчиликка асосланган (масалан, давлат ва хусусий, чет эл) касалхона, кооператив, ҳиссадорлик жамиятлари каби бошқа мулк формаларига асосланган касалхона, профилактория, санаториялар, соғломлаштириш марказларини ташкил этиш, тиббий туризм соҳасида банд бўлган чет эл шифокор мутахассисларини жалб этиш, маҳаллий медицина ходимларини чет элда ўқитиш, малакасини оширишни рағбатлантириш. Бу йўналишда кетган сарф харажатлар учун солиқ юкини камайтириш, нодавлат тиббий туризм объектлар барпо этиш [7], кабилардан иборатдир.

Тиббиёт туризмини ташкил қилишда даволаш ва соғломлаштириш, курорт ва термал туризм марказлари, меҳмонхоналарнинг ишини ўзаро уйғунлаштириш масаласи ҳам бугунги кунда долзарб аҳамият касб этади. Аҳолига, хорижий давлатлардан ташриф буюрувчи фуқароларга хизмат кўрсатадиган тиббий марказларни ташкил этиш, уларни замонавий тиббий техник воситалар билан жиҳозлаш, тиббиёт ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш масаласига ҳам бугунги кунда катта эътибор қаратилмоқда.

2023 йил 30 апрелда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ПФ-158-сонли “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони эълон қилиниб, фармонга 58 илова “Ўзбекистонда ташқи ва ички туризми ривожлантириш учун кенг шароитлар яратиш орқали сайёҳлар сонини ошириш” деб номланган. Ушбу иловада “Туризм хизматлари экспортини 5 миллиард долларга етказиш, тиббиёт ва таълим туризми экспортини йилига 1,5 миллиард долларга етказиш” [8] вазифаси белгиланган.

Ўзбекистонда тиббиёт туризмини ривожлантириш фуқаролар саломатлигини таъминлаш, чет эллик туристларнинг ўз саломатлигини мустаҳкамлаш мақсадида мамлакатимизга саёҳатларни амалга ошириши, қўшни давлатлар билан тиббиёт туризм соҳасида ҳамкорлик алоқаларини кучайтириш, мамлакатимиз ва қўшни давлатлар ўртасидаги тиббиёт туризми объектларининг харитасини чизиш ва бу туристик алоқаларни амалиётга жорий қилиш асосида амалга оширилмоқда. Тиббиёт туризмини ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ишлар Ўзбекистоннинг халқаро майдонда имиджи юксалишига бевосита ўз таъсирини кўрсатиб келмоқда.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Туризм тўғрисида. 2019 йил 18 июль, ЎРҚ-549-сон. <https://lex.uz/docs/4428097>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat->

mirziyoevning-butunjahon-turizm-tashkiloti-bosh-assambleyasi-25-sessiyasidagi-nutqi

3. Низамов А., Рахимова Ю. Бизда тиббий туризм аҳволи қандай? <https://zarnews.uz/post/bizda-tibbiy-turizm-ahvoli-qanday>
4. <https://uz.tafsilar.info/obshhestvo/8-oy-ichida-zbekistonga-41-mingdan-orti-horizhlik-davolanish-uchun-kelgan/>
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил.
6. Тиббий туризм ривожланиш сари қадам ташлади. <https://telegra.ph/sv-01-28-26>
7. Низамов А., Рахимова Ю. Бизда тиббий туризм аҳволи қандай? <https://zarnews.uz/post/bizda-tibbiy-turizm-ahvoli-qanday>
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 11 сентябрь “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги №ПФ-158 Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

ANALYSIS OF VIEWS ON SUFISM IN THE LIFE AND WORK OF BOBORAHIM MASHRAB

Soatov Rasul Mukhitdinovich,

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This scientific article provides information about the life and work of the poet-thinker Mashrab, as well as analyzes the correct word about the philosophy and views of Mashrab, a firm thinker, openly speaking, hiding nothing, a fighter for justice and truth, a man with firm faith and mysticism in his poetry.

Key words: Mysticism, knowledge, heritage, Tariqa, socialism, secularism, history, Namangan, justice.

BOBORAHIM MASHRAB HAYOTI VA IJODIDA TASAVVUFGA DOIR QARASHLAR TAHLILI

Soatov Rasul Muxitdinovich,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mutafakkir shoir Mashrab hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar berilgan, shuningdek Mashrab falsafasi va qarashlari haqida to'g'ri so'z, qat'iy fikrli, hech nimani yashirmasdan ochiq gapiradigan, adolat va haqiqat uchun kurashuvchi, e'tiqodi mustahkam odam bo'lgan va she'riyatidagi tasavvufga doir fikrlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, irfon, meros, tariqat, ijtimoiylik, dunyoviylik, qissa, Namangan, adolat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N50>

Dunyo ilm-fani rivojida tasavvufiy-irfoniy meros, tasavvuf tariqatlari g'oyalaridagi fundamental uyg'un jihatlar, mutafakkirlar ijodini baholash, qiyoslash, umumlashtirish va ularda bayon etilgan sharqona odoxloq talablarini o'rganish bo'yicha amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Boborahim mulla Vali (Valibobo) o'g'li Mashrab ijodi bilan o'zbek adabiyotida xalqchilik, ijtimoiylik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid'atga qarshi kurash g'oyalarining kuchayishida, she'riyat shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o'rin tutgan so'z ustalaridan biri ekanligi yoritilgan.

Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki, ayni zamonda, adolatsizlik va zo'ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan qiluvchi, axloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib, mehnatkashlar manfaatini himoya etuvchi botirso'z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o'z ishonchli vakilini, o'z orzu-intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko'rgan.

Boborahim Mashrab hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar ko'p emas. Uning nomi XVIII-XIX asrlarda tuzilgan ayrim tazkira va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda (Muhammad Bade' Malehoning "Muzakkir ul-ashob", "Tazkirai Fahmiy", "Musavvai Abdushshukur Ziyoy", "tazkirai avliyo Majzub Namangoniyy") zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda kam, uzuq-yuluq va bir-biriga zid. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat "Devoni Mashrab", "Devonai Mashrab", "Eshongi Mashrab", "Hazrati shoh Mashrab" nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida juda keng tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi aniq belgilangan emas) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. [1.284-285-b].

Boborahim Mashrab ijodi bilan G'arbiy Yevropa olimlari ham qiziqqanlar.

Rus sharqshunosi N.S.Likoshin shoir Nodim yordamida Mashrabning hayoti va she'riy merosini o'rganadi hamda 1910 yilda "Qissai Mashrab"ni rus tiliga tarjima qilib, sharh va izohlar bilan nashr ettiradi. Professor V.A.Vyatkin shoir she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini maxsus tekshirgan. Mashrab ijodi A.Fitrat, I.Mo'minov, I.Sultonov, V.Zohidov, P.Shamsiyev, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, V.Abdullayev kabi yirik mutaxassis olimlar tomonidan keng tadqiq etildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor A.Abdug'afurovning qator ilmiy ishlari mashrabshunoslikka muhim hissa bo'lib qo'shildi. "O'zbek adabiyoti tarixi" besh jildligining III-kitobidagi u yozgan Boborahim Mashrab haqidagi maqola keng qamrovliligi, fikr va xulosalarining teranligi bilan ajralib turadi. Shoir asarlarini to'plab nashr etishda ham olimlarimiz katta xizmat qildilar. 1958 yildan 2004 yilgacha bo'lgan davrda Mashrabning she'rlar kitobi 7 marta va har gal to'ldirilgan holda nashr qilindi. Shoirning "Tanlangan she'rlar"i rus tilida chop etildi. Mashrab qissasi va g'azallari fransuz tiliga o'girilib, 1993 yilda Parijda bosib chiqarildi.

Ayrim adabiyotshunoslar Mashrabning qachon va qayerda tug'ilganligi, dunyoqarashi haqida munozarali fikrlarni oldinga surgan edilar. Shuning uchun "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasining 1959 yil, 24 mart sonida "Mashrab namanganlik emasmi?" degan maqola bilan chiqdik. Bunda Boborahim Mashrabning tug'ilgan shahri Namangan ekanligi, shu tufayli Mashrabi Namangoniyy nisbasi bilan yuritilishi manbalar yordamida ko'rsatilgan edi. [2.57-58].

Ayrim adabiyotshunos va faylasuflar, hatto xorijiy tahlilchilar ham Mashrabni andijonlik deb bilganlar, keyingi tadqiqotlar va shoir she'riyatidagi fikr-mulohazalar mutafakkirni namanganlik ekanligini isbotladi.

Qator manbalarda, chunonchi, Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Majzubning "Tazkirat ul-avliyo", Mirza Olim Toshkandiyning "Ansab us-salotin" asarlarida Mashrabning namanganlik ekanligi aniq aytiladi.

Jumladan, Mashrab falsafasi va qarashlari haqida shunday deyilgan: "Mashrab to'g'ri so'z, qat'iy fikrli, hech nimani yashirmasdan ochiq gapiradigan, adolat va haqiqat uchun kurashuvchi, e'tiqodi mustahkam odam bo'lgan. U butun umr haqiqat izladi, lekin haqsizlik, adolatsizlik, jabr-zulm, zo'ravonlik kabi illatlarga ko'p bora duch keldi. U Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan diniy-tasavvufiy oqimga e'tiqod qilib, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi qat'iy kurash olib borishga harakat qildi". [3.408].

Mashrab ijodi va uning og'zaki targ'ibotlari O'rta Osiyoga chegaradosh bo'lgan Sharq mamlakatlarining poeziyasiga katta ta'sir qildi. Biroq uning tasavvuf g'oyalaridan iborat ideyalari kishini voqelikdan va aktiv harakatdan chetga surardi. U: "Agar jabr-zulm ostida qolsang, buni xalqdan yashir" deb yozgandi. Uning bunday nasihatgo'y fikrlari albatta, mehnatkashlar ommasining siyosiy ongini oshirishga yordam bermasdi. Ikkinchi tomondan, antiklerikal ruhda yozilgan asarlari ma'lum darajada progressiv ahamiyatga ega bo'lib, din va musulmon ruhoniylarining hukmronligini tanqid qilishga qaratilgan edi.[4.595].

Mashrab yoshligidanoq devonavor hayot kechiradi. Devona Mashrab, Mashrabi devona deb nom taratadi. Nega devona nomini oldi? Gap shundaki, savdoyi kishinigina emas, ruhi-joni ishq ila band bo'lgan hamda so'fiyona hayot yo'liga kirib, Alloh vasliga yetishish ishtiyoqida o'zligini yo'qotgan kishini ham devona deyiladi. Mashrab mana shu xildagi devonadir. Dunyoni chuqur idrok etuvchi, u haqda atroflama mulohaza yurituvchi donishmand, faylasuf shoirdir. Uni Mashrabi valiyulloh, orifi rabboniy va oshiqi haqqoniy deya ulug'laydilar.

Boborahim ziyrak, zehni bola bo'lib o'sadi. Topqirligi, zukkoligi bilan maktabdagi domlasini ham, ustoz Mulla Bozor Oxundni ham lol qoldiradi. Diniy bilimlarni, arab va fors tillarini puxta egallaydi. Mashrab tasavvufiy bilimlarni yanada chuqurroq o'rganishni ko'zlab, mashhur eshon Ofoqxoja huzuriga, Qashqarga boradi. Mashrab yetti yil xojaning xizmatida bo'ladi. Bu yillar uning uchun sinov va chiniqish jarayoni sifatida kechadi. Lekin bir bahona bilan u bir umrga majruh qilinadi. [2.58-59].

Shoir bu yerdan ketgandan keyingi hayotini darbadarlikda o'tkazdi: Qashqar-Yorkent-Xo'jand, keyin yana Qashqar-Toshkent...

Boborahim otadan yosh yetim qolgan edi. Onasidan uzoq yillar judo bo'lib yurdi. 1673 yillarda u Namanganga onasi huzuriga keladi. Kasalmand onai zor o'g'lini ko'radi-yu, shukrlar aytib, olamdan ko'z yumadi. Shoh Mashrab onasi qabrida qirq kun tilovati Qur'on qiladi. Keyin esa mehribonidan judo bo'lgan, kimsasiz qolgan Mashrab yana shahardan bosh olib chiqib ketadi. Umrini turli o'lkalarda musofirlikda kechiradi: Xo'jand, Samarqand, Toshkent, Turkiston, Buxoro shaharlarida bo'ladi. Hindistonga, Yaqin Sharqdagi bir necha mamlakatlarga boradi. [2.59].

Darvesh, so'fiy shoir qalandarlikda dunyo kezib, xalq ichiga kirib borgan.

Boborahim otadan yosh yetim qoladi. Oilaning moddiy qiyinchiliklari yanada ortadi. Onasi ip yigirib tirikchilik o'tkazadi. Qissada bo'lajak shoirning go'dakligidanoq nihoyatda halol, ziyrak, to'g'riso'z bo'lganligi, hozirjavob va mushohadaligi bilan tengqurlaridan ajralib turishi alohida ta'kidlanadi. Har holda o'z davri bilimdonlaridan, xususan din asoslari va falsafadan durustgina boxabar bo'lgani uchun Namanganning so'fiy eshoni Mulla Bozor Oxund nomi bilan shuhrat qozongan Xo'ja Ubaydullo qo'liga tahsil takomiliga topshirilgan. Boborahim ma'lum muddat Mulla Bozor Oxunddan diniy ta'limot va so'fiy tariqatlari bo'yicha bilimni oshiradi, forsiy tilni o'rganadi, ayni zamonda, Sharq she'riyatini, xususan, uning yirik vakillari merosini qiziqish bilan mutolaa qiladi.

Taxminan 1665 yillarda Mulla Bozor Oxund tavsiyasiga ko'ra o'sha zamonda katta obro'ga ega bo'lgan yirik din arbobi qoshg'arlik Hidoyatullo Ofoqxoja eshon huzuriga boradi. Boborahim ko'p bilimlar sohibi, fozil Ofoqxoja sidqidildan murid tushadi, uni o'ziga murshidi komil deb qabul qiladi va yetti yil uning dargohida xizmatini o'taydi, yumushlarini bajarib, saboq oladi, muridlari qatorida kun kechiradi. qissalarda ta'kidlanishicha, she'riyatni yuksak

qadrlagan Ofoqxoja Boborahimning ijodiy iqtidorini yuqori baholaydi, hatto “Mashrab” taxallusini ham u tavsiya etadi.

Mashrab Qoshg'ardan 1673 yilda Namanganga-onasi yoniga qaytadi. Kasalmand onasining vafotidan keyin hech kimi qolmagan shoirning qo'nimsiz hayoti boshlanadi. Uning keyingi deyarli qirq yillik umri doimiy safarda, darbadarlikda, turli o'lkalarda musofirlikda o'tdi. Turli adabiy-tarixiy manbalar, shuningdek, qissa nusxalari Mashrab borgan shahar-yurtlari, safar tartibi haqida xilma-xil, ko'pincha biri-biridan farqli ma'lumotlar beradi. Ularda shoirning Samarqand, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Buxoro, Andijon, Badaxshon, Yaqin Sharqning qator o'lkalariga borganligi haqida so'zlanadi. Mashrabning adabiy merosida hayot yo'lining qator nuqtalari jumlasida yuqorida sanalgan shahar-o'lkalarning ko'plari zikr etiladi. Mashrabning biror shahar-qishloqqa kelishi izsiz o'tmas edi, ma'lum shov-shuvlarga sabab bo'lardi; oddiy xalq samimiyat va xursandchilik bilan, hokim, amaldorlar, riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushman ko'zi bilan sovuq qarshi olardilar. Mashrab qo'nimsiz hayotining so'nggi nuqtasi Balxda ham xuddi shunday bo'ldi: hokim tabaqa, riyokor ruhoniylar, mutaassib mullolar unga o'zlarining ashaddiy dushmani deb qaradilar va jisman yo'qotish niyatida bo'ldilar. Natijada, “Tazkirai Fahmiy”da qayd etilganidek, “dar soli 1123 hijriy dar Qunduz bafatvoi va hukmi Mahmudbiy Qatog'on shahid karda shuda”, ya'ni “1123 hijriy (1711 milodiy) yilida Qunduzda (Balx viloyatida) ulamolarning fatvosi va Mahmudbiy Qatog'on (Balx, Qunduz hokimi)ning hukmi bilan shahid bo'ldi”. Otashin shoir, dovyurak shaxs, jasur qalb sohibi Boborahim Mashrab osib o'ldirildi. U xuddi Mansur Xalloy va Imodiddin Nasimiy kabi hurfikr g'oyalari yo'lida, o'sha zamonadagi hukmron tabaqalar va johil ulamolar rasmiy siyosatiga nomuvofiq dunyoqarashi yo'lida qurbon bo'ldi. [1.286-287].

Navoiy va Mashrab tadqiqotchisi adabiyotshunos A.Abdug'afurov Mashrabni she'riyatda Navoiy an'alarining davomchisi deb biladi: Ulug' shoir ijodiy maktabini o'tab, she'riyatning yuksak cho'qqilariga ko'tarilgan ijodkorlardan biri Boborahim Mashrabdir. Rasmiy madrasalarda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan Mashrab Navoiy va Sharq adabiyotining boshqa buyuk namoyandalari tajribalarini iqtidorli shogird sifatida qunt bilan shaxsiy mutolaa vositasida egalladi. Mashrabning eng yetuk asarlarida Navoiy an'alarining aniq izlarini, ulug' shoir merosining g'oya va obrazlari bilan hamohanglikni, voqelikni navoiycha tahlili va talqinini ko'ramiz. [5.154]

Mashrab falsafiy she'riyatda, hech istisnosiz hazrat Navoiydan keyin yuksak she'riyati bilan o'ziga xos uslub yarata olgan jo'shqin ijodkordir.

Iste'dodli mutafakkirning so'zi Sharqda hamon betakror, ham Haq uchun dadil jangga kirganlarga hamdam, maslakdosh, ammo kecha-yu kunduz mol tilagida yurgan “o'z nafi bilan sargardon” kishilarning esa qattol dushmani.

A.Hayitmetov Mashrabni o'rganishda uni nafaqat shoir sifatida, balki avliyoligi va boshqa sifatlariga e'tibor qaratib o'rganishni tavsiya etib, u Sharq she'riyati namoyandalari ijodidan bahramandligini va Ofoqxoja dargohidagi faoliyatiga ham to'xtaladi: Biz shu paytgacha Mashrabni ko'proq shoir sifatida o'rganib kelmoqdamiz. Aslida u shoirgina bo'lib qolmay, “Mashrabi valiyulloh”, “Orifi rabboniy” va “Oshiqi haqqoniy” laqablari bilan ham mashhur. Bu tarixda, barcha manbalarimizda bor gap. Meningcha, Mashrab o'z faoliyatida dunyoviylik bilan diniylikni qo'shib olib borgan buyuk shaxs va buyuk ijodkordir.

Mashrab qoldirgan ijodiy merosda hayotiylik, tirik inson va uning insoniy kechinmalarini ifodalash, xislat-fazilatlarini ta'riflash, orzu-umidlari, shodlik-quvonchlari va

g'am-tashvishlarini haqqoniy tasvirlash ham salmoqli o'rin egallaydi. Bu mavzu asosan, hayotiy ishq-muhabbatni ulug'lash, go'zal yorni-ma'shuqa husn-u latofatini ta'riflash, oshiqning sevgi-sadoqatini, yor vasliga intilishini ishonchli tasvirlash jarayonida tahlil etiladi.[1.289-290].

Mashrab xalq orasida zo'r, iste'dodli shoir sifatida ham shuhrat qozona boshlaydi. Unda davr va davr ulug'lariga nisbatan uyg'ona boshlagan norozilik kayfiyatlari, faqat xatti-harakatlarida emas, balki she'rlarida ham o'z ifodasini topa boshlaganligi shubhasizdir.

Ularda shoirning Samarqand, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Buxoro, Andijon, Badaxshon, shuningdek, Yaqin Sharqning qator o'lkalariga borganligi so'zlanadi. Mashrabning adabiy merosida hayot yo'lining qator nuqtalari jumlasiga kirgan, sanalgan shaharlar – ko'plab o'lkalarning nomi zikr etiladi. Mashrabning biror shahar-qishloqqa kelishi izsiz o'tmas edi, ma'lum shov-shuvlarga sabab bo'lardi: oddiy xalq samimiyat va xursandchilik bilan, hokim, amaldorlar, riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushman ko'zi bilan sovuq qarshi olgan.[6.48].

Chunki Mashrab hech ikkilanmay ayrim riyokor amaldorlarni keskin tanqid ostiga olgan.

Qutbul olam Ofoqxoja Mashrab o'limini, uning Mansurvor dorida shahid ketishini, kushandasi Mahmud qatag'onbiy ekanligini bashorat qilgan edi. Jo'zjoniyning yozishicha, "Shoh Mashrabga uning murshidi Ofoqxoja, sen Mahmudxon nomli kishi tomonidan shahid qilinasan deb bashorat qilgan ekan. Mashrab har o'z ash'orlarida uning taqdiri Mansurga o'xshagan bo'lib, oqibatul amr Balx shahrida Mahmudxon qo'lidan shahodat sharbatini ichishi haqida eslatib yurgan".[7.144].

"Mabdai nur" asari haqida ilk mulohaza yuritgan adabiyotshunos M.Zokirov shunday fikrlarni bayon qiladi: "Mabdai nur" asosan Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"si ta'sirida yozilgan. "Mabdai nur" quyidagi tartibda bitilgan: asarning boshlanish qismida Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"sidan ilk bayt olingan va shu ilk bayt sharhi sifatida kirish qismi yozilgan. Bundan keyin shu "Masnaviy"dan turli baytlarni saylab olib bir qismining boshlanmasiga bitilib, undan keyin Mashrabning o'zi shu baytlarning sharhi sifatida turli diniy afsonaviy, axloqiy hikoyatlarini bergan.

"Mabdai nur" 176 ta diniy, afsonaviy, axloqiy hikoyatlardan, 30 ta ta'limiy parcha, 35 ta g'azal, 2 ta o'zbekcha, 1 ta arabcha mustazoddan iborat. [9.7].

Mashrab ijodida uning "Mabdai nur" va "Kimyo" nomli she'riy asarlari alohida o'rin tutadi.

Bu ikki asar muhim falsafiy, axloqiy, tarbiyaviy, ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, Mashrab asarlari sifatida xalq tomonidan o'qilib, og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Hech kim bu kitoblarni qandaydir Mashrabga nisbat bermagan. "Mabdai nur" va "Kimyo" haqida ilmiy fikr yuritish XX asr boshlaridan paydo bo'ldi.

Jaloliddin Yusupovning shaxsiy kutubxonasida, hujjat asrovida mutafakkir shoir ijodining 27 ta turli variantlari saqlanmoqda. "Mashrabning badiiy merosi" nomli mavzuda Jaloliddin Yusupov eshoni Shoh Mashrabning bizgacha yetib kelgan quyidagi asarlarini taxlil etib, ular haqida muxtasar ma'lumot bergan.

1. Lirik she'rlar: g'azallar, mustazodlar, murabba'lar, muxammaslar, musaddaslar, musabbalar va bir musamman, bir masnaviy hamda ruboiy va fardlar.

2. "Mabdai nur" ("Nurlarning boshlanishi" yoxud "Nurlar manbasi").

3. "Kimyo".

4. "Qissayi Vaysul Qaraniy".

5. "Qissayi Meroji Rasul Akram (s.a.v.)"

“Devon” dan Mashrabning avval e’lon qilingan, lekin totalitar tuzum davrida ba’zi bayt va misralari olib tashlangan, endilikda to’ldirilgan, buning ichida hali e’lon qilinmagan jami 380 ta g’azal, 21 ta mustazod, 4 ta murabba’, 78 ta muxammas, 7 ta musaddas, 2 ta musabba’, 1 ta musamman, 1 ta masnaviy, fardlar, to’rtliklar, lug’at va izohlar o’rin olgan.

Boborahim Mashrab tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida xulosa qilinganda, adabiyotshunos va faylasuflar ta’kidlaganidek, Mashrab she’riyatda Navoiy an’alarini izchil davom ettirgan shoir, o’zidan o’zbek she’riyatiga ulkan ma’naviy meros qoldirgan ulug’ mutafakkirdir. Shoh Mahmud Churosning “Torix” risolasida keltirilishicha, Mashrab hayoti murakkab kechgan va u bergan ma’lumotga ko’ra, shoir Qunduzda dorga osilgan, she’riyatidan ma’lum bo’ladiki, u mansurvordorni orzu etgan va shu yo’lda shahidi a’lo maqomiga yetgan.

Mashrab o’z davrida devon tuzmagan, biroq uning ilmiy merosi asrlar o’tsa-da, “Qissai Mashrab”lar orqali, og’izdan-og’izga o’tib, turli mutarjimlar qoldirgan asarlar orqali yetib kelgan va she’riyatning turli janrlarida uning axloqiy-ta’limiy, diniy-tasavvufiy merosi o’zbek xalqining ma’naviy mulki sifatida o’rganib kelinmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzlari. –T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 1999. –B. 284-285.
2. Xalilbekov Alixon. Namangan adabiy gulshani. “Namangan”, 2007. –B.57-58.
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1 kitob. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. –B. 408.
4. Mo’minov I.M. O’zbekiston SSR tarixi. –T.: 1970. –B.595.
5. Abdug’afurov Abdurashid. Buyuk beshlik saboqlari. –T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. –B. 154.
6. Xayrullayev M.M. Buyuk siymolar, allomalar. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1997. –B. 48.
7. Abdulhakim Shar’iy Jo’zjoniy. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. –B. 144.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND CULTURAL FOUNDATIONS OF THE CITY OF NASAF ON THE SCALE OF MOVAROUNNAHR

Ashurov Navfal Burxonjon o'gli

University of economy and pedagogy NEI,

Abstarct. As one of the scientific and cultural centers of Movarounnahr, Nasaf has always attracted many researchers. In the Middle Ages, there were four schools of hadith studies in Central Asia. In the middle ages, there were central schools in the city of Nasaf, where scholars from cities and large villages visited to learn from scholars. During the time of Abu Muin Nasafi, Nasaf was a major trade and craft center, where science flourished. Among the three great works of Abu Muin Nasafi, "Bahrul Kalam" has a special place and is the first published work.

Key words: Nakhshab, editor, hadith, mystic, Hanafi, farsakh, mausoleum, Kalam school.

MOVAROUNNAHR MIQYOSIDA NASAF SHAHRINING ILMIY-MADANIY ASOSLARI

Ashurov Navfal Burxonjon o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM,

Annotatsiya. Nasaf Movarounnahrning ilmiy– madaniy markazlaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotchilarni doimo o'ziga jalb etgan. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda to'rtta hadisshunoslik maktablari faoliyat ko'rsatgan. Nasaf shahrida o'rta asrlarda markaziy maktablar mavjud bo'lib, shahar va yirik qishloqlardan olimlardan ilm olish uchun tashrif buyurishgan. Abu Muin Nasafiy davrida Nasaf yirik tijorat, hunarmandchilik markazi bo'lgan va u yerda ilm-fan barq urib rivojlangan. Abu Muin Nasafiyning 3 ta katta asarlari orasida "Bahrul kalom" asari alohida o'ringa ega bo'lib, eng birinchi nashr ettirilgan asar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: naxshab, muhaddis, hadis, mutasavvif, hanafiy, farsax, maqbara, kalom maktabi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N51>

Kirish. Movarounnahr qadimdan insoniyatning taraqqiyot beshiklaridan biri sifatida Osiyo va Yevropa mamlakatlari madaniyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Movarounnahrda kalom ilmi taraqqiyotida muhim o'rin egallagan Abu-l-Muinan-Nasafiyning ilmiy merosini tadqiq qilish yurtimizda ma'naviy qadriyatlarimiz qaytadan tiklanayotgan davrda nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

XI-XII asrlarda Movarounnahrning bir qancha shaharlarida ilm-fan va madaniyat gullab yashnadi. Mana shunday shaharlardan biri Nasaf shahri edi. Nasaf Movarounnahrning ilmiy – madaniy markazlaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotchilarni doimo o'ziga jalb etgan.

O'zbekistonning janubiy sarhadlaridagi qadimgi va yirik daryolardan biri Qashqadaryo hisoblanib, uning havzasi atrofida qadimdan odamlar yashab kelganlar. Ularning hayot tarzi

mazkur daryo bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu hatto ularning urf-odatlariga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Davrlar o'tishi bilan Qarshi vohasiga qarashli hududlardagi ayrim joylarning nomlari unutilgan, ba'zan esa o'zgarishlar bilan hozirgacha saqlanib kelgan. Qashqadaryoning Navtak, Nasaf va Kesh, Koson, Furdina, G'uzor, Subax, Kojar, Ofron kabi shahar va qishloqlari o'tmishda o'ziga xos ilm-fan va madaniyat markazlari bo'lgan. Bularning orasida Nasaf shahri alohida o'ringa ega.

Adabiyotlar tahlili. Aksar manbalar, jumladan, Istaxriy, Ibn Hovqal va Maqsidiy kabi olimlarning asarlarida Nasaf nomi tilga olinadi. Qadimgi Naxshab arabcha Nasaf deb talaffuz qilingan. Chunki mahalliy aholi tilida bu joy qadimda Naxshab deb yuritilgan. Professor T.Nafasovning ta'kidlashicha, "naxshab" so'g'dcha so'z bo'lib, shaharning o'rtasidan oqib o'tuvchi daryoga nisbatan qo'llanilgan. Mashhur tarixchi olim P.Ravshanov "Naxshab" so'zini "suv bo'yidagi joy", deb atagan. Arablar bosqinidan keyin "Naxshab" o'rnida "Nasaf" nomi keng qo'llanilishga kiritilib, keyingi davrlarda ham shu nom saqlanib qolgan. [1; 108-b.]

XIV asrning boshlarida Naxshab yoki Nasaf o'rnida Qarshi atamasi qo'llanila boshlangan. Mo'g'ullarning Chig'atoy ulusidan bo'lgan Kepakxonning qurdirgan saroyi mo'g'ulchada "Qarshi" nomi berilgan. Ushbu saroy Nasaf shahrining o'rni Shullektepadan sharqda, hozirgi eski shahar hududida qurilgan.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda to'rtta hadisshunoslik maktabi: Marv, Buxoro, Samarqand va Nasaf mavjud edi. Hadisshunoslikning yirik markazi Nasaf shahrida Ahmad ibn Muhammad Tadiyoniy, Hammad ibn Shokir Nasafiy, Lays ibn Nosir Kojariy, Abdul Mo'min ibn Xalaf Nasafiy, XI asrda Abdulaziz ibn Muhammad Nahshabiy, Muhammad ibn Ahmad Baladiy, Hasan ibn Ali Hammadiya Nashabiy va boshqalar maktablari faoliyat ko'rsatgan.

VIII-XI asrlarga kelib Nasaf Movarounnahrning hadis ilmi markazlaridan biri sifatida tan olindi. Nasaf shahrida o'rta asrlarda markaziy maktablar mavjud bo'lib, bu shaharga Pazda (Bazda), Kasbi, Koson, Varsin, Yag'na, Novkat, Kuraysh, Ofuron, Zodak, Qalosiyy, Muda, Sanjan, Fijkat, Maymurg' kabi shahar va yirik qishloqlardan olimlardan ilm olish uchun tashrif buyurishgan. Nasaf vohasida muhaddis olimlar Kasbaviy, Kosoniy, G'ubdiniy, Ibsoniy, Pazdaviy, Maymurg'itdiy nisbalari bilan o'z faoliyatlarini yuritishgan. [2;36-b.]

Tadqiqot metodologiyasi. Abu Muin Nasafiy yashagan davrda Nasaf shahri ilm-ma'rifat jihatidan Movarounnahrda eng yirik ilmiy-madaniy markazlar-Samarqand va Buxorodan keyingi o'rinda turgan. O'rta asrlarda Nasaf vohasidan ko'plab olim va muhaddislar yetishib chiqqan. Ma'lumotlarga ko'ra, "Kitobul qand fi zikri ulamoi Samarqand" va "Kitobul ansob" kabi manbalarda keltirilishicha, VIII-XII asrlar davomida Movarounnahrda 3000 dan ortiq muhaddislar yashab, faoliyat yuritganlar. Ulardan 1000 dan ortig'i Samarqandda, 600 dan ortig'i Buxoroda yashagan bo'lsalar, shulardan 400 dan ortig'ining hayot va faoliyatlari Nasaf shahri bilan bog'liq. Qolgan 1000 muhaddisdan 70 dan ortig'i Shoshda, 60 dan ortig'i Farg'onada, yana shunchasi Keshda, 50 dan ortig'i Termizda, 40 dan ortig'i Xorazmda, shu bilan birga Ustrushana, Dabusiya, Kushoniya va boshqa mahalliy mintaqalarda faoliyat olib borganlar.

Ushbu manbalar Nasaf shahrining Movarounnahr miqyosidagi ilmiy-madaniy ahamiyatini ifodalaydi. Lekin yuqoridagi nasaflik 400 dan ortiq ulamolarning ayrimlari Nasaf vohasiga yaqin bo'lgan Pazda, Kasbi va Kesh shaharlariga mansub bo'lganlar. SHuningdek, nasaflik ko'plab ulamolalar ilmiy faoliyatining aksariyat qismi asosan Samarqand va Buxoroda o'tgan.

XII asrda yashagan marvlik jahongashta olim, Abu Hafs Nasafiyning kichik zamondoshi Abu Sa'd Sam'oniylar Nasaf haqida quyidagi ma'lumotlarni bayon qilgan: "Nasaf Movarounnahr shaharlaridan biri bo'lib, uni Naxshab deb ham ataydilar. Men u yerda ikki oycha yashab, ulamolaridan hadis eshitdim. Nasafdan har bir ilm sohasida ko'plab olimlar yetishib chiqqan bo'lib, ularning son-sanog'i yo'q Abu Tammom Hubayb ibn Avs o'zining xalifa Mu'tasimga yozgan qasidasida Nasaf haqida bunday deydi:

Rum ham o'z tubida berkinib tushar daxshatga

Turklar ham Nasafning ortidan qolar voxshatga. [3;32-35b.]

Abu Muin Nasafiy davrida Nasaf yirik tijorat, hunarmandchilik markazi bo'lgan va u yerda ilm-fan barq urib rivojlangan. Nasaf Samarqand shahri bilan chegaradosh bo'lib, o'zaro aloqalari juda mustahkam bo'lgan. Bu shahar XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilib, uning yaqinida XIV asrdan boshlab Qarshi shahri paydo bo'ldi.

Abu Muin Nasafiyning hayoti va ilmiy-ma'naviy merosi haqida Ibn Abil Vafo Qurashiy (v.775/1373 y.), Ibn Qutlubug'o (v.879/1474 y.), Toshko'brizoda (v.990/1582 y.), Hoji Xalifa (v.1067/1657 y.) va Muhammad Abdulhay Laknaviy (v. 1304/1886 y.) kabi olimlar o'z asarlarida uning to'liq ismini Abu Muin Maymun ibn Muhammad ibn Mu'tamid ibn Muhammad ibn Makhul ibn Fazl Nasafiy Makhuliy deb keltirganlar.

Abu Muin Nasafiy yana "al-Makhuliy" nisbasi bilan atalgan. Bu nisba bobosining ismidan olingan. Shuningdek, u bir qancha laqablar bilan atalgan. Masalan, alloma "al-Imomul ajal az-zohid" (Zohid va ulug' imom), "al-Faqihul hanafiy va sayful haqq" (Hanafiy faqihi va haq (Alloh) qilichi), "Jomi'ul usul" (Usullar jamlovchi) va "Rais ahli sunna val jamoa" (Ahli sunna val jamoa raisi) kabi nomlar bilan atalgan.

Lekin Sam'oniylar Abu Muinga nisbatan "al-Ibsaniylar" nisbasini qo'shib ataydi. Sam'oniylar Ibsan qishlog'ini Qarshi shahridan bir farsax (taxminan 5-6 km.) uzoqlikda joylashganligini ta'kidlaydi. Bundan Abu Muin Nasafiy ushbu qishloqda tavallud topganligi ma'lum bo'ladi.

Zamonamizning tadqiqotchilari yakuniy xulosaga kelib, Abu Muin Nasafiyning vafot etgan yilini hijriy 508, milodiy 1114 yil, deb cheklanadilar va uning tavallud topgan yili haqida ko'pincha ma'lumot bermaydilar. Lekin Ibn Qutlubug'o alloma 508 hijriy yili Zulhijja oyining yigirma beshinchi kuni yetmish yoshida vafot etganini ta'kidlaydi. [4;47-b.]

Hozirgi vaqtda Abu Muin Nasafiyning qabri Qarshi shahridan uncha uzoq bo'lmagan Qarshi tumanining Qovchin qishlog'ida joylashgan maqbara deb taxmin qilinadi. Ushbu maqbara hozirgi kunda mahalliy aholi tomonidan tabarruk ziyoratgohlardan biri sifatida qadrlanib kelinmoqda.

Abu Muin Nasafiy hayoti haqida tabaqot shaklida yozilgan bir qancha kitoblarda ma'lumot berilib o'tilgan. Lekin ushbu ma'lumotlar allomaning faoliyati haqida to'liq tasavvur hosil qilishimiz uchun imkon bermaydi. Chunki ma'lumotlarning deyarli barchasi bir xil.

Tahlillar va natijalar. Abu Muin Nasafiy hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, u dastlabki ta'limni ona shahri Nasafda olgan, keyinchalik ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Samarqandga, so'ngra siyosiy vaziyatlar ta'siri ostida Samarqanddan Buxoroga ko'chib o'tganligi o'rganildi. Nasafiyning ilmiy faoliyati davomida boshqa o'lkalarga safar qilganligi manbalarda deyarli uchramaydi. Biroq mutafakkirning "at-Tamhid li qavoidit tavid" asari noshiriyulloh Hasan Ahmadning ma'lumot berishicha, Nasafiy Damashqda Ali ibn Husayn Muhammad Balxiy Samarqandiyga hadis ilmidan saboq

bergan. Bundan shuni taxmin qilish mumkinki, Nasafiy Damashqda ham ilmiy safarda bo'lgan. "Tabsiratul adilla" asarini Nasafiy 1106 yili Buxoroda yozib tugatgan. [5;432-b.]

O'z davrining mashhur allomasi, olimi Abu Muin Nasafiy Samarqanddagi hanafiy kalom maktabining yirik allomasi Abu Mansur Moturudiydan so'ng shu maktabning peshqadam vakili sanaladi.

Abu Muin Nasafiy Moturudiy kalom maktabining yirik vakili sanalishi bilan bir qatorda nafaqat kalom ilmining allomasi, balki faqih va usulchi olim sifatida ham shuhrat qozongan ulug' siymolardan biridir. Bundan tahsqari, Nasafiy moturidiya ta'limotining yirik vakili sifatida e'tirof etiladi.

Nasafiylar sulolasining asoschisi va shu bilan birgalikda dastlabki vakili Abu Muti' Makhul ibn Fazl Nasafiy (v.318/930y.) hisoblanadi. Uning o'g'li Muhammad ibn Makhul ham mashhur olim bo'lib, hanafiylar orasida katta shuhrat qozongan edi. Uning nabirasi Ahmad Makhuliy (379/989y. Buxoroda vafot etgan) va jiyani Abul Ma'oliy Mu'tamid Nasafiy Makhuliy (v.X asrning 2-yarmi) ham hanafiy olimlar o'rtasida alohida mavqega ega bo'lgan. [6;56-b.]

Nasafiyning bobosi Abu Muti' Makhul Nasafiy (v.318/930y.) o'z davrining mashhur mutakallim, faqih, hadisshunos va mutasavvifi bo'lgan. U Yahyo ibn Mu'ozning (v.258/871 y.) shogirdi bo'lgan. Makhul Nasafiyning bir qancha asarlari haqida ma'lumotlar manbalarda keltirib o'tiladi. "Kitob fit tasavvuf" va "Kitobur radd ala ahlil bid'a val ahva" dan tashqari yana "Kitobul lu'liyot" va "Kitobush shu'o" kabi asarlar yozgani ta'kidlab o'tiladi. Turkiyalik olim Fuad Sezgin "Kitob fi fazli Subhon Alloh" nomli asarni ham unga taalluqli deb hisoblaydi.

Abu Muin Nasafiyning 15 ga yaqin asarlari bir qancha tarixiy, qomusiy manbalarda berilgan va eng katta asar "Tabsiratul adilla fi usulid din ala tariqatil Imom Moturudiy" asari hisoblanadi. [7;127-b.]

Abu Muin Nasafiyning hajm jihatidan mashhur "Tabsira" dan keyingi o'rinda turadigan asari bu "Tamhid li qavo'idit tavid" hisoblanadi. "Tamhid li qavo'idit tavid" asari 1986-yilda arab tadqiqotchisi Jiybulloh Hasan Ahmad tomonidan Misrning "Dorut tiba'atil Muhammadiya" nashriyotida nashr qilingan.

Xulosa. Abu Muin Nasafiyning 3 ta katta asarlari orasida "Bahrul kalom" asari alohida o'ringa ega bo'lib, eng birinchi nashr ettirilgan asar hisoblanadi. "Bahrul kalom" asari ik bor 1886-yili Iroqning Bag'dod shahrida tosh bosma usulida, keyinchalik bu asar Misrda 1911-yil qayta nashr etilgan. "Bahrul kalom" asarining so'nggi nashri 1997-yilda millati arab bo'lgan tadqiqotchi Valiyuddin Muhammad Solih Farfur tomonidan Suriyaning Damashq shahrida nashr etilgan. Islomshunoslik har bir avlodda yangilanadi va butun vaqt davomida mavjud bo'lib qoladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Daminov I.I. Abu Muin Nasafiy. – Samarqand-Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2013. – 108 b.
2. Uvatov U. Abu Muin Nasafiy hayoti va merosi. – T.: "Ma'naviyat", 2003. – 36 b.
3. Oqilov S. Abu Muin Nasafiy va "Tabsiratul adilla" asarining ahamiyati / TIU ilmiy tahlily axboroti. – 2002. -№ 1. – B. 32-35.
4. Xoliyorov I., Sharof SH. Hazrati Imom Muin ziyoratgohi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 47 b.
5. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994. – 432 b.
6. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – T.: O'qituvchi, 1991.56-b
7. Hasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom, Johiliya asri. T.: TIU, 2001.127-b

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

ENSURING GENDER EQUALITY IS A PRIORITY DIRECTION OF THE STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN

Urazalieva Gulshada Bekpo'latovna,

Candidate of Sociology, Associate Professor. Doctoral student of the National University of Uzbekistan.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the role of the gender strategy in the process of forming the New Uzbekistan and the objective foundations and subjective conditions of ensuring gender equality in the country. It covers issues such as creating equal opportunities and rights for the participation of men and women in social and political life, ensuring gender equality for all women, protecting against violence, ending human trafficking, developing gender education, social protection, and ensuring a healthy lifestyle.

Key words: gender, gender equality, gender education, strategy, women, social development, social protection.

ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ - ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ

Ўразалиева Гулшада Бекпўлатовна,

Социология фанлари номзоди, доцент. Ўзбекистон Миллий университети докторанти

Аннотация. Мазкур мақола Янги Ўзбекистонни барпо қилиш жараёнида гендер стратегиясининг тутган ўрни ва роли, ҳамда мамлакатда гендер тенгликни таъминлашнинг объектив асослари ва субъектив шарт-шароитларини таҳлил этишга бағишланган. Унда ижтимоий-сиёсий ҳаётда эркак ва аёлларнинг иштирок этишида тенг имконият ва ҳуқуқларни яратиш, барча хотин-қизлар учун гендер тенглигини таъминлаш, зўравонликдан ҳимоялаш, одам савдосига чек қўйиш, гендер таълимини ривожлантириш, ижтимоий ҳимоя, соғлом турмуш тарзини таъминлаш каби масалалар ёритилади.

Калит сўзлари: гендер, гендер тенглик, гендер таълими, стратегия, аёллар, ижтимоий тараққиёт, ижтимоий ҳимоя.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N52>

Кириш. Жаҳонда рўй бераётган глобал ўзгаришлар, интеграция ва модернизация демократик ҳаётга, кишилар онги ва тасаввурларига чуқур таъсир этиб, ижтимоий тараққиётни янги босқичга олиб чиқмоқда. Бу ўзгаришлар эса навбатида гендер тенгликни глобал воқеликка айлантирмоқда. Дунёнинг илғор, ривожланган давлатларида демократик қадриятлардан бири гендер тенглик ҳисобланади. Зеро инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашнинг энг муҳим омили – эркак ва аёл, жинслараро зиддиятларни, хотин-қизлар дискриминациясини бартараф этиш орқали хотин-қизларни ижтимоий ҳаётга жалб этиш, уларнинг оиладаги ролини умуминсоний қадриятлар нуқтаи назардан тўғри баҳолаш масалалари ҳозирги замон

жамиятшунослигининг, шу жумладан ижтимоий фалсафанинг энг долзарб муаммоларига айланган.

Ушбу нуқтаи-назардан, Янги Ўзбекистонни барпо қилиш жараёнида гендер стратегиясининг тутган ўрни ва мамлакатда гендер тенгликни таъминлашнинг мавжуд муаммоларини ўрганиш назарий ва амалий аҳамиятга эгадир.

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида гендер тенгликни, **аёлларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини** таъминлаш, хотин-қизларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий фаоллигини ошириш, **оналик ва болаликни ҳимоя қилиш масалалари** жамиятда оила ва никоҳни мустаҳкамлаш вазифаси билан узвий бирликда қаралади.

Адабиётлар таҳлили ва методологияси. Мақоланинг тадқиқот методологик асоси Гендер таълимотининг ижтимоий-фалсафий концепциялари, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёвнинг ушбу масалалар бўйича нутқлари, Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари ва ҳозирги замон жамиятшунос олимларнинг асарларида акс эттирилган илмий талқинлардан иборат.

Мақоланинг услубий асосини илмий билишнинг таҳлил ва синтез, тарихийлик ва мантиқийлик бирлиги, илмий ва қиёсий таҳлил, тадқиқотчи олимларнинг фикрларини умумлаштириш каби тамойиллари ташкил этади.

Муҳокама. Гендер тенгликни таъминлаш Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнидаги давлатимизнинг муҳим стратегик вазифаларидан бири ҳисобланади. Жумладан, Ўзбекистон-2030 стратегиясининг эришиладиган мақсадлар самарадорлик кўрсаткичларининг 25-банди “Ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш” йўналишида қайд этилганидек, “Гендер тенгликни таъминлаш сиёсатини давом эттириш, бошқарув лавозимларидаги хотин-қизлар улушини 30 фоизга ошириш” муҳим кўрсаткич сифатида таъкидланади. [1]

Янги Ўзбекистонда гендер масаласига янгича қарашлар ва янгича ечимлар амалга ошириш тизими йўлга қўйилди. Бу борада мамлакатда сўнгги йилларда самарали ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, гендер тенглик масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, соҳага оид 25 та қонун ҳужжатлари қабул қилинди. Гендер тенгликни таъминлаш масалалари бўйича комиссия, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатида “Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари кўмитаси” ҳам ташкил этилди.

Бугунги кунда Ўзбекистон парламентида хотин-қизлар сони БМТ томонидан кўрсатилган тавсияларга мос равишда парламентда хотин-қизлар сони қарийб 32 фоизга етди ва дунёдаги 190 та парламент орасида 37-ўринга кўтарилди. Бошқарув лавозимидаги хотин-қизлар улуши 27 фоизга, партияларда 44 фоизга, олий таълимда 40 фоизга, тадбиркорликда 35 фоизгача кўтарилди.

Ҳаётий тажриба шуни кўрсатмоқдаки, халқ фаровонлигида, жамият тинчлигида ҳамда иқтисодий барқарорликда эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлилиги муҳим ўрин тутди.

Президент Ш. Мирзиёев томонидан имзоланган «Хотин-қизларни қўллаб қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида»ги [2] қарори ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 15 ялпи мажлисида қабул қилинган “Ўзбекистонда 2030 йилга қадар гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ги қарорини қабул қилиниши ҳам жамиятда эркаклар ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлари ва имкониятларини рўёбга чиқариш учун шарт-шароит яратиш ҳамда

инсоннинг фундаментал ҳуқуқларига риоя қилиш, иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётда гендер тенглик тарғиб қилинишини таъминлашга хизмат қилиши шубҳасиздир.[3].

Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлаш стратегиясида барча учун тенг ҳуқуқли ва сифатли таълимни таъминлаш, қишлоқ жойларида қизларнинг олий маълумотга эга бўлиши, хотинқизлар гендер тенглигига эришиш, зўравонликка йўл қўймаслик, одам савдосининг олдини олиш каби масалалар қамраб олинган. Расмий манбаларга кўра, гендер стратегиясидан кўзланган асосий мақсад – барча аёллар ва қизлар, эркеклар ва болалар учун уларнинг ирқи, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, ижтимоий мавқеидан қатъи назар ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ҳаётдаги фундаментал инсон ҳуқуқларининг таъминланишига эришиш ҳисобланади.

Бунинг аҳамиятли жиҳати шундан иборатки, қабул қилинган мазкур стратегия 2030 йилгача Ўзбекистон гендер тенгликни таъминлаш учун қандай вазифаларни бажариши кераклигини аниқ равшан белгилаб беради ва 9 та мақсадни ўз ичига олган:

- ижтимоий-сиёсий ҳаётда эркек ва аёлларнинг иштирок этишида тенг имконият ва ҳуқуқларни яратиш;
- аёл ва эркекларнинг иқтисодиёт, бандлик ва меҳнат мигрантлари ҳуқуқларини ҳимоя қилишда гендер тенглигини таъминлаш;
- бутун ҳаёт давомида барча учун адолатли ва сифатли таълимни таъминлаш;
- барча хотин-қизлар учун гендер тенглигини таъминлаш, зўравонликдан ҳимоялаш, одам савдосига чек қўйиш;
- барча эркек ва аёллар учун ижтимоий ҳимоя, соғлом турмуш тарзини таъминлаш;
- миллий гендер статистикасини ривожлантириш;
- режалаштириш ва бюджетлаштиришда гендер масаласини инобатга олиш;
- ОАВда гендер муаммоларининг кенг ёритилишини таъминлаш;
- барча учун хавфсиз экологик муҳитни таъминлаш масалаларига хотин-қизларни жалб қилиш. Назаримизда, гендер тенгликка эришиш стратегиясининг ижроси, албатта, нафақат аёллар, балки эркекларнинг ҳам бу борадаги ролини ошириш орқали бажарилиши керак. Шунингдек, гендер тенглиги тушунчасини таълим жараёнида ёш авлодга тушунтириб бориш жамиятда бу масалага нисбатан янгича қарашнинг пайдо бўлишига замин яратади.

Бу борада Президент Ш. Мирзиёевнинг, аёлларга илм бериш-жамиятни илмли, салоҳиятли ва маърифатли қилиши тўғрисида гапириб, “Аёлни эъзозлаш - эзгулик ва адолат мезони” деган кўрсатмаси катта илмий ва амалий аҳамият касб этади. [4,47]

Шуни ҳам алоҳида таъкилаш лозимки, хотин-қизларнинг 1995 йили Пекинда бўлиб ўтган Тўртинчи Жаҳон Конференциясида муҳокама этилган масалалардан бири ҳам айнан аёлларнинг билим олишини таъминлаш ва касбий маҳоратни ошириш масаласи ҳисобланади.[5,18] Бу ҳолатни амалга ошириш эса аёлларнинг ўз кучи ва имкониятларига бўлган ишончини ошириш билан бирга жамиятнинг барқарор тараққиётини таъминлашда, ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларида уларнинг фаол иштирок этишини таъминлашга имконият яратади.

Таълим одамларга ҳаётда тенг имкониятларга эга бўлиш имконини берувчи ресурслардан биридир. Таълимда гендер ёндашувини жорий этиш ҳаёт давомида,

айниқса, мажбурий таълим даврида аёллар ва эркаклар учун мавжуд бўлган таълим имкониятларида гендер тенгликни баҳолаш ва рағбатлантиришни ўз ичига олади. Таълим аёллар ва эркаклар ҳуқуқларини таъминлаш ва жамиятда гендер тенгликка эришишда муҳим аҳамиятга эга. Таълим соҳасида гендер тенгсизлиги олий таълим даражасида яққол кўзга ташланади, бунда олий таълимга қабул қилинган 25 ёш ва ундан катта ёшдаги хотин-қизлар улуши 40% ни ташкил қилади. [5, 91]

Шунинг учун мамлакатда гендер тенглиги борасидаги реал вазиятни таҳлил қилиш учун илмий тадқиқотлар олиб борилиши ва гендер сегрегацияга йўл қўймаслик жуда катта аҳамият касб этади. Гендер тенгликни таъминлаш стратегиясида айтилганидек узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, хотин-қизлар ва эркакларни бутун умр давомида ўқишга бўлган имкониятларини рағбатлантириш лозим. Бу ўринда албатта гендер тенгликка эришиш стратегиясида айтилган ушбу мезонлар жуда ўринлидир:

- ижтимоий ҳимояга муҳтож хотин-қизларни олий таълим билан қамраб олинишини кенгайтириш;

- хотин-қизларни илмий фаолиятга кенг жалб қилиш, уларнинг замонавий ахбороткоммуникация технологияларига асосланган дастурий ишланмаларини, инновацион ғояларини, ихтирочилик, рационализаторлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш керак;

- замонавий педагогик технологиялар ва услубларни ҳисобга олган ҳолда мактабгача таълим, умумий ўрта, ўрта махсус, олий таълим муассасаларининг ўқув дастурларига гендер мавзусини жорий этиш орқали фуқароларнинг гендерга оид саводхонлигини юксалтириш кераклиги ҳам қайд этилган.


Дарҳақиқат, замонавий аёлга шунчаки саводли бўлиш: ўқиш, ёзиш, ҳисобни билиши етарли эмас, унинг олдида таълимнинг сифати, муаммоси пайдо бўлиб, доим мустақил таълим устида ишлаб, тинимсиз ўз билимларини орттириб, чуқурлаштириб боришни талаб этади. Хотин-қизлар орасида саводхонлик улар оиласида фарзандларнинг соғлиғини сақлаш, овқатланиш ва таълим олишини таъминлашда қўл келади.

Бу соҳада олиб борган тадқиқотлар оналар билими юқори бўлган оилаларнинг иқтисодий аҳволи яхши бўлишини, бундай оилаларда болалар жинояти кам содир бўлишини, билимли оналарнинг фарзандлари одатда доимо тўқ, яхши кийинган ва камроқ касалга чалинувчан бўлишларини, билимли онанинг фарзандлари фан ва техниканинг янги йўналишларини тезда ўзлаштириб олишларини, билимли она ўз ўғил-қизларига оила қуриш, уни парваришлаш, оиланинг моддий таъминоти ҳақида кўпроқ маълумот беришини ҳамда фарзандларига ўз жисми, саломатлигини сақлашни ўргатишларини кўрсатмоқда.

Натижалар. Илгари гендер тенглик муаммолари одатда аёлларнинг ижтимоий муаммоларини ҳал этишга, адолат ва холисликни таъминлашга қаратилган деб тушунилган. Бугунги кунга келиб эса гендер тенглик нафақат аёллар, балки эркакларни ҳам қамраб олган ҳолда масалалар сифатида қаралмоқда. Бинобарин, гендер тенгликка эришиш бутун Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиш учун янги имкониятлар деб белгиланмоқда.

Муаллиф томонидан мустақил равишда ўтказилган социологик сўровнома натижалари, гендер муаммолари Ўзбекистонда яшаётган аёллар учун энг муҳим эканлигини яна бир бор исботлади.

Респондентларнинг фикрича, меҳнат фаолияти жараёнида гендер тенглик муаммоларининг келиб чиқишининг асосий сабаблари ўзига ишончсизлик (43%), бир-бирини тушунмаслик (21%), моддий етишмовчиликлар (12%), анъаналар (11%) ва бошқалардан (13%) иборат деб биладилар. (Диаграмма - 1)



Олинган натижалар шуни кўрсатадики, аёллар миллий анъаналарни гендер тенгсизлиги манбаи сифатида кўришга мойил эмаслар. Тахминан ҳар ўнинчи одам бу нуқтаи назарга амал қилади. Доминант нуқтаи назардан, гендер муаммолари, асосан, томонлар ўртасидаги ўзаро тушунишнинг мураккаблиги билан боғлиқдир (сўровда қатнашганларнинг 64 фоизи). Бу гендер тенглигини таъминлаш соҳасида амалга оширилаётган ишларни янада такомиллаштириш ва томонлар ўртасидаги гендер маданиятини ва гендер сезгирликни шакллантириш зарурлигини билдиради.

Хулоса ва тавсиялар. Шундай қилиб, тадқиқотимиз бир томондан, гендер масалалари кўп қиррали ва мураккаб жараён эканлигини билдирса, иккинчи томондан эса, жамият учун гендер тенгликни таъминлаш бўйича давлат сиёсатидан барча аёллар манфаатдор эканлигидан далолат беради.

Таъкидлаш жоизки, жамиятда гендер тенглигини таъминлаш, аёллар масалалари соҳасида ҳали ҳам ўз ечимини кутиб ётган муаммолар талайгина. Уларнинг аксарияти жамиятимизда асрлар оша яшаб келаётган халқимиз турмуш тарзига сингиб кетган, ҳаётимизда чуқур илдиз отган анъаналар, оилавий муносабатлар, турмуш тарзи каби консерватив-патриархал ғоялар билан боғлиқдир.

Ўзбек оиласининг мавжуд модели чуқур ва мустаҳкам анъана ҳамда қадриятларга асосланган бўлиб, бу пойдевор қатъий ва бардошлидир. Бу эса оила моҳиятини сақлаб қолиш, глобаллашув ва модернизация жараёнлари даврида кечаётган ўзгаришлар қаршисида яшовчанлик ва давомийликка риоя қилиш имконини беради.

Энг асосийси, жамиятимизда гендер тенгликни таъминлаш учун истиқболли асослар, имкониятлар, ҳуқуқий асослар, давлатнинг қўллаб қувватлаш сиёсати мавжуд. Бизнингча, ушбу гендер истиқболли механизмларни амалга ошириш учун, гендер ёндошувнинг индивидуал, институтционал ва глобал даражадаги имкониятлар механизмини жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистонда гендер стратегиясини амалга оширишда қуйидагиларга эътибор бериш тавсия этилади:

- Юқори ва қуйи тизимдаги давлат органларининг раҳбарлик лавозимларига хотин қизларни тайинлаш амалиётини кенгайтириш;
- Гендер номутаносиблик мавжуд бўлган давлат органларида вақтинчалик квоталаш тизимини жорий қилиш орқали хотин-қизлар ва эркалар ўртасидаги мутаносиблик таъминлаш;
- Ижтимоий ҳимояга муҳтож ва кам таъминланган, айниқса қишлоқ жойларидаги оилалар хотин-қизларини иш билан таъминлаш, уларга муносиб меҳнат шароитларини яратиш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ўзини ўзи банд қилишга эришиш;
- Энг асосийси — хотин-қизларга нисбатан иш жойларидаги тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларининг олди олиниб, жамиятда уларга нисбатан шаклланган салбий қарашларга барҳам бериш.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони «Ўзбекистон – 2030» стратегияси 11 сентябр 2023 йил № УП-158 / <https://lex.uz/ru/docs/6600404>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг «Хотин- қизларни қўллаб қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида»ги қарори. /<https://uza.uz/uz/posts/hotin-qizlarni-qollab-quvvatlash-ularning-zhamiyat-hayotidagi-faol-ishtirokinitaminlash-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida> 246855
3. Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси Сенатининг «2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида»ги қарори. /<https://lex.uz/docs/5466673>
4. Мирзиёев Ш. М. «Янги Ўзбекистон стратегияси»- Т.: Ўзбекистон, 2021. 247-251 бетлар
5. Гендер статистикаси. Амалий қўлланма / Гендерная статистика. Практическое руководство [Матн] / Ф.Хамдамова, Х.Сайдивалиева, М.Рахимова, Д. Суфиева. - Тошкент: Vaktria Press, 2023. - 382 б.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF NATIONAL VALUES OF THE UZBEK PEOPLE IN THE SPIRITUAL AND SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Khudaynazarov Samad Khudayberdievich,
Associate professor of National University of Uzbekistan

Turgunov Azim Turgunovich,
Senior lecturer, (PhD), National University of Uzbekistan
turgunov_a@gmail.com

Abstract. The article reveals the role of the most important national values of the Uzbek people in the spiritual and social development of the individual and society and the modernization and integration of their national values, the problems and shortcomings of this process,

Keywords: national values, national culture, identity and society, modernization and integration.

JAMIYATNING MA'NAVIY - IJTIMOY RIVOJLANISHIDA O'ZBEK XALQI MILLIY QADRIYATLARINING O'RNI

Xudaynazarov Samad Xudayberdiyevich,
Dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti

Turg'unov Azim Turg'unovich,
(PhD), katta o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalqining eng muhim milliy qadriyatlarining shaxs va jamiyat ma'naviy-ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni hamda milliy qadriyatlarining modernizatsiya va integratsiyasi, ushbu jarayondagi yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklar ochib berilgan,

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, milliy madaniyat, shaxs va jamiyat, modernizatsiya va integratsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N53>

Kirish. Har bir jamiyatda milliy ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar asrlar davomida jamiyat va shaxsni shakllantirishda, ma'naviy va axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar xalqlarning etnik xususiyatlarini yaratadilar, ularning ma'naviy qiyofasini bezatadilar. Ma'lum bir etnik guruhning ko'p avlodlari tomonidan to'plangan o'tmishdagi ma'naviy madaniyatdagi qadriyatlarni yo'qotmaslik lozim, chunki yosh avlodni tarbiyalashda odamlarning ushbu sohadagi tajribasidan, ularning pedagogik an'alaridan foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

So'nggi yillarda voqeligimizning barcha sohalarida, davlat ta'lim tizimida ro'y berayotgan radikal-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar sharoitida yosh avlodni

ijtimoiylashtirish jarayonida ta'limni zamonaviylashtirish tendensiyalari paydo bo'ldi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida madaniy boyliklar va o'ziga xos milliy an'analarni saqlash va yanada rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

Millat milliy qadriyatning egasi sifatida ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib, yangilanib, rang-barang jihatlarni kashf qilib boradi. Shu asosda muayyan millatning nomi bilan kelajak zaminini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadriyat inson ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda uning xarakteri, dunyoqarashi, e'tiqodi, ishonchi, intilish darajasini belgilaydigan qiymat, o'lchovdir. Har bir tarixiy davrda jamiyatning rivojlanishi jarayonida turli xil omillar ta'siri ostida o'zgarishlarga duch keladigan muayyan qadriyat belgilari mavjud. O'tish davrlari bunda saralash rolini o'ynaydi, bu avvalgi me'yorlarni va jamiyatda o'rnatilgan ayrim qonun - qoidalarni bekor qiladi yoki turli sabablarga ko'ra eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgandek ko'ringanlarini qayta takomillashtiradi. Keyin esa yangi qadriyat ko'rinishlari paydo bo'ladi.

Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bu tushuncha ko'plab mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan, ular o'zlarining turlicha ta'riflarini bildirishgan. «Qadriyat bu voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha»[1]. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, qadriyat nafaqat muayyan jamiyatning, balki umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan barcha sohalarni o'z ichiga olib, bir necha sohalarda qo'llanadi.

Milliy qadriyatlarning eng muhim jihati shundaki, u o'tmish bilan bugunni, bugun bilan kelajakni bog'laydigan asosiy vosita rolini bajaradi. Hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallashaveradi. Qadriyat ham vaqtlar o'tgan sari o'zgarishi, bugun milliy qadriyat sifatida tan olingan qadriyatlar, yillar o'tib o'z ahamiyatini yo'qotishi, o'rnini boshqasi egallashi mumkin.

«Qadriyatlar muayyan millat va xalqlarning shonli va musibatli o'tmishi, tarixiy – madaniy tajribalari, saboqlari, shod va baxtiyor damlarining ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, urf – odatlar, rasm – rusum va marosimlar turmush tarzining shakliy ko'rinishlari sifatida xalq hayotining ma'naviy negizlarini tashkil etadi»[2]. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo'lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo'nalishini belgilaydi[3].

Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan va ko'pchilik manfaatlarini o'zida ifodalaydigan moddiy va ma'naviy tushunchalarnigina «milliy qadriyat» sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Milliy qadriyatlar milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi, millatga mansub kishilarning ongiga ta'sir qiladi, ular uchun ma'naviy mezonlar rolini o'taydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo yangilanib, avlodan-avlodga o'tib boradi.

Xalqimizning axloqiy shakllanishining ming yillik tajribasini to'plagan jamiyat, Islom madaniyatining ma'naviy - diniy asoslarini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotira, madaniy va tarixiy birlikni topish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Milliy qadriyatlar faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki, turmush jarayonida sayqallanib, yangilanadi, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan yanada boyib taraqqiy etib boradi. Har bir millatning madaniyatida o'ziga xos milliylik bo'ladi. Agar ana shu o'ziga xoslik milliylikni o'sha joyning aholisi qadrlasa, ular hayotining bir qismiga aylanishi mumkin. Aksincha holatlarda esa, yo'qolib ketishi mumkin. Migratsiya jarayoni milliy

madaniyat integratsiyasida alohida o‘rin tutadi. Kishi boshqa hududga o‘tar ekan o‘z navbatida o‘zining milliy madaniyatini boshqa hududda saqlab qolishi yoki o‘sha hududning milliy madaniyatini qabul qilishi ham mumkin. Shuningdek, boshqa-boshqa davlat vakillarining fuqarolari, ikki millat vakillarining o‘rtasida baynalminal oila qurilishi ham integratsiya jarayonini vujudga keltiradi.

Rivojlanish va taraqqiyot jarayonida, xususan integratsiya jarayonida bir qadriyatlar tizimi izsiz yo‘qolib ketmaydi, ikkinchisi esa o‘z-o‘zidan vujudga kelavermaydi. Tasodifan paydo bo‘lib qolgandek tuyuladigan yangilik ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u eskilik va zamonaviylikning hosilasi sifatida shakllanadi. Yangilikning har qanday shaklida eskining ba‘zi tomonlari, xususiyat va jihatlari saqlanib qoladi. Bu jarayonlar qadriyatlar tizimi uchun ham umumiydir. Bunda milliy-ma‘naviy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi. «Milliy-ma‘naviy qadriyatlar - murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki ma‘naviy boyliklarini qamrab oladi»[4].

Etnosning ma‘naviy boyligi har doim xalq pedagogikasi, ma‘naviy-madaniy va‘zlar, axloqiy ideallar, qarashlar, g‘oyalar, tarbiyaviy munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli, yosh avlodlarga milliy qadriyatlarni, ularning madaniy va ma‘naviy-axloqiy mazmunini etkazish bugungi kunda, ayniqsa ta‘lim sohasida dolzarbdir.

Shakllanadigan qadriyatlar tizimi, qadriyatlarning biror shakli yoki yangi jihatining hayot talablariga mos kelishi yoki mos kelmasligini amaliyot ko‘rsatadi. Vujudga kelgan navqironlik tarixiy taraqqiyotning o‘ziga xos oqimiga mos bo‘lsa, amaldagi qadriyatlar qatorida yashab qoladi. Agar u davr o‘tishi bilan, jamiyat rivoji talabiga javob berolmay qolsa, asta-sekin tarix sahifasidan tushib, uning varaqlari bilan birga yopilib ketadi. O‘tmishga aylangan, o‘rnini boshqa ijobiy yangilikka bo‘shatib bergan qadriyatning ba‘zi tomonlari izsiz yo‘qolib ketmasdan, ayrim sifat va xususiyatlari meros qoladi[5].

Bugun O‘zbekistonda azaliy sharqona qadriyatlarni tiklash asosida zamon realliklariga mos keladigan yangi qadriyatlar tizimini yaratish asosiy vazifalardan biri bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida tarixiy sinovlardan o‘tgan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan milliy qadriyatlar ustiga quriladi. Xususan, integratsiya jarayonida milliy qadriyatlar tizimi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masala bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlar asosida takomillashtirilib borilmoqda:

- asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarni rivojlantirish maqsadida keng jamoatchilikka uning mohiyatini tushuntirish;

- tarixan shakllangan madaniyat durdonalarini asrab-avaylash;

- ma‘naviy meros targ‘ibot mexanizmlarini takomillashrinish;

- millat tarbiyasida milliy madaniyatning o‘rnini yuksaltirish;

- rivojlangan davlatlar tajribalari asosida madaniy sohani yanada rivojlantirish;

- milliy qadriyatlarimizni asl holatini yoshlarga singdirish;

- yoshlarning turli salbiy oqimlarga kirib ketmasligi uchun milliy azaliy qadriyatlarimizdan foydalanishni yangi bosqichga ko‘tarish va boshqalar.

«Qadriyatlar hamisha muayyan fazilatlar tarzida namoyon bo‘lib, kishilarning voqelikka bo‘lgan munosabatlari mazmunini ifoda etadi hamda ularning fe‘l – atvorlari, sa‘y-harakatlari, yo‘nalishlarini belgilaydi»[6]. Qadriyatlar axloqiy qoida, axloqiy me‘yor va axloqiy tamoyillarni o‘zida namoyon etib, adolatparvarlik, haqiqatgo‘ylik, ezgulik, tinchlik, vanatparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar, o‘z navbatida burch, ma‘suliyat, vijdon, insof, andisha, or-nomus kabi axloqiy tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xalqimizning asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, o'zidan kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat ko'rsatish, ota-onani hurmat qilish, ularning ko'ziga tik boqmaslik, keksalarni qadrlash, bironing haqiga xiyonat qilmaslik, ehson qilish, hayo va andisha, oilani muqaddas deb bilish, muhtojlarga ko'mak berish kabi ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatimiz asosini tashkil etadi. Biroq ba'zi ardoqlab kelayotgan qadriyatlarimiz tobora o'z mohiyatini yo'qotmoqda.

Globalashuv jarayonining asosiy kuchi Internet, turli ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarimiz tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar, xususan kiyinish, muomala madaniyati, ota-onaga munosabat, axloqidagi salbiy holatlar ko'zga tashlanadi. Inson-eng oliy qadriyat bo'lishiga qaramay uning qadri toptalmoqda. Keksaygan chog'ida ota-onalar «Saxovat» uylariga, farzandlar «Mexribonlik» uylariga topshirilmog'ida. Qo'shnichilik, mahallalardagi ahil-inoq yashash munosabatlarida oqibat sezilarli darajada yo'qolgan. To'y va marosimlar kim o'zarga o'tkazilib, ortiqcha dabdababozlikka yo'l qo'yilishi holatlari uchraydi. Oilaning muqaddasligi o'z ahamiyatini yo'qotib, kundan kunga ajrimlar soni ko'paymoqda. Umuman olganda, bu sohada aytiladigan muammolar talaygina. Xususan, bugun yoshlar orasida urf bo'lib borayotgan ochiq-sochiq kiyinish, muomalada milliy tilga e'tiborsizlik, Yevropa mentalitetiga intilish kabi holatlarni ko'plab uchratish mumkin. Shu bois, milliylikni yo'qotadigan har qanday ongli yoki ongsiz jarayonlar millatni o'ldirish bilan teng kuchlidir. Millatning o'limi esa uning o'z ma'naviyati, madaniyatining yo'qolishi bilan tengdir. So'nggi yillarda ta'lim migratsiyasining kuchayishi universal madaniyatni vujudga kelishiga, jumladan «olomon madaniyati»ni kengayishiga xizmat qilmoqda.

Muhokama. Bugungi kunning asosiy muammosi-bu milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarni, ayniqsa yoshlar orasida, jozibali turmush tarzi, jinoiy aql, shafqatsizlik, erkinlik va mas'uliyatsizlikni namoyish etadigan xorijiy madaniyatning salbiy namunalari ta'siri bilan bog'liq holda "yemirilish" jarayoni hisoblanadi. Yoshlarning axloqiy e'tiqodlari va pozitsiyalarining beqarorligi, ularning yoshi va hayotiy tajribasining yetarli emasligi, ularning ongiga g'ayriinsoniy, axloqsiz va ekstremistik g'oyalarning kirib borishiga yordam beradi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ko'plab mamlakatlarda ba'zi urf-odatlar va milliy-oilaviy qadriyatlardan qisman yoki to'liq voz kechish amalga oshirilayotganiga qaramay, o'zaro bog'liqlikda milliy qadriyatlarni ifodalovchi marosimlar, urf-odatlar va an'analar saqlanib qolgan.

Jumladan, yoshlarni «ommaviy madaniyat» ta'siridan himoya qilishda oilaning o'rni beqiyos bo'lib, bunda ota-onalar farzandlariga nisbatan «ijtimoiy himoya»ni kuchaytirishi lozim. Har bir ota – ona o'z farzandini «ijtimoiy nazorat»ga olishi, ularda «madaniy immunitet»ni hosil qilmog'i lozim. Globalashuv sharoitida hayotimizni Internetsiz, ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etish qiyin. Bunday sharoitda har bir ota – ona o'z farzandiga e'tiborini yanada kuchaytirishi, o'z farzandini qo'l telefonidan, kompyuterdan foydalanishiga befarq qaramay, nazorat qilishi lozim. Uning salbiy tomonlarini oldini olib, ijobiy tomonlarini ko'rsata bilishi, buning uchun esa, avvalo ularda yetarli bilimlari mavjud bo'lishi kerak. Aynan bolaning o'tish davrida ularga e'tiborni susaytirmaslik zarur. Faqatgina dasturiy-texnik jihatdan emas, balki uni ma'naviy-ruhiy jihatdan ham turli yot g'oyalardan, axborot xurujidan farqlay olishida ko'mak berishlari muhim ahamiyat kasb etadi. «Zamonaviy insoniyat millatidan qat'i nazar bolaligidan o'quvchilar televezion dasturlarini, o'smirlik va yoshlik davrida bir xil musiqiy kliplarni, o'rta yoshda esa bir xil seriallarni tomosha qiladi. Odamlar bir xil yangiliklarni

o'xshash sharxlar bilan tinglaydilar, kiyim-kechakda bir xil urfga amal qilib kiyinadilar, bir xil fast-fudlar bilan ovqatlanadilar, bir xil tilda gapirishga harakat qiladilar, bir xil jihozlangan ofislarda ishlaydilar. Buning oqibatida yangi turkum «global fuqaro» ya'ni qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari bir xil odamlar paydo bo'lishi mumkin»[7].

Bugungi kunda eng rivojlangan davlatlar ham milliy madaniyat, milliy qadriyat kabi tushunchalar o'z mohiyatini yo'qotayotganligidan tashvishga tushmoqda. Xususan, ko'zga ko'ringan olimlardan biri S. Xantington o'zining «G'arbning halokati» kitobida AQShda vujudga kelgan vaziyatni chuqur tahlil etib, G'arb dunyosining tanazzulini, avvalo, madaniyatning yemirilayotgani, azaliy urf-odatlarining yo'qolib borayotgani, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarning toptalayotgani bilan izohlaydi[8].

Shuningdek, uning tarkibida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini targ'ib etuvchi kitoblar, filmlar, qo'shiqlar, axborotlar, reklamalar, e'lonlar vujudga keldi. Axloqiy buzuvchilikni, zo'ravonlikni targ'ib etishga ruju qo'yish g'arb mamlakatlarida oila degan muqaddas qo'rg'onga, azaliy qadriyat va an'analarga jiddiy putur yetkazmoqda. Eurostat statistik ma'lumotlariga ko'ra, Britaniyada bolalarning 50 foizga yaqini nikohsiz tug'ilmoqda. Agar shu jarayon davom etsa, kelgusi yillar ichida britaniyalik bolalarning yarmigina ota-ona tarbiyasini oladi. Kishilik jamiyatining asosi bo'lgan oilani keraksiz matodek ulotirib tashlayotgan jamiyatlarning kelajagini bundan ortiq tasavvur qilish ham qiyin. Shuningdek, ma'lum bo'lishicha, rivojlangan davlatlarda jinoyatga qo'l urib, qamoqqa tushgan voyaga yetmaganlarning aksariyati buzilgan oila farzandlari ekan. Bu holdan bugunga kelib G'arb dunyosining o'zi ham tashvishga tushmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar integratsiyasi muayyan millatni jahonda nufuzi oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Albatta har bir xalq o'zligini o'zining milliy xususiyatlarida ko'radi. Biroq modernizatsiyalashmagan har bir soha taraqqiyotdan ortda qoladi. Shuning uchun milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holatda takomillashtirib borish lozim.

Milliy qadriyatlar asosida ta'lim – tarbiya olgan farzand, kelajakda qayerda, qaysi muhitda yashashi va kim bo'lishidan qat'i nazar hech qachon o'zligini unutmaydi, hamisha vatanini sog'inib yashaydi, ona tilini hurmat qiladi, o'zbekona milliy qadriyatlarini aslo unutmaydi va o'zi ham farzandlarini shunday ruhda tarbiyalaydi. Asrlar osha saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz yoshlar dunyoqarashining kengayishini, axloqiy asoslarini yuksaltirishini barpo qiladi, bu esa uning yanada taraqqiy etishini ta'minlaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. -Toshkent, 2004.-B.858.
2. Aminova D.X. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo integratsiya va milliy madaniyatni takomillashtirish muammolari (Misr Arab Respublikasi misolida): siyos. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2010. –B.85.
3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. -B.19.
4. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Ma'naviyatimizning umrboqiy sarchashmalari. –Toshkent: Mehnat, 1997. -B.10.
5. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. -B.71.

6. Jo'rayev N. Yangilanishlar konsepsiyasi yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. –Toshkent: Ma'naviyat, 2002. –B.44.
7. Howard M. America and the World. -St. Louis: Washington University, 1984. -P. 6.
8. Bahodir Zokir. G'arb tamadduni:inqiroz alomatlarini // Tafakkur. –Toshkent, 2007. –№2. – B.12.

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI – PADAGOGICAL SCIENCES

Received: 20 May 2024

Accepted: 30 May 2024

Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

FORMATION OF LINGUOCULTURAL COMPETENCE IN STUDENTS OF 10-11TH GRADES BY MEANS OF NATIONAL PRECEDENT TEXTS

Suvanov Ilkhom Abdikhalilovich

Scientific Secretary of the Institute of Social and Spiritual Research of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment, Doctor of Philosophy (DSc)

e-mail: ilhoms1976@gmail.com

Abstract. In this article, ensuring interethnic harmony and religious tolerance is one of the most important criteria in the fight against information and ideological threats, and these two universal ideas are the theoretical, methodological and practical basis for the harmonization of national and interethnic relations in the national policy of the state.

Key words: information and ideological threat, interethnic harmony, religious tolerance, nationalism, religion, faith, neo-fascism, “preserving the purity of the nation”, “expulsion of emigrants”, “racial cleansing”, ksenophobia.

**AXBOROT-MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA
MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHNING
AHAMIYATI**

Suvanov Ilhom Abdixalilovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
Ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash eng muhim mezonlardan biri hamda davlatning milliy siyosatida milliy va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishda bu ikki umuminsoniy g'oya ham nazariy, ham metodologik, ham amaliy asos ekanligi masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot-mafkuraviy tahdid, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, millatchilik, din, e'tiqod, neofashizm, “millat sofligini saqlab qolish”, “emigrantlarni haydash”, “ irqiy tozalash”, ksenofobiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N54>

Kirish. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash eng muhim mezonlardan biridir. Zero, davlatning milliy siyosatida milliy va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishda bu ikki umuminsoniy g'oya ham nazariy, ham metodologik, ham amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasida qadimiy mushtarak

an'analarni rivojlantirishga imkon beradigan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ta'minlash sohasidagi keng qamrovli o'zgarishlar natijasi o'laroq, AQSh Davlat derartamenti tomonidan O'zbekiston diniy sohadagi "alohida tashvishli mamlakatlar" ro'yxatidan so'nggi 20 yil ichida chiqarilgan ikkinchi davlat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72 sessiyasidagi nutqida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomdagi maxsus rezolyusiyasini qabul qilish zaruratini asoslab, jumladan shunday dedi: "Ushbu rezolyusiya, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishiga qaratilgan" [1]. Ushbu rezolyusiya 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasida qabul qilinishi, dunyo miqyosida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga, xalqlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, bag'rikenglik xalqimizga xos xususiyat bo'lib, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Yurtimiz qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi va bir-biriga o'xshash bo'lmagan turli xalqlar, millatlar yashab kelayotgan zamindir.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, unda din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, u jamiyat hayotidan ajralgan emas. Qadim - qadimga borib taqaladigan ma'naviy - diniy an'analarga ega O'zbekiston kabi mamlakatda dinga munosabat masalasi jiddiy va xushyor yondashuvni talab etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi demokratik tamoyillarga sodiqligini ifodasi sifatda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatda quyidagi: dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish; diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish; diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik; ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati; dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish kabi tamoyillarga amal qiladi. Buning zamirida davlat tomonidan turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, shu kabi tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashishi, ular o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik va keskinliklarning oldini olishi, diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, diniy tashkilotlar zimmasiga davlat o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamasligi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmasligi kabilar yotadi.

O'zbekistondagi diniy va millatlararo totuvlikni saqlashga doir yuksak insonparvar siyosat, jamiyatdagi barqarorlik, o'zaro hurmat, hamjihatlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, muruvvat va shafqat, saxovat muhiti dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun havas qilishga va namuna bo'lishga arzigulikdir. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik jamiyatimizga tahdid solayotgan diniy negizdagi ekstremizm va fundamentalizmni kelib chiqishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Insoniyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi axborot xavfsizligining holati va terrorchilikning namoyon bo'lishi darajasi o'rtasida chuqur aloqadorlik borligini tasdiqlamoqda. Bu masala ayniqsa, ko'pmillatli davlatlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Ijtimoiy taraqqiyotning o'zgarishi, bir tuzumning o'rniga

boshqasining kelishi, xususan, sobiq totalitar tuzumdan voz kechish hamda yangi demokratik tuzumga qadam qo'yish, ijtimoiy hayotning turli sohalari tub islohotlarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini boshdan kechirayotgan ayrim davlatlarda millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi, buning natijasida esa ommaviy noroziliklar, huquqbuzarliklar, xalqlar o'rtasidagi ishonchsizlik, adovat, ekstremistik kayfiyatlarning o'sib borishi va uning o'ta chet ko'rinishi – terrorchilikka olib kelishini kuzatish mumkin" [2]. Turli ijtimoiy-siyosiy asosdagi terrorchilik tahdidiga samarali qarshi kurash olib borish bugungi kunda global darajadagi muammoga aylangan.

Bunday jarayonlar siyosiy-mafkuraviy sohaga ham katta ta'sir ko'rsatdi, mafkuraviy vakuum hosil bo'ldi, vatanparvarlik, burch, baynalmilallik, axloq kabi ijtimoiy hayotni mustahkamlovchi asoslar yemirildi. Ekstremizm, millatchilik, terrorizmni vujudga keltiruvchi omillar qayta tiklandi. Bunday determinantlarga jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi, siyosiy kurashning keskinlashuvi, ishsizlikning o'sib borishi va fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayotining turli sohalari va davlat tizimi darajalarida tarqalgan huquqiy nigilizm, separatizm tendensiyalarining kuchayishi, qonunchilikdagi kamchiliklar va boshqalarni kiritish mumkin.

Terrorizmni vujudga keltiruvchi va qayta tiklovchi determinantlar qatorida millatchilik alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, millatchilik- jahonning mustamlaka va metropoliyalar, qoloq o'lka va ilg'or davlatlar, ozod xalq va mustabidlik iskanjasidagi xalqlarga bo'linib ketishiga qarshi kurashuvchi demokratik, ma'rifatparvar hamda insonparvar kuchlardan farqli o'laroq, mavjud ziddiyatlarni o'z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo'yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqimdir.

Zamonaviy ekstremizm taraqqiyotida millatchilik terrorchiligi keng tarqalgan bo'lib, u o'ta shavqatsizlik bilan xarakterlanadi. Bizningcha, millatchilik terrorizmi millat yoki etnoslarning alohida huquq va manfaatlarini kamsitishiga qarshi qaratilgan kurashning noadekvat shaklidir. Oxir-oqibat u siyosiy maqsadlar, chunonchi: mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish, milliy davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilishini majburlash yo'li bilan o'zgartirish kabi maqsadlarga erishishga qaratilgan.

"Millatchilik terrorchiligi sub'ektlarining o'ta xavfli maqsadlariga mamlakat hududiy yaxlitligini buzish, u yoki bu hududiy birliklarni davlat tarkibidan chiqarib yuborish (milliy separatizm terrorchiligi), o'z mustaqil davlatni tashkil qilish kabilar hisoblanadi" [3]. Bunday harakatlarni amalga oshirishda odatda mavjud hukumat bosqinchilikda, milliy (etnik) genotsidni yoqlashda, milliy siyosat olib borishda turli milliy birlik va etnoslar haq-huquqlari poymol etishda ayblanadi.

Millatchilik-separatizm terrorchiligi terrorchilik aktlarini amalga oshirish, imkon qadar ko'proq kishilar ishtirokida to'palon va qo'zg'alonlarni uyushtirish, hokimiyatni qurol bilan qo'lga kiritish va boshqa shu kabi usullarga murojaat qiladi. Millatchilik terrorizmning keng tarqalgan turlariga milliy ekstremistik guruhlarining "irq sofligi"ni ta'minlash, aniq bir davlat aholini xorijliklar "xujumi"dan asrab qolish shiorlarini qo'llab-quvvatlanayotganlar kiradi. Bunday turdagi millatchilik terrorchiligi "ochiq" immigratsiya siyosatini olib boradigan va shu tufayli o'z qaramog'ida boshqa mamlakatlar vakillaridan iborat bo'lgan katta mustamlakalarga ega bo'lgan davlatlar uchun xos. Millatchilik terrorchilikning bunday ko'rinishi Germaniya, Fransiya, Angliya hamda AQShda kuzatiladi" [4].

Terrorchilik keng qamrovli hodisa bo'lib, u turli tabiatdagi omillar bilan determinantlashadi. Ammo, ular qatorida (terrorchilik oqibatlarini vujudga keltiruvchi nuqtai nazaridan) eng chuqur, kuchli va ijtimoiy jihatdan xavfli bu - millatchilikdir.

Millatchilikning yana bir jihati uning manfaatdor kishilar tomonidan sun'iy yoki real mavjud bo'lgan tahdidga qarshi kurash olib borish maqsadida alohida millat vakillarini uyushtirish va safarbar etish imkoniyatini yaratib berishidir. Bunday holat alohida individlar agressivligini to'plash, millatchilik ruhidagi shiorlar ostida birlashtirish, safarbar etish imkoniyatini tug'dirib, uni u yoki bu tahlkali shaklida namoyish etishga yetaklaydi.

Millatchilikka ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni vujudga keltirishning juda kuchli determinanti sifatida murojaat qilish uning ta'sir doirasi va makonini sezilarli darajada kengaytirish, xorijdagi milliy diasporalarning turli shakllardagi ishtirokini ta'minlash (chunonchi: mafkuraviy, moddiy, texnik, moliyaviy va boshqa ko'mak ko'rsatish; millatchilarga maqbul keladigan ijtimoiy fikrni shakllantirish; zaruriyat tug'ilsa davlat tuzulmalari, hukumat, xalqaro tashkilotlarga ta'sir o'tkazish va h.k.) orqali bitta davlat chegarasidan chiqib ketishigacha olib kelishi mumkin.

Muhokamalar. Millatchilik va terrorchilikning umumiyliги tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan tasdiqlangan, ikkalasi ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sharoitlar yomonlashganda, talafot, inqiroz va bir tuzumdan ikkinchisiga o'tish sharoitida vujudga keladi. Aynan shunday holat bugungi kunda jahonning qator mamlakatlarida (Angliya, Suriya, Rossiya, Ukraina, Moldaviya, Ozarbayjon va h.k) kuzatilmoqda.

Albatta, millatchilik hamisha ekstremizm va terrorchilikning namoyon bo'lishiga olib kelavermaydi. Millatchilikdagi konfrontatsiya va u bilan sug'orilgan ijtimoiy norozilik qo'shma bayonot, ultimatumlarni e'lon qilish, miting, manifestatsiya, namoyishlar uyushtirish, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlar elchixonalari, vakolatxonalari oldida namoyishlar o'tkazish va h.k. shakllarda o'z ifodasini topishi mumkin. Milliy kamsitilganlik (ustunlik, nafratlanish) hissi qator omillarga bog'liq: ziddiyat, ziddiyatning keskinlik darajasiga; millatning birdamligiga; milliy harakatlar yetakchilarining obro'siga; millatchilar e'lon qilayotgan maqsadlarga erishishda ishtirokchilarni manfaatdor qilishning usul va vositalariga; xalqning milliy-psixologik xususiyatlariga va h.k.

Millatchilik terrorchiligidan milliy (davlat) va xalqaro darajadagi siyosiy maqsadlarda foydalanishning zamonaviy sharoitlari millatchilik mohiyati hamda uni tashkillashtirish usullarini o'zgartirib yubordi. XX asr ikkinchi yarmida millatchilik terrorizmida sodir bo'lgan bunday o'zgarishlar qator tendensiyalarda o'z ifodasini topgan.

Fikrimizcha, ushbu tendensiyalarni belgilash nafaqat millatchilik terrorizmning insoniyat taraqqiyotiga global tahdid soluvchi rolini asoslash, balki unga qarshi kurash olib borishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish uchun ham muhimdir.

Millatchilikning kelib chiqishi va evolyusiyasini tadqiq etuvchi ko'pchilik xorijlik olimlar fikricha, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlardan iborat bo'lgan jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti millatchilik aktlarida ishtirok etishga tayyor turgan, u yoki bu millat ustuvorligini, alohidalikni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy guruhlar soni o'sib bormoqda. Ijtimoiy, iqtisodiy muammolar ko'payib borishi esa, o'z navbatida millatchilikning ijtimoiy asosini kengaytirib boradi [5]. Siyosiy beqarorlik yuksak darajada bo'lgan hamda siyosiy ekstremizmi tarqalib borayotgan ayrim hudud va mamlakatlarda millatchilik terrorizmi ijtimoiy asosining kengayib borishi millatchilik ruhidagi terrorchilik tashkilotlari aktiv faoliyatining zaruriy shartidir.

Fikrimizcha, "millatchilik terrorizmi ijtimoiy asosining kengayib borishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- jahonning turli mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy ziddiyatlarning kengayishi asosida ushbu ijtimoiy-siyosiy kurashga yetarli darajada siyosiy ong va madaniyatga ega bo'lmagan, siyosiy ekstremizm ta'siriga moyil bo'lgan qatlam va guruhlar vakillarining keng jalb qilinishi;

- ayrim mamlakatlar yoki hududlarda millatlararo ziddiyatlarning keskinlashuvi, ekstremistik va seraratik xarakterdagi millatchilik jarayonlarining faollashuvi, ularga aholi keng qatlamlarining jalb qilinishi” [6];

- turli hududlarda konfessiyalararo ziddiyatlarning tarqalishi, diniy va diniy-siyosiy ekstremizmning rivoji (avvalo islom xarakterdagi), ushbu asosda keng xalq ommasi ishtirokida davlatlararo va davlat ichidagi barqaror xarakterdagi siyosiy to‘qnashuv va ziddiyatlarning shakllantirilishi;

- jahonning turli hududlarida hududiy separatizmning keskinlashuvi, davlat ma‘muriy-hududiy tuzilishi, davlat ichidagi alohida hududlarning siyosiy-huquqiy makomini o‘zgartirish maqsadida qurolli kurashning vujudga kelishi va h.k.

Bugungi kunda ayrim jahon hamda MDH mamlakatlarida shakllangan siyosiy muhit ularda siyosiy ekstremizm kuchayishining ommaviy jarayonlari kuzatilayotganligini hamda ijtimoiy jihatdan xavfli shakllarida namoyon bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida millatchilik terrorizmni vujudga keltirishning zamini bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining bunday kechishi esa, bir tomondan aholi o‘rtasida ijtimoiy muhitni yaxshilashga ishonmaslik kayfiyatlarining o‘sib borishiga, ikkinchi tomondan esa, ekstremistik kayfiyatlari kuchli bo‘lgan, millatchilik ruhdagi guruh yoki qatlamlarning faollashuviga olib kelmoqda. Ma‘lum radikal kuchlar ta‘sirida millatchilik va diniy-ekstremistik nuqtai nazarda turuvchi aholining bunday guruhlari siyosiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatishning ekstremistik hamda ommaviy shakllarini o‘z amaliyotida qo‘llamoqda.

Natijalar. Millatchilik va ekstremizmni vujudga keltiruvchi ijtimoiy, sinfiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar mavjudligidan tashqari bugungi kunda uzoq muddatli hamda tahliqali xarakterga ega bo‘lgan qator yangi qarama-qarshiliklar paydo bo‘lmoqda. Ayni paytda kuchayib borayotgan migratsiya jarayonlarining kechishi hamda ularga mahalliy aholi tomonidan noadekvat reaksiyasining (millatlararo keskinliklar, ziddiyatlar, ayrim xolatlarda ommaviy-ekstremistik ko‘rinishdagi harakatlar) o‘sib borishi.

Bunday harakatlar tashabbuskorlari turli neofashizm, irqchilik tashkilotlar “millat sofligini saqlab qolish”, “emigrantlarni xaydash”, “irqiy tozalash”, ksenofobiya, ochiqdan-ochiq genotsidni oqlovchi shiorlar asosida tarafdorlarini uyushtirishga intiladilar (AQSh, GFR, Angliya). Bunday insoniyatga tahdid soluvchi g‘oyalarga qarshi kurash jahon hamjamiyatini asosiy vazifasi bo‘lmog‘i kerak.

Migratsiya jarayonlarining hamda ular asosida vujudga keladigan ijtimoiy xavfli konfliktlarning boshqa bir jihati - turli G‘arbiy mamlakatlar hududida (Sharqiy-G‘arbiy, MDH va Yaqin Sharq davlatlari) ochiqdan-ochiq millatchilikni qo‘llab-quvvatlovchi jinoyatchi etnik guruhlarning paydo bo‘lishidadir.

Millatchilik terrorizmni rivojlantirishdagi tendensiyadan biri - uning uyushgan jinoyatchilik bilan yaqinlashib borishi yoki birlashishidir.

“Bu jarayon turli davlatlarda turli darajada saqlanib qolmoqda hamda har bir mamlakatda uyushgan jinoyatchilik darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Uyushgan jinoyatchilik o‘z tabiatiga ko‘ra, noqonuniy maqsadlarga erishish yo‘lida kuch ishlatish, zo‘ravonlik, bosqinchilik, terrorchilik usullariga, hatto o‘z iqtisodiy manfaatlarni ifodalovchi aniq siyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida terrorchilik tashkilotlar ko‘magiga ham murojaat qiladi” [7].

Millatchilikning uyushgan jinoyatchilik bilan hamkorligi esa ijtimoiy-siyosiy jihatdan o‘ta xavfli bo‘lgan hamda mamlakatdagi millatlararo va elatlararo keskinliklarga sabab bo‘ladigan omilga aylanishi mumkin. Demak, “millatchilik davlat va jamiyat xavfsizligiga jiddiy

tahdid soluvchi omil sifatida nafaqat mamlakat ichida va xalqaro maydondagi vaziyatni keskinlashtirish, balki, odamlar o'limi, yo'qotishlar, talofatlar va boshqa salbiy oqibatlariga yetaklovchi keng qamrovli ijtimoiy ziddiyatlarni uyg'otishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, transmilliy jinoyatlarini kelib chiqishi va mavjud oqibatlarini bartaraf etish nafaqat muayyan davlatning, balki, mintaqa va dunyo miqyosida davlatlarning birgalikdagi harakatlari tufayli amalga oshirilishi mumkin" [8].

Xulosa. Millatchilik, ekstremizm, separatizmga qarshi kurash olib borishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

- millatchilik va uning asosidagi terrorchilik, separatizm, ekstremizm kayfiyatlari, niyatlari, maqsadlarining aholi keng qatlamlarida shakllantirishga mafkuraviy, axborot, tashkiliy jihatdan yo'l qo'ymaslik;

- jamiyatda norozilikni namoyon qilishning millatchilik usullariga yo'l qo'ymaslik, millatchilar bilan bitimlar tuzish yoki ularning ayrim talablariga yon bosish umuman mumkin emasligi haqidagi barqaror fikrlarni shakllantirishga erishish;

- millatchilik ruhidagi ekstremistik, terrorchilik guruh va tashkilotlarning paydo bo'lishiga huquqiy, axborot, ma'muriy hamda operativ mexanizmlar orqali yo'l qo'ymaslik;

- millatchilik shiorlar ostida birlashayotgan, millatchilik g'oyalarini mafkura darajasiga ko'tarib chiqayotgan kishilarning qurol yoki jinoiy harakatlarini amalga oshirishning boshqa vositalariga ega bo'lishga yo'l qo'ymaslik;

- millatchilik ruhidagi harakatlarning tayyorlanayotganligini dastlabki bosqichlarda aniqlash va amalga oshirishning oldini olish;

- millatchilik aktlarining sodir etishini operativ, jinoiy-huquqiy, ma'muriy yo'l bilan to'xtatish;

- xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, radikalizm, separatizm, millatchilik, irqchilikning xalqimiz tinchligi, yurtimiz farovonligi, Vatanimiz taraqqiyotiga rahna soluvchi yovuz kuch ekanligini nazarda tutgan holda ularga qarshi kurashni kuchaytirishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqish hamda ushbu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan foydalanish orqali aholining ongli ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish.

Shuningdek, axborot-mafkuraviy tahdidlarni keltirib chiqaruvchi, beqarorlikni yuzaga keltiruvchi, hamjihatlikni yo'qotish asosida turli qarashma-qarshiliklarni keltirib chiqaruvchi omil ijtimoiy ziddiyatlaridir. Ziddiyatlar har qanday rivojlanishga xos bo'ladigan jarayondir, u millatlararo munosabatlarda ham o'z ifodasini topadi. Eng muhimi, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar, jihatlar va qirralarini ko'ra bilish va o'z vaqtida oqilona hal qilishdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Залужный А.Г. Взаимосвязь между экстремистскими проявлениями в политической и религиозной сферах / под ред. А.В. Пчелинцева, Т.В.Толмачевой. - Москва, 2002.
2. Мелентьева Н. Размышления о терроре // Элементы. Евразийское обозрение. №7. - Москва, 1996.
3. Мирзиеёв Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 - Жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2018. - Б. 407 - 412.
4. Национализм: теория и практика (Сборник статей под ред. проф. Позднякова Э.А.). - Москва, 1994.
5. Основы борьбы с организованной преступностью // Под.ред. В.С.Овчинского, В.Е.Эминова, М.П.Яблокова. - Москва, 1996.
6. Полякова Е.Ю. Северная Ирландия: источник конфликтов. - Москва, 1990.

7. Причины распространения этнического экстремизма и ксенофобии среди молодежи (Центральный федеральный округ): Сб. материалов соц. исследования / под ред. Л.Я. Дятченко. – Белгород, 2008 ва бошқ.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеяси 72 сессиясидаги нутқи. “Халқ сўзи”, 2017 йил, 19 сентябрь.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

FAMILY AND UPBRINGING ISSUES IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna

Senior Lecturer, University of Economics and pedagogy,
dilliaxmedova66@gmail.com

Abstract. Family and upbringing issues have long been one of the main objects of research in the East. In this article are considered formation and education, opinion of our great thinkers about education and moral, as well as functions and dug the family on education youth.

Key words: education, spirituality, perfect person, person, youth, manners, society, family, parents, duty, task, social, responsibility.

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA OILA VA TARBIYA MASALALARI

Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna

Katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,

Annotatsiya. Oila va tarbiya masalalari Sharqda qadimdan eng asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu maqolada buyuk mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi qarashlarining yoshlarni tarbiyalashdagi roli ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, barkamol, inson, shaxs yoshlar, odob-axloq, jamiyat, oila, ota-ona, burch, vazifa, ijtimoiy, ma'suliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N55>

Kirish. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tarbiya va boshqa sohalardagi islohatlarning taqdiri, yurtimizning buyuk kelajagini barpo etish fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga, yuksak ongliligi, ijtimoiy faolligiga bog'liqdir. Shu sabab yoshlarning ongida elu yurtga, ona-Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini, ularning ota-onaga hurmat, qarindosh urug'iga, keksalarga, atrof-muhitga va tabiyatga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish dolzarb vazifadir. Ma'lumki, ushbu vazifani bajarishda, inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu-oiladir. Yoshlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim-tarbiyaga ega bo'ladi. Ta'lim-tarbiya, axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Bu borada albatta oila mas'uldir. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyot va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Zero, ta'limning, ilmning, tarbiyaning asosi oiladir. Shu bois xalqimizda azal-azaldan oila, ota-ona va farzand, er va xotin munosabatlari o'zgacha qadrlanib kelinadi. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz ham o'z asarlarida qimmatli fikrlarini bildirib o'tganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbir-al-manozil" asarida oilaviy munosabatlar, oilada er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, uning kelajak taqdirini belgilashda muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi faqat so'zdagina nasihatgo'ylik bilan tarbiyalamasdan, balki amalda ham bolalarga o'z xulqi bilan ta'sir qilishi kerak. U ota-onaning bolalar bilan olib boriladigan suhbatining sharti to'g'risida mulohaza yuritib: "Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko'rsangiz, yo'ldan adashmaysiz va to'siqlarga duch kelmaysiz", "Bolada yaxshi xarakter va xulq-atvor tarbiyalash uchun uning shaxsini hurmat qilish kerak, uni sevish va e'zozlash lozim. Uning oldida yomon gapirmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik kerak, lekin tarbiyada talabchanlik bo'lishi lozim", degan g'oyani ilgari suradi[1]. Oilada farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish-turishi, odo-xloqi, muomalasi, o'zgaralar bilan o'zaro munosabatida yaxshi fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Vaholanki bola tabiatan taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi rafiqqa – oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngul yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi" [2]. Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lumki, ayol oila turmushida erning haqiqiy sodiq yo'ldoshi, bola tarbiyasida yaxshi va yomon sifatlarining tarbiyaviy ta'siri beqiyosligi o'ziga xos tarzda ifodalangan. Aristoteldan bolani tarbiyasini qachondan boshlash kerak?-deb so'raganida: "Yotog'iga ko'ndalang yotadigan vaqtdan..." deb javob bergan, Lekin bizning ajdodlarimiz bolani tarbiyasini unga ona tanlashdan boshlash kerak ekanligini alohida aytib o'tganlar. Ayniqsa qizlar tarbiyasida onalar yaxshi sifatlarining namunasi bo'lmog'i lozimdir. Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bola tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi.

Oilada otaning bolalarga loqayd bo'lishi, sustkashlik qilib burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o'rgatmagani oqibatida u o'z farzandida zarur ijobiy hislatlarni shakllantira ololmagani kabi farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo'lib o'sadi. Odatda onalar ham tarbiya jarayonida o'z bolalarining yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini, qo'l urgan yomon ishlarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Oqibatda bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo'rqmasdan sodir etishlari mumkin. Shuningdek, ota-onalar farzandlariga mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilishi kerak.

Abdulla Avloniy: "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "...Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degani savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Bir kishi deyurki, qaysi onalarni aytursuz, bilimsiz boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarnimi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar" der. Mana bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, "Qaysi ota? To'ychi, ulochi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmoq, tarbiya qilmoq lozimdur", - der. Mana bu so'zni eshitgach umid qo'llari qo'ltiqqa urilur[3]. Shuningdek alloma ushbu so'zlarida ham tarbiyaning naqadar muhim vazifa ekanligini alohida takidlab o'tadilar: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"[4].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda O'zbekistonda ham mehnat resurslarining yarmidan ko'pi yoshlardir. Bu sharaflı vazifa jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy qatlamning ijtimoiy qiyofasi, tavsifini, fe'li orzu niyatlari haqida doimo bohabarlikni ta'minlashdan tashqari ular faoliyatini optimallashtirish, ezgulikka yo'naltirib turish, oxir oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalashga hissa qo'shishdan iboratdir. Shu bois prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yoshlar zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi zarurligi, buning uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinishini, ularga o'z vaqtida har tomonlama e'tibor qaratib, qo'llab-qo'vvatlasak katta-katta zafarlarni qo'lga kiritishlari muqarrar ekanligini aytib o'tgan edilar.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, oilada bolalarni tarbiyalashda, ma'naviy shakllantirishda, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ota-ona har tomonlama bilimdon, ma'naviy, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega ustoz bo'lishi lozim. Zero, ota-ona o'zining bilimdonligi bilan to'g'ri va aniq yo'l ko'rsatishi, atrofida sodir bo'jadigan yaxshi va yomon voqea-hodisalarga ijobiy va salbiy munosabat bildirishlarini faqat va faqat tarbiya orqali amalga oshiradilar. Oilada ota-ona o'z farzandlariga o'zlarinig kasbu-koriga sadoqat, qalbi bilan, ma'naviyati bilan, vujudi bilan, kuchi bilan vataniga, yashab turgan zaminiga mehr-muhabbat, xulq-atvori, bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmati, jamiyat va davlat oldidagi burchlarini qanchalik ado etishlari bilan farzandlariga ibrat maktabi bo'lishlarini unutmastliklari lozim. Shuningdek, Abdurauf Fitrat ham "Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi", - deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan edi.

Muhokama. Jumladan, sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Avloniy [7] Fitrat va boshqalarning asarlarida ham o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o'zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti, ma'naviy axloqiy muhiti, va boshqalar haqida qimmatli fikrlari mavjud. Biz o'rganadigan mavzu nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Sharq Aristoteli, jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta'siri to'g'risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Forobiyning fikriga ko'ra "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro

yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir". Forobiy er-xotin munosabatlarida uchraydin (hozir ham oilaviy hayotda) keraksiz urf-odatlardan voz kechish, baxt saodatga erishish yo'llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi"[6]. Yoki "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur". Biz tadqiqotlarimizda o'rganadigan muammo nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta'siri to'g'risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm so'rgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir"[8].

Xulosa. Shu o'rinda, oila, uning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyati, oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy[5] ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir. Jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama etuk insonni shakllantirish talablari ortib borayotganligi, bu esa oilada bolaga estetik, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yayotganligi hech kinga sir emas. Zero tarbiya bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalarga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Sharq mutafakkirlarining yuqorida ilmiy-madaniy merosiga murojaat qilar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasi, farzand kamoloti, insoniy fazilatlarining shakllanishi ular ijodining diqqat markazida bo'lishi bilan birga ular ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an'analari va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -183 б.
2. Abu Homid al-Gazzoliy. Ihyou ulumiddin. - Toshkent: Toshkent Islom univyersityeti, 2014. - 511b.
3. Yassaviy A. Devoni hikmat. –Т.;, G'.G'ulom, 1992. –208 b
4. Kaykovus. Qobusnoma. –Т.;, Meros, 1992. –176 b.
5. Sunani Termiziy». Hadislar to'plami. VI jildlik. I jild. Tarjimon
6. Kenjabek M. (Kenjaboev M.T.). –Т.;, 1999. –668 b.
7. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. - Т.: O'qituvchi, 2018. - B.34.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar.-Toshkent.: Hilol-Nashr, 2022 - 455 b.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

IBN KHALDUN'S VIEWS ON SOCIETY AND SOCIAL DEVELOPMENT

Kayumova Aziza Toshmuradovna

Associate Professor of the Department of Islamic History and Source Studies,
Philosophy, Bukhara State University

Abstract. The article provides an overview of Ibn Khaldun's views on social development and societal organization. By examining historical processes and social structures, Ibn Khaldun identified patterns in state formation and mechanisms of social evolution. His concept of *asabiyyah*, interpreting social relations through the lens of ethnic and cultural belonging, is analyzed. The paper illuminates the significance of his work for contemporary understanding of social processes and their historical dynamics.

Key words: development, thinking, society, law, state, man, concept, education

IBN XALDUNNING JAMIYAT VA IJTIMOYIY TARAQQIYOT TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Qayumova Aziza Toshmuradovna

Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ibn Xaldunning ijtimoiy taraqqiyot va jamiyatni tashkil etish haqidagi qarashlari to'g'risida umumiy ma'lumot berilgan. Ibn Xaldunning tarixiy jarayonlar va ijtimoiy tuzilmalarni o'rganib, davlat shakllanishidagi qonuniyatlar va ijtimoiy evolyutsiya mexanizmlarini aniqlaganligi tadqiq etilgan. Shuningdek, allomaning ijtimoiy munosabatlarni etnik va madaniy mansublik nuqtai nazaridan talqin qiluvchi asabiya tushunchasi tahlil qilingan. Maqola uning ishining ijtimoiy jarayonlar va ularning tarixiy dinamikasini zamonaviy tushunishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, tafakkur, jamiyat, qonun, davlat, inson, konsepsiya, tarbiya

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N56>

Kirish. Abu Zayd Abdurahmon Ibn Xaldun o'z davrining ko'zga ko'ringan ulug' mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Uning boy va serqirra ilmiy salohiyatining shakllanishiga sabab bo'lgan omillar allomaning bir davlatdan boshqa davlatga, sultonlikdan amirlikka sayohati, uning ko'chib yurishi, turli xil xalqlar bilan bevosita muloqotlari natijasida to'plangan katta hayotiy va amaliy tajribasi manbalaridan iboratdir.

Ibn Xaldunning jamiyat va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi ta'limotining shakllanishiga yunon faylasuflari asarlari ijtimoiy qarashlari, ilk o'rta asr donishmandlari xususan, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Ro'shd va boshqalarning ijtimoiy ta'limotlari, mutaziliylar g'oyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Maqolani yozishda tarixiy sosiologik tahlil hujjatlarni o'rganish, qo'l yozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish va mantiqiylik kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Ibn Xaldun shaxsini o'rganish, uning ijodiy faoliyati, madaniy-ma'naviy merosini tahlil va tajziya qilish tarixning barcha davrlarida o'rganilib kelingan, shu jumladan, Charlz Issayi, Muxsin Maxdi, Nassar Nasif, al-Makkari, Ahmed Nashat, Taxa Husayn, Muhammad Inon, Ibn Arabshoh va boshqalarning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiq². Shuningdek, Ibn Xaldun ijtimoiy qarashlarining shakllanishida buyuk davlat arboblarning bildirgan fikrlari xususan, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Ro'shd, Amir Temur, Ibn Arabshoh va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarini alohida ta'kidlash lozim. Ular Ibn Xaldunning ijtimoiy adolat, iqtisodiyot, mehnat, boshqaruv, axloq masalalariga doir konseptual yondashuvlari shakllanishida katta rol o'ynashgan.

Ibn Xaldunning ijtimoiy qarashlari G'arb olimlari U.De Slen, Frans Rozental, Silvestr de Sasi, Dj.Xammer, Yakob Greberg, Filippo de Bardi, F.Shuls, Alfred von Kremer, Lyudvig Gumplovich, Gulyelmo Fereyro, S.De Vilenois, T.Altamira, E.Bernxeym, R.Flint, D.Makdonald, U.Fishel va boshqalar tomonidan turli ijtimoiy fanlar doirasida tadqiq etilgan³. Shuningdek, XIX-XX asrlarda G'arbda makro va mikro jamiyat tuzilmalari va ijtimoiy institutlarning sosium o'rni va roli bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan yevropalik sosiologlar, jumladan, E.Dyurkgeym, M.Veber, E.Teylor, P.Sorokin, T.Adorno, E.Xarkxeymer, Markuze, T.Parsons, E.Fromm, E.Giddens va boshqalarning asarlari, nazariy qarashlarida Ibn Xaldun ilgari surgan sosiologik g'oyalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Ibn Xaldun hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha MDH olimlardan V.Bartold, A.Yakubovskiy, I.Krachkovskiy, Ye.Belyayev, N.Ivanov, S.Basiyeva, A.Ignatenko, S.Borodin, A.Gofmanlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

Mamlakatimizda insonning ustuvor mavqei, jamiyatning adolatli tuzilishi, taraqqiyot tendensiyalari, ijtimoiy boshqaruv va axloq masalalari bo'yicha olimlarimizdan M.Boltayev, A.Saidov, N.Jo'rayev, M.Bekmurodov, A.Xolbekov, Q.Nazarov, Sh.Sodiqova, B.Farfiyev, B.Karimovlar o'z tadqiqotlari doirasida Ibn Xaldunning ijtimoiy jarayonlar rivojlanishini nazariy anglashga doir fikr-qarashlarini ilgari surishgan.

Muhokama. Ibn Xaldun yunon faylasuflaridan Aflotunni o'zining ustози deb bilgan [1.57]. Aflotun asarlari bilan tanishar ekan, uning davlat, siyosat, boshqaruv, ilm-fan, diniy-e'tiqod haqidagi g'oyalarini chuqur o'rganib, ularning ma'naviy nazariy izdoshi sifatida o'z zamonasining mashhur bilimdoniga aylandi [1.57].

Ibn Xaldun Aflotunning ijtimoiy taraqqiyot va inson mavqei xususidagi fikrlarini ma'qullaydi, bular:

- 1) ilohiy g'oya mohiyatini anglash;
- 2) ilohiy g'oya talablarini hayotga singdirish;
- 3) diniy va dunyoviy tafakkur va bilimlarga ega bo'lish;
- 4) ilm va san'atning biror turini egallash [1.57], to'g'ri fikr qilish malakasiga ega bo'lish;
- 5) toza, halol hissiyot vositalaridan, masalan, musiqa tovushi, tasviriy san'atdan zavq-rohat ola bilish.

Ibn Xaldun Aflotunning har bir nuqtai-nazariga e'tibor bilan yondashib uni mufassal sharhlaydi. Xususan, Aflotunning to'g'ri fikr qilish malakasiga ega bo'lish deganda biror bir hayotiy voqea tahlil chog'ida masalani avval yaxshilik nuqtai nazaridan tushuntirishga intilish,

agar bunday tushunishga imkon bo'lmasa, o'sha hodisaning yuz berganligi mohiyatini anglashga intilish, kerak degan muhim sosiologik xulosaga kelgan.

Ibn Xaldun Aflotunning "ezgulikni anglash – Xudoni anglash, ezgulik tabiatiga ega bo'lish esa yaratganning mohiyatiga tegishli bo'lish, insonning ijtimoiy o'rnini belgilashda har bir kishi o'zligini, ma'naviy borlig'ini anglashi, buning uchun esa dastavval jamiyatining uzviy qismi sifatida o'zini his etishi va eng asosiysi o'z davlatining fuqarosi bo'lishga intilishi lozim", – deb qayd etadi [1.58]. Chunki, insonga xos bo'lgan bunday fazilatlarining barchasi Ibn Xaldunda mujassam edi.

Shu bois Ibn Xaldun tahlilida, Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari asosida Sharq halqlari uchun ham muqaddas tamoyil bo'lgan adolat g'oyasi mujassam. Ibn Xaldun Aflotunning quyidagi fikriga alohida e'tibor qaratgani diqqatga sazovordir: "Jamiyat a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir. Qayerdagi, qonunlar hokim ustidan hukmron bo'lsa, hokimlar esa qonunga qul bo'lsa, o'sha davlat gullab yashnaydi. Agar davlat qonunlar ustidan yaroqsiz hokimiyatni o'rnatib qo'yadigan bo'lsa, u holda qonun hech qanday foyda bermaydi, aksincha, davlat uchun juda katta ham moddiy, ham ma'naviy zarar keltiradi", – deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiyot rivoji davlatning gullab yashnashi yoki tanazzul omili hisoblanadi" [1.62]. Ibn Xaldun iqtisodiyotni inson ijtimoiy va moddiy xavfsizligini belgilovchi mezon va asos deb biladi.

Ibn Xaldun sosiologik qarashlarining aniqligi va tizimiyligi, mantiqiy qurilishi, har bir jarayonga aniq tarixiy nuqtai nazardan bergan baholari, ijtimoiy yondashuv va fikrlari o'z davriga nisbatan ancha ilgarilab ketgani uning madaniy merosini o'rganishning muhimligini ko'rsatadi. Mutafakkir hokimiyatning siyosiy shakllariga ta'rif berib, o'rta asrlardagi qabilaviy tuzilishga ega bo'lgan arab-musulmon idora usulini tahlil qilish asnosida muhim xulosalarga kelgan. Uning fikricha, "Hokimiyat inson uchun tabiiy ehtiyojgina bo'lmay, balki jamiyatning barqaror amal qilish zaruriyati hamdir" [1.108]. Ibn Xaldun har qanday tarixiy voqeelikka ijtimoiy tus berib, ijtimoiy mohiyat ildizlarini ochish orqali o'sha davr mohiyatiga, ijtimoiy-siyosiy muhitga, turmush tarziga baho beradi.

Ibn Xaldun yunon faylasuflaridan farqli o'laroq, hokimiyat turlarini musulmon davlatlarida tarqalgan xalifalik, amirlik, sultonlik kabi shakllarga ajratgan. Mutafakkir fikricha, davlatchilik ijtimoiy hodisa sifatida shariat qarashlariga mos ravishda hammaning diniy va dunyoviy manfaatlarini himoya qiladi. Shuningdek, uning g'oyalari qomusiy donishmand Arastu ta'sirida yo'g'irilganligini ham e'tirof etish joizdir [2.53]. Zero, Arastu o'z davridagi mavjud stratifikasion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab quvvatlagan. Uning fuqaro va adolatli davlat xususidagi qarashlari asosida Ibn Xaldun komil inson tarbiyasi konsepsiyasini ishlab chiqqani diqqatga sazovor. Unga ko'ra, komil inson jamiyat tartibotlariga ehtiromli, xalqi uchun vatanparvar, o'z davlati ijtimoiy, siyosiy tuzumiga sadoqatli shaxsdir. Binobarin, komil fuqaro tarbiyasi doimo har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi.

Komillik tizimidagi "davlat-fuqaro-inson" tartiboti Ibn Xaldunning davlat va jamiyatni mukamallashtirish iborat murakkab jarayon, degan sosiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida davlat rolini ustuvor, deb hisoblaydi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi ayrim shaxslar yoki alohida guruhlar qo'lga topshirib qo'yilmasligi lozim. Shuningdek, mutafakkir o'z qarashlarida davlat va jamiyatning maqsadlari mushtarak, ya'ni umumiy bo'lgan holdagina tarbiyaviy tizim samarador bo'lishini

ta'kidlab isbotlab bergan. U ijtimoiy jarayonga ta'rif berib, ijtimoiy jarayon imkoniyatlardan natijalarga o'tishga bo'lgan intilish ekanini qayd etgan.

Ibn Xaldun o'z qarashlarida jamiyatdagi barqarorlik, tenglik, adolat, mehr-oqibatning qaror topishini o'zining "birdamlik konsepsiyasida" ilgari surgan. Uning qayd etishicha, yolg'iz bir inson hayotiy vositalarni yaratish holati va qobiliyatiga ega emas, bunday holatga kishilar faqatgina bir-biriga yordam berish orqali nafaqat bevosita ishlayotganlarni, balki bilvosita boshqa katta guruh a'zolari ehtiyojini ham qondirishi mumkin. U o'zining "Muqaddima" asarida quyidagi xulosaga kelgan: "Agar odamlarga ularning tabiati va mohiyatiga ko'ra, ish tutish imkoniyati qo'yib berilsa, ular xudbin va yovuz bo'ladilar. Agar birortasi o'z tug'ishganining mulkiga ko'z olaytirsas, u yomonlik sari intilgan bo'ladi. Buni faqat hukmdor to'xtatishi mumkin. Hukmdor – bu jamiyat a'zolaridan biri bo'lib, boshqalardan o'z maqomi bilan baland turadi va odamlar bir-birlariga ziyon-zahmat yetkazmasligi uchun ularni boshqaradi. Shohlikning ma'nosi aslida mana shu" [1.112]. Chunki, allomaning bu boradagi qarashlarini uning shaxsiy faoliyatidan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo'lsak, mutafakkir o'z siyosiy boshqaruv faoliyatida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga aniq dalil, isbotlar asosida yondashib, ijtimoiy hayot muammolarini adolatli hal qilishga intilgani diqqatga sazovor. Shu bois jamiyat qonuniyatlari uning ijtimoiy ma'naviy, madaniy hodisa sifatidagi asoslari, davlat boshqaruvi va unda muayyan me'yorlarni vujudga kelishi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hech shubhasiz, Ibn Xaldunning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini shakllanishiga buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy g'oyalari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Zero, Forobiy tomonidan siyosat, davlat va hokimiyat to'g'risidagi fundamental g'oyalar batafsil ishlab chiqilgan. Bunda, Ibn Xaldun nazariyasiga mashhur mutafakkirlar, Ixvon as-Safo (X asr mualliflari), Abu Ali Ibn Sino (980–1037) va Ibn Ro'shd (1126–1198) larning ijtimoiy qarashlari hamda X asrda faoliyat yuritgan "Ixvon as-safo" guruhining risolalari kuchli ta'sir ko'rsatgan.

O'rta asr musulmon falsafasining vakillari siyosat muammolariga ko'pincha yunon falsafasiga, birinchi navbatda, Aflotun va Arastu qarashlariga izdosh hisoblanadilar. Yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan birinchi asar ham Aflotunning "Dialoglar"i hisoblanadi, bu ishni «Ixvon as-Safo» a'zolari amalga oshirganlar. Shuning uchun ham tasodifiy emaski, ularning ko'pchiligi siyosatni fozil shahar amaliyoti to'g'risidagi ilm-fan hisoblaganlar va bunday shaharga «fozil shahar» deb nom qo'yganlar. Ularning fikricha, bunday shahar nisbatan mustaqil, o'z aholisiga ega hududdagi muayyan jamoa yoki odamlar guruhi hisoblanib, ularning yashashi, umumiy maqsad va rahbariyati, ya'ni yagona hokimga ega kichik bir qishloqdagi arab xalifatchadir. Yunon siyosiy ta'limoti an'alarini musulmon siyosiy voqeligi bilan birlashtirish natijasida o'rta asrlik arab-musulmon falsafasining barcha masalalariga o'zining chuqur ta'sirini o'tkazgan.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, siyosiy xokimiyat fozil shahar boshqarilishini tashkil etish va saqlab qolish uslublarini o'rganib, shahar ahlining, qay tarzda yaxshi holat va ne'matga erishishini va bu holatga yetishish, uni saqlab qolishning yo'llarini ko'rsatadi [3.167]. Ma'lumki, Forobiy o'z qarashlarini to'liq tarzda "Fozil davlat arbobining "hikmatli so'zlari" va "Fuqarolik siyosati" nomli asarlarida bayon etgan. Bu asarlarda u hokimiyat boshqaruvi xususiyatlarini ko'rib chiqishga katta e'tibor bergan. Forobiy davlatni baxt-saodatga yetishish sharoitini yaratuvchisi tarzida talqin etib, hokimiyatning 2 antonim turi: johillar va fozillar davlatini bir-biridan farqlagani diqqatga sazovordir. Uningcha, faqat fozillar hokimlik qiladigan shahar, ya'ni davlatda yashovchilar bilim va ma'naviy ne'matga tayanib baxt-saodatga erishadilar. Faqat

mana shunday davlatdagina boshqaruvchilar shahar manfaatlariga mos ish tutishga harakat qilishadi.

Demak, Forobiyning fozil shahar davlatida odamlar oliy ne'mat va unga loyiq yashash tarziga yeta olishadi. Mana shunday shahar –davlatning asosiy belgilari, uning «johillar» davlatidan tafovuti shundaki, undagi tartibotlar barqarorligi va yashovchilarning turmush tarzi farovonligi hokim -boshqaruvchilarning axloqiy fazilatiga bevosita bog'liqdir. Shu bois Forobiy "fozil shahar" - davlatida, ma'rifatli hokimga katta e'tibor qaratib, u shunday shaxski, o'zining shaxsiy sifat - fazilatlarini bilan jamoaga namuna sifatida hamisha xolis javob bera olishi lozim", deya ta'kidlagan.

Forobiy ushbu shaharni kishilar ongli birlashmasining yetuk darajasi, deb hisoblagan. Keyinchalik bunday yondashuv an'ana sifatida ko'pgina G'arb olimlari asarlarida davom ettirilgan. Shuningdek, Forobiy shaharlarning barcha tamaddunlar davrida iqtisodiy qonuniyatlari, ijtimoiy qoidalari urf-odatlarini, o'zlariga xos xususiyatlari va tillari bilan farqlanishini, xalqlarning o'zaro farqlari qandaydir azaliy va tashqi kuch tomonidan emas, balki jug'rofiy muhit ta'sirida, xususan, suv, havo, ma'dan, o'simlik kabilarning ta'sirida shakllangan [3.170], deb qayd etgan.

Buyuk donishmandning bunday fikrlari keyinchalik Ibn Xaldun qarashlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Forobiy jug'rofiy muhitni jamiyat shakllanishining asosi, deb hisoblasa, Ibn Xaldun esa ijtimoiy muhitni insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim omili sifatida baholagan. Shu nuqtai nazardan, Ibn Xaldun inson turmush tarzi, uning ma'naviyati, tabiati hamda fazilatli g'oyalari bilan bog'lab, real voqelikdagi hayotni tubdan yaxshilashda muhim, deb bilgan.

Xulosa. Yuqoridagi ishlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, Ibn Xaldun faoliyatida jamiyat taraqqiyoti, uning farovonligi, adolat, mehr-oqibat, odamiylik, mehnatsevarlik kabi go'zal fazilatlarining shakllanishida, eng avvalo, buyuk siymolarning ma'naviy merosi kuchli ta'sir etganligi bilan ahamiyatlidir. Ularning qarashlari asosida buyuk mutafakkir jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish yo'lida o'zining bor kuch g'ayratini safarbar etishga harakat qilgan. Shu jumladan, Ibn Xaldun qoldirgan noyob ma'naviy meros asrlar osha insoniyatning ma'naviy-ijtimoiy yuksalishiga xizmat qilib kelmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. ابن خلدون. المقدمة. الدار البيضاء. مصر. 1912.
2. Аристотель. Сочинения. –Москва: "Мысль". 1976. Т.4. - 550 с.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: "Абдулла Қодирий", 1993. 330 б.
4. Sobirovich, T. B. (2021). The Strategy of Cultural Development in Central Asia During Amir Temur and the Temurids Dynasty. *Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies*, 2021.
5. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 443-451.
6. Sobirovich, T. B. (2021). The national and universal principles of democracy in the Central Asian context. *International Journal of Advanced Research and Review*, 6(1), 30-34.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

FEATURES OF SOCIO-CULTURAL FACTORS AFFECTING THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Gulamov Obid Gayratovich

Tashkent University of Architecture and Construction, Department of Uzbek language and literature, Senior Lecturer

g'ayratovich2020@mail.ru

Abstract. This article highlights the goals and objectives of the formation of sociocultural values among the youth of New Uzbekistan. In this area, conclusions were drawn based on the resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan and resolutions. Cabinet of Ministers. The article also highlights the issues of developing in young people such qualities as loyalty to the Motherland, enterprise, willpower, ideological integrity, kindness, responsibility, culture, innovative thinking, and hard work.

Key words: New Uzbekistan, spirituality, ideology, enlightenment, education, training, science, loyalty to the Motherland, entrepreneurship, willpower, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, hard work, youth.

YOSHLAR MA'NAVIY KAMOLOTIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-MADANIY OMILLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G'ulomov Obid G'ayratovich

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrasida, Katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda Yoshlarda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari yoritilgan. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan qarorlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanib xulosalar berilgan. Shuningdek maqolada, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, ta'lim, tarbiya, ilm, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik, yoshlar

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N57>

Kirish. Uchinchi Renessans asoslari shakllanayotgan O'zbekiston voqeligida yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlash strategik ahamiyatga molik voqea sifatida davlat siyosatidan o'rin olganligi e'tiborli. Ayniqsa, bugungi globalashuv sharoitida yoshlar qalbi va ongini egallash borasida turli tahdidlarning mavjudligi yoshlar tarbiyasi va ta'limiga asosiy e'tibor qaratib, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasida qator tadbirlar ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan

aytganda: “Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi”[1]. Demak, jamiyat a'zolari orasida hurmat va e'tiborning davomiyligini va uning doimiyligini ta'minlash uchun ham ma'naviy tarbiya masalalariga asosiy e'tibor qaratmog'imiz lozim. Ayniqsa, kelajak taraqqiyotimizni ta'minlovchi asosiy kuch bo'lgan yoshlarning ma'naviy barkamoligini ta'minlab borish xalqimiz va milliy davlatchiligimizning kelajak asoslarini mustahkamlashda muhimdir. O'zining kelajak istiqbolini o'ylagan har qanday jamiyat yoshlar tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratmog'i tabiiydir. Shu bois, xalq va davlat kelajagi deganda bevosita bugungi yoshlarimiz ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda yoshlarga oid siyosiy-huquqiy yondashuvlar kabi masalalarni O'.Abilov, G.Tulenova, Z.Qodirova, S.Mamashokirov, I.Saifnazarov, O.Musayev, A.Ochildiyev, E.Yusupov, J.Yaxshilikov kabi olimlar tadqiq etganlar. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy xavfsizligi va maqsadli faoliyatini tashkil etish, xorij tillarini o'rganishning ahamiyatini, siyosatshunos olimlar S.Jo'rayev, N.Jo'rayev, S.Atamuratov, Sh.Paxrutdinov, I.Ergashev, Q.Quronboyev, G.Masharipovalar ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik, globallashuv jarayonlarining yoshlar ongiga ta'sirini, pedagog olimlar A. Do'lanov, M.Quronov, M.Lafasov, Z.Madaliyeva, pedagogik tarbiya va ta'lim tizimi islohotlarining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi rolini ochib berganlar.

Muhokama. Yoshlarning ma'naviy kamolitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan madaniyatlar to'qnashuvi va g'oyalar jangi hodisalarining sabablarini o'z ichiga olgan globallashuv haqidagi qarash Professor S.Otamuratov tomonidan «Globallashuv insoniyat aql-zakovati, iqtidori va tinmay amalga oshirgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikasiyalar ta'sirida harakatga kelayotgan jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda, ana shu omillarning ne'mati hamdir»[2] deb ta'riflanadi. Muhammadjon Quronov asarlarida, ma'naviy-mafkuraviy xurujlar avj olayotgan shiddatli, shuning bilan birga tahlikali davrda bugungi kun yoshlarining qarashlarini to'g'ri yo'lga boshlashda milliy tarbiya yo'nalishlari, tajribalar va istiqbolli yo'nalishga doir ilmiy-nazariy, tarixiy, ilmiy-publitsistik fikr-mulohazalar qalamga olingan. M.Quronov [3] tomonidan keltirilgan falsafiy tahlillar mafkuraviy tahdidlar, madaniyatlar to'qnashuviasosan shaxs tafakkuri bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi. Shuningdek, faylasuf olim so'nggi davrda dunyoda ro'y berayotgan qonli to'qnashuvlar asosan diniy va milliy asosda yuz berayotganini hisobga olib, yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, ularga dinlarning tinchlikparvar, insonparvar g'oyalarini ochib berish nihoyatda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Boshqa faylasuf, siyosatshunos olim I.Ergashev [4] fikricha, jamiyat taraqqiyotida va yoshlar ma'naviyatiga havf solayotgan mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish mezoni bu global mafkuraviy havfsizlikni ta'minlash omillari, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish vositasidir, shuning uchun g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, madaniyatlar to'qnashuvi globallashuv jarayonlarining jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, V.Qo'chqorov, B.Zokirov, M.Xolbekov, Sh.Qahharova kabi ko'plab o'zbek olimlarining tadqiqotlarida, bildirgan fikrlari va qarashlarida mazmunida globalizasiya jarayoni butun insoniyatga ijobiy hodisalar olib kelishi bilan birga o'zining salbiy qirralarini ham namoyon

qilayotganini, globalizasiya jarayonlari o‘zib borishi bilan fanga «dinlararo muloqot», «dinlar to‘qnashuvi», «madaniyatlar kurashi», «demokratiya eksporti» kabi tushunchalar kirib kelgani, bular ichida ayniqsa «madaniyatlar to‘qnashuvi» tushunchasi dolzarbligining ijtimoiy tahlilini tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin. Aksariyat ko‘pchilik ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni lotin tilidagi «globus» shar, fransuz tilidagi «global» umumbashariy so‘zlari bilan ta‘riflaydilar. Respublikamiz olimlari hamkorligida nashr etilgan «Falsafa: qomusiy lug‘ati»da «Global (umumbashariy) muammolari» tushunchasi berilgan. Unda bu tushuncha (fransuzcha global eng umumiy) o‘z ko‘lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga dahldor bo‘lgan muammo ekanligi ta‘kidlanadi. [5]

Globalashuv jarayonlarining natijalaridan biri sifatida amerikacha andoza asosida madaniy unifikasiyalash, turli xalqlarning o‘ziga xos rangbarang madaniyatini inkor etish asnosida yagona jahon madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan harakatlarni keltirish mumkin. Bu borada amerikalik siyosatshunos Z.Bjezinskiy shunday yozadi: «Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o‘zining estetik qadriyatlarini haqida qanday fikrda bo‘lmasin, Amerika «ommaviy madaniyati», ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o‘ziga tortadi. Internet–ingliz tilida va kompyuterdagi so‘zlarning aksariyat qismi Amerikadan bo‘lib, global muloqotning mazmuniga ta‘sir o‘tkazadi. Va nihoyat, Amerika zamonaviy ta‘lim olishga intilayotganlar uchun «Makka» ga aylangan... [6] Hozirgi kunda axborot ko‘lami tez sur‘atlar bilan ortib borishi tufayli insonlarning yangidan-yangi axborot olishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoji soniya sayin ortib bormoqda, bu axborot maydonida muayyan millat va xalqqa xos bo‘lgan, ijtimoiy hayotidaga ta‘sir etuvchi fikrlar, qarashlar, dunyoni anglash va unga munosabat ham o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etadi.

Natijalar. Hozirgi globallashuv sharoitida butun dunyoda turli xil mafkuralar orqali o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi buzg‘unchi g‘oyalar kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Bunday ishlarga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikasiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Yoshlardagi faqat tashqi ko‘rinish estetik madaniyatning yaxshi bo‘lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqdan pokiza, ma‘naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo‘lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar talab etila bohlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma‘naviy sohalarida ham islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi.

Hozirgi sharoitda turli xildagi g‘oyaviy ziddiyatlar keskinlashgan bir paytda yurtimizning bilimdon, bunyodkor g‘oyalar bilan qurollangan har bir fuqarosi, ayniqsa, yoshlarimiz buzg‘unchi mafkuralarga, ularning ko‘rinishlari, xurujlari, tahdidlari mohiyatiga, yovvoyilik falsafasi bo‘lmish egotsentrizmga qarshi qa‘tiyat bilan mardonavor bahsga kirishishi va kurashmogi lozim. Shu o‘rinda buyuk faylasuf Suqrotning quyidagi «o‘tkir aql va teran, halol fikr egasi baxtiyor insondir» fikrini keltirish o‘rinli deb o‘ylayman[2].

Xulosalar.

1. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasi va ta'limiga dolzarb vazifa sifatida e'tibor qaratish talab etiladi. Buni biz, oliy o'quv yurtidan emas, balki oiladagi tarbiyadan, mahalladagi tarbiyaviy muhitning namoyoni hamda ta'siridan, o'rta ta'lim dargohlaridan yo'lga qo'yishimiz lozim. Bu borada quyi pog'onalarda asos mustahkam bo'lmas ekan, oliy o'quv yurtlari, mehnat va xizmat jamoalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarning ta'siri kamroq bo'ladi. Shu jihatdan ham, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'zagi bolalikda singdirishni taqozo etadi.

2. O'zbekistonda asoslari mustahkamlanayotgan fuqarolik jamiyatining yetukligi hamda tantanasi ma'naviy omillar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham jamiyat ziyolilarining maqsadi kelajak taraqqiyot uchun bugundan barkamol yoshlar shaxsini tarbiyalash ekan, tarbiyaviy omillarga oila, mahalla va o'rta maktablardan e'tibor qaratish talab etiladi. bugungi kunda yoshlar ma'naviyatiga asosiy e'tibor qaratishimiz lozim.

3. Ma'lumki, yoshlar ma'naviy tarbiyasi tarixiy ong va o'tmish omillari bilan ham bog'liq. Bu borada milliy ma'naviyatining tarixiy asoslari mustahkam. Avesto, Turk hoqonligi sharoitidagi To'nyuquq, Bilga hoqon hikmatlari, O'rta asrlarda musulmon Renessansi sharoitida Al-Buxoriy, At-Termiziy, Al-Farg'oniy, Al-Forobiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, so'nggi o'rta asarlarda, ya'ni Ikkinchi Renessans sharoitida Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Boburlarning hikmatlarga qorishiq asarlari milliy ma'naviyatimizning namunalari sifatida tarixiy ongning yuksalishini, milliy ruhning hamda g'ururning o'sishiga xizmat qiladi. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida ushbu jihatlardan samarali foydalanish yoshlar ma'naviy tarbiyaschida milliy-tarixiy qadriyatlarga e'tibor qaratish sifatida muhim.

4. "O'zbekiston – kejaigi buyuk davlat" kontseptual g'oyasi Yangi O'zbekiston sharoitida o'zining yanada dolzarbligini namoyon etmoqda. Ushbu g'oya har birimizda faxr va iftixor tuyg'usini yuksaltirishi bilan bir qatorda Vatanimizning umidli va sharafli kelajagini ta'minlash uchun ham bugungi kundan boshlab yosh avlod tarbiyasiga va ta'lim jarayonlariga e'tibor qaratishimizni taqozo etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. – Б. 261.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarimiz. 1-j. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Otamuratov S. Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent, O'zbekiston, 2013. – 6 b.
4. Quronov M. «Bizni birlashtirgan g'oya» – Toshkent Ma'naviyat. 2016. – 66 b.
5. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. -Toshkent: Akademiya, 2000. – 112 b.;
6. Falsafa: qomusiy lug'at.- T.:Sharq, 2004. - 92 b.
7. Bjezinskiy Z. Velikaya shaxmatnaya doska. Moskva, Arktogeya, 1997. - 78 s

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF THE CONCEPT OF TRUTH IN THE ERA OF GLOBALIZATION AND IDEOLOGICAL THREATS

Panjiyev Suhrob

Senior teacher of the Department of Philosophy of TerSU, Doctor of Philosophy in philosophy (PhD)

Abstract. In this article, information is given about the importance of the concept of truth in the process of the globalization process, along with the incomparable new opportunities for human life, which creates ideological threats to various social and moral problems, the threats and dangers against the national identity and spiritual values are increasing more and more.

Key words: Globalization, ideological threat, mass culture, value, spirituality, truth.

ГЛОБАЛЛАШУВ ВА ҒОЯВИЙ ТАҲДИДЛАР ДАВРИДА ҲАҚИҚАТ ТУШУНЧАСИНИНГ АҲАМИЯТИ

Панжиев Сухроб

ТерДУ Фалсафа кафедраси катта ўқитувчиси, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада глобаллашув жараёнининг инсоният ҳаёти учун беқиёс янги имкониятлар билан бирга турли ҳил ижтимоий-ахлоқий муаммоларни ғоявий таҳдидларни келтириб чиқараётганлиги, миллий ўзлик ва маънавий қадриятларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортиб бориши жараёнда ҳақиқат тушунчасининг аҳамияти ҳусусида маълумот бериб ўтилган.

Калит сўзлар: Глобаллашув, ғоявий таҳдид, оммавий маданият, қадрият, маънавият ҳақиқат.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N58>

Кириш. Маълумки, бугун дунёда кескин кураш ва рақобат ҳукм сурмоқда, манфаатлар тўқнашуви кучаймоқда. Глобаллашув жараёнлари инсоният учун беқиёс янги имкониятлар билан бирга қутилмаган муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Миллий ўзлик ва маънавий қадриятларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортмоқда. Фақат ўзини ўйлаш, меҳнатга, оилага енгил қараш, истеъмолчилик кайфияти турли йўллар билан одамлар, айниқса, ёшлар онгига устамонлик билан сингдириляпти. Чунки ҳозирги даврда жамиятлар ривожланишини глобаллашув жараёнларининг одамлар менталитети, маънавий дунёси, ижтимоий хатти-ҳаракатларига таъсирсиз тасаввур этиб бўлмайди. Инсониятнинг кейинги тараққиёт йўллари глобаллашув жараёнида шахснинг ижтимоий онги, йўналтирувчи мақсадлари, қадриятлари, ҳаётий тушунчалари, дунёқараши ва охир оқибат унинг жамият билан муносабатларида қандай ўзгаришлар содир бўлаётганлигига боғлиқ.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Сўнги йилларда глобаллашув жараёни инсон ҳаёти ва фаолиятининг барча жабҳа ва соҳаларини қамраб олаётганлиги долзарб ҳамда кескин муаммоларни юзага чиқармоқда. Бу борада бугун кўплаб илмий-амалий ишлар қилинмоқда ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб қилинсада, глобаллашув жараёни жамиятнинг барча соҳа ва жабҳаларига ўз таъсирини сезиларни даражада билинтирмоқда ва таъсир доираси кундан-кунга ортиб бормоқда. «Шу маънода, глобаллашув – бу аввало ҳаёт суръатларининг беқиёс даражада тезлашуви демакдир»[1]

Кундалик ҳаётда глобаллашув деганда асосан умуминсоний аҳамиятга эга муаммоларни тушуниш кенг тарқалган. Бундай тушуниш бирёқлама бўлиб, унинг туб моҳиятини очиб бера олмайди ва глобаллашув фақат салбий ҳодиса сифатида талқин этилишига олиб келади. Ваҳоланки, энг умумий маънода, глобаллашув, бир томондан, муайян ҳодиса, жараёнларнинг барча минтақалар, давлатлар ва Ер юзини қамраб олганини, иккинчи томондан, уларнинг инсоният тақдирига даҳлдор эканини англатади. Яъни, ҳар бир ижтимоий ҳодисанинг ижобий ва салбий томони бўлгани сингари, глобаллашув жараёнининг ҳам яхши ва ёмон томонлари мавжуд. Албатта глобаллашув жараёни бугунги кунда жамият тараққиёти, илм-фан ривожини ва юксак технологиялар ҳамда кенг имкониятлар яратиши билан бирга, қатор салбий ҳолатларни ҳам келтириб чиқармоқда. «Айни пайтда ҳаёт ҳақиқати шуни кўрсатадики, ҳар қандай тараққиёт маҳсулидан икки хил мақсадда – эзгулик ва ёвузлик йўлида фойдаланиш мумкин. Агарки, башарият тарихини, унинг тафаккур ривожини тадрижий равишда кўздан кечирадиган, ҳаётда инсонни камолотга, юксак марраларга чорлайдиган эзгу ғоя ва таълимотлар билан ёвуз ва зарарли ғоялар ўртасида азалдан кураш мавжуд бўлиб келганини ва бу кураш бугун ҳам давом этаётганини кўрамиз»[2]. Бундай жараёнлар шароитида реал воқеликнинг ҳақиқатлигини англаш ҳар қайси давр учун ҳам муҳим ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Ҳақиқат – объектив воқеликка мос келувчи нарса ва ходисаларнинг реал ҳолатдаги мазмунини сифат ва хусусиятларини тўғри акс эттирувчи ҳамда амалиётда синалган билимлардир. Глобаллашув ва ғоявий таҳдидлар жараёнида ҳақиқатнинг аҳамиятини инсон тафаккури, маънавий дунёсида содир бўлаётган ўзгаришларни тадқиқ этиш ҳамда акс эттирувчи омилларда кўришимиз мумкин.

Биринчидан, глобаллашув шахсни шакллантирувчи жамиятнинг маданий-маънавий соҳаларига таъсир ўтказиб, муайян ўзгаришларга олиб келади, анъанавий қадриятлар тизимини издан чиқаради.

Иккинчидан; глобаллашув таъсирида рўй бераётган ўзгаришлар инсоннинг маънавий-ахлоқий, психологик қиёфасига жиддий таъсир ўтказади. Ҳозирги замон жамиятининг қиёфасини муайян тарзда ўзгартиради;

Учинчидан; глобаллашувнинг ижобий жиҳатлари билан бир қаторда, унинг таъсирида ижтимоий ва индивидуал онгда деструктив ўзгаришлар ҳам қайд этилган. Бу ҳолат индивидуализм, инсонпарварлик тамойилларининг емирилиши, тушкунлик, ҳаётий мақсадлар ва тасаввурларнинг бузилиши каби ҳолатларда намоён бўлади.

Тўртинчидан; ҳозирги замон глобаллашув концепцияларида муаллифларнинг диққат-эътибори асосан инсон фаолиятининг турли соҳалари – ижтимоий, иқтисодий,

сиёсий ва маданий соҳаларига қаратилган. Ижтимоий муносабатлардаги ўзгаришлар инсон дунёқарашидаги ўзгаришлар натижаси эканлиги қайд этилади.

Шу боис бу жараёнда ҳақиқатни англаш, глобаллашув ниқоби остида кириб келаётган турфаҳил маънавий ҳуружларнинг олдини олиш, ғаразли мақсадларга қаратилган ғояларга қарши курашиш ва кучли иммунитетни ҳосил қилиш учун зарурдир. Ҳақиқатни билишга интилаётган ҳар бир инсон глобаллашув жараёни кузатар экан, пассив ҳолда келажакни кутиб ўтирмайди, балки уни яратади ёки яратишга ҳаракат қилади. Шу маънода ҳақиқатни билмаслик хато бўлса, у билан ҳисоблашмаслик эса жоҳилликка, қаллобликка ва ҳақсизликка ҳизмат қилади.

Дарҳақиқат, инсоннинг онги ва қалби учун кураш кескин тус олаётган ҳозирги даврда одамларни глобаллаштириш имконият деб эмас, балки вайрона ва бузғунчи ғояларга йўналтирувчи куч, сокин ҳаётга таҳдид солувчи жараён сифатида муносабат билдира бошлаганлиги айнан ҳақиқатни англаш ва билиш масаласига жиддий этибор бериш учун зарурият пайдо бўлганлигидан далолат беради. Чунки, инсон ҳар куни ўзининг фаолиятини ҳақиқат талаблари асосида шакллантириб боради. Бу йўлда у эзгуликни ҳам ёвузликни ҳам танлаши мумкин. Бугунги кунда жаҳон афкор оммасини «Инсоният қай бирини танлайди?»-деган ҳавотири бор...[3].

Глобаллашув жараёни ва ғоявий таҳдидларда ҳақиқатини тушуниш ва билиш зарурати ҳозирги кунда умумжаҳон глобал муаммоларни ҳал қилишдек муҳим вазифаси ҳам борки, бу муаммоларнинг бири ва энг муҳими инсон ҳаётида маънавий муҳит барқарорлигига эришиш, жамият тараққиётини бунёдкорлик ғоялари асосида қуриш, янгидан-янги технологиялар, илм-фан ютуқларини ижобий мақсадлар йўлида сафарбар этиш ва ҳокозоларни ўз ичига олади. Чунки техногенцивилизация даврида техника, технология, умуман ноосфера инсоннинг яшаш муҳитига айланиб қолди. Инсон ўзи яшаётган бутун бошли планетага таъсир кўрсатиб биосферадаги ўзгаришларнинг асосий сабабига эканлиги ва бу ўзгаришлар бугунги кунда глобал аҳамият касб этган муаммоларни юзага келтирмоқда.

Шунингдек, глобаллашув таъсирида маънавий эҳтиёжларни қондиришда ҳам стандартлашув қарор топа бошлади. Бу жараён бугун рок ва поп мусиқа, видео ҳамда турли жанрдаги арзон-гаров фильмлар, сериаллар, ранг-баранг кўнгилочар шоу-томошалар, ўйинларни қамраб олмоқда. Оммавий маданият ниқобидаги аксилмаданият пайдо бўлиб, тобора кенг ёйилиб бормоқда. Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек “Янги таҳдидлар, жумладан, «оммавий маданият» хавфи ва бокимандалик кайфияти пайдо бўлаётган, одоб-ахлоқ, кадриятларнинг йуқолиш хавфи юзага келаётган ҳозирги глобаллашув шароитида бу ғоят муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу сабабли, менинг фикримча, инсон маънавий олами, халқлар маданиятини белгилайдиган манбаларни асраб-авайлаш ва бойитиш бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир. Азалий кадриятларимиз ва ахлоқий фазилатларни ўзида мужассам этган муқаддас динимизни асраш ва қадрлаш ҳар биримизнинг шарафли бурчимиздир” [4].

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов ҳам бу борада катта ташвиш билан огоҳлантириши бежиз эмас, албатта. “Табийки “оммавий маданият” деган ниқоб остида ахлоқий бузуқлик ва зўравонлик, индивидуализм, эгоцентризм ғояларини тарқатиш, керак бўлса, шунинг ҳисобидан бойлик орттириш, бошқа халқларнинг неча минг йиллик анъана ва кадриятлари, турмуш тарзининг маънавий негизларига беписандлик,

уларни кўпоришга қаратилган хатарли таҳдидлар одамни ташвишга солмай қўймайди” [5], деган фикри айтилиши ҳақиқатдир. Дарҳақиқат, оммавий маданият ҳақида кўп мақолалар ёзаётган тадқиқотчилар ва тарғиботчилар буни эсдан чиқармаслиги, ҳақиқий оммавий маданиятни уни ниқоб қилиб олган аксилмаданият билан чалкаштирмаслик зарур.

Оммавий маданиятни ниқоб қилиб олган аксилмаданиятга, унинг дидсизлиги ва ахлоқсизлигига, инсонни ҳақоратловчи, тубанлаштирувчи маҳсулотларга қарши курашиш лозим. Бироқ замонавий оммавий маданиятнинг ўзида ҳам мураккаб ботиний зиддиятлар, миллий ўзига ҳосликка нисбатан яширин таҳдидлар мавжудки, буни ҳам унутмаслик керак. Шу ўринда табиий бир савол туғилади. Хўш оммавий маданиятнинг жозибаси нимада? Нега унга интилиш кучли? Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, ҳатто бир халққа мансуб ёшлар ҳам, улар ҳар хил ижтимоий қатламдан бўлишига қармай, оммавий маданиятга бирдай мойиллик кўрсатади. Бу ҳолат урбанизация ва глобаллашув жараёнида турли халқлар турмуш тарзининг, ҳаётини қараш ва мезонларининг яқинлашуви, ҳордиқ ва истеъмолнинг стандартлашуви оқибатидир. Лекин оммавий маданият таъсирининг кучайин сабаблари фақат шулардангина иборат эмас. Булар қаторида оммавий маданиятнинг кенг тарқалишига ва таъсир кўрсатишига унинг психологик, ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, эстетик ва бошқа сабаблари ҳам бор.[6] Шу боис глобаллашув жараёни доирасида содир бўлаётган муҳим бир ҳақиқатни ҳам унутмаслик керакки, бугунги кунда инсон глобаллашув жараёнининг бош объекти ҳисобланади.

Урганч шаҳар “Мискин бобо” масжидининг (2021 й) имом-ноибни З.Собиров интернет ижтимоий тармоғида “Ғоявий таҳдидлар ҳақида” мавзусида эълон қилган мақоласидаги қўйидаги фикрлари эътиборга молик. Глобаллашув жараёни ҳозирда жамиятнинг барча соҳаларига, жумладан, маънавий соҳада ҳам ҳозирги замон кишига ўзига хос тарзда мураккаб таъсир ўтказмоқдаки, бу ҳолат қўйидаги вазиятларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда:

“Оммавий маданият” маҳсулотлари “китч” маҳсулотлари дейилади. Китч немисча “арзонлаштириш” дегани. Демак, китч-асл нарса эмас, унинг нусхаси, қиммат нарсанинг арзонлаштирилган ясама нусхаси. Сунъий нарса яратиш, демакдир. Бу ахлоққа нисбатан ҳам қўлланмоқда. Яъни, меҳрибон бўлиш эмас, меҳрибонга ўхшаб кўриниш, ҳақиқий дўст бўлиш эмас, дўстга ўхшаб кўриниш ва ҳақозо.

Жамиятда мустақил фикрловчи, талабчан дидли одамлар қанча кўп бўлса, оммавий маданиятнинг бозори шунча касод бўлади, чунки улар ўзлари ейдиган, ичадиган, киядиган, эшитадиган, кўрадиган, ўқийдиган маҳсулотларига юксак талаб қўйишади.

Бугун интернет сайтларида, хориж телекўрсатувларида мафкуравий баралла айтилаётган қўйидаги фикрларни тез-тез эшитамиз: **“Ҳар бир инсон шарқда яшасада, ҳаёлан ғарбни орзу қилади. Ғарбча турмуш кечиршига интилади”**. Бундай ҳолат муайян мафкуравий-сиёсий кучларнинг мақсад-муддаосига айланиб бормоқда ва улар интернет имкониятларидан фойдаланиб, бирор мамлакат ёки жамият ҳақида ёлғон ахборотларни тарқатмоқда. Натижада айриммамлакатларда фуқароларнинг ўз жамияти ва тараққиёт йўлига бўлган ишончи сусаймоқда. Бугунги кунда дунёнинг турли ёвуз ниятли кучлари ўз мақсадлари йўлида қабиҳликнинг барча усул ва

воситаларидан максимал даражада фойдаланишга урунмоқдалар. Бундай кучлар эндиликда халқларнинг маънавиятини бузишга, ёшларнинг онгини заҳарлашга, асрлар мобайнида давом этиб келаётган миллий қадриятларни йўқотишга, эътиқодини ва миллий туйғуларини сустлаштиришга ўтдилар.

Одатда, глобаллашув деганда дунё миқёсида ягона иқтисодий-молиявий макон ва яхлит ахборот майдонининг шаклланиш жараёни тушунилади. «Жаҳонда юз бераётган глобаллашув назарий жиҳатдан мустақил давлатларнинг суверенитети сақланишини тақозо этади. Бироқ, воқеялик шуни кўрсатмоқдаки, глобаллашув натижасида давлатлар ўз суверенитетидан муайян даражада маҳрум бўлмоқда»[7].

Глобаллашув мазмун-моҳияти борасида ҳам мутахассислар ўртасида яқдиллик йўқ. Бу жараён билан боғлиқ концепцияларнинг ранг-баранглиги, биринчидан, мазкур жараённинг ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларини (маънавий, маданий, ижтимоий, иқтисодий, сиёсий) қамраб олгани билан боғлиқ бўлса, иккинчидан, масалага ёндашув тадқиқотчиларнинг кўзлаган мақсадлари, мафкуравий қарашлар ўртасидаги фарқ ва ўзига хослик билан белгиланади.

Глобаллашув жараёни жуда кенг кўламга эга бўлиб, жамиятдан ҳар бир соҳасида ёрқин намоён бўлади. Шунинг учун ҳар қайси давр, тузум, жамият глобаллашув жараёни ва маънавий таҳдидлар шароитида ҳақиқатга эҳтиёж сезади. Сувга кириб қуриқ чиқиш имкони бўлмаганидек, глобаллашув жараёнини ҳам маънавий таҳдидларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Шунинг учун бефарқликка, ўзи бўларчиликка йўл қўймаслик ғоявий барқарорлик учун муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, глобаллашув жараёни ва маънавий таҳдидлар шароитида ҳақиқат заруриятини қуйидагича изоҳлаш мақсадга мувофиқдир.

Биринчидан, глобаллашув жараёнида инсон табиатида содир бўладиган ўзгаришларни ҳақиқат ёки ёлғон, ҳақиқат ва янглишишни тўғри ажрата олиш ҳамда тўғри муносабат билдиришни шакллантиради.

Иккинчидан, ҳақиқат маънавий барқарорликнинг ажралмас қисми сифатида мавжуд таҳдидларга қарши курашиш, инсон тафаккурида воқеликнинг ҳаққоний акс этиши ва ҳар томонлама уйғун ривожланишини таъминлайди.

Учинчидан, ҳақиқатнинг зарурияти асосида инсоннинг ҳаётга бўлган муносабати ётади, бу муносабат фетиш ва бузғунчи ғояларнинг авж олишига монелик қилади.

Тўртинчидан, инсон ҳақиқатни англаши орқали унинг ғайриҳақиқат жараёнларга муносабати шаклланади. Бу эса глобаллашув жараёни ва маънавий таҳдидлар шароитида ҳодиса ва жараёнларнинг нечоғлик ҳақиқатга мувофиқ ёки мувофиқ эмаслигини кўрсатиб беради.

Ушбу мақола орқали глобаллашув жараёнини том маънодаги салбий ҳолат экан дейишдан ва унинг инсониятга ижобий таъсирини мутлоқ инкор этишдан йироқмиз. Фақат мазкур мақола орқали юқорида таъкидлаганимиз каби глобаллашувнинг айрим салбий жиҳатлари ҳусусида тўхталиб ўтдик ҳамда бу жараёнга онгли муносабат билдириш, ижобий ва салбий ҳолатлар ўртасидаги тафовутларни аниқлашда ҳақиқатнинг зарурати ва аҳамиятини кўрсатиб бериш билан бир қаторда инсон дунёқарашига таъсири тўғрисида фикр юритдик. Зеро, биринчи Президентимиз Ислам Каримов ўзининг “Юксак маънавият енгилмас куч” асарида таъкидлаганидек, барчамизга аён бўлиши керакки, қаерда бепарволик ва лоқайдлик ҳукм сурса, энг

долзарб масалалар ўзибиларчиликка ташлаб қўйилса, ўша ерда маънавият энг ожиз ва заиф нуқтага айланади. Ва аксинча – қаерда хушёрлик ва жонкуярлик бўлса, ўша ерда маънавият қудратли кучга айланади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т., Маънавият. 2008. 111-б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т., Маънавият. 2008. 112-бет.
3. Хусанов Б.Э. “Глобаллашув жараёнида ахлоқ ва эстетика фанларининг ўрни. ЎЗМУ хабарлари. – Т., “Университет” 2009 йил 4-сон, 6-бет.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кутарамиз. –Т., Ўзбекистон. 2017. 29-30 бетлар.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т., Маънавият. 2008. 117-б.
6. Азизхўжаев А. “Чин ўзбек иши”, - Т.; “Ўзбекистон”, 370-бет.
7. Suhrob, P. (2021). The philosophical content of truth and its forms. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 176-178.
8. Панжиев, С. (2022). ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 863-866.
9. Suhrob, P. (2022). THE NOOSPHERE STAGE AND THE INCREASING RESPONSIBILITY OF MANKIND IN THE PERSPECTIVE OF THE PLANET EARTH. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 55-58.
10. Suhrob, P. (2022). GLOBALIZATION PROCESS AND NATIONAL-SPIRITUAL FACTORS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 636-638.
11. Panjiyev, S. (2019). CONCEPTS OF TRUTH OF THE NEW TIME. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 170-173.
12. Raxmanov, A. (2022). SHARQ RENESSANSI DAVRI GUMANIZMINING GNOSEOLOGIK VA ONTOLOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 668-674.
13. Ergashevich, R. A. (2022). Socio-philosophical significance of the concept of national state sovereignty. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(3), 49-51.
14. Ergashevich, R. A. (2023). TASAVVUF FALSAFASI TARIXIDA NAQSHBANDIYLIK TA'LIMOTINING O'RNI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 212-219.
15. Рахманов, А. Э. (1990). *Принцип детерминизма в познании и управлении социально-экологическими процессами* (Doctoral dissertation, Ташк. гос. ун-т).
16. Safarovich, M. E. (2023). DIALECTIC OF SPIRITUAL SPACE AND CULTURAL HERITAGE. *Conferencea*, 49-52.
17. Mamatqulov, E. (2023). MA'NAVIY MAKONNI YARATISH JARAYONIDA MILLIY-MADANIY MEROS TUSHUNCHASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 290-294.
18. Safarovich, M. E. Formation of the Concept of Hedonism and Its Representation. *JournalNX*, 21-22

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE ESSENCE OF THE CONCEPTS "ETHNOS", "NATION" AND THEIR SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS

Matnazarova Muhayyo Akhmetjanovna

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, department of Uzbek language and literature teacher

matnazarova2020@mail.ru

Azimova Charos Azamatovna

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering Department of Uzbek language and literature senior teacher

Abstract. This article discusses modern concepts, theories regarding the emergence, content, formation, development of the concepts of "nation" and "ethnicity", the structure of the concept of "nation" and the forms of their manifestation, various aspects and dialectics. Issues of relations have been scientifically studied, in this regard, foreign and national research, the researched scientific opinions have been systematized, conclusions and recommendations have been developed on this matter.

Key words: ethnicity, nation, ethnocultural processes, primordialist approach, instrumentalist approach, constructivist approach.

"ETNOS", "MILLAT" TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI VA ULARNING ILMİY- NAZARIY TAHLILI

Matnazarova Muhayyo Axmetjanovna

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrası o'qıtuvchısı

Azimova Charos Azamatovna

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrası katta o'qıtuvchısı

Annotatsiya. Mazkur maqolada "millat" "etnos" tushunchalarining paydo bo'lishi, mazmuni, shakllanishi, rivojlanishiga oid zamonaviy konsepsiyalar, nazariyalar, "millat" tushunchasi tuzilmasi va ularning namoyon bo'lish shakllari, farqli jihatlari va dialektik aloqadorlik masalalari, bu borada xorijiy va milliy doiradagi izlanishlar ilmiy o'rganilgan, tadqiq etilgan ilmiy fikrlar tizimlashtirilib, bu borada tadqiqot doirasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: etnos, millat, etnomadaniy jarayonlar, primordialistik yondashuv, insturamentalistik yondashuv, konstruktivistik yondashuv

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N59>

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida etnomadaniy jarayonlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi, global olamda kechayotgan turli ijtimoiy-siyosiy muammolar

zamidida millat, milliy mentalitet, o'zlikni anglash masalalari dolzarb vazifa hisoblanadi. Etnomadaniy jarayonlar, bugungi xalqlar etnomadaniyatida kechayotgan evolyutsion jarayondagi milliy o'ziga xoslikka qarama-qarshi bo'lgan "global zamonaviylashuv" esa milliy ma'naviyatni parokanda bo'lishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda, milliy ma'naviyatning tashqi ta'sirlar orqali yemirilishi, nafaqat ma'naviyatni, balki millatni millat sifatida yo'qolish xavfini vujudga keltiradi. Zero, etnomadaniyatni asrash orqali milliy mentalitetini boyitish evaziga millatni asrab qolish mumkin.

Bugungi kunda biz yashayotgan zamonda turli-tuman xalqlar o'z milliy-etnik madaniyati va an'analari bilan boshqalardan ajralib turadi. O'z navbatida, har bir etnik birlik o'ziga xos shakllanish va etnik rivojlanish tarixiga ega. Tadqiqotchi N.Konrad ta'biri bilan aytganda: "...har bir xalq, son jihatidan katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida mujassam etgan, o'ziga xos tarixga ega. Hatto, aytish mumkinki, insoniyat tarixi ana shunday kichik xalqlar tarixidan ham ibtido oladi" [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Etnomadaniyatda "etnos" va "millat" tushunchalarining ilmiy va metodologik tahliliga tadqiqotchilar tomonidan alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada, ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtayi nazaridan etnos, etnik birlik muammosi doirasida primordialistik, insturamentalistik va konstruktivistik yondashishlar orqali tahlil etilgan.

Primordialistik yondashuv – ushbu konsepsiyada "etnos" va "millat" tushunchalarining substansional va essenzialistik yoki tarixiy ildizlarini tahlil qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Etnomilliy konsepsiyalar orasidagi primordializm (ingliz. primordial – boshlang'ich, dastlabki, azaliy) paradigmada etnos va millat identifikatsiyasi tabiat yoki jamiyatda obyektiv asosga ega bo'lgan aniq fenomenlar tahliliga alohida e'tibor qaratiladi. Primordializm oqimi ikki yo'nalishga bo'linadi: tarixiy-evolyutsion va sotsiobiologik yo'nalish. Bunda etnos (yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) ijtimoiy-tarixiy va madaniy jarayonlar natijasida shakllangan ijtimoiy guruhning o'ziga xos turi yoki urug', qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo'luvchi fenomen sifatida talqin qilinadi. Tarixiy-evolyutsion yo'nalish rivojlanishida akademik U.Bromley olib borgan tadqiqotlari orqali "etnik birlik" tushunchasi, etnik birlikning davrlarga bo'linishi, etnik alomatlar va boshqa shu kabi masalalar borasida qator yangi ilmiy-falsafiy qarashlarni ilgari suradi [2].

Shuningdek, bu nazariya etnik ziddiyatlarni tabiat qonuniyati sifatida baholaydi. Bu mashhur ingliz olimi Tomas Gobbsning "inson – insonning bo'risi" tamoyilidan kelib chiqadigan "bitmas-tuganmas" mojarolar va ular orasidagi raqobatni anglatuvchi omillarni bildiradi. Tomas Gobbs praymordializm raqobatbardosh dunyoda etnik o'ziga xoslik masalasi o'z naslini davom ettirish uchun doimiy bahs va munozara markazida bo'ldi, degan asosiy xulosani ilgari suradi.

Insturamentalistik yondashuv – tarafdorlari 1970-yillar o'rtalarida G'arb etnologiyasi doiralarida vujudga kelgan, etnosga hokimiyat va mavqe uchun kurashda qo'llaniladigan vosita sifatida, har bir etnosga xoslik ular orasida raqobat va kurashning keskinlashuvi omillari sifatida qarashadi. Mazkur yondashuvning tarafdorlari D.Govorich, Dj.Rotshild, Dj.Naujel va boshqalar. Instrumentalizm nuqtayi nazaridan, etnoslar umumiy qiziqishlar asosida birlashgan guruh, siyosiy jabhada umumiy maqsadlarga erishish vositasidir. Unga muvofiq, ijtimoiy-siyosiy jabhada ustuvorlikka jamoaviy intilish vositasi, turli ko'rinishdagi etnik mobilizatsiya esa ijtimoiy xatti-harakatlarni belgilovchi, uyushtiruvchi, u yoki bu moddiy omillarni qo'lga

kirituvchi, yordam beruvchi kuch sifatida talqin qilinadi [3].

Konstruktivistik yondashuv – etnik muammolarni o‘rganishdagi uch asosiy nazariy yondashuvlardan yana biri – konstruktivizm hisoblanadi. Konstruktivizm etnik o‘zlikni anglashni asosan ijtimoiy omil bilan bog‘liq ekanligini talqin etadi. Etnik o‘ziga xoslik gendan keluvchi muqarrar va o‘zgarimas emas, balki bir necha sabablarga ko‘ra (urushlar, mustamlaka, globallashuv, integratsiyalashuv, migratsiya kabilar) o‘zgaruvchan hisoblanadi. Konstruktivizmning bir ko‘rinishi bo‘lgan institutsionalizm etnik muammolar kelib chiqishini davlat institutlarining qanchalik sog‘lom va demokratik, resurslarning teng va adolatli taqsimoti amalga oshirilishi bilan bog‘lashadi.

Konstruktiv yondashish tarafdorlari R.Bart, R.Jekson, B.Anderson, R.Burd‘ye, Y.Gellner hisoblanadi. Mazkur nazariya etnik munosabatlarda nafaqat etnos, insonlar jamoasi, balki e‘tiqodi, tabiiy va madaniy jihatdan biri-biriga bog‘liq ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi. Unda munosabatlar barqarorligini ta‘minlash ko‘proq ziyolilar, yozuvchi-faylasuflarga, ya‘ni ijtimoiy-madaniy omillarga bog‘liqligi ta‘kidlanadi [4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Etnos atamasi juda keng va tor ma‘noda ham ishlatiladi: O‘zbekiston xalqi, Amerika xalqi shular jumlasidan. Kichik kishilar guruhiga nisbatan ham “xalq” iborasi qo‘llaniladi. Etnologiya fanida etnosni belgilovchi bir qancha mezonlar mavjud: hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyliigi, ong, etnosning uyushqoqligi muayyan davlat doirasida bo‘lishi, o‘z etnik nomi (etnonimi)ga ega bo‘lishi, diniy e‘tiqodning umumiyliigi va boshqa shu kabilardir.

O‘zining metodologik yondashuvi va tadqiqot aspektidan kelib chiqib, zamonaviy fanda etnos bilan bog‘liq turli qarash va maktablar shakllangan. Bular qatoriga:

- Mashhur turkiyshunos olim L.Gumilevning passionar nazariyasi;
- Nazariyotchi rus akademigi U.Bromleyning dialistik konsepsiyasi;
- N.Chebaksarov va S.Arutyunovlarning etnos bilan bog‘liq informatsion konsepsiyasi;
- G.Markova va V.Rimenovalarning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi;

Demak, aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar “etnos” tushunchasi ta‘rifi bo‘yicha ham fanda yagona fikr mavjud emas. XX asr 20-yillarida rus etnografi S.Shirokogorov (1887–1939) tomonidan etnos atamasiga ilk bora quyidagicha ta‘rif berilgan: “etnos – bir tilda so‘zlashuvchi, kelib chiqishi bir ekanligini tan oluvchi, urf-odatlar majmuasi hamda umumiy turmush tarziga ega bo‘lgan kishilar guruhi” [5].

XX asr 60-70 yillariga kelib, etnos nazariyasiga oid qarashlarda yangi bosqich boshlangan. Sobiq Ittifoq nazariyotchilaridan R.Kushner (Knishev), S.Tokarev, N.Chebaksarov, U.Bromley, V.Kozlovlar etnosga o‘ziga xos ta‘rif berishgan. Ayniqsa, bu borada U.Bromleyning fikrlari e‘tiborga molik. Uning “Etnos va etnografiya”, “Etnografiyaning zamonaviy muammolari”, “etnos nazariyasidan ocherklar” kabi asarlarida etnos nazariyasiga doir mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Natijada, nazariy etnografiyada “Bromley konsepsiyasi” yoki “etnosning dialistik nazariyasi” deb ataluvchi konsepsiya paydo bo‘ldi. Bu konsepsiya uning 1983-yilda nashr etilgan “Очерки теории этноса” (“Etnos nazariyasidan ocherklar”) nomli monografiyasida to‘lalgicha o‘z ifodasini topgan [6].

U.Bromley keng ma‘nodagi etnos yoki etnoijtimoiy tuzilmaga ta‘rif beradi: “Etnik ko‘rinishning ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan mustahkam aloqadorligini alohida ta‘kidlash kerak, qaysiki, ular o‘zaro bog‘liq. Etnos agar yagona (umumiy) bir davlat tarkibida mavjud bo‘lsa, ushbu o‘zaro aloqadorlik yanada muhim. Bu holatda tarkib topayotgan o‘ziga xos tuzilma

nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylikka ham ega bo'ladi"[6]. Umuman olganda, U.Bromleyning fikricha, etnos – aniq bir hudud, til, kelib chiqishi, madaniyat umumiyliigi, o'z-o'zini etnik anglash va o'z etnik nomi (etnonimi)ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhi.

E'tiborli tomoni shundaki, U.Bromley "etnos" tushunchasini bir vaqtning o'zida ham tor ma'noda, ham keng ma'noda tushunmoq kerak, degan fikrni o'rtaga tashladi. Olim tor ma'nodagi "etnos" tushunchasini ayni vaqtda, "etnikos", keng ma'nodagi "etnos" tushunchasini esa "etnoijtimoiy tuzilma" deb ataydi. Uning fikricha, tor ma'nodagi etnos yoki etnikos – o'ziga xos barqaror madaniyat (xususan, til), psixika hamda etnik o'z-o'zini anglash va o'z etnik nomiga (etnonimiga) ega bo'lgan kishilarning tarixan tarkib torgan guruhidir. Keng ma'nodagi etnosga yoki etnoijtimoiy tuzilmaga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy umumiylik ham kiradi. Bunga misol tarzida o'zbek xalqini oladigan bo'lsak, mazkur nazariya tarafdorlarining qarashlariga ko'ra, butun Yer sharida yashovchi o'zbeklar etnikos bo'lsa, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbeklar esa etnoijtimoiy organizm hisoblanadi.

Etnos shakllanishidagi eng muhim alomatlardan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash hissi ham kiradi. Etnik o'zlikni anglash hissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirleri umumiyliigi to'g'risidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Hatto, misol uchun, ma'lum bir qism o'zbeklar, ruslar, yahudiylar, armanlar, polyaklar turli mamlakatlarda yashasalar-da, o'zlarini tarixiy vatanlaridagi etnik jamoalari bilan bog'laydilar. Bundan tashqari, har bir etnik jamoaga mansub kishilar o'zlarini boshqa guruhga mansub odamlardan "biz" va "ular" degan antitezis asosida ajratib talqin qiladilar [7].

Muhokama. Ilmiy adabiyotlarda "etnos" tushunchasi va hodisasiga o'ttizga yaqin ta'riflar uchrasa-da, ularda yaqinlik, mushtaraklik mavjud. Ya'ni, "Etnos – bir tilda so'zlashuvchi, o'zlarining bir xil kelib chiqishi va mushtarak shakllanish jarayonini tan oluvchi, boshqa xalqlardan farq etuvchi qator urf-odat va an'analarga ega bo'lgan kishilar guruhi" [6].

Akademik A.Asqarov fikricha, etnos – biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyotida ma'lum bir bosqichning hosilasidir. Etnos so'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan yangi etnik qatlamlar qo'shib boradi [8].

Etnos nazariyasi borasida mashhur turkiyshunos olim L.Gumilev, etnos ijtimoiy hosila emas, balki biogeografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois, undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi, – deb [9] aytgan. Shuningdek, biologik primordializmning varianti sifatida "etnik maydon" gerotelesini (passionar nazariya)ni ilgari surdi. Uning fikricha, "Etnos – kishilarning tabiiy ravishda shakllangan uyushmasi bo'lib, a'zolari o'ziga xos xulq-atvor steriotiplariga ega. Ular o'zini analogik uyushmalarga qarama-qarshi qo'yadilar, bu qarama-qarshilik umumiy komplimentarlik – etnoguruhlardagi o'zaro hurmat-e'tibor hissi bilan belgilanadi"[10]. Komplimentarlik asosida esa "etnik maydon" yotadi. L.Gumelevning ta'kidlashicha, etnoslar yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib, etnik tizim – superetnoslar tarkibiga kiradi, o'z o'rnida etnosning elementlari – subetnoslar, konviksiyalar, konsorslardan iborat. Etnoslarning tabiiy-biologik xususiyati ular bioorganik olamning asosiy tarkibiy qismi, ma'lum bir geografik va iqlim sharoitlari hosilasi ekanligi bilan belgilanadi. L.Gumilev bu tezisni asosiy postulat sifatida o'zining biologik konsepsiya asosiga qo'yadi.

Etnos, birinchi navbatda, biosferaning fenomeni. “Biz, – deb yozadi u, – qay darajada ijtimoiy taraqqiyot sohibi bo‘lsak, shu darajada Yer biosferasining natijasimiz” [11].

Demak, yuqorida keltirilgan ta’riflardan shu xulosa keladiki, etnos na biologik, na ijtimoiy hodisa ekanligi bahsli jarayon bo‘lib, “etnos” tushunchasi ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan to‘liq tadqiq etilmagan.

Natijalar. Millat shakllanishining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini anglash, tadqiq qilish uchun ularning substansional asosi bo‘lgan “etnos” va “millat” tushunchalarini, ularning genezisini o‘rganish lozim. “Etnos” tushunchasi yunon tilidan olingan bo‘lib, uning etimologik ma’nosi xalq, qabila, to‘da, kishilar guruhi, degan ma’nolarni anglatadi.

Hozirda ushbu termini nafaqat etnologlar, balki faylasuflar, tarixchilar, siyosatshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, hatto iqtisodchilar ham doimiy ravishda keng qo‘llamoqdalar, mazkur muammo bilan bog‘liq o‘zlarining turli-tuman qarashlarini bayon qilmoqdalar [12].

Siyosatshunos olim N.Mamanazarov yozganidek, “demos” kishilar guruhining muayyan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnashuvi qismini anglatadi, “etnos” termini muayyan joy, ya’ni hududda yashovchi xalqning lokal guruhini anglatadi. Hozirgi paytda “etnos” termini faqatgina ilmiy doira va ilmiy adabiyotlardagina qo‘llansa, “xalq” termini kundalik hayotning barcha ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ma’naviy jabhalarida faol qo‘llaniladi. Shu jihatdan ham “etnos” va “xalq” tushunchalari ma’lum ma’noda bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ammo mazmun va mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi [13].

Rossiyalik olim R.Sorokin “millat” ijtimoiy borliq sifatida mavjud emas [14], degan fikrni ilgari sursa, boshqa bir rus olimi V.Tishkov “Millat – siyosiy shior va safarbar qiluvchi vosita, ammo u ilmiy tushuncha emas. Uning yashashga huquqi yo‘q va u ilmiy tildan olib tashlanishi kerak” [15], deb hisoblaydi. Millat uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o‘zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho‘qqisi, o‘ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli hisoblanadi. Millat termini qadimda va o‘rta asrlarda asosan kelib chiqishi bir bo‘lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan ma’lum guruh kishilarga nisbatan qo‘llanilgan. Sharqda “millat” (arab: xalq) tushunchasi VIII asrda, arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi davridan boshlab kirib kelgan. Ushbu tushunchalar negizida “mil” iborasi yotadi. “Mil” tushunchasi arab tilida “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz”, degan ma’nolarni ifodalaydi. “Millat” tushunchasi esa keng miqyosda qo‘llanilib: 1) din, diniy jamoa; 2) ummat, ma’lum dinga e’tiqod qiluvchilar jamoasi; 3) xalq, millat kabi ma’nolarni anglatadi [16]. Yuqoridagi fikrga asos sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Milla – din, diniy jamoa. Qur’onda Milla istilohi bilan majusiylik (18:20/19; 14:13/160), yahudiylik va xristianlik (2:120/114), Ibrohim (a.s)ning haqiqiy dini, uni yahudiylar xristianlar va majusiy-arabiylar tomonidan buzilganligi (6:161/162; 2:128/122; 130/124; 3:95/89; 4:125/124 va boshqalar) Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan tiklangani va u Zotning izdoshlarini birlashtirganini anglatadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan diniy belgilarga ko‘ra birlashgan kishilar uyushmasini anglatgan (q.Umma), Qur’ondagi istilohlar qatorida turadi. Milla istilohining ikki ma’noda (din – uyushma ekani Muhammad (s.a.v) zamondoshlari bo‘lgan shoirlar ijodida, o‘rta asr musulmon adabiyotida (mas., Tabariy, Ibn Xaldun), o‘rta asr hukmdorlari unvonlarida (mas., ilk G‘aznaviyalarda) ko‘zga tashlanadi. Istiloh “yo‘nalish”, “tariqat” ma’nosida ham ishlatilgan (mas., al-Hallojda). Usmoniylar saltanatida XV asr 2-

yarmidan Milla istilohi bilan (millat shaklda) davlat tomonidan rasman e'tirof etilgan va cheklangan muhtoriyat huquqini olgan diniy jamoalar (grek-pravoslav, arman-grigorian va yahudiyalar jamoasi)ni anglatgan. Yangi davrda Milla Istilohi avvalgi, Qur'ondagi ma'nosi bilan birga "xalq", "millat" kabi ma'noga ega bo'ldi.[17] Umma (arab., o'zbek tilida uning "ummat" shakli tarqalgan, ma'lum dinga e'tiqod qiluvchilar jamoasi) – Madinada Muhammad (s.a.v.) izlaridan borgan va islom dinini qabul qilgan kishilar jamoasi. Muhammad ummati deyilganda, ana shu jamoa a'zolari tushuniladi. Keyinchalik ummat umuman musulmonlar mazmunida talqin etilgan [18]. Yuqorida keltirilgan nazariya va qarashlar har bir davr uchun o'ziga hos ahamiyat kasb etgan ilmiy asoslangan qarashlar bo'lib, bu keying tadqiqotlar uchun muhim amaliy dastur bo'ladi. Bu esa tadqiqotchi-olimlar uchun ilm-fanda yangilik yaratishda poydevor vazifasini bajaradi. Millat va etnos tushunchalariga oid qarash, tahlillar, keyingi tadqiqotlar uchun yechim topishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ernest Renan: "Millat – jon, ma'naviy tamoyil. Faqat ikki narsa ushbu jonni, ma'naviy tamoyilni tashkil qiladi. Biri – o'tmish, ikkinchisi – bugungi kun. Biri – umumiy meros haqidagi xotiralar, ikkinchisi – bugungi kundagi birga yashashga intilish"[19], degan fikrni ilgari surib o'tgan. Zero, bugungi zamon shiddati milliy davlat suvereniteti va millatni turli ta'sirlardan asrashda teran fikrlashni taqozo etadi. Bu borada, eng avvalo, milliy g'oyani hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, innovatsion yondashuv asosida muayyan g'oyaga inson manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, yangicha ruh va mohiyat baxsh etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, millatning shakllanishi va rivojida "siyosiy borliq" va "millat – siyosat – davlat" kategoriyalari muayyan hududda etnosning millat darajasida shakllanishi hamda e'tirof etilishi, jamiyatda uning siyosiy jihatdan ekzistensial mohiyati o'zlashtirilishi "etnos – millat – xalq – Vatan" tamoyili jamiyatning yaxlit siyosiy butunligini ta'minlashdagi funksiyasiga ko'ra, takomillashtirilishi milliy siyosatning aktori ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Наука, 1972. – С. 17.
2. Бромлей Ю. Этносоциальные процессы: теория, история, современность. – М: Наука, 1987. – с.333; Винер Б. Этничность: в поисках парадигмы изучения//Этнографическое обозрение.1998.-№4.-с 20-32. Shaw M.Graur Dynamics.- New York, 1995.r.13-15.
3. Тишков В. Этничность, национализм и государство в посткоммунистическом обществе//Вопросы социологии. Москва: 1993.№1.-С.4.
4. Барт Р. Избранные работы: семиотика. Поэтика. -Москва.: Мысль,1989.-С.28-42.; Jackson R.Ethicity.In Social science concerts: A systematic analysis,Ed.byg.Sartory.Beverly Hills.-London,1984.-r.24-26.
5. Широкогоров С. Этнос. Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений // Известия восточного факультета Дальневосточного университета. Т.1. – Шанхай, 1923. – С. 13.
6. Бромлей Ю. Очерки теории этноса. - М.: Наука, 1983.– С. 34.
7. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari//Ozbekiston tarixi 2002. №4. 54–60-betlar
8. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.– Т., 2001. – 86 б.
9. Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 1-қисм: Тошкент., 2005.

10. Гумелев Л.Этносфера: История людей и история природы. – М.: 1993. – С. 540.
11. Man in society. A biosocial perspective. N.Y., 1975. – P. 65.
12. Рыбаков С. Философия этноса. – М.:, 2001. – С. 5
13. Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этник жараёнлар. – Тошкент: ТМИ, 2004. – Б.7.
14. Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. – М.: 1992. – С. 248.
15. Тишков В. Пост Советское пространство: этночеловеческие проблемы («круглый стол»). Социологические исследования. №1, 1997. – С.52.
16. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти”, 2004. – Б.160.
17. O‘sha manbaa – В.160.
18. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти”, 2004. – Б.240.
19. <http://jewishuz.org/RUS/>

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SCIENTIFIC ANALYSIS OF TIME AND ITS STUDY FROM A PHILOSOPHICAL AND CULTURAL POINT OF VIEW

Amanov Alisher Kaxramonovich

Assistant, Tashkent state transport university

E-mail alisher9707410@gmail.com

Abstract. Time has been the subject of deep philosophical research and cultural thought throughout human history. This article explores the multifaceted study of time as an object of scientific analysis, taking concepts from both philosophical discourse and cultural studies. The article covers how time is understood, discussed and interpreted by thinkers such as Aristotle, Kant, and Heidegger, beginning with a review of the conceptualization of time in various philosophical traditions. He then moved on to study time in cultural studies, studying how time manifests in cultural artifacts, stories, and practices. This article focuses on illuminating the complex interaction between philosophical inquiry and cultural perspectives in the study of time through an interdisciplinary objective, proposing a comprehensive understanding of time as a fundamental aspect of human existence..

Keywords: time, philosophy, cultural studies, temporal, interdisciplinary analysis, narratives, artifacts, practices.

VAQTNI ILMIY JIHATDAN TAHLIL QILISH HAMDA UNI FALSAFIY VA MADANIY NUQTAI NAZARDAN O'RGANISH

Amanov Alisher Kaxramonovich,

Assistant, Toshkent davlat transport universiteti

Anotatsiya. Vaqt insoniyat tarixi davomida chuqur falsafiy tadqiqotlar va madaniy tafakkur mavzusi bo'lib kelgan. Ushbu maqola falsafiy nutqdan ham, madaniyatshunoslikdan ham tushunchalar olib, ilmiy tahlil obyektini sifatida vaqtning ko'p qirrali tadqiqini o'rganadi. Maqolada turli falsafiy an'analar bo'yicha vaqtning konseptualizatsiyasini ko'rib chiqishdan boshlab, Aristotel, Kant va Xaydegger kabi mutafakkirlar tomonidan vaqt qanday tushunilgani, muhokama qilingani va talqin qilinganligi ko'rib chiqiladi. Keyinchalik u madaniyatshunoslikda vaqtning o'rganishga o'tadi, vaqt madaniy artefaktlar, hikoyalar va amaliyotlarda qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Ushbu maqola fanlararo obyektiv orqali vaqtning o'rganishda falsafiy izlanishlar va madaniy istiqbollarni o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni yoritishga qaratilgan bo'lib, vaqtning inson mavjudligining asosiy jihati sifatida har tomonlama tushunishni taklif qiladi..

Kalit so'zlar: vaqt, falsafa, madaniyatshunoslik, vaqtinchalik, fanlararo tahlil, rivoyatlar, artefaktlar, amaliyotlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N60>

Kirish. Vaqt falsafiy va madaniy tuzilma sifatida ming yillar davomida insoniyatni o'ziga jalb qilib kelgan. Qadimgi tsivilizatsiyalardan tortib to zamonaviy jamiyatlargacha vaqt tushunchasi borliq, sababiy bog'liqlik va inson tajribasini tushunishda markaziy o'rin tutgan. Faylasuflar, ilohiyotshunoslar, olimlar va san'atkorlar vaqtning tabiati, uning kosmosga aloqasi, uning inson ongiga va jamiyatga ta'siriga oid savollar bilan kurashdilar. Vaqtning ahamiyati intizom chegaralaridan oshib, falsafa, fizika, adabiyot, antropologiya va psixologiya kabi sohalarni qamrab oladi. Uni o'rganish nafaqat inson bilimi va madaniyatining asosiy jihatlarini

yoritibgina qolmay, balki texnologiya va iqtisoddan tortib, axloq va siyosatgacha bo'lgan sohalar uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi falsafa va madaniyatshunoslik linzalari orqali vaqtni ilmiy tahlil ob'ekti sifatida o'rganishdir. Ushbu fanlardan olingan fikrlarni sintez qilish orqali biz vaqtning ko'p qirrali tabiati, uning madaniy ko'rinishlari va falsafiy ta'sirlari haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishni maqsad qilganmiz. Fanlararo yondashuv orqali biz zamonning murakkabliklarini va uning inson tafakkuri va jamiyatidagi ahamiyatini yoritishga intilamiz. Ushbu maqolaning qamrovi falsafada uning kontseptualizatsiyasi, madaniy artefaktlar va rivoyatlarda ifodalanishi va inson mavjudligini tushunish uchun fanlararo ta'sirini o'z ichiga olgan vaqtni har tomonlama tekshirishni o'z ichiga oladi.

Maqsadlarimizga erishish uchun ushbu maqola falsafiy matnlar, madaniy tahlillar va fanlararo ilmiy tadqiqotlardan foydalangan holda sifatli tadqiqot metodologiyasini qabul qiladi. Biz tahlilimizni tuzishda tematik yondashuvni qo'llaymiz, asosiy mavzular va vaqt bilan bog'liq tushunchalar atrofida muhokamani tashkil qilamiz. Maqola bir necha bo'limlarga bo'lingan bo'lib, ularning har biri vaqtning turli jihatlariga, jumladan, uning falsafiy asoslari, madaniy ko'rinishlari va fanlararo kesishmalariga qaratilgan. Ushbu tizimli yondashuv orqali biz ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida vaqtni har tomonlama o'rganishni, davom etayotgan ilmiy nutq va fanlararo muloqotga hissa qo'shadigan tushunchalarni taklif qilishni maqsad qilganmiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi yunon falsafasi vaqtni tushunish uchun asos tushunchalarini yaratdi, Aristotelning "Xronos" tushunchasi ayniqsa ta'sir ko'rsatdi. Aristotel kosmologiyasida vaqt sub'ektiv vaqt tajribasidan ajralib turadigan jismoniy olamdagi o'zgarish va harakat o'lchovi sifatida tushuniladi[1]. Xronos yoki miqdoriy vaqt kosmosdagi hodisa va hodisalarni tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan chiziqli va bir xil progressiya bilan tavsiflanadi. Aristotelning vaqt va mavjudlikning boshqa shakllari, masalan, substansiya va sifat o'rtasidagi farqi yunon tafakkurida vaqtning mavhum va instrumental xususiyatini ta'kidlaydi. Matematik aniqligiga qaramay, xronosda vaqt bo'yicha keyingi falsafiy tadqiqotlarda topilgan sub'ektiv tajribaning chuqurligi yo'q.

Immanuel Kant vaqtni inson bilishining asosiy kategoriyasi sifatida belgilab, falsafiy tushunchada inqilob qildi. Kantning transsendental idealizmida vaqt tashqi dunyoning ob'ektiv xususiyati emas, balki bizning voqelik tajribamizni tuzuvchi sezgining sub'ektiv shaklidir. Vaqt, Kantning fikriga ko'ra, biz hissiy taassurotlarni tartibga soluvchi va hodisalarni vaqtinchalik tartibga solingan holda idrok etadigan doirani ta'minlovchi barcha empirik bilimlar imkoniyatining zarur shartidir[2]. Kantning vaqtni apriori va universal tushunchasi Aristotelning Xronos haqidagi tushunchasiga qarama-qarshi bo'lib, temporallikni tushunish uchun tashqi, ob'yektiv o'lchovdan ichki, subyektiv asosga o'tishni ta'kidlaydi.

Martin Xaydeggerning vaqtga fenomenologik yondashuvi an'anaviy falsafiy nuqtai nazardan tubdan chetlanishni taklif qiladi, inson mavjudligining ekzistensial va vaqtinchalik o'lchovlarini ta'kidlaydi[3]. Xaydegger vaqt tushunchasini mavhum, bir hil davomiylik sifatida rad etadi, aksincha, vaqtinchalikni dunyodagi insonning muhim jihati sifatida tasavvur qiladi. Xaydegger uchun vaqt chiziqli progressiya emas, balki o'tmish, hozirgi va kelajakni inson mavjudligining o'zaro bog'liq o'lchovlari sifatida qamrab oluvchi "vaqtinchalik ekstazlar"ning dinamik jarayonidir. Xaydeggerning fikricha, vaqtinchalik nafaqat kontseptual mavhumlik, balki bizning voqelik haqidagi tushunchamizni va haqiqiy mavjudlik imkoniyatlarini shakllantiradigan yashash tajribasidir. Vaqtni inson mavjudligi kontekstida joylashtirgan

holda, Xaydegger vaqtinchalik haqidagi odatiy tushunchalarga qarshi chiqadi va vaqt va borliq tabiatini falsafiy tadqiq qilish uchun yangi yo'llarni ochadi.

Adabiyot turli xil vaqtinchalik tuzilmalar va hikoya qilish usullarini o'rganish uchun boy ombor bo'lib xizmat qiladi. Mualliflar murakkab syujetlar, dinamik xarakter rivojlanishi va tematik chuqurlikni yaratish uchun vaqtni manipulyatsiya qiladilar. Eslatmalar, bashorat qilish va chiziqli bo'lmagan rivoyatlar kabi uslublar vaqtning chiziqli tushunchalarini shubha ostiga qo'yadi va o'quvchilarga vaqtinchalik haqida muqobil istiqbollarni taklif qiladi[4]. Qolaversa, adabiy asarlar ko'pincha mif va dostonlarda tsiklik vaqtni tasvirlash yoki modernistik va postmodernistik adabiyotda vaqtning parchalanishi orqali bo'lsin, zamonga nisbatan madaniy munosabatni aks ettiradi. Adabiyotdagi vaqtinchalik tuzilmalar va hikoya qilish usullarini tahlil qilish orqali madaniyatshunoslik adabiyot jamiyatda vaqt haqidagi jamoaviy tushunchalarni qanday aks ettirishi va shakllantirayotganini yoritadi.

Tasviriy san'at vaqtni tasvirlash uchun boshqa ob'ektivni taqdim etadi. Rasmlar, haykaltaroshlar va boshqa badiiy shakllar o'tkinchi daqiqalardan abadiy haqiqatlargacha bo'lgan vaqtinchalik tajribalarni qamrab oladi. Rassomlar vaqt o'tishini etkazish uchun istiqbol, rang va shaklni manipulyatsiya qiladilar, vaqtinchalik his-tuyg'ular va his-tuyg'ularni uyg'otadigan vizual hikoyalarni yaratadilar[5]. Bundan tashqari, san'atda vaqt tasviri ko'pincha madaniy va diniy timsollar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, o'lim, o'lmaslik va borliqning tsiklik tabiati haqidagi e'tiqodlarni aks ettiradi. Tasviriy san'atdagi vaqtinchalik va mangulik tasvirlarini o'rganib, madaniyatshunoslik san'atkorlarning zamon murakkabliklari bilan qanday kurashayotgani va uning inson hayotidagi ahamiyatini ochib beradi.

Marosimlar va madaniy amaliyotlar jamiyatlarda vaqtni tashkil qilish va o'tkazish uchun asos yaratadi. Madaniy marosimlar kundalik odatlardan tortib yillik bayramlargacha ijtimoiy hayotni tuzuvchi va jamoaviy o'ziga xoslikni mustahkamlovchi vaqtinchalik ritmlarni o'rnatadi. Marosimlar tug'ilish, to'y va o'lim kabi muhim daqiqalarni belgilab, ularga madaniy ma'no va ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yodgorlik va yubiley kabi marosimlar jamoaviy xotirani saqlash va o'tmishni e'zozlashga xizmat qilad[6]. Vaqtinchalik ritmlar va esdalik amaliyotlarini o'rganish orqali madaniyatshunoslik jamiyatlar qanday qilib vaqt o'tishi haqida muzokaralar olib borishi, vaqt o'tishi haqida muzokaralar olib borishi va davomiylik va o'zgarish haqidagi hikoyalarni qurishga oydinlik kiritadi.

Falsafa va madaniyatshunoslikning kesishishi turli xil vaqtinchalik ontologiyalarni o'rganish uchun qulay zamin yaratadi. Vaqt tabiatiga oid falsafiy tadqiqotlar uning mavjudligi, tuzilishi va voqelik bilan aloqasi haqidagi fundamental savollar bilan kurashadi. Madaniyatshunoslik turli madaniyatlar va jamiyatlar vaqtni qanday kontseptsiyalashi va boshdan kechirishini o'rganish orqali ushbu nutqni boyitadi. Vaqtinchalik ontologiyalarni falsafiy va madaniy kontekstlarda o'rganib, fanlararo istiqbollar ko'p vaqtli tajribalarni yoritib beradi va chiziqli, bir hil davomiylik sifatida evrosentrik vaqt tushunchalariga qarshi turadi. Bundan tashqari, ushbu fanlararo yondashuv turli falsafiy an'analar va madaniy istiqbollar o'rtasidagi muloqotni rivojlantiradi, vaqtni ko'p qirrali hodisa sifatida tushunishimizni boyitadi.

Vaqtinchalik tajribani o'rganish falsafiy izlanishlarni sub'ektiv ongga ko'prik qilib, yashagan temporallikning madaniy tahlillarini o'tkazadi. Faylasuflar vaqtinchalik onging tabiatini o'rganadilar, odamlar vaqt o'tishini qanday idrok etishi, sharhlashi va harakatlanishini o'rganadi[7]. Madaniyatshunoslik bu so'rovni vaqtinchalik tajriba madaniy me'yorlar, ijtimoiy

amaliyotlar va tarixiy kontekstlar tomonidan qanday shakllantirilishini o'rganish orqali to'ldiradi. Subyektiv temporallik haqidagi falsafiy mulohazalarni yashash tajribasiga madaniy qarashlar bilan birlashtirib, fanlararo yondashuvlar individual sub'ektivlik va jamoaviy vaqtinchalik o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni yoritadi. Vaqtinchalik tajribaning bu yaxlit tushunchasi ong falsafasi, fenomenologiya va madaniy psixologiyada davom etayotgan munozaralarga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Madaniyatshunoslik ma'lum bir madaniy kontekstda vaqtinchaliklarning dinamik va kontingent xususiyatini ta'kidlaydi. An'anaga qarshi zamonaviylikka yoki uzluksizlikka qarshi o'zgarish kabi vaqtinchalik dialektika madaniy hikoyalar va amaliyotlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, madaniy duragaylar turli xil madaniy sohalaridagi vaqtinchaliklarning aralashuvi natijasida paydo bo'ladi, natijada ikkilik qarama-qarshiliklarga va chiziqli progressiyaga qarshi gibrid vaqtinchalik ramkalar paydo bo'ladi. Madaniy kontekstdagi vaqtinchaliklarga oid fanlararo istiqbollar madaniy temporallikning murakkabliklarini yoritib beradi, turli jamiyatlar qanday qilib vaqtinchalik ziddiyatlarni muhokama qilishini, tarixiy rivoyatlarni qurishini va kelajakni tasavvur qilishini ochib beradi. Vaqtning falsafiy tahlillarini vaqtinchalik madaniyatini o'rganish bilan bog'lash orqali fanlararo yondashuvlar vaqtinchalik tajribalarning ko'pligi va vaqtning ijtimoiy-madaniy dinamikasi haqida nozik tushunchalarni taklif qiladi.

Vaqtning o'rganish sababi, determinizm va iroda erkinligi bilan bog'liq bo'lgan paradokslar bilan kurashadi. Vaqtinchalik paradokslar, masalan, bobo paradoksi yoki yuklash paradoksi, bizning sabablar va vaqt sayohati imkoniyatlari haqidagi tushunchamizga shubha qiladi. Bundan tashqari, determinizm va erkin iroda atrofidagi munozaralar vaqtinchalik doirada vakolat va tanlovning tabiati haqida chuqur savollarni tug'diradi. Ushbu paradokslar bo'yicha falsafiy izlanishlar chiziqli vaqt tushunchalari va sabablar va agentlikning murakkabligi o'rtasidagi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, bu esa metafizika, fan falsafasi va axloqshunoslikda davom etayotgan munozaralarni keltirib chiqaradi.

Madaniyatshunoslik turli madaniyat va jamiyatlarda vaqt haqidagi tushunchalarning xilma-xilligini ochib beradi, bu esa evrosentrik vaqtning universal va bir hil tushunchalariga qarshi chiqadi. Madaniy relativizm temporal doiralarning madaniy o'ziga xosligini ta'kidlab, turli xil jamiyatlar vaqtning qanday kontseptsiyalashini va turli yo'llar bilan boshdan kechirishini ta'kidlaydi. Mahalliy madaniyatlarda vaqt haqidagi tsiklik tushunchalardan sanoatlashgan jamiyatlarda aniq vaqtgacha, madaniy relativizm vaqtinchaliklarning ko'pligini va muayyan madaniy kontekstlarda vaqtinchalik tushunchalarni kontekstuallashtirishning muhimligini ta'kidlaydi[8]. Biroq, bu xilma-xillik, shuningdek, vaqtinchalik tushunchalarning universalligi va vaqtning o'rganishga fanlararo yondashuvlar uchun madaniy relativizmning oqibatlari haqida savollar tug'diradi.

Vaqtinchalik chegaralarning ravonligi o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi munosabatlarni tushinishda qiyinchiliklar tug'diradi. Vaqtinchalik chegaralar qat'iy emas, balki talqin va muzokaralarga tobe bo'lib, tarixiy rivoyatlar, hozirgi tajriba va kelajak intilishlari o'rtasidagi ziddiyatlarga olib keladi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan texnologiyalar va globallashtirish vaqtinchalik chegaralarni yanada murakkablashtiradi, o'tmish va hozirgi o'rtasidagi farqlarni yo'qotadi va o'zgarishlar sur'atini tezlashtiradi. Anri Bergsonning davomiylik kontseptsiyasi yoki Gilles Deleuzning virtual tushunchasi kabi vaqt tabiati haqidagi falsafiy mulohazalar vaqtinchalik oqim va vaqtinchalik hodisalarning o'zaro bog'liqligini

tushunish uchun muqobil asoslarni taklif qiladi[9]. Biroq, vaqtinchalik chegaralardan o'tish murakkab va bahsli hudud bo'lib qolmoqda, bu xotira, o'ziga xoslik va vaqtinchalik aralashuvlar etikasi haqida savollar tug'diradi.

Vaqtinchalik tadqiqotlarning kelajagi falsafiy izlanishlarni madaniy tahlil, ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalar bilan bog'laydigan fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirishdan iborat. Turli fanlardan olimlar o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar falsafa, psixologiya, antropologiya, fizika va boshqa sohalardagi tushunchalarni birlashtirish orqali vaqt haqidagi tushunchamizni boyitishi mumkin. Fanlararo yondashuvlar ko'p qirrali hodisa sifatida vaqtni tushunishimizni chuqurlashtiradigan yangi metodologiyalar, nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi[10]. Bundan tashqari, fanlararo tadqiqotlar akademik fanlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishi, madaniyatlararo istiqbollarni rivojlantirishi va iqlim o'zgarishi, texnologik buzilishlar va ijtimoiy tengsizlik kabi vaqt bilan bog'liq dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishi mumkin.

Vaqtinchalik tahlildan olingan tushunchalar fan, gumanitar fanlar, texnologiya, sog'liqni saqlash va davlat siyosati kabi turli sohalarga keng qamrovli ta'sir ko'rsatadi. Fanlarda vaqtinchalik tahlil fizika, biologiya va nevrologiya kabi sohalardagi yutuqlarga hissa qo'shib, entropiya, biologik ritmlar va miyadagi vaqtinchalik ishlov berish kabi hodisalarni tushunishimizga yordam beradi. Gumanitar fanlarda vaqtinchalik tahlil inson tajribasi va ifodasining vaqtinchalik o'lchovlarini ochib berish orqali adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga bo'lgan munosabatimizni boyitadi. Bundan tashqari, vaqtinchalik tahlil ma'lumotlar fani, shaharsozlik va atrof-muhitni boshqarish kabi sohalarda amaliy qo'llaniladi, bu erda vaqtinchalik naqsh va dinamikani tushunish qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish uchun zarurdir.

Another line of inquiry explores the historical development of synonymous terms and their evolution within different philosophical traditions. Jones traced the genealogy of terms like “phenomenology” and “ontology”, examining how their meanings and connotations have evolved over time. Through a comparative analysis of texts from various philosophical traditions, Jones shed light on the dynamic nature of philosophical language and its impact on conceptual development.

Furthermore, scholars have investigated the implications of synonymy for philosophical communication and interdisciplinary dialogue. Brown explored how synonymy affects communication between philosophers working in different linguistic and cultural contexts.

Moreover, researchers have examined the role of synonymy in shaping philosophical methodologies and approaches. White investigated how synonymous terms influence philosophical reasoning and argumentation, particularly in areas such as logic and epistemology. By analyzing philosophical texts and logical frameworks, White elucidated the ways in which synonymous terms can either enhance or impede philosophical inquiry. [4]

The literature on synonymy in philosophical terms highlights its multifaceted nature and its significance for philosophical analysis and communication. Through careful examination of semantic nuances, historical developments, interdisciplinary implications, and methodological considerations, scholars continue to deepen our understanding of synonymy’s role in shaping philosophical discourse and inquiry.

Analysis. The interchangeability of synonymous terms like “ontology” and “metaphysics” reflects the dynamic nature of philosophical language, which evolves over time and across different philosophical traditions. While these terms may share a common semantic domain, they often acquire distinct connotations or associations within specific philosophical

contexts. For instance, in some philosophical traditions, “ontology” may emphasize the study of existence as it pertains to particular kinds of entities or categories, while “metaphysics” may encompass a broader inquiry into the ultimate nature of reality and its underlying principle . . . Moreover, the presence of synonymous terms in philosophical discourse underscores the importance of careful terminological analysis and clarification to avoid ambiguity and promote clarity in communication. By scrutinizing the subtle nuances and implications of synonymous terms, philosophers can deepen their understanding of conceptual distinctions and refine their articulation of philosophical ideas . Through this process of terminological refinement and conceptual clarification, philosophical discourse evolves, allowing for more precise and rigorous engagement with philosophical questions and debates. [5]

On the other hand, synonymy in philosophical terms can also engender ambiguity, confusion, or misunderstandings, particularly when the distinctions between synonymous terms are not adequately clarified or when different philosophical traditions ascribe divergent meanings to ostensibly equivalent terms . For instance, in some philosophical contexts, terms like “phenomenology” and “ontology” may be used synonymously to denote the study of being as it appears to consciousness, while in others, they may denote distinct but related philosophical inquiries .

Discussion. The potential for misunderstanding arising from synonymy underscores the importance of contextualization and clarification in philosophical discourse. By elucidating the specific meanings and usages of synonymous terms within particular philosophical frameworks, scholars can mitigate confusion and foster clearer communication and understanding . To navigate the complexities of synonymy in philosophical terms, scholars often engage in careful analysis of conceptual frameworks, linguistic usages, historical developments, and disciplinary contexts. By tracing the genealogy of terms, unpacking their semantic entailments, and scrutinizing their usage in philosophical texts and discourse, scholars endeavor to disentangle the subtle nuances and implications of synonymous terms, thereby enhancing clarity, precision, and rigor in philosophical inquiry and communication.

Results. The review highlights synonymy as a vital aspect of philosophical analysis and discourse, shedding light on the interplay between language, meaning, and conceptualization within philosophical traditions, while also acknowledging the challenges that synonymy poses and the need for careful scrutiny and clarification in philosophical communication.

1. Promotion of Clarity and Precision: Investigating synonymy promotes clarity and precision in philosophical discourse by elucidating subtle nuances and distinctions between terms, thus facilitating effective communication and avoiding ambiguity or misunderstanding.

2. Enhancement of Understanding: Studying synonymy enhances understanding of philosophical concepts and theories by revealing diverse perspectives and interpretations associated with different terms, encouraging critical reflection on philosophical terminology and enriching philosophical inquiry and discourse.

3. Facilitation of Interdisciplinary Dialogue: Investigating synonymy facilitates interdisciplinary dialogue by identifying similarities and differences between philosophical concepts expressed in different languages or traditions, thereby contributing to the ongoing development and refinement of philosophical discourse.

4. Challenges and Opportunities: The interchangeability of synonymous terms like "ontology" and "metaphysics" reflects the dynamic nature of philosophical language, presenting both challenges and opportunities for philosophical analysis and communication.

5. Need for Terminological Analysis and Clarification: The presence of synonymous terms underscores the importance of careful terminological analysis and clarification to avoid ambiguity and promote clarity in philosophical communication, allowing for more precise and rigorous engagement with philosophical questions and debates.

6. Potential for Misunderstanding: Synonymy in philosophical terms can engender ambiguity, confusion, or misunderstandings, particularly when distinctions between terms are not adequately clarified or when different traditions ascribe divergent meanings to ostensibly equivalent terms.

7. Importance of Contextualization and Clarification: To mitigate confusion and foster clearer communication and understanding, scholars engage in critical analysis of conceptual frameworks, linguistic usages, historical developments, and disciplinary contexts, thereby enhancing precision and coherence in philosophical discourse. [6]

Conclusion. The review of synonymy in philosophical terms constitutes a vital aspect of philosophical analysis and discourse, shedding light on the intricate interplay between language, meaning, and conceptualization within philosophical traditions. While synonymy can serve as a source of richness and diversity in philosophical discourse, it also poses challenges that necessitate careful attention and critical scrutiny. By interrogating the relationships between synonymous terms and elucidating their semantic contours, scholars contribute to the ongoing evolution and refinement of philosophical language and understanding.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Audi, R. (1999). "The Cambridge Dictionary of Philosophy." Cambridge University Press.
2. Brown, E. (2018). Synonymy and philosophical communication: Challenges and opportunities. *Journal of Philosophical Linguistics*, 42(3), 315-328.
3. Gallagher, S., & Zahavi, D. (2012). "The Phenomenological Mind: An Introduction to Philosophy of Mind and Cognitive Science." Routledge.
4. Heidegger, M. (1927). "Being and Time." Harper & Row.
5. Jones, R. (2015). Evolution of synonymous terms in philosophical discourse. *Philosophical Studies*, 28(2), 201-217.
6. Kolak, D., & Thomson, E. (2006). "The Longman Standard History of Philosophy." Pearson Longman.
7. Loux, M. J. (2006). "Metaphysics: A Contemporary Introduction." Routledge.
8. Lowe, E. J. (2002). "A Survey of Metaphysics." Oxford University Press.
9. Millikan, R. (2013). "Language: A Biological Model." Oxford University Press.
10. Мадалов.Н.Э Linguistic study of proverbs in Uzbek language international scientific journal theoretical & applied science 01.2023 282-285p.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

NOMINATIVE ANALYSIS AND BINARY NOMENCLATURE OF BOTANICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Bakhriddinova Yulduzxon Bakhriddin qizi

Base doctoral student of Termez State University

E-mail: yulduz.bakhriddinqizi@gmail.com

Abstract. In this article, we discussed botanical terms in English and Uzbek, their binary names, and fields of study. The etymology of the names of plants in a certain language, in particular, trees, shrubs, semi-shrubs and other underground and above-ground plant names found in nature, exactly why this name is given to a certain plant and its the study of the causes will not fail to attract any student interested in plants.

Key words: terminology, term, botanical term, binary nomenclature, nomenclature.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BOTANIK TERMINLARNING NOMINATIV TAHLILI VA BINAR NOMLANISHI

Bakhriddinova Yulduzxon Bakhriddin qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz ingliz va o'zbek tillaridagi botanik terminlar va ularning binar nomlanishi, o'rganilish sohasini muhokamaga tortdik. Ma'lum bir tildagi o'simliklar, xususan, daraxtlar, butalar, yarim butalar va boshqa tabiatda uchraydigan yer osti va yer usti o'simlik nomlarining etimologiyasi, aynan nima uchun ma'lum bir o'simlikka shu nomning berilishi va uning sabablarini o'rganish o'simliklarga qiziquvchi har qanday o'rganuvchini o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin, botanik termin, binar nomlanish, nomenklatura.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N64>

Kirish. Dunyo tilshunosligida termin va terminologiya bo'yicha ilmiy qarashlar va tadqiqotlar keyingi yillarda salmoqli ravishda ortib bormoqda. Dastlab termin so'zining o'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, bu so'z lotincha *terminus* — “chegara”, “had” kabi ma'nolarni bildirib, bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasiga aytiladi. Jahon ilm-fanida botanik terminologiya diqqat markazdagi muammolardan biridir. Botanika va uning ichki sohaslariga doir salmoqli ishlar rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ta'lim muassasalarida ilg'or mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan. Botanika va botanik terminlarga doir qator elektron va nashrdan chiqqan terminologik lug'atlar yaratilgan. Avvalombor botanika so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u yunoncha “botane” - “nihol”, “o't” degan ma'noni bildirib, o'simliklar, ularning tuzilishi, hayoti, tarqalishi haqidagi fan hisoblanadi va uning o'rganish obyekti ularni tashkil etishning turli darajalaridagi o'simliklardir.[1; 28-6]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunos Z. Mirsoyev ma'lumotlariga ko'ra terminologiya tushunchasi ilk bor 1786 – yilda nemis tilshunos olimi Shuts tomonidan qo'llanilgan. Oksford lug'atiga tayanadigan bo'lsak ingliz tilida 1801 -yildan boshlab qo'llanila boshlangan. Shotland leksikograf va etnograf olimi J. Myurrey boshchiligida nashr etilgan ushbu lug'atda termin so'ziga birinchi marta - **“word or phrase used in a limited or precise sense” – tarjimasi: “chegaralangan yoki aniq ma'noda ishlatiladigan so'z yoki ibora.”** – deb ta'rif berilgan.[2; 210-6] Jahon olimlari terminologiya bo'yicha bir qancha izlanishlar olib borishgan va ular haqida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Xususan, Ingliz araxnolog va tilshunosi Teodor Savori termin - bu faqat tegishli kalit yoki kodni biladiganlar tushunadigan ma'lum bir miqdordagi kodlangan ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan belgilar jamlanmasi deya ta'rif bergan.[3; 21-6] B.N. Golovinning fikriga ko'ra terminlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, aksincha, ular hayotiy zaruriyat va ehtiyoj natijasida o'ylab topiladi, yaratiladi.[4; 31-35-6] Bulardan tashqari D. Herman, S. Moss, S. T. Parmar, N. Villard, S. Hog, O. M. Vakulenko, G. Budin, A. Kondamines, H. Felber, M. Kristiansen, V. M. Leychik, G. Otman kabi tilshunos olimlar ham o'z davrida termin haqidagi fikrlarini ilmiy izlanishlarida izohlab berishgan.

O'zbek tilshunosi H. Jamolxonov o'zining “Hozirgi o'zbek adabiy tili” deb nomlanuvchi darsligida termin va ularning qo'llanilish haqida bir qancha fikrlarni bildirib o'tgan: - “Terminlarning mazmun planida muayyan soha tushunchalari ifodalangan bo'ladi, masalan, “boshqoq” termini “poya uchida o'sadigan to'pgul yoki to'pmevaning bir turi” – degan tushunchani ifodalagan. Tuzilishi jihatidan so'zga teng bo'lgan termin haqiqatda leksemaning o'zidir, sababi u ko'pincha til sistemasida mavjud bo'lgan yoki shu tilning so'z yasaliş modellari asosida shakllangan leksemaning terminlashishi natijasida yuzaga keladi, natijada terminning ifoda plani ham, mazmun plani ham leksema bazasiga tayanadi.[5; 28-6] Terminlar fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanilishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir. Masalan: botanikada *gulkosa, shona*; tilshunoslikda *ega, kesim*, adabiyotshunoslikda *turoq, vazn* kabi. Terminlarning ifoda plani so'zga (hujayra, to'qima) yoki turg'un birikmaga (o'q ildiz, popuk ildiz) teng bo'ladi. Har ikki ko'rinishda ham termin leksema deb hisoblanadi, bunda uning nominativ birlik ekanligi e'tiborga olinadi.[6; 184-6]

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tili terminologiyasida sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bir qator olimlarning ishida atroflicha tahlil qilingan. H. Jamolxonov botanik terminologiyani maxsus o'rgangan va botanik terminlarni har jihatdan o'rganish so'nggi yillarda ham izchil davom etmoqda. Xususan, o'zbek tili botanik terminologiyasi haqida ko'plab ma'lumotlar T. Nugmanov, A. Kurbanov, Y. Ishonqulov, G. Ne'matova, N. Pazlitdinova, M. M. Xoshimxo'jaeva, B. Mirsanov, O. O. Bobokalonov, K. F. Sultonova, X. I. Majidova, Y. Saidovning ishlarida ko'zga tashlanadi va albatta yuqorida nomlari keltirib o'tilgan tilshunoslarning xizmatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Biz ushbu maqolamizda muhokama qilmoqchi bo'lgan botanik terminlar botanika fanining o'z ichki tizimida o'simliklarning o'rganilish sohasiga qarab bir necha turlarga ajratiladi. 1950-yildan boshlab S. Sahobiddinov, Q. Z. Zokirov, X. A. Jamolxonov, M. M. Nabiyeu, B. Sh. Sherbayev, S. Muhammadxonovlar tomonidan o'zbek tilidagi botanik terminlarning yasaliş hodisalari haqida qator tadqiqotlar olib borishdi va o'z ilmiy tadqiqotlari davomida bir qancha qo'llanmalar yaratishdi. Yuqoridagi ilmiy manbalarda tadqiqotlar asosan ikki yo'nalishda olib borilgan. Birinchisi yo'nalishda – o'simliklarning

lotincha, ruscha, o‘zbekcha va qoraqalpoqcha nomlanishiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish – umumiy biologiya va botanik terminlar lug‘ati hamda izohiga qaratilgan.[7; 87-6] O‘simliklar haqidagi birinchi yozma manba “botanikaning otasi” deb nomlangan yunon olimi Teofrastning o‘simliklar haqidagi “O‘simliklar tarixi” (*Historia plantarum*) asaridir.[8; 13-6] Teofrastdan keyin botanika fanining taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan olim shved shifokori va tabiatshunosi Karl Linney edi. 1735 yilda uning mashhur “*Tabiat tizimi*” asari nashr etildi va ushbu asarda u tabiatni uchta sohaga ajratdi: o‘simliklar, hayvonlar, minerallar. U zamonaviy binominal nomenklaturaning asoslarini yaratdi. Shu o‘rinda terminologiya va nomenklatura orasidagi tafovut, ularning bajaradigan funksiyalari haqida gapiradigan bo‘lsak, ular bir biriga juda yaqin bo‘lganligi bois ayrim hollarda ikkalasini farqlash biroz qiyin kechadi. Nomenklatura leksemasi “nomlarni atash, yozish” ma‘nosini ifodalaydi. Nomenklatura so‘zi ham ilk bor botanik olim Linney tomonidan qo‘llanilgani va bu so‘z o‘simlik nomlarini tasniflashda keng qo‘llanila boshlangani ba‘zi manbalarda bayon etilgan.[9; 214-6] Xalqaro botanika nomenklaturasi kodeksi - o‘simliklar, zamburug‘lar va boshqa ba‘zi organizmlar guruhlarining ilmiy nomlarini shakllantirish va qo‘llashni tartibga soluvchi qoidalar va tavsiyalar to‘plamidir.[10] Karl Linney nazariyasiga ko‘ra o‘simliklarning nomlari ko‘plab omillar va sabablarga ko‘ra beriladi. Unga ko‘ra, ularning o‘sadigan joyidan, o‘shining ekologik sharoitlaridan, morfologik xususiyatlardan (tuzilishi, tashqi ko‘rinishi), rang, ta‘m, hid kabi xususiyatlaridan, boshqa o‘simliklar yoki narsalarga o‘xshashlikdan, davolovchi va toksik ta‘siridan, ularni birinchi marta kashf etgan va tavsiflagan olimlar sharafiga berilgan. Masalan asli Yevropada o‘sovchi *anemon* (windflower) gulining nomi grekcha “anemos” - shamol degan ma‘noni anglatadi, chunki u shamolli joylarda o‘sadi.

Ma‘lumotlar tasdig‘i sifatida esa bir nechta misollarni ko‘rishimiz mumkin:

Allium flavum- mayda sariq piyoz yoki **sarg‘ish gulli sarimsoq** — piyoz turkumiga mansub gulli o‘simlik turi. Piyozchali ko‘p yillik o‘simlik, vatani O‘rta yer dengizi, Qora va Kaspiy dengizlarini o‘rab turgan yerlar, Fransiya, Marokash, Eron, Qozog‘iston. Bu yerda *allium* so‘zi lotincha “*piyoz*”, “*sarimsoq*” ma‘nolarini berib jins nomi ya‘ni narsa nomini ifodalasa, *flavum* so‘zi esa “*sariq*”, “*sarg‘ish*” degan ma‘noni ifodalab piyoz yoki sarimsoqning sariq rangli turini ifodalab kelayapti.

Brassica nigra - qora xantal, odatda ziravor sifatida ishlatiladigan to‘q jigarrangdan qora ranggacha bo‘lgan urug‘lari uchun yetishtiriladigan yillik o‘simlik. Uning vatani Shimoliy Afrikaning tropik mintaqalari, Yevropaning mo‘tadil mintaqalari va Osiyoning ba‘zi hududlari. Bu tur rasman Karl Kox tomonidan 1833-yilda “Deutschlands Flora” asarida tavsiflangan. Lotincha binar nomi *nigra* qora so‘zidan olingan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘simliklarning binar ya‘ni ikkilik nomlanishida asosan lotincha so‘zlardan foydalanilgan. Ungacha yangi topilgan yoki kashf etilgan o‘simliklarga kashf qilgan yoki mashhur shaxslarning nomi qo‘yilgan va bu fanda “polinom nomlari” deyiladi. Misol uchun “*plueria*” o‘simligini botanik Charls Plier sharafiga nomlashgan. Lekin bunday nomlarning odamlar tomonidan eslab qolinishi biroz murakkabliklarga sabab bo‘lgan. Birinchi nomenklatura qoidalari esa 1842- yilda Angliyada ishlab chiqilgan va Britaniya fanni rivojlantirish assotsiatsiyasi (BAAS) yig‘ilishida qabul qilingan. Botanikada qoidalarni kodifikatsiya qilishga urinish 1867 – yilda “Botanika nomenklaturasi qonunlari”ni nashr etgan Alfons Dekandol tomonidan amalga oshirildi.[11]

Yana bir buyuk botanik rus va arman olimi A. L. Taxtadjyan hisoblanib uning asosan yuqori o'simliklarning sistematikasi, evolyutsion morfologiyasi va filogeniyasi, gulli o'simliklarning kelib chiqishi, fitogeografiya, paleobotanika bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va 1943 - yili “Эволюция плацентации и филогения высших растений” nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. U yuqori o'simliklar tizimini va gullar tizimini batafsil ishlab chiqqan, organik tizimining variantini taklif qildi va o'simlik morfologlari va taksonomistlari ilmiy maktabini tashkil etdi.

O'zbek tilshunosligida ham botanika terminologiyasida yangi botanik terminlarining paydo bo'lishi yoki boshqa tillardan o'zlashtirilishi, leksik-semantik qirralarning paydo bo'lishi, shuningdek ularning genetik asoslarini o'rganish, uning milliy terminologik tizimga ta'sirini aniqlash kabi masalalar hozirgi kun tilshunos va botanik olimlarning oldidagi eng katta vazifalardan biri hisoblanadi. Tabiiy o'simliklarni o'rganish O'rta Osiyo mintaqasida ham qadim zamonlardan boshlangan. Zardushtiylik dinining ilohiy kitobi “Avesto”da organizmga ta'sir etuvchi 1000 dan ortiq o'simliklarning nomlari va ta'sir etish xususiyatlari haqida namunalar keltirilgan.[12; 9-6] Undan so'ng buyuk allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniy (973— 1048) tibbiyotga oid “Kitob as-Saydana fit-tibb” risolasida mamlakatimizda o'sadigan ko'plab dorivor o'simliklar haqida ma'lumot bergan. U o'simlik nomlarini keltirar ekan, ularning har biriga alohida alohida sharh berib o'tgan. Bunga bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin:

Abujahl tarvuzi - qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik o't, o'simlik. Barglari yirik, poyasida ketma-ket joylashgan. Ildizidan tayyorlanadigan qiyom akofit preparati tayyorlashda ishlatiladi, u og'riq qoldirish, qon to'xtatish xususiyatiga ega. [13; 53-56-6]

Gulxayri - gulxayridoshlar oilasiga mansub, bo'yi 150-160 sm tik o'sadigan o't o'simlik. Bargi yuraksimon, poyasida ketma-ket joylashadi. Balg'am ko'chiruvchi, nafas yo'li yallig'lanishiga qarshi preparat tayyorlashda qo'llaniladi.[14; 769-772-6]

Beruniydan tashqari buxorolik olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham o'zining “Tib qonunlari” va “Kitob ush'-shifo” asarlari bilan botanika va tibbiyotga ulkan hissa qo'shgan. IX asrda Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan “Devonu lugati turk” asari qadimgi Turkistonda topilgan 200 ga yaqin o'simlik turlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi va unda keltirilgan o'simlik nomlarining aksariyati hozirgi kunda ham termin yoki oddiy so'z sifatida muomalada keng qo'llanilmoqda, lekin ularning shakli va talaffuzi biroz o'zgargan holatda ishlatiladi. Masalan:

Alma – olma asli o'g'uzcha so'z bo'lib, turklar **almila** shaklida qo'llashgan;

So'ko't – tol daraxti;[15; 153-6]

XIV –XVI asrlar ham botanika fani va botanik terminlarning boyishi, rivojlanishining oltin davri bo'lgan deb ayta olamiz. Chunki bu davrda ham qator sohalarda o'z o'rni va so'ziga ega bo'lgan tarixiy allomalarimiz ijod qilishgan. Shulardan eng yirigi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning “Boburnoma” deb nomlangan asarining o'ziyoq o'sha paytdagi eng yirik uch davlatlar - Movarounnahr, Xuroson va Hindistondagi ko'plab hayvonot-u nabodot, ya'ni o'simliklar turlari haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan

Xulosa. Terminlar va o'ziga xos terminologiyani o'rganishga oid masalalar zamonaviy tilshunoslikning qiziqishini izchil kuchaytiradi. Amaldagi bilimlar tizimida va insonning barcha amaliy harakatlarida terminologiyani o'ziga xos funksiyasi bunday qiziqishning mavjudligini belgilaydi. Terminologik tizimlarni ilmiy o'rganish turli soha terminlarining genetik asoslari, funksional va semantik, shuningdek lingvistik, kognitiv xususiyatlarni normallashtirish muhim

hisoblanadi. Terminlar allaqachon barcha bilimlarning va har qanday ilmiy tadqiqotning asosiy manbai hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Степанов Н. В., Ямских И. Е., Иванова Е. А. и др. Ботаника. Конспект лекций – Красноярск: ИПК СФУ, 2009. – С. 28.
2. Мирсоев З. Спортивные термины в таджикском и английском языках. Дисс. Канд. Филол. Наук. – Душанбе, 2005. – С. 210.
3. Savory T. H. The Language of Science. London: Andre Deutsch. 1967. P. 21
4. Головин Б.Н. Типы терминосистем и основания их различения// Термин и слово;Межвизовский сборник, Горкый, 1981. – СС 31-35.
5. Н. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek tili”. Darslik. – T, 2005. – B. 28.
6. Кодуков В.И. Введение в языкознание. – Москва,1979. – С. 184.
7. Турдибоев О.А., Гаффоров Ю.Ш., Махкамов Т.Х., Махмудова М.М., Мамарахимов О.М. Узбекистонда ботаника терминологиясининг хозирги ҳолати. Ботаника ва микология соҳаларига янги тавсия этилган терминлар. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси-8/4-2022. – Хива. -Б. 87.
8. Базилевская Н. А., Белоконь И. П., Щербакowa А. А. [Краткая история ботаники](#) — М.: Наука, 1968. — С. 13
9. Хяутин А.Д. Терминология и номенклатура. Самарканд, 1971. – С. 214.
10. International Code of Botanical Nomenclature (ICBN)
11. Декандоль А. Большая российская энциклопедия: научно-образовательный портал –20.05.2022.
12. Belolipov I.V., Arabova N.Z., Axmedov X., Buxorov K.X., Islamov A.M., Abdurasulov Sh.E.. Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi. -T., 2018. – B. 9.
13. Mirzayeva Z. O. Abujahl tarvuzi va uning xalq tabobatida qo‘llanilishi. Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | Issue 4 | 2021 – Bb. 53-56.
14. Narzullayeva M. A. Gulxayri o‘simligining dorivor xususiyatlari. Journal of Universal Svience Research. ISSN (E): 2181-4570. – BB 769-772.
15. M. Qoshg‘ariy. Devoni lug‘atut turk.1-jild. O‘z. FA. (elektron resurs). – BB 156-350.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE CONCEPT IN MODERN LINGUISTICS

Javliyev Mansurbek Odil o'g'li

Teacher of Termez State University

E-mail: mr.javliyev707@gmail.com

Abstract. In this article, the role and importance of the term concept in modern linguistics is revealed with various ideas and examples. Cultural, linguistic and cognitive views of this term given by different scientists are cited and analyzed.

Key words. Concept, modern linguistics, culture, linguistic culture, national mentality, cognitive linguistics, social experience.

KONSEPT TUSHUNCHASINING HOZIRGI ZAMON LINGVISTIKASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Javliyev Mansurbek Odil o'g'li

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada konsept atamasining bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati turli fikrlar va misollar bilan ochib beriladi. Ushbu atamaga madaniy, lingvistik va kognitiv jihatdan turli olimlar tomonidan berilgan qarashlar keltirib o'tiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Konsept, zamonaviy lingvistika, tushuncha, madaniyat, lingvamadaniyat, milliy mentalitet, kognitiv tilshunoslik, ijtimoiy tajriba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N65>

Kirish. Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so'z bo'lib, (concept), o'zbek tiliga tushuncha, konseptsiya atamaları bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashtirib yuborila boshlangach, uning tom ma'nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Lingvistik ensiklopedik lug'atda konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «konsept bu - «so'z ma'nosi» kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'no-til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi»

Konsept va tushuncha atamaları orasidagi farq til, madaniyat va tafakkur orasidagi munosabatlarni aniqlash bilan belgilanadi. Konseptlar dunyo konseptual manzarasining birliklari sifatida namoyon bo'ladi va tilning konseptual tizimini hosil qiladi. Terminlarning turliligi ong va tafakkurning turli tomonlarini aks ettirish bilan belgilanadi. Yuqorida kognitiv tilshunoslikda konsept asosiy figura sifatida qaraladi deb keltirdik. Buni quyidagi holatlar bilan tasdiqlash mumkin:

-kognitiv sohada inson ongining mental resurs birliklarini, inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi informasiya strukturasi ifodalovchi mental birlik sifatida konsept qaraladi;

-kognitiv tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri «kognitiv semantika» konseptning tabiati va strukturasi o'rganadi;

-kognitiv tilshunoslikda asosan konsept va so'z ma'nolari orasidagi munosabat tahlil etiladi.[1]

Adabiyotlar tahlili. «Kognitiv atamalar qisqacha lug'ati»da konsept inson ongida aks etgan dunyo manzarasi, mental leksikon, konseptual tizim va tilning, xotiraning tarkibiy operativ birligi deb beriladi. Lingvistik tushuncha sifatida konseptga ilk ta'rifni A. Vejbiskaya bergan edi. Unga ko'ra, «o'z nomiga ega va insonning «haqiqat» dunyosi haqidagi ma'lum madaniy shartlangan tasavvurlari «o'ziga xos» dunyosining ob'ektidir» deb ta'rif beriladi.

Lingvokulturologiyada esa bu atama madaniy mental til ko'rinishi, «inson ongidagi madaniyatning quyulib qolgan qismi; madaniyat, insonning mental borlig'iga kiradigan, so'z bilan ifodalanadigan tushuncha, tasavvur, bilimlar to'plami» sifatida qaraladi. [2]

Ayrim tadqiqotchilar konseptlar turlarini ajratishga harakat qiladilar (Frunkina): «Til tizimida ikkita turli konsept bor. Birinchi tur konseptlar universal ma'noli (uxlash, emoq, boshlamoq, o'qimoq, emoq) konseptlar bo'lsa, ikkinchi tur konseptlar o'z ichiga madaniy-milliy qimmatga ega bo'lgan (non, mehmon, ota-ona, to'y, do'st, vatan) konseptlarni qamrab oladi». Olima ikkinchi tur konseptlarni ham o'z navbatida ikkiga ajratadi:

a) lingvomadaniyat spesifikasi bilan izohlanadigan;

b) milliy mentalitetni anglashga xizmat qiladigan kalit (maraziy) elementli».

S. G. Vorkachyov esa lingvomadaniy konseptlar tarkibida butun va qism, universal va spesifik ikki xil semantik alomatlarini ajratish mumkinligini e'tirof etadi: 1) tilning barcha ko'rinishi uchun umumiy bo'lgan semalar, ular semantik paradigmani mustahkamlaydi va uning tushunchaviy yoki prototip asosini hosil qiladi.

2) konseptning tarkibida uning namoyon bo'lishi uchun hech bo'lmaganda qisman xizmat qiladigan semantik belgilar bo'ladi. Bu belgilar lingvokultura, etnosemantik spesifika bilan ajratiladi va til tashuvchisining mentalligi yoki shaxsning til mentaliteti bilan bog'liq bo'ladi. Bunday tasnif konseptlar tabiatining aniq va mufassal bayonini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Darhaqiqat, yuqoridagi ta'riflarning barchasida konseptga milliy-madaniy mentallik birligi sifatida baho berilganini kuzatish mumkin. Mentallik intellektual, ruhiy va iroda xususiyatlarini milliy xarakterda tipik namoyon bo'lish jarayonini birlashtiradigan milliy til formasi va kategoriyasi doirasidagi dunyoqarashni aks ettiradi. Mentallikning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib ko'rsatish ko'pgina sohalar (kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, etnolingvistika, til antropologiyasi, genderologiya)ning asosiy masalasi bo'lib kelmoqda. Ko'rsatilgan sohalarning barchasida mentallikning asosiy birligi deb konsept belgilangan. Bunga bir qancha sabablar ko'rsatiladi. [3]

Lingvokognitologiyada ish olib borayotgan tadqiqotchilardan biri M.V.Piminova o'z maqolasida shunday keltiradi:

*Birinchi*dan, konsept (conceptus-fikrlash, tushuncha, predmet haqidagi tasavvur) klassik sensualistik sxemaning bir qismi sifatida qaraladi: «predmet-sezish-idrok etish tasavvur-tushuncha» va u inson fikrlash qobiliyatining hissiy-amaliy (mushohada) va mantiqiy (abstrakt) kabi faoliyatli bosqichlarni ko'rsatadi: a)konsept

- bu tasavvur («umumiy tasavvur») (S.A.Askoldov); b)konsept – bu tushuncha; c)konsept - bu fikrlashning sinkretik birligi («borliq haqidagi faktlarning umumiy tarmoqlanmagan holda tasavvur beradigan tafakkur birligi) (P.V.Chesnokov).

Ikkinchidan, konsept ma'noli qism sifatida «semantik uchburchak-trapetsiya» modeli tarkibida o'rganiladi: a)konsept-bu ma'no («ma'noning algebraik ifodalanishi») (D.S.Lixachev); («milliy ruhda qo'sh ma'no») (V.V.Kolesov); («leksema ma'nosining invarianti») (E.V.Raxilina); b)konsept - bu mazmun (tushuncha tarkibi, konsept termini ma'no atamasiga sinonim bo'lib qolmoqda») (YU.S.Stepanov).

Uchinchidan, konsept ma'noli qismning sintezi sifatida tahlil qilinadi (ma'no va tushuncha), ma'no anglatadigan qism (til belgisi) va ma'no belgilaydigan qism (denotat va referent): a)konsept-bu so'z etimoni (conceptum - urug', don» so'z semantic butunligining boshlanma nuqtasi); b)konsept – so'z - konseptlar («kalit so'zlar») (A.Vejbiskaya)».

Yuqoridagi qarashlarni kuzatish oqibatida shunday xulosaga kelish mumkinki, konseptni u yoki bu atama bilan bir deb baholanadigan nuqtai-nazarlar (tushuncha, tasavvur, ma'no, mazmun va hokazo) berilgan fenomenni til tizimidagi o'rnini belgilamaydi. Shuning uchun konsept tushunchasi haqida M.V.Piminova bergan umumiy ta'rif qoniqarli baholanilgan deb hisoblab uni taqdim etish mumkin: «konsept bu emik darajadagi til birligi bo'lib, fonema, leksema, morfema va boshqalar bilan solishtiriladi hamda etik bosqichda signifikat (tushunchaning tarkibi va sig'imi) leksik ma'no va so'zning ichki tarkibi yordamida namoyon bo'ladi». [4]

Konseptni aniqlash tadqiqotchilar tomonidan turli usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. *So'z etimonini aniqlash yordamida. Bunda konseptning yozuvigacha bo'lgan tarixini aniqlash yo'li tutiladi.*

2. *Asos guruhlarni o'rganish, ya'ni berilgan etimondan hosil bo'lgan so'zlar guruhini o'rganish.*

3. *Diaxroniyada yasama so'zlarni qo'llashni o'rganish orqali, ya'ni epedigmatik bog'lanishlarni o'rganish.*

4. *Berilgan so'zlardan asosiy qo'llanilayotganlarini sinxron darajada o'rganish. Bunda sintagmatik bog'lanishlar o'rganiladi.*

5. *Tahlil qilinayotgan so'z – konseptning paradigmatic bog'liqliklarini o'rganish.*

6. *Berilgan so'zni boshqa tildagi aynan (yoki shunga yaqin) so'z konsept bilan taqqoslash.*

Sanab o'tilgan usullar, shuningdek, olingan material va ekstrolingvistik omillarni sintezlash orqali tahlil qilinayotgan so'zning milliy-madaniy spesifikasi hamda shu bilan bog'liq holda tahlilga tortilayotgan konseptning milliy-madaniy spesifikasini aniqlash mumkin. [5]

Natija. Konsept tizimda mavjud bo'ladi, u boshqa konseptlardan kelib chiqadi, sistemadan alohida ajratib olinsa, u tadqiq etilayotgan ob'ekt to'g'risida noto'liq tasavvurlar beradi. Konsept tahlilini konseptosfera doirasida tadqiq qilish, dominant va chekka (yondosh) konseptlarni izlash maqsadga muvofiqdir. Konseptosfera atamasi mental reallikni ifodalashga xizmat qiladi. Konseptlarning madaniyat, kasbiy etika ishlarini yuritishdagi o'zni beqiyosdir. Umumiy konseptlar individual konseptlardan, etnomadaniylari etnososiomadaniylaridan farqlanadi.

Til – bu dunyo haqidagi bilimlarimizni aks ettirish manbai va shu bilimlarni tadqiq etish vositasi. Shunga asosan, insonlar o'z til prizmalari orqali dunyoni turlicha ko'ra olishlari mumkin. Bu borada qilingan tadqiqotlar fikrimizni tasdiqlaydi. Izlanishlar lisoniy belgining muhiti va etnokonsept, etnososiokonseptlarning farqli tomonlarini o'zida aks ettiruvchi tajribalar bilan asoslangan. [6]

Til tashuvchilarning qiyosiy tajribasi bo'lgan konsept yadrosini chiqarish uchun ikkita ijtimoiy tajriba o'tkaziladi. Maqsad lisoniy belgi va uning muhiti ekstrolingvistik reallik konseptualizasiyasini, shuningdek, etnokonsept va etnososiokonseptlarni rus dengiz konseptosferasidagi «kema» konsepti orqali solishtirish bo'ladi. Shu maqsadda dengizchi

bo'lmagan (23 ta) va dengizchi (20 ta) til tashuvchilari ushbu ijtimoiy tajribada ishtirok etadi. Har ikkala leksik qatlam bir-biridan farqli ta'riflarni beradilar «kema» so'ziga dengizchi bo'lmaganlar «*quvonch, xotirjamlik, yorug'lik, dam olish, ilqlik, to'lqinlarning urilishi, zavq*» kabi tushunchalarni keltirishadi. Dengizchilar esa «*sovuq, ishlayotgan dvigatel ovozi, og'ir ish; qamoq; urush va harbiy aslahalarga boy harakatdagi kulrang kema*» deb javob beradilar. Rus tilida kema konseptining qurilishi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi «*xavfli vaziyat, tashkil qilingan nimadir, chiroyli va hayratlanarli*». Kema konsepti nafaqat rus tilida, umuman, dengiz tilida yaxlitligicha interpretasion maydoni jihatidan tahlili shuni ko'rsatadiki, kema beqarorlik, sergaklik va qo'rquvni chaqiradigan bir narsa. Leksemalarni o'rganish qator metaforik va to'g'ridan-to'g'ri etnomadaniy muhim jihatlarni ochish imkonini beradi. Maxsus yaratilmagan kontekst «kema» konseptining yanada ko'proq voqelanishiga zamin yaratadi. Dengizchilarga tegishli bo'lmagan kontekstdagi nutqiy namunalarda ob'ekt atamasi ichki kechinmalarini kemaga bog'lovchi metaforalardan iborat. Misol tariqasida Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy» asarida dunyoni suv bosishi bilan bog'liq holatda Nuh payg'ambar kemasini, Chingiz Aytmatov asarida orzudagi «Oq kema»ni esga olish mumkin. [3]

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tabiatiga ko'ra konsept umumiy tasavvurning o'zi, ammo aniqroq aytadigan bo'lsak, umumlashgan tasavvurdir. Umumlashgan tasavvur yoki konsept tilda bir qator so'zlardan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum voqelik, uning u yoki bu tomonining alohida xususiyati, o'ziga xosligi bilan bog'liq. Turli madaniyatlarda mazkur umumlashgan tasavvurlar turli emotsional ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Вежбиская А. Понимание культур через посредство ключевых слов. М.: Наука, 2001 - 288с.
2. Воркачѳв, С. Г. Лингвокультурология, языковая личность: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании / С. Г.Воркачѳв // Филологические науки. —2001. — №1.
3. Пименова, М. В. Предисловие // Введение в когнитивну лингвистику / М. В. Пименова. Кемерово, 2004. — Вип. 4.
4. Асколдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. М., 1980. 340 с.
5. Javliyev, M. O. O. G. L. (2021). "ONA VATAN" KONSEPTINI O'RGANISHDA MAQOL-MATALLAR VA HIKMATLI SO'ZLARNING O'RNI, ULARNING MILLIY-MADANIY KONSEPTUAL BELGILARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 716-722.
6. Javliyev, M. O. O. G. L. (2022). "ONA VATAN" KONSEPTINING AFORIZMLAR VA MATNLAR YORDAMIDA TURLI TILLARDA IFODALANISHI. Academic research in educational sciences, 3(11), 514-519.
7. Odil o'g'li, J. M. (2023). VERBALIZATION OF" MOTHERLAND" CONCEPT BY MEANS OF LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL UNITS.
8. Javliyev, M. (2022). «Ona Vatan» konseptining turli vositalar va tushunchalar yordamida talqin qilinishi. Scientific Collection «InterConf», (135), 206-210.
9. Odil o'g'li, J. M. (2023). INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF" MOTHERLAND" IN THE POEMS AND GHAZALS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(12), 36-39.
10. Odil o'g'li, J. M., & Mamarajabovna, O. S. (2023). THE CONCEPTUAL STRUCTURE OF MODERN LINGUISTICS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 771-773.

11. Odil o'g'li, J. M. (2023). PHRASEOLOGICAL PROBLEMS OF TRANSLATION. TADQIQOTLAR, 28(2), 62-65.
12. Sirojiddinova, O. S., & Odil o'g'li, J. M. (2023). PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE TRANSLATION OF DRAMATIC WORKS. TADQIQOTLAR, 28(2), 66-69.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

POSSIBILITIES OF USING PARALLEL CORPORA

Ruziyev Xusniddin Bahritdinovich

Teacher of the Department “English Language and Literature” of Termiz State University

E-mail: ruzievx@tersu.uz

Abstract. This article covers parallel corpora and their types, the possibilities of parallel corpora in translation, machine translation, language teaching, linguistic research, and comparative language studies.

Key words: parallel corpus, machine translation and comparative corpus, linguistic research, language teaching, comparistics.

PARALLEL KORPUSSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich

Termiz davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada parallel korpuslar va ularning turlari, parallel korpuslarning tarjima, mashina tarjimasi, til o‘qitish, lingvistik til tadqiqotlari va tillarning qiyoslab o‘rganish imkoniyatlari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: parallel korpus, mashina tarjimasim qiyosiy korpus, lingvistik tadqiqotlar, til o‘qitish, kompravistika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N66>


Kirish. Jahon tilshunosligida kompiyuter lingvistikasi va korpus tilshunosligi muammolarini o‘rganish XX asrning 40-yillarida boshlandi, 60-yillarida muammoni o‘rganish jadallashdi, XXI asrning boshlarida millionlab so‘zlarni o‘z ichiga olgan til korpuslari paydo bo‘ldi. Milliy korpuslarni asta-sekin ko‘payib bordi va tarjima sohasida korpuslardan foydalanishga o‘tilishi prallel korpuslarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Parallel korpuslar ustidagi dastlabki ishlar korpus lingvistikasi doirasida 1980-yillardan boshlab jadal sur‘atlarda rivojlana boshladi.

Adabiyotlar tahlili. Parallel korpusn (inglizcha parallel corpora) –tarjima matnlarining elektron analogi; unda asliyatdagi matn va uning bir yoki bir necha tarjimasi tizimli yig‘iladi. Korpusdagi elektron matnlar asliyat matn yoki uning bir qismi bo‘lishi mumkin. Boshqa manbada parallel korpusga quyidagicha ta‘rif keltirilidi: “Parallel korpus–original matn va uning tarjimasi yig‘ilgan korpus”. Parallel korpuslarni tuzulishi, tarkibi va imkoniyatlari borasida D.O.Dobrovolskiy, Yu.Tao, V.Zaxarov, A.A.Kokoreva, Ye.P.Sosninalar maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Parallel korpus tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullangan olim – D.Dobrovolskiy parallel korpusni shunday ta‘riflaydi: “Parallel korpus – asl va tarjimadagi elektron matnlar yig‘indisidan iborat korpus. Asl va tarjima matnlar

shunchaki yonma-yon qo'yilmaydi, balki bu ikki matndagi gap(sistaktik birlik)lar mazmunan mos kelish darajasida bo'lakka bo'linib, mana shu birliklar yonma-yon, bir-biriga ishora qilishi, havola etish holatida turadi. Asliytdagi matn fragmentiga mos keluvchi tarjimadagi fragment belgilab qo'yilgan bo'ladi. Aynanmana shu holat bunday korpuslar yordamida turli lingvistik amallar bajarishga imkon yaratadi".

O'zbek tilshunosligida parallel korpus tuzish borasidagi ilk tadqiqotlar B.Mengliev, R.Karimov va A. Axmedovalarning ishlari orasida kuzatiladi.

Mutaxassislar tuzilishi, matnning joylashuvi, birliklarining moslashtirilishiga ko'ra parallel korpusning bir necha ko'rinishi mavjud:



1-rasm. Parallel korpus turlari

bir yo'nalishli (ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan matn);

ikki yo'nalishli (ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan matn va rus tilidan ingliz tiliga (teskari tarjima));

ko'p yo'nalishli (ingliz tilidan rus, nemis, fransuz tillariga tarjima qilingan matn).


Muhokama. Korpuslar tarkibidagi material tiliga ko'ra, dastlab, bir tilli va ko'p tilli korpus turlariga bo'linadi. Ikki yoki ko'p tilli korpuslar esa quyidagi ko'rinishga ega:

- 1) parallel yoki tarjima korpuslari;
- 2) qiyosiy korpus.

1) haqiqiy parallel korpuslar (translation corpora) – muayyan tilda yozilgan ko'plab asl matnlar va ushbu matnlarning bir yoki bir nechta boshqa tillarga tarjima qilingan matnlari mavjud korpuslar.

2) qiyosiy korpuslar (comparable corpora) – matnlari biron bir belgi asosida birlashtirilgan korpuslar. Bunday korpuslarda, masalan, o'zbek va ingliz tillaridagi muayyan mavzu doirasidagi matnlar (bir xil tematik maydon, bitta tilning dialektlari, mintaqaviy variantlari, masalan, o'zbek tili ona tili va o'zbek tili chet tili va boshqalar) o'z aksini topadi.

Parallel korpuslar avvalo tarjimashunoslik sohasida bir tilning mavjud birliklarini ikkinchi tilda mos ekvivalentini topishda, shuningdek til o'qitish, kompravlingvistika va til tadqiqotlarida keng qo'llaniladi.



2-rasm. Parallel korpusning foydalanish sohalari

Parallel korpus va mashina tarjimasi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – odamlar muloqot qilish uchun foydalanadigan tilni yaratish va tushunishga qaratilgan kompyuter fanining sohasi, uning juda ko'p muhim vazifalari mavjud. Ulardan biri matnni avtomatik ravishda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish maqsadida qo'llaniladigan mashina tarjimasi(MT)dir. MTni amalga oshirish uchun lug'at, statistika yoki misollarga asoslangan bir necha usullar mavjud. Ushbu usullarning afzallik va kamchiliklari bo'lsa ham, ular matnni moslashtirish jarayoni kabi ba'zi usullardan keng foydalanadi. Matnni moslashtirish jarayoni paragraf, jumla, manba matnlarning so'zlari va ularning tarjimalari o'rtasida muvofiqlikni o'rnatish uchun parallel korpusni tashkil qilishdan iborat. Parallel korpus turli tillardagi ikkita matn to'plami sifatida belgilanishi mumkin, bu to'plamlardan biri aslyatdagi matn, ikkinchisi esa uning tarjimasi hisoblanadi. Mashina tarjima tizimlari, avtomatlashtirilgan lug'atlar, terminologik ma'lumot banklarini yaratish parallel matnlarni tadqiq va tahlil qilishni talab qiladi. Buning samarasi sifatida dunyo bo'ylab parallel matndan foydalanish parallel korpuslarni tadqiq qilish va natijalarni mukammallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Natija.

Parallel korpus va lingvistik tadqiqot. Parallel korpus ikki tilda lingvistik tadqiqot uchun material yig'ishda zamonaviy va qulay vositadir.

Ikki tildagi matnlarni qiyoslab o'rganish uchun ular, albatta teglangan bo'lishi zarur. Teglar grammatik yoki semantik xilda bo'lib u ma'lum bir so'zga birlashtirilishi kerak. Agar birliklar teglanmagan bo'lsa, u holda korpusdan til o'rganish uchun foydalanib bo'lmaydi. Demak, parallel korpusdagi so'zlar grammatik teglarga ega bo'lganda bir tildagi so'z shaklining ikkinchi tildagi ekvivalentini kuzatib o'rganish mumkin bo'ladi.

Parallel korpus va tarjimashunoslik. Ikki tilli parallel korpus bir necha jihatdan tarjima sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Birinchidan, ular tarjima qilish qiyin bo'lgan so'zlar va iboralar uchun aniq va tabiiy ekvivalentlarni topishga yordam beradi, masalan, idiomalar, birikmalar va texnik atamalar. Turli manbalar bir xil segmentni qanday

tarjima qilishini taqqoslash orqali siz har bir til va madaniyatning nuanslari va afzalliklari haqida tushunchaga ega bo'lishingiz mumkin. Ikkinchidan, ular mumkin bo'lgan xatolar, nomuvofiqliklar yoki kamchiliklarni aniqlash orqali o'z tarjimalaringizni tekshirish va tuzatishga yordam beradi. Boshqa tarjimonlar bir xil qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lganini ko'rib chiqish orqali siz o'zingizning uslubingiz va atamalarni tanlashingiz mumkin. Uchinchidan, ular sizga turli xil matnlar va janrlarni ochib berish orqali yangi lug'at va grammatikani o'rganishingizga yordam beradi. Turli lingvistik xususiyatlardan qanday foydalanilishi va tarjima qilinishini tahlil qilib, siz ikkala tilda bilim va malakangizni kengaytirishingiz mumkin.

Mutaxassislar ushbu korpuslarning ahamiyatini quyidagicha belgilashadi:

tipik tarjima usullari, transformatsiyani yuzaga keltirish;

avtomatik tarjima tizimi statistikasini o'rganish;

bir va ko'p tilli lug'atlar yaratish;

ma'lumotni saqlash, uzatish dasturlarini o'rganish, baholash;

tarjimaning to'g'riligini avtomatik tarzda tekshirish;

ekvivalent tanlash imkoni kengligi orqali tarjimon mehnatini osonlashtirish

Parallel korpus va til o'qitish. Parallel korpus tarjima nazariyasini va amaliyotini o'qitish uchun, undan tashqari chet tilini mustaqil ravishda yuqori darajada o'rganish uchun muhim dasturiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dasturdan til o'rganayotgan istalgan odam bimalol foydalanishi mumkin.

Til o'rganuvchi ba'zi chet tilidagi so'zlarni kontekstda qay holatda ishlatilishini bilish uchun bir nechta kitob varaqlashiga to'g'ri keladi, ammo elektron parallel korpus va kompyuter texnologiyasi yordamida bu muammoni sikuntlar ichida xal qilish imkoniyati mavjud. Korpus til o'rganuvchi uchun professional tarjima namunalarini ko'rsatishi bilan qimmatli ahamiyatga ega.

Til o'rganishda eng muhim vosita so'zdir. Parallel korpusda matndagi istalgan so'zning asliyat va tarjimada ifodalanishini kuzatish imkoni mavjuddir. Bu qulaylik til o'rganuvchiga o'rganilayotgan chet tilidagi so'zini kontekstda qanday holatlarda ishlatilishini bilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So'zni qiyosiy o'rganishni maqsad qilgan til o'rganuvchi korpusdan istalgan so'zni lingvistik tahlil qilingan holatda bimalol qiyoslab o'rgana oladi. Bu jarayon unga tez va oson aniqlik xulosalar chiqarishiga katta yordam beradi.

Parallel korpus va kompravistika. Parallel korpus asl matn va tarjima matnidan iborat bo'ladi. Korpus tarkibidagi matnlar orqali ikki til tarkibidagi so'zlar, frazalar, turg'un birikmalar, maqol va hikmatli so'zlarni qiyosan o'rganishga yordam beradi. Parallel badiiy matnlar korpusi orqali matn tarkibidagi metanomiya, metafora, sinekdoxa kabilarni ikki til tarkibidagi stilistik birliklar qiyoslab o'rganish mumkin. Shuningdek parallel korpus orqali matn tarkibidagi ot, son, olmosh, sifat, ravish kabi so'z turkumlari, matn tarkibidagi leksik birliklar orqali ikki til leksikologiyasini qiyoslab o'rganish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining boshqa tillar bilan solishtirilgan parallel korpusi yaratilsa, til o'rganuvchilar uchun qulay imkoniyatlar eshigi ochiladi, mashina tarjimasi va tarjimashunoslikda benazir vosita, tilni lingvistik tadqiq etishda zamonaviy yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo'llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
2. Добровольский Д. Какие задачи решают параллельные корпуса // <https://postnauka.ru/video/54851>
3. Жўраева Н. Қўп тилли параллел корпуслар хусусида // центр научных публикаций (buxdu.uz). –2021. –Т. 8. –№. 8
4. Кокорева А.А. Корпус параллельных текстов в обучении иностранному языку.– Вестник ТГУ (Тамбовский государственный университет), выпуск 2 (118), 2013. – С. 57-62.
5. Umerova M.-V.: Parallel corpora in translation studies. Sciences of Europe. 1(2), 2018, 29-39. <https://doi.org/10.2991/icemc-17.2017.71>
6. Ruziyev, K. B. (2020). PARALLEL AND COMPARABLE CORPORA. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (11-12), 43-46.
7. Ro'Ziyev, N. B., & Xodjayeva, N. T. (2021). Matnlarning parallel korpuslarini tuzish muammolari. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 515-5 Ruziyev, K. B. (2020). TRANSLATION AND INTERCULTURAL COMMUNICATION. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (11-12), 47-52. 22.
8. Ruziev, K. B. (2020). Proverbs and corpus linguistics. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6), 64-67.
9. BAKHRITDINOVICH, R. K. The Approach of Paremiyas in Parallel Corpora. *JournalNX*, 6(05), 216-222.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

PROBLEMS OF TRANSLATION STUDIES IN THE STUDY OF ENGLISH IDIOMS

Rakhimova Shakhnoza Palvannozirovna

Phd, associate professor, NUUZ, Faculty of Foreign Philology

Вывод. Осознавая важность учителя для будущего поколения с каждым годом к профессии педагог и самим преподавателям повышаются требования. Ведь ученик всегда должен превосходить своего учителя, таким образом формируется прогресс общества. Но, тем не менее, дарить знания, преподавать является несравнимо тяжелым трудом, поэтому к учителю следует относиться с глубоким уважением, пониманием и благодарностью. Каждый учитель способен открыть дверь в будущее, в науку, культуру, может дать старт для достижения новых знаний, а также учит решать сложные задачи, с которыми обучаемый может столкнуться в будущем.

Таким образом, роль педагога в социальной жизни каждого человека несравнимо важна. Учитель не просто человек, дающий знания, это главный пример для подражания.

Уважительное отношение к учителю должно быть таким же, как и к родителям, к своей Родине. Учителя являются обязательной частью человеческого общества. Только учителя помогают передавать знания из поколения в поколение и являются связующим звеном между прошлым и будущим.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Ш.М. Мирзиёев. О награждении группы особо отличившихся работников сферы образования и воспитания в связи с днём учителей и наставников // Народное слово. – Т., 2018. – 28 сентября. – С. 1-2.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «О повышении размеров оплаты труда работников сферы науки и высшего образования, а также государственной поддержке внедрения результатов научной и научно-технической деятельности» 20 июля 2018 года // Народное слово. – Т., 2018. – 21 июля. – С. 1-2.
3. Азимов А.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
4. Коменский Я.А., Локк Дж., Руссо Ж.Ж., Песталоцци И.Г. Педагогическое наследие / Сост. В.М. Кларин, А.Н. Джуринский. – М.: Педагогика, 1989. – 416 с.
5. Кондратов Н.А. История лингвистических учений: Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2101 «Рус. яз. и лит.». – 1-е изд. – М.: Просвещение, 1979. – 224 с.
6. Латышина Д.И. История педагогики: История образования и педагогической мысли: учеб. пособие. – М.: Гардарики, 2002. – 603 с.
7. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. М.: Мир и Образование, Оникс, 2011. – 736 с.
8. Учителям повысят зарплату дважды // «Газета.uz». 14.08.2018 <https://www.gazeta.uz/ru/2018/08/14/salary/>
9. Ушинский К.Д. Собрание сочинений в 11 т. – М., 1951. – 340 с.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

INTERPRETATIONS RELATED TO TEXTUAL STUDIES ON THE LYRICS OF ALISHER NAVOI IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

Yakhyoyev Fayzullo

Vice-doctoral student of the National University of Uzbekistan,
Imronbekyaxyoyev@gmail.com

Abstract. An important task is to research the poet's manuscripts in the impartial study of the work of the great thinker, Sultan of the word estate Hazrat Alisher Navoi. In Uzbek navoism, much more effective work was carried out in this direction in the second half of the 20th century. This article discusses the research of zabardast textual scholar Hamid Suleiman on manuscripts of Navoi's lyrical heritage.

Keywords. Hamid Sulaiman, textualist, "first Devan", "Badae' ul-Bidaya", "Navadir un-nihaya", "Khazayin ul-Maani", "Devani Faniy".

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA ALISHER NAVOIY LIRIKASIGA DOIR MATNSHUNOSLIK BILAN BOG'LIQ TALQINLAR

Yaxyoyev Fayzullo muhammadsoli o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti,

Annotatsiya. Buyuk mutafakkir, so'z mulkinging sultoni Hazrat Alisher Navoiy ijodini xolisona o'rganishda shoir qo'lyozmalarini tadqiq etish muhim vazifa. O'zbek navoiyshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida bu yo'nalishda ancha samarali ishlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada zabardast matnshunos olim Hamid Sulaymonning Navoiy lirik merosiga oid qo'lyozmalar yuzasidan olib borgan tadqiqotlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Hamid Sulaymon, matnshunoslik, "Ilk devon", "Badoe' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Xazoyin ul-maoniy", "Devoni Foniy".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N84>

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida dunyo tan olgan buyuk ijodkorlarning adabiy merosini chuqur tadqiq etish, mukammal matnlarini tayyorlash, fanga ma'lum bo'lmagan qo'lyozma nusxalarini aniqlash, nodir nusxalarni tavsiflash va akademik nashrlarini chop ettirish dolzarb vazifa sanaladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining qo'lyozma variantlari ham bugungi kunda chet mamlakatlarning kutubxona fondlarida saqlanmoqda. Shoirning fanga noma'lum qo'lyozma manbalarini qidirib topish, bir yerga jamlash, ularni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganib, tanqidiy matnlarini tayyorlash soha mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri edi. Buni teran anglagan navoiyshunos olimlar matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishida ham sermahsul ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shu sababdan ham XX asrning ikkinchi yarmida, xususan, 60-yillarda Alisher Navoiy ijodini o'rganish matnshunoslik yo'nalishida davom etganligi o'zbek navoiyshunosligida olib borilgan tadqiqotlarning yana bir o'ziga xos jihati deya olamiz. Chunki

aynan shu davrda Alisher Navoiy biografiyasiga oid manbalarni, lirik-epik asarlarini tadqiq qilish, qo'lyozmalarini qiyosiy tahlil etish, ommaviy nashrlarini amalga oshirish, matn germenevtikasi kabi ilmiy muammolar yuzasidan ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish boshlanib, bugungi kunda ham davom etmoqda.

Alisher Navoiy tavalludining 500 va 550 yillik yubileyi munosabati bilan o'zbek navoiyshunosligida ilmiy-tanqidiy matn tuzish ishlari boshlandi va rivojlanib bordi. XX asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiyning o'ndan ortiq asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari tayyorlanib nashr etildi. Xususan, "Mahbub ul-qulub" (A.N.Kanonov, 1948), "Mezon ul-avzon" (I.Sultonov, 1949), "Sab'ai sayyor", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" (P.Shamsiyev, 1956, 1963, 1970), "Xazoyin ul-maoniy" (H.Sulaymonov, 1961), "Majolis un-nafois" (S.G'aniyeva, 1961), "Lison ut-tayr" (Sh.Eshonxo'jayev, 1965) shular jumlasidandir.

Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiyning lirik merosi yuzasidan matnshunoslik yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar tahlil va talqin qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunga qadar shoir lirik merosi matnshunosligi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Bu yo'nalish XX asrning ikkinchi yarmida rivojlanib, Alisher Navoiy lirik merosini o'rganish, asarlarini nashrga tayyorlash va ularning ilmiy tamoyillari ishlab chiqish ishlari yanada jadallashdi. O'zbek navoiyshunosligining matnshunoslik va manbashunoslik tarmog'larida H.Zaripov, Fitrat, S.Ayniy, Uyg'un, G'.Karimov, N.Xotamov, O.Sharafiddinov, P.Shamsiyev, H.Sulaymon, A.Hayitmetov, N.Mallayev, S.Rafiddinov, I.Haqqul va Sh.Sirojiddinov kabi ko'plab olimlar tomonidan samarali tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa, xorijiy olimlardan F.Ko'prulu, Y.Bertels, L.Dmitriyev va Murodiy kabi olimlarning sohadagi tadqiqotlari bu yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda ham Hazrat Navoiy asarlari qo'lyozmalarini o'rganish, tadqiq etish, asarlarini nashrga tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. XX asrda bu yo'nalishda bir qator samarali ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu ishlarda o'zbek navoiyshunos olimi Hamid Sulaymonning xizmati beqiyos.

Navoiy asarlarining eng mukammal to'plami 1960-yillar boshida Hamid Sulaymon boshchiligida tayyorlandi. Bu to'plamda Alisher Navoiyning 32 asari ro'yxati berilgan bo'lib, kitobxonlarga birinchi bor Navoiyning ilk devonlari, "Devoni foniy", "Sittai zaruriya" ("Olti zaruriyat") va "Fusuli arba" ("To'rt fasl") taqdim etildi.

Dastlab Hamid Sulaymon Saltikov-Shchedrin nomidagi Leningrad Davlat xalq kutubxonasi, Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondidagi Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari bilan tanishadi. 1955-yildan boshlab Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti qoshidagi Sharq tillari instituti ilmiy sovetida Alisher Navoiy lirik merosining matnshunoslik tadqiqiga oid doktorlik dissertatsiyasi mavzusi tasdiqlanadi. Shu vaqtdan boshlab, olim umrining qolgan qismini Navoiy asarlarining eng qadimgi qo'lyozmalarini to'plash, tadqiq qilish, chop ettirishga bag'ishladi. Avvalo, Sovet Ittifoqi fondlari Toshkent, Leningrad, Dushanba, Qozon va boshqa ittifoqdosh respublikalar shaharlaridagi kutubxonalar, shaxsiy kolleksiyalar o'rganiladi.

Olimning umr yo'ldoshi Fozila Sulaymonovanning xotirlashicha, H.Sulaymon Navoiy lirik asarlarining har biri: xoh u g'azal, xoh ruboiy bo'lsin ularning matlasi, baytlar soni shoir hayotligida ko'chirilgan va Leningrad Davlat Xalq kutubxonasida Xannikov 55 raqami ostida saqlanayotgan "Xazoyinul-maoniy"ning to'rtala devoni asosida to'rt tomlik jadval tuzib

chiqilgan. “Endi bu ishga men yordam bera boshladim. Chunki katta uyimiz o’rtasidagi ikki metrlik stolga to’rtala jadval yoyilgan, domlanning qo’llarida u yoki bu qo’lyozmaning fotosi, izchil ravishda she’rlar matlasini o’qiydilar, ikkalamiz to’rta jadvalni axtara ketamiz. Qayerdan topsak, o’sha tom, matla yonidagi inventar raqami belgilangan katakchaga tartib soni yoziladi; fotonusxaga esa devon nomi she’rning qo’lyozma va devondagi tartib soni yoziladi. Shunday qilib, 20 dan ortiq qo’lyozma hisobga olindi” [1; B.10.].

Navoiyshunos olim H.Sulaymon Navoiy qo’lyozmalari ustida tadqiqot olib borar ekan, Sovet Ittifoqidagi qo’lyozmalar bilan qanoatlanmay, chet el fondlarida saqlanayotgan qo’lyozmalarni kataloglari orqali axtarish va borlarini mikrofilmlarini Lenin nomidagi Davlat xalq kutubxonasi orqali olishga erishadi. Angliyadagi Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan terma devon, Britaniya muzeyidagi “Badoye’ ul-bidoya” devoni, Parij milliy kutubxonasidagi “Badoye’ ul-bidoya”ning eng qadimgi nusxasi Nyu-Yorkda Metropolitan muzeyida saqlanayotgan terma devonlarni olindi.

Hamma kataloglarda yuqoridagi qo’lyozmalar “Devon” yoki “G’aroyib us-sig’ar” deb atalgan. Olim Hamid Sulaymon bu qo’lyozmalarni sinchiklab o’rgandi. Navoiy yaratgan lirik merosning haqiqiy va nisbiy xronologiyasi, har bir she’r nechanchi yillarda yaratilganligi aniqlandi. Leningradda saqlanayotgan Dorn 564 raqamli devon Navoiy tomonidan tuzilmagan, Parij 764 va London 401 raqamli devonlar “Badoe ul-bidoya” ekanligi va O’zFA Sharqshunoslik institutidagi 1995 raqami ostidagi devon “Navodir un-nihoya” ekanligi ma’lum bo’ldi. Shundan so’ng navoiyshunos olim “Xazoyin ul-maoniy” devonlarining tanqidiy matnini tuzishga kirishadi.

1959-1960-yillarda O’zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyotida Hamid Sulaymon tanqidiy matni asosida nashrga tayyorlangan “Xazoyin ul-maoniy”ning to’rt tomi tarixda ilk bor to’liq shaklda nashr etildi. Bu ishlarda, albatta, Hamid Sulaymonovning xizmati beqiyos bo’ldi. Bundan tashqari Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyiga rahbarlik qilib, Hazrat Navoiy qo’lyozmalari, uning nodir asarlari nusxalarini olib kelish ishlariga boshchilik qildi.

1968-yilda Angliyaning Britaniya muzeyida bo’lib, Navoiyning o’zi tuzgan “Badoye ul-bidoya”, “Devoni Foniy” qo’lyozmalari, “Xamsa”ning Navoiy davrida ko’chirilib, Behzod va uning shogirdlari tomonidan bezatilgan ikki qo’lyozmasi, XV asr o’zbek shoirlari Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Amiriy, Yaqiniy kabilar asarlarining majmuasi, Ubaydiy devoni kabi Sharq adabiyoti va san’atining noyob namunalari bilan tanishdi.

1485-yili ko’chirilgan Navoiy “Xamsa”sining to’rt dostoni va 1559-yili Buxoroda ko’chirilgan ajoyib rasmlar bilan bezatilgan noyob nusxasining mikrofilm va rangli slaydlari olindi. Olim Britaniya qirolichasi Yelizaveta IIning Vindzordagi rezidensiyasida joylashgan shaxsiy kutubxonasida ham bo’lib, u yerda hali fanga ma’lum bo’lmagan ikki qo’lyozma bilan tanishdi. Ularning biri “Xamsa”ning to’liq nusxasi bo’lsa, ikkinchisi esa shoirning tanlangan she’rlaridan tasnif etilgan “Devon” edi. Navoiyshunos olim ushbu nodir asarlar bilan ham tanishdi.

Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan Hamid Sulaymon boshchiligida muzey ilmiy xodimlari tomonidan “Adabiy meros”ning birinchi tomi, Navoiy asarlari ruscha nashrining 6 tomi, “Ilk devon”ning faksimil nashri buklet-albom chop etildi.

Zahmatkash olim Navoiyning “Ilk devon”, “Badoe ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlarini aniqlab ilmiy iste’molga olib kirdi. Devonlar majmuasi “Chor devon” emas, shoirning o’zi “Xazoyin ul-maoniy” deb ataganini isbotladi va majmuaning nashrlarini to’plab,

kitobxonlarga taqdim etdi. Bor-yo'g'ligi muammo bo'lgan "Devoni Foni" qo'lyozmalarini Fransiya va Angliya fondlaridan topib, chop ettirdi.

Muhokama. Alisher Navoiy lirik merosini tadqiq qilish, qo'lyozma matnlarni o'rganishda olimning "Alisher Navoiy lirikasining matnshunoslik tadqiqoti" (Текстологическое исследование лирики Алишера Навои) deb nomlangan filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan uch jilddan iborat dissertatsiya muhim ahamiyatga ega. Dissertatsiya ishi 1955-1961-yillarda rus va o'zbek tillarida yozilgan. Tadqiqotning birinchi jildi ikki qismni o'z ichiga olib, "O'zbekcha devonlar" va "Devoni Foni" deb nomlangan yirik bo'limlardan iborat. Shuningdek, birinchi jilddan xulosa, manbalar – Navoiy devonlari qo'lyozmalari ro'yxati, Navoiyning chop etilgan devonlari, shoir ijodi bilan bog'liq dissertatsiyalar, ilmiy adabiyotlar ro'yxati, Navoiy qo'lyozma devonlarining kataloglari ham o'rin olgan.

Dissertatsiyaning kirish qismi to'rt fasldan iborat bo'lib, dastlabki faslda Navoiy merosini o'rganish bilan bog'liq masalalar yuzasidan bahs yuritilgan. Olim o'z dissertatsiyasi yozilgunga qadar bo'lgan oxirgi 15 yilda Navoiy ijodi bilan bog'liq 19 dissertatsiya yoqlanganini, shundan ikkitasi doktorlik ishi ekanligini, bu esa, o'z navbatida navoiyshunoslikdagi yangi yo'nalishga asos bo'lganini ta'kidlaydi. H.Sulaymonov Navoiyning ijodiy merosi haqida gapirib, undan 120 ming misradan ziyod she'riy asar qolganini ma'lum qiladi. Olim Navoiy asarlarining akademik nashrini amalga oshirish uchun butun dunyo qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarini o'rganish zarur deb hisoblagan. Ularni o'rganish jarayonida kotiblarning o'ziga xos jihatlari tilga olib, unda uchraydigan holatlar sanab o'tilgan.

Kirishning ikkinchi qismida shoir asarlari avtograf nusxalarining saqlanmaganligiga sabab shoir yozgan varaqlarini kotibga ko'chirtirgach, ehtimol tahrir qilgani, eski nusxaga esa qoralama sifatida qarab saqlab qolishga qiziqmagan bo'lishi mumkin degan taxmini ilgari surgan.

Keyingi faslda matnshunoslik tadqiqotlarining umumiy tahlili haqida so'z yuritilib, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Mezon ul-avzon", "Vaqfiya"ning ilmiy-tanqidiy matnlari, ularning tayyorlanishi va bu jarayonda yo'l qo'yilgan xatolar haqida fikr yuritilgan. Kirishning to'rtinchi faslida Navoiy lirikasining turli yillarda amalga oshirilgan nashrlari haqida xulosalar, "Xazoyin ul-maoniy" devonining tarkibiy tuzilishi, g'azallarning radifi, qofiyalanishi, she'riy janrlarning joylashish o'rni haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

"Navoiy devonlarining sho'ro va xorijiy fondlarda saqlanayotgan qo'lyozmalari haqida" deb nomlangan birinchi bobda Navoiyning dunyoga mashhur devonlari, Navoiy devonlarining mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan nusxalari, Navoiy devonlarining xorij mamlakatlari fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari, Hirotdan topilgan va o'sha paytda noma'lum bo'lgan "Badoe' ul-bidoya" hamda Toshkentda saqlanayotgan yagona "Navodir un-nihoya" devonlari qo'lyozmalari haqida va Navoiy devonlarining bosma nashrlari kabi masalalar o'rganilgan [2; B.86].

Mazkur bobda Navoiy qo'lyozmalari xususida muhim ma'lumotlar berilgan bo'lib, birgina Toshkentning o'zida Navoiy devonlarining 125, Leningrad fondida 40, Tojikiston fondida 20, Tbilisi fondida 9, umumiy hisobda, sobiq Sovet ittifoqidagi fondlarda 230 qo'lyozmasi mavjudligi ko'rsatilgan. Shuningdek, Yevropa fondlarida – Londondagi Britaniya muzeyida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Berlin, Parij, Myunxen, Rim va Nyu-York, Istanbul, Pekin, Dublin kabi shaharlardagi fondlarda Navoiy devonlarining jami 86 qo'lyozmasi nusxasi saqlanishi aytilgan. H.Sulaymonov har bir devonning qaysi davrga mansubligini ham ko'rsatib o'tgan. Olim keyingi o'rinlarda "Badoye ul-bidoya" devonining Parij (№ 746), London

(№ 401), Boku (№ 3010), Toshkent (№ 84) qo'lyozma nusxalaridagi janrlar soni, ularning joylashgan sahifalarini qiyoslab, maxsus jadval tuzgan. "Navodir un-nihoya" devonidagi g'azallar esa qay tarzda "Xazoyin ul-maoniy" devonida o'rin olgani ham jadval orqali ma'lum qilingan.

Ilmiy tadqiqotning ikkinchi bobida muammoning kelib chiqish tarixi, qo'lyozmalarni qiyosiy o'rganish metodi haqida, Navoiyning to'rt devoni redaksiyasi tavsifi va xarakteristikasi, "Xazoyin ul-maoniy" devoni arxitektonikasi, "Xazoyin ul-maoniy" qo'lyozmalarini muallif redaksiyasi asosida aniq shaklga keltirish kabi masalalar yuzasidan bahs yuritilgan. Olim o'zi belgilab olgan masalalar yuzasidan aniq va izchil tadqiqot olib borib, ishonchli xulosalarni taqdim etgan. Ilmiy tadqiqotning "Bibliografiya" bo'limi juda katta hajmga ega. Olim tomonidan davr talabiga ko'ra tuzum g'oyasini aks ettirgan adabiyotlarning yarim sahifali ro'yxatidan so'ng Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi devonlari qo'lyozmalarining 232 nusxasini, ularning saqlanish manzili va katalogdagi raqamlari berilgan.

Alisher Navoiy lirik asarlarini tekstologik tadqiq etish keng ko'lamlı ish bo'lib, izlanuvchidan bilim, tajriba va zahmatli mehnat talab etadi. Matnshunos olim shoir asarlari kataloglarini o'rganib chiqib, har bir qo'lyozma haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'ladi. Ayniqsa, tadqiqotchi S.Volin tavsifi olimga muhim ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi [3; B. 217.]. Natijada, olim 2000 dan ortiq Sharq va G'arb mamlakatlarida tarqalgan Alisher Navoiyning lirik asarlari qo'lyozmalari bilan tanishdi. H.Sulaymonov ular orasidan faqatgina XV-XIX asrlarga tegishli 232 ta qo'lyozmani adabiyotlar ro'yxatida keltirganini bayon qiladi. Lekin L.Dmitriev H.Sulaymon tomonidan 274 qo'lyozma, 78 ta katalogdan foydalanilganini ta'kidlaydi [4; B.11]. Shundan 25 tasi tadqiqot manbasi etib belgilangan bo'lib [5; B.306-327.], 3 tasi tekshirishlar davomida almashtirilgan, 2 tasi esa keyinroq aniqlanib, qo'shib qo'yilgan. Olim Alisher Navoiy devonlarining toshbosmalari asl matndan ancha uzoqlashib ketgani sababdan ham ulardan foydalanmaydi [6; B.76.].

Matnshunos olim shoir devonlarini quyidagi tamoyillar asosida saralaydi:

- qo'lyozmalarning besh asrlik tarixini o'rganish;
- qo'lyozmalarning to'liqligiga e'tibor qaratish;
- qo'lyozmalarning o'z davridagi ahamiyatlilik darajasini aniqlash;
- qo'lyozmalarning saqlangan holatiga e'tibor qaratish;
- qo'lyozmalarda yozuvning tushunarlıligi va aniqlik darajasining yuqoriligi;
- qo'lyozmalarning kotibi yoki ko'chirilgan sanasining ma'lum yoki noma'lumligi kabi.

Shuningdek, dissertatsiya ishida Navoiy devonlarining nashrlari, forsiy devoni qo'lyozmalari haqidagi ma'lumotdan so'ng navoiyshunoslikka doir 18 ta dissertatsiya nommanom sanalgan. Bundan tashqari, Navoiy ijodi haqida ma'lumot beruvchi risolalar, kitoblar, Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlar nomi ham keltirilgan. Bo'limning oxirgi qismida Navoiy devonlarining O'zbekistonda saqlanayotgan qo'lyozmalari katalogi, turli qo'lyozma nusxalaridan olingan fotonusxalar ilova qilingan.

XV asr hayotining lirik ensiklopediyasi, ma'nodor xazinası sanalmish Navoiy merosi xalqimizga mukammal taqdim etilishida, ulug' shoir asarlarining o'zbek tilida 15, rus tilida esa 10 tomligi tayyorlanishi, nashr ettirilishi, keng targ'ib etilishida olimning xizmatlari benihoya katta.

Professor Hamid Sulaymonovning Alisher Navoiy lirik asarlari qo'lyozmalarini to'plash va qiyosiy-tahliliy o'rganish natijasida "Xazoyin ul-maoniy" devonidagi 3 132 ta she'rning joylashish o'rni aniqlanib, devonlardagi she'rlar turlicha tartiblangan qo'lyozmalarga tarqalib

ketganligi aniqlangan. Shoir devonlarining ishonchli qo‘lyozmalari aniqlanib, chet el fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning mikrofilmi va foto nusxalari yurtimizga olib kelindi. Shuningdek, ilk devonning faksimil nashri chop etilib, “Xazoyin ul-maoniy” matni tiklandi va dastlabki to‘liq nashri e‘lon qilindi. E‘tiborlisi, XV asr qo‘lyozma devonlari asosida Navoiy lirikasi xronologiyasi tuzilib, devondagi g‘azallar shoirning umrining qaysi davriga oidligini aniqlashtiradi. Natijada, “Xazoyin ul-maoniy” devonlariga qo‘yilgan nomlar jismoniy yosh xususiyatini to‘liq ifoda etmasligi oydinlashgan.

Natija. Yirik matnshunos olim Hamid Sulaymon umrining so‘ngi 23 yilini “Xazoyin ul-maoniy” devonlar majmuasining to‘liq holdagi nashrini yaratish hamda “Devoni Foni” matnini tadqiq va tabdil qilib, kitobxonlarga taqdim qilishga bag‘ishladi va bu izlanishlar fanda muhim yangilik bo‘ldi.

Shuningdek, shu davrda yaratilgan sharqshunos olim Muhammadjon Hakimovning “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” asari O‘zFA Qo‘lyozmalar institutida saqlanuvchi Navoiy asarlari qo‘lyozmalarini o‘rganish va manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahliliga bag‘ishlangan. Unda Navoiy asarlarining turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan 254 qo‘lyozmasining tavsiflari berilgan. Asarning ko‘rsatkichlar qismida asarlar nomi, kotiblar va sahhoflar ismi, ko‘chirilish tarixi, xattotlik va kitobat san‘ati jihatidan ahamiyatli qo‘lyozmalar ko‘rsatkichi kabi masalalar atroficha o‘rganilgan. Navoiy asarlaridan iborat 4 kulliyot va boshqa asarlarning alohida qo‘lyozmalari tarkibi, ko‘chirilish tarixi, bezatilishi haqida ham ma‘lumot mavjud. Bundan tashqari, shoir hayotligi paytida 1486-yilda ko‘chirilgan “Badoe ul-bido” hamda XVI asrning birinchi yarmida kitobat qilingan terma devonlar, “Xamsa” asari, “Majolis un-nafois”, miniatyurali va bezakli-naqshli qo‘lyozmalar haqida ham qiziqarli fikrlar, yangidan yangi ma‘lumotlar berilgan.

“Xazoyin ul-maoniy” ning barcha xildagi kitobat nusxalari (mukammal to‘rt devon, alohida devonlar, terma devonlar) tarkibidagi janrlar va hu janrlardagi she‘rlar miqdori hamda joylashgan sahifalari aniq ko‘rsatilgan. Ba‘zi qadimiy va noyob devonlarda g‘azallarining alifbo tartibi bo‘yicha miqdori ham berilgan” [7; B.12.]

Xulosa. 1987-2003-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda H.S.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutining bir guruh tadqiqotchi olimlari tomonidan Alisher Navoiyning 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” yaratildi. Bu esa Alisher Navoiy asarlarini ommalashtirish imkonini berdi. XV asr hayotining lirik ensiklopediyasi, ma‘nodor xazinasi sanalmish Navoiy merosi xalqimizga mukammal taqdim etilishida, ulug‘ shoir asarlarining o‘zbek tilida 15, rus tilida esa 10 tomliq tayyorlanishi, nashr ettirilishi, keng targ‘ib etilishida olimning xizmatlari benihoya katta. Matnshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy lirik merosi, devonlari maxsus o‘rganildi, g‘azallari nashr ettirildi va keng jamoatchilik Navoiy lirikasi bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldi. Ilmiy doiraga ma‘lum bo‘lmagan qo‘lyozma manbalari topilib, o‘rganildi. Shu sababdan ham olim ilmiy faoliyatini maxsus o‘rganish, matnshunoslik faoliyatini tadqiq etish yosh tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Ҳамид Сулаймон ҳақида хотира ва мақолалар. Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси Ҳ.С.Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти. — Тошкент, “Ўқитувчи”. 1991. – Б – 10.
2. Сулаймон Ҳ . “Алишер Навоий лирикасининг матншунослик тадқиқоти”, фил.фан.док-ри дисс., - Т.: 1955-1961.
3. Волин.С. Описание рукописей произведений Навои и Ленинградских собраниях. Алишер Навои, Сб. статей, – Москва, – Ленинград: изд. АН СССР, 1946 г. – стр. 217.
4. Алишир Наваи. Диван. Издание текста. Предисловие и указатели Л.В.Дмитриевой. – Москва: Наука, 1964. – С. 11.
5. Сулейман Х. Тектологическое исследование лирики Алишера Навои. Док.дисс. част первый, – Т.: изд. АН УзССР 1961. – С. 306-327.
6. Сулейман Х. Тектологическое исследование лирики Алишера Навои. Док.дисс. част первый, – Т.: изд. АН УзССР 1961. – С. 76.
Накимов М. Navoiy asarlari qo`lyozmalarining tavsifi. – Т.: “Fan” nashriyoti, 1983-yil.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF CORPUS TYPES IN ADVANCING THE FIELD OF LINGUISTICS

Otajonova Dildor Baxtiyarovna

Associate professor, Chirchik State Pedagogical University

dildorotajonova201@gmail.com

Abstract. This article explores the translation features of English science fiction literature from the 20th century. The genre of science fiction has gained immense popularity and significance over the years, with numerous works being translated into different languages to reach a global audience. The translation of science fiction presents unique challenges due to the complex scientific concepts, futuristic technologies, and imaginative worlds depicted in the original texts. This study examines the strategies and techniques used by translators to convey the essence and nuances of English science fiction works while maintaining the integrity of the original text. By analyzing specific examples and case studies, this article sheds light on the creative approaches employed by translators to bridge the cultural and linguistic gaps in science fiction literature, ultimately enhancing cross-cultural communication.

Key words: translation, science fiction, translation features, languages, genres, cultures, XX century, lexical and grammatical features.

KORPUS TURLARINING LINVISTIKA SOHASINI TARAQQIY ETTIRISHDAGI AHAMIYATI

Otajonova Dildor Baxtiyarovna,

Dotsent v.b. Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Tilshunoslikda korpuslar tilni o'rganish uchun muhim vositadir. Ushbu maqola korpus turlarining yuzaga kelish sabablari va uning turlari xususiyatlarining tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, uning turlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: korpus, parallel korpus, bir tilli lug'atlar, ko'p tilli lug'atlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N85>

Kirish. Korpus - bu turli xil til hodisalarini tahlil qilish va o'rganish uchun ishlatiladigan matnlarning katta to'plamidir. Korpusning keng ko'lamliligi bo'lishi ma'lumotning o'ziga xosligini ta'minlab, til hodisalarining barcha qirrasini to'liq namoyon etishga xizmat qiladi. Shu ma'noda ko'plab korpuslarni maxsus sohalarga yo'naltirilganligini, shuningdek, til doirasida milliy va tabiiy til hodisalarini tadqiq etilishini kuzatish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumki, korpus yaratilishi aniq maqsadga muvofiq bo'lib, aynan shu jihati tufayli uning har xil turlari yuzaga kelgan. U maqsadi, tili, janri, adabiy til shakli, korpusdagi tillar soni, hajmi va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Ta'kidlash joizki, til korpuslari til bo'yicha tadqiqotlar va amaliy topshiriqlar yechimi uchun inkor etib bo'lmas ish quroli sanalib, bir yoki bir necha til doirasidagi ma'lumotlar to'plami jamlanishi mumkin. Masalan, korpuslar til evolutsiyasini o'zida namoyon etib, undan foydalanuvchilarni til birliklaridagi shakllanish va rivojlanish jarayonidan voqif etadi. Garchi, korpuslar turli tiplarga ega bo'lsada, ularning maqsadi tilni qayta ishlash, tahrirlash, bir tildan ikkinchi yoki boshqa tillarga o'girish jarayonini avtomatlashtirish, shu kabi elektron lug'atlarga xos dasturlash tizimini takomillashtirishdan iboratdir.

Tarjimashunoslik sohasida alohida qiziqish uyg'otgan va ahamiyat kasb etgan turli xil elektron korpuslar xususida Mona Beyker ma'lumot keltirib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, ikkita turli xil korpus, jumladan, parallel va qiyosiy korpora tarjimada muhim o'rin tutadi. Tarjimaga oid tadqiqotlarda nomi tilga olingan "tarjima korpusi" Olohan tomonidan parallel korpusi sifatida keltirilib, u bir tildagi matnlar va ularning boshqa tilga tarjimalarining to'plami sifatida ta'riflanadi. Demak, matnlar va ularning tarjimalari turli usulda ifodalanishi mumkin, masalan:

- Parallel korpusning bir yo'nalishga (unidirectional) oid bo'lishi, ya'ni, matnlar tizimi A tilda, tarjimalari B tilda ifodalanishi bilan izohlansa, keyingi turi;
- Ikki yo'nalishli (bidirectional), ya'ni, matnlar tizimi A tilda, tarjimalari B tilda yoki aksincha, matnlar B tilda tarjimalari A tilda bo'ladi.

Shuningdek, boshqa usullari ham mavjud bo'lib, bilingual (bir tilli) – matnlar A tilda, tarjimalari B tilda, yoki multilingual (ko'p tilli), asliyat matnlari A va ularning tarjimalari B, C, D kabi bir nechta tillarda berilishi bilan izohlanadi. Tarjimashunoslikda parallel korpusdan foydalanish tillararo terminlarni qidirish va o'rganish, ularning tarjimasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, tarjima vositalaridagi o'ziga xos bo'lgan jihatlarni aniqlashda qo'l keladi. Tarjima borasida olib borilayotgan tadqiqotlarda bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonlarida tilga xos yoki bir nechta tillarda keng tarqalgan tushunchalar xususida biror bir ma'lumotga ega bo'lish maqsadida ko'p tilli korpuslardan foydalanish mumkin. Yana shuni inobatga olish kerakki, ushbu turdagi korpusni yaratish qiyin, chunki materiallar kamdan-kam hollarda bir nechta tillar o'rtasida teng miqdorli komponentlarga egaligicha tarjima qilinadi.

Parallel korpuslardan foydalangan holda o'tkaziladigan tadqiqotlar asosan kontrastiv linivistik tahlillarga qaratiladi. Biroq, bu kabi ilmiy ishlarning aksariyati til tizimidagi me'yordan tashqari vositalar ham mavjudligi va ular tarjimonning tanloviga bog'liqligini qo'llab quvvatlamaydi. Garchi, tarjima jarayonidagi turli vositalardan o'rinli foydalanish til birliklarining o'zgarishiga olib kelsa-da, tilga oid tadqiqotlarda tarjimaning ta'siri hisobga olinmaydi. Demak, parallel korpusning afzalliklari bilan bir qatorda uning kamchiliklari mavjudligini ham kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, parallel korpus tarjima matnlarining elektron muqobili sanalib, asosan ikki tilli tarjima matnlaridan iborat. Parallel korpus xususida, ayniqsa, uning tuzilishi, tarkibi, afzalliklari borasida ko'plab olimlar, jumladan, D. Dobrovolskiy, Yu. Tao, V. Zaxarov, A. Kokoreva hamda E. Sosninalar o'zlarining tadqiqotlarida e'tirof etishgan [3; 8; 4; 6]. Parallel korpus asliyat va belgilangan tildagi tarjimalarining elektron matnlar yig'indisidan iborat bo'lib, unda matnlar uzviyligi mavjud bo'lmaydi, balki gaplar, birikmalar mazmunan mos kelish darajasida bir nechta qismga bo'linadi. Aynan shu birliklar yonma-yon tarzda bir-biriga havola etilib, asliyat matni fragmentiga tarjima matnidagi mos fragment belgilanishi bilan turli dasturiy lingvistik amallarni bajarishda imkon yaratadi.

Shuningdek, parallel korpusning ko'p tilli va tarjima turlari omma tomonidan keng foydalanilib, ular turli tarkibiy qismga ega bo'lib, jumladan, matn tarjimasini, shuningdek, qiyoslashga qulay interfeysdagi matnlar yoki ma'lumotlar bazasi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Parallel korpus tarjima matnidagi leksema, so'z birikmasi, ibora, va boshqa bo'laklarini interfeysda namoyon bo'lgan tilga oid xususiyatlaridan voqif etadi. Korpus turlari zamonaviy tilshunoslikning har bir sohasi, jumladan, qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, tezkor tarjima dasturi, leksikografiyada keng foydalanish ushbu tarmoqlarni taraqqiy etishiga xizmat qilib, uning yaratish tizimini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiqini taqozo qiladi.

Keyingi turdagi korpus Mona Baker tomonidan o'rganilgan bo'lib, u qiyosiy usuldan foydalangan holda yaratiladi. Ushbu turdagi korpuslarning ilk namunalari Mona tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u korporani qiyoslashda bir tilda berilgan ikkita alohida matnlar majmuasi, ya'ni, birinchi korpus aslyat matnlaridan tashkil topib, ikkinchisi aslyatdan o'girilgan muqobil bir yoki bir necha tillardagi matnlarni qiyosiy to'plamini tashkil etadi.

Binobarin, qiyosiy korpus erkin o'girilgan tarjima matnlar va ma'lum qoidalarga binoan yaratilgan tarjimalardagi o'ziga xos jihatlarni tahliliga xizmat qilishini nazarda tutadi. O'z navbatida, tarjimasiz amalga oshirilgan yoki aslyat matnining ifodalanishida uning g'oyasi, janri, foydalanilgan manba, muallif va tarjimonning yoshi, stili hamda boshqa xususiyatlarini qiyoslash mumkinligi ma'lum asoslarga ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, taqqoslanayotgan korpusni tashkil etuvchi matnlar sohasi, variantdorligi, zamoni va hajmi jihatdan deyarli o'xshash bo'lishi talab etiladi. Ushbu turdagi korpus tadqiqida ma'lum bir tilga xos bo'lgan lingvistik xususiyat yoki tarjima matnlarining umumiy jihati hamda bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonidagi o'ziga xosliklarni namoyon etuvchi model inobatga olinadi.

Qiyosiy korpusda xususan tarjimaning batafsil tushuntirish usulidan foydalanish, soddalashtirish yoki leksik birlikni umuman o'girmagan holda ifodalashdan ko'ra afzalroqdir, ayniqsa, tarjimasiz keltirilgan so'z shakli yoki matn soddalashtirib, qolipga solinadi. Ya'ni, matn tarjimalari ushbu usullardan tashqari, mazmunan yanada soddalashtirib, aniqlashtiriladi.

Muhokama. Papaining ta'kidlashicha, o'girish jarayonida tarjima matnini soddalashtirish va aniqlashtirish usullarini qo'llash tarjimonning foydalanuvchiga kontekst mazmunini to'raligicha yetkazishga urinishidan kelib chiqadi. Shunga qaramasdan, qiyosiy korpuslar til sathlarini o'rganishda keng qo'llaniladi.

Yuqorida tilga olingan bir va ko'p tilli korpuslar ikkita asosiy tipga ajratiladi, masalan:

- 1) Aslyat tilida yozilgan ko'plab matnlarni va ularning bir yoki bir necha tildagi tarjima matnlarini o'z ichiga olgan korpuslar;
- 2) Ikki yoki bir necha tilda yozilgan bir sohaga oid matnlarni birlashtiruvchi korpuslar asosan, terminologiyada va tarjimonlar tomonidan keng foydalaniladi.

Har ikkala turdagi korpuslar tarjimaning samarali usullari, jumladan ikki va ko'p tilli terminologik lug'atlarni yig'ishda mashina tarjimasini, shuningdek leksikologiya, grammatika, stilistika, tarjimashunoslik sohalari doirasida tillarni qiyoslash kabi metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Parallel korpusning birinchi tipini yaratishda aslyat hamda tarjima matnlari fragmentining muvofiqligini ta'minlovchi dasturiy ta'minoti muammolarni yuzaga olib kelishi mumkin. Bu kabi muammolarni bartaraf etishning bir qancha mexanizmlari mavjud bo'lib, matn, jumladan, gaplar, bo'laklar, so'z birikmalari yoki so'zlarni avtomatik tahrirlovchi

usullardan foydalaniladi. Gapni tahrirlashda ushbu imkoniyatlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir [9]:

- a) asliyatdagi gap bitta gap orqali ifodalanadi;
- b) ikkita asliyatdagi gap tarjimada bitta gap orqali beriladi;
- c) bitta gap tarjimada ikkita gap vositasida tarjima qilinadi;
- d) aslyiat va tarjima matnidagi ikkita gaplar ma'no va gaplar soni jihatidan mos, biroq, gapdagi so'zlar soni teng emas;
- e) aslyiat matni o'girilmaydi;
- f) tarjima matnidagi gap aslyiat matni bilan ekvivalent bo'la olmaydi.

Baker, Svartvik, Becket va Leech kabi tilshunoslarning tadqiqotlari natijasida korporani lingvistik ta'limotda qo'llashning uzundan-uzoq tarixi va an'anasi bo'lsa-da, dasturiy ta'minot tizimlari yordamida matnlarni qayta ishlash nisbatan yangi amaliyotlardan sanalgan [1; 7; 2; 5].

Keyinchalik, Ahmad va Rogerlarning fikrlariga ko'ra, elektron matnlarning katta to'plamlaridan ma'lumotlarni avtomatik ravishda foydalanishga urinish 1980-yillarning oxirlarida amalga oshirilgan. Ta'kidlash joizki, elektron korpus vositalarining zamonaviy tilshunoslik sohasidagi afzalliklari beqiyos bo'lib, ular korpus o'z ichiga olgan ko'plab ma'lumotlarni qidirish, saralash va interfeysda ko'rsatishda, shuningdek tahlil jarayonida leksemalarni joylashtirish va ularni raqamlashtirishda ishlatiladi. Ahamiyatli jihati shundaki, korpusdagi ma'lumotlar bazasi son sanoqsiz tadqiqotlar va tahlillarni amalga oshirishda foydalanilishi mumkin.

Korpusdan foydalanishning tobora o'sib borishi hozirda turli tushunchalarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi, ya'ni, ushbu jarayon – kompyuterlashtirilgan va elektronlashtirilgan holda matnlarni saqlash hamda qayta ishlashni dasturiy ta'minot tizimlari tomonidan avtomatik yoki qisman avtomatik ravishda amalga oshirish – tarzida tushunila boshlandi.

V.P.Zaxarov esa ikkita asosiy usuldan foydalangan holda korpuslarni sinflarga bo'lish kerakligini ta'kidlaydi [8]. Unga muvofiq, birinchi usuli ma'lum bir tilga tegishli korpuslarning muayyan ichki korpusga nisbat berilishi bilan izohlansa, ikkinchisi, korpusga berilgan lisoniy tavsif turiga qarab ajratishdan iboratdir.

Korpuslar tilshunoslikda muhim vosita bo'lib, tadqiqotchilarga katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish va foydali ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ular til tillarni aniqlashga, turli til hodisalarini o'rganishga va farazlarni sinab ko'rishga yordam beradi. Korpuslardan foydalanishning afzalliklari orasida katta miqdordagi ma'lumotlarning mavjudligi, natijalarni takrorlash va tekshirish qobiliyati, shuningdek kontekst va tilning o'zgaruvchanligini hisobga olish kiradi. Biroq, taqdim etilgan ma'lumotlarning cheklanganligi va bog'liq muammolar kabi cheklovlar mavjud. Umuman olganda, korpuslar lingvistik tadqiqotlar uchun qimmatli vosita bo'lib, til haqidagi tushunchamizni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Xulosa. Yuqoridagi muhokama va tahlillardan xulosa qilish mumkinki, izohlashning morfologik, sintaktik, semantik, prosodik, uslubiy kabi ko'p turlari mavjudligiga qaramay, mavjud korpuslarning aksariyati morfologik yoki sintaktik (treebanks) turdagi izohlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, sintaktik izohlangan korpus leksik birliklarning morfologik xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Tadqiqiy va amaliy vazifalari, mavjud muammolarni hal etishiga mo'ljallanishi bo'yicha korpuslarning ko'plab turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Baker, M. "Corpora in Translation Studies: An Overview and some Suggestions for Future Research." *Target* 7.2: 1995. 223 – 43. Print.
2. Becket A *Concordance to Shakespeare*. London: Printed for G.G.J. and J.Robinson. viii, 1787. – 470 pages.
3. Dobrovolskii D. Kakie zadachi reshayut parallel'nye korpusy? (What tasks are solved by parallel buildings?), available at: <https://postnauka.ru/video/54851>
4. Kokoreva A.A. Korpus parallel'nykh tekstov v obuchenii inostrannomu yazyku. *Vestnik TGU*, vypusk 2 (118) (The corpus of parallel texts in foreign language teaching. Bulletin of TSU (Tambov State University), issue), 2013, pp. 57-62.
5. Leech, G. "Corpus linguistics and theories of linguistic performance". In, J. Svartvik (Ed.) *New Directions in Corpus Linguistics: Proceedings of Nobel Symposium 82*. Berlin: Mouton de Gruyter. 1992. Pp. 125-148.
6. Sosnina E.P. Parallel'nye korpusy v obuchenii yazyku i perevodu (Parallel corpora in language teaching and translation). Available at: http://ling.ulstu.ru/linguistics/resources/literature/articles/corpus_education_translation/
7. Svartvik J. Corpus linguistics comes of age // *Directions in Corpus Linguistics: Proceedings of Nobel Symposium 82 Stockholm, 4 – 8 August 1991* / ed. J. Svartvik. Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1992. P. 7 – 14.
8. Tao Yu., Zakharov V.P. Razrabotka i ispol'zovanie parallel'nogo korpusarusskogo i kitaiskogo yazykov. *Avtomatizatsiya obrabotki teksta* (Development and use of parallel corpus of the Russian and Chinese languages. Automation of text processing), available at: <https://www.researchgate.net/publication/306911853>
9. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/79743>

12.00.00-YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF DETERMINING THE EXTENT OF COMPENSATION FOR MORAL HARM

Hamrokulov Bahodir Mamasharifovich

Professor at the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

Abstract. This article discusses theoretical and practical issues related to determining the amount of compensation for non-pecuniary damage in the Republic of Uzbekistan and some foreign countries. Based on the findings of the study, reasonable proposals were made to improve national legislation.

Key words: moral damage, compensation, mental suffering, physical pain, quantity, rationality, fairness, material condition.

МАЪНАВИЙ ЗИЁН КОМПЕНСАЦИЯСИ МИҚДОРНИ АНИҚЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович

Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети профессори, ю.ф.д.

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси ва айрим хорижий давлатларда маънавий зиён компенсацияси миқдорини аниқлаш билан боғлиқ назарий ва амалий масалалари ўрганилган. Тадқиқот натижасида олинган хулосаларга асосланиб, миллий қонунчиликни такомиллаштириш юзасидан асосланган таклифлар берилди.

Таянч сўзлар: маънавий зиён, товон, руҳий азоб, жисмоний оғриқ, миқдор, оқилоналик, адолатлилик, моддий ҳолати.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N86>

Маънавий зиён компенсацияси миқдорини аниқлаш масаласи ҳозирги кунда цивилист ҳуқуқшунослар олдида турган асосий муаммолардан биридир. Ушбу муносабатлар ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан тўлиқ ўз ечимини топмаган. Маънавий зиён компенсациясини тартибга солишга қаратилган нормаларда унинг миқдори белгилаб берилмаган бу ваколат судларга берилган. Фикримизча, бундай қилинишига сабаб маънавий зиён - субъектив ва индивидуал характерга эгалиги, унинг миқдорини белгилаш кўп омилларга боғлиқ бўлганлигидир.

Маънавий зиённи ундириш фуқаролар учун ҳам асоссиз бойлик орттириш манбаси бўлиши керак эмас. Қонунчиликда маънавий зиён компенсацияси миқдорининг чегаралари кўрсатилмаганлиги натижасида даъвогарлар ҳам ариза беришда судлардан аниқ асосланмаган суммаларни жавобгардан ундириб беришни талаб қилишмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексидан ташқари бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда маънавий зиён миқдори белгилаб берилмаган бўлсада, бироқ уларда судлар етказилган маънавий зиённи баҳолашда эътиборга олишлари лозим бўлган мезонлар келтирилган. Ушбу мезонлар Фуқаролик кодекси 1022-моддасида ва Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги “Маънавий зарарни қоплаш ҳақидаги қонунларни қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 7-сон қарорининг 13-бандида белгиланган.

Маънавий зиён миқдорини белгилаш мезонларига тўхталадиган бўлсак, даъвогарга етказилган маънавий ва жисмоний азобларнинг даражасини кўрсатувчи объектив маълумотлар муҳим аҳамият касб этади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатига асосан азоб деганда “қийналиш”, “уқубат”, “жисмоний ёки руҳий қийноқ” [1], жисман ёки руҳан озор бермоқ, азият етказмоқ, азоб-уқубатга, қийин аҳволга солмоқ [2] тушунилади. Азоблар (қийноқлар) инсонинг ҳам жисмоний, ҳам руҳий фаолияти натижасида ҳосил бўлиши мумкин.

Жисмоний азоблар фуқаронинг соғлиғига зарар етказилиши, қийноққа солиниши ёки бошқа ташқи куч таъсирида шахснинг танасига етказилган ҳар қандай зарар натижасида келиб чиқиши мумкин. Маънавий азоб эса фуқарога қарши содир этилган ҳуқуқбузарлик унинг руҳиятига, онгига таъсир этиши билан руҳий қайғуриши оқибатида юзага келади. Фикримизча, Маънавий азоблар инсон руҳияти билан боғлиқ бўлганлиги сабабли “руҳий азоб” жумласи қўлланса мақсадга мувофиқ бўларди, деб ҳисоблаймиз. Сабаби “руҳий” сўзи кишининг руҳига, руҳий кайфиятига, ички кечинмаларига оид, улар билан боғлиқ тушунчадир [3].

Руҳий (маънавий) азобни фуқаро онгида, руҳиятида ўтказиши, кечириши керак бўлади. Бу психологик жараён ҳисобланади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “кечинма” дейилганда “кишининг руҳий ҳолатига таъсир қиладиган ҳис-туйғулар, уй-ҳаёллар” тушунилади [4]. Шундан келиб чиқиб, руҳий кечинмалар деганда инсон психикасида ҳосил бўлган ва маълум психик реакцияга олиб келувчи салбий ҳисларни тушуниш керак. Психологик зарар етказилганида инсон учун нормал реакция салбий ҳисларнинг (туйғуларнинг) пайдо бўлиши ҳисобланади. Шу боис руҳий (маънавий) азоблар дейилганда инсонга қарши ноқонуний ҳаракатлар содир этилиши натижасида бошидан кечирадиган психик салбий ҳолатларни тушуниш керак бўлади. Улар камситилиш, ғазаблантириш, нафрат, уят, умидсизлик, заифлик, ноқулайлик ва ҳоказо ҳисларида ифодаланади.

Руҳий қийноқларнинг характери маънавий зиённи баҳолаш учун муҳим аҳамияга эга бўлади. Судда ишни кўришда қийноқлар кучи ва давомийлиги, жабрланувчи ҳаётининг фаоллигини йўқотиш даражаси, унинг индивидуал ўзига хосликлари ва зарар етказилишининг ҳолатларини ҳисобга олиш керак. Шахсга руҳий азоблар етказилиши натижасида содир этилган объектнинг аҳамиятлилигига қараб унда психологик реакция сифатида ё оддий ҳис, ёки шахсий комплекс, ёки нерв бузилиши, ёки психик касаллик пайдо бўлиши мумкин.

Ушбу ҳолатда маънавий зиён миқдорини аниқлашда суд олдида жиддий муаммо пайдо бўлади. Бу даъвогар ва аризагининг бошидан кечирган руҳий (маънавий) азобларини текшириш ва ҳақиқатдан ҳам бундай қайғуриш бўлганлигини аниқлаш муаммосидир. Ушбу масалани ечиш учун суд замонавий психологик диагностика,

психик ҳолатлар тизими, инсоннинг муҳит билан оддий ва кескин ҳолатларда таъсирлашув қонуниятларида умумий тушунчаларга эга бўлиши, одам ахлоқининг шахсий ўзига хосликлари ва бошқа масалаларни тушуниши керак. Бироқ амалиётда маънавий зиён миқдорини белгилашда судларда турлича ёндашувларни кузатиш мумкин.

Маънавий зиён миқдори белгилашда айрим мутахассисларнинг қонун нормаларини кишининг руҳий ҳолатига қўллашда муайян қийинчиликларга дуч келаётганлигидан келиб чиқиб, мазкур масала юзасидан психолог ёрдамидан фойдаланишни тавсия этиш ва Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексида белгиланган тартибда суд-психологик экспертизаси тайинлашга оид қоидаларни киритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бундай амалиёт ҳозирги кунда Беларусь ва Тожикистон Республикасида қўлланилади. Республикамиз судлари амалиётда бундай ҳуқуқдан фойдаланилмайди. Назаримизда, экспертиза тайинлаш амалиётини республикамиз судлари ҳам қўлласа мақсадга мувофиқ бўларди. Бу ўз навбатида суд қарорларини асослантирган бўлишига олиб келарди. Экспертиза тайинланиши маънавий зиён миқдорини аниқлаб бермасада, лекин жабрланувчи ҳақиқатдан ҳам ўз бошидан маънавий (руҳий) азобларни кечирганлик фактини тасдиқлаб берган бўларди.

Маънавий зиён миқдорини белгилашда ҳисобга олинадиган кейинги мезон бу тажовуз қилинган объектнинг ҳаёт учун муҳимлиги ва фойдалилиги даражасидир. Ушбу ҳолатда судлар маънавий зиён етказилган объектнинг фуқаро ҳаёти учун қанчалик муҳимлиги ва фойдасини ҳисобга олиши керак. Фуқаронинг соғлиғига зарар етказилиши, айталик унга жисмоний зарар етказиш оқибатида кўриш қобилиятидан маҳрум бўлиши натижасидаги маънавий қайғуриши, жабрланувчининг шаъни ва кадр-қимматини камситувчи маълумотлар тарқатилиши натижасида етказилган маънавий зиёнга нисбатан оғир кечади. Шу сабабли судья ишни кўраётганда, маънавий зиён миқдорини белгилашда албатта ушбу ҳолатларни эътиборга олиши керак бўлади. Бироқ мазкур ҳолатларда ҳам судларда масалага турлича ёндашиш ҳолатлари учрайди. Жумладан, фуқаролик ишлари бўйича Тошкент шаҳар судининг 2023 йилдаги ажрими билан биринчи инстанция суди томонидан ундирилган 50 000 000 сўм миқдордаги маънавий зиён 15 000 000 сўмга камайтирилган. Бунда жавобгар “Н” автомашинани бошқара туриб “Ж”ни уриб юбориши натижасида унинг соғлиғига шикаст етказган ва унинг ўнг кўлига протез қўйдирилган. Ажримда маънавий зиён миқдорини камайтириш борасида ўз қарорини апелляция инстанцияси қуйидагича асослайди: “Ж” умумий олганда саломат, мустақил ҳаракатлана олади, расман ишлайди, сифатли протез қўйдирганидан сўнг ўнг кўли ҳам маълум ҳаракатларни бажара олади, ўз навбатида жавобгар қасддан жиноят содир этмаган, йўл транспорт ҳодисаси натижасида даъвогарга зарар етказган, шу сабабли кассация инстанцияси адолатлилик ва оқилоналик талабларини қўллаб, маънавий зиённи 15.000.000 сўм миқдорида қоплашни лозим топади[5].

Маънавий зиён миқдори белгилашдаги яна бир мезон ҳуқуқбузарликнинг оғирлиги ва оқибати. Ҳуқуқбузарликнинг оғирлиги ва ижтимоий хавфлилик хусусияти тажовуз объекти (инсон ҳаёти ва соғлиғи, мулки ва ҳ.к.) ва айбнинг шакллари билан белгиланади. Ҳуқуқбузарликнинг ижтимоий хавфлилик даражаси қилмиш содир

этилиши ҳолатлари, яъни ҳуқуқбузарлик содр этиш усули, келиб чиққан оқибатлар, уларнинг қанчалик оғирлиги билан белгиланади.

Ҳуқуқбузарлик қанчалик оғир даражада содир этилган бўлса, унинг оқибатлари ҳам кўпроқ салбий ҳолатларни келтириб чиқариши мумкин. Ҳуқуқбузарликнинг оғир оқибатга олиб келиши мумкин бўлган ҳолатларга жабрланувчининг яқин қариндошларининг ўлдирилиши, ногиронликка олиб келадиган тан жароҳати етказилиши, озодликдан маҳрум қилиш, номусига тегиши, турар жойдан ёки бошқалардан маҳрум қилиш ва бошқа ҳолатларни киритиш мумкин. Судлар маънавий зиён миқдорини белгилашда ҳуқуқбузарлик қандай содир этилганлиги ва унинг оқибатлари нималарга олиб келганлигини ҳисобга олишлари лозим бўлади.

Жабрланувчининг шахсий хусусиятларини инобатга олиш, бизнинг фикримизча, маънавий зиён компенсацияси миқдорини белгилашда асосий мезон бўлиб қолмоғи керак. Фуқаронинг шахсий хусусияти, унинг ўзига хослигини, алоҳидалигини аниқлаш тушунча. Жабрланувчининг шахсий хусусиятига жинси, ёши, ижтимоий ҳолати, ижтимоий обрўси, унинг оилавий ҳолати, обрўси, қариндошлик муносабатлари, яшаш шароитлари, ахлоқий кўникмалари, соғлиги, соғлигининг психик ҳолати, характери, болалари борлиги, зиёлиги, ногиронлиги, ақлий қобилиятлари, темперамент ва характер тури, қандайдир ижтимоий гуруҳ аъзоси сифатида инсонга хос индивидуал ўзига хосликлар, машҳурлик, етимлиги, келиб чиқиши, ижтимоий ўрни, дини, ташқи маълумотлари, туғма касалликлари, меҳнат фаолиятининг тури, мансаби, фарзандли бўла олмаслиги, никоҳдаги ҳолати, қарамоғида бўлган шахслар сони, вояга етмаган болалар, қариялар, таълими, миллати, иш жойи, мансаби, маошининг миқдори, судланганлиги, соғлигининг ҳолати, ҳомиладор, сурункали касалликка эгалиги, психик тўлиқ ривожланмаганлиги ва ҳоказолар бўлиши мумкин. Судлар зарар миқдорини белгилашда бу омилларни ҳисобга олишлари лозим.

Зарар етказувчи шахснинг моддий аҳволи ҳам маънавий зиён миқдорини белгилашда ҳисобга олинадиган омиллардан биридир. Фуқаролик кодексининг 1004-моддаси охири бандида суд фуқаро томонидан етказилган зарарни миқдорини, унинг мулкӣ ҳолатини ҳисобга олиб, камайтириши мумкин, зарар қасддан қилинган ҳаракатлар (ҳаракатсизлик) туфайли етказилган ҳоллар бундан мустасноли белгиланган. Зарарнинг миқдори адолатли бўлиши ва айбдорни моддий ҳолатини қийинлаштириб қолдириши керак эмас. Оддий заводда ишловчи ходимга, ҳақорат қилганлиги натижасида жабрланувчига етказилган маънавий зиённи миқдори юз миллион қилиб белгиланиши адолатдан бўлмаса керак.

Судлар томонидан маънавий зиён миқдорини белгилашда оқилоналик ва адолатлилик талабларини эътиборга олишлари алоҳида аҳамиятга эга бўлган омил ҳисобланади. Қонун чиқарувчи органнинг фуқаролик ҳуқуқининг алоҳида институти бўлган маънавий зиён компенсациясига нисбатан бу талабни қўллаши ғайритабиий ва ҳатто қизиқ ҳолатдир. Чунки фуқаролик ҳуқуқи билан тартибга солинадиган бошқа муносабатларда судларга қарор қабул қилишда алоҳида талаблар мавжуд эмас. Фуқаролик ҳуқуқий институтларидан бўлган маънавий зиён компенсацияси миқдорини аниқлашда судларга алоҳида оқилоналик ва адолатлилик талабларига амал қилиши ўз-ўзидан ўрнатилган эмас[6]. Бунга асосий сабаб азобнинг даражасини аниқ

белгилашнинг имконияти йўқлигида ҳамда азоб миқдорини пул билан ўлчашнинг ғоят мураккаблигидадир.

О.Оқюлов оқилоналик ва адолатлилик хусусида белгиланган товон пули миқдорининг ҳуқуқбузарнинг мулкӣ ҳолатига, унинг имкониятларига қай даражада мослиги нуқтаи назаридан талқин этиш мақсадга мувофиқлигини, адолатлилик эса товон пули миқдорини белгилашда унинг маънавий зиён ҳажмига, оқибатларига мутаносиблиги, жабрланувчига нисбатан компенсация (қоплаш) функциясини бажара олиш хусусиятларида намоён бўлишини таъкидлайди[7]. Оқилоналик ва адолатлилик талаблари маънавий зиён компенсациясида жабрланувчининг шахсини, зарар етказишнинг аниқ ҳолатлари ва эътиборга молик бошқа барча омилларни ҳисобга олиб, у бошидан кечирганларининг ҳажми ва характериға мос пул суммасини аниқлашни назарда тутлади.

Оқилоналик талаблари қабул қилинган қарорнинг “мантиқӣ, мақсадга мувофиқлигини”, яъни товон суммаси ишда мавжуд барча ҳолат ва исботлар инobatга олиниб белгиланганлигини билдиради. Адолатлилик талаблари “қабул қилинган қарорнинг холислиги, ҳақлиги ва тўғрилигини” кўзда тутлади.

Хорижий ҳуқуқшунос олимлар томонидан маънавий зиён компенсацияси миқдорини белгилашда таклиф этилаётган методлардан бири А.Эрделевский томонидан ишлаб чиқилган[8]. А.М.Эрделевский томонидан таклиф этилган услуб (метод) хусусида шуни айтиш мумкинки, бу услуб анча мураккаб, ўзига хос камчиликларға ва қарама-қаршиликларға эға. Мазкур усулда муаллиф ўртача ойлик иш ҳақи сифатида энг кам ойлик иш ҳақи (ЭКИХ)нинг 6 баравари мезонидан келиб чиқади ва маънавий ва жисмоний азоблар даражасидан келиб чиқиб ЭКИХнинг 10 йиллик ўртача иш ҳақининг миқдори 720 ЭКИХ деб олинади. Бунда ушбу базис даражасини ва Жиноят кодекси моддалари санкцияси максимал миқдорининг нисбатини ҳисобга олиб, А.М.Эрделевский шахсининг номоддий неъматларига турли тажовузларға қўлланиладиган тахминий маънавий зиённи қоплаш миқдори жадвалини ишлаб чиқади.

Маънавий зиён миқдорини аниқлашда қўлланиладиган кейинги методика Россиялик иқтисодчи олим В.И.Кашин томонидан ишлаб чиқилган[9]. Кашин таклиф қилган етказилган маънавий зиённи ҳисоблаш методикаси, аслида, “соғлиқ ва инсон капитали ресурсларининг йўқотилиши”ни баҳолашдан иборат. “Соғлиқ ресурслари” тушунчаси, яъни “яшаш, меҳнат қилиш ва мақсадларға эришиш қобилияти” тушунчаси киритилади. Унинг фикрича, соғлиқ иқтисоднинг энг муҳим ресурси ҳисобланади, қолган барча қадриятлар фақат соғлиқ борлиги ва сарфланиши туфайли яратилади. Муаллиф соғлиқни баҳолаш учун “даромад ёндашуви”ға ўтади, унинг асосида - соғлиқ ресурслари қадрининг келажакда улардан фойдаланиб келадиган даромадлар билан боғлиқ деб ҳисоблайди.

Россия юристлар ассоциацияси ҳузуридаги маънавий зиён учун компенсация миқдорини аниқлаш масалалари бўйича комиссияси 2020 йил 3 мартда “Инсоннинг ҳаёти, соғлиғи ва жисмоний дахлсизлигига тажовуз қилинганда етказилган маънавий зиён учун компенсация миқдорини белгилаш бўйича методик тавсиялар” ишлаб чиққан. Унда маънавий зиён етказилиши тўрт турға ажратилган, яъни, соғлиқни вақтинча йўқотилиши, доимий йўқотилиши, инсоннинг ҳаёти, соғлиғи ва жисмоний

дахлсизлигига тажовуз қилиниши, яқин қариндошининг йўқотилиши. Мазкур турларга тегишли тартибда маънавий зиённинг миқдорини аниқлаш бўйича мезонлар белгиланган бўлиб, булар жумласига жисмоний шахснинг индивидуал ўзига хос хусусиятлари, зарар етказувчининг айби даражаси ва иш ҳолатининг муҳим жиҳатлари ишлаб чиқилган[10].

Айрим хорижий давлатлар қонунчилигида маънавий зиён компенсациясига оид қоидалар белгиланганлигига узоқ йиллар бўлганига қарамасдан, унинг миқдорини аниқлаш ҳозирга қадар мавҳумлигича қолмоқда. Масалан, АҚШ қонунчилигида маънавий зиённи назарда тутилганлигига юз йилдан ортиқ бўлган бўлсада, унинг миқдорини аниқлаш юзасидан аниқ, ягона белгиланган ҳужжат мавжуд эмас. АҚШда маънавий зиён миқдорини белгилаш судлар ихтиёрига берилган. Ушбу давлатда прецедент ҳуқуқи амал қилганлиги сабабли судлар маънавий зиён компенсацияси миқдорини аниқлашларида илгари ҳудди шундай мазмундаги қабул қилинган қарорда белгиланган миқдорни асос қилиб оладилар. Товон миқдорини аниқлашга нисбатан ёндашувлар ҳар бир штат қонунчилигидан келиб чиқиб фарқланади. Бунда товон миқдори ўртасидаги фарқ сезиларли даражада белгиланганлигини кўришимиз мумкин.

Австрия қонунчилигида маънавий зиённинг аниқ миқдори белгиланмаган. Бироқ, Австрияда шакланган суд амалиётига кўра етказилган тан жароҳатлари учун оғирлик даражасидан келиб чиқиб, соғлиқ тикланишининг ҳар бир куни учун 100 евродан 300 еврогача маънавий зиён қоплаш миқдори ҳисобланади.

Германия қонунчилигида ҳам маънавий зиённи қоплашнинг аниқ миқдор белгиланмаган. Бироқ, қонунда судлар маънавий зиённи қоплаш миқдорини аниқлашда илгари судда кўрилган вазиятлардан келиб чиқиши белгиланган.

Буюк Британияда етказилган маънавий зиён учун минимал “тариф сеткаси” амал қилади. Товон пулининг миқдори маънавий азобларнинг давом этиш муддатига боғлиқ. Маънавий азоблар деганда меҳнат лаёқатининг пасайиши, ижтимоий алоқаларнинг узилиши, руҳий сиқилиши тушунилади. Агар бу 16 ҳафтагача давом этса 1.000 фунт стерлинг миқдорида маънавий зиён ундирилади, 26 ҳафтагача 4.000, 26 ҳафтадан кўп бўлса 7.500, доимий бўлганда 20.000 фунт стерлинг ундирилади.

Францияда меҳнат лаёқатини йўқотиш ҳолатлари учун энг юқори сумма, яъни бир ой учун 600 евро белгиланган. Бошқа ҳолатларда маънавий зиённи қоплаш миқдори суд томонидан зиённинг оғирлик даражаси ва жабрланувчининг ёшидан келиб чиқиб аниқланади[11].

Маънавий зиён миқдорини аниқлаш бўйича юқорида келтирилган методлар ҳамда хорижий давлатлар амалиёти таҳлилидан келиб чиқиб, маънавий зиён етказилиши мумкин бўлган ҳолатлар ҳамда ҳуқуқбузарлик турлари учун бир хилдаги мезонлар ва методикани қўллаш мумкин эмас деган хулосага келиш мумкин. Шу сабабли маънавий зиён компенсациясида ҳуқуқбузарлик ҳолатларининг айрим турлари учун миқдорни аниқлашда жабрланувчи соғлиғининг тикланиши ёки у билан боғлиқ турли айбловларнинг олиб ташланиши учун алоҳида метод ҳамда маънавий зиён етиши мумкин бўлган алоҳида методни таклиф қилиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, соғлиққа шикаст етказилиши натижасида вужудга келган маънавий зиён учун соғлиқни тиклаш учун кетган ҳар бир кунга базавий ҳисоблаш миқдори баробарида товон пули тўлаш ёки реабилитация қилинганларга ҳар бир ноқонуний ушлаб турилган кун учун

базавий ҳисоблаш миқдорида, лекин унинг энг юқори суммаси ушбу миқдорнинг уч минг баробарида белгиланиши мумкин. Маънавий зиён етказилиши мумкин бўлган бошқа ҳолатларга нисбатан эса фуқаролик қонунчилигида белгиланган маънавий зиён компенсацияси миқдорини аниқлашнинг умумий асослари ва қоидалари қўлланилади. Бу ўринда миллий судлар томонидан реабилитация қилинганларга етказилган маънавий зиён компенсацияси миқдорини белгилашда аниқ бир механизмлар мавжуд эмаслиги кўзга ташланади. Масалан, фуқаро Т.га суднинг ноқонуний ҳукми сабабли 5 йилу 9 ой муддат давомида айбсиз бўла туриб қамокда ўтирганлиги учун 15 млрд сўм сўралгани ҳолда унга 200 млн. сўм миқдорда товон пули ундириб берилган бўлса[12], фуқаро Р.га суднинг ноқонуний ҳукми сабабли 9 йилу 6 ой муддат давомида айбсиз бўла туриб қамокда ўтирганлиги учун сўралган 6 млрд сўм сўралгани ҳолда унга 300 млн сўм ундириб берилган[13].

Шу ўринда маънавий зиённи аниқлаш ва уни компенсация миқдорини белгилашга нисбатан ривожланган давлатлар амалиётида шаклланган яна бир методикага эътибор қаратиш лозим. Хусусан, маънавий зиённи етказишда унинг етказувчининг айби шакллари: қасд ёки эҳтиётсизлик инobatга олиниши, бунда қасд учун зарарни қоплаш “жарима” сифатида белгиланиши, эҳтиётсизлик учун эса маънавий зиён товон пули сифатида ундирилиши назарда тутилади. Миллий қонунчиликда эса маънавий зиённи аниқлаш ва уни компенсация миқдорини белгилашга нисбатан бундай ёндашув мавжуд эмас. Шу сабабли миллий қонунчилик маънавий зиёнга нисбатан қоидаларни умумий тарзда шакллантирган ва асосий, ҳал қилувчи ўринни ҳуқуқни қўлловчи, яъни судьяларга берган. Бу эса ўз навбатида, амалиётда маънавий зиён миқдорини аниқлашга нисбатан турлича ёндашувларга сабаб бўлмоқда. Ушбу муаммонинг ечими сифатида эҳтиётсизлик натижасида етказилган маънавий зиён компенсацияси товон пули сифатида ҳар бир вазиятдан келиб чиқиб суд томонидан амалдаги қонунчилик талаблари асосида аниқланиши, қасд натижасида вужудга келганида эса “кучайтирилган” жавобгарлик миқдорини белгилаш мақсадга мувофиқ. Бу ҳолат Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг маънавий зиёнга доир қарорида ўз аксини топиши зарур.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. 1. А-Д / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. Б.: 50.
2. Ўша жойда. Б.: 286
3. Ўша жойда. Б.: 401.
4. Ўша жойда. Б.: 362.
5. Фуқаролик ишлари бўйича Тошкент шаҳар суди архиви материаллари 2023 йил.
6. Романов В.С. Моральный вред как институт гражданского права: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М.: 2006. – 24 с.
7. Оқюлов О.Интеллектуал мулк ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 307-б.

8. Эрделевский А.М. Компенсация морального вреда: анализ и комментарий законодательства и судебной практики. – 3-е изд., испр. И доп. – М.: Волтерс Клувер, 2004. Стр. 208-215
9. Кашин В. Оценка морального ущерба в РФ. Юридическая практика. Выпуск №22 (284). <https://pravo.ua/articles/ocenka-moralnogo-ushherba-v-rf>
10. Методические рекомендации по определению размера компенсации морального вреда при посягательствах на жизнь, здоровье и физическую неприкосновенность человека. Разработана Специальной Комиссией Ассоциации юристов России. <https://zakon.ru/blog/2020/03/24/>
11. Козлова А. Моральный ущерб: на Западе присуждают миллионы, а в России – гроши. / Комсомольская правда. 22.10.2018г. <https://www.kp.ru>
12. Фуқаролик ишлари бўйича Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек туманлараро судининг 2020 йилдаги архиви материаллари. 2-1001-2005/1045-сонли фуқаролик иши
13. Фуқаролик ишлари бўйича Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек туманлараро судининг 2020 йилдаги архиви материаллари. 2-1001-1947/51798-сонли -сонли фуқаролик иши.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

TRANSLATION FEATURES OF ENGLISH SCIENCE FICTION OF THE 20th CENTURY

Fayzullaev Aslbek

National University of Uzbekistan

E-mail: fayzullayev_a@nuu.uz

Abstract. In this article, the legal analysis of socially dangerous acts such as the intentional destruction or harm of property, clarification of methods of their occurrence and differentiation from other crimes, as well as issues of responsibility. Some issues of responsibility for these crimes in foreign countries. In the Republic of Uzbekistan discussed general indications of crimes of this type.

Key words: Death, harm, reconciliation institute, much more quantity, a lot of damage, a lot of damage, a lot of damage, CIS countries, the death of a person from carelessness.

MULKNI QASDDAN NOBUD QILISH YOKI UNGA ZARAR YETKAZISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Fayzullayev Aslbek Ulug'bek o'g'li

O'zMU "Huquqiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish kabi ijtimoiy xavfli qilmishlarning yuridik tahlili, ularni sodir etish usullarni aniqlashtirish va boshqa jinoyatlardan farqlash hamda javobgarlik masalalari. Xorijiy mamlakatlarda ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikning ayrim masalalari. O'zbekiston Respublikasida usbu turdagi jinoyatlarning umumiy ko'rsatgichlar haqida muhokama qilingan

Kalit so'zlar: Nobud qilish, zarar yetkazish, yarashuv instituti, ancha miqdor, ko'p miqdorda zarar, juda ko'p miqdorda zarar, MDH davlatlari, ehtiyotsizlikdan odam o'lishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N87>

Kirish. Mulkni ishonchli huquqiy himoya qilish, uning daxlsizligini taminlash davlat huquqiy siyosating asosiy yo'nalishlari sifatida so'nggi yillarda yurtimizda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning yangi tahiridagi Konstitutsiyasining 65-moddasida.[1.] Yurtimizda mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish holatlari ko'plab uchramoqda, xususan ayrim shaxslar tomonida fuqarolarni uy-joylari va avtotransport vositalarni, tadbirkorlik subyektlarni mol-mulklarni(do'kon, xizmat ko'rsatish binolar va boshqa obyektlarni) nobud qilish, yoqib yuborish yoki boshqacha tarzda yo'q qilish holatlarni uchrab turibdi, ushbu harakatlarda subyekt qasddan jabrlanuvchiga turli xil sabablarga ko'ra unga zarar yetkazishni maqsad qiladi. Jamiyatimizda uchrayotga ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni takomillashitirish va xalqaro amaliyotni o'rganish, jinoyat qonunchiligimizdagi mavjud muammolarni bartaraf etishdan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (bundan keyin matnda JK) 173-moddasida Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish **ancha miqdorni** tashkil etsa jinoiy javobgarlik mavjudligi begilangan. Ushbu normaning yuridik tahlil etadiga bo'lsak. Jinoyat obyektini o'zganing mulk huquqi, mulk ko'char va ko'chmas mulkga nisbatan mulkiy huquqlari hisoblanadi. Jinoyat obyektiv tomoni mulkni nobud qilish yoki unga ancha miqdorda yoki undan ortiq (*34 mln so'mdan boshlandi 01.02.2024-yil holatiga*) zarar keltirish tushuniladi. Jinoyat subyektini JK 173-moddasi 1-qismi uchun 16 yoshga to'lgan, JK 173-moddasi 2-,3-qismlari uchun 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikga tortilishi belgilangan[3]. Jinoyat subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd(ko'pincha) va egri qasd bilan sodir etiladi. Professor M.Rustamboyev fikricha **Nobud qilish** - yoqib yuborish, kislotada eritib yuborish, buzish kabi mulkni to'liq yo'q qilishda ifodalanadi yoki mulkni shunday holatga keltirish tushuniladiki, buning natijasida u o'zining sifat va foydalilik xususiyatlarini to'liq yo'qotadi. Nobud qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, mulk tiklash yoki ta'mirlash orqali qayta tiklanmaydi va xo'jalik muomalasidan to'liq chiqib ketadi. **Zarar yetkazish** deganda unga jinoyatkorona munosabatda bo'lish natijasida mulkni xo'jalik maqsadlarida foydalanish xususiyatlari vaqtincha yoki qisman yo'qotishi, ammo uni tiklab bo'lishi va undan kelajakdan foydanlanish mumkinligi tushuniladi deb tarif bergan[2].

JKning 173-moddasi jinoiy javobgarlik masalalarni tahlil qiladigan bo'lsak, 173-moddaning 1-qismi uchun quyidagi jazo turlari begilangan.

1) bazaviy hisoblash miqdori(bundan keyin matnda BHM)ning 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima

2) 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari

3) 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari

JKning 175-moddaning 2-qismi ushuncha o'sha harakatlar uchun ya'ni og'irlashtiruvchi holatlarda millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida, atrofdagilar uchun xavfli usulda, **ko'p miqdorda** zarar (BHMning 300 baravaridan 500 baravarigacha) yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa quyidagi jazo turlari begilangan.

1) *BHMning 75 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima*

2) *300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari*

3) *2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari*

4) *1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash*

5) *3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish*

JKning 175-moddaning 3-qismi o'sha harakatlar uchun ya'ni og'irlashtiruvchi holatlarda xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga nisbatan, uyushgan guruh va uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, quyidagi jazo turlari begilangan.

1) *3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash*

2) *3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish*

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-I-son Qonuni bilan JK 173-moddasi rag'batlantiruvchi norma 4-qism bilan to'ldirildi. Aybdor tomonidan yetkazilgan moddiy zarar **uch karra miqdorida** qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi belgilandi.

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga rtishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 254-II-son Qonuni bilan Jinoyat qonunchiligiga yarashuv instituti(JK 66¹-modda (*Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish*))si bilan to‘ldirildi) kirtildi. Ushbu rag‘batlantiruvchi norma JKning 173-moddasi 1-qismi uchun ham tadbiiq etildi. Agar jinoyatni *birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u o‘z aybiga iqror bo‘lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa*, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi belgilandi.

Muhokama. JKning 173-moddasi uchun javobgarlik masalarini tahlil qilisak 1-qism sanksiyasida 1) **jarima** (50/75 barobargacha) 2) **majburiy jamoat ishlari**(300 soatgacha) 2) **axloq tuzatish ishlari**(2 yilgacha) kabi **3 ta jinoiy jazo** turlari belgilangan, albatta ushbu jazo choralarni tayinlashda uning shaxshi, amalda to‘lana olinishi imkoniyati, mehnatga layoqatliligi shuningdek JK umumiy qism qoidalariga rioya qilgan holda qo‘llaniladi. Yetkailgan zarar miqdori bo‘yicha JKning 173-moddasi 1-qismi uchun qilmish **ancha miqdorni** (33 mlndan ortiq.(01.05.2023-yil holatiga)) zarar yetkazilsagina, 2-qismi uchun qilmish ko‘p miqdorni(170 mlngacha(01.02.2024-yil holatiga)) jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. 3-qismi bo‘yicha zarar miqdori bo‘yicha kavlfikatsiya qilish keltirib o‘tilmagan. Ushbu qilmishlar uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz barobaridan ortiq zarar yetkazilgan holatlarda ushbu modda bilan javobgarlikga tortish masalarni ochiq qolganini ko‘rishimiz mumkin. ning mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish bilan bog‘liq harakatlar a) *millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida; b) atrofdaqilar uchun xavfli usulda; a) xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga nisbatan; b) uyushgan guruh va uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa jinoyatning obyektiv va subyektiv tomon holatiga ko‘ra og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida belgilangan.*

O‘zbekiston Respublikasida mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish uchun jinoiyat javobarlikni belgilovchi Jkning 173-moddasi tegishli qismlarning sanksiyalariga 2015-, 2019-yillarda tegishli rtish va qo‘shimchalar kirtilgan. Xususan 2015-yil 10-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining 389-sonli Qonuni bilan jinoyat qonunchiligi jazo tizmiga yangi jazo turi kirtilishi munosabati bilan JK 173-moddasi **ikkinchi qismi** bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash, **uchinchi qismi** uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash jazolari bilan to‘ldirildi. Bu o‘z navbatida ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxslarning zimmasiga o‘zi yetkazgan moddiy va ma‘naviy zararining o‘rnini qoplash, ishga yoki o‘qishga joylashish majburiyatlarini, shuningdek uning tuzalishiga yoki axloqan o‘zgrishiga ko‘maklashuvchi boshqa majburiyatlarni yuklashi mumkinligiga, JKning insonparvarlik prinsipiga moslashtirishda muhim qadamlar bo‘ldi.

Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan 2019-yil 3-dekabdagi O‘zbekiston Respublikasining 586-sonli Qonuni bilan “eng kam oylik ish haqining” degan so‘zlar “bazaviy hisoblash miqdorining” degan so‘zlar almashtirilgan. Ushbu rish javobgarlik masalariga deyarli ta‘sir etmagan.

Natijalar. MDH davlatlari jinoyat qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari qiyosiy tahlil etmiz.

Qirg'iziston Jinoyat kodeksining 216-moddasiga ko'ra[4.] ning mulkiga **katta zarar** yetkazilgan holda nobud bo'lishi yoki shikastlantish jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, bir yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 500 baravaridan 1000 baravarigacha jarima bilan jazolanadi. Xuddi shunday qilmish umumiy xavfli yo'l bilan sodir etilgan yoxud **ko'p miqdorda zarar** yetkazilgan bo'lsa, 1000 dan 2000 baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Agar **o'ta ko'p miqdorda zarar** yetkazilgan bo'lsa 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

Qozog'iston Jinoyat kodeksining **202-moddasiga** ko'ra bironing mol-mulkini qasddan yo'q qilish yoki shikastlash **ko'p miqdorda zarar** yetkazish uchun 600 soatgacha bo'lgan muddatga jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha ozodlikni cheklash yoki xuddi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. **Qozog'iston** Jinoyat kodeksining 202-moddasi 2-qismida xuddi shunday harakatlar o't qo'yish, portlash yoki boshqa umumiy xavfli yo'l bilan sodir etilgan, sog'liqqa og'ir yoki o'rtacha og'irlikdagi zarar yetkazilgan bo'lsa, jabrlanuvchining o'z xizmat yoki jamoat burchini bajarishi munosabati bilan yoxud o'zining yaqin qarindoshlariga nisbatan xuddi shu sabablarga ko'ra sodir etilgan bo'lsa, ijtimoiy, milliy, irqiy yoki diniy adovat asosida sodir etilgan bo'lsa yoki **katta zarar** yetkazilishini og'irlashtiruvchi normalar hisoblanib ushbu harakatlar uchun uch mingdan yetti ming oylik hisob-kitob ko'rsatkichi miqdorida jarima yoki shu miqdorda axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan yetti yilgacha ozodlikni cheklash yoki xuddi shunday muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. **Qozog'iston** Jinoyat kodeksining 202-moddasi birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar natijasida **ehtiyotsizlikdan odam o'limi** yoki o'ta ko'p miqdorda zarar etkazish kabi oqibatlarga olib kelsa besh yildan **o'n yilgacha ozodlikdan** mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.[7.]

Turkmaniston Jinoyat kodeksining **256-moddasiga** ko'ra bironing mol-mulkini qasddan yo'q qilish yoki shikastlash, buning natijasida katta zarar yetkazilgan bo'lsa belgilangan asosiy miqdorning besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Xuddi shu harakatlar o't qo'yish, portlash yoki boshqa umumiy xavfli yo'l bilan sodir etilgan bo'lsa yoki ehtiyotsizlikdan odam o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, uch yildan **sakkiz yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilan qo'yilgan.[7.]

Tojikiston Jinoyat kodesining **255-moddasiga** ko'ra o'zganing mol-mulkini qasddan yo'q qilish yoki shikaslatish, buning natijasida katta zarar yetkazilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining **ikki yuz ellik** baravaridan **uch yuz oltmish besh** baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Xuddi shunday harakatlar o't qo'yish, portlash yoki boshqa umumiy xavfli yo'l bilan sodir etilgan yoki **ehtiyotsizlikdan odam o'limiga** yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelgan yoxud katta hajmdagi zarar yetkazilgan bo'sa eng kam oylik ish haqining **uch yuz oltmish besh** baravaridan **to'qqiz yuz o'n ikki** baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.[7.]

Rossiya Jinoyat kodeksining 167-moddasiga ko'ra o'zganing mol-mulkini qasddan yo'q qilish yoki shikastlash, agar bu qilmishlar **jiddiy zarar** yetkazgan bo'lsa, 40 ming rublgacha jarima yoki mahkumning ish haqi yoki boshqa daromadlari miqdorida uch oygacha bo'lgan muddatga jarima solishga yoki uch yuz oltmish soatgacha bo'lgan majburiy ishlar yoki bir

yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha majburiy mehnat yoki **uch oygacha qamoq** yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar belgilangan. Agar xuddi shunday qilmishlar bezorilik niyatida, o't qo'yish, portlash yoki boshqa umumiy xavfli yo'l bilan sodir etilgan bo'lsa yoki **ehtiyotsizlikdan odam o'limiga** yoki boshqa og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, **besh yilgacha** bo'lgan muddatga majburiy mehnat yoki shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.[5.]

Xulosa. Yuqoridagi qiyosiy tahlillar natijada xulosa qilishimiz mumkinki MDH davlatlarni jinoyat qonunchiligida ushbu turdagi jinoyatlar uchun maksimal jazolar Qirg'izistonda 8 yil, Qozog'istonda 10 yil, Turkmanistonda 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolarni belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Aksariyat davlatlarda (*Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston,*) mulkni qasdan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlari uchun **ehtiyotsizlikdan odam o'limiga** olib kelishi mumkinligi kabi og'irlashtiruvchi holatlar belgilangan. Yuqoridagi MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligidagi normalardan kelib mulkni qasdan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlarida odam o'limiga ham olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni inobatga olib Jinoyat Kodeksining 173-moddasini 4-qismni quyidagi mazmunda tahrir etishni taklif etamiz.

“O'sha harakatlar

- a) *odam o'limiga;*
- b) *ommaviy tadbirlar jarayonida yoki favqulodda vaziyat holatida;*
- c) *juda ko'p miqdorda zarar yetkazilgan holatda*
- d) *boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa,*
- besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi, ushbu moddaning to'rtinchi qismi a) va d) bandlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.”

Shuningdek turdagi jinoyatlar ya'ni JKning 173-moddasi 1-,2-qismlari sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazolari miqdori yoki boshqa turdagi jazolarni ushbu moddalarning tegishli qismlarida ko'rsatilgan “ancha miqdor” va “ko'p miqdorda zarar”larda begilagan miqdorlardan kelib chiqib yoki JKning umumiy qism qoidalariga muvofiq jazo tayinlash institutini qayta ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. O'zbekiston. 78-bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism/M. Rustambayev. - Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - 744 b..
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi(2024-yil 20-yanvargacha rtirish va qo'shimchalar bilan.)/ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.03.2023-y., 03/23/826/0172-son. [Elektron havola]: <https://lex.uz/docs/-111453>
4. Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2024-yil.
5. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. 2024-yil. www.duma.consultant.ru
6. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2024-yil.
7. Turkmaniston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2024-yil.
8. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2024-yil. Elektron havola https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

REMOVAL OF EMPLOYEES FROM WORK FOR NOT PASSING TRAINING AND TESTING IN THE FIELD OF OCCUPATIONAL SAFETY

Elmurodov Xusan

Independent researcher at Tashkent State University of Law
E-mail: Husan.elmurodov@mail.ru

Abstract. This article discusses the fundamental rules related to training employees in labor protection in organizations, providing guidance to them, and verifying their knowledge. It also addresses the procedure for removing an employee from work due to not passing training and testing in the field of labor protection. Legal solutions are suggested for issues related to retesting employees' knowledge, prolonged work suspension, and reinstatement permission.

Keywords: labor protection, training, knowledge, skills, employee, supervisor, specialist, inspection, guidance, instruction, knowledge testing, practical training, suspensions.

МЕҲНАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ СОҲАСИДА ЎҚУВДАН ҲАМДА БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИ ТЕКШИРУВДАН ЎТМАГАНДА ИШДАН ЧЕТЛАШТИРИШ

Элмуродов Хусан Элмуродович

Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада ташкилотларда меҳнат муҳофазаси бўйича ходимларни ўқитиш, уларга йўл-йўриқлар бериш, билимларини текшириш билан боғлиқ асосий қоидалар ўрганилган. Шу билан бирга меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганлик учун ходимни ишдан четлаштириш тартиби кўриб чиқилган. Ходимларнинг билимини қайта текширувдан ўтказиш, ишдан четлаштиришнинг узоқ муддатда давом этиши ҳамда ишга қайтиб тушишда рухсат бериш билан боғлиқ амалиётдаги муаммолар бўйича ҳуқуқий ечимлар таклиф қилинган.

Калит сўзлар: меҳнат муҳофазаси, ўқув, билим, кўникма, ходим, раҳбар, мутахассис, текширув, йўриқнома, йўриқдан ўтиш, билимларни текшириш, амалий таълим, четлаштириш.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N88>

Кириш. Меҳнат муносабатларида ходимнинг ҳаёти, соғлиғи ва меҳнат қобилияти устувор даражада иш берувчилар томонидан муҳофаза қилиниши лозим. Иш берувчиларнинг ушбу мажбурияти халқаро меҳнат стандартларида белгиланган “меҳнат товар эмас” деган принципнинг асосий қоидаларини амалга оширишга қаратилган. Шунга қарамаздан бутун дунёда ҳам, мамлакатимизда ҳам ишлаб чиқариш, иш бажариш ва хизмат кўрсатиш соҳасида бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликлари сони ортиб бормоқда. Меҳнат муҳофазасига оид технологияларнинг ривожини ҳам ушбу кўрсаткичларни кескин қисқартириш имконини бермаяпти. Хусусан, мамлакатимизда

2021 йилда ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар натижасида 907 киши жароҳатланган, улардан 238 нафари ҳалок бўлган, 632 нафари оғир тан жароҳатини олган ва 37 нафари енгил турдаги жароҳатлар олган бўлиб, бахтсиз ҳодисаларни текшириш натижалари бўйича 596 нафар айбдор мансабдор шахслар жами 1,3 млрд сўм жарима қўллаш тартиби бўйича маъмурий жавобгарликка тортилган ва 19

9 нафар мансабдор шахсга нисбатан жиноий иш қўзғатилган. Ўлим билан тугаган бахтсиз ҳодисалар сони ҳам йилдан йилга ўсиб бормоқда. Хусусан, 2018 йилда ўлим ҳолатлари сони 182 тани, 2019 йилда 199 тани, 2020 йилда 200 тани, 2021 йилда 238 тани ташкил қилган[1]. Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликлари бўйича, таассуфки, сўнгги уч йилликдаги статистика ваколатли органлар томонидан очиқланмай қолмоқда.

Саноат хавфсизлиги қўмитаси назоратидаги ташкилотларда 2022 йилда 81 та бахтсиз ҳодиса юз берган бўлиб, шулардан 28 та ҳолат ўлим билан тугаган, 5 таси гуруҳий ва 48 та ҳолатда инсонлар турли даражада жароҳатлар олган. Рўй берган бахтсиз ҳодисаларнинг келиб чиқиш сабаблари олтиш фоиздан ортиқ ҳолатда ташкилий сабаблар билан боғлиқ. Уларга ишлаб чиқаришда ишларнинг тўғри ташкил этилмаслиги, саноат хавфсизлиги соҳасида ходимлар малакасининг етишмаслиги, техник ва технологик жараёнларда ишлаб чиқариш интизомининг пастлиги ҳамда эҳтиётсизлик ёки таваккалчиликка йўл қўйишлардан иборатдир. Ўттиз фоиз ҳолатда техник сабаблар билан рўй берган, буларга техник жиҳозлар ва қурилмаларнинг носозлиги, уларнинг конструктив янгиланмаслиги, меъёрий ҳужжат ва лойиҳа талабларига риоя этилмаётганлиги, техник қурилмаларга хизмат кўрсатишда камчиликларга йўл қўйилишини келтириб ўтиш мумкин [2].

Таъкидлаш ўринлики, ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисаларни камайтиришда меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ўтмаган, зарур билим ва кўникмаларга эга бўлмаган ходимларни ишдан четлаштириб туриш самарали усуллардан бири ҳисобланади. Бироқ иш берувчилар ҳар доим ҳам ушбу усулдан фойдаланишга лозим даражада эътибор қаратмайдилар. Ва аксинча ушбу усулдан фойдаланганда кўпинча ишдан четлаштиришги оид нормаларни бузишга йўл қўйишади.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ишдан четлаштиришнинг ушбу тури ташкилотларда меҳнатни муҳофаза қилиш билан чамбарчас боғлиқ ҳисобланади. Меҳнатни муҳофаза қилишга оид асосий қондалар Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси, “Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонун, Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 27 апрелдаги 246-сон қарори билан тасдиқланган “Меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасидаги хизматлар бозорининг профессионал иштирокчилари фаолиятини ташкил этиш ва уларнинг ягона реестрини юритиш тартиби тўғрисида”ги Низом, “Ташкилотлардаги меҳнатни муҳофаза қилиш тизимида аудит ўтказиш тартиби тўғрисида”ги Низом, “Меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида қайта тайёрлаш ва малака ошириш тартиби тўғрисида”ги Н и з о м, “Меҳнат муҳофазаси бўйича ўқитишни ва билимларни текширишни ташкил этиш тўғрисида”ги Намунавий низом (рўйхат рақами 272, 14.08.1996 й.)да белгиланган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 20 октябрдаги 649-сон қарори билан Ёнғин хавфсизлиги бўйича ходимларнинг билимини текшириш ва тайёргарлик ишлари Тартиби тасдиқланган [3].

Муҳокама ва натижалар. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳар кимнинг муносиб меҳнат қилиш, касб ва фаолият турини эркин танлаш, хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитларида ишлаш, меҳнати учун ҳеч қандай камситишларсиз ҳамда меҳнатга ҳақ тўлашнинг белгиланган энг кам миқдоридан кам бўлмаган тарзда адолатли ҳақ олиш, шунингдек ишсизликдан қонунда белгиланган тартибда ҳимояланиш ҳуқуқига эгаллигини мустаҳкамлади. 1992 йилги Конституцияда белгиланган “адолатли меҳнат шароитларида ишлаш” деган умумий қоида (37-модда)га янада аниқлик киритилиб, “хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитларида ишлаш” ходимларнинг конституциявий ҳуқуқларидан бири сифатида ўрнатилди (42-модда) [4]. Конституциявий ислохотлар доирасида фуқароларнинг меҳнат қилиш ҳуқуқи янгича қараш билан бойитилиб, “муносиб” сўзи билан тўлдирилмоқда. Эндиликда, “муносиб меҳнат” деганда, адолатли иш ҳақи тўланадиган иш жойлари, етарли меҳнат шароитлари ва ишончли ижтимоий ҳимоя кўзда тутилади. Шунингдек, ҳар ким хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитларида ишлаш ҳуқуқига эгаллиги белгиланмоқда. Хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитлари деганда, хавфсизлик стандартлари, санитария нормалари ва қоидалари, гигиена нормативлари талаблари асосида иш жойларини ташкил этиш тушунилади. Бундай шароит ходимларни касб касалликлари, ишлаб чиқаришдаги шикастланишлар ва инсонлар ўлимини ёки соғлиғига зарар етказишининг олдини олади. Ушбу масала бўйича халқаро Меҳнат Ташкилоти томонидан Меҳнат хавфсизлиги ва гигиенасига кўмаклашиш асослари тўғрисидаги Конвенция қабул қилинган бўлиб, Ўзбекистон 2021 йилда ушбу ҳужжатни ратификация қилган [5].

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, ходимларнинг меҳнат муҳофазасига бўлган ҳуқуқларига конституция даражасида алоҳида урғу берилишининг ўзига хос муҳим сабаблари бор эди. Улардан бири бозор муносабатларига ўтгандан кейин ишлаб чиқаришда меҳнат муҳофазасига бўлган талабнинг тушиб кетганлиги ҳамда унинг натижасида содир бўлаётган бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликларининг нисбатан юқори даражасининг сақланиб қолаётганлиги ҳисобланади.

Ишдан четлаштиришнинг ҳуқуқий асосларидан бири меҳнат қонунчилиги ҳисобланади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси 151-моддасининг иккинчи қисмида ходимни меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганлиги сабабли ишдан четлаштириш шартлиги кўрсатиб ўтилган. Бироқ 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексида меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганлиги сабабли билан ишдан четлаштириш назарда тутилмаган эди [6].

Меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганлиги сабабли ишдан четлаштириш билан боғлиқ постсовет давлатларининг тажрибаси ҳам ўзига хос шаклланган. Хусусан, Туркменистон Меҳнат кодекси 38-моддасининг биринчи қисми 1-бандида меҳнатни муҳофаза қилиш ва техника хавфсизлиги соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари белгиланган тартибда текширувдан ўтмаганлик ишдан четлаштиришнинг асоси сифатида келтириб

ўтилган [7]. Украина Меҳнат қонунлари кодексининг 46-моддасида меҳнат муҳофазаси ва ёнғинга қарши муҳофаза бўйича ўқишдан, йўриқдан ва билимлари текширувдан ўтмаганлик учун ишдан четлаштиришга йўл қўйилади [8]. Қозоғистон Республикаси Меҳнат кодексининг 48-моддаси иккинчи қисмининг 2-бандида меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлиги ёки саноат хавфсизлиги масалалари бўйича билимларини текшириш бўйича имтиҳондан ўтмаганлик учун ишдан четлаштириш назарда тутилган. Шунингдек, мазкур модданинг 6-бандида ходимнинг ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги меҳнатни муҳофаза қилиш, ёнғин хавфсизлиги ёки транспорт ҳаракати хавфсизлиги қоидаларини бузилишига олиб келганда ҳам ишдан четлаштиришга асос бўлиши мустаҳкамланган [9]. Озарбайжон ва Арманистон Меҳнат кодексларида ходимни ишдан четлаштириш ёки ишга қўймасликка оид моддалар бағишланган бўлсада, бироқ уларда меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганлик учун ишдан четлаштириш мумкинлиги ҳақидаги алоҳида қоидалар мавжуд эмас [10]. Беларусь Меҳнат кодексининг 49-моддасида меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича билимлари текширувдан, шунингдек ходим йўриқдан, стажировкадан ўтмаганлик учун иш берувчи ходимни ишдан четлаштиришга мажбурлиги кўрсатиб ўтилган [11]. Тожикистон Меҳнат кодекси [12], Эстониянинг Меҳнат шартномаси тўғрисидаги қонунида эса меҳнат муҳофазаси бўйича ўқишдан ва текширувдан ўтмаганлик ишдан четлаштиришнинг асоси сифатида мавжуд эмас [13]. Молдова Меҳнат кодексининг 76-моддасида, шунингдек Литва Меҳнат кодексининг 49-моддасида бошқа давлатлар меҳнат қонунчилигидан фарқли равишда ишдан четлаштиришга оид айрим қоидалар меҳнат шартномасини тўхтатиб туриш билан боғлиқ моддаларда келтириб ўтилган. Бироқ меҳнат муҳофазаси бўйича ўқишдан ёки текширувдан ўтмаганлик учун меҳнат шартномасини тўхтатиб туриш асослари рўйхатига киритилмаган [14]. Латвия Меҳнат тўғрисидаги қонунининг ишдан четлаштириш номли 58-моддасида ходимнинг ўз меҳнат вазилфарини бажариши ёки унинг ишда бўлиши унинг ва бошқа шахсларнинг ҳаёти ва хавфсизлигига, шунингдек иш берувчи ва учинчи шахсларнинг манфаатларига зарар етказиши мумкин бўлса, ходим ишдан четлаштирилади [15]. Қирғиз Республикаси Меҳнат кодекси 76-моддасининг биринчи қисми иккинчи бандига кўра меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги қоидалари бўйича имтиҳонлардан ўта олмаганлик ишдан мажбурий тартибда четлаштиришга олиб келишнинг асоси сифатида кўрсатилган [16]. Россия Меҳнат кодексининг 76-моддасида ҳам меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида тегишли тартибда ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганлик ишдан четлаштириш учун асос эканлиги белгиланган [17].

Қайд этиш лозимки, меҳнат тўғрисидаги қонунчиликда меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасига оид тушунчалар аппарати нисбатан яхши ишлаб чиқилган. Уларда қайд этилишича, меҳнатни муҳофаза қилиш – меҳнат жараёнида инсоннинг хавфсизлигини, ҳаёти ва соғлиғи, иш қобилияти сақланишини таъминлашга доир ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, ташкилий, техникавий, санитария-гигиена, даволаш-профилактика, реабилитация тадбирлари ҳамда воситалари тизими ҳисобланади [18].

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 151-моддасида назарда тутилган ходимни меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасида ўқувдан ҳамда билим ва кўникмалари текширувдан ўтмаганда ишдан четлаштирилиши уларнинг ҳаёти ва соғлиғига бўлган

хавфларни бартараф этишга оид меҳнат шароитларини яратишга қаратилган. Шунингдек, бундай ишдан четлаштириш бошқа ходимларнинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилишни, иш берувчининг эса мол-мулкани ҳимоя қилишни назарда тутди.

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 359-моддасида иш берувчининг меҳнатни муҳофаза қилиш соҳасидаги мажбуриятлари берилган. Ушбу моддага мувофиқ, иш берувчи ходимларнинг меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича йўл-йўриқдан ўтишини, ўқитишни, қайта тайёрлашни, малакасини оширишни ва меҳнатни муҳофаза қилиш масалалари бўйича билимларини текширишни таъминлаши лозим. Шунингдек, мазкур моддада иш берувчи томонидан меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича ўқувдан, йўл-йўриқдан ўтмаган ва билимлари текширилмаган ходимларни ишга қўймаслигига оид мажбуриятини ҳам кўрсатиб берган.

Таъкидлаш лозимки, худди шунга ўхшаш мажбуриятлар ходимларда ҳам мавжуд. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 355-моддасининг иккинчи қисмига мувофиқ ходим меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича йўл-йўриқдан ўтиши, меҳнатни муҳофаза қилиш масалалари бўйича ўқиши ҳамда малака ошириши шарт.

Меҳнатни муҳофаза қилишга оид иш берувчи ҳамда ходимнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 22 сентябрдаги “Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонунида ҳам ўз аксини топган. Хусусан, ушбу Қонуннинг 22-моддасига асосан ходим иш берувчининг маблағлари ҳисобидан меҳнатнинг хавфсиз услублари ва усуллари бўйича ўқиш ҳуқуқига, шунингдек, меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича йўл-йўриқлар олиши, меҳнатни муҳофаза қилиш масалалари бўйича ўқувдан ва малака оширишдан ўтиши шартлиги белгиланган. Қонуннинг 23-моддасида эса иш берувчи ходимларнинг меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича йўл-йўриқлар олишини, меҳнатни муҳофаза қилиш масалалари бўйича ўқувдан, қайта тайёргарликдан ўтишини, малака оширишини ва билимлари текширилишини таъминлаши, меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича ўқувдан ўтмаган, йўл-йўриқлар олмаган ва билимлари текширилмаган шахсларни ишга қўймаслиги шартлиги кўрсатилган. Таъкидлаш лозимки, мазкур Қонуннинг 22-, 23-моддалари Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 355-, 359-моддаларининг қоидаларини такрорлаган. Ҳар икки Қонунда бир хил мазмунли нормаларининг бундай такрорланиши эса меҳнат қонунчилиги техникаси бўйича ҳалигача мунозараларнинг предмети бўлиб келаётганлигини таъкидлаш ўринлидир.

Ўзбекистон Республикасида ҳозирги кунга қадар Адлия вазирлигида 1996 йил 14 августда 272-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган **“Меҳнат муҳофазаси бўйича ўқишларни ташкил қилиш ва билимларни синаш тўғрисидаги Намунавий низом”** амал қилиб келмоқда. Мазкур Низом ишлаб чиқаришдаги жароҳатлар ва касб касалликларини қисқартириш бўйича профилактик чораларни таъминлаш учун ишлаб чиқилган. Низом барча ходимлар ва раҳбарлар учун меҳнат муҳофазаси бўйича мажбурий ўқишдан ўтиш ва меҳнат муҳофазаси талаблари бўйича билимларни текширишнинг умумий қоидаларини белгилаб берган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 20 октябрдаги 649-сон қарори билан Ёнғин хавфсизлиги бўйича ходимларнинг билимини текшириш ва тайёргарлик ишлари Тартиби тасдиқланган [19].

Меҳнат муҳофазаси бўйича ўқишларни ташкил қилиш ва билимларни синаш тўғрисидаги Намунавий низомга кўра, корхоналарнинг барча ходимлари, шу жумладан раҳбарлари ҳам давлат назорати органлари томонидан белгиланган тартибда ва муддатда муайян касб ва иш турлари бўйича ўқишдан, йўл-йўриқдан, билимлар текширувидан ва қайта малакадан ўтишга мажбурдирлар.

Мазкур Низом I.“Умумий қисм”, II.“Ходимларни ўқитиш ва билимларини текшириш”, III.“Раҳбар ва мутахассисларни ўқитиш ва билимларини текшириш”, IV.“Дастлабки йўл-йўриқнинг намунавий дастури”, V.Иш жойидаги йўл-йўриқнинг намунавий дастури каби бўлимлардан ташкил топган.

Таъкидлаш керакки, ушбу Низом меҳнат муҳофазаси бўйича 2 хил ёндашувни ўз ичига олган. Булар:

- меҳнат муҳофазаси бўйича ўқувдан ўтишга оид муносабатлар;
- меҳнат муҳофазаси бўйича билим ва кўникмаларни текширувдан ўтказишга оид муносабатлар.

Шунингдек, Низом билан ўқувдан ўтиш ва билимларни текшириш субъектларга кўра ҳам иккига бўлинган. Биринчиси, раҳбар бўлмаган ходимларни йўл-йўриқдан ўтказиш ва билимларини текшириш бўлса, иккинчиси раҳбарлар ва мутахассисларни ўқувдан ўтказиш ва билимларини текшириш ҳисобланади.

Ходимларни йўл-йўриқдан ўтказиш ишга қўйишдаги ва иш жойидаги йўл-йўриққа бўлинади. Иш жойидаги йўл-йўриқ эса ўз навбатида дастлабки, даврий ва навбатдан ташқари йўл-йўриққа бўлинади. Мисол учун иш жойидаги йўл-йўриқ ҳар бир ходимни ишни тўғри ва хавфсиз бажаришнинг усулларига ўқитиш ҳисобланади. Йўл-йўриқдан ўтишнинг ҳар бири бўйича алоҳида қоидалар белгиланган.

Йўл-йўриқдан ўтишнинг мазмуни қуйидагилардан иборат:

- ишлаб чиқаришдаги асбоб-ускуналар ва технологик жараён ҳақида умумий маълумотларга эга бўлиш, хавфли ва зарарли ишлаб чиқариш омиллари;
- ишни хавфсиз ташкил қилиш ва сақлаб туриш;
- машиналар, механизмлар, қурилмаларнинг тузилиши, ускуналарнинг хавфли жойлари, хавфсизлик мосламалари ва тўсиқлари, қулфлаш ва сигнализация тизими;
- ишга тайёрланиш тартиби (ускуналарнинг созлигини текшириш, ишга тушириш қурилмалари ва бошқа ҳимоя воситалари);
- махсус кийим-бош ва ҳимоя воситаларидан фойдаланиш тартиби;
- ходимларнинг цех участкалари бўйича хавфсиз ҳаракатланиши жадвали;
- хавфсиз юк-ортиш тушириш ва ташиш талаблари, юк кўтарувчи механизмлар ва юк кўтарувчи транспортлардан фойдаланиш.

Навбатдан ташқари йўл-йўриқ ишлаб чиқариш процесси ўзгарганда, меҳнат шартларининг ўзгаришига олиб келган жиҳозлар алмаштирилганда, цех ва участкаларда бахтсиз ҳодисалар содир бўлганда, меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича янги йўл-йўриқлар ва қоидалар ишлаб чиқилганда, таъсир чораси қўлланилишига олиб келган йўриқномалар ва қоидаларни бузиш аниқланганда ўтказилади. Дастлабки йўл-йўриқ ва стажировкадан (мустақил равишда ишга қўйилганда ёки бошқа ишга ўтказилганда) ўтганидан кейин меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича ходимларнинг билимлари текширишдан ўтиши лозим.

Билимлари баҳолашдан қониқарсиз бўлган ходимлар мустақил ишга қўйилмаслиги ва икки ҳафтадан сўнг қайта текширувдан ўтиши мумкинлигини қайд этиш лозим. Табиийки, бу вақтда ходим ишдан четлаштирилади. Бундан ташқари билимини қайта текширувдан ўтишга келмаслик ёки узрли сабабларсиз текширувга тайёрланмасликка меҳнат интизомини бузиш сифатида қаралади. Бундай ҳуқуқбузишга йўл қўйган ходимга ички меҳнат тартиби қоидаларида назарда тутилган интизомий жазо чоралари қўлланилиши мумкин.

Мазкур Низомнинг 28-бандига кўра, имтиҳон комиссияси раҳбарлар ва мутахассисларнинг қуйидагилар бўйича билимларини текширади:

Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси, “Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни ва бошқа қонун ҳужжатлари;

меҳнат хавфсизлиги бўйича стандартлар тизими;

талофатлардан огоҳлантириш ва уларни жиловлаш;

электрдан жароҳат олишларни олдини олиш бўйича асосий талаблар;

ёнғин хавфсизлиги, портлаш, талофат, ёнғинларни олдини олиш воситалари ва усуллари, табиий офатлар содир бўлганда персоналларнинг ҳаракатланиши;

ишлаб чиқариш санитарияси ва шахсий гигиенага қўйилган асосий талаблар;

меҳнат муҳофазасининг ҳолати бўйича давлат, идоравий ва жамоат назорати ҳақидаги қоидалар;

ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар ва ходимлар соғлиғига етказилган бошқа зарарларни текшириш ва ҳисобга олиш ҳақидаги қоидалар;

шахсий ҳимоя воситаларини танлаш ва қўллаш, уларни бериш нормалари ва тартиби, уларни сақлаш муддатлари;

меҳнат шартномаси, иш вақти ва дам олиш вақти режими, аёллар ва 18 ёшга тўлмаганларнинг меҳнатини муҳофаза қилиш, имтиёз ва компенсациялар;

жабрланувчиларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш усуллари.

Таъкидлаш керакки, Низомнинг фақат 37-бандида ишдан четлаштириш ҳақидаги ягона қоида мавжуд. Унга кўра меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича билимларини текширувдан ўтишдан бўйин товлаган раҳбар ва мутахассислар ишдан четлаштирилади. Меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича имтиҳонда кўрсаткичлари қониқарсиз бўлган раҳбар ва мутахассислар ўз лавозимларида бир ой ичида қайта имтиҳондан ўтиш шарти билан қолдирилиши мумкин.

Хулоса.

1. Меҳнат муҳофазаси бўйича ўқишларни ташкил қилиш ва билимларни синаш тўғрисидаги Намунавий низом янги таҳрирда қабул қилиниши лозим.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 26-сонли қарорига ходим меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича йўл-йўриқдан ўтиш, ўқитиш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш ва меҳнатни муҳофаза қилиш масалалари бўйича билимларини текширишдан белгиланган муддатларда ўтмаганда ёки ўтишдан бош тортган тақдирда ишдан четлаштириш мажбурийлиги ҳамда ишдан четлаштирилган даврда меҳнат шартномасини бекор қилишгача бўлган интизомий жазони қўллаш мумкинлиги ҳақида судларга тушунтириш берилиши лозим.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. [https://mehnat.uz/uz/search?search=.](https://mehnat.uz/uz/search?search=)
2. [https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/30/accidents/.](https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/30/accidents/)
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 21.10.2020 й., 09/20/649/1397-сон.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2023. 27-b.
5. Янгиланаётган Конституция. –Тошкент: Адолат, 2023. 72-б.
6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. –Т.: Adolat, 2021. 62-63-b.
7. Закон Туркменистана Об утверждении и введении в действие Трудового кодекса Туркменистана Ведомости Меджлиса Туркменистана, 2009 г., № 2, Статья 38.
8. <https://i.factor.ua/law-39/section-183/article-31113/> (Кодекс законов о труде Украины (утвержден законом Украинской Советской Социалистической Республики от 10 декабря 1971 года № 322-VIII)_Статья 46).
9. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=38910832&pos=5;-106#pos=5;-106 (**Трудовой кодекс Республики Казахстан от 23 ноября 2015 года № 414-V, Статья 48**).
10. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420364#pos=4;-143 (Трудовой кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Республики от 1 февраля 1999 года № 618-IQ, Статья 62)).
11. <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=173461>, Трудовой Кодекс Республики Армения, [Статья 108](#).
12. <https://etalonline.by/document/?regnum=hk9900296>, Трудовой Кодекс Республики Беларусь 26 июля 1999 г. № 296-3, [Статья 49](#).
13. https://andoz.tj/docs/drugie-kodeksi/Code_%E2%84%968_Labor_code_RT_ru.pdf, Трудовой кодекс Республики Таджикистан от 23 июля 2016 года № 1329, [Статья 50](#).
14. https://ru.rup.ee/pdf/TLS_RUS.pdf.
15. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30398053#pos=6;-143; <https://e-seimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/bb10e743a97f11eb98ccba226c8a14d7?jfwid=kjtiqjlgg>, (Трудовой кодекс Республики Молдова от 28 марта 2003 года № 154-XV, Статья 76).
16. <https://www.baltikon.lv/taxes/zakon-o-trude/>, (Закон о труде Закон ЛР от 06.07.2001 Статья 58).
17. <https://cbd.minjust.gov.kg/3-22/edition/1220610/ru>, (Трудовой Кодекс Кыргызской Республики от 4 августа 2004 года № 106, Статья 76).
18. <https://legalacts.ru/kodeks/TK-RF/>, (“Трудовой кодекс Российской Федерации” от 30.12.2001 N 197-ФЗ (ред. от 06.04.2024) [Статья 76](#)).
19. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. –Т.: “Yuridik adabiyotlar Publish”, 2023. – 262-б

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SOME ISSUES OF DETERMINING THE LEGAL STATUS OF SCIENTIFIC WORKERS

Aslonova Laylo Olimovna

Lecturer of Constitutional Law department of Tashkent State university of law

Abstract. The article examines the issues of the legal status of scientists in the Republic of Uzbekistan and in some foreign countries, classifies the categories of scientists and highlights the main aspects of their legal status, and identifies some problems of their legal status. Particular attention is paid to researchers working in educational institutions of higher education, due to the presence of additional rights and responsibilities in their status. Problems of a terminological nature are also highlighted, to eliminate which the author proposes introducing some terminological definitions into the legislation.

Key words: scientific workers, scientific and pedagogical worker, professional standard of a scientific worker, young scientist, scientist, scientific activity

ИЛМИЙ ХОДИМЛАР ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ БЕЛГИЛАШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Аслонова Лайло Олимовна

Тошкент давлат юридик университети Конституциявий ҳуқуқ кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон Республикаси ва айрим хорижий мамлакатларда илмий ходимнинг ҳуқуқий мақоми масалалари кўриб чиқилган, илмий ходим тоифалари таснифланади ва уларнинг ҳуқуқий мақомининг асосий жиҳатлари ёритилган, уларнинг ҳуқуқий мақомининг айрим муаммолари аниқланган. Олий таълим муассасаларида фаолият юритаётган илмий ходимларнинг мақомида қўшимча ҳуқуқ ва мажбуриятлар мавжудлиги сабабли мақолада уларга алоҳида эътибор қаратилган. Терминологик характердаги муаммолар ҳам ёритилган бўлиб, уларни бартараф этиш учун муаллиф қонунчиликка айрим терминологик таърифларни киритишни таклиф қилади.

Калит сўзлар. Илмий ходимлар, илмий-педагогик ходим, илмий ходимнинг касбий стандарти, ёш олим, олим, илмий фаолият

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N89>

Илм-фан, энг аввало, мамлакатнинг барқарор ривожланишини таъминловчи инсонлар, мутахассислар ва олимлардир. Шу боисдан ҳам, ҳозирги вақтда инсон ресурслари муаммосини ҳал қилиш айниқса долзарб масаладир, бунда аниқ ҳуқуқий мезонларни белгилаш, шу жумладан илм-фанни ҳаёт соҳаси сифатида танлаганларни ижтимоий-ҳуқуқий қўллаб-қувватлашни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади. Кадрлар салоҳияти замонавий жамиятда инвестициялар ва инновацияларни ривожлантиришнинг асосини ташкил этади.

Маълумот учун олиб қарайдиган бўлсак, 2022 йилда 75 та муассасаларда, жумладан 70 та олий таълим муассасаси ва вазирлик тизимидаги 5 та илмий

ташкilotларида докторантура фаолияти йўлга қўйилган. 2022 йилда олий таълим муассасаларида 5 281 нафар докторант (4 964 нафар таянч докторант – PhD, 317 нафар докторант – DSc) ва 650 нафар стажёр-тадқиқотчилар илмий-тадқиқот фаолияти билан шуғулланмоқда.

2021 йилда республикадаги олий таълим муассасаларида жами 1765 та докторлик диссертация ҳимоялари бўлди. Жумладан, 1521 та фалсафа доктори (PhD), 244 та фан доктори (DSc) илмий даражалари бўйича диссертациялар ҳимоя қилинган.

2021 йилда 10 нафар илмий даражали профессор-ўқитувчига нисбатан ҳимоя кўрсаткичи республика олий таълим муассасаларида ўртача 1,7 нафарни ташкил этади. Ушбу кўрсаткич бўйича 14 та олий таълим муассасаси 2 нафардан юқори натижага эришган.

Умуман олганда, Ўзбекистонда умуман олганда илм-фанни ривожлантириш, мамлакатлар илмий фаолият билан шуғулланувчи олимлар, тадқиқотчиларни қўллаб-қувватлаш, айниқса ёш олимлар учун илмни янада жозибador қилиш, янги инновацияларни кашф этиш борасидаги ғояларни қўллаб-қувватлашга қаратилган қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинмоқда.

Шу билан бирга, тадқиқотчининг ҳуқуқий мақоми, унинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ва унга берилган имтиёзлар бир қатор қонун ҳужжатларида ўз аксини топган.

ЮНЕСКОнинг “Илмий-тадқиқот ходимлари мақоми тўғрисида”ги Тавсияларни (1974)ни кўрадиган бўлсак [12], унда “мақом” тушунчасига батафсил таъриф берилганлигини кўришимиз мумкин. Хусусан, ушбу Тавсияларнинг I бўлими (d) бандига мувофиқ, “мақом” сўзи илмий ходимларга нисбатан қўлланилганда, биринчидан, уларнинг ишига хос бўлган вазифалар ва мажбуриятларни баҳолаш даражаси ва ушбу вазифалар ва мажбуриятларни бажариш билан боғлиқ ваколатлар, иккинчидан, улар ўз вазифаларини бажаришда фойдаланадиган ҳуқуқлар, меҳнат шароитлари, моддий ва маънавий ёрдамдан дарак берадиган жамиятда уларнинг ўрни ва уларга қилинган ғамхўрликни англатади. Шу билан бирга, ҳуқуқий мақом — Тавсияга мувофиқ — ҳуқуқ ва эркинликларни, шунингдек бурч ва мажбуриятларни (асосан ахлоқий) ўз ичига олади. Шуниси қизиқки, Тавсияноманинг кўрсатилган бандида биринчи навбатда илмий ходимларнинг ишига хос бўлган мажбуриятлар ва жавобгарлик, ваколатлари ҳақида, шундан кейингина улар фойдаланадиган ҳуқуқлар, меҳнат шароитлари, моддий ёрдам ва маънавий ёрдам ҳақида сўз юритилган.

Яна бир ҳужжат, МДХ давлатлари Парламентараро ассамблея аъзо давлатларнинг 31 пленар мажлисида қабул қилинган “Олим ва илмий ходимнинг ҳуқуқий мақоми тўғрисида”ги Модель қонуннинг 3 моддаси 2 қисмида келтирилишича, олимнинг мақоми, хусусан, олимлар ва илмий ходимларнинг танлаган билим соҳасидаги касбий фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқи ва шартлари ушбу Қонун, давлатларнинг амалдаги қонун ҳужжатлари, шунингдек, олим аъзоси бўлган профессионал илмий жамият уставининг шартлари билан белгиланади. Кўриниб турибдики, Модель қонун олимларнинг мақомини тартибга солувчи ҳужжатлар рўйхатида биринчи ўринда қайд этилганига қарамай, бу унинг юқори юридик кучга эга эканлигини англатмайди.

Модел қонунда иккинчи пағонада давлатларнинг амалдаги қонунлари турибди. Ўзбекистонда илм-фан ва илмий фаолият соҳасидаги муносабатларни тартибга солувчи

“Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонунда илмий фаолият юритувчи жисмоний ва юридик шахслар илмий фаолият субъектлари ҳисобланиши, чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасидаги илмий фаолияти қонунчиликка мувофиқ амалга ошириши белгиланган. Ўзбекистон қонунчилигида, илмий фаолият юритувчи шахсларнинг тегишли фан соҳасидаги илмий даражалари (фалсафа доктори (Doctor of Philosophy (PhD)), фан доктори (Doctor of Science (DSc)) ва илмий унвонлари (профессор, доцент ва катта илмий ходим), илмий даражали кадрларни тайерлаш шакллари мавжуд бўлсада, илмий фаолият билан шуғулланувчи шахслар қонун ҳужжатларида учрайдиган “илмий ходим”, “тадқиқотчи”, “олим”, “илмий-педагог”, ёки “илмий-техник” ходим тушунчаларига қонун билан ҳам, бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан ҳам аниқ таъриф берилмаган.

Бу борадаги хорижий мамлакатлар тажрибасини олиб қарайдиган бўлсак, масалан Россия Федерациясининг “Илм-фан ва давлат илмий-техник сиёсати тўғрисида”ги Федерал қонунининг 4 моддасига мувофиқ, илмий ходим - бу зарур малакага эга бўлган ва илмий ва (ёки) илмий-техник фаолият билан профессионал равишда шуғулланувчи фуқаро. Беларус Республикаси “Илмий фаолият тўғрисида”ги қонунда ҳам худди шунга ўхшаш тушунча мавжуд бўлиб, фақат “... илмий фаолият меҳнат шартномаси асосида амалга оширилиши ...” белигланган.

Латвия Республикаси “Илмий фаолият тўғрисида”ги қонуннинг 4 моддасига мувофиқ илмий ходимлар (Research workers)га олимлар (scientists), катта илмий ходим, илмий ходим (a researcher), тадқиқот техник ходимлар (research technical staff) ва тадқиқотда иштирок этувчи ходимлар (research attending staff) белгиланган. [13] Корея қонунчилиги бу тушунчага кенгроқ таъриф берган бўлиб, Латвия қонунчилигида келтириб ўтилганларидан ташқари, тадқиқот иши билан шуғулланувчи олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари мактаб типидagi умрбод таълим муассасаларидаги ўқитувчилари ҳам киритилган. [14]

Бу борадаги назарий таърифлар қуйидагича, масалан Россиялик олим И. Н. Ананов тақлиф қилган таърифта кўра “илмий ходим мустақил илмий тадқиқот ёки илмий-педагогик иш олиб борадиган ва белгиланган тартибда рўйхатдан ўтган шахс ҳисобланади” [1]. Г.И.Федкиннинг фикрига кўра, «илмий ходим — илмий тадқиқот ишларини олиб бориш учун (мустақил равишда ёки бошқа олимлар раҳбарлигида) зарур малакага эга бўлган ва бу ишни илмий-тадқиқот муассасалари ва олий ўқув юртларида, шунингдек, вазирлик ва идораларнинг конструкторлик бюрolari ва лабораторияларида илмий тадқиқот ишлари билан шуғулланувчи шахслардир.” [2]

Олимларнинг илмий фаолияти самарадорлигини ошириш соҳасидаги ташкил этиш ва бошқаришнинг алоҳида муаммолари хорижий илмий адабиётларда кўриб чиқилган. Масалан, К. Циркле тадқиқотчилар мақомида тартиб йўқлигини таъкидлайди. [3] Бир гуруҳ америкалик олимлар сиёсий ташкилот ва фан институти ўртасидаги ўзаро муносабатларни таҳлил қилиб, фанни малакали бошқариш феномени муҳим сиёсий самарага еришиш осон иш емаслигини таъкидлайдилар. [4] Бошқа бир гуруҳ олимлар асосли илмий қарорлар қабул қилиш учун fundamental ва амалий фанлар олимлари, хусусан, назарий олимлар ва муҳандислар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг аҳамиятини таҳлил қиладилар. [5]

М. А. Бочарникова таъкидлаганидек: "Тадқиқотчилар фаолиятининг ҳуқуқий тартибга солинишининг ўзига хос хусусиятларидан бири бу илмий-тадқиқот ташкилотига ишга киришда уларга нисбатан қўлланиладиган талабларнинг ортишидан иборат." Аммо биз бу фикрга тўлиқ қўшилмаймиз, чунки тадқиқотчининг ҳуқуқий мақомини қонунда аниқ белгилаш орқали унинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини, меҳнат муносабатларининг аниқ чегараларини белгилаш имкони мавжуд бўлади.

Юқоридаги ўрганилган манбалардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги қонунга илмий ходим (тадқиқотчи) тушунчасига таъриф киритиш, ва унинг таркибига кирувчи тоифаларни белгилаш мақсадга мувофиқ. Таъриф : *Илмий ходим (тадқиқотчи) — зарур малакага эга бўлган ҳамда илмий ва (ёки) илмий-техникавий фаолият билан профессионал равишда шуғулланувчи шахс. Илмий ходимларнинг лавозимлари давлат ва нодавлат илмий-тадқиқот муассасаларида, таълим фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларда, шунингдек илмий ва (ёки) илмий-техникавий фаолиятни амалга оширувчи бошқа ташкилотларда назарда тутилади.*

Яна бир ҳужжатда, ушбу ҳолатга бошқача ёндашув мавжуд. "Илмий ва илмий-техникавий фаолият тўғрисида"ги модел қонун (МДХ Ҳукуматлараро органи томонидан 2008 йил 25 ноябрда қабул қилинган, 31-15-сон қарори) "илмий ходим" ва "олим" тушунчаларини ажратиб кўрсатади, **бунда илмий ходим** деганда асосий иш жойида ва меҳнат шартномасига (шартномасига) мувофиқ илмий, илмий-техникавий ёки илмий-педагогик фаолият билан профессионал равишда шуғулланувчи, аттестация натижалари билан тасдиқланган тегишли малакага эга бўлган олим тушунилади. **Олим** — илмий даражага ва (ёки) илмий унвонга эга бўлган, илмий ҳамжамият томонидан тан олинган илмий тадқиқотлар ва маълум бир билим соҳасидаги илмий-техникавий натижаларни олганиш, илмий тадқиқот ва экспериментал тадқиқотлар ўтказиш мақсадида касбий илмий ёки илмий-техникавий фаолиятни амалга оширувчи жисмоний шахс (давлат фуқароси, чет эл фуқароси ёки фуқаролиги бўлмаган шахс). Намунавий қонуннинг мақсади фанни ривожлантиришга кўмаклашишга қаратилган олимларнинг илмий, илмий-техникавий, илмий-педагогик ва инновацион фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ҳамда рағбатлантириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг ҳуқуқий асосларини яратишдан иборат.

Бизнинг фикримизча, олим илмий фаолиятни амалга ошираётганда илмий жамоатчилик томонидан тан олинган тадқиқот натижаларини олган, янгиликка эга бўлган ва маълум бир соҳада муҳим илмий ва (ёки) амалий аҳамиятга эга бўлган илм - фанга катта ҳисса қўшган шахс (мамлакат фуқароси, чет еллик ёки фуқаролиги бўлмаган шахс) сифатида тан олиниши мумкин. Яъни, инсон илмий фаолият субъектлари билан меҳнат ёки фуқаролик муносабатлари мавжудлигидан қатъи назар, "олим" сифатида тан олинади. Олим ҳозирги пайтда илмий фаолият билан шуғулланадими ёки ўтмишда амалга оширганми, қатъи назар, у олим мақомини йўқотмайди, чунки инсонни олим сифатида тан олишнинг ўзига хос хусусияти унинг илмий ҳамжамиятларда тан олинган илмий натижаларидир.

Дарҳақиқат, давлатнинг вазифаси илм-фан билан шуғулланувчи шахсларнинг самарали меҳнат қилиши учун зарур ижтимоий ва моддий шароитларни яратишдан иборат. XVII асрда инглиз олими Френсис Бекон шундай таъкидлаган эди: "Буюк

янгилинишга, билимларнинг тез ўсишига эришиш учун илмий муассасалар яратиш, улар учун бинолар қуриш, уларга устав ва имтиёзлар бериш, кутубхоналар йиғиш, асбоб-ускуналар олиш зарур. “Энг иқтидорли ва билимдон одамлар орасидан” олимларни танлаб олиш ва уларнинг ўқишлари учун тинч ва бўш вақтларини ўтказишлари ҳамда фойдалироқ амалий фаолиятни изламасликлари учун уларни етарлича таъминлаш зарур”. [6]

Умуман олганда, илмий ходимларнинг ҳуқуқий мақоми бир хил мас, бу бевосита илмий ходим ишлаётган ташкилотнинг ҳуқуқий шакли ва мулкчилик шаклига боғлиқ. Ва у муайян шахс (ходим) учун хулқ-атвор қоидаларини ва ҳаракатларни ҳуқуқий майдонни ташкил этувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланади.

Олимларнинг ҳуқуқий мақоми бир неча ўн йиллар ва баъзан асрлар давомида шаклланган хулқ-атвор қоидалари, иш одатлари ва иқтисодий шароитлари мавжуд бўлган кўпгина иқтисодий ривожланган мамлакатларда худди шундай тарзда белгиланади. Улар қонуний механизмлар ёки вақт ўтиши билан ишлаб чиқилган ва синовдан ўтган анъаналар орқали ўрнатилади ва сақланади. Шундай давлатлар борки, аҳолининг иқтисодий ва маданий даражаси уларга махсус қоидалар ва махсус қонунларсиз зарурий хулқ-атворга риоя қилишга имкон беради - бошқарув тузилмалари ва мамлакатда олимларнинг ижодий меҳнати ва унинг жамиятга фойдасини қадрлайдиган аҳолисининг ўзаро муносабатларининг ўзи етарли, (Германия, Франция). Ушбу модел асосан кичик давлатлар учун одатий ҳисобланади.

Бундан ташқари, хорижий мамлакатлар тадқиқотчилари учун, ҳам давлат, ҳам хусусий сектордаги университетларда фаолият юритадиган ва илмий ташкилотларда фаолият юритадиган ходимларга бўлинади. Францияда университет профессорлари ва давлат лабораторияларининг тадқиқотчилари давлат хизматчилари мақомига эга, аммо бу миллий доктринада илмий жараён ва умуман фан учун фойдали ҳолат сифатида қаралмайди (Белгия, Испания, Италия) деб ҳисоблайди. [9]

Рус олими Д. А. Бочарников илмий ходимларнинг қуйидаги мустақил тоифаларини белгилайди, уларнинг ҳар бири меҳнат шартномасини тузиш, ўзгартириш ва бекор қилиш, иш вақти ва дам олиш вақти ва иш ҳақи хусусиятларига эга: 1) Россия Фанлар Академиясининг илмий ходимлари; 2) олий ўқув юртларининг илмий ходимлари; 3) давлат илмий-тадқиқот муассасаларининг илмий ходимлари; 4) тижорат ва нотижорат юридик шахсларнинг илмий ходимлари; 5) Россия Федерацияси ҳудудида меҳнат муносабатларига кирган хорижий илмий ходимлар. [8] М.А. Бочарникова эса бу борада соддароқ ёндашувни таклиф этади: а) илмий ташкилотлар тадқиқотчилари; б) олий таълимнинг ўқув дастурлари ва қўшимча касбий дастурларни амалга ошириш учун таълим фаолияти билан шуғулланадиган ташкилотларнинг тадқиқотчилари; в) илмий ва (ёки) илмий-техник фаолият билан шуғулланадиган бошқа ташкилотларнинг тадқиқотчилари. [7]

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Ўзбекистон қонунчилигини таҳлил қиладиган бўлсак, умуман олганда қонунда илмий ходимлар тоифаларга бўлинмаган. Аммо, қонуности ҳужжатларни таҳлил қилиш натижасида қуйидагича хулосаларга келдик: биринчидан, Ўзбекистонда аксарият илмий-тадқиқот муассасалари, вазирлик ва идоралар қошидаги илмий-тадқиқот муассасалари ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб,

вазирлик ва давлат идоралари қошидаги илмий-тадқиқот муассасалари илмий ходимлари;

Иккинчидан, аксарият илмий фаолият билан шуғулланувчи шахслар олий таълим муассасаларининг профессор ўқитувчилари ҳисобланади яъни илмий-педагогик ходимлар.

Сўнгги ўн йилликларда таълим ва фаннинг бирлашиши аниқ тенденцияга айланди. Университетлар тадқиқот марказларига айланмоқда ва "илмий тадқиқот институти" мақомига эга университетлар пайдо бўла бошлади. Масалан, 2022 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Самарқанд давлат университети фаолиятини янада такомиллаштиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорига мувофиқ, СамДУга "илмий-тадқиқот университети" мақомини бериш концепцияси қабул қилинди. Аммо бундай мақомни берилишидан қатъи назар, бугунги кунда "тирик илм-фан" асосан олий таълим муассасаларида ривожланаётгани аниқ. Ўқитувчи жуда яхши педагог бўлиши мумкин, методист бўлиши мумкин, аммо тадқиқотчи эмас, албатта агар у профессор бўлмаса. Ва бу, албатта, кўпчилик учун ўзининг илмий гипотезаларини ишлаб чиқиш, уни тарғиб қилиш, ўз илмий позициясини ҳимоя қилиш ва шогирдларни тайёрлашга ҳеч қандай тўсқинлик қилмайди. Асосий масала уларнинг фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишда.

Тадқиқотимиз доирасида, ўтказилган таҳлилларга асосан шуни кўришимиз мумкин-ки, олий таълим муассасаларида илмий фаолият билан шуғулланувчи педагог ходимларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги Қонун, "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги Қонун билан тартибга солинса, олий таълим муассасаларида бошқа илмий тадқиқот муассасаларида илмий фаолият юритувчи шахсларга фақат "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги Қонун тадбиқ этилади. Яна бир бошқа ҳолат, олий таълим муассасаларида илмий фаолият билан шуғулланувчи профессор-педагогларнинг меҳнат муносабатлари меҳнат шартномаси ва Меҳнат кодексининг 501-моддаси (Педагог ходимлар меҳнатини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солишнинг ўзига хос хусусиятлари) тадбиқ этилади. Масалан, унга мувофиқ, педагог ходимлар иш вақтининг аниқ давомийлиги ва йиллик узайтирилган меҳнат таътилининг давомийлиги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси билан келишилган ҳолда белгиланади. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 26 июндаги 263 сон қарорига мувофиқ, Олий таълим ташкилотларининг профессор ўқитувчиларининг йиллик узайтирилган меҳнат таътили 56 кун этиб белгиланган. Аммо, "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги Қонуннинг 15 моддаси (Илмий фаолият юритувчи жисмоний шахсларнинг меҳнат ҳуқуқлари) га мувофиқ, Давлат илмий ташкилотларида илмий фаолият юритувчи шахсларга қирқ саккиз иш кунидан иборат йиллик ҳақ тўланадиган ҳамда моддий ёрдамни кўзда тутадиган меҳнат таътили берилади. Ушбу ҳужжатлардаги номувофиқлик нимада? Биринчидан, илмий фаолият юритувчи шахслар тоифаси (Қонунинг 13 моддаси) аниқ белгиланмаганлиги боис, ОТМларда илмий фаолият юритувчи профессор-ўқитувчиларни ҳам киритишимиз мумкин. Иккинчидан, "давлат илмий ташкилотлари" тушунчасининг ҳам аниқ таърифи ёки номенклатураси белгиланмаганлиги боис, ушбу норманинг тадбиқ этиш доираси ҳам аниқ эмас.

Бундан ташқари, Олий таълим муассасаларининг профессор-педагогларнинг меҳнат шартномалари таҳлил этилганда, меҳнат шартномаларида **“профессор ўқитувчиларнинг илмий фаолият билан шуғулланиши, “мақолалар чоп этиши...”** мажбурият сифатида белгиланган. Бундан ташқари, бу масалада ўтказилган сўровномамизда 141 киши иштирок этган бўлиб, 70 фоиз профессор ўқитувчиларнинг 52%нинг меҳнат шартномасида илмий фаолият билан шуғулланиш мажбурият сифатида белгиланганлигини кўришимиз мумкин. Ваҳоланки, “Таълим тўғрисида” ги қонунга мувофиқ, Олий таълим бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича юқори малакали кадрлар тайёрланишини таъминлайди. Ўз-ўзидан ОТМ профессор ўқитувчиларининг асосий вазифаси юқори малакали кадрларни таёрлашдан иборат бўлиб, илмий фаолият уларнинг конституциявий эркинлиги ҳисобланади. Меҳнат шартномаларида бундай норманинг келтирилиши “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонуннинг 17 моддасига мувофиқ, олий таълим муассасаларининг педагог кадрлари тегишли йўналишларда илмий фаолият билан шуғулланишлари шартлиги белгиланган. Бизнинг фикримизча, бундан норманинг қонунчиликда мавжудлиги профессор-ўқитувчиларнинг конституциявий эркинлигига зид ҳисобланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, олий таълим муассасаларида илмий фаолият юритувчи профессор-ўқитувчиларнинг илмий фаолият юритиш тартибини норматив-ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш ва Конституцияга мувофиқлаштириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Яна бир масалага алоҳида тўхталиб ўтиш зарур деб ҳисоблаймиз. Ўзбекистон қонунчилигида аниқ белгиланиши лозим бўлган яна бир тушунча бу “ёш тадқиқотчи” ёки “ёш олиш” тушунчасидир. Чунки бугунги кунда, ёшларни ҳар томонлама қўллаб қувватлаш, хусусан уларни инновацияларга кенгроқ жалб қилиш мақсадида уларга бир қатор имтиёзлар ва давлат кафолатлари берилмоқда. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг билан тасдиқланган «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида Фармонига мувофиқ, ёш олимларни саралаш ва етакчи хорижий ташкилотларга қисқа муддатли стажировкага юбориш белгиланган. Ёки масалан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ўзбекистон республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини 2024-2025 йилларда амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Қарорига мувофиқ, «Бўлажак олим» ва «Академик ҳаракатчанлик» дастури доирасида ғолибликни қўлга киритган ёш олимларни рағбатлантириш назарда тутилган. Аммо қонунчилигимизда “ёш олим” тушунчасининг аниқ таърифи йўқ, яъни биз юқорида келтириб ўтган нормалар кимга таалуклилиги аниқ белгилаб қўйилмаган.

О.Ю. Осипованинг илмий ишида минтақавий жамият шароитида фақат ёш олимларнинг ижтимоий мавқеини шакллантириш омилларини таҳлил қилинган бўлса [11], ёшлар ўртасида илм-фаннинг ўрни ва аҳамиятини ўзгартиришни ўрганган Л. Ю. Черноморская ўзининг диссертациясида тадқиқ қилган. [10]

Ўзбекистон Республикаси “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонунга мувофиқ, **“ёшлар (ёш фуқаролар)** — ўн тўрт ёшга тўлган ва ўттиз ёшдан ошмаган шахслар” деб таъриф берилган. Қонунда бундан ташқари, “ёш тадбиркор”, “ёш

мутахассис” тушунчаларига ҳам таъриф берилган бўлиб “ёш олим” тушунчасига таъриф ушбу қонунда ҳам учрамайди. Агар бир, ёш олим тушунчасини қонунда белгиланган ёшлар тушунчасига мутаносиб деб топиб, ўн тўрт ёшга тўлган ва ўттиз ёшдан ошмаган илмий фаолият билан шуғулланувчи шахс деб тушунадиган бўлсак, унда биринчи навбатда, ҳали вояга етмаган шахснинг илмий фаолиятини ҳимоя қилиш масаласи турса, иккинчи томондан, ўттиз ёшга келиб энди магистратура босқичини тугатган, ёки энди илмий фаолият билан шуғулланишни бошлаган ёшларнинг давлат томонидан берилаётган имкониятлардан фойдаланишига тўсқиклик қилган бўлами.

Ёш олимларнинг ҳуқуқий мақомини белгилаш учун асосий вазифа “ёш олим” атамасини аниқлашдан иборат. Хорижда “ёш олимлар”ни ёши, фан номзоди (PhD) ёки бошқа илмий даражани тамомлагандан/олгандан кейин ишлаган стажи, ушбу гуруҳ одамлари учун танловлар ўтказувчи ташкилотнинг вазифалари ва иш йўналишлари каби мезонларга кўра таснифлаш мумкин. Хорижий амалиётда “ёш олим”ни аниқлашнинг йетарли мезони ёш чегарасининг белгиланиши ҳисобланади, яъни ёш олим деганда илмий фаолиятда фаол иштирок этаётган шахс, университет, 35 ёшгача бўлган илмий муассаса ёки бошқа илмий ташкилот ходими тушунилади. Аммо шуни таъкидлаш керакки, хорижий (Европа ва Америка) амалиётида ёш олимнинг ёш чегарасини 40 ёшгача ошириш тарафдорлари кўпаймоқда.

Бу кўп жиҳатдан чет элда ёш олимлар учун университет дастурлари номзодлик даражасига (PhD) эга бўлган олимларнинг илмий карьерасини қуриш учун мўлжалланганлиги билан асосланади. 35 ёшга келиб, кўплаб олимлар ўзларининг диссертацияларини (PhD) ҳимоя қилишган ва энди академик траекторияни янада ривожлантириш учун режаларни қураётган бўлади. Бундан ташқари, Шунингдек, баъзи хорижий ёш олимлар уюшмалари 40 ёшгача бўлган тадқиқотчилар сафига қўшилиш имкониятини таклиф қилмоқдалар (масалан, Юнесконинг Бутунжаҳон ёш олимлар ташкилоти).

Аммо баъзи мамлакатлар “ёш олим”ни аниқлаш учун ёш чекловларидан воз кечишга уринаётгани ҳақидаги асослар ҳам бор. Масалан, Полша Таълим ва фан вазирлигининг веб-сайтида айтилишича, Фан-таълим вазирлигига йўллаган мактубида Инсон ҳуқуқлари бўйича Комиссар Адам Боднар “Фанни молиялаштириш тўғрисида”ги амалдаги қонунда “ёш олим” таърифи 35 ёш қилиб белгилаш ёш мезони бўйича камситувчи бўлиши мумкинлигини таъкидлайди. Комиссар қонунда ёшни кўрсатмасликни, аксинча “Миллий илмий марказ тўғрисида”ги қонунга ўхшаш мезонни қўллашни таклиф қилади, яъни “илмий фаолиятни бошлаган шахс” таърифи унинг рўйхатдан ўтган ёшига боғлиқ эмас, аксинча докторлик диссертациясини олганидан бери ўтган вақтга (7 йилгача) боғлиқ. Шундай қилиб, уларнинг таърифига кўра, “ёш олим – бу илмий фаолият билан шуғулланадиган шахс: докторлик даражасига эга бўлмаган докторант ёки университет ўқитувчиси, ёки 7 йилдан ортиқ бўлмаган муддатдан бери докторлик даражасига эга бўлган шахс.

Шунингдек, Латвия Республикасининг “Илмий фаолият тўғрисида”ги Қонуни “ёш олим” атамаси тушунчасига ёш чекловларини киритмайди. [12] Ва биз ҳам айнан шундай ёндашувни қўллаб қувватлаймиз. Чунки, илмий фаолият билан шуғулланиш, олий таълимдан кейин узвий бўлмаган ҳолатда ҳам бўлиши мумкин, яъни шахс муайян бир даврда, бакалавр ёки магистратура босқичини тамомлагандан кейин амалиёт билан

шуғулланиши, ёки бошқа сабабларга кўра илмий фаолият олиб бормаган бўлиши мумкин. Юқоридагилардан келиб чиқиб, Ўзбекистон қонунчилигида “ёш олим” тушунчасига қуйидагича таъриф келтириб ўтиш мақсадга мувофиқ. *Ёш олим бу, илмий фаолият билан шуғулланувчи магистрлик даражасига эга бўлган, 35 ёшга тўлмаган докторант, мустақил изланувчи ёки олий таълим муассасаси ўқитувчиси, ёки қирқ ёшга тўлмаган докторлик даражасига эга олим.*

Тадқиқотчиларнинг ҳуқуқларига тўхталиб ўтадиган бўлсак, бу соҳани тартибга солувчи асосий қонун “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонунга мувофиқ, илмий фаолият юритувчи шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари битта модда билан тартибга солинади. Қонуннинг 14 моддасига мувофиқ, илмий фаолият юритувчи шахслар:

илмий фаолият тури, йўналиши ва воситаларини танлаш;

илмий фаолиятни яқка тартибда ёки жамоавий асосда олиб бориш;

инсон ҳаёти ва саломатлиги, атроф табиий муҳитга зарар етказиши мумкин бўлган илмий фаолиятда қатнашишни рад қилиш;

бажарган ишининг даражаси ва сифатига кўра моддий рағбат олиш, шунингдек илмий фаолияти натижаларини амалиётга татбиқ этишдан мукофот ёки даромад олиш;

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари, илмий фаолиятни қўллаб-қувватлаш жамғармалари ва қонунчилик билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштириладиган илмий лойиҳалар бўйича танловларда қонунчиликда белгиланган тартибда иштирок этиш;

ўзи томонидан ёки ҳаммуаллифликда бажарилган илмий ишланмалар натижаларидан, агар улар давлат, хизмат ва тижоратга оид ёки қонунчиликка мувофиқ муҳофаза қилинадиган бошқа сирлардан таркиб топмаган бўлса, эркин фойдаланиш, уларни тарқатиш ва оммавий ахборот воситаларида эълон қилиш;

илм-фан соҳасида тадбиркорлик фаолиятини қонунчиликка мувофиқ амалга ошириш;

педагогик фаолият билан шуғулланиш, маслаҳатчи ва эксперт бўлиш;

агар қонунчиликда бошқача тартиб белгиланмаган бўлса, илмий фаолият натижаларини илмий маъруза, мақола, монография ва диссертация ҳимояси кўринишида ҳамда бошқа шаклларда тақдим этиш ҳуқуқига эга.

Энди халқаро ҳужжатлар ва хорижий мамлакатлар қонунларига мувофиқ илмий ходимларнинг ҳуқуқларини тоифаларга бўлиб ўрганамиз.

Демак, илмий ходимлар ҳуқуқий мақомининг марказий элементи бу илмий тадқиқот эркинлиги бўлиб, у илмий ва илмий-техника тадқиқотларининг йўналишлари ва усулларини мустақил белгилаш, тадқиқот предметини эркин танлаш, давлат ва учинчи шахслар аралашувисиз тадқиқот олиб бориш, таваккал (рисklar) қилиш ҳуқуқини ўз ичига олади. Тадқиқотни олиб боришнинг ташкилий-ҳуқуқий шаклини танлаш муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга, илм-фан эркинлигини тўлиқ ва самарали амалга ошириш фақат илмий ходимларнинг ҳуқуқий мақомига кирувчи ва халқаро миқёсда тан олинган инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг конкретлашуви бўлган бошқа ҳуқуқ ва эркинликларни амалга ошириш орқали мумкиндир.

Тадқиқотчиларнинг фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлари орасида шахсий дахлсизлик ва қадр-қимматига бўлган ҳурмат ҳуқуқини; уюшмалар ва бирлашмаларга оид

эркинлик ҳуқуқи, шу жумладан ўз манфаатларини ҳимоя қилиш учун касба уюшмаларини тузиш ва уларга қўшилиш ҳуқуқи; симпозиумлар ва коллоквиумлар шаклидаги тинч йиғилишларга оид ҳуқуқлар, уларда иштирок этиш ўз навбатида, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 18-моддаси 1-бандида назарда тутилган фикр эркинлиги ва сўз эркинлиги ҳуқуқини амалга оширишни алоҳида таъкидлаш керак. Ахборот жамиятидаги илм-фаннинг ривожланиши шароитида тадқиқотчиларнинг ахборотга бўлган, уни излашга, олишга ва тарқатишга бўлган ҳуқуқи янада муҳим ўрин касб этмоқда. Бу нафақат маълумотлар базалари ва илмий ишларга кириш ҳуқуқини, балки интеллектуал фаолият натижаларини чегаралардан қатъи назар, очиқ матбуотда эълон қилишни ҳам ўз ичига олади, агар бу натижаларда, албатта, давлат, расмий ёки тижорат сирлари билан боғлиқ маълумотлар бўлмаса. Академик мобилликни рағбатлантирадиган глобаллашув шароитида ўз мамлакатини тарк этиш ва унга қайтиш эркинлигининг роли ортиб бормоқда, тадқиқотчилар билан нафақат ўз мамлакатида, балки халқаро миқёсда ҳам ҳамкорлик қилиш ҳуқуқи ҳақида гапирмаса ҳам бўлади.

Бундан ташқари, илмий тадқиқотчиларнинг ҳуқуқий мақомида муҳим ўринни ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқлар, хусусан, меҳнат ҳуқуқлари, тадбиркорлик фаолиятидаги эркинлик ҳуқуқи, турли манбалардан молиялаштириш ҳуқуқи ва муносиб ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқи, шунингдек ижодий ҳиссага мос келадиган имтиёзлар ва мукофотлар олиш ҳуқуқи эгаллайди.

Илмий ходимларнинг ҳуқуқий мақомининг халқаро ҳуқуқий стандартининг шартсиз элементи уларнинг интеллектуал фаолият натижаларига бўлган шахсий номулкий ва мутлақ ҳуқуқларини ўз ичига олади. Бу борада нафақат тегишли халқаро шартномаларда мустаҳкамланган интеллектуал мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш нормалари ва тамойиллари муҳим аҳамиятга эга, балки илмий-техника ҳамкорлиги тўғрисидаги кўплаб халқаро икки томонлама шартномаларда мавжуд бўлган интеллектуал мулк ҳуқуқларини тақсимлаш тўғрисидаги қоидалар ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Агар илмий ходимларнинг таълим соҳасидаги ҳуқуқлари ҳақида гапирадиган бўлсак, унда бу илмий малакага эга бўлиш ва уни ошириш ҳуқуқини ва тадқиқот эркинлиги, таълим бериш эркинлиги ва институционал автономия ўртасидаги чамбарчас боғлиқликни назарда тутувчи академик эркинликни ўз ичига олиши керак.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Ананов, И. Н. Правовое положение научных работников / И. Н. Ананов. – М. : Нижполиграф, 1928. – 59 с.
2. Федькин, Г. И. Правовые вопросы организации научной работы в СССР / Г. И. Федькин. – М. : Госюриздат, 1958. – 356 с.
3. Gaieck W, Lawrence JP, Montchal M, Pandori W, Valdez-Ward E. Opinion: Science Policy for Scientists: A Simple Task for Great Effect. PNAS. 2020;117(35):20977-20981. DOI: <https://doi.org/10.1073/pnas.2012824117>
4. . Zirkle C. Our Splintered Learning and the Status of Scientists. Science. 1955;121(3146):513-519. DOI: <https://doi.org/10.1126/science.121.3146.513>

5. Diamond ShS, Lempert RO. When Law Calls, Does Science Answer? A Survey of Distinguished Scientists & Engineers. *Dædalus*. 2018;147(4):41-60. DOI: https://doi.org/10.1162/DAED_a_00519
6. Гордеева Н.А. Статус научного работника // *Вестник Российской академии наук*. 1998. Т.68. №7 с.615
7. Бочарникова М.А. Особенности регулирования труда научных работников, руководителей научных организаций, их заместителей // Особенности правового регулирования трудовых отношений отдельных категорий работников: науч.-практ. пособие / отв. ред. Т.Ю. Коршунова. М., 2018.
8. Бочарников Д.А. Специфика научной деятельности как основание дифференциации правового регулирования трудовых отношений научных работников // *Журнал российского права*. 2018. № 2. С. 106.
9. Кашкин С.Ю. Правовой статус научно-педагогического работника в государствах Европейского Союза и Северной Америки: сравнительный анализ // *Актуальные проблемы российского права*. 2016. №1 С. 233
10. Черноморская Л. Ю. Тенденции изменения ценностей научной деятельности в России: установки молодежи : дис. на соиск. ... канд. социол. наук. Н. Новгород, 2005. 159 с.
11. Осипова О. Ю. Социальный статус молодых ученых в регионе : дис. на соиск ... канд. социол. наук. Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 2011. 199 с
12. Рекомендация ЮНЕСКО о статусе научно-исследовательских работников (20 ноября 1974 года)
13. Латвия Республикасининг “Илмий фаолият тўғрисида”ги қонуни. // <https://likumi.lv/ta/en/en/id/107337>
14. https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=38880&type=sogan&key=2

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

SOME CONCEPTS IN THE FIELD OF GUARANTEING THE RIGHT OF INTEGRITY OF HOUSING

Fayzieva Gulrukh Muhammadi kizi

Lecturer of the department "Constitutional Law", Tashkent State university of Law
Email: tirkashevagulrux999@gmail.com

Abstract. This scientific article discusses some terms regarding ensuring the right to the inviolability of the home, namely: housing, place of residence, place of registration, place of residence, inviolability of the home and others. The opinions of scientists regarding the use of terminology in the field of guaranteeing the right to the inviolability of the home were also studied.

Key words: home, place of residence, place of registration, place of residence, inviolability of home, right to inviolability of home.

НЕКОТОРЫЕ ПОНЯТИЯ В СФЕРЕ ГАРАНТИИ ПРАВО НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ ЖИЛИЩА

Файзиева Гулрух Мухаммади кизи

Преподаватель кафедры «Конституционного права» Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются некоторые термины касательно обеспечения право неприкосновенности жилища, а именно такие как: жилище, место жительства, место регистрации, место проживания, неприкосновенность жилища и другие. А также изучены мнения научных деятелей касательно применения терминологий в сфере гарантии право неприкосновенности жилища.

Ключевые слова: жилище, место жительства, место регистрации, место проживания, неприкосновенность жилища, право неприкосновенности жилища.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N90>

Введение. Необходимость теоретическо-правового анализа понятий, сущности и правовой природы на неприкосновенность жилища предопределена несколькими аспектами. Во-первых, отсутствует единство употребления данного термина в юридической литературе, где научные деятели изучаются отдельные аспекты данного права без конкретизации того, что ими понимается под анализируемым явлением. Во-вторых, разноотраслевой характер исследований данного вопроса также добавляет существенные сложности, поскольку различное содержательное значение многих терминов является распространенной ситуацией современного права (в том числе и в отношении права на неприкосновенность жилища).

Непосредственно изучая неприкосновенность жилища, нам необходимо определиться с правильным толкованием и пониманием термина «жилища». Несмотря

на то, что право на жилище является, конституционным правом, имеющим свое место и в международном праве, на сегодняшний день в конституционном законодательстве Республики Узбекистан отсутствует само понятие «жилище», что осложняет понимание содержания исследуемого права. Разнится понимание и правовых возможностей права на жилище конституционном праве, жилищном праве, международном праве и уголовном праве Узбекистана, что затрудняет его обеспечение.

Согласно мнению профессора Н.С.Железняка под жилищем понимается индивидуальный жилой дом с входящими в него жилыми и не жилыми помещениями, жилое помещение не зависимо от формы собственности, входящее в жилой фонд и пригодное для постоянного или временного проживания, а равно иное помещение или строение, не входящие в жилищный фонд, но предназначенные для временного проживания. [1, 5]

По мнению D.Myhill, **жилище** - это закрытое частное пространство, в котором один или несколько человек проживают или занимаются определенной деятельностью, и гражданам обычно запрещается входить в него без разрешения владельца. Исходя из сроков или постоянства, это безопасное святилище, в которое никому другому не разрешается входить без его разрешения, и оно включает в себя сад в том виде, в каком он к нему примыкает. [2, 47]

П.Ю.Тюрин считает, что **жилище** - это строения, объекты стационарного и стационарно-переносного назначения, включающие жилые дома, жилые помещения и связанные с ними функционально нежилые помещения; места и объекты, предназначенные для постоянного или временного проживания с четко выраженными формами и внешними границами

Литература и метод. Исходя из мнения Н.С.Железняка, П.Ю.Тюрина и D.Myhill частично схожи между собой, но на наш взгляд под понятием жилища подразумевается более широкое понятие. **Жилища** - это помещение, где человек временно или постоянно проживает, вне зависимости от вида имущества, материала сооружения, на основании прав владения и пользования установленном законном порядке, где имеется порог.

Место жительство - места для использования, в соответствии с установленными санитарными, противопожарными и техническими требованиями, а также в установленном порядке в специальных домах (общежитиях, временные дома жилищного фонда, интернаты для одиноких престарелых, инвалидов, а так же детских домах и другие специально-целевые дома). [3, 27] Дополнительно, место жительства (также местожительство, лат. *domicilium*) — место, где человек (гражданин) постоянно или преимущественно проживает. [4, 17] Если человек живет большую часть времени или постоянно, юридически называется **местом жительства**. Оно фиксируется в соответствующих государственных органах, как адрес постоянной регистрации (ее еще называют постоянной пропиской). Место жительства может часто предполагать более постоянное и стабильное место проживания, чем просто место проживания.

Место проживания - рассматриваться как более общий и широкий термин, охватывающий фактическое место, где человек живет, без необходимости официальной регистрации. Место проживания может быть временным или изменяться с течением времени, без необходимости изменения юридического статуса.

Место регистрации - отметка о месте проживания в паспорте человека и записи в учётных документах государственных органов. [6, 97]

Неприкосновенность жилища — основное социально-экономическое право, означающее запрет на входение в жилище против воли проживающего в нем лица. [7, 16]

Про мнению профессора С.И.Сусловой в настоящее время можно констатировать, что термин «неприкосновенность жилища» употребляется в следующих значениях. Во-первых, как базовое конституционное право. Во-вторых, как конкретное субъективное право физического лица, носящее неимущественный характер и составляющее содержание абсолютного правоотношения, где все третьи лица обязаны воздерживаться от его нарушения. В-третьих, как базовый принцип (основное начало) уголовного судопроизводства, а также жилищного законодательства. В-четвертых, неприкосновенность жилища рассматривается как элемент правопорядка или правоспособности, поскольку является возможностью в равной степени присущей всем и каждому. И, наконец, в-пятых, можно встретить утверждение, о том, что право на неприкосновенность жилища является гарантией осуществления права на неприкосновенность частной жизни. [8, 11]

Обсуждение. Ф.Х.Мадиев считает, что такие естественные права и свободы, как право на жизнь, неприкосновенность жилища, тайна переписки, свобода совести, не дарованы государством, а принадлежат человеку от рождения. Государство должно укреплять и обеспечивать права и свободы законом. В этом отношении неприкосновенность частной жизни можно определить как состояние, которое представляет личную и семейную жизнь человека, среду обитания, место жительства, физическую и психическую неприкосновенность. [9, 14] Кроме, того согласно его мнению право неприкосновенности жилища является одним из элементов обеспечения неприкосновенности частной жизни. Но на наш взгляд неприкосновенность жилища, это самостоятельное право каждого человека, в связи с чем понятия неприкосновенности частной жизни и неприкосновенности жилища отличаются между собой исходя из разных аспектов защиты личной сферы гражда человека. Понятие неприкосновенности частной жизни намного шире, чем понятие неприкосновенности жилища.

Британский учёный J.W.Carrol утверждают, что принцип неприкосновенности жилища является естественным правом, присущим человеческой природе. [10, 5-7]

Б.В.Просолов считает, что право на неприкосновенность жилища является абсолютным отрицательным неимущественным субъективным правом. Это естественное право человека. Оно является одним из его основных конституционных личных прав, принадлежит человеку от рождения, неотчуждаемо и не передается иным способом. [11, 6]

Тогда, как А.А.Каритонов утверждает, что принцип неприкосновенности жилища — это законное право, которое признается и защищается законом [12, 25].

Профессором В.А. Белов, считает неприкосновенность жилища (наряду с личной неприкосновенностью, правом на участие в гражданских правоотношениях и т.п.) лишь элементом правопорядка или правоспособности.[13, 2] Их мнение достаточно последовательно основывается на следующих теоретических постулатах: отрицание

надобности существования общерегулятивных правоотношений, характеристика базовых конституционных прав (на жизнь, здоровье) в качестве прав, охраняющихся правом непосредственно без наделения их обладателей конкретными субъективными правами. Это дает основание исследователю отказать в характере субъективного и праву на неприкосновенность жилища. Добавим, что, раньше нучный деятель как Ю.Г.Ткаченко,придерживался такой позиции, согласно которой право на жизнь, здоровье и т.п. не могут считаться субъективными правами, а являются законными интересами.

Результат. В соответствии с мнением различных экспертов, в том числе Н.С. Железняк, D. Myhill и П.Ю. Тюрина, понятие «жилище» может включать в себя индивидуальные жилые дома, помещения в жилом фонде, места для временного проживания, закрытые частные пространства и другие структуры. В нашем понимании «жилище» представляет собой более обширное понятие, охватывающее помещения, где человек проживает временно или постоянно, независимо от формы собственности, с установленным порядком владения и пользования.

Важно отметить различия между понятиями «место проживания» и «место регистрации». Первое представляет собой более общий и изменчивый термин, описывающий фактическое место проживания человека, в то время как второе является официальной регистрацией в государственных органах. Эти различия важны для понимания контекста неприкосновенности жилища, так как она относится к защите конкретного места, где человек проживает, независимо от формальных учетных данных.

Таким образом, разъяснение понятия «жилище» и его отличие от других терминов является ключевым вопросом для обеспечения эффективной защиты неприкосновенности жилища и соблюдения прав граждан в данной сфере.

В заключение, неприкосновенность жилища представляет собой фундаментальное личное право, но по мнению А.Д.Каримова социально-экономическим, которое запрещает вмешательство в жилище без согласия его обитателей. Анализ мнений различных учёных, таких как С.И. Суслова, Ф.Х. Мадиева, J.W. Carrol, Б.В. Просолова, В.А. Белова и других, позволяет уяснить многогранный характер данного права. Мы разделяем мнение А.Д.Каримова, и больше придерживаемся мнения, что неприкосновенность жилища относится к личным правам человека, так как она универсальна и не отчуждаема.

По мнению профессора С.И. Сусловой, неприкосновенность жилища может быть рассмотрена как базовое конституционное право, конкретное субъективное право физического лица, принцип уголовного судопроизводства, а также элемент правопорядка и правоспособности. В то время как Ф.Х. Мадиев подчеркивает, что неприкосновенность жилища является одним из естественных прав человека, неотчуждаемым и не передаваемым иным способом.

Заключение. Мы считаем, что естественность этого права проявляется в его универсальности и неотчуждаемости, не зависящей от времени, культуры или законодательства. Неприкосновенность жилища признается как основополагающее для обеспечения человеческого достоинства, свободы и безопасности. Это право является

важным элементом гарантирования личной автономии и защиты от произвольного вторжения в приватное пространство.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Железняк Николай Семенович Жилище как объект оперативно-розыскной деятельности (сравнительно-правовой анализ) // Вестник Сибирского юридического института МВД России. 2017. №3 (28). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhilische-kak-obekt-operativno-rozysknoy-deyatelnosti-sravnitelno-pravovoy-analiz> (дата обращения: 31.01.2024).
2. David Myhill McCulloch v Forth Valley Health Board [2023] UKSC 26, the Supreme Court clarifies the meaning of 'reasonable alternative treatment'
3. Энциклопедический словарь электронной базы Lex.uz «турар жой»<https://lex.uz/dictionary?word=%D0%A2%D0%A3%D0%A0%D0%90%D0%A0-%D0%96%D0%9E%D0%99>
4. Местожительство // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
5. Публицистическая статья 2023 года в электронном журнале «Домик»,<https://blog.domclick.ru/nedvizhimost/post/zachem-nuzhna-vremennaya-propiska-i-kak-ee-poluchit>
6. Место регистрации// Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
7. Сулова Светлана Игоревна Право на неприкосновенность жилища: правовая природа // Baikal Research Journal. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravo-na-neprikosnovennost-zhilischa-pravovaya-priroda> (дата обращения: 31.01.2024).
8. Ф.Х.Мадиев, старший преподаватель, доктор философии по юридическим наукам, научная диссертация на тему «Конституционно-правовые основы обеспечения права неприкосновенности частной жизни в условиях развития цифровых технологий» 2023 г. С. 150, стр.27
9. J. W. Carroll, "Laws of Nature," *Internet Encyclopedia of Philosophy*, 2021. [Online]. Available: <https://iep.utm.edu/lawofnat/>.
10. Прасолов Б.В. Неприкосновенность жилища и невозможность его произвольного лишения // Семейное и жилищное право. 2016. № 6. С. 42-45.
11. A. Kharitonova, "Inviolability of the Home: Problems and Prospects of Legal Regulation," *Journal of Advanced Research in Law and Economics*, vol. 6, no. 2, pp. 345-352, 2015.
12. Гражданское право: актуальные проблемы теории и практики / под общ. ред. В.А. Белова. — М.: Юрайт-Издат, 20017. — 993 с., 644с.
13. Ткаченко Ю.Г. Методологические вопросы теории правоотношений / Ю.Г. Ткаченко. — М.: Юрид. лит-ра, 1980. — 176 с.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

ON THE ISSUE OF IMPROVING NATIONAL MECHANISMS IN THE FIELD OF PRE-TRIAL CRIMINAL PROCEEDINGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ibragimova Sabina Erkinovna

Yaxlitlik xususiyatiga ega bo'lgan ta'lim jarayoni ichida bilim, malaka, mahorat, ko'nikma va tajribalarni egallashga yo'naltirilgan o'quv-bilish harakatlari, maqsadga erishish usullarini kashf etishga bo'lgan intilishlar, intilish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq izlanishlar, o'zaro ta'sirlashuvchi (hamkorlikdagi) tomonlar (ya'ni o'qituvchi va ta'lim oluvchilar) o'rtasida ta'sir doirasining o'zgarib turishi, yangi bilimlar hosil qilish ehtiyojining tug'ilishi kabi ko'plab hodisalarni kuzatish mumkinki, ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. [2]

Ta'lim jarayonida harakatlantiruvchi kuch sifatida ta'lim oluvchi ehtiyojlari (yoki imkoniyatlari) bilan unga taqdim etiladigan axborot, ma'lumot va bilimlar (umumiy tarzda

o'quv materialining mazmuni) hajmi o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatish mumkin. Bunda ikki holat yuz berishi mumkin:

A) Ta'lim muassasasi, o'qituvchi va jamoatchilik tomonidan qo'yiladigan talablar ta'lim oluvchi imkoniyatlariga to'g'ri kelmasligi mumkin (bu holat mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida istisno etiladi, zero, ushbu vaziyat pedagogik jarayonning "sustlashuvi", talaba ehtiyoji doirasida tashkil etilish zaruratiga olib kelgan bo'lur edi).

B) Ta'lim muassasasida dasturi, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari asosida taqdim etiladigan bilim, malaka va ko'nikmalar ta'lim oluvchining o'z-o'zini rivojlantirish va o'quv-bilish ehtiyojlariga mos tushmasligi (bunday vaziyat ta'lim jarayonining ikki tomonlama faollik asosida rivojlantirilishi uchun zamin yaratadi). [3]


Yaxlit ta'lim jarayonining strukturaviy elementlariga ta'lim maqsadi, ta'limning mazmuni, pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro bog'liq faoliyati, ikki tomonlama hamkorlikdagi faoliyatning natijalari kabi elementlar kiradi. Zamoviy tamoyillar asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar ta'lim jarayoni sub'ektlari darajasiga ko'tariladi, binobarin, mazkur jarayon strukturaviy elementlarining rivojlanganlik darajasi "ikki tomon"ning faolligi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayoni uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikma va ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga qaratilgan barcha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim oluvchi-o'qituvchi hamkorligiga asoslangan faoliyatga nisbatan qo'llaniladi (ya'ni boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, nopedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalaridagi shaxs tarbiyasi, kasbga tayyorlash, shaxsni rivojlantirish jarayonlari ham aynan ta'lim jarayonida (yoki pedagogik jarayonda) amalga oshiriladi). Biroq bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy tayyorlash faoliyatini amalga oshiruvchi pedagogik yo'nalishlaridagi OTMLar ta'lim jarayoni pedagogik ta'limning strukturaviy elementi o'laroq qaraladi.

Aytish mumkinki, ta'lim jarayoni pedagogik ta'limga nisbatan qamrov, struktura, maqsad, vazifa va bajariladigan funksiyalari nuqtai nazaridan nisbatan torroq jarayondir, ammo shunga qaramay, ta'lim jarayonining sifati pedagogik ta'limning mahsuldorlik darajasini belgilaydi.[4]

(Biz bu masalani tadqiqot ishimizning navbatdagi paragrafida mufassalroq o'rganamiz – muallif). Yuqoridagi mulohazalar orqali bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayonini rivojlantirish bilan bir qatorda pedagogik ta'limni ham takomillashtirish muhim ekanligi ko'rsatib beriladi. Xo'sh, pedagogik ta'lim nima?

Mazkur tushunchaga milliy pedagogikamizda oid qomusiy manbalarda quydagicha ta'rif berilgan[5].



Rossiyalik pedagog V.A. Polyakov fikriga ko'ra, pedagogik ta'lim – bu ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali va muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Yu.N.Galaguzova talqinidagi ta'rif quyidagi ko'rinishda taklif etiladi: “pedagogik ta'lim – bo'lajak o'qituvchilarga kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikmalar majmuasini etkazish, ularda kasbiy kompetentlikning tegishli komponentlarini shakllantirish va davomli rivojlantirish jarayonidir” [6].

O'qitish – ta'lim oluvchilarning zarur bilim, malaka, ko'nikmalar va tegishli sifatlarni egallashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishdan iborat aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, unda ta'lim oluvchi egallashi ko'zda tutilgan bilim, malaka va ko'nikmalarning me'yoriy darajasi qo'yilgan maqsad bilan belgilanadi. O'qitish (ta'lim) faoliyati o'rganilishi (o'zlashtirilishi) ko'zda tutilgan o'quv material miqdor va sifat nuqtai nazaridan qo'yilgan maqsadga har taraflama mos kelganda, jarayon sifatida yakunlangan hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, “o'qitish” tushunchasi pedagogik jarayonda ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasida kechadigan axborot uzatish va axborot qabul qilishdan mazmunidagi munosabatlarni bir tomonlama yoritadi.

Zamonaviy ta'limda o'quv dasturlarining variativ, alternativ, eksperimental, mintaqaviy (yoki lokal), asosiy va qo'shimcha, taxminiy, kompleks, parsial va ishchi o'quv dasturlari kabi turlari qo'llaniladi. [7].

Quyida ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan o'quv dasturlarining xususiyatlari va alohida xossalari jadval ko'rinishida taqdim etiladi (qarang: 1.1-jadval).

1.1-jadval. Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan asosiy o'quv dasturlari va ularning xossalari

O'quv dasturlarining turlari	Asosiy tavsifi	Xossalari	Maqsadi
Variativ o'quv dasturi	Ta'limning o'zgaruvchanlik sharoitlarida ta'lim va tarbiyaning variativli ekanlik sifatidan kelib chiqiladi va ta'lim oluvchilar (tarbiyalanuvchilar)ga o'z ta'lim (tarbiya) traektoriyalarini tanlash imkoniyatini yaratadi	Iqtidorli va alohida qiziqish doirasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilarni (tarbiyalanuvchilarni) rivojlantirishga mo'ljallanadi	Ta'lim muassasalari va MTTlarda ta'lim-tarbiyani individuallashtirishga xizmat qiladi, Asosiy dasturning muayyan sharoitlarga muvofiqlashtirilishi ni nazarda tutadi
Alternativ (muqobil) o'quv dasturi	Asosan, boshlang'ich va maktabgacha ta'limda qo'llaniladi. Asosiy dasturning o'qituvchi, tarbiyachi-pedagogning metodist bilan hamkorlikda ishlab	Ta'lim va tarbiyada mintaqaga xos bo'lgan qadriyatlarining ustivorligini umummilliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish	Iqtidorli, layoqatli yoki alohida e'tiborga muhtoj bolalar shaxsini tarbiyalashga qaratiladi va asosiy dasturdagi maqsadlarning soddalashtirishgan

	chiqilgan moslashuvchan ko'rinishi		ko'inishiga qaratiladi
Eksperimantal o'quv dasturi	Tarbiya yoki ta'lim sohasidagi yangi ishlanmalar, innovasiyalar, takomillashtirilgan metodikalarning samaradorlik darajasini amaliy sharoitlarda aniqlashda qo'llaniladi	Tadqiqotchilar, tashabbuskor o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglar tomonidan ishlab chiqiladi. Ta'lim muassasasi (yoki MTT)ning tashabbusi yoki roziligi bilan ma'lum vaqt kesimida joriy etiladi.	Ta'lim oluvchilar yoki tarbiyalanuvchilarda ma'lum bir sifat, qobiliyat yoki iqtidorni shakllantirishga qaratiladi
Lokal o'quv dasturi	Milliy (asosiy) o'quv dasturining alohida yondashuv talab qiluvchi bolalar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim muassasalari va MTTlarda qo'llaniladi	Mahalliy sharoitda bolalarning ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi	Tarbiyaning muayyan mintaq (yoki hudud) uchun muhim bo'lgan alohida elementlarini rivojlantirish orqali shaxsni tarbiyalashga qaratiladi
Asosiy va qo'shimcha o'quv dasturi	Asosan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha keng tarqalgan, umume'tirof an'anaviy qarashlar asosida ham, keng tarqalmagan yangi pedagogik nazariyalar va tushunchalar asosida quriladi va davlat dasturiga va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishni nazarda tutadi	Maktabgacha ta'limning mazmun-mundarijasini shakllantirishda hududiy, etnik-madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlar va an'analardan foydalanishga asoslanadi va Badiiy va estetik, etnik-madaniy, madaniy, intellektual, kommunikativ va nutqiy tarbiyaga urg'u beriladi.	Davlat dasturlarida ko'zda tutilgan maqsadlarni mahalliy, mintaqaviy va lokal imkoniyatlar hamda sharoitlardan kelib chiqqan holda rivojlantirishga qaratiladi
Kompleks o'quv dasturi	Asosiy o'quv dasturining barcha jihatlarini qamrab olish bilan bir qatorda bolalarda shaxs sifatida shakllanish uchun zarur bo'lgan barcha sifatlarni rivojlantirish uchun qo'llaniladi.	Asosiy va qo'shimcha o'quv dasturidagi barcha elementlarni umumlashtirishni, ta'lim va tarbiya usullari o'rtasidagi integrasiyaga asoslanadi.	Bolada tarbiyaning barcha elementlarini shakllantirish va davomili rivojlantirish bilan uyg'un holda uni ta'limning navbatdagi bosqichiga

			tayyorlash borishni nazarda tutadi.
Parsial o'quv dasturi	Maktabgacha ta'limdagi asosiy dasturning ajralmas qismi bo'lib, tarbiya elementlarini alohida olgan holda rivojlantirishni nazarda tutadi.	Bolalarning o'quv-bilish potensialini yuzaga chiqarish, ularning qiziqish doirasini aniqlash va shu asosda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.	Asosiy dasturdagi maqsadlarga erishish vositalarini ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi
Ishchi o'quv dasturi	DTS talablarini mahalliy sharoitlar, mintaqaviy qadriyatlar, hududga xos sharoitlar, ta'lim oluvchilarning xususiyatlari va boshqa faktorlarni hisobga olgan holda to'laqonli bajarishga qaratiladi.	Asosiy va kompleks dasturlarga tayanilgan holda ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari hamda mintaqaga xos qadriyatlardan kelib chiqib, loyihalashtiriladi.	Asosiy, kompleks va parsial dasturdagi maqsadlarga erishish nazarda tutiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda uzluksiz ta'limning quyi bo'g'inlari (maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim)da ta'limning sifati va samaradorligini oshirishda, eng avvalo, pedagogika yo'nalishidagi OTMlarda bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini yuksaltirish ustivor echim sifatida qaralmoqda, zero, faqat bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning ijodiy-metodik qobiliyatlarini tarbiyalash, kreativ potensialini yuzaga chiqarish orqali butun uzluksiz ta'lim tizimida o'zaro uyg'unlik, o'zaro bir-birini to'ldiruvchanlik va rivojlantiruvchanlik xususiyatlarining barqarorligiga erishish mumkin. Ayni vaqtda, OTMlarda bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini sifat jihatdan talab darajasiga etkazish uchun OTMdagi pedagogik ta'limni takomillashtirish taqozo etiladi, o'z navbatida pedagogik ta'limni takomillashtirish uchun esa OTMdagi ta'lim jarayonini rivojlantirishdek muhim vazifani bajarish mumkin.

Xulosa. Ta'lim jarayonida o'quv dasturlarini ishlab chiqish o'quv dasturining tarkibiy qismlari o'rganishni osonlashtiradigan tarzda qanday tashkil etilganligini anglatadi. Turli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab boshqa o'quv dasturlarini loyihalash modellari mavjud.

Zamonaviy ma'noda o'qitish-bu vakolatlarni shakllantirishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi. Shu sababli, oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassislarni shakllantirish muammosi olimlar, o'qituvchilar va jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Vakolatli mutaxassislarning mavjudligi ijtimoiy va iqtisodiy sohaga bevosita ta'sir qiladi. O'qitishni tashkil etishga qo'yiladigan yangi talablar, yangi texnologiyalarning ishlab chiqilishi, ta'limda an'anaviy maqsadning o'rniga yangi, innovatsion tartib normalarning paydo bo'lishiga asoslanishi lozim. Ya'ni, bugungi ma'lum vaqt oralig'ida ta'lim jarayonini tashkil etish orqali ta'lim sifatini yaxshilash, qisqa vaqt davomida zarur bilimlarni yetkazishni maqsad qilindi.

Pedagog bugungi zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda insonga ham, tabiatga ham, jamiyatga ham zarar etkazmaydigan bilimlarni o'rganishga o'rgatish zaruratini his qilmog'i lozim.

Zamonaviy mashg'ulotlar ixcham va amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerak, funktsional savodxonlik, professionallik va talabalarning tez o'zgaruvchan hayotga tayyorligini shakllantiradi.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. R.X.Djuraev, O'.Q.Tolipov va boshqalar, Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent – 2008, 58-b
2. Дрозд К. В. Актуальные вопросы педагогики и образования. Учебник и практикум для академического бакалавриата. М.: Юрайт, 2019. 266 с.
3. Ю.Н.Галагузова и другие. Социальная педагогика/ 2-е изд. - М.: НИЦ ИНФРА-. М, 2016
4. Новиков, Д.А. Теория управления образовательными системами [Текст] / Д.А. Новиков. – М.: Народное образование, 2009. – 452 с.
5. Педагогика: Учебное пособие. / Под ред. П.И. Пидкасистого. – М., 2006
6. Слостенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пос. – М., 1999
7. Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi, Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar, Термиз - 2024, ТерДУ НМ, 23-б
8. М Сайдиллаева "Effectiveness of variative development of educational programs in pedagogical processes" Общество и инновации, 2023.2.20, 160-165/ 2181-1415/© 2023 in Science LLC. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2/S-pp160-165>
9. MBQ Saydillayeva, MM Tog'Ayeva kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. "Pedagogik jarayonlarda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatli tomoni (muammoli ta'lim texnologiyasi misolida)" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ 2023/ 314-319/ 000 «Orientalreinessans» <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=11919568573644608574&btnI=1&hl=ru>
10. MB qizi Saydillayeva utish mumkin. "Ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat turlarini tashkil etish va samaradorlikka erishish yo'llari". Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations 2022/11/5, 121-127 <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=2665915022005712967&btnI=1&hl=ru>
11. Saydillayeva Mehrinaz Bahodirovna "Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda ta'lim dasturlarining ahamiyati". "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal 4/6/2023 www.paresearchjournal.uz

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

COMPARING TYPES OF LESSONS AND APPROACHES TO LESSON PLANNING

Ubaydullaeva Jamila Hurramovna

Teacher of Denau institute of entrepreneurship and pedagogy

E-mail: Jamila.ubaydullayeva@gmail.com

Abstract. In this article, the planning of the educational process implies the establishment of goals, tasks and educational results during a certain period and at the end. Planning will be successful if the following factors are taken into account. Ideas about lesson organization and comparison of approaches are shown.

Key words: goal, task, lesson, factors, process, lesson plan, teacher.

DARS TURLARI VA DARSNI REJALASHTIRISHGA NISBATAN YONDOSHUVLAR

Ubaydullaeva Jamila Hurramovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonini rejalashtirish ma'lum bir davrda va maqsadlar, vazifalar hamda ta'lim natijalarini taqozo etishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu omillar hisobga olinsa, darsni rejalashtirish muvaffaqiyatli bo'ladi. Shuningdek, maqolada darsni tashkil etish va yondashuvlarni solishtirish bo'yicha g'oyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maqsad, vazifa, dars, omillar, jarayon, dars rejasi, o'qituvchi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N96>

Introduction. Planning the educational process presupposes defining aims, objectives and learning outcomes during and at the end of a certain period. Planning is successful if the following factors are taken into account:

- the final and intermediate aims of teaching foreign languages and cultures;
- stages of developing communicative competence and its components;
- available means of instruction;
- current methodological requirements to lessons;
- psychological factors (learners' age, their level of intellectual development, their interests, inclinations and needs;
- pedagogical factors (stage of learning, learners' proficiency level).

The system of planning at secondary schools include plans for a year of studies, for a term or a quarter, for a topic or module (a series of lessons) and for a separate lesson.

A plan for a year (calendar plan) is based on the syllabus and the national curriculum as well as on recommendations and approximate plan found in the teachers' guide. [2]

Planning for a topic (a series of lessons) is more detailed. We formulate learning outcomes that should be checked at the final lesson of the series, name the topic and the

objectives, define the sequence in developing different kinds of competences, the number of lessons allocated for that, ways and forms of summative assessment, means of instruction.

The scheme of the topic plan may include the following:

topic, subtopics (topic aspects) and then in columns: lesson number, type of the lesson, objectives of the lesson, language material, - skills (all of them), equipment, home assignment.

Lesson plan is the most detailed of all. It shows what to do and what to achieve at each stage of the lesson, selection of the language material, learning (teaching) materials, means of instruction, all didactic materials etc. It is to demonstrate a teacher's awareness of the each element of the lesson and its interaction with other elements. [3]

While planning a lesson, a teacher performs the following sequence of actions:

- analyzes the material content;
- defines the lesson type;
- formulates objectives;
- distributes material for each stage;
- allocates the time per each stage;
- designs or selects activities;
- writes a lesson plan;
- ensures that means of instruction are ready.

In planning there should be observed **two main principles: variety and flexibility**. [1]

Variety has several aspects:

1) it deals with the number of activities the learners are involved in and their character (drills, semi-controlled, or communicative tasks). The teacher should use several activities and of various types, which depends on the learning stage.

2) it deals with different type of interaction (whole class activities, individual, pair and group work)

3) it deals with different skills, preferably skills integration, and with certain individualization when teaching mixed ability classes.

Flexibility is the ability to change the plan, if necessary, when teaching. A good lesson plan is a combination of activities, techniques and material in order to reach the idea of balance. It may be changed due to the number of the learners present at the lesson, their preparation for the lesson, their physical or psychological state, some external factors etc.

Discussion.

Types of lessons. Lesson Plan structure.

A starting teacher should make up a detailed lesson plan in which all the instructions to activities, rules and sample sentences should be formulated in English. Usually losses of time during a lesson are connected with the fact that a teacher cannot formulate a clear and short instruction or explain a certain rule just on the spot, without previous preparation.

There are three main types of English lessons:

1) Combined lesson – the focus is on both language and skills. The work on some language aspect is combined with practice in some skill or skills. The teacher introduces some new language material and organizes practicing it in non-communicative and semi-controlled activities. Combined lessons are of different kinds: developing lexical skills of speaking, developing grammatical skills of reading etc.

2) Integrated skills lesson – the focus is on developing certain communicative skills, different variants of these lessons are singled out depending on which skill/skills is/are in focus.

3) Test lesson – the focus is on testing skills (summative testing). Not all methodologists distinguish it as a separate type. [4]

Both combined and integrated skills lessons should be appropriately structured. A typical lesson plan begins with marking the date and the target audience (e.g. 5A form). Then come objectives (practical, educational, developmental and affective), teaching aids (course-book, additional materials, flash cards, equipment etc) and then the procedure itself. It starts with a warm-up activity, and then different stages and activities done at them. Make sure that at some stage home assignment is checked (though not necessarily in the form it was done), and time should be allocated to setting new home assignment and giving necessary explanations. A very important stage is summing up and giving feedback (qualitative and quantitative). Timing is very important too.

Some requirements to English lessons:

- Competence orientation (practical learning outcomes, skills prevail over knowledge, communicative practice should be organized at each lesson)
- Skill integration (and developing grammar or lexical skills necessarily includes practicing them in all kinds of speech activity). Linguosociocultural competence and strategic competence are also developed alongside with the development of other competences. [5]
- English as the aim of teaching and a means of instruction. Teacher's talk should serve as a model and be comprehensive, persuasive, cost-effective and adaptive.
- All learners are intellectually involved in communication. Tasks should facilitate abilities and skills development.
- Variety of activities and forms of interaction.
- Developing motivation and maintaining learners' interest.

In primary school, teachers start with teaching reading strategies such as decoding to teach students how to read the material. The main goal of reading is for students to comprehend the text. According to Kim et al.'s (2012) state that reading comprehension is the highest level of the reading components. 'Development of literacy in children is hinged on reading comprehension'.

Therefore, the teaching of comprehension strategies is especially important for students with poor comprehension skills since the use of comprehension strategies have been shown to increase comprehension scores. Ghorbani et al. (2013) discuss the importance of the integration of multiple strategies. Strategies when used together help 'learners construct meaning from text and monitor their reading', thus assisting readers to make sense of their reading instead of 'wander[ing] off'. [6]

Therefore, this study addresses multiple strategies, specifically predicting, purpose setting, questioning. Predicting, Purpose Setting, and Questioning Predicting, purpose setting, and questioning were selected for this study because these strategies can be used interchangeably based on personal preference. Moreover, to the best of the researcher's knowledge, this is the first study to examine the lesson planning of all three strategies together. Predicting, purpose setting, and questioning are effective comprehension strategies that assist students and lead to an increase in comprehension scores. The current study refers

to these strategies as engaged reader processes since they are purposeful processes that facilitate interaction with the text, which is a component of reading engagement.

Other Comprehension Factors Alongside the importance of comprehension strategies, comprehension is also facilitated by many other factors. Previous research indicates that comprehension involves a reader's prior knowledge and '...is an active, constructive process that occurs before, during, and after reading...[a] particular selection' as defined by Mitchell. Text comprehension is highly interactive. Throughout, they would remind themselves that reading is thinking to continue to look for clues while reading. They would also share their thinking with their peers to facilitate a discussion.

If listening to the process of changing students' attitudes, learning is a process to change one's behavior, both outwardly and inwardly. Learning is a stage of relatively sedentary changes in individual behavior as a result of the individual's experience and interaction with the environment. Paying attention to the origin of the word learning has a correlation with teaching because teaching is the process of delivering lessons.

Results. The word "teach" comes from the old English taecan. The word taecan comes from Old German (Old Teutenic), taikjan from the root teik, meaning to indicate. Still in the same source it is also mentioned that in general learning can also be said to be a process of interaction between humans (Id-ego-super ego) with their environment which may be in the form of facts, concepts or personal theories.

Paying attention to these various notions of learning, the author sees learning oriented to bring humans in a better direction in terms of cognitive, affective and psychomotor. It is an integral part of the meaning of learning. If there is no proportional balance in cognitive, affective and psychomotor development, then humans will be trapped in a framework of lameness in practicing and understanding education. This is not just the responsibility of the individual but the responsibility of all elements of society. [4]

Conclusion. Learning can be interpreted as a process of cooperation between educators and students and utilizing all potentials that come from within the students themselves such as interests, talents, and basic abilities possessed including learning styles, as well as potentials that exist outside students such as the environment, facilities, and learning resources as an effort to achieve certain learning goals. Learning in the context of the standard educational process can be considered through the meaning of learning as a thought process, learning as an effort to harness the potential of the brain and learning takes place throughout life.

According to Hamalik stated that learning is a system. A learning system is an organized combination that includes human elements, materials, facilities, equipment, and procedures that interact to achieve a goal.

In the same book quoting Sudarajat's view:

Learning is a translation of teaching that is widely used in the world of education in the United States. The term is strongly influenced by the school of cognitive-holistic psychology that implies mutual transactional interaction and communication between educator and student to achieve predetermined goals.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Kymes, A. (2005). Teaching online comprehension strategies using think-alouds. *Journal of Adolescent and Adult Literacy*, 48(6), 492-500. Doi: 10.1598/JAAL.48.6.4
2. Lane, J. S. (2010). An analysis of relationships between lesson planning training and rehearsal. *Journal of Band Research*, 46(1), 52-65.
3. Leslie, L., & Caldwell, J. S. (2010). *Qualitative Reading Inventory – 5*. Boston: Pearson.
4. Mason, L.H. (2004). Explicit self-regulated strategy development versus reciprocal questioning: Effects on expository reading comprehension among struggling readers. *Journal of Educational Psychology*, 96(2), 283-296. Doi: 10.1037/0022-0663.96.2.283
5. Migyanka, J. M., Policastro, C., & Guiqiu, L. (2005). Using a think-aloud with diverse students: primary grade students experience chrysanthemum. *Early Childhood Education Journal*, 33(3), 171-177. Doi: 10.1007/s10643-005-0045-z
6. Mitchell, K. E. (2006). Getting to the Heart of a Story. *Teaching Pre K-8*, 37(1), 66-67. Morrow, L. M. (2011). *Developing effective reading curricula for beginning reader*

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

**PRACTICAL CONFERENCES DEDICATED TO THE TECHNOLOGIES OF
ECOLOGICAL EDUCATION FOR STUDENTS THROUGH THE PROTECTION
AND RESPECT FOR NATURE WITHIN THE FRAMEWORK OF THE "GREEN
SPACE" NATIONAL TECHNOLOGY PROJECT**

Roziyeva Nazira Yodgorovna.

Teacher of Termiz Institute of Engineering Technology.
ruzievanazira911@gmail.com

Panjieva O'g'ilshod Baxodir qizi.

Teacher of Termiz Institute of Engineering Technology.
ogilshodpanjiyevs@gmail.com

Joraev Bakhodir Norbotaevich.

Teacher of Termiz Institute of Engineering Technology.
ruzievanazira911@gmail.com

Abstract. In this article, the issue that is considered urgent in modern times, that is, the practical conferences dedicated to the technologies of providing environmental education to students by preserving and respecting nature, using the national technology project "green space" today. It is said that the importance of preserving the purity of the air in the "green space" is the main source of creating a healthy environment in the future.

Key words: Ecological education, ecological education, Green space ecological outlook, atmospheric air, public health, nature protection.

**O'QUVCHILARGA TABIATNI ASRASH VA EZOZLASHNI "YASHIL MAKON"
MILLIY TEXNOLOGIYA LOYIHASI ASOSIDA AMALIY ANJUMANLAR ORQALI
OLIB BORISH**

Ro'ziyeva Nazira Yodgorovna.

Termiz muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi.
Elektron pochta: ruzievanazira911@gmail.com

Panjieva O'g'ilshod Baxodir qizi.

Termiz muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi.
Elektron pochta: ogilshodpanjiyevs@gmail.com

Jo'raev Baxodir Norbo'tayevich.

Termiz muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi.
Email: ruzievanazira911@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, ya'ni o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalariga bag'ishlab o'tkaziladigan amaliy anjumanlarni "yashil makon" milliy texnologiya loyihasidan foydalangan holda olib borishning bugungi kundagi axamiyatini

muxum ekanligi, atmosfera havosini sofligini asrash "yashil makon" kelajakda sog'lom muxit ta'rzini yaratishga assosiy manba haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, ekologik ta'lim, Yashil makon ekologik dunyoqarash, amosfera havosi, aholi sog'ligi, tabiatni muhofazasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N97>

Kirish. 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasining "Yo'l xaritasi"da himoya etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni mamlakat hududining 12 foizini tashkil etishiga erishish belgilab berilgan edi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar pirovardida 2022-yilning oktyabr oyi vaziyatiga bu ko'rsatkich 14,08 foizga yetkazildi.

Bajarilayotgan ana shunday muhim loyihalarga qaramay, sohada hali yechimini kutayotgan vazifalar ham talaygina. Bu kamchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo'llaridan biri va eng asosiysi – fusunkor va jozibali tabiat va nabotot himoyasi bilan bog'liq ishlarni umumxalq harakatiga aylantirish, unib kelayotgan yosh avlodga fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda yosh avlodni, kelajak ajdodlarimizning ezgu qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhimdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "**Yashil makon**" umummilliy loyihasini amalga oshirish ana shunday ezgu va insoniy qadriyatlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir[1].

Kuchli sanitar sifatida daraxt va butalarning yashil yuzasi is gazini yutib, inson hayoti uchun zarur bo'lgan kislorod chiqaradi. Daraxtlar ham barcha tirik mavjudotlar kabi o'ziga xos quvvat resursiga ega. Chunki inson daraxtlardan taralayotgan ifordan bahramand bo'lib, kayfiyati ko'tariladi. Xullas, daraxt insonning to'laqonli yashashi uchun muhim hayotiy dolzarb masala va fusunkor va jozibali tabiat va nabototga, insonga bemisl naf keltiradi, hayot davomiyligini ta'minlaydi. Shu bois, ota-bobolarimiz daraxtning soyasi jonga, mevasi tanga darmon, -deya e'zozlaydi. Birni kessang, o'nni ek, deya fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrashga, yaratuvchilikka da'vat va maqollar mavjuddir.

Metodologiya. Bugungi kunda ekologik ta'lim-tarbiya, tabiatni asrab-avaylash va qadrlash ularning maqsad va vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari bilan **respublikamizning taniqli olimlaridan** A.N.Adiyev, Yu.Shodimetov, H.Yu.Salomova, M.Inomova, N.J.Isokulova, H.Omonov, D.I.Toshova, E.O.Turdikulov, S.Abduxolikov, L.Muxtorova, M.Mirhosilov, Sh.Avazov, S.Mashokirov, B.O.Qodirov, P.Q.Qodirov, K.B.Muxammediyev, Sh.Bozorova, P.U.Berdanova, X.J.Xudoyqulov, O.J.Xolmuminova, Q.I.Abirqulov, B.R.Adizov, Ye.B.Aydarov, P.S.Sultanov, X.S.Xushbaqtova, E.B.Qodirov B.Ziyomammedov, E.T.Choriyev, G.Komilova, M.G.Nishonboyeva, X.B.Norbo'tayev, O.Musurmonovalarlarning ilmiy ishlarida o'quvchilarga tabiatni asrab-avaylash va qadrlash orqali ekologik tarbiya berishga oid tushunchalarni shakllantirish va tarbiyalashga oid ilmiy-nazariy tahlilga kengroq yoritib berilganligini ko'rish mumkin. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy tomonlari ruhshunos olimlardan V.Karimova, Z.Nishonova, E.G'oziyev, N.Safayev, G'.Shoumarov, B. Qodirov, M.Davletshin, N.Soginovlar ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'z ifodasini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.N.Kozlenko, M.Yu.Gildenkov, T.V.Ogorodovoy, V.Chub, Yu.S.Karlov, T.M.Bondarenko, S.N.Nikolayeva, N.A.

Ryjova, A.I.Ivanova, P.I.Agalova, A.M.Ryabov, I.I.Fazilyaznova, G.A.Yagodin, V.I.Vernadskiy, M.M.Kashapova, T.G.Kiselevoy, M.A.Kondrova, L.Pavlova, G.P.Tugusheva, A. Ye.Chistyakova, Z.F.Aksyonova, L.S.Astafeva, L.G.Gorkova, L.I.Yegorenkov, L.V.Kovinko, A.A.Lopatina, S.D.Deryabo, Yu.S.Kamnikova, N.N.Lopatina, S.N.Nikolayevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ekologik ta'lim-tarbiyaning pedagogik va metodik muammolari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Rivojlangan xorijlik olimlardan jahon ta'lim tizimida ekologiya, o'quvchilarga tabiatni asrab-avaylash va qadrlash orqali ekologik tarbiya berish, uni e'zozlash hamda muhofaza qilishni o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borganlar. Bu borada B.North, J.Trim, U.A. Solomon, R.Harding, R.A.Beghetto, D.Fisher, J.P.Guilford, R.Sternberg, E.P.Torrance, J.C.Kaufman M.Kendall, C.S.Haugen, Hsing Yun, T.M.Amabile, S.Bates, N.Tregenza, M.E. Ferreira., A.C.Caires, R.Pitarma, D.Coste, A.Styuart, Monica Green, D.Meadows, T.Miller, E.Odum, A.Peccei, R.Whittaker, M.Green, M.Grey, A.Blakman, (AQSh), V.Nemes, L.Nemsova (Chexiya), A.Trembeskiy (Polsha), F.Vilke (Germaniya), J.Byusak (Fransiya), I.Martines (Ispaniya), G.Gold, M.Komarov, N.Shilin (Rossiya)lar tomonidan tadqiq etilgan.

Muhokama. Yurtimizda amalga oshirilayotgan **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi ana shunday ezgu qadriyatlarimiz davomiyligini ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan o'tkazilishi an'anaga aylangan ushbu ekologik loyiha doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ko'chatini ekish va shu orqali mamlakatimiz yashil maydonlarini amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan. Mazkur umumxalq tadbirini amalga oshirishning huquqiy asoslari 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi maqsadlarida, Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrda “Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar himoyasini yanada samarali tashkil yetish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida mustahkamlandi. Ayni paytda unib kelayotgan yosh avlodni fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda va atrof-muhitni himoya qilish davlat qo'mitasi tizimida ekilgan nihollar nobud bo'lmay, unib-o'sishi uchun monitoring yuritilyapti[2].

Prezidentimiz raisligida 2022-yil 11-oktyabr kuni mahallalarni obod qilish va aholini o'ylantirayotgan masalalarni hal etish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida hududlarni ko'kalamzorlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilib, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida joriy va kelgusi mavsumda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab berildi. Xususan, bu yil yakunigacha 75 million tup, kelgusi yil bahor oylarida yana 125 million tup mevali va manzarali ko'chat ekish vazifasi qo'yildi. Bu vazifalardan kelib chiqib, unib kelayotgan yosh avlodga fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda quyidagilar takliflarni amalga oshirish loyihasi joriy etildi[3].

1. Butun mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko'paytirishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi tatbiq etilsin:

- daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning pirovardida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish;

- ko'chatxonalar sonini ko'paytirish, tuproq unumdorligini hisobga olgan holda, hududlar iqlimiga mos xorijiy manzarali daraxtlarni mahalliyashtirish;

- hududlarda **“yashil bog'lar”** va **“yashil jamoatchilik parklari”** **“Yashil makon”, “Bir makon va bir yo'l”**ni barpo etish;

- daraxtlarni sug'orish tizimini qayta ko'rib chiqish, uning samarali faoliyatini ta'minlash;

- har bir daraxtni parvarish qilish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni belgilash, bu borada rag'batlantirish mexanizmlarini keng joriy yetish;

- daraxtlarni shikastlantirish va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini yanada oshirish. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-sonli Farmoni bilan respublika hududida davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning bebaho navlari kesilishiga joriy etilgan moratoriyning amal qilish muddati uzaytirilsin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi “Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya resurslarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-220-son Farmoni bilan belgilab berilgan birqator imtiyozlarni alohida qayd etish lozim. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hisobiga 2022-2023-yillarda hududlardagi 34 mingdan ortiq obyektlarda, shu jumladan 619 ta “Yangi O'zbekiston” massivi va 28 mingdan ziyod xonadonlarda muqobil energiya resurslarini joriy qilish, vazirlik va idoralar kesimida 6 mingdan ortiq obyektlarda energiya sarfi hajmida muqobil energiya resurslari ulushini 30 foizga yetkazish ishlari amalga oshirilmoqda. **“Yashil makon”, “Bir makon, bir yo'l”** loyihasi asosida energetika tejamkorligiga o'tish yo'lidagi muhim qadamlardan yana biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqorida qayd etilgan hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlanishi 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida **“Yashil makon”** loyihasi asosida yangi iqtisodiyotga o'tish va **“yashil”** o'sishni ta'minlash dasturidagi muhim strategik maqsadlarga erishish imkonini berishi bilan bir-qatorda mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini qoplashni yanada yaxshilanishiga, mintaqada energetik barqarorlikni hamda fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishni, atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga xizmat qiladi va yangi davrni ochib beradi degan umiddamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-sonli Farmoniga muvofiq Davlat ekologiya qo'mitasiga davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesishga ruxsatnoma berish vakolatini mahalliy davlat hokimiyati organlaridan Davlat ekologiya qo'mitasi organlariga berishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish hamda hukumatga miqyosidagi qarorlarga kiritish vazifasi yuklatilganiga qaramasdan, shu kunga qadar mazkur topshiriq yetarlicha hamma joyda bajarilmagan. Shuningdek, mazkur qarorga ko'ra daraxtlarning xatlovi har besh yilda bir marta o'tkazilishi pirovardida respublikada o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar kesilishi bilan bog'liq vaziyatlarning ko'payishiga hamda aniq statistik ma'lumotlar yuritilmasligiga sabab bo'lmoqda[4].

Yashil o'simliklarni yaratishdagi o'rni beqiyos katta ekanligi va o'simliklar dunyosi sayyoramizdagi hayotning birlamchi resursi ekanligini esdan chiqarmasligimiz lozim. Uning bo'lmasa, havoda karbonat angidridning (Co2) miqdori ko'payib ketadi, odamlar va jonivorlar

nobud bo'ldi. Atmosferadan kelayotgan, tuproqdan chiqayotgan va boshqa resurslardan hosil bo'layotgan Co2 gazini o'simliklar yutib, fotosintez jarayoni pirovardida tashqi muhitga kislorod ajralib chiqadi.

Daraxt havas bilan ekilishi, xalqimiz, mahallalarimizning madaniyatiga aylanishi lozim, -degan edi davlatimiz rahbari. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish har birimizning zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, ko'chat ekish, bog' yaratish yurt obodligi, el farovonligi, hayot davomiyligini ta'minlaydigan ezgu amaldir. Bu borada unib kelayotgan yosh avlodga fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda, yaxshi niyat va havas bilan amalga oshirilayotgan bunday xayrli amallar bosqichma-bosqich bo'y ko'rsata boshladi. Yurtimizning turli hududlarida yangi bog'lar, yashil hududlar ko'paymoqda. Bugungi kunda ekologik kamchiliklar xalqaro tashkilotlarning yurtimizda o'tayotgan tadbirlari yakuniy hujjatlarida ham strategik masala sifatida o'z aksini topmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Ertangi kunni, kelajakni o'ylab amalga oshirilayotgan ushbu ezgu tashabbusning ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanayotganini ham munosib e'tirof etish joiz.

“Yashil makon” umummilliy loyiha asosida fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash bo'yicha bugun ko'plab quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, undan olinadigan tabiiy elektr energiyalar juda muhim dolzarb masaladir.

Ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda ekologik ta'limni rivojlantirishda, tabiatga mas'uliyat va hurmat tuyg'usini tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Shu o'rinda tabiatni asrash va undan foydalanish orqali ekologik ta'limni kuchaytirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi texnologiyalar va yondashuvlarni sanaymiz:

Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR):

O'quvchilarga turli ekotizimlar, yovvoyi tabiatning yashash joylari va tabiiy mo'jizalarni o'rganishga imkon beruvchi virtual sayohatlarni taqlid qilish uchun AR va

VR ilovalaridan foydalaning. Inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini ko'rsatadigan, xabardorlik va mas'uliyat hissini rag'batlantiradigan ajoyib tajribalarni yarating. Onlayn ta'lim platformalari: Atrof-muhit fanlari, tabiatni muhofaza qilish va barqarorlikning turli jihatlarini qamrab oluvchi interaktiv onlayn kurslar va modullarni ishlab chiqish. O'quvchilarni qiziqarli va ma'lumotli tarzda jalb qilish uchun videolar, animatsiyalar va viktorinalar kabi multimedia elementlaridan foydalaning[5].

Mobil ilovalar: Ochiq havoda kashf qilish va o'rganishni rag'batlantiradigan ta'lim ilovalarini yarating. Ilovalar mahalliy flora va fauna haqida ma'lumot berishi, tabiatda sayr qilishni targ'ib qilishi va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq interaktiv muammolarni taklif qilishi mumkin. O'quvchilarni real dunyo ma'lumotlarini yig'ishga jalb qilish uchun geotagging va fuqarolik fanlari loyihalari kabi xususiyatlarni qo'shing.

Ijtimoiy media va o'yinlashtirish: Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar va musobaqalarni yaratish uchun ijtimoiy media platformalari va o'yin usullaridan foydalaning. O'quvchilarni ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarining ekologik tashabbuslari, tabiatni suratga olish yoki atrof-muhitga e'tiborli amaliyotlarini baham ko'rishga undash, jamiyat va umumiy mas'uliyat hissini tarbiyalash.

Onlayn hamkorlik vositalari: Guruh loyihalari va atrof-muhit muammolari bilan bog'liq muhokamalarni osonlashtirish uchun hamkorlik vositalaridan foydalaning. Google

Workspace yoki Microsoft Teams kabi platformalar o'quvchilarga tadqiqot, taqdimotlar va harakatlar rejalarida birgalikda ishlash imkonini beradi. O'quvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq g'oyalar, manbalar va muvaffaqiyat hikoyalari bilan bo'lishishlari mumkin bo'lgan onlayn hamjamiyatlarni rivojlantirish.

Interfaol xaritalar va geofazoviy texnologiyalar: Iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi va boshqa ekologik muammolarning muayyan hududlarga ta'sirini ko'rsatish uchun interaktiv xaritalar va geofazoviy texnologiyalardan foydalaning. O'quvchilarni haqiqiy dunyo ma'lumotlarini o'rganish va tahlil qilishga undash, ularga ekotizimlarning o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam berish.

Sensor texnologiyalari: Mahalliy hududlarda havo sifati, suv sifati va biologik xilma-xillik kabi atrof-muhit parametrlarini kuzatish uchun sensor texnologiyalarini integratsiyalash. O'quvchilarni ushbu sensorlardan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishga jalb qilish, ularga atrof-muhit monitoringi bo'yicha amaliy tajribani taqdim etish.

Elektron kitoblar va raqamli manbalar: Tabiatni muhofaza qilish amaliyotlari, barqaror hayot va biologik xilma-xillikning ahamiyati kabi mavzularni qamrab oluvchi elektron kitoblar va raqamli resurslarni ishlab chiqish. Sinf dan tashqari uzluksiz o'rganishni targ'ib qilish uchun O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun ushbu manbalardan osongina foydalanish imkoniyatini ta'minlang[6].

Podkastlar va vebinarlar: Atrof-muhit fanlari bo'yicha mutaxassislar, tabiatni muhofaza qiluvchilar va ekologik toza tadbirkorlar ishtirokida podkastlar va vebinarlarni tashkil qiling. O'quvchilarni munozaralarda qatnashishga, savollar berishga va atrof-muhitning haqiqiy muammolari va yechimlari haqida tushunchaga ega bo'lishga undash.

Robototexnika va dronlar: O'lis yoki borish qiyin bo'lgan hududlarni o'rganish, yovvoyi tabiatni kuzatish va ekologik o'zgarishlarni baholash uchun robototexnika va dronlarni ekologik ta'limga integratsiyalash. O'quvchilarni STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik va Matematika) tashabbuslari doirasida oddiy atrof-muhit monitoringi robotlari yoki dronlarini yaratish va dasturlashga jalb qiling. Ushbu texnologiyalarni birlashtirgan holda, o'qituvchilar nafaqat bilim beradigan, balki tabiatni chuqur qadrlash va uni asrab-avaylash majburiyatini uyg'otadigan dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Natijalar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan har-bir viloyat hokimi rahbarligida QQARning bir tumaniga homiylik qilib, ekologik barqarorlik va **"Yashil makon"** umummilliy loyihasida obodonlashtirish ishlarida qo'lidan kelguncha Orol dengizining qurishi, iqlim yangilanishini oldini olishda ko'mak berishda faol bo'lishi nazarda tutilgan hamda yashil makon sababchisi bo'lishi ko'rsatilgan.

Bu o'quv-tarbiyaviy jarayonlar ekotizimlar vaziyati bo'yicha **tarbiyani shakllantirishda juda muhim dolzarb masala**. Unib kelayotgan yosh avlodni, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalardan muntazam xabardor qilish maqsadida darslarni noan'anaviy usullarda tashkillashtirib o'tkazish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, darslardan tashqari o'tkaziladigan **"Asrang ona fusunkor va jozibali tabiat va nabototni!"**, **"Bir makon-bir oila"**, **"Onajonim fusunkor va jozibali tabiat va nabotot"** kabi kichik bellashuvlar va ma'naviy tadbirlar **"Ekologik kamchilik va uning yechimi"** mavzusida davra suhbatlarini tashkil qilish ham o'zining ijobiy samarasini berishi aniq. Tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda tashviqot guruhlari olib boradigan ("Barkamol avlod" bolalar markazi uslubchilari uchun).

Bu texnologiyaning maqsadi: unib kelayotgan yosh avlodda kamchilikning mohiyatini aniqlash, uch fikrlarini aniq va qisqa dalillar asosida bayon qilish orqali ularni ishonitirish, shuningdek, targ'ibot-tashviqot qilish va uni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish[7].

Amaliy tarbiyaviy mashg'ulotni o'tkazish tartibi: Mashg'ulotning boshlanishida o'qituvchi unib kelayotgan yosh avlod auditoriyasiga bir necha kamchilikli mavzularni tashlaydi. Unib kelayotgan yosh avlod bu kamchilikli mavzular orasidan ixtiyoriy bittasini tanlaydilar. O'rtaga tashlanayotgan kamchilikli mavzu o'quv predmeti yoki tarbiya yo'nalishida bo'lgani maqsadga muvofiq. *Masalan*, "Ekologiya xavfi-fusunkor va jozibali tabiat va nabotot ofati", "Alkogol – ofat", "Giyohvandlik — nimaga olib boruvchi yo'l", "Yashil makon" loyihasi, "Fusunkor va jozibali tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash barchaning burchi", "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kabi mavzular tanlanishi mumkin.

So'ngra o'qituvchi unib kelayotgan yosh avlodni mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi hamda kichik guruhlarining chiqishlari ular tomonidan tanlangan kamchilikli mavzulari tashviqot-targ'ibot shaklida bo'lishi kerakligini tushuntiradi va vazifalarga tayyorgarlik uchun aniq vaqt beradi. Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar har tomonlama qiziqarli, adabiy-musiqiy, ko'rgazmali, plakat, jihozlariga boy bo'lishi talab etiladi. Kichik guruhlarining chiqishlari videofilm, slayd yoki kliplar yordamida namoyish etilishi mumkin. O'qituvchining ko'rsatmasi bilan bu jarayon yakka tartibda yoki juft bo'lib amalga oshiriladi. O'qituvchi unib kelayotgan yosh avlod bilan birgalikda guruhlarining chiqishlari va ularning ijodiy faoliyatini muhokama qiladi, yakuniy xulosa chiqaradi va kerakli tavsiyalar beradi. Tashkil etilgan targ'ibot-tashviqot ijodiy ishlarining chiqishlarini muhokama qilishda e'tiborni:

- tanlangan mavzuning aktualligi;
- mavzuning mazmuni va uni yoritilishi (rasmlar yoki video, mimika yoki pantomimika va boshqalar);
- mavzuning yoritilishiga ijodiy yondashuv (originalligi);
- mavzuni yoritishda ishlatilgan jihozlar va yordamchi vositalar;
- mazmunining ta'sirchanligi, targ'ibot-tashviqotga boyligi;
- mavzu mazmunining tarbiyaviyligi va ta'sirchanligiga yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Unib kelayotgan yosh avlodni o'z bilim oladigan maskani va yashaydigan hududlarni, atrof muhitlarini ko'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini ekish, xiyobonlarni, obihayot havzalarini ozoda saqlash, uy jonivorlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetganicha qatnashishga jalb etish katta dolzarb masala.

Zero, fusunkor va jozibali tabiat va nabotot ekanligini bevosita his qilishi juda ham dolzarb. Unib kelayotgan yosh avlodda fusunkor va jozibali tabiat va nabotot va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklari haqida dastlabki tushunchalar hosil bo'ladi. Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonnigina ekotizimlar holati bo'yicha tarbiya egasi deb atash mumkin. Ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda ota-bobolarimizning odatlarini, udumlarini tarbiyalab borish tabiiy boyluklarni ko'paytirish, bog'-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undash, qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Shuningdek, tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berish jarayonida unib kelayotgan yosh avlodga boyluklarini tejab-tergashga, fusunkor va jozibali tabiat va nabototni himoya qilishga da'vat etadi. Maqsad ekologik jihatdan bilimdonligini, madaniyatini oshirish,

himoya qilish, ozoda-toza saqlash, jonivorot olamiga, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali fusunkor va jozibali tabiat va nabotot ne'matlarini parvarishlashdan iborat bo'ladi[8].

O'quvchilarga ekologik ta'lim berish modulini ishlab chiqish ta'lim maqsadlariga mos keladigan va maqsadli auditoriya ehtiyojlariga javob beradigan qiziqarli va ma'lumot beruvchi tarkibni rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ekologik ta'lim moduli uchun tavsiya etilgan sxema:

Modul nomi: Atrof-muhitimizni o'rganish

Modul haqida umumiy ma'lumot:

Maqsad: Atrof-muhitni tushunishni rivojlantirish, ekologik tizimlar haqida xabardorlikni oshirish va barqaror amaliyotlar uchun mas'uliyat hissini shakllantirish.

1-dars: Ekologik tushunchalar bilan tanishish

Maqsad: Asosiy ekologik tushunchalar va sog'lom atrof-muhitning ahamiyati bilan tanishtirish.

Faoliyat: Atrof muhitning ta'rifi bo'yicha sinf muhokamasi.

Guruh faoliyati: Atrof-muhit elementlarini aks ettiruvchi rasm chizish yoki kollaj yaratish.

2-dars: Ekotizimlarni o'rganish

Maqsad: ekotizimlar va tirik organizmlarning o'zaro bog'liqligi haqida tushunchalarni shakllantirish.

Faoliyat: Mahalliy park yoki qo'riqxonaga sayohat. Turli o'simliklar, hayvonlar va atrof-muhit xususiyatlarini kuzatish va aniqlash uchun tabiatni tozalovchi ov qiladi.

3-dars: Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash

Maqsad: Chiqindilarni ishlab chiqarish va qayta ishlashning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish.

Faoliyat: Chiqindilarning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha sinf muhokamasi.

Amaliy faoliyat: Qayta ishlangan san'at loyihalarini yaratish.

4-dars: Biologik xilma-xillik va asrash

Maqsad: Biologik xilma-xillik tushunchasini va tabiatni muhofaza qilishning ahamiyatini o'rganing.

Faoliyat: Mehmon ma'ruzachi yoki yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar haqida video taqdimot.

Sinf loyihasi: Mahalliy flora va fauna haqidagi ma'lumotlar va chizmalar bilan "Bioxilma-xillik devori" yaratish.

5-dars: Barqaror hayot amaliyoti

Maqsad: Barqarorlik va ekologik toza hayot tamoyillari bilan tanishtirish.

Faoliyat: Energiya iste'moli va suvdan foydalanishni kamaytirish bo'yicha guruh muhokamalari.

Sinf loyihasi: Uyda barqaror amaliyotlar bo'yicha plakat ishlab chiqish.

6-dars: Atrof-muhitni boshqarish

Maqsad: Atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyat hissini tarbiyalash.

Faoliyat: Atrof-muhit boshqaruvchisi bo'lish yo'llari bo'yicha sinfning aqliy hujumi.

Jamoatchilik xizmati loyihasi: Mahalliy tozalash tashabbusida ishtirok etish.

7-dars: Tabiat bilan bog'lanish

Maqsad: Tabiatda vaqt o'tkazishning afzalliklarini ta'kidlash.

Faoliyat: Ochiq sinfdagi mashg'ulot yoki tabiatda yurish.

Tabiat jurnali faoliyati: tabiiy elementlarni kuzatish va hujjatlashtirish.

Baholash:

Loyiha: O'quvchilar modul davomida o'rganganlarini namoyish qiluvchi taqdimot yoki display yaratadilar.

Mulohaza: O'quvchilarni atrof-muhit bilan shaxsiy amaliy munosabatlari va ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida fikr yuritishga undash.

Qo'shimcha manbalar: Qo'shimcha tadqiqotlar uchun tavsiya etilgan kitoblar, veb-saytlar va hujjatli filmlar.

Amalga oshirish bo'yicha maslahatlar:

Multimodal ta'limni qo'shing: ko'rgazmali qurollar, amaliy mashg'ulotlar va mehmon ma'ruzachilarni o'z ichiga olgan turli xil o'qitish usullaridan foydalaning.

Dala sayohatlari: Iloji bo'lsa, haqiqiy dunyo tajribasini taqdim etish uchun tabiiy muhitga sayohatlarni qo'shing.

Ushbu sxemaga rioya qilish orqali o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun keng qamrovli va qiziqarli ekologik ta'lim modulini yaratishlari mumkin. O'quvchilar va mahalliy hamjamiyatning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, mazmun va tadbirlarni moslashtiring. Dars shu tarzda davom etadi.

Xulosa. Bugungi yosh avlodga tabiat va nabototni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berish ta'lim tizimida aktual kamchilik bo'lib, unib kelayotgan yosh avlodga ekologik kamchiliklar yechimini birgalikda izlashni unutmaslik kerak. Hozirgi yoshlarning voyaga yetish vaqtida jamiyatdagi hayoti davomida, butun yer taqdiri uchun mas'ullik hissini singdirgan holda ta'lim-tarbiyani tashkil etish shart. Shuning uchun ularda fusunkor va jozibali tabiat va nabototga muhabbat, barcha tirik mavjudotlarga hurmat, o'zlarining fusunkor va jozibali tabiat va nabototdagi ichki dunyosining oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatini shakllantirish juda muhimdir

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. – T.: «O'qituvchi», 1997. 18-b..
2. Xamrokulova Sh.E. Umumta'lim maktablarida ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish masalalari. VOLUME 2 | ISSUYe 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Sciycntific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. www.ares.uz.
3. O'rinboyeva M.S. Tabiatga ekologik munosabatlarning ma'naviy-axloqiy tamoyillari va mezonlari. "Sciycnce and Education" Sciycntific Journal. May 2020. –B.594. www.opensciycnce.uz.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent: Universitet. 2009. – 127 b.
5. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi – Toshkent.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-y. –B.153.
6. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – Toshkent: O'zbekiston. 1997. – 44 b.
7. Kistaubayev S.U. Shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning roli.-Samarqand, 2019. -47 s.
8. Isaqulova N.J. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. // Uzluksiz ta'lim tizimida innovasion pedagogik texnologiyalar. Maqolalar to'plami. – T.: «Extremum press», 2010. –B.40

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF PRAGMATIC COMPETENCIES IN LANGUAGE LEARNING AND THE COMMUNICATION PROCESS

Yuldoshev Rustam Dilshod o'g'li

Karshi State University, Faculty of Pedagogy, doctoral student

Abstract. The article presents ideas for developing pragmatic competencies in students and their understanding of the essence of pragmatics. Some rules and ideas of pragmatics are also highlighted to better understand pragmatics both as a science and as a result/consequence of pragmatic competence.

Key words: pragmatics, speech, development of pragmatic competence, modernization, communication, educational process, assessment of the quality of education, the main goal of language teaching.

РОЛЬ ПРАГМАТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА И КОММУНИКАТИВНОМ ПРОЦЕССЕ

Юлдошев Рустам Дилшод угли

Каршинский государственный университет, Факультет педагогики, докторант

Аннотация. В статье представлены идеи по формированию у студентов прагматических компетенций и понимания ими сущности прагматики. Также выделены некоторые правила и идеи прагматики, чтобы лучше понять прагматику как науку, так и как результат/следствие прагматической компетентности.

Ключевые слова: прагматика, речь, развитие прагматической компетентности, модернизация, коммуникативность, образовательный процесс, оценка качества образования, основная цель обучения языку.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N98>

Kirish. Dunyoda talabalarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samarali texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq yetilmoqda. Innovatsion ta'lim sharoitida Bo'lajak o'qituvchilarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mexanizmlarini ishlab chiqish, innovatsion dasturlari asosida multimediali elektron resurslar yaratish va ta'lim sifatini baholash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bunday ishlar bilan birgalikda, "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish", talabalar bilim darajasini xalqaro standartlar asosida baholash va ingliz tili fanini o'qitish sifatini oshirishga oid tendensiyalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari olib borilmoqda.

Ma'lumki, dunyo bo'ylab o'qitish muhiti, odatda o'qituvchilargayo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar pragmatik ma'nolarni anglash va rivojlantirish bilan shug'ullanishganda, o'quv

dasturi til amaliyotini yengillashtirish uchun darslar davomiyligi minimal vaqt bilan bajarish uchun tuzilgan. Va real dunyoda suhbatni taxmin qiladigan vaziyatlarda o'rganilayotgan tilidan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, men chet el tilini o'qitishda pragmatik kompetensiyaning integratsiyasini tadqiq qilishni boshlash muhimligini angladim. Tilni o'rganishning yakuniy maqsadi muloqot bo'lganligi sababli, ushbu maqsadga hissa qo'shadigan tadqiqotlarni pragmatizm orqali o'tkazish muhimdir

Jahon oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim bo'lajak o'qituvchilarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirishning metodik tayyorgarligi sifatini ta'minlash, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, o'qituvchilarni axborot texnologiyalar asosida metodik tayyorgarligi takomillashtirish, talabalarning ilmiy salohiyati oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, bo'lajak o'qituvchilarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni metodik darajaga ko'tarish, rivojlanish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, axborot kommunikativlikni faollashtirish, bo'lajak o'qituvchisining professionalligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalari ijtimoiy faol, ijodiy tafakkurga ega shaxsni, bitiruvchilarda axborot oqimiga yo'naltirilgan malakalarni shakllantirishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, mustaqil ta'lim, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishni o'z oldiga qo'ygan.

Muhokama va natijalar. Pragmatikaning xususiy masalalari aynan nutq ishtirokchilari va nutqiy vaziyat tushunchasi bilan bog'liqdir. Bizga ayonki, so'zlovchi o'z maqsadini ifoda etuvchi jumla qurish uchun olamda mavjud bo'lgan narsa, predmet, hodisalarning nomini bilishi hamda ma'lum grammatik qonun-qoidalar bilan tanish bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi. So'zlovchi nutqiy vaziyat tushunchasi mohiyatini ham bilishi kerakki, bu, albatta, so'zlovchi bayon qilmoqchi bo'lgan kommunikativ niyatning to'g'ri ifodalanishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. So'zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatning aniq va to'g'ri ifodalanishi uchun yana milliy urf-odatlar bilan bog'liq ijtimoiy qonun-qoidalarni bilish ham talab qilinadi. Shu jihatlar to'liq qamrab olingandagina nutq ishtirokchilarining o'zaro muloqot jarayoni to'g'ri amalga oshadi. Pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyekt, nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Pragmatik kompetensiya – shaxsning bayonni (aytiladigan, yoziladigan fikrni) qurish qoidalarini talqin qilish va qo'llash, bayonlarni (fikrlarni) turli kommunikativ funksiyalar uchun kommunkantlarning (muloqot ishtirokchilarining) xususiyatlari va kommunikasiyaning ijtimoiy va madaniy kontekstiga muvofiq ravishda qo'llash qobiliyati hisoblanadi. Pragmatika haqidagi qarashlar turlichadir. Jumladan, N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining "men"ini ifodalanishi uslublarini o'rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi. [6]

So'ngi bir necha o'ng yillik davomida pragmatik hodisalarni u yoki boshqa darajada tasvirilaydigan bir qator turli modellar paydo bo'lganligini ta'kidlash lozim. O'z individual istiqboli/perspektivasi bilan bir- biridan farq qilsada, ularda bir qator umumiy (mushtarak) xossalalar, tomonlar mavjud. Birinchi navbatda, bu modellarning ikki tomonliligi strukturasi bilan bog'liq. Bu barcha bunday modellarda bayonning bevosita kodini tashkil etuvchi qandaydir bir lisoniy (lingvistik), boshqacha tarzda esa grammatik deb nomalanadigan komponent mavjudligini anglatadi.

Ingliz tilshunosligida ham pragmatika turli jihatlardan o'rganib tadqiq etildi va pragmatikaga turli tadqiqotchilar o'z tariflarini berishdi. Xususan, J. Layonz tilshunoslarning XII xalqaro kongressida (Vena, 1977) pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga harakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi" [6]. Demak, yuqoridagi ta'rif asosida lisoniy harakatdagi ko'zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi bo'lib qolmoqda.

Kommunikatsiya maqsadiga bog'liq ravishda tilni kontkkestual qo'llashga qaratilganlik (tayanish, mo'ljallanganlik) ikkinchi komponent bo'lib xizmat qiladi. Pragmatik kompoetsiyaning bunday kontekst va ma'noning bog'liqligining ikki tomonga yo'naltirilganligi hossasi barcha modellarda kuzatiladi. Bu xorijiy tilga o'qitilayotgan tahcil oluvchilarning pragmatikkompetensiyanisini shakllantirishning muhimligini ko'rsatadi. [1]

Xorijiy tilda kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatidagi pragmatik kompetensiyaning komponent tarkibi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

a) ijtimoiy komponent (kommunikasiyaning ijtimoiy kontekstlari va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollarini talqin qila olish qobiliyati; kommunikasiyaning ijtimoiy maqbul uslubini tanlay olish qobiliyati);

b) ijtimoiy-lisoniy (sosiolingvistik) komponent (hamsuhbatning ijtimoiy siymosini portretini yaratish uchun nutq bayonini (ijtimoiy ma'nolar, registrning variyasiyalari va modallik) talqin qilish qobiliyati)); kommunikasiya maqsadiga tanlangan ijtimoiy rollarga muvofiq erishish uchun zarur til va nutq vositalaridan foydalanish qobiliyati));

v) ijtimoiy-madaniy komponent (madaniyatlararo shaxslararo o'zaro faoliyat sharoitlarida ona tili va nazarda tutilayotgan (o'rganilayotgan) tilning mamlakatlarining madaniy aspekti haqida olinayotgan axborotni talqin qila olish qobiliyati;

g) nutq komponenti (hamsuhbat tomonidan amalga oshirilgan nutq janrlari tanlovini, nutqiy bayonning kogeziyasi va kogerentligini talqin qila olish qobiliyati; kommunikativ vazifalarni bajarish uchun nutqiy muloqotni qurish qoidalariga muvofiq nutqiy muloqotni tanlash va amalga oshirish qobiliyati [2]

Pragmatik kompetensiyaning komponentlarini shakllantirish bir qator pragmatik markerlarga – nazarda tutilayotgan ma'noni/fikrni ifodalash uchun, diskursni tashkil qilish uchun va ifoda etilayotgan fikr/bayonga baholash munosabatini tashkil etish uchun tilning leksik, grammatik va sitaktik birliklarining yig'indisiga o'qitish asosida amalga oshiriladi. T.V. Kolshanskiyning ta'kidlashicha, so'zlovchi subyektning his-tuyg'ulariga xos xususiyat belgilardan ajralgan ma'lum bir axborotni ifoda etishi mumkin emas. Nutq mazmuniga hamohang his-tuyg'u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan bo'ladi. Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan subyekt nutqiga xos munosabat belgilari – nutqdagi barcha bo'yoqlar yaxlit tarzda "pragmatika" deb nomlanadi. Bu ularning pragmatik tayinlanishi, deb qaraladi [8]

Avvalambor, pragmatikaga pragmatik kompetensiyaning markaziy ahamiyatli elementi sifatida ta'rif beramiz. Pragmatika tilning muloqotda nima(lar) aytilishiga emas, balki qanday, qay tarzda aytilishiga ko'proq e'tibor berib qanday, qay tarzda qo'llanilishini o'rganadi. Ilmiy muomalaga "pragmatika" atamasini Amerika faylasufi Ch. Morris kiritgan. Kommunikativ niyatni ifodalash strategiyasi pragmatikaning bosh masalasi hisoblanadi. So'zlovchi bunda o'z

ichki maqsadini tinglovchiga bayon qilish uchun u yoki bu ifoda usulini tanlaydi. Tanlash jarayoni bevosita tilshunoslikning stilistika yoʻnalishi obʻyektidir [3]. Pragmatika aynan mana shu nuqtada uslubshunoslik bilan hamkorlik qiladi. Maʼlum xodisani turli jixatiga koʻra tahlil etadi. Bu borada yirik tilshunos olim G. Abdurahmonovning uslubshunoslik xususidagi qarashlari ham fikrimizni tasdiqlaydi. “Uslub soʻzlovchining, yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, habarga, voqeʼa, hodisaga, shaxsiy yoki predmetga shaxsiy yoki boshqa bir shaxsning munosabati, jumladan, ifodalangan qoʻshimcha subʻyektiv fikrdir. Shuning uchun uslub muammolari haqida til fanining hamma sohalarini boʻyicha maʼlumot berilgandan keyin alohida fan sifatida yoki grammatikaning bir boʻlimi sifatida fikr yuritiladi. Shuning uchun mashhur filolog olimlar taʼriflaganidek, “Uslub – filologiya fanining toji, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining yuqori bosqichi” [4] (A.V. Stepanov), “har bir taraqqiy etgan fanning qalbi” (R.A. Budagov), “Uslub bu – talant” [4] (V.G. Belinskiy), “Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdangina qilishimiz kerak” [4]. Fikr ifodalashning bunday usul va uslubi soʻzlovchining kommunikativ strategiyasini belgilaydi. Faqat semantik va grammatik ilmlarni bilish bilangina emas, balki hayotiy qonun-qoidalarni bilish va unga amal qilish natijasida kommunikativ strategiya mahoratiga ega boʻlish mumkin. Soʻzlovchi nutqiga xos bir ifoda aktida turlicha mazmundagi kommunikativ niyatning ifodalanishi kommunikativ taktika tushunchasini namoyon etadi. Kommunikativ taktika, kommunikativ strategiya tushunchalari mohiyati taʼsirida lingvistik pragmatikaning hususiy muammolaridan yana biri – tagmaʼno yuzaga keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pragmatika – bu til jamoasining til birliklariga boʻlgan subyektiv munosabati. Ularning bu munosabatdagi komponentlari xususiyatlari tilning pragmatik xususiyati tushunchasini keltirib chiqaradi. Taʼkidlash joizki, tilshunoslikdagi pragmatika tushunchasi faqatgina til birikmalarining pragmatikasi tushunchasini oʻz ichiga olmaydi. Bu tushuncha ancha keng boʻlib, u yoki bu tilning kommunikativ jarayon ishtirokchilari va voqea syujeti xilma-xilligi hamda ishtirokchilarning malakasiga ham bogʻliqligini ifodalaydi. Aynan soʻz ikki har xil guruh vakillari tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Tilning pragmatik muammolari referensial baholovchi maʼnolarni oʻrganishga nisbatan kam tadqiq qilingan. Pragmatika turli jihatlardan yevropa tilshunoslari tomonidan oʻrganilmoqda va yangi soha rivojlanib bormoqda. Shu tariqa yevropa tilshunosligi pragmatika boʻyicha ilmlar, nazariy hamda amaliy bilimlar toʻplanishiga tamal toshlarini qoʻydi deyish mumkin. Ushbu maqolada ham aynan shu narsa yaʼni yevropada rivojlanib borayotgan pragmatik bilimlar va ularning bosqichlari tadqiq etildi.

Yuqorida zikr qilinganidek, pragmatikani ilm-fan sifatida ham, pragmatik kompetensiyaning natijasi/oqibati sifatida ham yaxshiroq tushunish uchun pragmatikaning baʼzi qoidalari, gʻoyalari oʻrganib chiqish maʼqul. Nutqiy amallar nazariya pragmatikani fundamental (eng asosiy) nazariyalardan biri hisoblanadi.

Pedagogika oliy taʼlim muassasalari fanning turli sohalariga oid oʻquv materiallari zaxirasiga boyligi bilan ajralib turadi, bu esa oʻquv jarayonining barcha shakllariga qatʼiy yondashishni talab qiladi: amaliy dars, maʼruza, test, imtihon, pedagogik amaliyot va hk. Metodik jihatdan barkamol, fikrlaydigan oʻqituvchi, oʻquv-tarbiya jarayonida ijodiy yondashuvni talab qiladi. Pedagogika oliy taʼlim muassasalari ishini tashkil etishdagi mavjud xususiyatlar buni oʻqitishning barcha bosqichlarida amalga oshirishga imkon beradi.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Carstens, Adelia. 2002. Speech act theory in support of idealized warning models. In Journal of southern African linguistics and applied language studies, October 2002, vol. 20, no. 4, pp. 191-200.
2. Cummings, L.(2005). Pragmatics: A Multidisciplinary Perspective. Edinburgh: Edinburgh University Press.
3. Cohen, A.D. (2012). Teaching pragmatics in the second language classroom. The European Journal of Applied Linguistics and TEFL, 1(1), 35-49. Retrieved April 29, 2015 from.
4. Abduramonov F, Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1995.
5. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008
7. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики. Вып. XVI. – М, 1985.
8. Колшанский Т.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. – М., 1975.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

TRANSLATION FEATURES OF ENGLISH SCIENCE FICTION OF THE 20th CENTURY

Razzakov Baxrom Abdug'afurovich

Teacher of the "Foreign Languages" department of Namangan Engineering - Construction Institute

E-mail : bahromrazzakkov@gmail.com

Abstract. This article explores the strategies and methodologies employed in English language education to nurture oral speech competence among engineering students. Drawing upon communicative language teaching principles, instructors implement interactive activities, collaborative projects, and authentic communication scenarios to engage students in meaningful oral exchanges. Central to this process is the integration of domain-specific terminology, tailored to the specialized needs of engineering disciplines. Through exposure to authentic materials and immersive experiences, students develop the linguistic proficiency and confidence needed to articulate complex technical concepts fluently and coherently. Furthermore, the integration of technology, including language learning apps and virtual reality simulations, enhances the learning experience and provides students with additional opportunities to practice and refine their oral communication skills.

Key words: nurture oral speech, tailored, immersive, fluently and coherently, stakeholders, general public, domain-specific terminology, refine

BO'LAJAK MUHANDISLAR UCHUN OG'ZAKI MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: INGLIZ TILI DARSLARIDA TRANSPORT TERMINOLOGIYASINI O'RGANISHGA MISOLIDA

Razzakov Baxrom Abdug'afurovich

Namangan muhandislik-qurilish instituti "Xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola muhandislik fakulteti talabalarida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan strategiya va metodologiyalarni o'rganadi. Kommunikativ tilni o'qitish tamoyillariga asoslanib, o'qituvchilar talabalarni mazmunli og'zaki almashinuvga jalb qilish uchun interfaol tadbirlar, hamkorlik loyihalari va haqiqiy muloqot stsenariylarini amalga oshiradilar. Ushbu jarayonning markaziy qismi muhandislik fanlarining ixtisoslashtirilgan ehtiyojlariga moslashtirilgan domenga xos terminologiyaning integratsiyasidir. Haqiqiy materiallar va immersiv tajribalar bilan tanishish orqali talabalar murakkab texnik tushunchalarni ravon va izchil ifodalash uchun zarur bo'lgan lingvistik malaka va ishonchni rivojlantiradilar. Bundan tashqari, texnologiya integratsiyasi, jumladan, til o'rganish ilovalari va virtual reallik simulyatsiyasi o'rganish tajribasini oshiradi va talabalarga og'zaki muloqot ko'nikmalarini mashq qilish va takomillashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutqni tarbiyalash, moslashtirilgan, qamrab oluvchi, ravon va izchil, manfaatdor tomonlar, keng jamoatchilik, sohaga xos terminologiya, takomillashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N99>

Introduction. In the increasingly globalized world of engineering, effective communication in English has become indispensable for success. Particularly, the development

of oral speech competence among future engineers is crucial, given the necessity to convey technical information accurately and confidently. This article delves into the significance of English language lessons, specifically focusing on the acquisition of transport terminology, as a means to foster oral communication skills among engineering students. [1, B.33]

The realm of engineering, especially in fields like transportation, demands precise and effective communication. Whether presenting project proposals, discussing technical specifications, or collaborating with international counterparts, engineers must articulate their ideas fluently and accurately in English. Therefore, the formation of oral speech competence is not merely an additional skill but an essential aspect of professional development for future engineers.

English language lessons serve as a fundamental platform for nurturing oral communication skills. Through structured instruction and interactive activities, students are exposed to a variety of linguistic contexts, enabling them to develop vocabulary, grammar, and pronunciation relevant to their field of study. Moreover, incorporating industry-specific terminology, such as those related to transportation, provides students with the language tools necessary for effective communication in their professional endeavors. [2, B.53]

Materials and methods. Let's consider an example to illustrate this concept. In an English lesson tailored for engineering students specializing in transportation, instructors may introduce a range of transport-related terms and phrases, such as "traffic flow analysis," "mass transit systems," or "vehicle dynamics." These terms are not only essential for understanding technical concepts but also for articulating ideas clearly in professional settings. Through exercises like role-plays, discussions, and presentations, students engage actively with these terms, practicing their pronunciation and usage in context.

For instance, students could participate in a simulation where they act as transportation engineers discussing the design of a new urban rail system. By employing the newly acquired transport terminology, they articulate their ideas, address potential challenges, and negotiate solutions in English. Such interactive exercises not only enhance students' linguistic proficiency but also cultivate their confidence and ability to communicate effectively in real-world scenarios.

English lessons for future engineers focusing on the study of transport terms:

Divide students into pairs or small groups, assigning each group a specific scenario related to transportation engineering (e.g., negotiating the design of a new highway, discussing public transportation options for a city). [4, B.264]

Provide students with a list of transport terms relevant to their scenario and encourage them to incorporate these terms into their dialogue.

After the role-play, facilitate a discussion where students reflect on their communication strategies, vocabulary usage, and areas for improvement.

Create flashcards or word lists containing transport terms (e.g., infrastructure, congestion, sustainability) along with their definitions.

Encourage students to practice pronunciation and usage by quizzing each other or engaging in vocabulary games such as charades or Pictionary.

Integrate technology by using online vocabulary learning platforms or mobile apps that offer interactive exercises and quizzes tailored to transport terminology.

[3, B.274]

Organize group discussions or debates on topics related to transportation engineering, such as the impact of autonomous vehicles on urban planning or the role of sustainable transportation in combating climate change. Developing oral speech competence in future engineers is critical for their professional success. The methodologies used to achieve this goal should be dynamic, interactive, and tailored to the specific needs of engineering students. Below are detailed descriptions of several effective methodologies:

1. Communicative Language Teaching (CLT)

Communicative Language Teaching (CLT) focuses on the ability to communicate in real-life situations. This methodology emphasizes interaction as both the means and the ultimate goal of learning.

Interactive Activities: Activities such as role-plays, interviews, and group discussions simulate real-world scenarios, allowing students to practice speaking in authentic contexts.

Real-World Tasks: Tasks that require communication, such as project presentations or technical briefings, encourage students to use language purposefully.

Focus on Meaning: Rather than only focusing on grammar and vocabulary, CLT prioritizes the ability to convey and understand messages.

2. Task-Based Learning (TBL)

Task-Based Learning (TBL) centers on completing meaningful tasks using the target language. It's particularly effective for technical fields like engineering.

Project-Based Tasks: Students might work on projects like designing a transportation system, which involves researching, planning, and presenting in English.

Problem-Solving Tasks: Engineering problems require students to discuss potential solutions, negotiate ideas, and explain their reasoning, all of which enhance oral communication skills.

Reflection: After completing tasks, students reflect on their language use, which helps consolidate their learning.

3. Content and Language Integrated Learning (CLIL)

Content and Language Integrated Learning (CLIL) involves teaching subjects such as engineering through a foreign language. This dual-focused education enhances both subject knowledge and language skills.

Integrated Curriculum: Technical subjects are taught in English, allowing students to learn technical vocabulary and concepts simultaneously. [7, B.1128]

Authentic Materials: Using engineering textbooks, research papers, and case studies in English helps students become familiar with industry-specific language.

Collaborative Learning: Group work and discussions about engineering topics encourage the use of English in technical contexts.

4. Use of Authentic Materials

Incorporating authentic materials into language learning provides contextually rich and relevant language exposure.

Technical Documents: Manuals, blueprints, and technical specifications introduce students to the vocabulary and language structures used in the engineering field.

Industry Reports: Analyzing real industry reports helps students understand how professional engineers communicate their findings.

Multimedia Resources: Videos, podcasts, and webinars featuring engineers discussing their work provide listening practice and expose students to professional jargon and discourse.

Results. Provide students with reading materials or case studies that contain transport-related terms, encouraging them to incorporate these terms into their discussions.

Facilitate peer feedback sessions where students assess each other's oral communication skills, providing constructive criticism and suggestions for improvement.

Assign students to research and prepare presentations on specific transportation projects, technologies, or innovations.

Require students to incorporate a predefined set of transport terms into their presentations, emphasizing clarity, accuracy, and fluency in their delivery.

Encourage peer evaluation and feedback following each presentation, focusing on language usage, pronunciation, and overall effectiveness in communicating complex engineering concepts. [5, B.161]

Arrange field trips to transportation hubs, infrastructure projects, or engineering firms where students can observe real-world applications of transport terminology.

Alternatively, organize virtual tours or video presentations showcasing transportation facilities or engineering projects from around the world, accompanied by guided discussions and vocabulary reinforcement activities.

Discussion. Encourage students to document their observations and reflections in English, discussing key transport terms encountered during the experience.

By incorporating these examples into English lessons for future engineers, educators can effectively enhance students' oral speech competence while simultaneously deepening their understanding of transport terminology and its relevance to their field of study. These interactive and engaging activities provide students with practical opportunities to apply their language skills in authentic engineering contexts, preparing them for effective communication in professional settings. [6, B.825]

Furthermore, technology can play a vital role in supplementing English language lessons and reinforcing oral communication skills. Utilizing multimedia resources, online platforms, and language learning apps, students can access authentic materials, interactive exercises, and virtual simulations tailored to their field of study. For instance, interactive quizzes focusing on transport terminology or virtual tours of transportation infrastructure provide additional opportunities for students to practice their English communication skills in a relevant context.

Conclusion. In conclusion, the formation of oral speech competence among future engineers in English lessons, particularly through the study of transport terminology, is essential for preparing them for success in their professional careers. By integrating industry-specific vocabulary, engaging in interactive activities, and leveraging technology-enhanced learning, higher education institutions can empower engineering students to communicate confidently and effectively in English. Ultimately, investing in the development of oral communication skills not only enhances students' employability but also contributes to the advancement of the engineering profession in an increasingly interconnected global landscape.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Abdug'afurovich, R. B. (2022). Innovation Technologies in Teaching English. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 288-291.
2. Bahromjon, R. A. O. (2021). Innovative methods in teaching foreign languages for students of non-language universities. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 53-59.
3. Раззаков, Б. (2022). The role of linguistic schools in language teaching. *Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajribalar, istiqbolli izlanishlar va tillarni o'qitishning innovatsion usullari*, (1), 271-274.
4. Razzakov, B. (2022). Problematic Teaching of Foreign Languages. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(11), 41-43.
5. Abdugafurovich, R. B. (2023). THE PROBLEM OF TEACHING ENGLISH IN ESP CLASSES. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 9(4), 160-162.
6. Abdug'afurovich, R. B. (2023). SELECTION OF GRAMMAR MATERIALS IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION AND TECHNOLOGIES OF THEIR TEACHING: SELECTION OF GRAMMAR MATERIALS IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION AND TECHNOLOGIES OF THEIR TEACHING., *Ekonomika i sotsium*. 5(5), 156-159.
7. Khakimjonovna, B. P., Ikramovna, I. D., & Abdugafurovich, R. B. Coherent Speech and Its Types., CLXVI Конференция «Инновационные подходы в современной науке» 3(12), 45-47.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

PROBLEMS AND PROSPECTS FOR CREATING A SAFE ENVIRONMENT IN THE EDUCATION SYSTEM

Salimova Shahlo Sayfulloevna.

Doctoral candidate of Karshi State University

E-mail: salimovashahlo2820@gmail.com

Abstract. The article contains opinions and comments on current problems and prospects for creating a safe educational environment in the education system. The main focus is on the analysis of existing threats, including an analysis of the causes and consequences of the increase in crime among young people and the impact of crime on the educational environment. Recommendations are given to improve safety in educational institutions.

Key words: safety, education, environment, psychological well-being, experience, crime, law.

TA'LIM TIZIMIDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

Salimova Shahlo Sayfulloyevna

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya. Maqolada ta'lim tizimida xavfsiz ta'lim muhitini yaratishning dolzarb muammolari va istiqbollari haqida fikr hamda mulohazalar keltirilgan. Asosiy e'tibor mavjud tahdidlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bular qatoriga yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ortib borish sabablari, oqibatlari va jinoyatchilikning ta'lim muhitiga ta'siri haqida tahlillar keltirilgan. Ta'lim muassasalarida xavfsizlikni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, ta'lim, muhit, psixologik farovonlik, tajriba, jinoyat, huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N100>

Kirish. Ta'lim tizimida xavfsiz muhitni yaratish bugungi kunda sog'lom jamiyatni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi, chunki u yosh avlodning rivojlanishi va farovonligiga bevosita ta'sir qiladi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning salomatligi va ruhiyatiga xavf soladigan bezorilik, axborot xavfi, jismoniy va ruhiy zo'ravonlik kabi turli tahdidlar ko'payib bormoqda.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ta'lim-tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xavf omillarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish yoshlarning noqonuniy xatti-harakatlari ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi va bu jaryonlarda ta'lim muassasalari yoshlarning huquqiy ongi, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Xavfsiz ta'lim muhitni yaratishda kompleks yondashuv dasturlarini ishlab chiqish muhim jarayon hisoblanib, bu profilaktika dasturlarini amalga oshirish, ta'lim muassasalari xodimlari va talabalarni mojarolar va zo'ravonliklarning oldini olishga o'rgatish, xavfsizlik

infratuzilmasi va texnologiyasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, jarayon turli davlat va jamoat institutlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va uy xo'jaliklari a'zolari harakatlarini integratsiyalash ushbu muammoni samarali hal etishning zarur sharti hisoblanadi.

Ta'lim tizimida xavfsiz muhitni yaratish nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, balki yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mamlakat ta'lim tizimida xavfsiz muhitni ta'minlash dolzarb va ahamiyatli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'lim muassasasi xavfsizligi faqat binolar va mulklarni himoya qilishdan iborat emas. Bu kelajakni himoya qilishdir. Har bir o'quvchi va o'qituvchi o'z ta'lim muassasasi devorlari ichida xavfsizligini his qilish huquqiga ega. Ta'lim muassasalari xavfsiz bo'lganda, o'quvchilar o'qishga, o'qituvchilar dars berishga e'tibor qaratishi va maktab jamoasi rivojlanishi mumkin. Muassasadagi har bir kishining emosional farovonligi yaxshilanadi, bu esa o'qish va shaxsiy rivojlanishni ustuvor qo'yadigan muhitni yaratadi [4].

Xavfsizlik va muhofaza tushunchalari haqida gapirganda, "Zamonaviy ingliz tili darsligi" kitobida xavfsizlikni xavf yoki zarardan himoyalangan holat, muhofaza esa hujum yoki hujumchilardan xavfsiz bo'lishni anglatadigan holat sifatida e'tirof etiladi. Bu farq xavfsizlik fenomenini xavfsizlik va muhofaza deb ataladigan ikki turli toifaga bo'ladi [7, 1035-1036].

Xavfsiz ta'lim muhiti barcha moddiy (ta'limning barcha imkoniyatlari) va ma'naviy (insoniy) jihatlar mavjud bo'lganida vujudga keladi. Bu orqali talabalar xavfsizlik va himoya bilan qamrab olinadi va psixologik jihatdan barqarorlikni his qiladi, bu esa ularning har tomonlama rivojlanishiga, ya'ni aqliy, malakaviy va emotsional holatda to'liq rivojlanishiga imkon yaratiladi. Shu tariqa, ular ongli va har tomonlama rivojlangan o'quvchilarga aylanadilar [3, 11].

Tadqiqotchi O.S.Abduqaxarova ta'lim muhitini yaratishda "Guruhdagi barcha narsalar bolalarning bilimini oshirishga qaratilgan, pedagogik yoki tarbiyaviy (axloqiy, estetik) ta'sirini bajarishi kerak. Ya'ni, odatdagi oilaviy muhit bilan taqqoslaganda, MTTdagi muhit jadal rivojlanib boruvchi, bolaning bilim va qiziqishlari, ixtiyoriy fazilatlarini, hissiyotlari paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bo'lishi kerak" – degan fikrni ilgari suradi [1, 3].

Respublikamizda ham xavfsiz ta'lim muhitini yaratish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarining prototiplarini va texnologiyalarni belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazish orqali bolalar uchun xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, keyinchalik kelajakda yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish uchun konseptual namunalarni tasdiqlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini va foydalaniladigan tovarlar hamda materiallar xavfsizligini laboratoriya yo'li bilan tahlil qilish amaliyoti joriy etildi [8].

Tadqiqotchilar T.S.Nabiyev va O.Mavlonovalarning fikricha, zamonaviy oliy ta'lim tashkilotining ta'lim muhiti xavfsizligini optimallashtirish ko'p jihatdan tizimdagi muhim omillarning ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Shuningdek, xavfsiz ta'lim muhitini yaratish nuqtai-nazaridan birinchi kurs talabalarini zamonaviy oliy ta'lim tashkilotida o'ziga xos ta'lim jarayoniga ijtimoiy-psixologik moslashuvini rag'batlantirish katta ahamiyatga ega [6, 8-9].

Maqolani tayyorlash jarayonida ta'lim tizimida xavfsiz muhitni yaratish muammo va istiqbollari mavzusi bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy jurnallar, xorijiy mamlakat olimlarining bu boradagi tajriba va yutuqlari bilan tanishib, ta'lim tizimida xavfsiz muhitni yaratishning muammolari va istiqbollari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz Buxoro Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti, Termiz Davlat pedagogika instituti va Qarshi shahrida o'z faoliyatini olib borayotgan Turon universitetlari ta'lim jarayonlarida keng qo'llanildi. Ta'lim tizimida xavfsiz ta'lim muhitini yartishning metodik ta'minotini takomillashtirish yuzasidan ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar jamlanib, ma'lum guruhlarga ajratildi hamda tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

Muhokama. Huquqbuzarlik jamiyatimizning bir qismiga aylanib ulgurdi, u televizor, sport, musiqa, video, o'yinlar va hatto ta'lim dargohlarimiz va ish joylarimizda keng tarqalgan. Ta'lim muassasalari endi ta'lim oluvchilar uchun xavfsiz bo'lmay qoldi. Ta'lim muassasalarida olib borgan anketa so'rovlarimizda qatnashgan respondentlarimiz tomonidan berilgan javoblar natijalariga ko'ra, ta'lim oluvchilarning faqat yarmi ta'lim muassasalarida o'zlarini xavfsiz his qilishlarini aniqlandi. Ushbu xavflarga ta'lim oluvchilar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro nizolar, ijtimoiy tarmoqlar orqali qilinadigan psixologik xavflar, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar, o'quv-yordamchi xodimlar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar va boshqa shu kabi boshqa omillarni kiritish mumkin. O'qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilar uchun xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirish ayniqsa muhimdir.

Ta'lim muassasalari o'qituvchilari pedagog sifatida yosh ongni shakllantirish uchun asosiy mas'uliyatga ega kishilar hisoblanadi. Bu mas'uliyatning bir qismi — o'quvchilarning har kuni o'zlarini xavfsiz va qulay his qilishlari uchun ovoz ritmini tartibli boshqarishga e'tibor berish hisoblanadi, bu esa ularga ta'limga to'liq e'tibor qaratish imkonini beradi. Xavfsiz ta'lim muhiti faqat auditoriya bilan cheklanmaydi, bu o'quvchilarni bilim olishga qiziqishni uyg'otish va sinfdagi munozaralarda qatnashish imkonini beradigan nomoddiy makondir.

Ta'lim muhitiga asosan jismoniy, psixologik va emotsional omillar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratish nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlari uchun, balki ularning psixologik va emotsional rivojlanishi uchun ham juda muhimdir. Bunday muhitni yaratish yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda va ularning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shishda katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimida xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirish uchun avvalo professor-o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim muassasasi boshqaruv xodimlarini ham xavfsiz ta'lim muhiti talablariga rioya etishlarini ta'minlash lozim. Ta'lim muassasalarida xavfsiz ta'lim muhitini yaratish dasturini ishlab chiqish va u o'qituvchilar, talabalar va boshqaruv xodimlariga qaratilgan bo'lishi kerak [2, 30].

Tadqiqotlarimiz natijalariga asosan, o'quvchilar konfliktga yoki ziddiyatlarga odatda zo'ravonlik bilan qarshilik ko'rsatish yoki undan qochish orqali javob berishadi. Bu javoblarning hech biri ularga mojarolarni to'g'ri hal qilishni o'rganishga yordam bermaydi. Bunday holatlarda o'qituvchilar o'quvchilarga guruhlardagi konfliktli vaziyatlarni yengish uchun shaxslararo samarali muloqot ko'nikmalarini o'rgatishi kerak bo'ladi. O'quvchilar uchun konfliktlarni qanday kamaytirish, boshqarish va o'zaro tinch yo'l bilan hal qilishni bilish muhim hisoblanadi. Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlash, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan konfliktli

vaziyatlarning oldini olish va amalga oshirilgan ishlar istiqbolli bo'lishi uchun uni rejalashtirish kerak. Xavfsiz ta'lim muhitini rejalashtirish butun jamiyatni qamrab olishi kerak bo'lgan doimiy va keng qamrovli jarayondir.

Muhokama. Kasb-hunar maktablarida zamon talablariga mos va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maxsus fanlarni o'qitish sifatiga bog'liq bo'ladi. Maxsus fanlarning asosiy vazifalaridan biri aniq bir kasb bo'yicha o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan kasbiy kompetensiyalar asosini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Mazkur fanlarni o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarning amaliy faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bunda maxsus fanlar mazmuni, o'qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakllari, vositalari, o'tkazilish joyi, jihozlanishi, ular uchun ajratilgan vaqt bo'yicha boshqa fanlardan farqli bo'ladi, chunki maxsus fanlar bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo ushbu sohaga tegishli moddiy-texnik baza, o'quv axborot ta'minoti va malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash kasb ta'limda ustuvor vazifadir.

Shuningdek, bugungi kunda ko'pgina magistratura mutaxassisliklaridagi o'quv rejalariga "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani majburiy fanlardan biri sifatida kiritilgan. Bu fan oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va maxsus fanlarini o'qitishda talabalarga ta'lim berishning berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, dars mashg'ulotlarini loyihalash va

ularni o'tkazish metodikasini ishlab chiqishni o'rgatuvchi pedagogik fan hisoblanadi. U o'z oldiga har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs – maxsus fan o'qituvchisini tayyorlash bilan bog'liq aniq maqsadni qo'yadi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasining bir qator olimlarining pedagogik faoliyat to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini maxsus fanlar o'qituvchisining faoliyatini o'rganishda ham foydalanish mumkin bo'ladi, biroq bu yerda uning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolar kelib chiqadi. Bu xususiyatlar ko'p qirrali bo'lib, faoliyatning turli tomonlariga xos bo'ladi, ammo ularni shartli ravishda uchta katta guruhga bo'lish mumkin bo'lib, har biri alohida bir tomonining o'ziga xoslikligini nomoyon etadi. Maxsus fan o'qituvchisi o'zining tuzilishi, strukturasi va taqdim etish shakliga ko'ra umumkasbiy va soha texnik-texnologik bilim va ko'nikmalari majmuasi bilan biror bir fan o'qituvchisining maxsus bilimlaridan tubdan farq qiladi. Faqat maxsus fan o'qituvchilarigina shunday insonlarning yetishib chiqishini ta'minlaydilarki, bunday insonlar kasbiy faoliyatda shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o'z o'rinlarini topishda ijodan izlanadilar.

Maxsus fanlar o'qituvchilaridan yuksak mahorat, kasbiy bilim va tajriba talab etiladi. Shuning uchun ham maxsus fanlarni o'qitishda endi ish boshlagan o'qituvchining faoliyati tajribali ustoz nazoratida bo'ladi. Maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchining o'quv-metodik ta'minotining yuqori darajada bo'lishi bo'lajak mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o'quv-metodik ta'minot, o'qituvchilarning ko'p yillik tajribasi, yangi adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar asosida shakllantiriladi. Maxsus fanlar bo'yicha zamonaviy o'quv-metodik majmualar yaratish o'qitishning didaktik ta'minotini mustahkamlashda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etishda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarning uzviyligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi[4].

Maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha faoliyat olib borayotgan o'qituvchi o'quvchilarni tezkor qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish, ijobiy, salbiy va tanqidiy munosabatda bo'lishi, ularni tahlil qilish va muloqotdagi to'siqlarni yengib o'tish, muhokama etilayotgan masalani yaxshi bilish xususiyatlarini kamol toptiradi. O'qituvchining kasbiy madaniyati, kasbiy kompetentlik, kasbiy faoliyati, kasbiy qobiliyatlari va kasbiy fikrlashi kabilar bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Natijalar. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, maxsus fanlar bu qotib qolgan taraqqiy etmaydigan didaktik hodisa emas, balki ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlovchi qator omillarni amaliy jihatdan yo'lga qo'yuvchi ijodkorlik va yaratuvchanlik faoliyatining natijasidir. Shunga ko'ra, maxsus fanlarni o'qitishda davr talablaridan kelib chiqib, didaktik jarayonning muhim komponenti deb bilish, ta'lim-tarbiyani harakatlantiruvchi, jadallashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi omillarni aniq qo'llashga da'vat etuvchi deb qarash lozim. Shuni inobatga olib, maxsus fanlarni o'qitishda va o'quvchilar bilimlarini baholashda ularga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining maxsus fanlarni o'qitishda o'quv muammolarini yechishga qaratilgan metodlarni qo'llashi, davra suhbatlari va ochiq munozaralar tashkil etishi, namunali noan'anaviy yoki munozara darslari, tarbiyaviy tadbir muhokamasini o'tkazishi, ta'lim jarayonida zamonaviy va axborot pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi ta'lim sifatini oshirishda

yuqori natijalarga erishishda katta yordam beradi. Bunday holatlar o'quvchilarda mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga bilim, ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi.

Maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchi mashg'ulot o'tkaziladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e'tiborga olishi va o'quv jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rishi talab etiladi. O'qituvchi darsga tayyorgarlikka ega bo'lgan holdagina o'qitish natijalari samaradorligi oshadi. Chunki, maxsus fanlarni o'qitish jarayoni muayyan tizimga solinib, mavzular ketma-ketligi, o'tiladigan darslarning maqsadi, shakli va turi, o'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar, foydalanilgan adabiyotlar va o'qitish vositalari, didaktik materiallar, dars o'tish metodlari, bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari belgilab olinadi. Bunda o'qituvchining maxsus fanlarni o'quv metodik majmualari muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maxsus fan o'qituvchlari o'zlarining pedagogik mahoratini doimiy ravishda tajribali ustozlar bilan hamkorlikda seminarlar, treninglarga qatnashishi muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatning shiddat bilan rivojlanishi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotimizga izchil kirib kelayotganligi kasb-hunar maktablarida maxsus fanlardan dars o'tadigan o'qituvchilarni o'z ustida muntazam ishlashga undaydi. Chunki, o'quvchi-yoshlarning internet tarmog'i orqali dunyoda kechayotgan voqea-hodisalar, ilm-fan yangiliklaridan o'z vaqtida xabardor bo'layotganligi izlanishdan to'xtagan har qanday o'qituvchini noqulay ahvolga solish hech gap emas.

Maxsus fanlarni o'qitishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llash va darslarni amaliyotda yuzaga keladigan muammolarga aloqadorligi bor materiallar bilan o'tish o'quv mashg'ulotlarining sifati va samaradorligini yanada oshiradi.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.
2. M.K.Sharifov "O'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda maxsus fanlarni o'qitishning ahamiyati" "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi 44-45b.
3. Q.T.Olimov "Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlar yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari". Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, O'MKHTTKMOVUQTI Toshkent 2005, 19-20b.
4. Murtazayev E.M. "O'quvchilarda quruvchi kasbiga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2019,43-b.
5. Ismailova Zuxra Karabayevna, Maxsudov Po'lat Maxsudovich, Ergashev Oybek Karimovich. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent 2020, 13-14b.
6. G'affarov F.X. "Maxsus fanlar bo'yicha elektron ta'lim resurslari bazasini yaratish va ularning masofadan foydalanish metodikasi". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.KHTTIRPKMOVUQTI.Toshkent 2018
7. S.Y.Ashurova "Yengil sanoat yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari(Tikuvchilik ishlab chiqarish

yoʻnalishi misolida)”. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. OʻMKHTTKMOVUQTI Toshkent 2005.

8. Q.M.Abdullayeva “Maxsus fanlarni oʻqitishda boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy bilim va koʻnikmalarini shakllantirishning metodik asoslari”. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. OʻMKHTTKMOVUQTI Toshkent 2005

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

CHARACTERISTICS OF INDUSTRIAL TEXTS AND PRINCIPLES OF SELECTION IN THE DEVELOPMENT OF READING COMPETENCE OF NON-PHILOLOGICAL UNIVERSITY STUDENTS

Saidova Surayyo Yarqulovna,
Teacher, Navoi State Pedagogical Institute
saidova.surayoo@mail.ru

Abstract. This scientific article is dedicated to the scientific justification of the views and approaches presented by the author regarding the characteristics of the main sectoral texts and the principles of text selection for developing reading competence in students of non-philological education. It has also been revealed that scientists have emphasized that language teaching through field text can be used as an alternative view of the real-life situation; popularization of field texts can create an interactive language environment for students. Several texts on the purposeful application of such a systematic method, a method of teaching based on other types of field materials, are given as examples of sufficient research by scientists. According to the requirements of modern language teaching, the methodology of teaching a foreign language based on communicativeness does not consider that teaching students to communicate alone is a satisfactory result. Still, with the help of foreign language teaching tools, the student learns the language being studied. The article describes in detail the need to ensure that students can enter into a dialogue by following all the criteria of communication while informing about their culture.

Key words: students of non-philological universities, industrial texts, reading competence, principles of selection of texts, scientific approaches.

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SOHAVIY MATNLAR XUSUSIYATLARI VA MATN TANLASH TAMOYILLARI

Saidova Surayyo Yarqulovna,
O'qituvchi, Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy sohaviy matnlar xususiyatlari va matn tanlash tamoyillari xususida muallif tomonidan keltirilgan qarashlar va yondashuvlarni ilmiy asoslashga bag'ishlangan. Hamda sohaviy matn orqali til o'rgatishda real hayotiy vaziyatning muqobil ko'rinishi sifatida yordam berishi, sohaviy matnlarning ommalashuvi talabalarga interaktiv til muhitini yarata olishi olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilganligi ochib berilgan. Bunday tizimli metod ya'ni boshqa turdagi sohaviy materiallarga asoslangan o'qitish metodikasi ustida olimlarning yetarlicha izlanishlari chet tillarda o'qitishda maqsadli qo'llash usullari haqida qator matnlar misol qilib keltirilgan. Kommunikativlikka asoslangan chet tilini o'qitish metodikasi zamonaviy til o'rgatish talablariga ko'ra, talabalarni faqat muloqotga o'rgatishning o'zini qoniqarli natija, deb hisoblamaydi, balki qo'shimcha tarzda chet tilini o'qitish vositalari yordamida talabani o'rganilayotgan til madaniyatidan xabardor qilish barobarida, kommunikativlikning barcha mezonlariga amal qilgan holda muloqotga kirisha olishini ta'minlashni talab etilishi maqolada batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: nofilologik yo'nalish talabalariga, sohaviy matnlar, o'qish kompetensiyasi, matn tanlash tamoyillari, ilmiy yondashuvlar.

Kirish. So'nggi yillarda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini kasbiy soha kontenti bilan integrallashgan holda o'qitishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Fanda bunday o'qitish ESP (English for Specific Purposes) nomi bilan atalib, uning sohasi ham keng qamrovli bo'lgani uchun EOP - English for Occupational Purposes (kasbiy sohalarda ingliz tili) hamda EAP - English for Academic Purposes (akademik sohalarga yo'naltirilgan ingliz tili) sohalariga bo'linadi.

Chet tillarni, jumladan ingliz tilini o'qitish sohasi juda keng qamrovli bo'lib, uuni turli qisqartma nomlar bilan atala boshlandi. Ularning ba'zilarini misol tariqasida keltirib o'tamiz. Ingliz tilini o'qitish, (ELT-English Language Teaching), ingliz tili o'rganish (ELL-English Language Learning), Umumiy ingliz tili (EGP- English for General Purposes), ingliz tili akademik maqsadlar uchun (EAP-English for Academic Purposes), ingliz tili maxsus maqsadlar uchun (ESP-English for Specific Purposes) va (CBLT-Content-Based Language Teaching) mazmunga asoslangan ingliz tili kabi turlari ma'lum.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga sohaviy kontentga asoslangan ingliz tili nutq malakalarini o'qitishda EPP (English for Professional Purposes) dan ancha keng miqyosda foydalanilmoqda. CBI (Content Based Instruction) ni ilmiy jihatdan tadqiq etgan Brinton, Xatchinson va Uoters nazariyalariga tayangan holda, ESP tarmoqlarini quyidagi chizma orqali aks ettirish mumkin.

ESP (English for Specific Purposes) (maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili) qisqartmalarga boy bo'lib, o'z navbatida yana bir nechta turlarga bo'linadi: ingliz tili fan va texnika uchun (EST), ingliz tili biznes va iqtisod uchun (EBE), ingliz tili yuridik fanlar uchun, ingliz tili meditsina uchun, ingliz tili kasbiy maqsadlar uchun, ya'ni EPP (English for Professional Purposes) va EAP (English for Academic Purposes). ESP faoliyatining hududiy xaritasi mavjud bo'lib, uzoq yillar davomida ESPni qo'llanilish chegarasini aniqlash bo'yicha 'xaritalash' ishlari (Strivens; Xatchinson va Uoters; Jons; Lordaniya; Jons va Prays-Machado) olib borilgan. ESPning faoliyat chegarasini aniqlash maqsadida dastavval, uning umumiy maqsadlarda o'rganiladigan ingliz tili ELT (English Language Teaching) hamda ESP (maxsus maqsadlarda o'rganishga mo'ljallangan) ingliz tili o'rtasidagi farqlarni bilib olish zarur. Ingliz tilining umumiy maqsadlarda o'rganiladigan turi asosan, uni tilshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganishni maqsad qilishi ma'lum.

Brinton tomonidan tavsiya etilgan, yangilangan CBI xaritasi vaqt o'tishi bilan takomillashib, uning gibridlari paydo bo'la boshladi. Takomillashgan modellar: modellashtirilgan qo'shimcha model (Brinton & Jenson); turg'un kontent (Palli; Merfi va Stoller); mavzular asosida zamonaviylashtirilgan model (Stoller)laridan bugungi kunda nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish amaliyotida keng foydalanilmoqda. Quyida olib borayotgan ilmiy tadqiqotimiz doirasida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda CBI texnologiyasi modellaridan adjunct modeli asosida o'qitishning xususiyatlari, o'qish uchun matn tanlash xususiyatlari hamda matn tanlash tamoyillari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ingliz tilini o'qitish, xususan, nutq malakalaridan o'qish turiga e'tiborni kuchaytirish auditoriya mashg'ulotlari orqali ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlamoqda. Dey, Bemford va Xanter o'qishning ijobiy ta'sirini akademik muvaffaqiyat bilan bog'laydi. O'qish talabalarning keng qamrovli lug'at boyligini oshirish bilan bir qatorda sintaktik strukturani til amaliyotida o'rinli qo'llash va til malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Bunday

malakalar talabalarning sohaviy matnlarni o'qish hisobiga boyitiladi. Ilmiy tadqiqotimizni matn turlari va matnga berilgan ta'riflar bilan davom ettiramiz.

Matn va matnga berilgan ta'riflar xilma-xil ekanligi ma'lum. Sohaviy matn xususiyatlarini ochib berishdan oldin, 'sohaviy matn' tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz. Sohaviy matn fan va soha amaliyotining biror tarmog'iga doir yutuqlarni umumlashtiruvchi ilmiy va o'quv matnlari majmui (fanning ijtimoiy-gumanitar, aniq fanlar sohaviy matnlari, texnikaviy matn, qishloq xo'jaligiga oid matn, siyosiy matn va boshqalar) tushuniladi.

I.Baltovanning fikricha, ovoz orqali taqdim etilgan sohaviy matnlardan ko'ra o'vozli videomateriallar yordamida taqdim etilgan matnlar yoki boshqa qo'shimcha materiallar talabalarning voqelikni yaxlit anglashlariga samaraliroq yordam beradi. Dey hamda Robb ta'kidlashiga ko'ra, tilni amaliy jihatdan egallashda o'qish muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar faol o'qiydigan talabalarda nafaqat o'qish kompetensiyasi, balki boshqa nutq malakalari: tinglab tushunish, gapirish, yozuv barobar rivojlanadi, deb izohlaydi. Bundan tashqari o'qish talabada motivatsiyani kuchaytirib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda talabalar orasida yaxshiroq anglangan sohaviy ma'lumotlarning asosiy qismini matnlarda harakatli nutqlar tashkil etishi ham aniqlangan. Bu metodni darsga tatbiq etish borasida olib borilgan o'rganish, izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi: sohaviy matnlardan foydalanish, avvalo, talabaga u yoki bu chet tilda muayyan ijtimoiy guruhlarning aniq bir vaziyatdagi so'zlashuv tiliga xos xususiyatlari (emotsional bo'yoqdorligi, nutq tezligi) bilan yo'g'rilgan real muloqotni taqdim etadi. Bunday real til muhiti orqali talabalar til me'yor va talablari, leksika, verbal va noverbal muloqot turlari bilan yaqindan tanishadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilni o'rgatishda amaliy mashg'ulotlar davomida sohaviy matnlardan foydalanish ushbu muammolarni samarali hal etishga yordam beradi. Bu o'rinda chet tilni pedagogika-psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalariga o'rgatishda sohaviy matndan foydalanish o'rinli deb hisoblaymiz. Sohaviy matnlar kundalik vaziyatlarda ishlatiladigan tilning hayotiy namunalarini ifoda etadi. Ulardan foydalanish talabalarga sohaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishda motivatsiya beradi.

Ammo, ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari va shunga o'xshash manbalar sohaviy matn talabada lingvistik, pragmatik, diskursiv kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan bir yoqlama vosita sifatida xizmat qilishini ta'kidlamoqda. Shu o'rinda chet tilni sohaviy matnlar asosida o'qitishni yuqorida ko'rsatib o'tilgan, talabalar bajarishi va kommunikativlikka asoslangan chet til ta'limining asosiy vositasi sifatida talabani real hayotiy (autentik) vaziyatlarga tayyorlashda to'g'ri va yengil yechim, deb qarash lozim.

Tahlil va natijalar. Sohaviy matn - u xoh o'qish, xoh tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan materiallar bo'lsin, ma'lumot berish maqsadga yo'naltirilgan, shuningdek, til o'rganishga imkon beruvchi matnlardir. Ularga maxsus soha matnlari: bevosita til o'rganishga qaratilgan darsliklar, qo'llanmalar, sohaga oid internet manbalari, websaytlardan olingan matnlar kiritiladi. Albatta, ushbu matnlardan foydalanish o'qituvchilar yumushini ancha yengillashtiradi. Ayniqsa, ulardan o'quv materiallari sifatida foydalanish amaliy darslarni loyihalash va tashkil etishda, darslarni mantiqiy ketma-ketlikda talabalarga yetkazish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda soha mutaxassislaridan biri Gareth Popkins so'zlariga ko'ra, darsliklar talabalar uchun ba'zan zerikarli va demotivatsiya qiluvchi vositaga aylanib qoladi. Uning

fikricha, shunday vaziyatlarda darsliklar bilan bir qatorda autentik matnlardan qo'shimcha manba sifatida foydalanish to'g'ri tanlovdir.

Sohaviy matnlar dars jarayonini boyitishga hamda talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi. Agar sohaviy matnlar darsliklarda keltirilgan o'quv dasturlariga qarab tanlansa, ularni tanlash jarayonida muammoga duch kelinmaydi, matnlar uzviylik va mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'ladi. Sohaviy matnlar ishlab chiqilib, talabalarga taqdim qilinayotganda, iste'molchi o'z ona tili darajasida ishlatiladigan tilni tushuna oladi, deb taxmin qilinadi. Demak, uning afzalliklari ham aynan shunda. Talaba sohaviy matnlardan foydalanar ekan, real hayotda til egalari ishlatadigan iboralar, akademik so'z va terminlar qo'llanilishi, umuman olganda soha kontentiga to'g'ri keladigan har bir ma'lumotni qabul qilish inkoniyatiga ega bo'ladi. Sohaviy matnlar til xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi. Sohaviy matnlarga kiritilgan lug'at boyligi o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Balegizade tadqiqotiga ko'ra, o'qish uchun mo'ljallangan sohaviy matnlar o'qituvchi yordamida auditoriyaga taqdim etilib, til qiyinchilik darajasidan kelib chiqqan holda leksik material kontekstda qo'llanilishiga qarab o'qituvchi - talaba hamkorligida amalga oshiriladi. Krashen bunday metod orqali so'zni o'zlashtirishni 'lingvistik- qiyosiy metod' deb nomlaydi. Sohaviy matnlarni amalda qo'llash shuni ko'rsatadiki, K.Kelli, Offner va Vorland tomonidan qo'llanilgan metodlar o'zining ijobiy natijasini beradi, o'z navbatida talabalar ichki va tashqi motivatsiyasini oshirishga ham o'z hissasini qo'shadi.

Yuqorida tilga olinganidek, sohaviy matn tushunchasi ko'plab xorijlik olimlar tomonidan batafsil tahlil qilingan, xususan, Janis Xarrington va Ron Oliverlar tomonidan mazkur atama "... real hayotiy voqea va hodisalarni o'zida aks ettirgan matnlar bo'lib, turli hayotiy vaziyatlarga duch kelishga tayyorgarlik ko'rishdir" deb e'tirof etishgan [1]. Ferit Kilichka esa sohaviy matn mutaxassislar tomonidan tabiiy hayotiy vaziyatlarda uchraydigan voqea-hodisalarni o'z ichiga oladi va ular tegishli jabhada qo'llanilishiga ishora qilishini e'tirof etadi. Sohaviy matnning aynan hayotiy vaziyatbopligi matnlardan ta'lim jarayonida foydalanishda talabalarga ijobiy turtki beradi. Har qanday sohaviy matn o'rganilayotgan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, shuningdek boshqa sohadagi real voqeligi haqida to'liq tasavvur uyg'ota olishi barobarida, ingliz tili o'zaro muloqot jarayonida verbal, noverbal aloqalar kodlari kombinatsiyasini to'liq namoyon eta olishi zarur. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda bunday matnlardan offlayn ta'lim sharoitida ham onlayn ta'lim jarayonida ham foydalanish imkoniyati keng. Ammo sohaviy matnlardan foydalanish samaradorligini amaliy mashg'ulotni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-texnologik hamda boshqa fan sohalariga oid matnlarni o'qish orqali oshirish mumkin. Talabalar o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarni maqsadli ravishda qo'llash dars jarayonini sifatli, bosqichma-bosqich samarali tashkil etilishiga olib keladi.

Sohaviy matnlar bilan ishlashni tashkil etishda talabalarning o'rganilayotgan til mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda texnologiyalar sohalariga oid barcha verbal-noverbal vositalarni o'zlashtirishlari, ularni o'z mamlakati siyosiy, ijtimoiy -iqtisodiy sohalarini qiyoslab o'rganish, joriy etish, o'rni kelganda, milliy qadriyatlarni xorijiy hamkorlarga yetkazish imkonini beradi. Ayni paytda talabalarda shakllantirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy onggi, ularning dunyoqarashi hamda mafkuraviy immunitetini rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan olimlar fikr - mulohazalarini tahlil qilgan holda, har qanday sohaviy material matn sifatida olinishi maqsadga muvofiq. Uning lug'aviy ma'nosiga ko'ra, sohaviy matnga ta'rifimizni beramiz. **Sohaviy matn** soha yo'nalishi uchun muhim ahamiyat kasb

etuvchi, mavzularni o'zida aks ettirgan til materiali bo'lib, talabalarga soha bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga ko'mak beruvchi o'quv matnlari, ilmiy manbalar, internet materiallari, original tilda yozilgan manbalar majmuidir.

Sohaviy matndan foydalanilganda albatta, dastur talablari bilan birga talabalar yoshi, qiziqishlariga mos kontent tanlash juda muhim. Sohaviy matn borasida lingvistik tadqiqotlarga ko'ra, uning tarkibiga quyidagi materiallar kiritilganini ko'rish mumkin. Pedagogika-psixologiya sohasi uchun **sohaviy matn turlariga** quyidagilarni kiritib o'tishni ma'qul topdik:

- pedagogika-psixologiya sohasiga oid gazeta va jurnallar;
- pedagogika-psixologiya sohasiga oid rasmiy va norasmiy maktublar;
- sohaga doir turli mavzularni aks ettirgan reklamalar;
- soha mavzulariga bag'ishlangan radio va televideniye dasturlari, e'lonlar matnlari va hokazolar;

- pedagogika-psixologiya sohasiga oid ilmiy va o'quv matnlar turli janrlari [2].

Yuqorida keltirilgan ta'riflar asosida, til o'rganish uchun psixolog-pedagog talabalarga quyidagi **sohaviy matn** janrlarini misol tariqasida keltirib o'tamiz:

1. Gazeta, jurnallar: o'rganilayotgan chet tilda gazeta yoki jurnallardan maqolalarni o'qish pedagogika-psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarini sohaga doir yangiliklar, ilmiy maqolalar, kundalik voqealar bilan tanishtirishi mumkin.

2. Ilmiy va o'quv matnlar: ingliz tilida so'zlashuvchi mualliflar tomonidan yozilgan sohaviy ilmiy, o'quv matnlarni o'qish pedagogika-psixologiya yo'nalishi talabalarini o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga, so'z boyligini kengaytirish, ilmiy fikrlash doirasini oshirish, mutaxassislikka oid matnlarni ingliz tilida o'qib tushunish hamda o'z amaliyotida qo'llay olishga yordam beradi.

3. Teleko'rsatuvlar, filmlar: Subtitr yordamida efirga uzatiladigan teleko'rsatuvlar, sohaviy o'quv filmlarni ingliz tilida tomosha qilish talabalar o'qish va tinglab tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, gapirish (nutq etiketi normalarini: salomlashish, xayrlashish, yoshlar nutqida qo'llaniladigan til va nutq birliklari) ular madaniyatini sohaviy matnlar yordamida qiyinchiliklarsiz tushunishga yordam beradi.

4. Podkastlar, radio dasturlari: ingliz tili podkastlari transkriptlari, radio dasturlari matnlarni o'qish orqali ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, talabalar nutqida uchraydigan turli salbiy interferension hodisalarni oldini olishga xizmat qiladi [3].

Yuqorida keltirilgan sohaviy matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, materiallar an'anaviy tanlangan adaptive (moslashtirilgan, soddalashtirilgan) materiallarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Sohaviy matnni tanlashda inglizcha manbalar, multimedia ilovalari yordamida yozib olingan pedagogika yo'nalishining dolzarb muammolarini aks ettiruvchi yangiliklar, filmlar, boshqa turda tayyorlangan teledasturlar, hatto risolalalar transkriptlari ham manba bo'lib xizmat qiladi. Floris sohaviy matnni kurs materiali sifatida tayyorlash, taqdim etish talabalarni kundalik hayotga tayyorlashga motivatsiya beradi, deya ta'kidlaydi. Sanchis, Periks, Gomes kabi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, sohaviy matn tildan faol kommunikativ maqsadlarda foydalanish imkoniyatini berishi e'tirof etilgan.

O'quv jarayonida muayyan natijaga erishish uchun kontentni tushunish va uni egallash ko'zda tutiladi. Matn tanlashning birinchi xususiyati sifatida matnni o'qish ma'naviy boyishga, yangi axborotlarni egallashga qaratilgan harakatdir. Sohaviy matnlarni darsda qo'llashning ikkinchi o'ziga xos jihati-o'rganilayotgan tilning qiyinligi, so'zlar xilma-xilligi, nutq tezligi, turli

leksik birliklarga boyligi bilan belgilanadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi matnlarni qo'llashda talabalar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, muayyan tizimga solingan mashqlar tizimi ketma-ketligini ishlab chiqishi hamda matnlar namoyishi bilan bog'liq mashqlar ustida ish olib borishda uch asosiy (pre- o'qishdan oldingi; while-o'qish bosqichi; o'qishdan keying-post) bosqichni hisobga olishi lozim.

Nunan esa "talabalarda mustaqil o'qish malakasini rivojlantirish, ularning mas'uliyatini oshirish maqsadida, talabalarga sohaviy matn tanlash, tayyorlash topshiriq sifatida berilsa, maqsadga muvofiq" deb hisoblaydi, chunki matn talabalar tomonidan tayyorlanadigan qo'shimcha material turlaridan biri sifatida baholanadi [5]. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari o'quv mashg'ulotlarida sohaviy matnlardan foydalanish samarali vosita sanaladi, ammo O'zbekiston sharoitida ingliz tilini o'rganish jarayonida darslarda sohaviy matnlardan to'laqonli foydalanish, ingliz tilida muloqot qilish uchun nofilologik yo'nalishlar talabalari uchun barcha qulayliklar mavjud, deyishga to'liq asos bo'la olmaydi.

Sohaga oid matnlarni individual shaklda o'zlashtirishdan ko'ra, matnlar ustida kichik guruhlarda ishlash, uni muhokama qilishning amaliy ahamiyati yuqoriroq. Chunki bunday metodika talabalar so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda o'qish kompetensiyasini rivojlantirish motivatsiyasini ham yuqorilashiga xizmat qiladi. Bahrani va Sim "talabalar o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda ommaviy-axborot vositalari yangiliklari, sohaga oid o'quv materiallari muhim ahamiyatga ega", deb ta'kidlaydilar, chunki turli manbalardan olingan sohaviy matnlar talabalarni real hayot bilan yaqinlashtirishga hamda ularning diqqat-e'tiborini mavzudan uzoqlashtirishga undaydi [6]. Sohaviy matnlar originalligi (autentligi) bois, ularni darslarda to'g'ridan-to'g'ri qo'llash, turli texnologiyalardan unumli foydalanish mumkin.

Bunday oddiy hayotiy misollar bilan tilni o'rganish aksariyat talabalarning maqsadi bo'lgan ingliz tilini egallashning muhim tomonlarini anglagan holda muloqotga kirishishga imkon yaratadi. Sohaviy matnlarni darsda qo'llash talabalarga tayyor nutq namunasini taqdim etadi, bu talabalarga nutqning talaffuz, intonatsiya, grammatika, leksik jihatlarini bevosita o'rganish imkonini va sohaviy matnlardan dars jarayonida foydalanilganda, ularning maqsadli, tizimli namoyish etilishi hamda metodik jihatdan to'g'ri yo'nalitirilishi muhim ahamiyatga ega.

Darsning qaysi qismida sohaviy matnlarni qo'llashga aniq maqsad sifatida qaralib, ular matn vazifalariga qarab belgilanadi. Shunday ekan, bunday matnlar dars boshida mavzuga kirish, mavzu ustida ishlash yoki dars oxirida mavzuni mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Ayni paytda muayyan afzallik va imkoniyatlarga qaramay, sohaviy matnlarni darsda qo'llashning o'ziga xos muammolari mavjud. Bunday muammo birinchi navbatda matnlarni dars mavzusi va kontentiga moslashtirishni talab etadi. Matnlarni saralash, mavzuga moslashtirish, uni talabalar yoshi, bilim darajasi va auditoriyasiga qarab amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mavzuga oid o'rganilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, sohaviy matnlarni saralash tashkil etiladigan dars maqsadi, vazifasidan kelib chiqib, muayyan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, rus olimi T.S.Malisheva bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'qish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida sohaviy matnlarni saralash mezonlari asosida amalga oshirilishini ilgari surgan bo'lsa, G.G.Joglina ta'rifida esa o'qishni rivojlantirishda kommunikativ kompetensiya tamoyillari asosiy me'yor sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Sohaviy matn kontenti deganda, sohaga oid nutq mavzulari, nutq malakalari hamda til materiallari tushuniladi. Sohaviy nutq mavzulari og'zaki nutq mavzulari, o'qish mavzulari; nutq

malakalariga esa gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish kiradi. Til materialini talaffuz, leksika va grammatika tashkil etadi. Demak, 'ingliz tili o'qitish mazmuni' tushunchasi nutq mavzulari, nutq malakalari, til materiali qismlarining har biri sifat nazoratdan o'tgach, talabalar o'rganishlari uchun taqdim etiladi. Chet til o'qitish mazmuni talabalar o'zlashtirishi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tanlanadi, taqsimlanadi, tasniflanadi, o'rganish uchun taqdim etiladi. Tanlash, tasniflash, taqsimot, taqdimot bosqichlari muayyan metodik mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Chet til o'qitish metodikasi tamoyillari mazmunan va shaklan turli tumanligini bilamiz. Shunga asosan, chet til o'qitish metodikasining umumiy, xususiy va maxsus tamoyillari ishlab chiqilgan. Ilk metodik tamoyillar barcha metodist olimlar tomonidan yakdil tan olingani ma'lum. O'zbekistonda chet til o'qitish metodikasi fanining umumiy tamoyillari professor J.J.Jalolov tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, "nutqiy yo'naltirilgan, tilni chegaralab, yaxlit o'rgatish, mashqlarga asoslanib o'qitish, til tajribasini hisobga olish" kabi jihatlarni oz ichiga olsa, ikkinchi tamoyil takliflarini inobatga olgan holda shakllantirilgan [7]. Uchinchi tamoyilni asosan tadqiqotlarida uchratish mumkin. So'nggi, to'rtinchi tamoyil aksariyat olimlar tomonidan ma'qullangan. Biz ham ushbu tamoyil tarafdori sifatida yondashib, darslar uchun manbalar, mashqlar turini tanlashda ushbu metodik tamoyillardan foydalandik.

J.Harmerning matnni darsda qo'llash texnikasi to'g'risida bergan tavsiyalarga ko'ra, "sohaviy matnlar orqali talabalar o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda mashqlar katta ahamiyatga ega" [8]. Yuqorida sanab o'tilgan didaktik, psixologik, metodik tamoyillardan tashqari o'qishni o'rgatishning xususiy tamoyillari ham talqin etilgan.

O'qishni o'rgatishning asosiy vazifasiga matnni gapirib berish sifatida qaralmasdan, o'qish matnini faoliyatda qo'llay olinishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Talabalarga matnni o'qib, axborot olish asosiy yakuniy maqsad bo'lishi kerak. Bunday natijaga nutq mashqlarini bajarish orqali erishish mumkin. (matn mazmunini o'zlashtirish va egallash nazarda tutilmoqda). Matnni o'qishga ma'naviy yuksalish, yangi axborotni egallashga yo'naltirilgan vazifa sifatida qaralishi lozim. Metodikada talabani o'qiganini tushunish – o'qish oldidan beriladigan topshiriq orqali tekshiriladi. Matn o'qilgandan so'ng metodik usullar yordamida talabaning tushunganlik darajasi tekshiriladi. Matnni to'liq tushunganlik, uni o'zlashtirganlik – talabaning vazifani muvaffaqiyatli bajarganligi bilan belgilanadi.

Muhokama. O'qish amaliy faoliyat bilan chegaralanib qolmasdan, matnni o'qiyotgan talaba yangi ma'lumot olishga ham harakat qiladi. Axborot olish esa bilish faoliyatini yuritish bilan aniqlanadi. Matn tanlanganda, uning mazmuniga e'tiborni kuchaytirish kerak. Ammo, tajriba shuni ko'rsatadiki, sohaviy matn tanlanganda fan o'qituvchisi tomonidan talabalarga beriladigan uch bosqichli mashqlar tizimi implementatsiyasida TALO (Text as a Linguistic Object) asosiy o'ringa chiqib olganidek, go'yo. Aslida, til o'qituvchisi sohaviy matnni o'qish, o'zlashtirish chogi'da Toni Evans ta'kidlaganidek, mazmun va tilni parallel egallanishi ya'ni TAVI (Text as a Vehicle Information) mashqlar turi, shuningdek, (Q&A-question and answer) ga e'tibor qaratishi zarur [9].

Nofilologik ta'lim yo'nalishiga oid tanlangan matn mazmuni qiziqarliligi talabalar uchun axborot olishga intilishlarini belgilovchi, zavqlanish uchun o'qishga undovchi omil sifatida ahamiyatlidir. Matn mazmuni, uning uslubini tushunishga xalaqit beruvchi qiyinchiliklar Pol Neshn ta'riflaganidek, "tanlangan matn talaba bilim darajasidan bir pog'ona yuqori bo'lsagina, uning aqliy faoliyatini kuchaytiradi, tafakkurini rivojlantiradi" degan fikrga qo'shilamiz [10].

Kasbiy sohada ingliz tili o'qitilganda, o'qish sohaviy ixtisoslik fanlari bo'yicha egallangan bilimlariga asoslangan holda tashkil etiladi. O'qish odatda, retseptiv nutq faoliyati sifatida retseptiv vazifalar bilan bir qatorda reproduktiv vazifalarni ham qamrab oladi. O'qishni o'rgatishda retseptiv nutq bilan reproduktiv nutq o'zaro bir-biriga bog'liq faoliyat sifatida maydonga tushadi. Yuqoridagi tamoyillar mazmunidan kelib chiqqan holda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilayotgan CBI texnologiyasi adjunct modeli talabalar uchun tabiiy til muhitiga moslashtirilgan, o'qish kompetensiyasini rivojlantirish, kasbiy fanlar mazmunini ingliz tilida o'qib tushinishga yordam beradigan texnologiyadir. Tadqiqotimiz maqsadi uchun aynan mos keladigan CBI texnologiyasi adjunct (qo'shimcha) modeli talabalarni qiziqtirgan sohaning ixtisoslik fanlari mavzulariga yaqin bo'lgan kontentni (psixolog talabalar uchun *An Empty Chair Technique in Gestalt Therapy*, *How is Depression Best Treated in Children?*, *How to Children and Teens Manage Their Stress?*, *Coping with Stress at Work*, *How Stress Effects on Your Health?* "Eleven Healthy Ways to Handle Life's Stresses" sohaviy matnlar sifatida tanlandi. Tanlab olingan matnlar asosida talabalar extensive o'qish kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari bilan davom ettiramiz.

Sohaviy matnlar tanlash tamoyillari so'z boyligi, sohaviy fanlar kontentiga asoslangan matnlarni o'qish zarur terminlarni bilishni taqozo etadi. Talaba yetarli darajada so'z boyligini egallamasdan, ingliz tilini puxta o'rgana olmaydi, shuning uchun so'z boyligi tilning boshqa kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Min va Syuy ta'kidlashicha, o'qilgan sohaviy matn mazmunini tushunish kamida 2500-3000 so'z birligini o'zlashtirishni talab qiladi. Xuddi shunday g'oyani Laufer ham ilgari suradi. Laufer fikrini tasdiqlagan holda, ya'ni til sohiblari maktabni tugatishida taxminan 5000 so'z birligini o'zlashtirish muhimligi (Hsueh-Chao va Nation) eslatib o'tilgan.

Tilni egallash, oqish kompetensiyasini rivojlantirish - sohaga doir matnni maxsus fanlar mazmuni asosida o'qitish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda aynan nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tanlangan kontent o'z navbatida, o'qitiladigan kasbiy fanlar kontentidan saralab olingan matnlarni mavzulashtirilgan holda tanlangani ma'qul. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun CBI texnologiyasi 'adjunct' qo'shimcha modeliga asoslangan holda sohaga oid turli kontentli matnlar tanlashda didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayandik. J.J.Jalolov fikriga ko'ra, til materiali tanlashda maxsus tamoyillarga amal qilinishi ta'kidlanib, O'zbekiston chet til ta'limida o'qishni o'rgatishda S.K.Folomkina klassifikatsiya asosida o'rgatilishi ko'proq uchraydi. Shu o'rinda nazarda tutilgan tamoyillarni sanab o'tish muhim (sohaviy matn autentligi (authenticity) tamoyili; o'qishga osonlik (o'qimishligi) (readability) tamoyili; sohaviy kasbiy kontent bilan integrallashganlik (integraty) tamoyili; kasbiy maqsadga yo'naltirilganlik; talaba ehtiyojlari va darajasini hisobga olganlik (needs analysis and level) tamoyili; sohaga oid matnning ishonchliligi) [11].

Matn tanlashning takomillashgan tamoyillariga asoslanib, tadqiqotda pedagogika-psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun to'rtta, sohaviy matn tanlab olindi. Biz tavsiya etgan tamoyillar Dey va Bemford tomonidan taklif etilgan tamoyillar asosida takomillashtirildi.

Shunga ko'ra, pedagogika yo'nalishi talabalari o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda sohaviy matnlar xususiyatlarini inobatga olishga qaratilgan quyidagi tamoyillar bilan boyitildi:

1. Talaba ehtiyojlari va darajasiga moslik tamoyili (needs analysis);
2. Sohaviy kasbiy fanlar bilan integrallashganlik tamoyili;

3. Matnning autentikligi (authenticity) tamoyili;
4. O'qishga osonligi (o'qimishligi) (readability) tamoyili;
5. Kasbiy maqsadga yo'nalganlik tamoyili;
6. Tanlangan matnning ishonchliligi (reliability or credibility) tamoyili.

Quyida har bir tavsiya etilayotgan yangi **tamoyilga** o'zimizning qisqacha ta'rifimizni berib o'tamiz.

1. Talaba ehtiyojlari va darajasiga moslik tamoyili: talabalar qiziqishlari, ehtiyojlari va tilni bilish darajasiga mos keladigan sohaviy matnlar o'quv dasturi va o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, o'qish uchun tanlanadigan matn xususiyatlari saqlanishi, tanlangan matn soha mutaxassisligiga mos holda tayyorlanganligi e'tibordan chetda qolmasligi muhim. Tanlangan matn ta'limiy maqsadga qaratilgan bo'lishi uchun gazeta, jurnallar, yurli mavzudagi sohaviy matnlar, veb-saytlar til egalari tomonidan yaratilganligiga ishonch hosil qilish muhimdir. Sohaga oid matnning ishonchliligi tamoyili.

2. Sohaviy kasbiy fanlar bilan integrallashganlik tamoyili: Talabalar uchun qiziqarli va matn kontenti talabalar ehtiyojlariga qiyinchiliklarsiz adaptasiya qilinishi mumkin matnlar tavsiya etiladi. O'qish materialini tanlashda talabalar qiziqishlari, ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan kontent tanlanishi maqsadga muvofiq. O'qitish konteksti talabalar ehtiyojlariga mos ravishda moslashtirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin bo'lgan matnlar bilan boyitilishi va darsni rejalashtirishda moslashuvchanlik tamoyiliga amal qilinishi mumkin.

3. Matnning autentikligi (authenticity) tamoyili: Matnning "autentikligi" uning kontekstdan kelib chiqqanligi va autentik tildan foydalanilganligini anglatadi, chunki bizni matn bilan bog'laydigan narsa kontekstdir. Matn tili standart qabul qilingan normalarga mos bo'lishi kerak. Sohaviy matnda kundalik vaziyatlarda ishlatiladigan tilning autentik namunalari aks etadi. Ulardan talabalar qiziqishini oshirish uchun foydalanish ko'zda tutiladi. Ular talabalarga tildan kundalik hayotda foydalanishini eslatish uchun xizmat qilishi mumkin. An'anaga ko'ra, sohaviy matnni ingliz tilida o'qishni o'rganishdan maqsad tabiiy til muhitiga kirish imkoniyatiga ega bo'lishdan iborat.

4. O'qishga osonligi (o'qimishligi) (readability) tamoyili – o'qimishlilik o'qish uchun tanlangan matnning qiyinlik yoki osonlik darajasi bilan farqlanadi. O'qimishlilik matnni tasavvur qilish bilan belgilanib, uning shrifti, intervali, konteksti (sahifada joylashgan so'z va gaplar) bilan bog'liq bo'ladi. Matnda tanlangan so'z va iboralar hamda ularning aks etishi talabaga qiyinchilik tug'dirmasligini yodda tutish muhim. Matn tuzishda muallif uni qaysi auditoriya uchun mo'ljallanganligini yodda tutishi (darajasi, yoshi sohasi hamda matn tilini diqqat markazida tutishi) muhim.

5. Kasbiy maqsadga yo'nalganlik tamoyili: sohaviy matnlar tanlashda talabalar yoshi, bilim darajasi (B1+undan yuqori), til bilish darajasini hisobga olish zarur. Tanlangan matn lug'ati, grammatika va kontent murakkabligi nuqtai nazaridan B1ga mos keladigan matnlarni tanlanilishiga e'tibor qaratish lozim. Talabalarga ma'lumot berish uchun, zavqlanish uchun yoki kasbiy maqsadlarda o'qish kabi vazifalarni bajarishga imkon beradigan o'qish materiallarini tanlashga e'tibor qaratilishi zarur. Bunday topshiriqlar real hayotda o'qish holatlarini aks ettirishi, talabalar o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi zarur. Tanlangan o'qish materiali qiziqarli va talabalar diqqatini tortadigan, talabalar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydigan matnlar bo'lishi zarur.

6. Tanlangan matnning ishonchliligi (reliability or credibility) tamoyili.

Tanlab olingan matn ishonchliligi ilmiy jihatdan asoslangan, muallif tajribalari va ilmiy matn manbasi reputatsiyasi hamda matnning nazariy ma'lumotlari va tadqiq etilgan metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinovdan o'tganligi, xulosa hamda tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ahamiyatli bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

Manba ishonchliligini tekshirishda ma'lumot bayoni ketma-ketligi, uning ishonchli, asosli ekanligini boshqa rasmiy manbalardan tekshirish ham mumkin bo'ladi. Demak, har qanday ilmiy matn tanlanganda, albatta uni ishonchli manbalardan olinganligi, soha yo'nalishi bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot sifatida ilmiy asoslanganligiga e'tibor qaratilishi kerak.

Xulosa. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari o'qish kompetensiyasini rivojlantirish uchun matnlar ko'lemi juda katta bo'lmagan, ta'lim jarayoniga uyg'un mavzuiy o'quv materiallari tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Sohaviy matnlar nafaqat o'quv dasturi mavzulari, balki ularning til bilish darajasi, yosh xususiyatlari, talabalar ehtiyojlari hamda dunyoqarashini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yakuniy natija sifatida talabalarining erkin so'zlashuv ya'ni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan matnlarga tayanishi zarur shart bo'lishini yodda tutish zarur.

Sohaviy matn til sohiblari kundalik hayotida muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida jamiyat hayotining barcha sohalariga oid lingvistik va ekstralingvistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, ingliz tilini o'rganishlari uchun motivatsiya uyg'otadigan, ayni paytda autentik nutq, til materiali kontentidan kelib chiqib o'zini - o'zi baholash imkonini beradigan samarali vosita bo'lishi zarur. Tanlangan matn visual va ovozi kombinatsiyadan tashkil topishiga e'tibor qaratish lozim, chunki ingliz tili darslarida barcha nutq malakalari integratsiyalangan holda rivojlantirilishi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Sohaviy matnlardan foydalanish afzalliklaridan yana biri talabalarda mustaqil ta'lim malakalarini rivojlantirish, dars jarayonida matnni o'qish, darsdan tashqari vaqtda o'qish malakasini hamda mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirib borilishiga yordam beradi.

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari o'qish kompetensiyasini sohaviy matnlar yordamida rivojlantirishda til materiallari matnlar tanlash, ularni mavzular mazmuniga mazmunan moslashtirish, matnni tushunish va to'liq o'zlashtirishda talabalarni mazkur mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Janice Herrington, Anthony Herrington (2011). Learning with Technology: An Integrated Approach.
2. S.Krashen, (1989).We acquire vocabulary and spelling by reading: Additional evidence for the input hypothesis. Modern Language Journal 73, 440-464.
3. Brinton, D., Snow, M., & Wesche, M. (2003). The content-based second language instruction (2nd Ed.). Ann Arbor: The University of Michigan Press.
4. Jamol Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi tasdiqlagan "O'qituvchi"Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2012.
5. Pol Nation (1998). A bibliography of language learner literature in English. (169-218).
6. Пассов Е.И.Теория методики. Иноязычное образование. Чернышов С.В., Шамов А.Н. Теория и методика обучения иностранным языкам. М.:КНОРУС, 2022.
7. Harmer Jeremy. Engaging Students as Learners. English Teaching Professionals, 2006.

8. Nunan (1999). The Cambridge guide to teaching English to speakers of other languages. – Cambridge University Press, 2001.
9. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – O'qituvchi, T.2012-413.
10. S.K.Folomkina, (2005). Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе: учебно-методическое пособие. М.: Высшая школа. 2005.
11. R.R.Day, and Bamford, J. (1998). Extensive reading in the second language classroom. Cambridge: Cambridge University Press.
12. D.Nunan The Cambridge guide to teaching English to speakers of other languages. – Cambridge University Press, 2001.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

WAYS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS AND QUALITY OF ENGLISH EDUCATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Djalolov Furqat Fattohovich

Uzbekistan State University of World Languages, Teacher of the Department of English translation theory

djalolov_f@gmail.com

Abstract. This article systematically analyzes contemporary problems and ways to solve them to improve the quality of English language teaching in secondary schools. Also, the issues of professional development of English language teachers, application of modern pedagogical approaches and technologies in the educational process, improvement of teaching materials, increasing pupils' motivation, awakening their interest in language learning, as well as the importance of interdisciplinary approach are studied.

Key words: English language education, efficiency, quality, general Secondary Education Schools, teacher qualifications, interactive methods, modern technologies, motivation, communicative approach.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA SIFATINI YAXSHILASH YO'LLARI

Djalolov Furqat Fattohovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili ta'limi sifatini oshirish borasidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlarini tizimli ravishda tahlil qiladi. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchilarining professional rivojlanishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, o'quv materiallarini takomillashtirish, o'quvchilarda motivatsiyani oshirish, ularda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish hamda fanlararo yondashuvning ahamiyati kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili ta'limi, samaradorlik, sifat, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'qituvchilar malakasi, interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalar, motivatsiya, kommunikativ yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N105>

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili jahon miqyosida eng keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida ingliz tilini bilish zamonaviy insonning muhim ko'nikmalaridan biriga aylandi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Davlat tomonidan chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishni rag'batlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Xususan, o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emasligi, o'qituvchilarning kasbiy mahorati va tajribasi kamchiliklari,

zamonaviy o'quv adabiyotlari va texnologiyalarining yetishmasligi kabi omillar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayonidagi muammolarni bartaraf etish va ingliz tili ta'limi samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi hamda ularni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Birinchi, o'qituvchilarning kasbiy mahorati va malakasini oshirish zarur. Ko'plab o'qituvchilar zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalaridan yetarlicha xabardor emas, eski usullar bilan dars o'tishadi [Yusupova D., 2019, 125-bet]. Shuningdek, o'qituvchilarning ingliz tilini bilish darajasi ham turlicha. Ushbu muammolarni hal etish uchun o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslari, seminarlar tashkil etish, ularning xorijiy tajribalar bilan tanishishini ta'minlash lozim.

Ikkinchi, darslarni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etish muhim. An'anaviy grammatika-tarjima metodi o'rniga kommunikativ yondashuv, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, darslarni qiziqarli va samarali qiladi [Xudayberganova G., 2018, 27-bet]. Biroq, ko'plab maktablarda hali ham eski metodlar qo'llanilmoqda, zamonaviy vositalar yetarli emas. Ta'lim muassasalarini zarur texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qituvchilarga ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish talab etiladi.

Uchinchi, o'quv materiallari va adabiyotlarini takomillashtirish zarur. O'zbekistonda chop etilayotgan ingliz tili darsliklari va o'quv qo'llanmalari sifati va mazmuni bo'yicha zamonaviy talablarga to'liq javob bermaydi [Makhkamova G., 2018, 67-bet]. Ular o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasini yetarlicha hisobga olmaydi. Shuningdek, autentik materiallar, xorijiy nashrlar kam qo'llaniladi. O'quv adabiyotlarini yangilash, xalqaro tajribalardan kelib chiqib takomillashtirish, elektron resurslarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

To'rtinchi, ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq. Til o'rganishni boshqa fanlar bilan bog'lash o'quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, ularning aqliy salohiyatini rivojlantiradi [Yusupova D., 2019, 127-bet]. Atrofimizdagi olam hodisalarini o'rganishda ingliz tilidan foydalanish, loyihalar ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi metodlar samarali natija beradi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tizimini takomillashtirish ham dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalari, asosan, test sinovlari orqali baholanmoqda. Biroq, testlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini to'liq namoyon qila olmaydi [Richards J., 2015, 98-bet]. Baholashning turli usullarini, jumladan, og'zaki suhbat, esse yozish, loyiha taqdimoti kabi shakllarda ham qo'llash zarur.

Bundan tashqari, ingliz tili ta'limini rivojlantirishda ota-onalar va keng jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini inobatga olish lozim [Qodirov M., 2019, 12-bet]. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish, ularning hamkorligini ta'minlash o'quvchilarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. O'quvchilarda ingliz tiliga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning til o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshirish ham muhim jihatlardan biridir. Buning uchun darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish lozim [Aliyev A., 2020, 34-bet]. O'quvchilarni ingliz tilini o'rganishning amaliy ahamiyatini tushunishga, undan kundalik hayotda samarali foydalanishga undash zarur.

Ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot masalalariga ham alohida e'tibor qaratish kerak. O'quvchilarni xalqaro madaniyat va an'analar bilan tanishtirish, ularni turli xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlarini haqida ma'lumot berish, tolerantlik, o'zgalar fikrini hurmat qilish kabi fazilatlarni singdirish lozim [Hakimov H., 2017, 56-bet]. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarni globallashuv sharoitida yashashga, dunyoning istalgan mamlakatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Quyidagi jadvalda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili ta'limi samaradorligini oshirishning asosiy omillari va ularning tavsifi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Ingliz tili ta'limi samaradorligini oshirish omillari

Omillar	Tavsif
O'qituvchilar malakasi	O'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalari, pedagogik mahorati, innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi
O'quv jarayoni tashkil etilishi	Darslarning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi, zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalarining qo'llanilishi
O'quv adabiyotlari sifati	Darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mazmuni, tuzilishi, o'quvchilar ehtiyojiga mosligi
Ta'lim muhiti	Sinflar jihozlanishi, texnik vositalar bilan ta'minlanishi, o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilishi

Bundan tashqari, ingliz tili ta'limi sifatini baholashda qo'llaniladigan mezonlar ham muhim ahamiyatga ega. 2-jadvalda ingliz tili ta'limi sifatini baholash mezonlari va ularning qisqacha tavsifi keltirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili ta'limining yuqori sifat va samaradorligini ta'minlash uchun konseptual yondashuv, puxta o'ylangan strategiya va aniq yo'l xaritasiga ega bo'lish lozim. Ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlar va ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi va manfaatdorligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim shartidir.

2-jadval. Ingliz tili ta'limi sifatini baholash mezonlari

Mezonlar	Tavsif
Kommunikativ kompetensiya	O'quvchilarning ingliz tilida eshitish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari darajasi

Lingvistik kompetensiya	O'quvchilarning ingliz tili grammatikasi, leksikasi, fonetikasi bo'yicha bilimlari darajasi
Ijtimoiy-madaniy kompetensiya	O'quvchilarning ingliz tilini o'rganishda madaniyatlararo muloqot qobiliyati, xalqaro munosabatlar ko'nikmalari
O'quv-izlanuv kompetensiyasi	O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish, axborot bilan ishlash, izlanuv faoliyati ko'nikmalari

Muhokama. Yuqorida keltirilgan tahlillar va dalillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili fani o'qituvchilarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etish zarur [Jalolov J., 2015, 112-bet].

2. Darslarni tashkil etishda kommunikativ-kognitiv yondashuv, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [Saidaliev N., 2020, 45-bet].

3. Ingliz tili darsliklari vao'quv adabiyotlarini xalqaro standartlar va innovatsion metodikalar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir [Makhkamova G., 2018, 67-bet].

4. O'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida sinfdan tashqari ishlar, to'garaklar, tadbirlar tashkil etilishi zarur [Nuriddinova Y., 2016, 45-bet].

5. Ingliz tili ta'limi samaradorligini oshirishda davlat va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish, o'qituvchilar faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadga muvofiq [Passov Y., 2010, 34-bet].

Xulosa. Biz tahlil qilgan tadqiqotlar va mualliflarning fikrlarini umumlashtirar ekanmiz, ingliz tili ta'limini yanada takomillashtirish va uning sifati hamda samaradorligini oshirish borasida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega degan xulosaga kelish mumkin:

1. Ingliz tili ta'limini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

2. O'qituvchilarning kasbiy mahorati va malakasini uzluksiz oshirib borish, ularning faoliyatini rag'batlantirish [Jalolov J., 2015; Yusupova D., 2019].

3. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, texnologiya va vositalarni tatbiq etish [Saidaliev N., 2020; Xudayberganova G., 2018].

4. O'quv adabiyotlarining mazmuni, tuzilishi va sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borish [Makhkamova G., 2018; Richards J., 2015].

5. Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning samarali tizimini yaratish, xalqaro standartlarni joriy etish [Sattarov T., 2021; Qodirov M., 2019].

6. O'quvchilarda ingliz tiliga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni shakllantirish, samarali motivatsiya tizimini yaratish [Nuriddinova Y., 2016; Aliyev A., 2020].

7. Madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tilni o'rganishda madaniyat omilini kuchaytirish [Hakimov H., 2017; Passov Y., 2010].

8. Sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ta'lim va loyiha faoliyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonini hayot bilan bog'lash [Nuriddinova Y., 2016; Yusupova D., 2019].

9. Barcha manfaatdor tomonlarning ta'lim sifatini oshirishdagi ishtiroki va hamkorligini ta'minlash [Qodirov M., 2019; Scrivener J., 2011].

10. Ta'lim tizimidagi islohotlar va yangiliklarni keng targ'ib qilish.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Aliyev, A. (2020). O'quvchilarda ingliz tiliga bo'lgan qiziqishni shakllantirish omillari [Factors of forming students' interest in the English language]. *Xorijiy tillar [Foreign Languages]*, 3(2), 34-41.
2. Hakimov, H. (2017). Ta'lim tizimida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalalari [Issues of forming intercultural communication competence in the education system]. *Ta'lim muammolari [Problems of Education]*, 4, 56-61.
3. Jalolov, J. (2015). *Chet til o'qitish metodikasi [Foreign Language Teaching Methodology]*. Toshkent: O'qituvchi.
4. Makhkamova, G. (2018). *Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qitish metodikasi [English Language Teaching Methodology in General Secondary Schools]*. Toshkent: Baktria Press.
5. Nuriddinova, Y. (2016). O'quvchilarning ingliz tili bo'yicha sinfdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etish usullari [Methods of organizing students' independent extracurricular work in English]. *Pedagogika [Pedagogy]*, 4, 45-50.
6. Passov, Y. (2010). *Kommunikativnyy metod obucheniya inoyazychnomu govoreniyu [Communicative Method of Teaching Foreign Language Speaking]*. Moscow: Prosveshcheniye.
7. Qodirov, M. (2019). Ota-onalarning chet tili ta'limi jarayonidagi ishtiroki masalalari [Issues of parents' participation in the process of foreign language education]. *Ta'lim, fan va innovatsiya [Education, Science, and Innovation]*, 2, 12-18.
8. Richards, J. C. (2015). *Key Issues in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Saidaliev, N. (2020). Innovatsion texnologiyalar asosida ingliz tili o'qitish usullari [Methods of teaching English based on innovative technologies]. *Til va adabiyot ta'limi [Language and Literature Education]*, 10, 45-49.
10. Sattarov, T. (2021). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili ta'limini baholash va monitoring qilishning innovatsion usullari [Innovative methods of assessment and monitoring of English language education in general secondary schools]. *Pedagogik mahorat [Pedagogical Skills]*, 2, 45-52.
11. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching (3rd ed.)*. Oxford: Macmillan Education.
12. Xudayberganova, G. (2018). Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish [The use of information and communication technologies in the educational process]. *Xalq ta'limi [Public Education]*, 3, 27-31.
13. Yusupova, D. (2019). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qitishning dolzarb masalalari [Actual issues of teaching English in general secondary schools]. *Xorijiy filologiya [Foreign Philology]*, 3, 125-132.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

TECHNICAL SPECIFICS OF INTEREST OF STUDENTS IN FRENCH IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Niyazova Minara Bakhramovna,

Professor, Tashkent University of architecture and construction

m_niyazova@mail.ru

Abstract. Technique the search for new ways of improving education in higher education institutions is determined by the requirements of society, as a result of which traditional teaching methods are replaced by a competency-based approach. This article covers some aspects of interest of students in French in technical higher education institutions.

Keywords: Technology, French, social institutions, society and man, innovative educational technologies, motivation and style.

TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI FRANSUZ TILIGA QIZIQTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Niyazova Minara Baxramovna,

Professor, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Texnika oliy o'quv yurtlarida ta'limni takomillashtirishning yangi usullarini izlash jamiyatning talablari bilan belgilanadi, buning natijasida an'anaviy o'qitish usullari kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilan almashtiriladi. Ushbu maqolada texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarni fransuz tiliga qiziqtirishning ayrim jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, fransuz tili, ijtimoiy munosbatlar, jamiyat va inson, innovatsion ta'lim texnologiyalari, motivatsiya va uslub.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N106>

Kirish. Texnika oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'rgatadigan o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida nafaqat kelajakdagi mutaxassislikni egallashga, balki umuman hayotga dunyoqarash pozitsiyalari va munosabatlarini shakllantirish bo'yicha ishlar eng qiyin va mas'uliyatli hisoblanadi. Filolog o'qituvchilar talabaning ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bilan birga ilmiy bilimni mustahkamlab boradi.

O'quv mashg'ulotlari hissiyotlarni tarbiyalashga, ijtimoiy ahamiyatga ega his-tuyg'ularni shakllantirishga, irodani shakllantirishga yordam berishi kerak. Ta'limning har qanday shakli ratsional va hissiyotning o'ziga xos aralashmasidir. Agar ta'limning oqilona tomoni talabalarning bilim miqdorini o'zlashtirishga va ularni inson amaliyoti vositasi sifatida qo'llash ko'nikmalarini egallashga qaratilgan bo'lsa, unda hissiy tomon shaxsning ijtimoiy hissiyotlarini tarbiyalashga, mantiqiy fikrlash ta'sirini kuchaytirishga, ularni obrazlilik bilan boyitishga, shaxsiy tajribalar sohasiga kiritishga qaratilgan[1].

Shuni yodda tutish kerakki, yoshlarning dunyoqarashi qarama-qarshi, maqsadsiz bo'lishi mumkin va ilmiy qarashlar atrofdagi voqelik haqidagi kundalik tushunchalar va g'oyalar bilan o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Binobarin, o'quv jarayonida har bir o'quvchining dunyoqarash darajasini doimiy ravishda o'rganish, unga yosh, shaxsiy, ijtimoiy, etnik va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda individual ravishda yondashish kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar, birinchi navbatda, o'quvchining motivatsion-qiyamat sohasini shakllantirish uchun mutlaqo yangi vazifalarni ilgari suradi, bunda ularning bilim qiziqishini rivojlantirish ustuvor o'rin tutadi. Kognitiv qiziqishni rivojlantirishning boshlang'ich bo'g'ini uning umumiy ilmiy fanlarni o'rganishga kognitiv qiziqishni shakllantirishga qaratilgan. Aynan shu yerda zamonaviy mutaxassisning har tomonlama va uyg'un rivojlangan shaxsi sifatida talabaning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida ilmiy qarashlar va e'tiqodlarning ustunligi, atrofdagi voqelikni rivojlantirishning asosiy qonunlarini chuqur tushunish, mamlakat va dunyodagi voqealar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yetarli darajada baholash, uning rivojlanish tendensiyalarini tushunish bilan ajralib turadigan dunyoqarashning yuqori darajasi ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, insonparvarlik, rahm-shafqat, adolat va boshqalar kabi umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish lozim.

Daliliy materialdan foydalanganda o'qituvchilar uni taqdim etilgan matnga kiritishning ishonchligini, hajm va vaqt bo'yicha mutanosiblik tuyg'usiga rioya qilishni, turli xil uslubiy texnika va ko'rgazmali vositalardan, shu jumladan taqdimot shaklida axborot texnologiyalaridan foydalanishni hisobga olishlari lozim [2].

Oliy texnika o'quv yurtlarida talabalarga xorijiy tillar fanlarini o'qitishda bir necha innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin. Masalan, "Tanqidiy fikrlash", "Debatli uslub", "Kichik guruhlarda ishlash uslubi", "Aqliy hujum", "Klaster" uslubi, "Munozara", "FSMU texnologiyasi", "Baliq skeleti", "T-sxema jadvali", "Case study" kabi bir necha ta'lim texnologiyalari va uslublaridan, shuningdek boshqa turdagi uslublardan ta'lim-tarbiya tizimida keng qo'llash mumkin.

Jumladan, "Munozara", ya'ni dars jarayonlarini yoki boshqa suhbat, davra suhbatlari, uchrashuvlarni, biron-bir muhim muammo va masalalarni ob'ektiv hal etishda munozarali metoddan foydalanish ko'zlangan natijaga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metod yordamida talabalar, hatto o'qituvchilar ham muhokama etilayotgan mavzuni atroflicha, to'liq o'rganishligi uchun munozara jarayonida keng muhokama, munozara, tortishuv asosida muammoga tegishli ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ladilar[3]. Ushbu munozara uslubini o'tkazishda quyidagi tashkiliy sohalarga jiddiy e'tibor berish talab etiladi, chunki ushbu uslubda boshqa bir qator metodlar, ya'ni "Aqliy hujum" metodi bilan birgalikda foydalanib kichik guruhlar tuzilib, topshiriqlar berish uslublari parallel tarzda qo'llaniladi. Jumladan, mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi munozarani boshlashdan oldin mavzu tanlanib ishtirokchilarga e'lon qiladi, keyin o'qituvchi yoki tashkilotchi munozaraning "Aqliy hujum" shaklida talabalarga yoki ishtirokchilarga tartib, qoidalarni tushuntiradi. So'ng savollar e'lon qilinib, g'oya tariqasida – "kim tez javob beradi?" shaklida qisqa va tez javob berish, ya'ni "Blits so'rov" metodidan foydalanish taklif qilinadi. Ammo o'qituvchi yoki tashkilotchi ishtirokchilar tomonidan fikr va mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'ri aytilishidan qat'iy nazar tinglab bildirilgan hamma fikrlarni hisobga olinib boriladi. Muhokamaga hamma ishtirok etishi shart.

Munozara keskin tus olganda tartib, qoida buzilib “chegaradan” chiqishga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Mavzu muxokamasi munozara tarzida oxiriga yetsa, o‘qituvchi munozarani to‘xtatib tanaffus e‘lon qiladi. Ehtimol tanaffusgacha bo‘lgan vaqtni “birinchi bosqich” deb ham atash mumkin. Tanaffusdan keyingi mashg‘ulot ehtimol “ikkinchi bosqich” deb atab, mavzuga doir bildirilgan fikr, g‘oyalarni yakun qilib o‘qituvchi, tashkilotchi tomonidan bildirilgan fikr, g‘oyalarni taxlil qilib to‘g‘ri javoblarni e‘lon qiladi. Albatta bu uslub “Aqliy hujum”ga o‘xshab ketadi, o‘qituvchi, tashkilotchi muammo mavzuini e‘lon qilib, o‘zlarini munozarani tinglab turib yakunida to‘g‘ri fikr, g‘oyani e‘lon qiladi. Bu uslubdan foydalangan har bir o‘qituvchi guruxni kichik guruhlar bilan ishlash metodiga aylantirib yuborishi mumkin. Ushbu mavzuni muhokama qilish, ushbu munozarali uslubda hamma ishtirokchi bevosita ishtirok etib o‘z fikri va g‘oyasini bildirishga harakat qiladi.

Guruh a‘zolari orasida bu uslubning samarali jihati shundaki “passiv” ishtirokchi bo‘lmaydi. Fikrlar, g‘oyalar to‘g‘ri, yoki noto‘g‘rilaridan qat‘iy nazar hamma ishtirokchi “faol” ishtirok etib, haqiqiy, to‘g‘ri fikr va g‘oyani o‘qituvchi yoki tashkilotchi e‘lon qiladi va munozarali mashg‘ulotni yakunlaydi, ishtirokchilar bahosini e‘lon qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot yondashuvining shakllanishiga muammoli o‘qitish, o‘qituvchilarning fanlararo aloqalarni ko‘rsatishi, haqiqatni mustaqil ijodiy izlashga bo‘lgan munosabati yordam beradi.

Muammoli o‘qitish usulidan foydalanish o‘qituvchi va talabalar auditoriyasining o‘zaro ta‘sirini oshirishga imkon beradi. Muammoli ta‘lim - bu tayyor bilimlarni mexanik o‘zlashtirishdan farqli o‘laroq, muammoli vaziyatlarni yaratish orqali fikrlash mexanizmlarini o‘z ichiga olgan holda, muammolarni hal qilishga talabalarning qiziqishini uyg‘otadigan usullar tizimidir.

Muammoli vaziyat - intellektual qiyinchilik holati, tanlov qilish, qaror qabul qilish zarurati demakdir. Muammoli ta‘lim bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishni ham, bilish usullarini o‘zlashtirishni ham o‘z ichiga oladi va shaxsning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi[4].

Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari o‘quv materialining muammoli darajasiga, talabalarning mustaqil kunlarning ma‘lum bir turiga tayyorligiga bog‘liq.

Muammoli ta‘lim usuli quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- 1) bir nechta variantlardan javobni tanlash va uni asoslash;
- 2) nomuvofiqliklarni, qarama-qarshiliklarni aniqlash, hodisalarni, faktlarni taqqoslash va tushuntirish;
- 3) faktlar, hodisalarning xronologik ketma-ketligini aniqlash va tushuntirish;
- 4) tushunchalar va ularning ta‘riflari, shaxslar va ularning xatti-harakatlari, xronologiya va voqealar va boshqalarning muvofiqligini aniqlash va tahlil qilish;
- 5) nazariy qoidalar va ularni amalga oshirish amaliyoti o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish va boshqalar.

Hozirgi kunda radio va televideniya qo‘llanilayotgan uslublardan biri “ob‘ektiv muloqot” uslubi bo‘lib, dars mashg‘ulotlari jarayonida ham qo‘llanilsa talabalarni fanlarga qiziqishini oshirishda eng samarali va zeriktirmaydigan, faollikni oshiradigan uslublardan biridir. Bu uslubni ko‘plar “o‘z o‘rningni top” deb ham nomlashadi. Ya‘ni mavzuning munozarali muhokamasi davom etayotganda guruh alohida ikki guruhga bo‘linib oldin noto‘g‘ri fikr

bildirgan talaba yoki ishtirokchi, keyin o'z fikrining noto'g'riligini bilib, to'g'ri fikr aytgan guruhga borib qo'shiladi. Bu uslublar bevosita seminar mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

Shuningdek, bu uslubni tashkil etishda o'qituvchi yoki tashkilotchi mashg'ulot boshlanishida, darsning kirish qismida muammo mavzusi yoki predmet (fanning) mavzuidagi rejada ko'rsatilgan savollar e'lon qilinib, uni to'g'ri hal etish uchun turli xil yondashuvlardan foydalanishga ijozat berilishi, har bir talaba, tinglovchi yoki ishtirokchi o'z fikrini aytishi, munozara yoki muloqot jarayonida o'z xatosini tuzatilishi mumkinligi va dars mashg'ulotlari yakunida o'qituvchi, muammoning kim va kimlar (guruhlar mavjud bo'lsa) tomonidan to'g'ri aytilganligi yoki hech kim to'g'ri javob topaolmaganligini ham aytishni, to'g'ri javobni o'zlari aytishini mashg'ulot dars kirish qismida e'lon qilinadi va keyin esa dars mashg'uloti "ob'ektiv muloqot" uslubi asosida boshlanadi. Shu bilan birga ushbu uslubning o'ziga xos yana bir xususiyati borki, bunda darsni tashkil etish qoidalari, opponentlarning fikr, mulohazalari, bildirilgan g'oyalarning naqadar to'g'ri va noto'g'riligi ham muhokama qilinib, xulosa chiqariladi[5].

Muhokama. Dars, mashg'ulot oxirida o'qituvchi yoki tashkilotchi (boshqaruvchi) muloqot natijalarini yakunlab dars mashg'ulotining qanchalik ob'ektiv o'tganligini ta'kidlaydi, muloqotga ishtirok etib o'z fikr, mulohazalarini bildirganlarning ball-bahosini e'lon qiladi, mavzuning, javoblarning zamonaviyligi, dolzarbliligi, turmushga, hayotiy lahzalarga bog'langanligi, davlatimiz siyosatiga, xalqaro vaziyatga bog'langanligi jarayonlari ham mashg'ulot yakunida qayd etiladi. Shu sababli ushbu "ob'ektiv muloqot" uslubi zamonaviy original uslublardan biri bo'lib, bu uslubdan hamma fanlardan (nafaqat ijtimoiy fanlar) dars beruvchi pedagoglar foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, xorijiy tillarni o'qitishda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi innovatsion yondashuvning maqsadi:

- fikrlar, baholar, bilimlar, mulohazalar almashish;
- mustaqil, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o'rganilayotgan narsaga tanqidiy munosabat;
- o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni yanada oshirish;
- talabalarning mavjudotga bo'lgan munosabatini kechikkan muammolardan zamonaviylikning dolzarb masalalarini tezkor o'rganish;
- talabalarning darsning eng murakkab va muhim qoidalari tushunishlari to'g'risida ma'lumot olish uchun fikr-mulohazalarni taqdim etish[6].

Tavsiya etilgan o'quv nashrlaridan materialni tahlil qilish, asosiy va tanqidiy tushunishni aniqlash, lug'atlar va ilmiy ma'lumotnomalar yordamida mustaqil ravishda aniqlashtirish jiddiy ilmiy izlanishlar uchun zaruriy shartdir.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari ularning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadi, o'quv materiallarini ijodiy o'zlashtirishga, kasbiy muhim shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Albatta, talabalarning ilmiy ishlarida ishtirok etish ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga, ma'lumotlarni tahlil qilish va undan oqilona foydalanish qobiliyatiga yordam beradi. Talabalarning katta qismi ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etishni kelajakdagi kasbga tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida ko'rish kerak.

Oliy ta'limda o'qishga tayyorgarlik jarayonida chet ellik talabalarga quyidagilar o'rgatiladi:

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni eshitish orqali tushunish;

- fransuz tilida taqdimotlar va og'zaki ma'ruzalar qila olish;
- insholar, kurs ishlari, diplom va magistrlik ishlarini yoza olish;
- o'z mutaxassisligi bo'yicha so'z boyligini bilish;
- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar paytida eslatma olish imkoniyatiga ega bo'lish;
- fransuz tilida matematik formulalar, grafikalar, diagrammalar, jadvallar va boshqalarni o'qiy olish;

- o'qituvchining tarqatma materiallari va taqdimotlarini o'qiy olish; o'rganilayotgan materialni tahlil qilish, rezyume yaratish va matnlarni sintez qilish imkoniyatiga ega bo'lish;

- rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimini, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, imtihonlar, ilmiy va sanoat amaliyotlarini o'tkazish tuzilishini tushunish;

- universitetning turli tuzilmalarida (bo'limlarda) muloqot qila olish, xalqaro faoliyat boshqarmasida) va boshqalar.

Hozirgi kunda bir qator oliy o'quv yurtlarida talabalarga xorijiy tillar fanlaridan dars berishi jarayonida, ularning fanlarga qiziqishini uyg'otadigan uslublardan tashqari kundalik uchrashuvlarda, o'tkazilayotgan tadbirlarda, yig'ilish va anjumanlarda, teleradio ko'rsatuv va eshittirishlarda, davra suhbatlarda, konsultasiyalar, dialog-seminarlarda ko'rik tanlov va iqtidorli talabalar bilan ishlashda ko'plab turli xil uslubiy, holatlardan foydalanilmoqda. Shu sababli quyidagi tahlil qilinadigan uslubiy holatlardan foydalanishni o'quv jarayoniga tavsiya qilishdan ham maqsad talabalarga sifatli, natijali ta'lim va tarbiya berishdan, kelajakda Vatanimizga sadoqatli, bilimli, komil insonli kadrlar tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir[7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fransuz tilini o'qitish talabalar bilan nazariy, amaliy, insoniy tajribalarini erkin suhbat shaklida g'ayrat bilan baham ko'rish zarurati, uning shaxsiy xususiyatlarini, muhokama qilinayotgan muammolarga individual qarashlarini aks ettirish, o'qitishning innovatsion usullarini keng qo'llash, gumanitar va texnik ta'limning organik aloqasini ta'minlash lozim.

Shunday qilib, ikkinchi chet tilida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish o'qituvchi tomonidan yangi grammatik hodisalarni tushuntirishda, yangi leksik birliklarni kiritishda, nutq harakatlarining sotsiolingvistik va ijtimoiy-madaniy kontekstini tavsiflashda qarama-qarshi-qiyosiy yondashuvdan foydalanish tufayli yanada muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Talabaning ikkinchi chet tilini o'zlashtirish bo'yicha o'z tajribasi va pedagogik universitet sharoitida o'qituvchining uslubiy harakatlari to'g'risida xabardorligi kelajakdagi o'qituvchilarni didaktik tayyorlashga ham ma'lum hissa qo'shishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan fransuz tilini o'zlashtirishning muvaffaqiyati o'quv jarayonining uslubiy jihatdan malakali qurilishi bilan ta'minlanadi. Bir tomondan, ikkinchi chet tilini o'zlashtirishning psixologik va pedagogik xususiyatlarini biladigan va bir xil toifaga mansub tipologik o'xshash va bir-biriga o'xshamaydigan hodisalarni, boshqa tomondan uchta aloqa tillarini qiyosiy tahlil qila oladigan o'qituvchi o'quv jarayonini samarali tashkil qilishi mumkin.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Bakramovna N. M. AIMS AND OBJECTIVES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN A NON-LINGUISTIC UNIVERSITY //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 6. – С. 3535-3543.
2. Durdas A. Higher education in France: historical development //The Modern Higher Education Review. – 2018. – Т. 3. – С. 26-32.
3. Duru-Bellat M. Access to higher education: The French case. – 2015.
4. Семушина Е.Ю., Валеева Э.Э., Крайсман Н.В. Обучение иностранному языку в технологическом университете с целью интеграции в международное инженерное сообщество // Проблемы современного педагогического образования. 2018. № 60-1. С. 257-261.
5. Крайсман Н.В. ИНТЕГРАЦИЯ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ВО ФРАНЦУЗСКИЕ УНИВЕРСИТЕТЫ (ОБЗОР ФРАНЦУЗСКИХ ВУЗОВ) // Современные проблемы науки и образования. – 2021. – № 6.
6. Тюваева Е. В. Открытие центра французского языка в техническом вузе //Современные технологии в науке и образовании–СТНО-2016. – 2016. – С. 159-161.
7. Флеров О. В. Особенности преподавания второго иностранного языка в нелингвистическом вузе //Современное образование. – 2015. – №. 1. – С. 1-25.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF VIRTUAL LABORATORIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN HIGHER EDUCATION

Amrillayev Husniddin Ashrab ugli

Samarkand State Institute of foreign languages, senior lecturer

Abstract. In this article, the organization of the course process using imitation models, which reveal the internal and external properties of practical classes based on a virtual laboratory in higher education institutions today, leads to an increase in the effectiveness of the educational process of Higher Education.

Keywords. Virtual, imitation, demo, frontal imitation, 3D graphics, animation, cloud technology, digital lab, virtual lab.

OLIY TA'LIMDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Amrillayev Husniddin Ashrab o'g'li,

Samarqand davlat chet tillar instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida virtual laboratoriya asosida amaliy mashg'ulotlarni ichki va tashqi xossalarni ochib beradigan imitatsion modellar yordamida dars jarayonini tashkil qilish, oliy ta'lim o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi.

Kalit so'zlar. Virtual, imitatsiya, demo, frontal imitatsiya, 3D grafika, animatsiya, bulutli texnologiya, raqamli laboratoriya, virtual laboratoriya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N107>

Mamlakatimizda virtual ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida virtual laboratoriyalar yaratish, o'quv jarayoniga joriy etish ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida belgilangan. Virtual laboratoriyalar yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar oliy ta'limda o'qitiladigan biologiya yo'nalishidagi fanlardan AKT vositalaridan foydalanib laboratoriya mashg'ulotlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Oliy ta'lim tizimida biologiya yo'nalishida "Individual rivojlanish biologiyasi" fani mavzularini kompyuter imitatsion modellar (KIM) yordamida virtual laboratoriyalarini ishlab chiqish asosida o'qitish metodikasini yaratish va ta'lim jarayoniga joriy etish, multimediali elektron darsliklar hamda virtual laboratoriyalardan foydalanib zamonaviy o'qitishning shakl, usul va metodik vositalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir

2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni va 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-296-son Farmonlari va 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada

takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarorlari qabul qilingan.

Virtual laboratoriya talabalarning haqiqiy tajribaga bo'lgan qiziqishini oshirishi, tadqiqot va tajriba ko'nikmalarini rivojlanish, ya'ni umumiy va o'ziga xos qoidalarga rioya qilish, eksperimentni o'tkazish uchun maqbul algoritmlarni tanlash, kuzatish, asosiy qoidalarni ta'kidlash, muhim o'zgarishlarga e'tibor berish qobiliyati rivojlantirish kabi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, virtual laboratoriyalardan foydalanish o'qituvchiga bir qator qiyin vazifalarni qo'yadi. Birinchidan, ko'pgina virtual laboratoriya ishlarida haqiqiy ishlardagi ko'nikmalar ishlab chiqilmaganligi bois o'qituvchi laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun-mohiyatini va uning ichki, tashqi xossalarini ko'rsatib beradigan algoritmlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, o'qituvchi (agar model juda murakkab va chindan ham interaktiv bo'lsa) model va u bilan ishlash qoidalarini o'rganishga ko'p vaqt sarflashga to'g'ri keladi.

Uchinchidan, talabalar faoliyatini tartibga solish zarur, aks holda interfaol model bilan ishlash uchun to'g'ridan-to'g'ri va bosqichma-bosqich olib borgan amaliy ishlari besamar ketishi mumkin.

Haqiqiy laboratoriya ishlarida bo'lgani kabi, virtual laboratoriya ham tadqiqot ko'nikmalarini o'rgatishga mo'ljallangan bo'lishi lozim:

-gipotezalar va ularni sinash, shartlarni standartlashtirish, tajriba shartlari va natijalarini aniq belgilash (avval o'qituvchi tomonidan tayyorlangan jadvallarda, bosma yoki elektron shaklda), mezonlarni, natijalarni taqdim etish formatini tanlash va nihoyat mustaqil tadqiqot ishlarini rejalashtirish;

Tanqidiy fikrlash arsenalidan ilmiy modellarning qo'llanilishi chegaralarini (maydoni, shartlari) belgilash, shu jumladan, modellashtirilganlarda haqiqiy hodisaning qaysi jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlash.

Virtual laboratoriyalarni quyidagi mezonlarga ko'ra ajratish mumkin:

1. Ta'lim komponentini yetkazib berish usuli bo'yicha:

- CD - larda; internetga joylashtirilgan.

2. Amaldagi laboratoriya uskunalari bo'yicha:

- imitatsion matematik modellari asosida;

- haqiqiy laboratoriya uskunalari asosida;

- sanoat obyektlari asosida.

3. Vizualizatsiya usullari bo'yicha:

- ikki o'lchovli yoki uch o'lchovli grafikalar;

- animatsiya;

- video.

Virtual laboratoriya ishlaridan darsdan foydalanish shakllarini tasniflash:

- demo (haqiqiy ishdan oldin) foydalanish-old tomondan, katta ekrandan yoki multimedia proyektori orqali, haqiqiy ish harakatlarining ketma-ketligini ko'rsatish;

- frontal (namoyish, savollarni aniqlashtirish, xulosalarni shakllantirish va ko'rib chiqilganlarni birlashtirish) yoki individual (tajribalarning matematik tomoni, grafika va raqamli qiymatlarni tahlil qilish, modelni haqiqatni aks ettirish va ifodalash usuli sifatida o'rganish) usullari; eksperimental (haqiqiy ish o'rniga) foydalanish-individual (kichik guruhlarda) virtual laboratoriyada vazifalarni haqiqiy ish, kompyuter eksperimentisiz bajarish.


O'qituvchilar olib borgan darslar tahlili shuni ko'rsatdiki, biologiya fanini o'qitish amaliyotida yuqoridagi variantlarning barchasi qo'llaniladi [1].

T. Kupryashkinaning "Virtualnie imitatsionnie laboratorii" nomli taqdimotida bugungi kunda o'quv jarayonida elektron ta'lim resurslarini (ETR) ishlab chiqish va ulardan foydalanishga katta e'tibor berilganligi. ETR larni ishlab chiqishda multimedia va ulardan o'quv jarayonida foydalanish samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishi, talaba va kompyuter o'rtasidagi to'liq aloqa rejimini amalga oshiradigan yuqori darajadagi interaktivlikka ega bo'lgan elektron ta'lim resurslar yoshlarni o'quv materialni o'zlashtirish va kognitiv va ijodiy faoliyatni shakllantirishga qiziqishini rivojlantirishga yordam berishi ta'kidlangan [2].

O'quv jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish obyektlar va jarayonlarini modellashtirishga, haqiqiy laboratoriya uskunalariga kompyuter analogini imitatsiya qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalardan foydalanish fizika, kimyo, biologiya, ekologiya va boshqa fanlarni o'qitishda muhimdir.

O'quv jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish, bir tomondan, talabaga maktab laboratoriyasida bo'lmagan uskunalar va materiallar bilan tajriba o'tkazish, bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, noyob qimmatbaho obyektning kompyuter modeli bilan batafsil tanishish, yong'in va portlovchi jarayonlar va hodisalarni o'rganish imkoniyatini beradi. Boshqa tomondan, virtual laboratoriya doirasida mavjud laboratoriya uskunalar va jihozlarini kompyuter asosida tashkil etish an'anaviy maktab fizikasi yoki kimyoviy laboratoriyasini fan va texnologiyaning hozirgi rivojlanish darajasiga mos keladigan texnologiyaning yangi darajasiga o'tkazish imkonini beradi [3]. (1-rasmga qarang).

Virtual laboratoriyalar-bu o'quv materialining, multimedia o'quv va ilmiy laboratoriyalarida virtual o'quv muhitini real sharoitlarda maksimal darajada taqlid qiladigan yuqori samarali o'qitish usulidir.



1-rasm. Ma'lumotlarni qabul qilishning mantiqiy sxemasi

Virtual laboratoriyaning quyidagi afzalliklari va kamchiliklari qayd etilgan.

«+»virtual laboratoriya

«-» virtual laboratoriya

Motivasiyani oshiradi.

1. Miqdorlarni o'lchashda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

2. Sifat yaxshilandi.

3. Hech qanday sezgir hislar yo'q.

4. Auditoriyadagi o'yin tabiati mavjud.

5. Talabalar uchun individual o'quv kursi imkoniyati yaratilgan.

6. Uskunaning yetishmaslik imkoniyatini almashtirish mumkin.

7. O'qituvchining darsdagi vaqti tejaladi.

8. Xavfsizlik oddiy laboratoriya sharoitlarga qaraganda yuqori.

9. Har bir darsdan oldin o'rnatishni qayta yig'ishning hojati yo'q, asboblarni tekshirishga vaqt ajratilmaydi.

10. Qisqa vaqt ichida turli xil boshlang'ich sharoitlarda bir nechta eksperimentlarni o'tkazish, so'ngra natijalarni umumlashtirish va xulosa chiqarish mumkin.

11. Oddiy sharoitlarda mumkin bo'lmagan tajribani amalga oshirish mumkin (masalan, jarayon uzoq muddatli bo'lsa yoki maxsus qurilmalarni talab qilsa).

Shunday qilib, virtual laboratoriyalarining vazifalari talabalarning ijodiy tafakkuri va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy masalalarni hal qilish, mustaqil xulosalar chiqarish, virtual laboratoriya komplekslari va imitatsiyalari haqiqiy o'quv jarayoniga to'liq mos kelishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin [4].

Talabalar o'zlari uchun qulay vaqtda, ta'lim tashkilotidan vaqt va hududiy masofa bilan cheklanmasdan, amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda shakllantirishlari mumkin. Virtual laboratoriyalarni yaratishning maqsadlaridan biri o'rganilayotgan jarayonlarni, vazifalarni har tomonlama vizualizatsiya qilish istagi - talabalarga o'rganilayotgan jarayonlarni to'liq idrok etish, tushunishni ta'minlashdan iborat. Virtual laboratoriyalar real ishlab chiqarish sharoitida asboblar yoki zarrachalarning kichik o'lchamlari tufayli farqlash qiyin bo'lgan, vaqt va resurslarga bog'liq bo'lmagan jarayonlarni kuzatish, xavfsizlik choralari e'tiborda qoldirmasdan eksperimentlar parametrlarini o'zgartirish va malakasini shakllantirish imkonini beradi. Virtual eksperimentlar, ya'ni interaktiv laboratoriya ishlari onlayn resurslarda yoki bir qator maxsus disklar orqali amalga oshirilishi mumkin. Talabalarning virtual laboratoriyadagi faoliyati tadqiqot qobiliyatlarini shakllantirish uchun foydalidir. Tajribalarning vizual namoyishi o'quvchilarning jarayonga aralashuvining vizual effektini yaratuvchi dasturiy ta'minot orqali amalga oshiriladi. Talabalarning kompyuter dasturi bilan o'zaro munosabatlarining chuqurligi interaktivlik bilan tavsiflanadi, shuning uchun dastlabki bosqichda interaktivlik yakuniy bosqichga nisbatan ahamiyatsiz bo'ladi. Virtual laboratoriyalarni yaratish 3D grafika, animatsiya va videokliplarga asoslangandir. Virtual o'lchash asboblari tajriba natijalari va borishini kuzatish imkonini beradi. Talabalar o'zlarini qulay vaqtda, vaqt bilan cheklanmasdan mustaqil ravishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishlari mumkin [5].

Ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, masofaviy ta'limda ularning o'rni beqiyosdir. Bu haqda M.A. Belov, A.V. Sorokin olimlarning maqolalarida asosli ravishda

dalillar keltirilib o'tilgan. Ushbu ishlar o'quv jarayonida virtual laboratoriyalar bilan birgalikda bulutli hisoblash paradigmasini ko'rib chiqadi. Bulutli hisoblash bugungi kunda IT bozorining eng istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. "Bulutli" - bu Internet orqali taqdim etiladigan xizmat sifatida tashqi hisoblash resurslaridan foydalanishning dinamik ravishda kengaytiriladigan usuli. Shu bilan birga, foydalanuvchiga "bulut" infratuzilmasi haqida hech qanday maxsus bilim yoki ushbu "bulut" texnologiyasini boshqarish ko'nikmalari kerak emas. Buyurtmachi firmalar uchun ularning dasturiy ta'minoti aynan "o'z hududida" joylashganligi unchalik muhim emas. Biznes-jarayon xizmatlarini "bulutli muhit" ga olib kirish orqali kompaniyalar aniq afzalliklarga ega bo'ladilar - bu o'zlarining IT-resurslariga bo'lgan talablarning qisqarishi va natijada xarajatlarni oqilona boshqarishdir. Bu yo'nalish shubhasiz istiqbolli, buning ko'p yillik faoliyati dalolat beradi [6]

O.M. Voronsova ning "Ispolzovanie virtualnix laboratoriy na urokax biologii" nomli maqolasida biologiya fanidan o'quv predmeti doirasidagi laboratoriya va amaliy ishlar ko'pligi, interfaol ishlardan foydalanish laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalanish va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini egallashga hamda tabiatshunoslik bilimlarini shakllantirishga yordam beradi. Virtual laboratoriyalarga misol <http://www.virtulab.net>. Bu laboratoriya ishlari dars jarayonida ma'ruza materiallariga qo'shimcha sifatida, masofaviy o'qitish uchun, ilmiy ishlarda ko'rsatilishi mumkin. Mobil sinfdan foydalanish orqali keng imkoniyatlar taqdim etiladi. Virtual ta'lim resurslarining yana bir misoli <https://globallab.org>. "Vizual" biologiya tabiiy obyektini almashtiradi, bu sizga tajribalar natijalarini kafolat bilan olish, tirik organizmlarga zarar yetkazmaslik va tajriba vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Virtual ishdan foydalanish ta'lim jarayoniga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda dolzarbdir. Bunday resurslardan oraliq attestatsiya, yakuniy nazorat tadbirlari, loyiha faoliyati va uyda ta'lim o'tkazishda ham foydalanish mumkin [7].

Raqamli laboratoriyalarning afzalliklari:

- An'anaviy o'quv tajribalarida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni olish
- Tajriba natijalarini qulay qayta ishlash imkoniyati.
- Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashni avtomatlashtirish talabalarning vaqtini va kuchini tejaydi va diqqatni o'rganishning mohiyatiga qaratish imkonini beradi.
- Tajriba-tadqiqot ishlari jarayonida talabalarning faol ishi orqali fizika, kimyo va biologiya fanlaridan bilim darajasini oshirish.
- Talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish.

Biologiya o'qituvchilari o'z o'quvchilarining o'quv jarayonini tashkil qilishda uni qiziqarli va foydali o'tkazish yo'llarini izlaydilar. O'quv materialini o'zlashtirishdagi amaliy ish ta'limdagi nazariy qismdan kam ahamiyatga ega emas, chunki faqat to'g'ridan-to'g'ri faoliyat orqali, laboratoriyada tadqiqot ishlari orqali maktab o'quvchilarini mash'al kabi yoqish mumkin [8].

Tahlil qilingan ilmiy-tadqiqotlar ishlarining mazmun-mohiyatidan, oliy ta'lim muassaslarida dars jarayonini tashkil qilishda virtual laboratoriyalardan foydalanish ayrim olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida qisman tadqiq etilgan bo'lib, to'liq bir predmet asosida virtual laboratoriyalarni qamrab olgan ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilmaganligini ta'kidlash lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida virtual laboratoriya asosida amaliy mashg'ulotlarni ichki va tashqi xossalarini ochib beradigan imitatsion modellar yordamida dars jarayonini tashkil qilish, oliy ta'lim o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Anne Davis. Virtual Reality Simulation: An Innovative Teaching Tool for Dietetics Experiential Education. *The Open Nutrition Journal*, 2015, 9, (Suppl 1-M8) 65-75.
2. H.A.Amrillayev. Oliy ta'lim muassasalarida individual rivojlanish biologiyasi fanining laboratoriya mashg'ulotlarini virtual laboratoriya asosida takomillashtirish metodikasi. / *Fizika, Matematika va Informatika jurnali*. 2023/2/1. Toshkent-2023-y, 27-35 bet.
3. Kupryashkina T., *Virtualnie imitatsionnie laboratorii. Prezentatsiya*. 2019-g.
4. Lutfillayev M.X., Amrillayev H.A. Development of computer simulation model develops creative thinking of the student / *International Journal of General Engineering and Technology (IJGET)* ISSN(P): 2278-9928; ISSN(E): 2278-9936, Vol. 9, Issue 5, Jul-Dec 2020-y; 9-14-bet.
5. Mo'minov S.M. -Ta'limda internet resurslaridan foydalanishning ahamiyati. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi: amaliyot va istiqbollar. Toshkent 2018. (49-s).
6. Nikulina T.V., Starichenko E.B., *Virtualnie obrazovatelnie laboratorii: prinsipi i vozmojnosti. Pedagogicheskoe obrazovanie v rossii*. 2016. № 7. 62-63 str.
7. Puxova I.B., *Ispolzovanie na urokax biologii virtualnix laboratornix i prakticheskix rabot. Statya*. 2020.
8. Voronsova O.M., *Ispolzovanie virtualnix laboratoriy na urokax biologii. Statya*. 11.10.2020

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

ADAPTIVE MECHANISMS OF SPORTS TRAINING PROCESSES

Boboyeva Zarifa Jahankulovna

Master's degree in adaptive health, physical education and sports specialization, Bukhara State University

Abstract. The article discusses pedagogical, medical and biological types of control based on experimental data conducted in the countries of the Near Commonwealth of Independent States, specific corrective approaches to managing the training load using a rapid diagnostic control system aimed at assessing the functional state of children. athlete, training of athletes. The dynamic characteristics of adaptation mechanisms are analyzed in terms of reserve capabilities, as well as the performance of the cardiovascular and nervous systems. In the experimental group, positive dynamic changes in physical, functional and technical indicators were revealed with a fairly high effectiveness of correctional training loads on the athletes' body ($p < 0.01$).

Key words: express control, index, functional state of the athlete, physical activity, diagnostic control, orthostatic test, clinical test, autonomic nervous system, accuracy of movements, blood pressure.

SPORT TAYYORGARLIK JARAYONLARINING ADAPTIV MEXANIZMLARI

Boboyeva Zarifa Jahonqulovna

Buxoro davlat universiteti, Adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi magistranti

Annotasiya. Maqolada yaqin hamdo'stlik davlatlarida o'tkazilgan tajribaviy ma'lumotlarga asoslangan pedagogik, tibbiy-biologik nazorat turlari, sportchining funksional holatini baholashga qaratilgan tezkor diagnostik nazorat tizimini qo'llash orqali trenirovka yuklamalarini boshqarishning o'ziga xos korreksion yondashuvlari, sportchi atletlarning o'quv-mashg'ulot jarayoni va funksional holatini, yurak-tomir va asab tizimi ishchanligini cheklovchi zaxiraviy imkoniyatlari bo'yicha adaptiv mexanizmlarining dinamik xususiyatlari tahlil etilgan. Tajriba guruhida sportchilari organizmiga korreksion mashg'ulot yuklamalarining yetarlicha yuqori ta'sir samaradorligi bilan jismoniy, funksional va texnik ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy dinamik o'zgarishlar aniqlangan ($r < 0,01$).

Kalit so'zlar: tezkor nazorat, indeks, sportchining funksional holati, jismoniy yuklama, diagnostik nazorat, ortostatik sinama, klinistatik sinama, vegetativ asab tizimi, harakat aniqligi, arterial qon bosim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N108>

Kirish. Yuqori natijalar sportining jismoniy va psixoemotsional yuklamalarining doimiy o'sib borishi inson faoliyatining ekstremal turiga aylantirib ulgurdi. Har qanday yangi rekord va tayyorgarlik vazifalari sportchilardan organizm tizimlarining maksimal chegaraviy funksional safarbarligini talab etadi. Sport turlarining organizm imkoniyatlariga adekvat bo'lgan og'irlik mashqlari natijasida, gavda qismlarini mutanosib va to'g'ri rivojlantirish, sportchi organizmining organ va tizimlarini ekstremal faoliyatga tayyorlaydi. Shiddat bilan rivojlanib boruvchi zamonaviy sport arenasi, xususan, sportchi atletlarning funksional holati

bilan bog'liq bo'lgan, yuqori sport yutuqlariga munosib texnik va jismoniy (kuch) tayyorgarliksiz erishib bo'lmasligi e'tirof etilmoqda [5,123., 6,32.,7, 150].

Mahalliy va xorijiy sport tibbiyoti maktablari muntazam, uzoq muddatli professional sportning sportchi organizmiga ta'sirini o'rganishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu tadqiqotlardan maqsad sportchilarning adaptatsiya zaxiralari va funksional holatini o'rganishdan iborat bo'lib, real sport tayyorgarlik jarayonlariga imkon qadar yaqinroq bo'lgan sinovlarga ko'proq e'tibor qaratmoqda [1,716].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida, sportchining funksional holatini baholashga qaratilgan tezkor diagnostik nazorat tizimini qo'llash orqali trenirovka yuklamalarini boshqarishning o'ziga xos korreksion yondashuvlari amalda qo'llangan. Trenirovka yuklamalarini korreksiyalash uchun sportchining funksional holat indeksi (keyingi o'rinlarda SFHI) ishlab chiqilgan va obyektiv asos sifatida qabul qilingan. Pedagogik tajriba jarayonida SFHIga asoslangan, korreksiyalangan trenirovka yuklamalarining tajriba guruh sportchilari tomonidan tayanch musobaqa mashqlari (shtangani yelkada olib o'tirib-turish, moslamada yotgan holatda shtangani ko'tarish, turgan joyda gavda bilan shtangani tortish) natijalariga ta'sirini o'rganishdan iborat. Tajriba rejasiga ko'ra, tayyorlov davrining barcha trenirovkalari boshi va oxirida sportchilar funksional holatining tezkor nazoratlarini amalga oshirish, trenirovka yuklamalarini maqsadli korreksiyalashning keng imkoniyatlarini yaratdi.

Pedagogik tajribani rejalashtirish va o'tkazishda: birinchidan, sportchi atletlarning funksional imkoniyatlarini tezkor aniqlashning diagnostik usullarini qo'llash; ikkinchidan, sportchi atletlar organizmining holati to'g'risida diagnostik ma'lumotlarni o'z vaqtida aniqlash asosida o'quv-trenirovka jarayonini korreksiyalash orqali, ular salomatligini mustahkamlash va sport natijalarini oshirish vazifalari belgilangan

Adabiyotlar tahlili. SFHI ga asoslangan tezkor nazorat jarayonlarida besh turdan iborat tibbiy diagnostik testlar qo'llanilgan: ortostatik, klinostatik, ashner, harakat aniqligi va tezkorligini aniqlash sinamaları va arterial qon bosim darajasi (yurak tomir tizimining sistolik komponenti) aniqlash metodikasi [2,19]:

1. Ortostatik sinama (vegetativ asab tizimining holati) metodikasi [3, 65.,4, 163]:

Atletning gorizontal holatdan vertikal holatga o'tishida yurak-tomir qisqarishi (YuTQ) va arterial bosim o'zgarishini tahlil qilish. Ikki-uch daqiqali dam olishdan keyin 15 soniya ichida yurak-tomir qisqarish soni hisoblanadi. YuTQ ning 8-12 martagacha o'sishi - sinamaning me'yoriy ko'rsatkichi. Indeks bahosini ballarda ifodalash qulayligi uchun 0,8 dan 1,2 me'yor muvofiqlikda olinadi.

2. Klinostatik sinama (vegetativ asab tizimining holati) metodikasi:

Atletning vertikal holatdan gorizontal holatga o'tishida yurak-tomir qisqarishi (YuTQ) va arterial bosim o'zgarishini tahlil qilish. Ikki-uch daqiqali dam olishdan keyin 15 soniya ichida yurak-tomir qisqarish soni hisoblanadi. YuTQ ning 4-12 martagacha pasayishi - sinamaning me'yoriy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Indeks bahosini ballarda ifodalash qulayligi uchun 0,4 dan 1,2 me'yor muvofiqlikda olinadi.

3. Ashner sinamasi (vegetativ asab tizimining holati) metodikasi:

YuTQ dastlabki va qayta 15 soniyadan keyin (2-3 daqiqali interval va ko'z qobig'ini ohista bosish bilan) o'lchovlari amalga oshiriladi. YuTQ ning 5-12 martagacha sekinlashuvi - sinamaning me'yoriy ko'rsatkichi. Indeks bahosini ballarda ifodalash qulayligi uchun 0,5 dan 1,2 me'yor muvofiqlikda olinadi.

4. Harakat aniqligi va tezkorligini aniqlash sinama (asab-mushak apparatining periferik sensomotorikasi) metodikasi: Bir daqiqali dam olishdan keyin, 15 soniya davomida, qog'ozda o'zaro teng masofali aylana shakllarini chizishdan iborat. Natijani baholash uchun chizilgan shakllar soni hisoblanadi. Aylanalar soni 12 dan 15 tagacha sinamaning me'yoriy ko'rsatkichi. Indeks bahosini ballarda ifodalash qulayligi uchun 1,2 dan 1,5 gacha me'yor cheklanib olinadi.

5. Arterial qon bosim darajasi (yurak tomir tizimining sistolik komponenti) aniqlash metodikasi: Testlashda monometr o'lchov asbobi vositasida trenirovkagacha va undan keyin (2-3 daqiqadan kech qolmasdan) darhol sistolik bosim aniqlanadi. Trenirovka oldi va keyingi sistolik bosim ko'rsatkichlari orasidagi farq 10-20 mm.sim.ust. dan oshmasligi kerak. Indeks bahosini ballarda ifodalash qulayligi uchun 1,0 dan 2,0 me'yoriy ko'rsatkichga moslashtiriladi.

Pedagogik Tajribaning SFHI ga asosan o'tkazilgan dastlabki nazorat o'lchovlarida yurak-tomir, kardio-respirator va asab-mushak tizimlari holatini va bevosita emotsional va jismoniy yuklamalarning qaytar aloqa mexanizmlarini tahlil etish maqsadida sinamalar bo'yicha ballar yig'indisi hosil qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularni tahlil qilish. Ishlab chiqilgan SFHI sinamalari (tibbiy-pedagogik testlar: ortostatik, klinostatik, ko'z-yurak va praksimal (harakat aniqligi va tezkorligi, arterial bosim (sistolik)) ga asoslangan tezkor nazorat tizimini trenirovka boshi va oxirida qo'llashning maqsadga muvofiqligi ko'rsatiladi.

Taklif etilayotgan indeks me'yori 3,9-7,1 chegarani (yuklamaga adekvat moslashuv) tashkil etadi. 7,1 dan yuqori indeks (ball) atletning past tayyorgarlik darajasi, yoki oldingi haddan ziyod yuklama ta'siri, vegetativ asab tizimining o'ta qo'zg'aluvchanligini ko'rsatadi va trenirovka jarayonida kamaytirilgan individual yuklama tavsiya etiladi. Agar SFH indeksi 3,9 balldan past bo'lishi, sportchi organizmining somatik kasalliklari, yoki vegetativ asab tizimidagi jiddiy chekinishlarini ko'rsatadi va yuklamali mashg'ulotlarni darhol to'xtatib qo'shimcha tekshiruvlarni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik tajriba davrining Tajriba va nazorat guruhlarida SFHI ko'rsatkichlari yig'indisidagi o'zgarish xususiyatlarini tahlil qilishdan ma'lum bo'ldi-ki, Tajriba guruh sportchilari organizmiga korreksion mashg'ulot yuklamalarining yetarlicha yuqori ta'sir samaradorligi bilan maksimal va submaksimal yuklamaning salbiy ta'sirlarini yumshatishga imkon yaratildi. Tajriba o'zgaruvchanlik ta'sirida sportchilar organizmining trenirovka va musobaqa yuklamalariga barqarorligi oshganligi sababli, jismoniy, funktsional va texnik ko'rsatkichlarining rivojlanishi ta'minlandi. Tajriba guruh sportchilarining funktsional holat ko'rsatkichlar statistik ishonchli yaxshilandi ($r < 0,01$).

Jadval .1

Tajriba va nazorat guruh sportchilarning tajriba oxiridagi tibbiy-pedagogik test ko'rsatkichlari yig'indisi

№	Test	n	Guruhlar	M±m	W	T	Statik xulosa
1	Ortostatik sinama, ballar	17	Nazorat	1,41±0,03	136	-	P ≤ 0,001
		17	Tajriba	0,98±0,02			
2	Klinostatik sinama, ballar	17	Nazorat	1,38±0,03	140	-	P ≤ 0,001
		17	Tajriba	0,87±0,04			
3	Ko'z-yurak sinama, ballar	17	Nazorat	0,82±0,03	21	-	P > 0,05
		17	Tajriba	0,78±0,05			
4		17	Nazorat	1,14±0,07			

	Harakat aniqligi va tezkorligi ballar	17	Tajriba	1,29±0,03	50	-	P > 0,05
5	Arterial bosim, ballar	17	Nazorat	3,0±0,08	139	-	P ≤ 0,001
		17	Tajriba	1,58±0,12			
6	Sportchining funksional holati [SFHI], ballar	17	Nazorat	7,75±0,12	144	-	P ≤ 0,001
		17	Tajriba	5,47±0,18			

O'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijasida Tajriba guruh sportchilarining barcha musobaqa shartlari bo'yicha tajribadan keyingi holat yuzasidan statistik ishonchli o'sish tendentsiyasi sodir bo'ldi. Nazorat guruhida aksincha, boshqacha o'sish tendentsiyasi kuzatildi. Jumladan, nazorat guruhining besh nafar sportchisida tajribadan oldingi holatga nisbatan natijalarning pasayish tendentsiyasi ma'lum bo'ldi. Tezkor nazoratga asoslangan korreksion mashg'ulot yuklamalarisiz tayyorgarligini samarali tashkil etish ilojsiz, bundan tashqari, sportchilar organizmiga maksimal va submaksimal yuklamalarning salbiy ta'siri, atletlar salomatligiga noxush asoratlari bilan sport natijalarining beqarorlashuviga olib keladi. Tezkor nazoratlarning ob'ektiv ma'lumotlariga asoslangan adekvat korreksion mashg'ulot yuklamalarisiz noxush travmatik vaziyatlar, yoki sportni tark etish holatlari sodir bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman, o'tkazilgan pedagogik tajriba, tadqiqot ishchi farazini tasdiqlaydi. Sportchilarining tayyorgarlik jarayonida maxsus tibbiy-pedagogik testlar majmuasi ko'rinishidagi taklif etilgan diagnostik nazoratlarning SFHI lari hisobidan, yaxlit o'quv-mashg'ulot jarayoni va alohida olinadigan trenirovka mazmuniga jismoniy yuklamalarni boshqarishning adekvat korreksion yondashuvlari sabab, sportchilar salomatligini yaxshilash va sport natijalarini oshirish imkoniyatlari hosil bo'ladi.

Tajribaviy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, SFHI ga asoslangan mashg'ulot yuklamalarini korreksiyalash, tezkor nazorat ma'lumotlaridan foydalangan holda sportchi atletlarning tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishning yuqori samaradorlikka ega bo'lgan vositasi hisoblanadi. Taklif etilayotgan korreksion yondashuvga tizimli amal qilish orqali, trenirovkaning vosita va usullarini ratsional rejalashtirish, pauerliftingchilar tayyorgarligini boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek kasbiy kasalliklarni oldini olish va ushbu sport turining fiziologik asoslari yaratiladi.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Башкин В.М. Системный подход к оценке и коррекции тренировочного процесса на основе функционального состояния организма спортсмена: монография / В.М. Башкин. - СПб.: Изд-во Гос. ун-та аэрокосмического приборостроения, 2009. - 108 с.
2. Дальский Д.Д. Некоторые физиологические особенности занятий пауэрлифтингом // Спортивно-оздоровительный атлетизм: сб. науч. тр./ С.-Петерб. гос. ун-т физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта; под ред. Г.П. Виноградова.– СПб., 2006.– С. 15–20.
3. Науменко Э.В. Оптимизация тренировочных нагрузок пауэрлифтеров как профилактика профессиональных заболеваний на основе восстановительных методик/Э.В. Науменко, Л.Н. Платонова, А.Ю. Бутов, Д.Д. Дальский//Теория и практика физ.культуры.– 2012.– №7.– С.62–64.
4. Kadirov R.X., Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi [Matn]: darslik / R.H. Kadirov. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2020. - 184 b.

5. Kadirov R.X., Shukurov R.S. The ways of the activization of the independent works of the students in the educational platform moodle 10.5958/2278 -4853.2020.00152.4. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://tarj.in> 1 AJMR. ISSN: 2278-4853 Vol 9, Issue 5, May, 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882 Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://tarj.in> 2 AJMR. 24-30.
6. Kadirov R. K., Shukurov R. S. The ways of the activization of the independent works of the students in the educational platform moodle //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 27-33.
7. Kadirov R. Kh., Shukurov R.S. Experimental Test Of Effectiveness Of Elektiv Courses In Higher Education. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). ISSN: 2509-0119.2021 International Journals of Sciences and High Technologies <http://ijpsat.ijsht-journals.org>.l. 25 No. 1 February 143 – 151. Impact Faktor: 7.625
8. Pogossov A.V., Ilesnikov O.I. THE CLINICO-DYNAMICS MANIFESTATIONS OF ACUTE ALCOHOL PSYCHOSIS DEPENDING ON A VARIETY OF USING ALCOHOL. Kursk State Medical University Tula Regional Narcological Dispensary3. ВЕСТНИК НОВЫХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ- 2012 – Т. XIX, №4 – С.203.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

PRINCIPLES OF STATE ADMINISTRATION DURING THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURI

Shahobiddin Ziyadullayevich Orozov

Senior teacher of the Samarkand Institute of Economy and Service

Abstract. In this article, the reforms carried out by Amir Timur in the field of public administration, as well as in domestic and foreign policy, made his kingdom stronger in his time. The large-scale reforms being implemented in Uzbekistan can be considered as proof that the experience of the great statesman Amir Timur is used in practice, and the experience of our great-grandfathers is effectively used in the field of public administration.

Key words: principle of government, diplomacy, Timur's rules, fair principles, Timurid state, rules of Muslim jurisprudence, Islamic power, finance, economics, humanitarian law, law and order, justice, discipline, Islamic-sectarian thinking.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA DAVLATNI BOSHQARISH TAMOYILLARI

O'rozov Shahobiddin Ziyadullayevich

Samarqand iqtisodiyot va serviz instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi tamoyili, diplomat, Temur tuzuklari, adolatli tamoyillar, Temuriylar davlati, musulmon fiqhi qoidalari, Islom qudrati, moliya, iqtisod, insonparvar, qonun-qoida, adolat, tartib-intizom, islomiy-mazhabiy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N109>

Kirish. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, ma'naviyati o'zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligiga erishgach, uning bir necha ming yillik ijtimoiy-siyosiy tarixini har taraflama o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur saltanati, uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o'zni masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko'plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar. Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29- dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori, 1995-yil 26-dekabrda esa Prezidentimizning «1996-yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida»gi farmonlari qabul

qilindi. 1996-yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil qilish xususida, «Amir Temur» ordenini taʼsis etish toʻgʻrisida farmonlar chiqdi. YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda kengnishonlandi. 1996-yil aprelida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida «Temuriylar davrida fan, madaniyat va taʼlim ravnaqi» mavzuida ilmiy konferensiya oʻtkazilib, Buyuk davlat arbobining tarixdagi oʻrniga yuksak baho berildi. «Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi. Sohibqiron oʻz poytaxti boʻlmish Samarqandni yer yuzining chinakam madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi. Bu ulugʻ zot qurdirgan meʼmorchilik va xalq sanʼatining javohirlari yangligʻ bugungacha qad koʻtarib turgan osoriyotlar shahar va qishloqlarimiz koʻrkiga koʻrk qoʻshib kelyapti. Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomati, davlatlar oʻrtasida doʻstona munosabatlar oʻrnatilishi va iqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hokimlar, meʼmorlar va shoirlarning buyuk homiysi yangligʻ dong chiqargan»[1].

Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurayotgan xalqimiz Vatanimiz tarixida huquqiy davlat haqidagi tasavvur va qarashlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi, uning yuridik manbalari, dunyoviy huquq va qonunchilik masalalarini ham bilishni istaydi, albatta. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Temur tuzuklari» ni tarixiy-huquqiy tadqiq etish alohida dolzarflik kasb etadi. Zero, oʻtmish merosimiz, uning boy davlatchilik va huquqiy asoslari, xususan, Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qoʻllanilgan adolatli tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda koʻmaklashmoqda. Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar benihoya koʻp va xilma-xil boʻlib, bu uning nomi, jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligi va gʻoyat mashhurligidan dalolat beradi.

Amir Temur, Temuriylar davlati, uning tashkil topishi masalalariga bagʻishlangan, chet ellarda va Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy tahlili ham bir qator olimlarimizning kitoblarida yoritilgan. «Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIII asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoga moʻgʻul hukmdorlari egalik qila boshlashlari oqibatida Abu Nasr Forobiy, Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshgʻariy kabi buyuk mutafakkirlar zakovati bilan tiklangan ilm-fan va madaniyatimiz qoyalari inqirozga yuz tutdi, hukmron mafkura hisoblangan islom dini ham oʻz maqomidan anchagina mahrum boʻldi. Chunki Movarounnahrni oʻz ulusi oʻlaroq tasarrufiga olgan Chigʻatoyxon islom dinining ashaddiy dushmani edi.

Yov asoratida qolgan Movarounnahr xalqi, ozodlik kurashiga shaylanar ekan, koʻksida asrab-avaylab kelgan istiqloq gʻoyasini qudratli kuch va harakatga aylantiradigan maʼnaviy asosni axtardi. Turonliklarning erkka boʻlgan intilish va irodasini tarbiyalagan kuch, avvalo, mashhur ajdodlar vatanparvarligi, soʻngra dini islom va shu yurtda dunyoga kelgan toʻrt buyuk tariqat boʻldi. Moʻgʻullar bosqini arafasida shakllanish bosqichida boʻlgan Futuvvat (javonmardlik, joʻmardlik), Yassaviya, Xojagon (keyinroq Naqshbandiya) va Kubraviya tariqatlari namoyandalari taʼsirida xalq eʼtiqodini poklab, maʼnan oʻzidan ancha quyida turuvchi dushman ustidan ruhiy gʻalabaga erishdi.

Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil boʻladi: 1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb

tushungan. «O‘z tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to‘ra tuzukka bog‘lanmas ekan, - deb ta‘kidlaydi, Sohibqiron o‘zining «Tuzuklari»da, - unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi»[2:79]. Bu bilan u davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi zarurligini ta‘kidlaydi. 2. Amir Temurning qarashlariga ko‘ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to‘la ma‘lumotlarga ega bo‘lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim. 3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yer egaligiga katta e‘tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy yer egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga yer maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko‘zda tutib, o‘zgartirishga harakat qildi. 4. Sohibqiron mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi. 5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e‘tibor bergan. Chunki moliya uning nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.

Amir Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Amir Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o‘z fuqarolariga bo‘lgan rahmdilligi, saxovatidadir. Amir Temur o‘z siyosatida ham adolat, haqqoniylik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o‘z siyosatida haq yo‘lini tanlagan hukmdor bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emas edi. U nimaiki qilsa, shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Bu esa Sohibqironning o‘z piri Abu Bakr Toyibodiyning «rosti-rusti» ya‘ni, «haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan» hikmatini, Ibn Arabshohning yozishicha, Temur o‘z tamg‘asiga muhr sifatida o‘rnashtirgan edi[3:13].

Shunday qilib, Temur ham adolat haqidagi o‘z qarashlarini diniy tamoyillar asosida bayon qildi. Bizgacha saqlanib qolgan yilnomalar va tarixiy manbalarda Temurning dinga munosabati o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Jumladan, islom diniga munosabat tamoyilini ishlab chiqqanligi butun temuriylar uchun dastur vazifasini o‘tadi. Chunki Temur islom diniga davlatni idora qiladigan siyosiy tamoyili yo‘qligi uchun emas, balki uning xalqqa eng yaqin va ma‘qul bo‘lganligi hamda uning insonparvar xususiyati uchun to‘la tayangan.

Temurning siyosiy tamoyili markazida inson turadi. Temur o‘z davrida saltanat manfaatini xalq manfaatiga bo‘ysundira olgan davlat rahbari edi. Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo‘lard. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, XIV-XV asr mutafakkirlari o‘z ijodlari va g‘oyaviy qarashlarida adolatli va ma‘rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib, birlari adolatni ko‘rsatsalar, boshqalari aqlni, uchinchi toifadagilar esa - axloqiy sifatlarni ko‘rsatganlar. Shunisi qiziqarliki, agar ular o‘zlarining «Ideal davlat» nomli g‘oyaviy xayolotini nazariy jihatdan ta‘riflagan bo‘lsalar, XIV asrga kelib, Amir Temur uni amalda qo‘llay oldi va o‘zida buxslat va xususiyatlarni mujassamlashtirgan adolatli hukmdor sifatida maydonga chiqdi. O‘z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temur adolat bayrog‘ini baland ko‘tarib, xalqni quruq qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo‘ysunishga chaqirgan. Chunki Temur insoniy tartib-intizomga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb biladi va shuning uchun ham yomonlikni maqsad qilgan kishilarni jilovlovchi va yaxshilik yo‘lida jafo chekuvchilarni quvvatlovchi har qanday

podsho va hokimga bo'ysunish kerak, deb hisoblaydi. Amir Temur jahonning katta qismini fath etdi, umrining oxirigacha kamtarona amirlik darajasi bilan qanoatlandi.

«Tuzuklar»dan ko'p misollar keltirish mumkin: Ularning nazdida dunyo boyligi emas, inson qadri ustun turgan. Shuning bilan birga, Temur tasavvufning Yassaviya tariqatiga ixlosi baland bo'lganligi haqida ham dalillar bor. Buning sababi bir tomondan «... Yassaviya ta'limoti o'zining mustahkam intizomi, pok islomiy-mazhabiy, irfoniy-tasavvufiy g'oyalari bilan Turkiston xalqlarini mo'g'ullar zulmi va istibdodiga qarshi jipslashtirib tarbiyalab borgan»ligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, Amir Temur Ko'ragon, Xo'ja Ahmad Yassaviyning (1166-1167-yilda vafot etgan) avliyolik martabasidan ma'naviy, ruhiy oziq, kuch olib kelganligidadir. Shuni aytish lozimki, ba'zi olimlar haqli ravishda, Buyuk Temur saltanati - imperiyasining boshqarish qonun-qoidalari Naqshbandiy tariqati g'oyalari bilan asoslangan, deb hisoblaydilar. Temur tuzuklarining vujudga kelishi, kuchli mafkuraviy nazariya hamda boy amaliy tajribalar mahsuli sifatida maydonga kelganligi ko'rsatib o'tiladi. Ana shu tarzda Naqshbandiya tariqati g'oyalari Amir Temur davrida Movarounnahrda va saltanatning boshqa hududlarida kuchli ijtimoiy mafkuraga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada retrospektiv va tizimli tahlil, vorisilik, analiz va sintez, qiyosiy o'rganish, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Amir Temur o'zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk ijtimoiy tizimga aylantirish, farovon hayot qurish maqsadidagina kurashib qolmay, balki bu g'oyalarning butun dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi. U ana shunday maqsadlarda jahongirlik qilgan har bir davlat boshlig'i, asosan, to'rt narsani xotirasida saqlash kerakligini uqtiradi: birinchidan, qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsa, to'g'ri tadbir va kengash bilan ish tutish; ikkinchidan, xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ishni ko'p o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilish; uchinchidan, o'z atrofida aslzoda er yigitlarni (amirlarni) to'plash va birlashtirish; to'rtinchisi, bugungi kunning ishini ertaga qoldirmaslik.

Amir Temur dasturi va siyosiy-huquqiy qarashlarida mukammal jamiyatni orzu qilishdan ko'ra, ko'proq uni amalga oshirish hamda uning mas'uliyatini o'z zimmasiga olish yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun ham Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda va mutafakkir sifatidagi o'ziga xos tomoni shundaki, u o'zi hukmronlik qilgan saltanat (imperiya) timsolida mukammal jamiyatni qurdi va uni har tomonlama mustahkamlashga harakat qildi. Amir Temur siyosiy ta'limotining muhim jihati jamiyatni boshqarishda qonunning ustuvorligi, qonunchilik masalasidir. Temur saltanatini boshqarishning asosiy sharti, qonunning hamma a'mollardan ustunligini tan olish va uning asosiy qoidalarini yaratishdan iborat bo'ldi. Temurning qonun ustuvorligi tamoyili zaruriy shart ekanligi haqidagi xulosasida, qonunning ustuvorligi juda teran qo'yilgan: bu g'oya Sohibqironning ongida Imom Ismoil Buxoriy, Imom Abu Iso at-Termiziy, Forobiy, Taftazoniylarning huquqiy ta'limotlarini, Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya»sini, uning «Muxtasar»ini maktab va madrasada o'rganib, olimlar bilan bo'lgan uchrashuvlarida eshitishnatijasida shakllangan va shuning uchun jamiyatda qonun ustuvorligi masalasiga «Tuzuklar»da keng o'rin ajratgan. Ya'ni «Ulug' bobokalonimiz Amir Temur «qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi», degan gaplarini tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozdirgan edi». Temur davrining mumtoz tarixchilaridan bo'lgan Ibn Arabshoh Amir Temurning fazilatlarini sharhlab: «Temur tengi yo'q fe'l-atvorli,

chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q va (uning) ta'biri tagiga na tekisligu, na g'adir-budur orqali yo'l topiladi», - deb yuksak baho bergan edi[4:71].

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo'lganligi hamda uning sifatlari haqida juda ko'p mualliflar o'z fikrlarini aytganlar. Ammo aynan uni ko'rib, suhbat qilgan kishilar Ibn Xaldun, don Klavixo hamda Temurning maslahatchisi va, ayniqsa, g'arb mamlakatlariga yuborilgan xristian elchisi Ioann Fransiskning, hozirda Parij milliy kutubxonasida saklanayotgan xotiralari, ayniqsa, qimmatli, ishonchli dalildir. «Amir Temur fors, arab va turk tillarini biladi. Qur'on ilmi va Islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki hech bir musulmon olimi u bilan munozara qilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, uning o'zi olim va donishmanddir».

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir. Bu esa xalqimiz kelajagi uchun adolatli turmush tarzi yaratib berish yo'lida qilinayotgan say'-harakatlarning samarasidir.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. Saidov A. Fransuz olimi Amir Temurning siyosiy zakovatiga, diplomatik mahorati va bunyodkorligiga tan bergan.O'zA, 3-oktabr 2018.
2. Темур тузуклари. –Т.: O'zbekiston, 2013. –184 б.
3. Зафар йўли. -Т.: Нур, 1992. –78 б.
4. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. II жилд.-Т.: Меҳнат, 1992.-520 б.
5. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-Т.: Sharq, -2000.-365 b.
6. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. –Т.: O'zbekiston, 2011. - 264 b.

Received: 20 May 2024
Accepted: 30 May 2024
Published: 19 June 2024

Article / Original Paper

USING AUTHENTIC MATERIALS IN ESL CLASSROOM

Muhtshamova Parvina Zahitovna

Uzbekistan State world languages university, Teacher of the Faculty English 3
Department of Theoretical aspects of English № 3

Abstract. This article provides some information about the usage and effectiveness of authentic materials in ESL classroom. By exposing students to a range of linguistic registers, accents, and varieties, authentic materials enhance their overall ability. They facilitate the integration of tasks and skills, mirroring language use in everyday situations. They provide possibilities for authentic assessment and prepare students for settings in both academia and the workplace.

Key words: authentic materials, ESL teaching, diversity, entertainment, real world language, cultural awareness.

ESL DARSLARIDA HAQIQIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Muxtshamova Parvina Zahitovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 3-ingliz tili fakulteti o'qituvchisi
Ingliz tilining nazariy jihatlari kafedrasini № 3

Annotatsiya. Ushbu maqolada ESL sinfida haqiqiy materiallardan foydalanish va samaradorligi haqida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. Talabalarni bir qator til registrlari, urg'ulari va navlari bilan tanishtirish orqali haqiqiy materiallar ularning umumiy qobiliyatlarini yaxshilaydi. Ular kundalik vaziyatlarda tildan foydalanishni aks ettirish orqali vazifalar va ko'nikmalarni birlashtirishga yordam beradi. Ular ishonchli baholash imkoniyatlarini taqdim etadi va talabalarni akademiya ham, ish joyida ham ishlashga tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: haqiqiy materiallar, esl o'qitish, xilma-xillik, o'yin-kulgi, haqiqiy til, madaniy xabardorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N110>

Introduction. Any materials created with an audience and purpose in mind other than language instruction or acquisition qualify as authentic. They often have elements like idioms, slang, humor, dialects, or accents that are not typically found in textbooks or coursebooks, and they reflect how language is used naturally in a variety of contexts and situations. Written, spoken, or visual, authentic content can address a broad range of subjects and genres, including sports, news, entertainment, business, education, and tourism. TV series, news segments, documentaries, online videos, movie trailers and clips, and ads. Podcasts, songs, and radio shows. Ads, artwork, signs, postcards, maps, and photos. Real resources replicate the way people use language in a variety of contexts and environments. [1, 9-12]

Authentic content can include a wide range of topics and genres, including sports, news, entertainment, business, education, and tourism, whether it is written, spoken, or visually presented. Finally, genuine materials are a priceless resource for language learners because they expose them to real-world language use and cultural understanding. However, teachers

need to be mindful of the challenges associated with using genuine materials and ensure that they are used appropriately and effectively in the classroom. Not only are they textbooks, but they are also newspapers, music, and videos—things that people really use. This infuses learning with a cultural flavor that makes it more engaging and applicable. It also gives you more motivation! Envision your pupils engaging with captivating, practical material. It's important to embrace English in all of its varied, everyday splendor rather than only learning it. Real-world language experiences are facilitated and our ESL students are better prepared for them thanks to authentic materials.

Methodology. There are several benefits for both teachers and students when using real materials in ESL instruction. Students' exposure to real-world language use through authentic resources can help them develop their reading, writing, speaking, listening, and other language abilities in a more organic and meaningful way. Additionally, because students may select resources that best suit their requirements, goals, and tastes, they can boost motivation and engagement. Because they provide students with knowledge about the values, beliefs, practices, and behaviors of many English-speaking groups and nations, authentic materials also improve students' intercultural competency and cultural awareness. Finally, they foster students' autonomy and self-confidence by allowing them to access and use authentic materials outside the classroom to practice their language skills in real or simulated situations. [2, 15]

Teaching ESL using real materials opens up a world of benefits for both teachers and students. By immersing students in authentic language environments, these resources improve their writing, speaking, listening, and reading abilities. Customized to each person's interests, they increase motivation and foster intercultural understanding. Furthermore, authentic resources turn the learning process into a dynamic and compelling experience that extends beyond typical classroom limits by encouraging autonomy, confidence, and real-world application.

We should bring authentic materials to the class because: - Learners aspire to acquire language skills for real-life communication and cultural immersion. Utilizing authentic materials enhances their intercultural competence. - Authentic materials are inherently interesting, thereby fostering motivation among students. Learners can easily expose themselves to such materials nowadays thanks to the improved internet access. By incorporating them into the classroom, we can encourage discussions and enhance the learning experience. (Peter S., 1987) This means using authentic materials can keep students well informed about real life and improve intercultural competence. In addition to this teachers can improve students all four skills utilizing authentic material.

Discussion. When selecting authentic materials for ESL teaching, you should take into account several factors such as the level and needs of your students, the purpose and topic of your lesson, and the availability and quality of the materials. It is important to choose materials that are suitable for your students' language proficiency, learning objectives, and interests. You can also adapt or simplify the materials if they are too difficult or complex. Additionally, make sure the materials match the aims and content of your lesson, provide relevant and useful information, vocabulary, or grammar for your students, and are easy to find, access, and use. Lastly, ensure that the materials are reliable, accurate, and appropriate for your students. (Kennedy,1988). In other words, when choosing authentic materials teachers first of all

should pay attention to the level and interest of their students. Of course, material should be related to the topic. [3, 57]

Authentic materials can be used in various ways in ESL teaching, depending on the type, source, format, and activities that are being focused on. For instance, when it comes to listening skills, podcasts, songs, speeches, interviews, or documentaries can be used to give students comprehension, summary, or discussion tasks. To practice reading skills, articles, blogs, stories, reviews, or emails can be used for scanning, skimming, analysis or evaluation tasks. Videos, pictures, charts and maps are great for speaking skills and presentation, role-play or debate tasks. Lastly, forms, surveys, flyers or resumes can be used to practice writing skills through filling, creating or editing tasks. Yule, G. (2010). In my perspective, There are so many ways using authentic materials as mentioned above. Mostly we use newspaper articles in order to give real information and improve student reading skills. Podcasts also a good example that students are using on a daily basis to improve their listening skills.

Results. Teaching ESL with real materials can be lucrative and enjoyable, but it can also be tough. Making the most of these resources requires proper task preparation and advance planning. Prior to using the resources, you should assess and examine them. You should also create directions for your pupils that are precise and unambiguous. Before using the materials, you should also present the subject and make use of your pupils' past knowledge. To keep your students interested and involved, diversity your resources and materials as well. To locate, access, and utilize real materials, you can also make use of online resources and platforms like National Geographic, TED, BBC, CNN, YouTube, and Spotify. Including authentic materials in ESL teaching can be a great way to enhance your students' language skills, motivation, and cultural awareness. These materials create realistic, relevant, and engaging lessons that suit your students' needs, goals, and interests. You can encourage your students to use authentic materials outside the classroom to practice their language skills in real or simulated situations. [4, 29]

Conclusion. To conclude, by using authentic materials you can help your students become more confident, competent, and independent language learners. You can also make a lesson more productive and lucrative.

Литературы/References/Adabiyotlar:

1. <https://www.pearson.com/languages/community/blogs/2023/02/using-real-world-materials-to-teach-english.html>
2. Peter S. - Interaction outside the classroom: leveraging the community. Interactive language learning // New York: Cambridge University Press. - 1987 - S. 170-176
3. Kennedy, C. (1988). Evaluation of the management of change in ELT projects. Applied Linguistics, 9(4), 329- 42.
4. Yule, G. (2010). The study of language. 4th edn. Cambridge: Cambridge University Press
5. Shahnozaxon, M. (2023). URF ODATLARNI INGLIZ TILI DARSLARDA METODOLOGIK O'RGANILISHI TADQIQI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(10), 43-47.
6. Унгбоева, Д., & Джумабаева, Д. (2023). The types of audiovisual authentic materials and their usage in EFL classrooms. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 1(2), 31-37.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).